

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

# HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

---

1, 2, 3-kitoblar

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining  
I, II, III bosqich talabqlari uchun darslik*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

UO'K 811.512.133

KBK 81.2 O'zb

N-71

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

### **Mualliflar:**

**1-kitob — A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA;**

**2-kitob — A. NURMONOV, A. SOBIROV, Sh. YUSUPOVA;**

**3-kitob — A. NURMONOV, N. MAHMUDOV, A. SOBIROV,  
Sh. YUSUPOVA**

Ta'limumning uzviyligi va uzlusizligi amalda bo'lgan bugungi kunda hamma narsadan yangi sifat bosqichlariga o'tish talab etilmoqda. Ushbu «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida aynan mana shu narsa e'tiborga olingan. O'quvchilarning o'z fikrini og'zak'i va yozma ravishda emin-erkin ifodalay olishi, mustaqil fikr bildirishi, bilimli, yuksak salohiyatli, zamонави axborot texnologiyalari hamda chet tillardan xabardor bo'lishi uchun ushbu darslikda zamin yaratishga harakat qilingan.

O'quvchilarga qoliplashtirilgan, me'yorga solingenan, barcha uchun tushunarli va ular tomonidan amal qilishi shart bo'lgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili»ning nazariy va amaliy jihatlari haqida kerakli ma'lumotlar berilgan. Keltirilgan mashqlar tushunarli, mushohadali, sodda va lo'nda tarzda ifodalangan.

Ushbu darslik o'quvchilarning til haqidagi ma'lumotlarini boyitishga, ularning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tagrizchilar:** **D. NABIYEVA** — filologiyə fanlari doktori;

**G. QOBILJONOVA** — filologiya fanlari doktori, dotsent;

**M. SAIDXONOV** — filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

**O. TOJIYEV** — filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

## KIRISH

Til millatning qalbi, uning o'tmishi, buguni va kelajagi sanaladi. Shu ma'noda har bir millatning ona tilisida uning bebafo xazinasi, minglab so'zlar saqlanadi. Bu so'zlarni asrlar davomida xalq yaratadi, unga sayqal beradi, asrab-avaylaydi.

Har bir davrda yashagan xalq vakillari bu so'zlarni e'zozlab, ularga ishlov berib, so'zlar xazinasini boyitib, keyingi avlodlarga yetkazishga mas'uldirlar. Internet ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 6000 dan ortiq til bo'lib, ularning so'z boyligi, leksik-grammatik qurilishi, uslubiy imkoniyatlari darajasi bir xilda emas. Bu borada o'zbek tili dunyodagi eng boy, shirali tillardan biri sanaladi. Bu tilda Mahmud Koshg'ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Ogahiy singari buyuk zotlar barakali ijod qilgan bo'lishsa, Muqimiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriyalar uni yangi pog'onalarga olib chiqishdi.

O'zbek tilining XX asr boshlaridan bugungi kungacha bo'lgan davri «Hozirgi o'zbek tili» deyiladi. Ko'rinish turibdiki, o'zbek tili chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ozarbayjon, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, chuvash, tatar, boshqird, xakas, yoqut singari 30 dan ortiq turkiy tillardan biri sifatida u qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili singari uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarining sa'y-harakatlari bilan XX asrning boshlarida shakllangan hozirgi o'zbek adabiy tili bugun istiqlol sharofati bilan to'lishib, go'zallashib, butun borlig'i bilan ko'z oldimizda namoyon bo'limoqda. Hozirda u dunyodagi boshqa tillar bilan erkin muomala-munosabatga kirishib, ilm-fan, texnika, badiiy adabiyot, rasmiy qog'ozlar tili sifatida tobora rivojlanib bormoqda.

*Aziz o'quvchilar!*

Sizlar umumiyligi ta'limning 5—9-sinflarida «Ona tili» fanining izchil kursi bilan yaqindan tanishgansiz. Sizlarga o'zbek tili

fonetikasi, yozuv, imlo qoidalari, leksikologiya, morfologiya, sintaksis singari til bo‘limlari haqida kerakli ma’lumotlar berilgan. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bir jildda jamlangan uch kitobdan iborat ushbu darslikda esa til bo‘limlari chuqurlashtirilgan, mukammallahsgan holda yangi sifat bosqichida Sizlarga taqdim etiladi.

Muhtaram Prezidentimiz va hukumatimiz bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga juda katta e’tibor bergan holda ularning ham aqlan, ham jismonan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishlari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Buning uchun yoshlardan o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda emin-erkin ifodalay olish, mustaqil fikr bildirish, bilimli, yuksak salohiyatlari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda chet tillardan xabardor bo‘lish tabab etilmoqda. Bunda Sizlarga «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» yaqindan yordamga keladi.

Ma’lumki, «Hozirgi o‘zbek tili» va «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» tushunchalari mavjud. Ularning birinchisi ikkinchisiga nisbatan keng ma’noda ishlataladi, oddiyligi, har doim ma’lum me’yorlarga amal qilavermasligi, erkinligi bilan ajralib turadi va amalda mavjud bo‘lgan barcha shevalarni, lahja hamda dialektlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu bois, u og‘zaki so‘zlashuv tili deb ham yuritiladi. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» qoliplashtirilgan, me’yorga solingan, barcha uchun tushunarli va ular tomonidan amal qilishi shart bo‘lgan xalq tili shakli sanaladi.

Adabiy tilning nutq madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan og‘zaki va yozma shakllari bor. O‘z fikrini chiroyli, tushunarli, sodda va lo‘nda qilib ifodalash uchun adabiy tilni bilish shartdir. Ushbu kursda o‘quvchilar «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»ning aynan mana shu jihatlarini mukammal o‘rganadilar.

Qadrli o‘quvchilar! Sizlarga til ilmini o‘rganishda omad yor bo‘lsin!

# **HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

*I - KITOB*

# TAKRORLASH

---

## 1-DARS. FONETIKA YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida fonetika yuzasidan hosil qilingan bilim va malakalarni mustahkamlash;
- o'quvchilarni vatanparvarlik, ona yurtiga muhabbat ruhida tarbiyalash.

### ?

#### **Takrorlash uchun savollar**

- Fonetikada nimalar haqida bahs yuritiladi?
- Unli tovushlar deb nimaga aytildi?
- Undosh tovushlar qaysi jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi?
- Lab undoshlari qaysilar?
- Til oldi, til o'rta, til orqa va chuqur til orqa undoshlari qaysilar?
- H undoshiga tavsif bering.
- Jarangli va jarangsiz undoshlarni sanab ko'rsating.
- Portlovchi va sirg'aluvchi undoshlar qaysilar?
- Bo'g'in deb nimaga aytildi?
- Urg'u haqida gapiring.

**I-mashq. Matnni o'qing. Bugungi ijtimoiy hayotimiz va unda ona tilining tutgan o'rni haqida fikr yuriting. Tilning jamiyat va shaxs takomilidagi o'rnini belgilang.**

**BUYUK VA MUQADDASSAN, MUSTAQIL VATAN!**

1991-yilning 31-avgust kuni Toshkentda Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning Davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Tegishli qarorga muvofiq, O'zbekiston SSR O'zbekiston Respublikasi deb qayta nomlandi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb e'tirof etildi.

Bu kunni tarixga oltin harflar bilan yozib qo'ysak arziydi. Negaki, shu kuni o'zbekning cho'ng bag'riga shamol tegdi. Ota-bobolarimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi. Ona tilimiz va milliy qadriyatlarmizning rivoji, o'zbek davlatchiligining takomili uchun keng istiqbol yo'llari ochildi.

O'tgan yillarda mobaynida mustaqilligimiz sharofati bilan o'z bayrog'i-mizga, gerbimizga, madhiyamizga ega bo'ldik. O'zbekiston BMT va jahondagi bir qator nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o'zgardi. Muhimi, odamlarimizning ma'naviy va maishiy hayotida yangilanish, yosharish davri boshlandi.

Buyuk erk kuychisi Abdulhamid Cho'lpou:

*Turonlik — unvonimiz, turkistonlik — shonimiz,  
Vatan — bizim jonimiz, fid o'lsun qonimiz,*

deb yozganida yuz foiz haq edi.

Darhaqiqat, mana shu gullayotgan, yosharayotgan yurt uchun jonimiz nisor. Endi uni hech kimga, hech qachon berib qo'yaymiz, chunki biz sherlar o'lkasi turonlik — turkistonlikmiz.

Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!

**2-mashq. Hadislarni o'qing. So'zlar tarkibida kelayotgan unli tovushlarni belgilab, izohlang.**

Kishi badanida bir parcha go'sht bor. Agar u tuzalsa, a'zolarning barchasi tuzalgaydir, agar u buzilsa, a'zolarning barchasi buzilgaydir. U qalbdir.

Uch xislatni o'zida mujassam qilgan kishining imoni mukammal bo'lg'aydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa bermoq.

Rasulullohdan bir kishi so'radi: «Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?» Dedilar: «Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik. Hayo imondandir.»

**3-mashq. Tez aytishlarni mashq qilib ko'ring. So'zlar tarkibida kelayotgan bir xil undosh tovushlarni belgilab, ularga tavsiif bering.**

Zanjir, sarjin, anjir.

Bir juft cho'p ko'pmi, qo'sh just cho'p ko'pmi?

Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?

Bir ayvoncha, ayvoncha labida hovuzcha, hovuzcha labida hovoncha, hovoncha ichida bir hovuchcha dovuchcha bor.

Elchin bilan Yo'lchin temiryo'lchi,

Temiryo'lchilarga yetib ko'r-chi?!

Qutlug' quritgan urug' Ulug' quritgan urug'dan quruqrqoq.

Bashar bilan Yashar yashil yarimsharda yashashar.

**4-mashq. Matnni o'qing. Unli tovushlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.**

Yurtni yov bosganda mardlar sinovdan o'tadi. Yurt darvozasini qon kechib himoya qilganlar yurting asl suyanch tog'i bo'ladi. Ularning ortlarida faxr qoladi. Avlodlar ular nomini bayroqni o'pgandek asrab-avaylaydilar. Ular ko'rsatgan qahramonlikka ixlos qiladilar, chunki ular Vatanga ruhi bilan qorishib ketganlar. Vatan deb yashaganlar nomi aziz va mangudir!

Farzandlari kuchli davlat hech kimning oldida bosh egmaydi.

Farzandlari yo‘ldan adashib ketgan davlatning qal’alari nuraydi, darvozalarining taqalari omonat turib yig‘laydi.

Yov kelganda qochganlar dinsiz, dilsizdirlar. O‘z jonini asrab kovaklarga berkinganlar imonsizdirlar!

O‘zbek degan buyuk millat bu kabi bedin, xoin bolalarni dunyoga bermagay! Shiroqlarni, To‘maris-u Namoz polvonlarni bergen el, yetmish ikki tomiri «Ozodlik» deb uzilgan millatparvarlarni bergen yurt bu.

Ey, yosh yurtdoshim! Vatanga sadoqating — Vijdoningga sadoqatingdir! Zero, «Vatanni himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Ona-Vatan esa sen tug‘ilgan uy, unda qolgan ota-onang, tug‘ishganlaring, yor-u birodarlarling demakdir».

(G. Asqarova)

**5-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Undosh tovushlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.**

Ilm egallashga harakat qilish har bir mo‘min va mo‘mina uchun farz. Hadisda aytishicha, bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ro‘zadan afzaldir.

Ilm ikki xil bo‘ladi: biri — qalbdagi ilm, ikkinchisi — tildagi ilm. Mo‘min-musulmon kishi o‘zi bilim olgach, uni boshqalarga ham o‘rgatishi, ilm-ma’rifat tarqatishi lozim. Ilmni o‘rganib, so‘ng uni boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki mol-u dunyoni yig‘ib, uni sarf qilmay ko‘mib qo‘yish bilan barobardir.

Lekin, ilm olish ko‘r-ko‘rona bo‘lmasligi kerak. Duchi kelgan narsani o‘rganaverish yaramaydi. Yana, ilmga qiziqmagan kishilarga ilm o‘rgatish ham shart emas. Ajodolarimizdan bir ulamo aytgan ekanlar: «Ilm o‘rgan, u sening yoshlik paytlaringda to‘g‘ri yurishingni ta‘minlaydi. Katta bo‘lganingga buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sabablardan bo‘ladi. Ilm doim sening hamrohing bo‘lib, adashishingdan va qoqilishingdan saqlaydi, dushmanlaringni mag‘lub qiladi». Har bir ilmning o‘z sharafi va ulug‘ligi bor. Xoh diniy, xoh dunyoviy ilm (kimyo, jug‘rosiya, aljabr, tibbiyot va h.k.) bo‘lsin, hammasining o‘z o‘rni, o‘z ahamiyati bor. Barcha ilmlarni mukammal egallab olishning iloji yo‘q, shuning uchun ham eng kerakli, hayotda asqatadigan, e’tiqodga xizmat qiladigan ilmlarni o‘rganish maqbul.

(Bobolarimizning o‘gitlaridan)

## **2-DARS. LEKSIKOLOGIYA YUZASIDAN O‘TILGANLARNI TAKRORLASH**

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida leksikologiya yuzasidan hosil qilingan bilim va malakalarni mustahkamlash;
- o‘quvchilarni insonlarga muhabbat, o‘zidan boshqalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

## ❓ **Takrorlash uchun savollar**

1. Leksikologiya nimalarni o‘rganadi?
2. So‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llari qaysilar?
3. Shakldosh, ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlarga misollar ayting.
4. Atama deb nimaga aytildi?
5. Shevaga xos so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytildi?
6. Eskirgan va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar ayting.
7. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari qaysilar?
8. O‘z va o‘zlashgan qatlam haqida gapirib bering.

**6-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘zlarni ma’no va shakl munosabatiga ko‘ra tahlil qiling.**

Achchiqni achchiq kesar. Birikkan kuch — kuch, birikmagan kuch — puch. Do’st achitib gapirar, dushman kuldirib. Chayonning kasbi chaqish. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. Yaxshi do’stning qo‘li hamisha ochiq. Shirali dasturxonga pashsha ko‘p yopishadi. Eng yaxshi axloqiy va estetik dori — mehnat. Ishlagan tishlaydi, ishlagagan kishnaydi.

Fiksiz aqlning zangi bo‘ladi,  
Ilm-la egovla, yangi bo‘ladi,  
Oynadan ibrat ol, bir kun artmasang,  
Ustida bir enlik changi bo‘ladi.

(Abdulqodir Bedil)

**7-mashq. She’rni o‘qing. Ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni topib, ularga izoh bering.**

Alp o‘g‘lonlar o‘lkasi bu Ko‘hna Turon,  
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang,  
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,  
Alisherning avlodlari, ilm istang!

Taxtdan tushganda ham, otdan tushmay yurgan  
Ajodingiz uy ko‘rmagan — Davlat ko‘rgan.  
Yurti uchun yelkasida tog‘lar surgan  
Rustamlari, Farhodlari, ilm istang.

Ko‘z ochganda kelib yetti bahri ummon,  
Yetti tilda so‘zlashgan biz tili biyron.  
Vatanida Tojmahallar tiklar sulton —  
Boburlari, Behzodlari, ilm istang.

Haq yo‘lida Siz ilmning ummatlari,  
Xalq yo‘li hidoyati, hikmatlari.  
Madad bo‘lsin Yassaviyning hikmatlari,  
Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang.

Alp o‘g‘lonlar o‘lkasidir O‘zbekiston,  
Erkli elning qanotlari, ilm istang.  
Yarim jahon buniyod etgan Sohibqiron,  
Alisherning avlodlari, ilm istang.

(*Muhammad Yusuf*)

**8-mashq.** Uyga vazifa. Hikmatli so‘zlarni ko‘chirib yozing. Ularda  
ilgari surilgan g‘oyani aniqlang. Ko‘chma ma’nodagi so‘zlarga izoh bering.

Tilingni so‘zlashga soz, muhayyo qil,

Tilingni o‘q qil-u, aqlni yoy qil.

(*Abulqosim Firdavsiy*)

Ma’naviyat olamida dur terdik, Mayoq bo‘lib yo‘lsizlarga yo‘l berdik.  
(*Iqbol Mirzo*) Eng yaxshi nizom to‘g‘rilikdir. (*Kaykovus*) Insonning qiymati  
emas siym-u zar, Insonning qiymati ilm ham hunar. (*Abdulqodir Bedil*)  
Yolg‘on doim rostdan yengiladi. U xuddi suv yuzasidagi ko‘pikday yo‘q  
bo‘lib ketadi. (*Abu Rayhon Beruniy*) Ilmdan yaxshiroq xazina bo‘imas,  
Qo‘lingdan kelgancha tera olsang bas. (*Rudakiy*) Bor borini yeydi, Uyatsiz  
orini yeydi. (*Maqol*)

### **3-DARS. GRAMMATIKA YUZASIDAN O‘TILGANLARNI TAKRORLASH**

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida grammatika yuzasidan hosil  
qilingan bilim va malakalarni mustahkamlash;
- o‘quvchilarni ota-onaga, oilaga muhabbat ruhida tarbiyalash.

#### **• ? *Takrorlash uchun savollar***

1. Ot so‘z turkumi haqida gapirib bering.
2. Sifat so‘z turkumiga xos belgililar qaysilar?
3. Son deb nimaga aytildi?
4. Olmosh haqida so‘zlab bering.
5. Fe‘l qanday grammatic belgilarga ega?
6. Ravish deb nimaga aytildi?
7. Yordamchi so‘z turkumlari qaysilar?
8. So‘z birikmasi haqida gapirib bering.
9. Sodda gapga misollar keltiring va izohlang.
10. Qo‘shma gapga ta’rif bering.

**9-mashq.** Hadislarni o‘qing. Gaplar tarkibidagi so‘zlarni so‘z turkumlari  
bo‘yicha tahlil qiling.

Inson o‘z ota-onasiga mehribon va itoatkor bo‘lmog‘i lozim.  
Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmagaydir.

Kimki rizqim ulug‘, umrim uzoq bo‘lsin desa, qarindosh-urug‘lariga mehr-oqibatli bo‘lsin. Kimki rahmdillik qilmas ekan, rahmdillik ko‘rmagay. Qo‘pol, quruq, gerdaygan, beqanoat va dimog‘dor odam ahli do‘zaxdir.

Badgumon bo‘lmanglar, badgumonlik eng yolg‘on so‘zdir. Tirnoq ostidan kir qidirmanglar, gap poylamanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizdan arazlamanglar va nafratlanmanglar. Aka-uka tutinib, Ollohnning (solih) bandalari bo‘linglar. Mol-dunyosi ko‘p odam badavlat emas, balki nafsi to‘q odam badavlatdir. Beshikdan qabrgacha ilm izla. Vatanni sevmoq imondandur.

### **10-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘zlarning qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlang va izohlang.**

Kamolotga intilmagan xalq xalq emas. Xalqni aldab bo‘lmaydi. Xalq hamma narsani biladi. Millatni sevmoqlik — baxt, kurashib yashamoq — saodat. (*Azim Suyun*) Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurban bo‘lishga tayyor ekanliklarida aks etadi. Kimning ishi bo‘lsa aqliga payvand, hayotda hech qachon u yemaydi pand. So‘zni ko‘nguldan chiqarmaguncha tilga keltirma va har nekim ko‘ngulda bor — tilga urma. (*Alisher Navoiy*) Bilim, ma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim. (*Abu Nasr Forobiy*) Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. (*Abu Rayhon Beruniy*) Ilm qog‘ozga chizish va yozish bilan emas, balki uqmoq va o‘qimoq bilandir. (*Zamaxshariy*)

O‘z tilini unutgan xalqning  
Bog‘larida o‘sgan gullarin  
Chirmab uxlar zaharli ilon.  
O‘z tilini unutgan xalqning  
Osmonida porlamas quyosh —  
Nur o‘rnida to‘kiladi tosh.  
O‘z tilini unutgan xalqning  
Uyqusida aslo orom yo‘q —  
Tegib turar kuragiga o‘q.  
O‘z tilini unutgan xalqning  
Mozorida ajdodlar qabri  
Uzra qo‘yar bolalar tikan.

(*Xurshid Davron*)

### **11-mashq. Qatra handalarni o‘qing. Gaplarni sintaktik tahlil qiling.**

- Nasihat nima?
- Ham malham, ham zahar.
- Nima uchun?
- Me’yorida bo‘lsa tuzatadi, agar oshib ketsa zaharlaydi.
- O‘qituvchi:
- Qani, terlatadigan vositalarni sanab bering-chi?
- O‘quvchi:

- Birinchisi — bu sizning savolningiz, domlajon.  
 Revmatizm bilan kasallanib, shifoxonada yotib chiqqan ota uyiga kelgach, dedi:  
 — Mana, endi men butunlay sog‘ayib ketdim — revmatizm balosidan qutuldim.  
 — Iya, bizga endi ob-havoni kim oldindan aytib beradi, — dedi o‘gil.  
*(«Gulxan» jurnalidan)*

### **12-mashq. Maqollarni o‘qing, yod oling. So‘zlarni turkumlarga ajrating.**

Mehnat — hayot tomiridagi qon.  
 Bugungi mehnat — ertanig rohati.  
 Mehnatni hurmatlasak, u bizni e’zozlaydi.  
 Inson mehnat bilan ulug‘lanadi.  
 Baxtning kaliti mehnatning cho‘ntagida.  
 Bog‘-u bo‘stonlar — mehnat mahsuli.  
 Gul uzishdan oldin gulzor yaratadilar.  
 Mehnatkash odam fisq-fasod gaplarni bilmaydi.  
 Mehnat odamni hayot qiyinchiliklaridan qutqaradi.  
 Yalqovlik bor yerda ko‘z bo‘yash bor.  
 Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir.  
 Mashaqqatning mahsuli farog‘atdir.  
 Odam mehnatini yoysa, mehnati uning shuhratini yoyadi.  
 Odam bahosizdir, ammo uni mehnati baholaydi.  
 Mehnat — yo‘qchilikning kushandası.  
 Mehnat orom berib uxlatadi, kamchilik esa chimchilab uyg‘otadi.  
 Mehnatning ko‘zini topgan, rohatning o‘zini topadi.  
 Mehnat — hayot ziynati.

### **13-mashq. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini yodga oling. Undan parcha ko‘chirib, so‘zlarni so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil qiling.**

#### **14-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing, gaplarni sintaktik tahlil qiling.**

Ota-bobolarimiz, momolarimiz bizga yoshligimizdanoq ozodalik, pokizalik, saranjom-sarishtalik, halollik va harom-xarish haqida yetarli tushunchalar, ma’lumotlar berib, ularni imkoniyat darajasida o‘ziga xos pand-u nasihatlar bilan ongimizga singdirishga uringanlar. Eng asosiysi, bu borada o‘zları betakror ibrat namunasini ko‘rsatishgan. Axir, qush inida ko‘rganini qiladi deb, bejiz aytishmagan. Mana, ulardan bizgacha yetib kelgan ibratomuz pand-u nasihatlardan ayrim namunalar: «Boلام, ариқдан оғайотган сувга асло туплама, ахлат ташлама, гунохи азим бо‘лади»; «Ноннинг увог‘ини оyoqosti qilma, toptama, ko‘zing ko‘r bo‘lib qolishi mumkin»; «Остонаси саранjom-sarishta joyda farishta bo‘лади»; «Уйингни ozoda, pokiza saqlayman desang, ostonangni ozoda tut»; «Onangni otangga bepardoz ko‘rsatma» va shu kabilar.

# HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI TA'LIMI ASOSLARI

## 4-DARS. DUNYO TILLARI TIZIMIDA O'ZBEK TILINING TUTGAN O'RNI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida o'zbek tili va uning boshqa tillar orasida tutgan o'rni yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni ona tiliga hurmat, uning qadr-qimmati uchun kurashtish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** «Ona tilim — jon-u dilim» maqolining ma'nosini tushuntirib bering.

**2-topshiriq.** Qanday tillarni o'rganyapsiz? Ularni o'rganishning siz uchun qanday ahamiyati bor?

Hozirgi kunda yer yuzida o'n milliarddan ko'proq aholi yashaydi. Agar siz Toshkentdan poyezdga o'tirib Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo'lingizda qozoq, tatar, boshqird, rus, belorus, major (venger) singari tillarda so'zlashuvlarni eshitishga musharraf bo'lasiz. Eshitish jarayonida ayrimlarining ona tilingizga qandaydir yaqin, shu bilan birga, nimasi bilandir farqli ekanligini, ayrimlarining esa tamomila boshqa, yaqin jihatlari umuman yo'qligining guvohi bo'lasiz.

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar **qarindosh**, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lмаган tillar esa **qarindosh bo'lмаган** tillar hisoblanadi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qorachoy-bolqor kabi tillar qarindosh tillar sanaladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir bobo tildan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham dunyo tillari qarindoshligiga ko'ra til oilalarining nomlari bobo til nomi bilan yuritiladi. Masalan, slavyan tillari oilasi, german tillari oilasi, roman tillari oilasi, eroniylar tillari oilasi, somiy tillari oilasi, turkiy tillari oilasi va boshqalar.

Bu til oilalarining har qaysisi o'z ichida yana kichik guruhlarga bo'linadi. Xususan, turkiy tillari oilasi qipchoq tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi, qorluq tillari guruhiga bo'linadi. O'zbek va uyg'ur tillari qorluq guruhiga; qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash kabi tillar qipchoq guruhiga; ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari esa o'g'uz guruhiga kiradi.

👉 **Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillarning qorluq guruhiga mansubdir.**

**15-mashq. Gaplarni o‘qing. Turkiy tillar oilasi haqida fikr yuriting.  
Unda o‘zbek tilining tutgan o‘rnini belgilang.**

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so‘zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit’alarida istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, qoraqlapqoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qora-choy-bolqor, qo‘miq, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqt, chuvash va boshqalar.

Turkiy tillar agglutinativ tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma’no alohida qo‘sishimcha yordamida ifodalanadi. Qo‘sishimchalar asosan o‘zakdan keyin qo‘shiladi. Masalan: lit-sey + dosh + lar + im + ga.

**16-mashq. Turkiy tillar oilasi haqida bahs uyshtiring.**

**17-mashq. Yozuvchi A.Ibrohimovning «Biz kim, o‘zbeklar...» asaridan olingan parchani o‘qing, daftaringizga ko‘chirib oling. Dunyo va o‘zbeklar mavzusi bo‘yicha savol-javob uyshtiring.**

«Biz kim, o‘zbeklar ko‘pni ko‘rgan, o‘z boshidan ne-ne kunlarni, ne-ne tarixiy sinovlarni o‘tkazgan, shonli o‘tmishiga, qadim-qadimdan o‘z davlatiga ega bo‘lib kelayotgan xalqmiz.

O‘zbeklar uchun milliy qiyofamiz, qadriyatlarimizni, tilimiz, adabiyotimiz, dinimiz va shu kabilarni himoya qiladigan yakkay-u yagona maskan — bu O‘zbekiston Respublikasidir.

O‘zbek xalqining ichi to‘q, baquvvat, tagli-tugli, palagi toza. O‘zbeklarning tafakkur ummoni buyukdir. So‘zimizda, so‘zlarimizda shu ummonning tomchilari ifodalanadi, ummonimiz bemisil bo‘lgani uchun ham so‘zlarimiz ko‘p. Millionlab xalqni birlashtirgan omillardan biri millatimizning ma’naviy belbog‘i — ona tilimizdir.

Biz kim, o‘zbeklar asta yig‘lab, barala kuladigan xalqmiz.

Xalqimizning habibligi shundaki, u irq-u millat ajratmay, banibasharni birday sevadi».

**18-mashq. Jahoning ko‘zga ko‘ringan yozuvchilari tomonidan ishlataligan so‘zlar miqdorini solishtiring. Tilning boyligi undagi so‘zlarning barcha sohalarda ishlatalishida ekanligini tushuntiring.**

Alisher Navoiy	26035 ta,
Aleksandr Pushkin	21193 ta,
Uilyam Shekspir	20000 dan ortiq,
Migel de Servantes	18000 dan ortiq,
Abdurahmon Jomiy	17600 ta,
Abdulla To‘qay	14000 dan ortiq.

## O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMINING BERILISHI VA BUNING TARIXIY AHAMIYATI

Sobiq Sho'rolar Konstitutsiyasida Ittifoqdagi barcha elat, xalq, millatlar va ularning tillari teng huquqli ekanligi ta'kidlangan bo'lsa ham, lekin amalda rus tili davlat tili edi. Barcha ish qog'ozlari, pochta, telegraf ishlari, turli darajadagi yig'ilishlar, qurultoylar, simpoziumlar rus tilida olib borilardi. Rus tilini bilmaydigan shaxslar uzoqdagi qarindosh-urug'lariga, tanishbilishlariga oddiy bir telegramma ham jo'nata olmas edilar. Bunday holat rus tilidan boshqa tillar qo'llanish doirasining cheklanishiga olib keldi va bu til vakillarining haqli ravishda noroziligiga sababchi bo'ldi.

1988-yildan boshlab o'zbek ziyyolilari ham matbuotda o'zlarining qator maqolalari bilan tilimiz haq-huquqini tiklash, uni davlat tiliga aylantirish muammosini ko'tarib chiqdilar. Bu masalaga bag'ishlangan bir qancha anjumanlar bo'lib o'tdi. Nihoyat, 1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tili O'zbekistonning Davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. Buning natijasida o'zbek tili respublikamizda o'tkaziladigan oliy darajadagi davlat anjumanlarida ham qo'llaniladigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Ana shu nuqtayi nazardan bu qonunning tarixiy ahamiyati kattadir.

«Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingandan ikki yil vaqt o'tgach, respublikamiz hayotida katta o'zgarish ro'y berdi. Ajodolarimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. Mustaqillik qo'lga kiritildi. Dunyoning bir yuz yigirmadan ortiq davlati mustaqil respublikamizni rasman e'tirof etdi va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Qisqa muddat ichida respublikamizning jahon hamjamiyati o'rtasidagi obro'-e'tibori oshdi. O'zbek degan millat va uning milliy tili jahon jamoatchiligining diqqatini tortdi.

Ana shunday sharoitda mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonunning ko'p moddalarini o'z kuchini yo'qtdi yoki tahrirtalab bo'lib qoldi. Shuning uchun ham amaldagi Qonunni isloh qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Natijada 1995-yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi «Davlat tili haqida»gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.

Yangi tahrirdagi Qonunning muhim jihatni shundaki, unda o'zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqeyi hisobga olindi. Bu Qonunda O'zbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati o'zining aniq ifodasini topdi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu narsa respublika hududidagi boshqa tillarning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Bu esa yangi Qonunning naqadar xolis ekanligini ko'rsatadi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

## DAVLAT TILI HAQIDA

(*Yangi tahrirda*)

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq uduumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rghanish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zikh yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lif olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliv ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarни joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon qilinadi. Muayyan millat vakillari zikh yashaydigan

joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

**9-modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zları tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**10-modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarda ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda, boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11-modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagি ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolarini taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda — boshqa maqbul tilda beriladi.

**13-modda.** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

**14-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

**16-modda.** Televiedenie va radioeshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modda.** Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra — boshqa tilda amalga oshiriladi.

**19-modda.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alar, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alar, ish qog'ozlarining matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

**20-modda.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiy lashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

**21-modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22-modda.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modda.** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqilanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lif olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**19-mashq.** O'zbek xalqi haqida aytilgan quyidagi fikrlarni o'qing, daftaringizga ko'chirib oling. O'zbeklar va ularning tili, bu tilning jahon tillari orasida tutgan o'rni to'g'risida fikr yuriting.

O'zbek — jahon xalqlari orasidan birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlar o'rtaida esa eng oldin o'troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millatdir. («Jahon gomusiy lug'ati»)

O'zbek o'g'lonlari botir bo'lur. (*Abdurauf Fitrat*) Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rinn tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rinn egallaydi. (*Chingiz Aytmatov*) O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon: u yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsada, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir. (*I. A. Karimov*)

**20-mashq.** E. A'zamovning «Bayramdan boshqa kunlar» qissasidan olingen parchani o'qing. Asar qahramonlaridan sanalgan Safuraning tilidagi parazit so'zlarga e'tibor bering. O'zbek tilini buzib gapirayotgan tengdoshlarining nutqidagi mana shunday salbiy ko'rinishlarni topib, bu haqda bahs yuriting.

«Uning fe'liga tushunish, ko'nglidagini payqash — bamisol yangi tug'ilgan chaqaloqning hayotini bashorat qilmoq bilan barobar. Ta'btabiatni ko'klam na'malarining o'zginasi: bir qarasangiz, quyoshdek charaqlagan, xiyol o'tmayoq jala, shafqatsiz bo'ron. Shundayinki, bir gap bilan osmondagи yulduzni olib kelib balchiqqa uradi, balchiqda yotgan qurbaqadan esa hayratomuz joziba topib, uni ko'kka chiqarib qo'yadi. Bir og'iz gap bilan, lekin koshki odamga o'xshab gapirs! U deyarli o'zbekcha so'zlamaydi. Sirasi ruscha ham so'zlamaydi. Uning o'zi o'ziga to'qib olgan

bo'lakcha tili bor. Umuman, ko'p gapirib og'zini charchatmaydi. Demoqchi bo'lgan fikrini biron bitta alomatroq so'zga jamlab qo'ya qoladi. Xuddi mashhur «O'n ikki stul»dagi tantiq Ellochkaga o'xshab. Masalan: «bravo», «ujas», «genialno», «shik», «se iya vi», «chi gap», «oybay», «salut», «chao», «okey» va hokazo. Bu baynalmilal — qurama so'zlarni u doimo xitob bilan, ohangini keltirib talaffuz qiladi. Siz o'zbekcha gapiravering, u ana shu «til» da javob qaytaraveradi».

**21-mashq.** E. A'zamovning «Bayramdan boshqa kunlar» qissasidagi Safuraning nutqidan olingan ikki xil holatni o'qing va ularni bir-biriga solishtiring. O'zbek adabiy tilini buzuvchilar haqida yuriting.

«...Hello-o! BB larga (Bakir bilan Bargida demoqchi) salut, deb qiyqiradi u telefondayoq: ismlarini to'liq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikkamikin? So'ng betakkallufona so'rashuvga o'tadi:

— Qalaysan, bolakay? Shik! Ya rada. Jonginang uydami? Chaqirchi... Bargi-sha! Znayesh ya vchera... kimni ko'rdim, top-chi?!

— Shu qiz o'zbekcha gapniyam biladimi sira? — dedi bir galgi telefonbozlikdan so'ng Bakir ensasi qotib.

— Nimaga bilmas ekan o'zbek-u! — dedi yelkasini qimtib Bargida.

— Men haliyam uni chulchut deyayotganim yo'q, lekin chala-chulpa qilib gapiradi-da! Oliftagarchilikkadırda-?!?

— Yaxshi-da, hamma tildan xabardor.

— Ona tilidan boshqa hammasini biladi, deng!

... U xuddi o'ziga o'zi gapirayotgandek yoki Munkar-Nakir huzurida istig'for keltirayotgandek, odam yolg'iz qolganda ichida bo'lsin e'tirof etmoqqa iymanadigan achchiq haqiqatlarni ham ro'yirost, yashirmay-netmay shafqatsizlik bilan aytib nola qilardi. Bakirni battar hayratga solgani — Safura biron ta qilishi begona so'z qo'shmay, sof o'zbek tilida so'zlardi, ta'sirli so'zlardi. Balodek! Tili uzilib tushgani yo'q. Ona tili shunday vaqtida kerak bo'lar ekan, Safuraxon! »

**22-mashq.** «Men nechun sevaman O'zbekistonni?», «O'zbegim», «Dunyo», «Sohibqiron» kabi qo'shiqlarni qo'yib eshititing. O'zbekiston xalqlari, ularning tili, o'tmishi, buguni va kelajagi haqida gaplar tuzing, bahs yuriting.

**23-mashq.** She'rni o'qing. Ona tilini ulug'lovchi she'rlar, hikmatli so'z va maqollarga misollar topib, ularni izohlang.


## ONA TILIM

Ming yildirki, bulbul kalomi,  
O'zgarmaydi — yaxlit hamisha.  
Lekin sho'rlik to'tining holi,  
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

(*Abdulla Oripov*)

**24-mashq.** Uyga vazifa. Ma'lumotnomani daftaringizga ko'chirib oling. Yana qanday ish qog'ozlarini bilasiz? O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganidan so'ng ish qog'ozlariga e'tibor qanday bo'ldi? Shu haqda fikr yuriting.



## MA'LUMOT NOMA

Ushbuni ko'rsatuvchi Zulayho Abdulahatovna haqiqatan ham Guliston davlat universiteti qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich «A» guruhida tahsil oladi.

Ma'lumotnomma Sirdaryo shahar hokimligiga ko'rsatish uchun berildi.

Litsey direktori

*T. QO'LDOSHEV*

### ***Topshiriqlar***

1. O'zbeklarning qayerlarda istiqomat qilishi haqida so'zlab bering.
2. Ona tili tushunchasiga ta'rif bering.
3. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning tarixiy ahamiyati haqida so'zlab bering.

## **5-DARS. «KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI»DA HOZIRIGI O'ZBEK ADABIY TILI TA'LIMINING TUTGAN O'RNI**

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida jamiyat va unda tilning tutgan o'rni haqida bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni bugungi hayotinizda, turmushimizda bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan hozirjavoblik, tadbirkorlik ruhida tarbiyalash.

✓ ***Topshiriq.*** Olibmen taxti farmonimg'a oson,  
Cherik chekmay Xitudin to Xuroson...

(*Alisher Navoiy*)

Yuqoridagi gapdan hozirgi o'zbek adabiy tilidan farq qiluvchi o'rirlarni toping va ularni izohlang.

Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilanoq, respublikamizda yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi, chunki yoshlar bizning ertangi kunimiz. Istiqlolimiz, istiqbolimiz shularning qo‘lidadir.

Yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo‘lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. Ana shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimini isloh qilishga alohida e’tibor berilmoxda. Bu borada Oliy Majlisning IX sessiyasida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta’lim tizimida keskin buri-lish yasadi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da umumiyl o‘rta ta’limdan so‘ng akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta’limning alohida, uzlusiz, jahon andozalariga mos keladigan zamonaviy bir bosqichi sifatida ajratiladi.

Dasturda ta’kidlanishicha, akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqlashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydi.

Yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish hozirgi ta’lim tizimimizning bosh maqsadidir. Muhtaram Prezidentimiz, agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’limning samarasini past bo‘lishi muqarrarligini, mustaqil fikrlash ham katta boylik ekanligini ta’kidlaydilar.

Tafakkur bilan til, erkin fikrlash bilan erkin so‘zlash o‘zaro uzviy bog‘liqidir, chunki fikrimizni shakllantiruvchi va ro‘yobga chiqaruvchi qudratli vosita — bu tildir. O‘z fikrini ravon, go‘zal va aniq ifoda etadigan yoshlarni tarbiyalash «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning bosh maqsadidir.

Shunday ekan, «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» predmetining yangi ta’lim tizimidagi ahamiyati beqiyosdir.

**25-mashq. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»dan olingan so‘zlar va ularning izohlariga diqqat qiling. Mazkur o‘quv dargohlarida olib boriladigan ona tili ta’limining mushtarak tomonlari haqida fikr yuriting.**

Akademik litsey — davlat ta’lim standartlariga muvosiq o‘rta maxsus ta’lim beradigan, o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi uchun chuqur, sohalashtirilgan, tabaqlashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim beruvchi o‘rta maxsus o‘quv dargohi.

Kasb-hunar kolleji — tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradigan, o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligini hisobga olgan holda ulardagi bilim va ko‘nikmalar chuqur rivojlan-tiriladigan, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradigan o‘rta maxsus o‘quv yurti.

Bakalavriat — mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Magistratura — aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lif muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lif.

**26-mashq. Quyidagi so'zlarni daftaringizga ko'chirib oling va ularning izohlarini toping:**

monitoring —  
Internet —  
muqobil xizmat —  
raqobatbardoshlik —  
printer —  
beysik tili —  
fayl —  
uyali telefon aloqasi —  
marketing —  
kollej —  
akademik litsey —  
sichqoncha —  
reyting —  
konsepsiya —

**27-mashq. Hikmatli so'zlarni o'qing. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» bilan uyg'un tomonlarini belgilang.**

G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun uning tarixini targ'ibot etish zarur. (*Avgustin*) Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur. (*Mahmudxo'ja Behbudiy*) Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmaq 'ay. (*Imom al-Buxoriy*) Faqat bir ezgulik bor — bilim va faqat bir yomonlik bor — jaholat. (*Sugrot*) Bir kunlik adolat — yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. (*Amur Temur*) Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu faoliyatdir. (*Bernard Shou*) Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrashdan ham to'xtaydilar (*Deni Didro*). Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarur. (*Monteskye*) Insonning qiymati emas siym-u zar, Insonning qiymati ilm ham hunar. (*Bedil*) Kimki o'rganishni uyat, or demas, Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos. (*Nizomiy Ganjaviy*)

**? Savol va topshiriqlar**

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qachon qabul qilingan, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Milliy dasturda hozirgi o'zbek adabiy tilining o'rni qanday?
3. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ahamiyati haqida so'zlab bering.

4. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» deganda nimani tushunasiz?
5. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani qanday bo‘limlardan tashkil topgan?
6. Fonetika haqida matabda olgan bilimlarining bo‘yicha gapirib bering.
7. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va unda unlilarning ifodalanishi haqida so‘zlang.
8. *Olib ber, o‘qib chiq, ketma-ket* kabi qo‘shma, juft so‘zlarning imlosi qaysi bo‘limda yoritilgan?
9. So‘z ma’nolari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?
10. Frazeologiya deganda nimani tushunasiz?
11. Lug‘at va uning tiplari qaysi bo‘limda o‘rganiladi?
12. Grammatika nima?

**28-mashq. She’rni o‘qing. Ona xalqimizga xos sifatlarni belgilab, bu haqda bahs yuriting.**

O‘zbek degan so‘z ostida ona xalqim  
Buyukligi mujassam.  
Yetti tog‘-u qirlar osha olislarga tarqalgan  
Soddaligi jam.  
«O‘»ga qarang, boshda «do‘ppi» o‘zbegimning xuddi o‘zi,  
Ozincha u, o‘ziga bek, ulug‘vor.  
Ona xalqim shon-shuhrati «sh» harfida ko‘p asror.  
Shon-shuhrati samolarni tutib ketgan,  
Bobolarim ifodasi «b» ga qarang.  
Ovozasi Londonlarga borib yetgan,  
Ajdodini nabirasi o‘qir arang.  
Tarixlarni eslaganda bag‘rim kuyuk,  
Yuraklarim og‘riqlardan qaqshaydi.  
«E» harfi shu boisdan ham qaddi egik,  
Bobolarim qomatiga o‘xshaydi.  
Eng muhimi mehnatkashmiz, mehmondo‘stmiz,  
Rizq topamiz ona yerga urug‘ sochib.  
Shu sababdan so‘nggi harf «k» ga monand,  
Kimki kelsa qarshilaymiz quchoq ochib.  
O‘zbek degan so‘z ostida ona xalqim  
Buyukligi mujassam.  
Yetti tog‘-u qirlar osha olislarga tarqalgan,  
Soddaligi jam...

(Abdulhay Sobirov)

**29-mashq. Herman Vamberining «Turkiy xalq» asaridan olingan par-chani o‘qing. Savollarga javob qaytaring.**

«O‘zbek, degan so‘z qaysi ma’noni bildiradi deganda, eng avvalo, shuni aytib o‘tish kerakki, bu so‘z «o‘z» va «bek» so‘zlaridan iborat bo‘lib,

shulardan birinchisi «asl», «ajoyib», «tagi mustahkam», «sardor» ma'nolarini bildiradi. Demak, bu so'zning ma'nosi asl bekdır.

«O'zbek» degan nom ancha oldindan ma'lum bo'lib, «musulmoncha tarbiyalangan» degandek tushunilgan, ya'ni ular ... musulmon Osiyo mada-niyatiga yo'l ochishgan; o'troq va asl dehqon; harbiy millat; savdoda og'ir, vazmin, sanoatda mo'tadil; ochiqko'ngil, mard, jiddiy, haqiqiy turkiy himmatga ega;sovuuqqonlikni odob-axloq namunasi hisoblaydi... O'zbek o'ylabroq gapirishga moyil, u buni tabiiy deb biladi; sadoqatl va dovyurak; to'g'ri gapiradigan, ko'zga tik qaraydigan erkakni mukammallik namunasi deb biladi; davlat himoyasini o'z zimmasiga olgan; o'zbeklarning oilaviy munosabatlarini asl namuna hisoblasa bo'ladi; o'rtा yoshta borib qolgan farzandlar ham o'z ota-onalariga juda hurmat-ehtiromda bo'lishadi; o'zi 30—40 yoshlarga borib qolgan o'g'il ham otasining bir qarashidanoq sergak tortadi va hech qachon otasi bor paytda birinchi o'tirmaydi; birinchi gapirmaydi; turkiy shevada gapiradilar; o'zbeklar xudojo'ylar va bolalardan shuni talab qilishadi; mug'ambirlik kamdan kam uchraydi; o'zbeklar yaxshi musulmondirlar; ashula va musiqani jon-dildan sevishadi...»

**30-mashq. Matnni o'qing. Matn o'zbek tilining qaysi davriga oid? Uning muallifi kim va qaysi asardan olingan? Matnda qo'llangan so'z va qo'shimchalarining hozirgi holatlarini toping.**

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. Harzago'ykim ko'p takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish harzag'a bo'g'zin qirmog'i — eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xushgo'ykim so'zni risq va muvoso bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'zdadur har yaxshiliqni imkonli bor, mundin debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi...

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. O'zbek degan so'z ilk bor qaysi yozma manbada uchraydi?
2. O'zbek urug'lari qaysi tilda gaplashishgan?
3. O'zbeklar haqida yozilgan qaysi asarlarni bilasiz?
4. O'zbek so'zining ma'nolarini aytинг.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan so'zlar va qo'shimchalarni aniqlang.

**31-mashq. Uyga vazifa. Matnni o'qing.**

Daryoga tosh otmayla,  
Botar, ketar, yor-yor.  
Uzoqqa qiz bermayla,  
Olar ketar, yor-yor.

Darvozani keng oching,  
Kelin keldi, yor-yor.  
Kelin minan qo'shilib,  
Davlat keldi, yor-yor.

Yig'lama qiz, yig'lama,  
To'y seniki, yor-yor.  
Ostonasi tillodan  
Uy seniki, yor-yor.

Siynim bergan uzugi,  
Mayishadi, yor-yor.  
Siynim uchun qavurg'am  
Qayishadi, yor-yor.

Samovarda choylari  
Qaynamaydi, yor-yor.  
O'gaymikin onasi,  
O'ynamaydi, yor-yor.

Chaqirip bering yigitti  
Yangasini, yor-yor.  
Qalin gilam tashalsin  
Ko'chasiga, yor-yor.

(Xalq qo'shiqlaridan)

### **Topshiriqlar**

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqli qo'llangan so'z va qo'shimchalarni aniqlang.
2. O'zbek adabiy tili bilan xalq shevalari o'rtaсидаги munosabatni tushuntiring.
3. Matndagi o'zbek adabiy tilidan farqli qo'llangan so'z va qo'shimchalarning siz yashaydigan hududda qanday aytishini bayon qiling.

**32-mashq. Matni o'qing. Matn o'zbek tilining qaysi davriga oidligini aiting. Matn qaysi asardan olingan, uning muallifi kim?**

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... Ma'muraning kanorasida voqe bo'libtur... Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shahrda bir xususiyati borkim, o'zga kam shahrda andog' bo'lg'ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Xo'b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur. Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar.

### **?** Savol va topshiriqlar

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan so'z va qo'shimchalarni aniqlang.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqli tomonlarning mavjudlik sababini tushuntiring.

# O'ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

## 6-DARS. QADIMGI TURKIY TIL

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida o'zbek tili tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni tilimiz tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** Matnni o'qing, unda ilgari surilgan fikr haqida bahs yushtiring.

### *O'TMISHINI UNUTGAN XALQNING KELAJAGI YO'Q*

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas.

Markaziy Osiyo hududlarida azaldan yashab kelgan o'g'uz, qipchoq, uyg'ur, nayman, uyshin, barlos, yuz, qirq, ming kabi ko'plab qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rinn tutgan.

Otashzabon shoir Turdi Farog'iy:

Tor ko'ngullik beklar, «man-man» demang, kenglik qiling,  
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidir, tenglik qiling, —

deb yozganida o'zbek xalqining tashkil topishida 92 urug' vakillari ishtirok etganligini nazarda tutgan edi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning qayeriga borsangiz, darxon, kenagas, jaloyir, bahrin, nayman kabi joy — urug' nomlariga duch kelishingiz mumkin. Bu nomlar shu joylarda muayyan qabila vakillarining yashab o'tganligidan aks sado berib turadi.

Birgina «qipchoq» atamasini olib ko'raylik. Qipchoqmahalla, Qipchoq-qishloq, Qipchoqovul, Qipchoqariq singari nomlar republikamiz bo'ylab keng tarqalgan. Bu nom o'zbek xalqining shakllanishida qipchoq qabilalarining munosib o'rinn tutganligidan dalolat berib turibdi. Bu gapni o'g'uz, qorluq-chigil-uyg'ur qabilalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Naql qiladilarki: «O'tmishini unutgan, avlod-ajdodlarini bilmagan kimsalarning quldan farqi yo'q». Aziz o'quvchi! Xalqimizning kechmishini, uning tarixini puxta bilib olishga intiling. Zotan, kelajak Sizdan shuni talab qilmoqda.

**2-topshiriq.** «Kultegin», «Bilga xoqon», «To'nyuquq bahodir» kabi yodgorliklarning tili to'g'risida fikr yuriting. Ulardagi holatni bugungi tilimizga solishtiring va farqli jihatlarini toping.

**3-topshiriq.** Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» asaridan olingan «Uma kelsa, qut kelur», «Kuzaku uzun bo'lsa, alik kuymas» maqollaridagi tagiga chizilgan so'zlarni izohlang.

Jamiyat oilalardan tashkil topganidek, tillar ham turli-tuman oilalarga bo'linadi. Til oilalari shu oilaga asos bo'lган til nomi bilan yuritiladi. O'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq kabi tillarning turkiy til deyilishiga sabab shuki, ularning hammasi qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan.

 Demak, hozirgi barcha turkiy tillar (o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshq.) uchun qadimgi turkiy til (bobo til) sanaladi.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko'pchilik olimlar bir necha davrlarga bo'ladilar. 1. Oltoy davri. 2. Eng qadimgi turk davri. 3. Qadimgi turk davri. 4. O'rta turk davri (hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanishi hamda rivojlanishi davri) va boshqalar.

Mutaxassislarning fikricha, turkiy tillar qadimda mo'g'il va tungus-manjur tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan. Afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin qadimgi turkiy til davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. Urxun-enasoy, uyg'ur (qisman moniy), sug'd yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi.

**33-mashq. Gaplarni o'qing. Ularni bir-biriga solishtirib, farqli jihatlarini toping.**

Biz qo'rqedimiz, sungusdimiz — Biz qo'rqedik, jang qildik. Neke qorqurbiz — Nimadan qo'rqedik. Turk budun yoq bolmazun! Bodun bolsun! — Turk xalqi yo'q bo'lmasin! Xalq bo'lsin!

**34-mashq. She'rni o'qing. Urxun-enasoy yozuvlari haqida bilganlariningizi so'zlab bering.**

Urxun xatlariga boqing, ajoyib,  
Xalqim tarixidan sado bu xatlar.  
Kultegin, Xon Bilga o'zbegim  
Shuhrat bog'idagi ulkan daraxtlar.  
Qarang, mehnatlarda qavargan,  
Xalqim qo'llariga o'xshaydi shakli.  
Goh Doro kuydirgan, goh arab chopgan,  
Bobomday sarg'aygan, toliqqan, dardli,  
Ohlari samoni, falakni tutgan,  
Asrlar nomidan so'zlaydi ular.  
Ularning qatidan sizadi xalqi,

Kultegin boshida chekkan qayg‘ular.  
 Hozirda dong‘i zo‘r ayrim yozuvlar,  
 Ixtirosin kutib yotgan paytida.  
 Bobomning buvimga ishqil har sahar,  
 She‘r bo‘lib yongandi urxun xatida.  
 Urxun yozuvlari — ko‘zimga ziyo,  
 Bobolardan qolgan tabarruk meros.  
 Siz bitilgan toshni aylab to‘tiyo,  
 Ming bora ko‘zlarga surtsak-da, bu oz!

(*Abdulhay Sobirov*)

### **35-mashq. Matnni o‘qing. Savol va topshiriqlarga javob bering.**

Urxun-enasoy yozushi haqidagi dastlabki xabarlar N.K. Vidzen, S.U. Remezov, I. Tabbet-Stralenberg, D.G. Messershmidt, M.A. Kastren kabi tadqiqotchilar tomonidan e’lon qilingan.

1889-yili N.M. Yadrinsev Mongoliyadagi Qoraqurum shahristoni xarobalaridan ikkita katta bitiktosh topib oldi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, bu toshlar Kultegin va Bilga xoqonlar sharafiga qo‘yilgan bitiktoshlar ekan.

V.V. Radlov, V. Tomson, P.M. Melioranskiy kabi olimlar bu sirli yozuvlarni o‘qishga qattiq kirishganlar. 1893-yilning 25-noyabr kuni V. Tomson birinchi bo‘lib bitiktoshlar sirini ochganligini e’lon qildi. Bu vaqtida V.V. Radlov 10 ta harfni o‘qib ulgurgan edi. Mazkur sirli yozuvlar turk xalqiga tegishli ekan. Enasoy hamda Urxun daryolari havzalaridan topilganligi uchun ular urxun-enasoy yozuvlari deb atala boshlandi. Hozirda ularning 700 ga yaqin namunalari fanga ma’lum.

### **36-mashq. Quyidagi so‘zlarni eslab qolishga harakat qiling. Ularning nima sababdan ishlatalmay qolganini yoki o‘zgarganini izohlang.**

Budun — xalq	Ko‘ch — urug‘, zot
Bilik — bilim	O‘kush — ko‘p
Ingek — sigir	O‘z — jon, vujud
Yag‘i — yov, dushman	Art — tepa, dovon
Batsiq — g‘arb	Erik — mard, botir, erkin

## **ESKI TURKIY TIL**

Eramizning XI asrlaridan boshlab qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladidi va qoraxoniyalar sulolasiga hukmronligidagi o‘zlarining davlatlarini tashkil etdi. Qoraxoniyalar Sirdaryo havzalari hamda somoniylarga qarashli bo‘lgan Buxoro va Samarcandlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Qoraxoniyalar davlati mayda uyg‘ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi turkeron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o‘ziga bo‘ysundirgan holda

X asr oxirlarida islom dinini qabul qilib, Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning sharqda uyg'ur madaniyatining va g'arbda, Markaziy Osiyoda, turk-eron madaniyatining birlashtirilishi uning yozma madaniyatida ham o'z ifodasini topdi. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruuhlarini tasniflab, ular o'rtaqidagi umumiyy va farqli jihatlarni aniqlagan holda **qiyoziy-tarixiy** tilshunoslik deb nomlanuvchi tilshunoslik yo'naliishiga asos soldi.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi — bu Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asaridir. Bu asar yirik badiiy-tarbiyaviy asar bo'lib, turkiy adabiyot tarixida juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir.



**Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslar tomonidan eski turkiy til deb yuritiladi.**

Mahmud Koshg'ariy Chindan tortib to Rumga qadar yashagan turkiy qabilalar haqida shunday deb yozadi:

— Turklar aslida yigirma qabiladir. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'lari bor. Men bulardan asosiyalarini — ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim.

«Devon-u lug'otit turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, uyg'ur kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan «eng yengili — o'g'iz, eng to'g'risi, yaxshisi — yag'mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til — haqoniy o'lkasida yashovchilarning tili» ekanligi ta'kidlangan.

Eski turkiy til eski o'zbek tilining shakllanishi va rivojida muhim o'rinn tutgan.

**37-mashq. «Devon-u lug'otit turk»dan olingan parchalarni o'qing. Ularni hozirgi tilimizga solishtiring, farqlarini ayting.**

Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig' (Tirishqoqning labi yog'lig', erinchoq, dangasaning boshi qonlik). Emgak ekinda qolmas (Mehnat

bekorga ketmaydi). O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik (Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq). Uma kelsa, qut kelur (Mehmon kelsa, baraka keladi). Erdamsizdan qut chertilur (Dangasadan baxt ketadi). Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur (Yoshlikda mashaqqat cheksa, ulg'ayganda sevinadi). Erdam boshi til (Odobning boshi til).

**38-mashq. «Qutadg'u bilig»dan olingan tuyuqni yodlang. Uning til xususiyatlarini aniqlang.**

Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g,  
Ani er atag'il, necha o'gsa o'g.  
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,  
Yavuz ersa kas te, kichik ersa — o'g.

*Qaysi odamda zehn va aql bo'lsa,  
Uni er atab, qancha bo'lsa-da maqta.  
Kishida aql, zehn, bilim mukammal bo'lsa,  
Yomon bo'lsa ham odam, kichik bo'lsa ham ulug', katta de.*

**39-mashq. «Hibat ul-haqoyiq»dan olingan parchalarga diqqat qiling. Ularning hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqli jihatlarini aniqlashga urinib ko'ring.**

Aya do'st, biliklik yizin izlagil,  
Qali so'zlasang so'z, bilib so'zlagil.  
(*Ey do'st, bilimli kishi izidan yur,  
Agar so'zlasang, o'ylab so'zlagin.*)

Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun,  
Qali chiqsa bekta, tishingni siyur.  
(*Tilingni tiy, tishing sinmasin,  
Agar tiymasang, u tishingni sindiradi.*)

Ko'ni bo'l, ko'ni qil, atin ko'ni,  
Ko'ni teyu bilsin xaloyiq seni.  
(*To'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil, to'g'ri deb atal,  
Odamlar seni to'g'ri deb bilsin.*)

**40-mashq. Eski turkiy til davriga oid ushbu so'zlarni yodlab olishga harakat qiling.**

Ko'kramak — na'ra tortmoq  
Sandilach — sa'va  
Qirg'ilach — qaldirg'och  
Sandug'ach — bulbul  
Elig — hukmdor  
Bo'gu — dono  
Al — qizil  
Ko'ni — to'g'ri, rost, haqqoniy

**41-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Unda qadim turk xalqiga xos bo‘lgan qanday sifatlar haqida gap ketyapti. Shu haqda suhbat uyushtiring.

## MATE JASORATI

Turk xalqining zaiflashiб qolganidan foydalangan dushman elchi jo‘natib turk xoqoni Matedan uning eng yaxshi ko‘rgan otini, so‘ngra kanizagini so‘rattirdi.

Mate kengash chaqirdi. Barcha beklar, lashkarboshilar: «Ot yigitning qanoti, kanizak esa or-nomusi, bermal!» deganiga qaramasdan, xoqon el osoyishtaligini o‘ylab ularni berib yubordi.

Bu bilan kifoyalananmagan dushman ikkala mamlakat o‘rtasidagi tashlandiq yerni so‘rab elchi yubordi. Mate yana kengash chaqirdi. Kengash qatnashchilari: «Berib yubor, baribir, foydalanmayapmiz-ku» deganlarida, Mate: «Yo‘q! Bu gal ona yurt, ona tuproq sha’ni haqida gap ketaypti. Undan bir qarichini ham dushmanga berib qo‘ymaymiz!» deb xalqini jangga boshladi va haddidan oshib ketgan yovni tor-mor keltirdi.

(Qadimgi hikoyatlardan)

### ?

### Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy til qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
2. Enasoy va Urxun daryolari qayerda joylashgan?
3. Mazkur yozuvlar haqidagi ma‘lumotlarni kimlar e’lon qilgan?
4. Urxun-enasoy yozuvlarida bitilgan bitiktoshlarda nimalar haqida hikoya qilinadi?
5. V.V. Radlov va V. Tomsenlarning urxun-enasoy yozuvlari borasidagi xizmatlari nimada?
6. Eski turkiy til haqida so‘zlab bering.

## 7-DARS. ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida eski o‘zbek tili yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy boylik-larga hurmat, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash.



**1-topshiriq.** Adabiy til deganda nimani tushunasiz?

**2-topshiriq.** Navoiydan bir bayt aytib, uni hozirgi tilimizga solishtiring va o‘rtadagi farqlarni tushuntiring.

Qoraxoniylar davri adabiy tili o‘zbek tilining shakllanishi uchun ham asos bo‘ldi. Bu davrdagi ikki adabiy til an’anasi sharqiy (qorluq-uyg‘ur) adabiy tili va g‘arbiy (qipchoq-o‘g‘uz) adabiy tili o‘zbek tilining shakllanishi xizmat qildi.

Xususan, g'arbiy til an'anasida yozilgan Qul Alining «Qissayi Yusuf» dostoni (1239-yil) hamda sharqiy til an'anasida yozilgan Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» (1309—1310) asarlari o'zbek adabiy tilining shakllangan davrini ifoda etuvchi badiiy asarlardir. A. Borovkovning e'tirof etishicha, «Tafsir» (XIII asr) tili eski o'zbek tilining yorqin namunasidir.

«O'g'uznama», «Tafsir» (Qur'onning so'zma-so'z tarjimasi, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

Arab, fors-tojik tillarga xos bo'lgan fonetik, leksik va grammaatik xususiyatlar eski o'zbek tiliga ko'plab o'zlashdi. Bu davrda o'zbek qabilalari boshqa qabilalarga nisbatan siyosiy hayotda yetakchilikni o'z qo'llariga ola boshladilar.

O'zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning «Mo'g'illar tarixi» asarida atoqli ot ma'nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberdining qo'shin boshliqlaridan biri O'zbektoy deb atalgan.

O'zbek degan so'zning «o'ziga bek», «otliq qo'shin», «sodda», «to'g'ri», «insofli», «saxiy», «odamoxun», «diltortar», «suyukli» kabi ma'nolari ham mavjud. O'zbek atamasining unga qadar ishlataligan turk, sart, chig'atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbek urug'larining Markaziy Osiyoda o'troqlashuvu, hokimiyatni o'z qo'llariga olishi bilan bog'liq.

O'zbek tilining takomillashuvida Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, Mavlono Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi. Navoiy davri va Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek tili turk lafzi, turkiy til nomi bilan yuritilgan. XVI asrdan o'zbek urug'larining nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, o'zbek tili mo'g'illar bosqinidan so'ng shu yerga egalik qilgan Chig'atoy nomi bilan, rus bosqini davrida esa ruslar tomonidan sart tili nomi bilan ham yuritilgan.

Eski turkiy tildan ajralib to hozirgi o'zbek tilining shakllanishigacha (XX asr boshlarigacha) bo'lgan o'zbek tili eski o'zbek tili deb nomlanadi.



**Demak, eski o'zbek tili XII—XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha bo'lgan o'zbek tili tarixini o'z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni o'zida mujassam etadi.**

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylarning eski o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. U o'zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikanlar o'rab turganligini ta'kidladi. Navoiy eski o'zbek adabiy tilini ana shu «ilon»lardan va «tikan»lardan tozalab berdi.

Eski o'zbek adabiy tili hozirgi o'zbek adabiy tilining vujudga kelishida muhim bosqich sanaladi.

**42-mashq.** Matnlarni o‘qing. Eski o‘zbek adabiy tiliga xos xususiyatlarni aniqlang.

Bu ulus to xublar ko‘rduk, ey o‘zbegin,  
Dilraboliqda sizingdek sho‘xi ra’no ko‘rmadik.

(Atoiy)

Shoh-u toj-u xil’atikim, men tomosha qilg‘ali,  
O‘zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

(Alisher Navoiy)

Qaro meng ol yangoqingg‘a yaroshur,  
Boshim doyim adoqingg‘a yaroshur.

(Xorazmiy)

Qarinchqa aydi: «Mavlodin ne tilading?»

Sulaymon aydi: «Andoq mulk tiladimkim, mandin o‘zga kim ersa-da bo‘lmasun».

Qarinchqa aydi: «Bu so‘zdin hasad isi kelur, manga bo‘lgan, o‘zgalarga bo‘limagin».

(Nosiriddin Rabg‘uziy)

**43-mashq.** Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asaridan olingan ushbu parchaga e’tibor bering. Turkiy tilning imkoniyatlari haqida fikr yuriting.

Yana biradolari borki, ba’zi alfozning so‘ngg‘ida «ch, i» «ki», «chi» lafzidir, orttururlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshanining izhori uchun; forsiyda yo‘qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andog‘ki, qo‘rchi va suvchi va xizonachi va kerak-yarog‘chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo‘sunlug‘ ko‘ptur.

Hunar va peshada andog‘ki, qushchi va borschi va qo‘ruqchi va tamg‘achi va jibachi va yo‘rg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi...

**44-mashq.** Uyga vazifa. Eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan quyidagi so‘zlarni eslab qolishga harakat qiling:

cherik — askar, qo‘shin  
ev — uy  
qopungda — eshicingda  
ulus — el, xalq  
butradi — tarqaldi, ketdi

huvaydo — ayon, ravshan  
kilq — qamish qalam  
pesha — kasb, hunar  
bilmon — bilmayman  
behbud — sog‘lomlik

## ?

### Savol va topshiriglar

1. Eski turkiy til davri qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
2. Eski o‘zbek tilining shakllanish davri haqida gapiring.
3. O‘zbek xalqi va o‘zbek tilining nomlanish tarixi haqida so‘zlang.

## FONETIKA

### 8-DARS. O'ZBEK TILINING TOVUSH TIZIMI (FONETIKASI)

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida o'zbek tilining tovush tizimi bo'yicha bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarни inson shaxsini, uning qadr-qimmatini hurmatlash ruhida tarbiyalash.

✓ *Topshiriq. Kistonbeko'z tovushlar qo'shilmasining nima sababdan ma'no anglatmasligi haqida fikr yuriting.*

Nutqimizni bo'laklarga ajratadigan bo'lsak, uning oxirgi bo'linish nuqtasi tovushlar bo'ladi. Masalan, *O'zbekiston — jannatmakon o'lka* jumlesi *O'zbekiston, jannatmakon, o'lka so'zlariga, bu so'zlar, o'z navbatida, O'z-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, o'l-ka bo'g'inlariga, bo'g'inlar esa o'-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o'-l-k-a* singari tovushlarga bo'linadi. Bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lgan, boshqa mayda bo'laklarga bo'lish mumkin bo'limgan nutq bo'lagi (akustik-artikulatsion birlik) tovush hisoblanadi va u bilan bog'liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo'limida o'r ganiladi.



Fonetika so'zi yunoncha *phone* — «tovush» so'zidan olingan.

#### NUTQIY FAOLIYAT

Inson doimo o'zini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishi-larning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi a'zolarimiz (tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi.

Tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish vositasи barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qo'shimcha bilish vositasiga — nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos P. Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan.

Ko'rindiki, inson ikkinchi signal sistemasiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta'kidlaganlar.

Har bir shaxs ma'lum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat a'zolari o'zaro doimo aloqada bo'ladilar. Biri obyektiv olamda o'z sezgi a'zolari orqali his

etgan ma'lum narsa va hodisa haqida boshqalariga tovush to'lqinlari (yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. Axborot uzatuvchi — so'zlovchi, eshituvchi esa tinglovchi sanaladi. Tinglovchi olamdag'i narsa va hodisaning umumlashgan obrazini so'zlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi a'zosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

 **So'zlovchi va tinglovchi o'rtaсидаги ана шундай ахборот узатиш ва ахборотни қабул қилиш фаoliyatı nutqiy faoliyat sanaladi.**

Nutqiy faoliyat yozma ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ham nutqiy jarayon qatnashchilari ikki guruhga bo'linadi. Xat yo'llovchi shartli ravishda so'zlovchi, uni qabul qiluvchi (o'quvchi) esa tinglovchi hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda mashhur Shveysariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlaydi va tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.

 **Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi — til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi — nutqdir.**

Til va nutq umumiylilik — xususiylik, imkoniyat — voqelik, mohiyat — hodisa zidlanishini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi va bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birlıklarning nomlanishida ham o'z ifodasini topadi.

 **Tilning fonologik (fonetik) sathining birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi fon (allofon) yoki tovush hisoblanadi.**

**45-mashq. O'qing! Quyida berilgan savollarga javob bering.**

*Mathur sangqil, mathur rasako'n.*

## **Savollar**

1. Yuqoridagi harflar qatorlarida qanday maqol yashiringan?
2. Yuqoridagi harflarni turlicha joylashtirish asosida yana qanday gaplar tuzish mumkin?

**46-mashq.** *M, R, L, N, NG, E, A, O, U, O', I, T, S, K, Q, X, B.*

## ?

### *Savol va topshiriqlar*

1. Yuqoridagi harflarning turli kombinatsiyalaridan bir nechta gap tuzing.
2. Berilgan harflar ifodalagan tovushlarni unli va undoshlarga ajrating.  
Ularning o'zaro farqini aniqlang.
3. Faqat undoshlardan yoki faqat unlilardan so'z hosil qilib bo'ladimi?  
Buning sababi nimada?

**47-mashq.** *A, B, V, G, D, Z, I, L, M, N, O, P, R, S, T, U.*

### *Topshiriqlar*

1. Yugoridagi harflardan foydalangan holda turli so'zlar hosil qiling.
2. So'z boshida qaysi undoshlarni keltirib bo'lmasligini aniqlang va uning sababini tushuntiring.

**48-mashq.** *b, k undoshlarini turli xil unlilar bilan keltirib so'zlar hosil qiling.*

**49-mashq.** *Uyga vazifa. Matnni o'qing. Qushlar va hayvonlarning nimaga insonlarga o'xshab gapira olmasligi haqida o'ylab ko'ring.*

Ispaniyaning Grenada shahri aholisi to'rt kun mobaynida nima bo'layotganini tushunishmadi. Shaharning turli ko'chalarida biror sababsiz politsiyachilarining hushtagi qattiq chalinardi, ammo ko'chada na tartib-buzarlar bor, na politsiyachilar. Hech kim ko'rinsa masdi.

Mashina haydovchilariga qiyin bo'ldi: shiddat bilan chalingan hushtak shofyorlarni tinimsiz to'xtashga majbur qilardi.

Sirli politsiyachi hatto avtobuslar va piyodalar harakatiga ham xalaqit berardi. Beshinchikun hamma narsa ma'lum bo'ldi: ko'rinsa politsiyachi rolini qafasdan qochib chiqqan to'tiqush bajarayotgan ekan...

Qarg'alar ham, zog'chalar ham, zag'izg'onlari ham gaplashishni bili-shadi. Soykalar ham, qorayaloqlar ham va hattoki... kanareykalar ham odamlarga o'xshab gaplashishadi.

O'rgatilgan it amrimizni bajarib o'tirsa, yotsa, biz bilan yonma-yon yursa, «Ovozingni chiqar!» deganimizda vovullasa, biz hayron bo'lmaymiz-ku. Hamma biladiki, itni shunga o'rgatganmiz. Itni o'rgatish juda oson emas — undan nima talab qilayotganimizni u darrov tushunib yetmaydi.

Ammo qat'iy talablarimiz va o'rgatishimiz natijasida u buyrug'imizni bajara boshlaydi. Shunda u qandaydir shirinlik mukofot oladi. Ikkinci marta ham, uchinchi, beshinchchi, o'ninchi marta mukofot oladi.

Nihoyat, itda bog'lanish sodir bo'ladi: agar, deylik «o'tir» desak (so'z mazmunini u tushunmaydi, faqat shu so'zning tovushinigina eshitadi), o'tiradi, mukofotga shirinlik oladi. Shu boisdan buyruqni jon deb bajaradi.

Keyin shirinlik berilmaydigan bo‘ladi, lekin it buyruqni bajaraveradi, chunki u o‘rganib qolgan, u muayyan so‘zlarni eshitib, muayyan harakatni bajaraveradi.

Xuddi shu gapni to‘tiquishlar haqida ham aytса bo‘ladi. Masalan, to‘tini o‘z ismini aytishga o‘rgatishadi. Ismni ko‘p marta qaytarishadi. To‘ti uni eshitib, eslab qoladi, chunki uning xotirasi juda ajoyib. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o‘z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so‘zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi (deylik biror bo‘lak qand yoki shunga o‘xshash narsa). To‘tida refleks boshlanadi: o‘rganib olgan so‘zni qaytarsa shirinlik oladi.

Tez orada qushdan iltimos qilishga hojat qolmaydi, uning o‘zi sovg‘a olish umidida o‘z ismini aytaveradi. Keyin bu odat tusiga kiradi va mukofotsiz ham to‘ti gapiraveradi.

(«Turkiston» gazetasidan)

## ?

### Savollar

1. Inson olamni qanday biladi?
2. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqiylar faoliyat nima va u qanday amalga oshadi?
4. Til nima uchun ijtimoiy hodisa hisoblanadi?

## 9-DARS. NUTQ TOVUSHLARINING UCH TOMONI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarining ongida nutq tovushlari va ularning xususiyatlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarini ona tabiatga hurmat, ona-Vatan sha’ni uchun kurashish ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Biron-bir musiqa asbobidan chiqayotgan tovushga taqlid qilib ko‘ring. So‘ngra uning o‘zini chaling. Ikkala tovushning o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

Kundalik hayotingizda har xil tovushlarni eshitasiz: mashinalar signali, hayvonlarning qichqirig‘i, parrandalarning sayrashi, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to‘lqinlari orqali qulog‘imiz bilan eshitiladigan barcha hodisalarga tovush deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

Har qanday tovush ma’lum tashqi ta’sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, ip yoki simni tarang tortib, uni qo‘lingiz bilan chertsangiz havoni tebratadi va tovush chiqadi.

Tovushlar tabiiy va inson tovushlariga bo‘linadi. Tabiatdagи insondan tashqarida paydo bo‘lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar sanaladi.



**Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa har qanday nutq tovushining uch tomoni mavjud ekanligidan dalolat beradi.**

Birinchidan, nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzvyi bog'liqlikda o'r ganiladi. Nutq apparati o'pka, bo'g'iz, tovush psychalari, og'iz bo'shlig'i, tanglay, til, lab, burun, tish kabi a'zolarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma'lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo'ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o'r ganiladi.

Uchinchidan, nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomonдан shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *soli* bilan *sholi* so'zlari birinchi tovushlari bilan, *sot* bilan *soch* so'zlari oxirgi tovushlari bilan, *sot* bilan *sut* so'zlari o'tasidagi tovushlari bilan farqlanadi.



**Tovushlarning bunday belgilari vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi.**

Demak, yuqorida sanalgan belgilardan birinchisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi bo'lsa, ikkinchi va uchinchi belgilar faqat inson tovushlarigagina xosdir.

Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik; b) talaffuz (fiziologiya); d) vazifaviy tomonlari. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e'tiborga olinadi. Masalan, **k** tovushi til o'tasining yuqori tanglayiga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Bu tovushning nutq a'zolarining qayerida va qanday yo'l bilan hosil bo'lishi talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, **k** ning **g** dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. Tilshunoslik fani uchun vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi lingvistik (tilshunoslik) belgi deb ham yuritiladi.

**50-mashq.** Matnni o'qing. Professor Ayub G'ulomovning o'zbek tilshunosligi oldidagi buyuk xizmatlarini sanab ko'rsating. Matndagi nutq tovushlariga e'tibor bering. Ularning o'ziga xos tomonlari haqida gapiring.

## AYUB G'ULOMOVICH G'ULOMOV

(1914–1984)

A.G'. G'ulomov o'zbek ilmiy tilshunosligining asoschisidir. U 1914-yili Toshkent shahrida tug'ilgan.

A.G'. G'ulomov «O'zbek tilida aniqlovchilar» (1940), «O'zbek tilida kelishiklar» (1940), «O'zbek tilida ko'plik kategoriysi» (1944), «O'zbek tilida urg'u» (1947), «Sodda gap sintaksisi» (1948), «Sodda gap» (1955), «O'zbek tilida tarixiy so'z yasalish muammoları» (1955), «Fe'l» (1957) kabi qator asarlari bilan o'zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi.

O'rta maktablarning V, VI, IX sinflari uchun uning rahbarligida yozilgan «Ona tili» darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta'limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A. G'ulomov tomonidan oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobidan o'zbek tili sintaksisining sir-asrorlarini o'rganganlar.

**51-mashq.** Quyidagi gaplarni o'qing. So'zlar tarkibida kelayotgan nutq tovushlariga e'tibor bering. Tovushlarning akustik, talaffuz hamda vazifaviy tomonlariga diqqat qiling.

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birligina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafsi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanan ekan? (*Setseron*) Eng maqbul fazilat — Vatanga va odamzodga ko'rsatilgan xizmatdir. (*J. Delit*) Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. (*J. Bayron*) Vatanga bo'lgan muhabbatim meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi xazinalar bilan shunchalik boyitgim keladi. (*F. Volter*) Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi. (*J. Russo*) Vatan uchun chala ish qilish uning uchun hech nima qilmaslikdir. (*M. Robespierre*) Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas. (*V. Belinskiy*) Kimki Vatanini xor qilsa, u oilasidan ham, bor-budidan ham ayrıldi. (*P. Kornel*) O'z Vataniga dog' tushirish uni sotish degan so'z. (*V. Gyugo*) O'z yurtidan yuz o'girganlar o'z vijdonlardidan ham yuz o'giradilar. (*Y. Galan*) Vatanga nafsi yo'q yashalgan har kun inson hayotini qilur bemazmun. (*M. Solmon-Sovajiy*)

**52-mashq.** Matnni o'qing. Nutq tovushlarining so'zdagi o'rinxariga diqqat qiling. Ularning o'rinxarini almashtirsak, ma'noning butunlay o'zgarib ketishi sabablarini tushuntiring.

«Ey ... Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?

Ey ... Temurlarning, o'g'uzlarning ... shonli beshiklari! Qani u chiqdig'ing yuksak o'rinalar? Qullik chuqurlarig'a nedan tushding?!

Dunyoni «ur-hoslari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog'ini ko'klarga uchiraturg'on tog' gavdali o'g'lonlaring qani? Nечун товушлари чиқмайдыр?

Yer yuzining bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nечун чекиндилар? Nечук кетдилар? Kurash maydonlarin o'zgalarga nechun qo'ydilar? Nечун... nechun...nechun..?

Gapur menga, ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?

Yer yuzining buyuk sultanatlarni sen qurmadingmi? Hindistonning, Eronning, Ovro'poning ulug' xoqonlarini sen yubormadingmi? Ey, xoqonlar o'chog'i? Ey qahramonlar tug'oyi! Qani u chaqmoq chaqishli botir xoqonlaring? Qani avvalgi o'q yurushli, otli beklaring? Nечук «ur-ho»lari eshitilmaydur?

Dunyo xalqini bo'ysundirmagan sultanatlaring nechun buzuldi?

Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan xoqonlig'ing nechun kuchi o'ldi? Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi?

Yo'q... yo'q... Tangri haqi uchun, yo'q!.. Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun yer yuzida sakson millo'n bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon Chingizlarning, Temurlarning qonidir.

Bularning kuchlari sening kuchingdir!

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdir.

Yolg'iz...Oh, yolg'iz... tarqalamishdur».

(*Abdurauf Fitrat*)

### **53-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Nutq tovushlarining qanday ijtimoiy ahamiyat kasb etayotganini belgilang.**

#### **SO'NGGI BEKATDAGI BITIKLAR**

Eshitmay turib eshitib turib eshitmaslik san'atini mukammal egallang.

Biron ishga kirishganda bilaman deb kirishmang. Bilmayman deb kirishsangiz, ko'proq narsani bilib olasiz. Bilib bilmagandan ko'ra, bilmay bilgan yaxshiroq.

Tor ixtisoslikni chuqur egallang. Keng bilimli bo'lishga intiling.

Faoj dam oling, badanni toza tuting, imon-e'tiqodli bo'ling. Uxlaganda tiniqib uxlang.

Bosh omborxonasi yoki osori atiqalar muzeyi (ajoyibxona) ham emas. Uni har xil keraksiz narsalar bilan to'ldirib tashlamang.

Bardam bo'ling. Bo'lar-bo'lmas gaplarga parvo qilmang. Xafagazak, savdoyi bo'lib qolishdan saqlaning.

Ona tilida fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo'lmasin, ona tilini kamsitishlariga aslo yo'l qo'y mang. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa. Onayizor, Vatan, millat har biri bittadan, Ona tili ham bitta. Agar o'z xalqingiz orasida gungalak-soqov va yot bo'lib qolishni istamasangiz, ona tilini puxta o'rganing, boshingizga ko'taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo'la oladi, ammo faqat ona tilidagina bekam-u ko'st bo'lishi mumkin. Ona tilini e'zozlashni, qadrlashni va asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganing. (*G'aybulla as-Salom*)



### Savol va topshiriqlar

1. Tovushlarning akustik tomoni deganda nimani tushunasiz?
2. Tovushlarning talaffuz tomonini tushuntirib bering.
3. Tovushlarning vazifaviy tomoni haqida so'zlang.

## 10-DARS. TOVUSHLARNING FARQLOVCHI VA BIRLASHTIRUVCHI BELGILARI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarining ongida tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashini o'stirish.



**Topshiriq.** *To'r, tor, tur, ter* so'zlarini bir-biridan farqlash uchun qaysi tovushning muhim o'rin tutayotganini aniqlang va buning sababini tushuntirib bering.

Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulatsion (talaffuz) belgilariiga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina, u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun yuqorida belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi.



**Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilariga ahamiyatli bo'ladi.**

Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonimizda yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslaymiz, zidlaymiz va ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta.

Faraz qilingki, oldingizda ikkita egizak bola. Ular bir-biriga nihoyatda o'xshash. Faqat bittasining chap yuzida kichkina xoli bor. Ana shu xol

ikkisini bir-biridan farqlovchi belgi sanaladi. Qolgan belgilari esa har ikkisida bir xil. Bu ikki boladan birining ismi *Hasan*, ikkinchisini esa *Husan*. Qarangki, ismlarning tovush tarkibi ham bir-biriga naqadar o'xshash. Faqat birinchi bo'g'in unlisi bittasida *a*, ikkinchisida *u* ekanligi bilan farqlanadi. Demak, yuqoridagi ikki so'z birinchi bo'g'indagi unlilar bilan bir-biridan farq qiladi. Qolgan tovushlar esa har ikkisida bir xil. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarni farqlovchi belgilar, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar birlashtiruvchi belgilar sanaladi.

Masalan, *t* va *d* tovushlarini olaylik. Birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariga, ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi (til oldilik, portlovchilik belgilar), har ikkisida takrorlanadi. Uchinchi belgi (jarangli-jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o'rta-sidagi birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi esa farqlovchi belgi hisoblanadi.

Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rta-sidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

**54-mashq. «Fonetika»ga oid quyidagi topishmoqlarning javobini toping va yodda saqlang. «D-t», «g-k», «z-s», «b-p» tovushlari o'rta-sidagi o'xshash va farqli tomonlarini toping, ularni izohlang.**

1. «Yetti»da bor,  
«Yettov»da yo'q.  
«Illi»da bor.  
«Ikkov»da yo'q.
2. Bir so'zda bir xil undosh  
Ketma-ket qator kelar.  
Misol topib aytinlar  
Ular qanday tovushlar?
3. «Arra»da ikkita bor,  
«Yalla»da ham shuncha bor,  
Yana qaysi so'zlarda  
Shu holat bo'lar takror?
4. O'pkadan chiqqan havo  
Og'zimiz bo'shlig'ida  
To'siqlarga uchrashar,  
Ko'p tovush hosil qilar.
5. So'z oxirida kelsam  
*P* yozmang, — qilar nido.  
*B* holimcha yozmasangiz  
Qilasiz katta xato.
6. Jarangli tovushlarning  
Jarangsiz juftlari bor.  
Toping, ularning qanday  
Bir-biridan farqi bor?
7. Bo'g'izda hosil bo'lar  
Nomi ne deb atalar?
8. Til uchi milkka tegib  
Havo yo'lini to'sar.  
So'ngra birdan ochilib  
Tovushlar portlab chiqar.
9. Yozamiz-u, ko'ramiz,  
Aytamiz, eshitamiz.
10. Bordir olti xil tovush,  
Ular cho'zib aytilar.  
So'z tuzilmas ularsiz,  
O'ylang, balki toparsiz?

(R. Sirojiddinov)

**55-mashq.** «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» mavzusida matn tuzing. Matndagi unli va undosh tovushlarni toping. Ularning talaffuzi va tuzilishiga diqqat qiling. Tovushlarning o’xhash va noo’xhash jihatlariga e’tibor bering.

**56-mashq.** Uyga vazifa. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Hurlik, ozodlik deganda nimani tushunasiz?
2. O’tmishda yashagan vatandoshlarimiz hayoti haqida nimalarni bilasiz?
3. Ozodlik, erkin hayotni qadrlash degani nima?
4. «O’z uyingni o’zing asra!» mavzusida matn yozing. Matndagi undosh tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi tomonlariga diqqat qiling.

### ❓ Savol va topshiriqlar

1. Bilish jarayonida zid qo‘yishning xizmati qanday?
2. Tovushlarning farqlovchi va biriktiruvchi belgilari deganda nimani tushunasiz?
3.  $G'$  va  $G$  tovushlari o’rtasidagi o’xhash va farqli tomonlarni aniqlab bering. Ular o’rtasidagi farqlovchi belgini aytинг.

## 11-DARS. TOVUSH VA FONEMA

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida tovush va fonema yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni narsa va hodisalarga xolis baho berish, o‘rinli xulosalar chiqarish ruhida tarbiyalash.

✓ *Topshiriq.* Qasd, taraf, hisob, turmush, taqdir so‘zlarini talaffuz qilib ko‘ring. Tovushlarning aytilishiga va ma’no farqlashdagi o‘rniga e’tibor bering.

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo‘lgan xususiylik va umumiylilik munosabatini aks ettiradi. Biz bevosita kuzatishda xususiyliklarni sezgi a’zolarimiz bilan his etamiz. Bir xususiylikni boshqa xususiylikka solishtiramiz. Solishtirilayotgan xususiyliklar o’rtasida qanday o’xhash va farqli tomonlar mayjud ekanligini aniqlaymiz. O’xhash jihatlarasi asosida har qaysi xususiylikni ma’lum umumiylilikka — sinfga birlashtiramiz. Masalan, sumkani olaylik. Sinfingizda nechta o‘quvchi bo‘lsa, o‘sancha sumka bor. Bu sumkalar rangi, hajmi yoki materialli, yoxud shakli jihatidan bir-biridan farq qiladi. Sinfingizda nechta sumkani ko‘rsangiz, shuncha xususiyliklarni ko‘rgan bo‘lasiz. Lekin shu xususiyliklarning hammasida takrorlanadigan umumiy belgi bor. Bu belgi sumkalik belgisidir. Ya’ni

o‘quv qurollari solish uchun mo‘ljallangan, ko‘tarib yuriladigan, charm va boshqa har xil materiallardan tikelgan anjom. Ana shu belgilar xilma-xil sumkalarni bir sinfga, bir umumiylilikka birlashtirishga asos bo‘ladi.

Xuddi shuningdek, biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan, *i* tovushini olaylik. U, avvalo, har bir shaxsning o‘ziga xos talaffuzini o‘zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, so‘zlarning tarkibida yondosh tovushlar ta’siriga beriladi. Masalan, *tushib* so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi *i* birinchi bo‘gindagi *u* ning ta’sirida *u* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. *Bilan, tilim, sira* so‘zlari tarkibida bilinar-bilinmas aytildi. *Qiliq, qiziq* kabi so‘zlar tarkibida til orqa tovush ta’sirida *u* ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari, unga so‘zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo‘shiladi. Xullas, nutq jarayonida xilma-xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ularning hammasida takrorlanadigan umumiylar jihatlar bor. U ham bo‘lsa, *torlik* belgisi va *lablanmaganlik* belgisi. Shu belgilari bilan *a* ga, *o* ga, *i* ga, *u* ga zidlanadi. Ana shu birlashtiruvchi belgilari ma’lum xususiylikni umumiyliklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so‘zlovchi va tinglovchilar xotirasida mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham bu umumiylik turlicha talaffuz qilinishiga qaramasdan, so‘zlovchi va tinglovchilar o‘rtasida bir xil tushunishga olib keladi.

 **Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi.**

**Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma’noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi fonemadir.**

Masalan, *tosh-tom* so‘zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir. Yoki *tosh-tesh* zidligida *o* va *e*; *tosh-qosh* zidligida *t* va *q* ma’noni farqlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi.

Ko‘rinadiki, bir fonema bir necha tovushlar orqali ro‘yobga chiqadi. Fonemalarni sanash mumkin. Ular cheksiz ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Bu esa tovushlar miqdorining cheksiz ekanligini ko‘rsatadi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma’noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Fonemalar so‘zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomonidan shakllantiradi. Bunda so‘z tarkibidagi fonemalarning joylashish tartibi katta rol o‘ynaydi.

Loto o‘yinini ko‘z oldingizga keltiring. Unda sanoqli donalar bor. Lekin shu donalarni turli tartibda joylashtirish orqali xilma-xil shakllar yasaysiz. Xuddi shunga o‘xhash, fonemalar ham sanoqli, lekin uni xilma-xil tartibda joylashtirish orqali cheksiz so‘zlar hosil qilinadi. *Sut, tus, ust* so‘zlarining tovush tomoniga e’tibor bering. Ularning hammasi uchta bir xil tovushlarning turlicha ketma-ket joylashuvidan tashkil topgan. Garchi

yuqoridagi so‘zlarning tovush tarkibi bir xil bo‘lsa ham, lekin ular turli tartibda joylashib uchta so‘zning ifoda tomonini hosil qiladi.

Ko‘rinadiki, so‘zlarning moddiy tomoni uchun uning nechta fonema- dan tashkil topganligigina emas, balki ularning qanday tartibda joylashuvi ham katta ahamiyatga ega.

### **57-mashq. Quyidagi so‘zlarni fonetik tahlil qilib, jadvalni to‘ldiring.**

So‘zlar	Tovush soni	Harf soni	Undosh tovushlar		Unli-lar	Bo‘g‘in soni	Urg‘uli bo‘g‘in
			jarangli	jarangsiz			
ma’rifat							
saodat							
bilimdon							
bormoqda							
muqaddas							

**58-mashq.** B—p, d—t jarangli, jarangsiz undosh juftlarining so‘z boshi va oxirida o‘qilishiga e’tibor berib so‘zlarni o‘qing. So‘z ma’nolari- ning yozuv hamda talaffuzdagi farqini tushuntiring. Ajratilgan so‘z juft- larining ma’nodoshini toping.

*Bir—pir, bol—pol, bayt —payt, band — pand, bob — bop, yod — yot, sud — sut, dor — tor, dori — tori, dog‘ — tog‘, dil — til.*

**59-mashq.** Iqbol Mirzoning «Ona tuproq» she’rini ifodali o‘qing, tagiga chizilgan unli va undosh tovushlarni tahlil qiling.

Avliyolar, daholarning beshigisan,  
Naqshbandlar topgan jannat eshigisan,  
Tiriklikning navosi ham qo‘srig‘isan,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Asl farzand merosiga posbon bo‘lg‘ay,  
Ozod elning orzulari osmon bo‘lg‘ay,  
Bobołarim ismin aytsam doston bo‘lg‘ay,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq!

**60-mashq.** Uyga vazifa. «Vatan ostonadan boshlanadi», «Ona — ulug‘ zot» mavzularining biri bo‘yicha ijodiy insho yozing.

### **?** Savollar

1. Tovush deb nimaga aytildi?
2. Fonema nima?
3. Tovushlar ketma-ketligi deganda nimani tushunasiz?

## 12-DARS. FONEMALAR TASNIFI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida fonemalarning turlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni faktlarni bir-biriga taqqoslash va ulardan kerakli xulosalar chiqara bilish ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** «Aql ulug'likka, aqslizlik esa tubanlikka yetaklaydi» maqolidagi tovushlarni bir-biriga solishtirib ko'ring va ularni umumiy jihatlariga ko'ra guruhlang.

*B* va *a* fonemalarini bir-biriga solishtirsangiz, ular bir qator belgilari bilan farqlanganini ko'rasiz. Birinchidan, *b* fonemasini talaffuz etganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi labning labga tegishidan hosil bo'lgan to'siqqa urilib, uni yorib portlab chiqadi. *A* fonemasini talaffuz qilayotganda esa o'pkadan chiqayotgan havo hech yerda to'siqqa uchramaydi. Demak, fonemalar o'rtasidagi birinchi farqlanish to'siqqa uchrash-uchramaslik belgisi ekan.

Ikkinchidan, *b* fonemasini talaffuz qilganingizda shovqinga ovoz qo'shiladi. *A* fonemasi esa faqat ovozdan iborat. Ko'rindaniki, *b* va *a* lar o'rtasidagi ikkinchi farqlovchi belgi shovqin belgisidir. Bu belgi *b* da bor, *a* da yo'q.

Uchinchidan, *a* so'z ichida kelib, bo'g'in hosil qiladi. *B* esa bunday xususiyatga ega emas. Demak, fonemalarni farqlash uchun xizmat qiladigan belgilardan yana biri bo'g'in hosil qilish-qilmaslik belgisidir.

Yuqorida sanab o'tgan belgilarga ko'ra fonemalar ikki katta guruhga bo'linadi:

### 1) unli fonemalar; 2) undosh fonemalar.

Unli fonemalar talaffuz qilinayotganda, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi hech qanday to'siqqa uchramaydi.



Faqat un (ovozi)dan iborat bo'lgan va bo'g'in hosil qiladigan fonemalarga unli fonemalar deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltilta unli fonema mayjud: *i*, *u*, *e*, *o'*, *o*, *a*.

Talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ma'lum to'siqqa uchraydigan, shovqin ishtirot etadigan va bo'g'in hosil qilolmaydigan fonemalarga undosh fonemalar deyiladi.

## UNLILAR TASNIFI

*i*, *u*, *e*, *o'*, *o*, *a* unlilarini talaffuz qilib ko'ring. Ularning bir guruhini (*u*, *o'*, *o*) talaffuz qilganingizda lab oldinga qarab cho'chchayadi, *a*, *e*, *i* unli tovushlarini talaffuz qilganingizda esa lab o'z holicha qoladi. Demak, unlilarning bir guruhida lab ishtirot etadi, boshqalarida esa qatnashmaydi.

Bundan tashqari, *a* unlisini talaffuz etganingizda og‘iz katta ochiladi. Til gorizontal holda pastki jag‘ ustida yotadi. *i*, *u* unlilarini talaffuz etganingizda esa, og‘iz ozgina ochiladi, tilning o‘rtasi esa yuqori tanglayga qarab ko‘tariladi. Yuqorida sanab o‘tilgan ikki belgi:

a) *labning ishtiroti*;

b) *og‘izning ochilish darajasi* (tilning ko‘tarilishi darajasi) hozirgi o‘zbek adabiy tili unlilari tasnifi uchun asos bo‘ladi. Bunga ko‘ra unlilar dastlab ikkiga bo‘linadi:

1) lablangan unlilar (*u*, *o*‘); 2) lablanmagan unlilar (*e*, *a*, *i*). Bu jihatdan *o* unlisi oraliq holatda qoladi.

Og‘izning ochilish darajasi belgisiga ko‘ra esa uch darajaga bo‘linadi:

a) tor unlilar (til o‘rtasining tanglayga tomon yuqori ko‘tarilishi natijasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun yuqori ko‘tarilish yoki yuqori tor ham deyiladi): *u*, *i*;

b) o‘rta tor yoki o‘rta keng unlilar: *e*, *o*‘;

d) keng unlilar (quyi ko‘tarilish yoki quyi tor): *a*, *o*.

**61-mashq. Zarur, murakkab, qoida, hushyor, haqiqat, bilim, g‘azab, gilam so‘zlarining tarkibidagi unli tovushlarni alohida olib, ularning hosil bo‘lishidagi nutq organlarining harakatini tushuntirib bering.**

**62-mashq. Alifboli topishmoqlarning javobini topib, so‘zlardagi unli tovushlarga tavsif bering.**

Anorda bor,	Gugurda bor	Zuluk, Zulfun,
Qanorda bor,	Urgutda bor,	O‘rozda bor,
Fonusda yo‘q,	Lochinda yo‘q,	Tovuqda yo‘q,
Fonarda bor.	Burgutda bor.	Xo‘rozda bor.

Bodomda bor,	Sanoqda bor,
Toshda yo‘q.	Chanoqda yo‘q.
Boshda bor-u,	Sochda bor-u,
Qoshda yo‘q.	Taroqda yo‘q.

(T. Adashboyev)

**63-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing. Tovushlari va harflari bir-biriga mutanosib kelmagan so‘zlarni topib, izohlang.**

## ONA MEHRI

Ona! Bu so‘z hayot kabi abadiy. Ona borki, olam bor; ona borki, odam bor. Ona borki, Vatan bor. Zero, ona kabi muqaddas va tabarruk, aziz va mo‘tabar, beg‘araz va beminnat inson bu yorug‘ dunyoda topilmaydi. Atoqli yozuvchilarimizdan biri aytganidek: «Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz baxt, ayolsiz muhabbat yo‘q, onasiz qahramon ham, shoir ham tug‘ilmaydi.

Mehri cheksiz, butun dunyoni ko‘kragi bilan boqqan ayol — Onani sharaflaylik...»

Dunyoda ona mehridan ortiqroq hech narsa yo‘q!

**64-mashq.** She’rni o‘qing. Unli tovushlarni aniqlab, ularga tavsif bering. She’rdagi g‘oyaga munosabat bildiring.

### VATANDA BEVATAN BO‘LDIM

Agarchi ismim, Erkin,  
Erki yo‘q, bandi kishan bo‘ldim,  
Ko‘zim bog‘liq, dilim dog‘liq,  
Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim.  
Ko‘rib hayratga tushdi  
Bu jahon holi parishonim,  
Bamisli ankabut so‘rgan —  
Chibin, pajmurda tan bo‘ldim.  
Muazzam Sayxun-u Jayxun  
Labida tashna lab qoldim,  
Kiyintirdim jahonni,  
Jismi uryon, bekafan bo‘ldim.  
Chekibdir Bobir-u Furqat  
Vatan hajrida afg‘onlar,  
Men ersam, voh, ne g‘urbatkim,  
Vatanda bevatan bo‘ldim.  
Olisda, oh diyorum deb  
Sog‘ingay, ey vatandoshim,  
Dema sen o‘zni bebaxt,  
Baxti yo‘q aslida man bo‘ldim.  
Shukurki, keldi Istiqlol,  
Umidim rost qil, Ollohim,  
Ki shoyad beqafas bulbul  
Kabi sohib chaman bo‘ldim.  
Ishonchim bor, Vatan, bir kun  
Kelar chin nurli davroning,  
Degayman shunda, chin Erkin,  
Chin inson qaytadan bo‘ldim.

(Erkin Vohidov)

**65-mashq.** Matnni o‘qing. Unli tovushlarning talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling.

### MADANIY XULQ GO‘ZALLIGI

Yosh do‘stim, seni kelgusida ona-Vatanimizning malakali mutaxassis kadri bo‘lish kabi baxt-u istiqbol kutmoqda.

Sen yaxshi muhandis, shifokor, o'qituvchi, hisobchi, hatto olim, iste'dodli qalam sohibi bo'lishing mumkin. Eng muhimi, sen go'zal ishlarni bunyod etuvchi, go'zallik qonuni bilan yashaydigan, har yerda nafosat iqlimini yarata oladigan, zebo xulqli, yuqori madaniyatli inson bo'lishing hammamizning dil istagimizdir.

Sen o'zingda egzilik bilan zebo xuljni uzviy ravishda mujassamlashtirishing lozim. Shu haqiqatni aslo unutmagilki, kishida ichki dunyo boyligi bo'lmasa, hech qanday qimmatga molik bo'la olmaydi.

Axloqiy fazilatlarining, yuqori estetik diding bilan uyg'unlashgandagina husningga husn qo'shiladi.

Kishidagi madaniy axloq uning yurishida, so'zlashishida, ovqatlanishida, odamlar bilan ko'rishishida, xayrlashishida, hamrohni raqsga taklif etishida, kulishida, musiqa, ashula tinglashida, yotoqxonasini qay holda tutishida va bezashida, xullas, har bir xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

### **66-mashq. Matnni o'qing. Unli tovushlarni ajratib yozing va izohlang.**

— Ey, ulug' O'zbekistonning navqiron avlod!

Sizning bu hayotda orzu-intilishingiz, ko'zlagan maqsadingiz, qiladigan ishlaringiz ko'p, lekin hech qachon unutmangki, sizning eng buyuk, eng muqaddas vazifangiz — yurtimiz istiqlolini, xalqimiz erk-u ozodligini ko'z qorachig' iday asrash, uning xavfsizligini himoyalashdir.

Darhaqiqat, Vatan ozodligi, uning farzandlari hurligi, erkini himoya qilish kelajakni muhofaza qilish demakdir. Teran tarixiy tomirlarga ega, ularga asoslanib yorqin kelajak sari intilib yashayotgan xalq, millatni o'z yo'lidan qaytarish mumkin emas.

### **67-mashq. Uyga vazifa. She'rni o'qing. Unli tovushlarga tavsif bering.**

#### **VATAN O'G'LI**

Yurtga ega bo'lish oson ish emas,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.  
Bahor keldi, endi ortiq qish emas,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Hammamizning onamizdir shu Vatan,  
Yov qoldirgan siynasida ming tikan,  
Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov,  
O'z yeringni o'zing asra bo'lib dov,  
Yo'qsa kelib asrab berarmi birov,  
Yur, o'g'lonim, yurtni ko'tarish uchun.

Ilmdorlar juda ko'pdır jahonda,  
Ortdaman deb hayallama armonda.  
Tez ilm ol sen hozirgi zamonda,  
Yur, o'g'lonim, yurtni ko'tarish uchun.

Tekinxo'rlar, o'g'rillardan hazar qil,  
Barin bir yoq qila olar es-aql,  
Vataning bor boshing uzra mustaqil,  
Yur, o'g'lonim, yurtni ko'tarish uchun.

Farqi bordir zulmat ila chiroqning,  
O'lgum dema, qadriga yet bayroqning,  
Osti ham bir, usti ham bir tuproqning,  
Yur, o'g'lonim, yurtni ko'tarish uchun.

Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu,  
Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu,  
Kelajakni sen qurasan, baxtni quv,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

(*Miraziz A'zam*)

## ?

### Savollar

1. Unli tovushlar deb qanday tovushlarga aytildi?
2. Unli tovushlar qanday tasniflanadi?
3. Undosh tovushlar deb qanday tovushlarga aytildi?

## 13-DARS. UNDOSHLAR TASNIFI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarining ongida undosh tovushlar va ularning xususiyatlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarini ota-bobolarimizga hurmat, ularning ishlaridan faxr-lanish ruhida tarbiyalash.

✓ ***Topshiriq.*** «Murod, maqsad xazinalari mehnat ko'prigi ustidadir» maqolidagi undosh tovushlarni aniqlang va ularning bir-biridan farqini tushuntiring.

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi.

Masalan, «b» undoshining talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo lablar to'sig'iga uchraydi. «P» undoshining hosil bo'lishida ham shunday holat bor, lekin uning «b» dan farqi talaffuzida jarang ishtiroy qilmaydi.

**O‘zbek tilida undosh tovushlar 23 ta:** b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng.

Bu undosh tovushlardan bittasi — *ng* yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi.

### I. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:

1. Lab undoshlari:

- a) lab-lab undoshlari: b, p, m;
- b) lab-tish undoshlari: f, v.

2. Til undoshlari:

- a) til oldi undoshlari: d, t, z, s, sh, j, ch, n, l, r;
- b) til o‘rtal undoshi: y;
- d) til orqa undoshlari: g, k, ng;
- e) chuqur til orqa undoshlari: q, g‘, x.

3. Bo‘g‘iz undoshi: h.

### II. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra:

- a) portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;
- b) sirg‘aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h;
- d) qorishiqlar: ch.

### III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra:

1. Jarangli undoshlar:

b, v, g, d, z, j, y, g‘, l, m, n, ng, r.

2. Jarangsiz undoshlar:

p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.

Shuningdek, ular tarkibiga ko‘ra sof va qorishiq, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra sonorlar va shovqinlilar deb ham tasniflanadi. Qorishiq undoshlar bitta: ch. Sonorlar esa beshta: l, m, n, ng, r. Bularning ichidan l yon tovush, r titroq tovush sanaladi.

**68-mashq. Matnni o‘qing, so‘zlarning tarkibida kelayotgan unli va undosh tovushlarga tasnif bering.**

Insoniyat qadimdan go‘zallikni ulug‘lab kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Ulug‘bek, Temur Malik, Bobur, Alisher Navoiy singari buyuk yurtdoshlarimiz haqida gap ketganida, biz hech qachon ulardan jismoniy go‘zalliklarni qidirmaymiz, balki ulardag‘i ma‘naviy go‘zalliklardan bahra olamiz.

Har qanday go‘zallik zamirida mehnat yotadi. Inson o‘zining hayotiy kuchini mehnat qilish jarayonida ko‘rsatmasa, mehnatni quvonch va baxt manbayi deb bilmaydigan bo‘lsa, yayrab-yayrab ishlamasaga, bu mehnat unga huzur bag‘ishlay olmaydi.

Insoniyat baxti yo‘lida ter to‘kmay turib, haqiqiy go‘zallikka erishib bo‘lmaydi.


(«Gulxan» jurnalidan)

**69-mashq.** *K* tovushi bilan boshlanib, *k* tovushi bilan tugaydigan so‘zlar charxpalagi ostida yashirinib yotgan leksik birliklarni topib, ular tarkibida kelayotgan tovushlarni izohlang.

**Ochqich:**

- 1 Tanlov so‘zining ma’nodoshi.
- 2 Uy parrandalarini saqlash uchun quriladigan kichkina uycha.
- 3 Bug’doy chiqindisi.
- 4 Darkor so‘zining ma’nodoshi.
- 5 Tuproq qotishmasi.
- 6 Ochilmagan paxta.
- 7 Yordam so‘zining ma’nodoshi.

*Eslatma:* hamma so‘zlar beshta tovushdan iborat bo‘lib, «*k*» tovushi bilan boshlanib, «*k*» tovushida tugaydi.



**70-mashq.** Quyida berilgan matnni o‘qing. So‘zlar tarkibida kelayotgan tovushlarga tasnif bering.


«ANDIJON POLKASI»NING MUALLIFI KIM?

1930-yili mashhur chex polkasi yaratildi. Bu kuy tez orada o‘zining ajabtovurligi bilan butun dunyoga tarqalib ketdi. Shu kuya hamohang tarzda O‘zbekistonda ham yangi kuy — «Andijon polkasi» dunyoga keldi. Mazkur raqs kuyining muallifi andijonlik bastakor Orif garmon (Orifjon Toshmatov) edi.

Polka so‘zining lug‘aviy ma’nosi «shiddatkor», «tezkor» demakdir.

(*Gazetadan*)

**71-mashq.** «Ismoil Somoni maqbarasi» mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyachadagi so‘zlar tarkibida kelayotgan undosh tovushlarga diqqat qiling.



## **72-mashq. Hikmatlarni o‘qing. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.**

Tabiiy qonunlar o‘zgarmas va mangudir. Inson tabiatiga xos tabiiy qonunlarning soni 12 ta:

1. Minnatdorlik.
2. Adolatparvarlik.
3. O‘zaro yon bosish va iltifot.
4. Kechirimlilik.
5. Ezgu kelajak haqida o‘ylar.
6. Haqoratga dosh berolmaslik, mag‘rurlik.
7. Beg‘arazlik.
8. Buyumlardan foydalanishdagi tenglik.
9. Taqdirga ishonish.
10. Egalik huquqi.
11. Hakamga itoat etish.
12. O‘z-o‘ziga hakamlik qilolmaslik.

## **73-mashq. She’rni o‘qing, til undoshlarini aniqlab, ularni izohlang.**

Muruvvat-u ma’rifatdir buyuklikning nishonasi,  
Qadam qo‘ying, mana sizga asl yo‘lning ostonasi.

Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,  
Zamon keldi Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.

Ming-ming shukur, kelib davron istiqbolga erishdik biz,  
Xarob bo‘igan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz...

Imon niri oqib turar bir gavhar bor qonimizda,  
Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda...

Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz,  
Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz...

*(Abdulla Oripov)*

## **74-mashq. Matni o‘qing. Lab undoshlarini toping va izohlang.**

Bizning orzu-niyatlarimiz ko‘p va ulug‘. Xalqimizda o‘zi pok, dili pok, niyati xolis kishini Yaratganning o‘zi qo‘llaydi, degan gap bor. Maqsadlarimizga erishish uchun oldimizda turgan to‘siq va g‘ovlarni yengib o‘tishimizga ishonchim komil. Butun aql-zakovatimizni, salohiyatimizni yurtimizning gullab-yashnashi, xalqimizning farovon hayoti, xalqaro maydon-dagi obro‘-e’tiborining yanada oshishi uchun safarbar eta olishimizga shubha yo‘q.

Bugun har bir vatandoshimizning Vatan menga nima berdi, deb emas, men o‘zim xalqim, jonajon vatanim uchun, uning kelajagi, baxtli istiqboli uchun nima qilmoqdaman, mustaqillik ishiga qanday hissa qo‘shmoqdaman, degan tuyg‘u bilan yashashiga erishsak hech birimizning, hech qanday armonimiz qolmas edi.

Ezgu niyatimizning ro‘yobga chiqishi uchun taraqqiy topgan ma’rifatlari dunyo bilan birga yashashimiz, hamkorlikni kuchaytirishimiz, hamdo‘stlik rishtalarini mustahkamlashimizni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagи tinchlik, barqarorlik bugungi kundagi yutuqlarimizning asosi bo‘lmoqda. Bu osoyishta hayotimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga,

himoya qilmoqqa qodir bo‘lmog‘imiz kerak. Shunday yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazmog‘imiz zarur.

Ozodligimiz bizga ko‘p narsani o‘rgatdi. Bu yorug‘ olamda avvalambor Yaratganga, keyin o‘zingga, qolaversa, ota-bobolarimizdan qolgan boy merosga, milliy qadriyatlarimizga ishonmoq lozimligini anglab yetdik. Millatimiz o‘zining mard, erkparvar, insonparvar tabiatini bilangina asrlar chig‘irig‘idan butun chiqib ketmoqda.

Xalqimizning eng noyob fazilatlaridan biri uning bir tan, bir jon bo‘lib yashashida ko‘zga tashlanadi. Shu sababli bizda hech kim yaxshi kunda ham, yomon kunda ham yolg‘izlatib qo‘yilmaydi. Xalqimiz yaxshilik qilgan, mehr-muruvvatli, oqibatlari odam hech qachon kam bo‘lmaydi, degan qoida bilan yashaydi. Shunday xalq ham, shunday yurtning o‘zi ham hech qachon kam bo‘lmaydi.

(«Ma ’rifat» gazetasidan)

### **75-mashq. Hikmatlarni o‘qing. Undosh tovushlarga tavsif bering.**

Donishmanddan so‘radilar:

- Qalblarni nima birlashtiradi?
- Muhabbat.
- Muhabbat nimadir?
- Ochiqko‘llik va xushfe’llik.

\* \* \*

Qulogqlaring va og‘zing o‘rtasida ishniadolatli taqsimla. Qulog‘ing ikkita, og‘zing esa bitta. Demak, sen kam gapirib, ko‘p eshitishing kerak. «Hamma balo tildan keladi», degan naqlini unutma.

\* \* \*

Ikki narsaning qadriga yo‘qotilgandan keyin yetiladi. Ular yoshlik va sog‘liq.

\* \* \*

Buzrugmehr shunday deydi: «Hayotdan ham qadriroq narsa bor bo‘lsa, bu — sog‘liq, o‘limdan ham qo‘rqinchliroq narsa bor bolsa, bu — kasallik, hayotga teng narsa — boylik, o‘lim bilan barobar narsa — faqirlik».

### **76-mashq. She’rni o‘qing. Undosh tovushlarga tavsif bering. She’r-dagi g‘oyaga munosabat bildiring.**

#### **VATANINGNI O‘STIR...**

Bir so‘z bor — yuksak tug‘ — iftixorimda,  
Tirigimda — nomus, o‘lganimda — sha’n.  
Bir so‘z bor —jon uning ixtiyorida,  
Xudoday ulug‘ bir so‘z bordir —VATAN.

VATAN! Taqdiringning toshi bemiqdor,  
 Aytgin, fido bo'lay qaysi bir toshga?  
 Birovning do'stlar-u xorijlari bor,  
 Mening hech kimim yo'q — o'zingdan boshqa.  
 Aziz zamondoshim, ruhing — beorom,  
 Ammo ishonchingdan ziyo taralsin —  
 Har tong «Yo, VATAN» deb sachranib uyg'on,  
 Dilingda «Qur'onday» — VATAN yaralsin.

Shubha shayton ishi. Ishonch bilan yur,  
 Ana, bobolarning sobit yo'llari...  
 Avval VATANingni yuragingda qur,  
 So'ng yerga ko'chirsin uni qo'llaring.  
 O'stir VATANingni bog' kabi tuyg'un.  
 Ishongin-u uni shu aziz yerga —  
 Hushyor bo'l — beega qoldirma bir zum —  
 Farzandingdan boshqa hech kimga berma.

(Usmon Azim)

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Undosh tovushlarning hosil bo'lishini tushuntirib bering.
2. Undosh tovushlar qanday tasnif qilinadi?
3. Undosh tovushlar deb qanday tovushlarga aytildi?
4. Undosh tovushlarni tasniflab bering.
5. *Ong, tong, manglay, arang, kelinglar* so'zлари тарқибидаги *ng* товушига изоҳ бering.
6. *Jon, jonajon, ajdar, g'ijjak, jahon* so'zлари тарқибидаги *j* товушининг аytilishi va yozilishini tushuntirib bering.
7. Jarangli undoshlarni sanab bering.
8. Jarangsiz undosh tovushlarning xususiyatlari haqida gapiring.

## FONEMA VA HARF

Biz nutqimizni yozma ravishda ham bayon qilamiz. Bunda yozma nutq harflar ketma-ketligidan tashkil topadi.

**Fonemaning yozuvdagи ifodasiga harf deyiladi.**

Harflar fonemalarning yozuvdagи aksi, tasviridir. Shuning uchun har bir tilda harflar shu tilning fonemalariga qarab olinadi. Bir fonemaga bir harfni to'g'ri keltirishga harakat qilinadi.

Harflarni xotirada yaxshi saqlash va lug'at tuzishda ma'lum izchillikka amal qilish maqsadida harflar muayyan tartibda joylashtiriladi.

**Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar tizimiga alisbo deyiladi.**

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida har bir unli fonema alohida-alohida harflar orqali ifodalangan bo'lsa, undoshlarda fonemalarda ikki harf orqali ifodalash hollari uchraydi: *sh, ch, ng* kabi.

**77-mashq.** Quyidagi matnda berilgan tanlama so‘zlarning tovush tizimini tahsil qiling. So‘zlarning qanday yozilayotganligiga diqqat qiling.

Boshliqlar bu mushkul *muammoni* yechish uchun bosh qotirib o‘tirganlarida, o‘tov eshigi oldida qurolli yigit Shiroq degan bir cho‘ponning kirishga ijozat *so‘rayotganini* bildirdi.

— Shiroq? — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?

— Shiroq bizning urug‘dan. O‘zi ertakchi, *dostonchi* dono chol. Butun umri cho‘ponlik bilan o‘tgan, — dedi *Saksfar*.

— Undoq bo‘lsa chaqir bu yoqqa o‘sha dono cholni. *Eshikdan yoshi oltmishdan* oshgan tetikkina, barvasta bir *chol* kirib, ta’zim qildi.

— Ijozat beringlar, men ham qatoringizda o‘tirib *o‘z fikrimni* aytsam. Nima *to‘g‘rida* gaplashayotganizingizni bilaman.

— O‘tir, o‘tir, gapingga quloq solamiz.

— Eron shohining askarlarli *Sirdaryo* ostidagi qum donalaridan ham ko‘p, ularni *jangga* chorlab, yengish mahol, ammo ularni qirib *tashlash* uchun bir yo‘l bor. Quлоq *soling...*

(Mirkarim Osim. «Shiroq»)

**78-mashq.** Nutqda jarangli undoshlarning jarangsizlanishi natijasida yuzaga keladigan omofonlarini toping va misollarni davom ettiring. Ularning qanday harflar orqali ifoda etilayotganligiga e’tibor qiling.

Erkin yettiga yetdi. Tursun tomda tursin. Guvoh sudga ketdi, qo‘shnim sutga ketdi...

**79-mashq.** Uyga vazifa. Quyidagi gapni o‘qing. Ma’naviy jasorat nima ekanligi haqida bahslashing. Unli va undosh tovushlarni topib, ularni ifodalovchi harflarga e’tibor qiling.

Eng buyuk jasorat bu — ma’naviy jasoratdir.

### 14-DARS. O'ZBEK YOZUVI TARIXI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida o'zbek yozushi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni madaniy boyliklarimizga hurmat, ularni asrab-avay-lash ruhida tarbiyalash.

*✓ Topshiriq. «Ilm o'r ganishdan murod mansab uchun emas, balki xalq va Vatan oldidagi burchni oqlash uchundir» jumlasini kirill yozuvida yozib ko'ring. Ikkala yozuv o'rtasidagi farqni aniqlang.*

Inson nutqi ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi: og'zaki va yozma. Yozma nutq og'zaki nutqni maxsus belgilari tizimi yordamida ifodalash demakdir. **Og'zaki nutqda tovushlardan, yozma nutqda esa harflardan foydalanamiz.** Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqidir.

Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o't mishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. Avesto, urxun-enasoy, sug'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari shular jumlasidandir. Bu yozuvlarda xalqimizning tarixi, urchodatlari, madaniyati va san'atiga aloqador bo'lgan qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

O'zbek xalqi 1930-yilga qadar bir necha yuz yillar davomida arab grafikasiga asoslangan turkiy yozuvidan foydalanib kelgan. Abu Ali ibn Sinoning tabobatga doir bebaho asarlari, Abu Nasr Forobi, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari buyuk olimlarimizning ilmiy mushohadalari, Navoiy, Bobur, Lutfiy, Mashrab, Furqat, Cho'lpion-u Fitratlarning aql bovar qilmas go'zal satrlari aynan ana shu yozuvda bitilgan.

1930-yildan to 1940-yilga qadar xalqimiz lotin yozuvidan foydalandi. 1940-yilning may oyidan boshlab esa rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozushi amalda tatbiq etildi.

Mustaqillik barcha sohalarda bo'lgani singari yozuv borasida ham milliy davlatchilik siyosatini yurgizish imkoniyatlarini yaratdi.

1993-yilning 2-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

1995-yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni e'lon qilindi.

*80-mashq. Avesto, sug'd, urxun-enasoy, uyg'ur yozuvlari bitilgan qanday madaniy obidalarni bilasiz? Shular haqida so'zlab bering.*

*81-mashq.* «Turon — sherlar o‘lkasi» mavzusida kichik matn tuzing. Xalqimiz lotin yozuvidan yana qachon foydalanganligini so‘zlab bering.

*82-mashq.* Matnni ko‘chirib yozing. Kirill yozuvidagi o‘zbek alifbosining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

Кўзи ожиз бир одам тим қоронги тунда қўлида чироқ ва елкасида кўза билан кўчада бораради. Ҳар нарсага бурнини сўқиб юрувчи бир одам унинг қаршисидан чиқиб қолибди ва аҳволни кўриб сўқирга дебди:

— Эй, нодон! Тун билан кундузни ажратолмайсан-у, яна қўлингда чироқ тутиб олганингга ўлайми!? Чироқнинг сенга нима фойдаси бор?

Кўзи ожиз қаҳ-қаҳ уриб кулиб юборибди ва жавоб қилибди:

— Чироқни ўзим учун кўтариб юрганим йўқ. Сенга ўхашаш дили кўр ва ақли қусирлар менга туртиниб кетиб, кўзамни синдириб қўймасин деб, уни ушлаб юрибман.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO‘G‘RISIDA

(*O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida  
1993-yil 2-sentabrdra qabul qilingan*)

Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929—1940-yillardagi ijobiliy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istakxohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishinijadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qildi.

1-modd a. O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va I tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o‘zbek alifbosi joriy etilsin.

2-modd a. Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek yozuvini joriy etish bilan birga O‘zbekiston xalqining milliy iftixori bo‘lmish bebahomavniy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o‘rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

*O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti*

*I.A. KARIMOV*

Toshkent shahri,  
1993-yil 2-sentabr.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA»GI QONUNIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi: O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'riska»gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1993-yil, № 9, 331-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan» so'zlari «26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan» so'zlari bilan almashtirilsin.
2. C c, F f harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifboden chiqarilsin.
3. Ö ö, harfl O'o' shaklida, Gğ harfi G'g' shaklida, Şş harfi Sh sh shaklida, Ç ç harfi Ch ch shaklida, Ñ ñ harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.
4. A a, I i, G g, G' g', Q q, o' o', Z z harflari va Ch ch harflar birikmasining yozma shakli tegishlichcha *Aa, li, gg, ğğ, Qq, öö, zz, Chch* tarzida ifodalansin.

*O'zbekiston Respublikasining Prezidenti*

*I.A. KARIMOV*

Toshkent shahri,  
1995-yil 6-may.

**83-mashq. Matnni o'qing. Undagi harflarning yozilishiga diqqat qiling.**

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yilning 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

Bayrog'imizdagi moviy rang — osmon va obihayot, oq rang — muqaddas tinchlik, yashil rang — tabiatning yangilanish ramzidir. Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudratni ifodalaydi. Navqiron yarimoy — ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz, 12 yulduz — madaniyatimizning qadimiyligini, xalqimizning komillikka, o'z tuprog'ida saodatiga intilishi ramzlaridir.

**84-mashq. Uyga vazifa. Matnni o'qing. Unli tovushlarni aniqlab, ularga taysif bering.**

Yurtimizning hamma joylarida kichkinagina, kishini hayratda qoldiradigan darajada yoqimli sayraydigan mallarang qushcha — bulbul uchraydi.

Bulbul qirg‘oq bo‘ylaridagi to‘qayzor, butazorlarda, suvi ko‘p bo‘lgan bog‘ va qishloqlarda, tog‘lardagi o‘rmonzorlarda yashaydi. U Arabiston yarimorolining janubida qishlab, aprelning oxirida yurtimizga uchib keladi. Yozda O‘zbekistonda yashab, sentabrdha yana uchib ketadi.

Bulbul — tabiatning noyob in’omidir. Uni himoya qilish kerak.

(P. Yusupova)

## ?

### Savollar

1. Grafika nimalarni o‘rgatadi?
2. O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?
3. O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

## 15-DARS. HOZIRGI ALIFBODA UNLILARNING IFODALANISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida unli harflar va ularning ifodalanishi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni hayotdagi o‘z o‘rnini uchun kurashish, duch kelgan to‘sqliarni dadil yenga bilish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** «*Tarbiyasiz odam jonsiz jasadga o‘xshaydi*» maqolidagi unlilarni topib, ularga izoh bering.

**2-topshiriq.** *Litsey, militsiya, sirk so‘zlaridagi undosh tovushlarning yozilishini tushuntiring.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetik jihatdan markaziy dialektlarga asoslanadi. Mazkur dialektlarda oltita unli fonema mayjud.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga ham oltita unli harf kiritilgan. Bular quyidagilar: I i, U u, E e, O‘ o‘, A a, O o.

Kirill yozuvidagi *e*, *ë*, *io*, *я* unli harflari yangi alifboda quyudagicha ifodalanadi:

*e* — ye; yetti, yelkan, yemish;

*ë* — yo; yolg‘iz, yoqut, yomon;

*io* — yu; yutuq, yumush, yupqa;

*я* — ya; yaxshi, yakka, yangi.

**85-mashq. «Mustaqillik bayramida» mavzusida berilgan matnni o‘qing. Unli harflarning yozilishiga diqqat qiling.**

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi.

Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor...

Erkini sog‘inib yashagan o‘lka bugun shu erkinlik, hurlik deb atalgan ne‘matdan bahramand bo‘lib yashamoqda. Ko‘m-ko‘k, moviy osmonda porloq quyosh ozodlikning timsoli bo‘lib porlamoqda.

Yurtim mustaqil bo‘lgan chog‘da dasta gullar bilan bilim maskani bo‘lmish maktabimga oshiqardim. Halihanuz xotiramda muhrlanib qolgan o‘sha yuzlari purnur keksa muallimim — ayolning ne sababdan jamoat, son-sanoqsiz qora ko‘zlar sohibalari huzurida ko‘zyosh to‘kkananini endi tushunib yetdim. O‘zbek xalqi o‘z ozodligi, farovon hayoti uchun kurashib jang-u jadalda mustaqillik uchun jon berib turgan o‘sha damda shu xalqning murg‘ak farzandlarini sovuq, partasiz, qorong‘i xonalarda ozgina bo‘lsa-da, savod sohibi qilish, o‘z fikrini ravon so‘zlamoqni o‘rgatishni o‘z zimmasiga olgan bu ayolning ko‘z yoshlarida o‘sha mash‘um kunlarga qo‘yilgan nuqta aks etgan ekan. Olloh nazari tushgan jannatmakon ona zaminimiz dovrug‘i mustaqillik sharofati ila butun dunyoga tarqalmoqda.

Yurtimizda juda qisqa fursat ichida aql bovar qilmas o‘zgarishlar ro‘y berdi. Biri biridan ko‘rkam, hashamatli binolar qad rostladi. Hamma joyda yaratish, bunyodkorlik ishlari avj oldi. Mustaqillik bayramining quvnoqlik, shod-u xurramlik ila nishonlanishida shu tuproqda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi bor. Har yilgi Mustaqillik bayrami O‘zbekiston tarixi sahifalariga zarhal harflar ila muhrlanib yozilajak...

**86-mashq. Husnixatdan ruhiyatga. Kimligingizni bilmoqchi bo‘lsangiz, bir varaq qog‘oz oling. Fikringizni bir joyga jamlab, unga bir-ikki jumla yozing. So‘ng matndan quyidagilarni aniqlang:**

1. Harflarning o‘lchami:

- a) juda kichkina — 3 ball;
- b) kichkina — 7 ball;
- d) o‘rtacha — 17 ball;
- e) katta — 20 ball.

2. Harflarning og‘ishi:

- a) chapga og‘gan — 2 ball;
- b) biroz chapga og‘gan — 5 ball;
- d) o‘ngga og‘gan — 14 ball;
- e) keskin o‘ngga og‘gan — 6 ball.

3. Satrning yo‘nalishi:

- a) satr yuqoriga yo‘nalgan — 12 ball;
- b) satr to‘g‘riga yo‘nalgan — 16 ball;
- d) satr pastga yo‘nalagan — 1 ball.

4. Qalamni bosish darajasi:
  - a) yengil — 8 ball;
  - b) o‘rtacha — 15 ball;
  - c) juda kuchli — 21 ball.
5. So‘zlarni yozish usuli:
  - a) harflarni va so‘zlarni bog‘lashga intilish bor — 11 ball;
  - b) harflarni bir-biridan uzishga intilish bor — 18 ball;
  - c) aralash uslub — 15 ball.
6. Umumiy baho:
  - a) xat qunt bilan yozilgan, harflar aniq — 13 ball;
  - b) xat paydar-pay yozilgan, ba’zi harflarni o‘qib bo‘lmaydi — 9 ball;
  - c) xat yomon yozilgan, o‘qish qiyin — 4 ball.

Endi olingan natija bo‘yicha o‘zingizning kimligingizni aniqlang.

*38—51 ball.* Bunday husnixat odatda sog‘lig‘i yomonlashgan, keksaroq kishilarda bo‘ladi.

*52—63 ball.* His-tuyg‘ulari va kayfiyati ancha turg‘un bo‘lgan, sekin harakat qiladigan, yuz tuzilishidan biror ma’no o‘qish qiyin bo‘lgan, og‘ir, vazmin odamlar shunday yozishadi.

*64—75 ball.* Bunday husnixat egalari qat‘iyatsiz, yumshoqko‘ngil bo‘lishadi. Ular soddaroq bo‘lsalar-da, o‘z qadr-qimmatini bilishadi.

*76—87 ball.* Dilkash va ta’sirchan, ochiq va ko‘nglidagini yuziga aytadigan kishilarga xos.

*88—98 ball.* Bu husnixat haqiqatgo‘y va intizomli, kuchli turg‘un ruhga ega bo‘lgan, tashabbuskor, har ishda hisobli, qat‘iyatli odamlarga xos.

*99—100 ball.* Individualistlarning husnixati shunday bo‘ladi. Ular tez jahli chiqadigan yoki tez xursand bo‘ladigan o‘tkir aql sohibidirlar. Fikrlashda va faoliyatda boshqalardan o‘ta mustaqilligi bilan farq qiladi. Bunday odamlar tez xafa bo‘ladilar. Ular bilan muloqotda bo‘lish mushkul. Qobiliyatli va ijodga moyil odamlarga xos.

*101—121 ball.* Bunday husnixat egalarida mas’uliyat tuyg‘usi bo‘lmaydi hamda ular intizomsizlik, qo‘pollik va o‘ziga bino qo‘yish xislatlariga ega.

**87-mashq.** «Maskura — millat tug‘i», «Navro‘z tonggida», «Mas’uliyat va burch» mavzularining biri bo‘yicha matn yozing. Yozgan matningizdagi unlilarning ifodalanishiga e’tibor bering.

## HOZIRGI ALIFBODA UNDOSHLARNING IFODALANISHI

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush bor. Yangi alifboda ular 20 ta harf va 3 ta harflar birikmasi bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Bb, Dd, Ff, Gg, Hh, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Vv, Xx, Yy, Zz, G‘g‘ harflari uchun xalqaro andozadagi belgilarni olingan.

Ш ш, Ч ч, Нг товушлари учун quyidagi harflar birikmasi olingan: Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Ruscha-baynalmilal so‘zlardagi ү harfini ifodalash учун S s harfi ishlataladi: *Sirk*, *Sezor*, *sikl*.

Bunday so‘zlarda ү unlidan keyin kelganda bitta t orttiriladi: *litsey*, *miliitsiya* kabi.

**88-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Undosh tovushlarning ifodalanishiga diqqat qiling.**

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI

Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yilning 2-iyul kuni tasdiqlangan.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida 8 qirrali yulduz tasvirlangan; 8 qirra ichida joylashgan yarimoy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir. Gerb markazida himmat, oliyanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan Humo qushi tasvirlangan.

Ushbu ramz, timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbda ifodalangan gullagan vodiy, Quyosh, o‘ng tomonagi bug‘doy boshoqlari, so‘l tomonidagi ochilgan paxta chanoqlari yurtimizning boyliklari ramzidir.

**89-mashq. Matnni lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida ko‘chirib yozing. Undoshlarning ifodalanishiga diqqat qiling.**

Шарқдаги бир ривоятда айтилишича, бир бегуноҳ одамни тутиб олиб, сазойи қиласиган бўлишибди. Уни дарахтга боғлабдилар, назоратчилар қараб туришибди. Бирор келиб юзига тутурибди, бирор кесак отибди, бирор тош отибди. Оломон ичидаги унинг энг яқин сирдош дўсти ҳам бор экан. Билалики, дўстида гуноҳ йўқ. Бекордан-бекорга сазойи қилинмоқда, тухматга учраган. Нима қилишини билмабди. Дўстининг сазойи қилинишида қатнашмасликнинг ҳам иложи йўқ. Сўкай деса, сўка олмайди. Тош отай деса, дўсти. Этагининг баридан чигитдай пахтани суғуриб олиб, бир урган экан, ҳар хил сўкиш ва ҳақоратларга, тошга, кесакка бардош берган одам, жиндай пахта юзига текканда «дод» деб, хушидан кетган экан, чунки уни дўсти отди-да!

**90-mashq. Uyga vazifa. Matnni ko‘chiring. Undosh tovushlarni belgilab, yozilishini tushuntiring.**

## MUSTAQILLIK O‘GITLARI

Bizni tanlagan yo‘limizdan hech kim, hech qachon qaytara olmaydi. Zotan, Vatanga bo‘lgan mehr-u muhabbat har qanday muammoni

yechishga, har qanday yovuz kuchni yengishga qodirdir. Endi, ortga yo‘l yo‘q. O‘zbekiston istiqbolini sobitqadamlik bilan barpo etmog‘imiz zarur. Bu yo‘lda ikkilanmoq, manfaatparastlikning mayda-chuyda tashvishlariga o‘ralashmoq Vatanga, xalqqa, kelajak avlodga xiyonat bo‘ladi.

Biz istiqlol sharofati bilan ko‘p qadriyatlarni: imonimizni, milliy g‘ururimizni, ozodlikni, bir so‘z bilan aytganda, Parvardigorni qaytadan chinakamiga tanidik. Endigi vazifa — bobolarimizning poymol etilgan orzu-umidlari haqqi, avlodimizga, Siz-u bizning farzandlarimizga, butun dunyo bilan teppa-teng baylashadigan buyuk O‘zbekistonni meros qilib qoldirmoqdир.

Istiqboldagi O‘zbekiston Vatan ozodligi nasib etmagan bobolarimizga ulug‘vor haykal bo‘lajak!

O‘zbekistonning shuhratiga shuhrat qo‘suvchi farzandlarimizga muqaddas beshik bo‘lajak!

## ?

### Savollar

1. Hozirgi alifboda unlilar qanday ifodalanadi?
2. Hozirgi alifboda undoshlar qanday ifodalanadi?
3. Ш, Ч harflari lotin yozuvida qanday yoziladi?

## 16-DARS. UNDOSHLARNING TALAFFUZI VA YOZILISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni rostgo‘ylik, to‘g‘rilik ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Gapdagи tovushlarning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering. *Hayo, muruvvat, sadoqat, tavoze, mehnat, saxiylik, nomus, vafodorlik va adolat insonga baxt-saodat keltiradi.*

### 91-mashq. So‘zlarning talaffuzi va yozilishiga e’tibor bering.

Obod, adab, fabrika, maqsad, to‘qson, burun, xayol, xalq, tadbir, ruxsat, ijtimoiy, iztirob.

### 92-mashq. Gaplarni ko‘chirib yozing. Undosh tovushlarning talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling.

Har kimga ozor bera ko‘ma — dunyo barchaga barobardir. Tamagirlik — ofat. Tamagirlik bilan adolat bir-biriga ziddir. Boylikka hirs qo‘yish — joduning sirtmog‘iga tushib qolish bilan barobar. Vaqt — keskir qilichdir. U hech narsaga qaramay shart o‘tadi-ketadi, sen esa voyvoylagancha qolaverasan. Rostlikning mevasi totli, natijasi esa samaralidir. Xushfe‘l bo‘lish yaxshi odat. Kishining fe‘l-atvori o‘zini begona qiladi, o‘zgani xesh.

U hatto otani boladan judo qiladi. Hakimdan so‘radilar: «Rostgo‘y deb kimni aytsa bo‘ladi?» U javob qildi: «Tili bilan dili bir bo‘lgan odam rostgo‘y, haqgo‘y odam hisoblanadi».

Turnalar samoda chizsa guldasta,  
Qoyadek bo‘lsa-da burgut viqori.  
Toshlar orasidan mo‘ralab asta,  
Ko‘kargan maysani ko‘rdim yuqori.

(Sh. Qosimov)

**93-mashq. Gaplarni ko‘chirib yozing. Undoshlarning yozilishiga diqqat qiling.**

Ulug‘vor maqsad oldida turganingda, mehnatni rohat bil. (*Arab magoli*) Qabrga emas, qalbga haykal qo‘ymoq kerak. Mag‘lubni tepib o‘tmak mardlik emas. (*Pahlavon Mahmud*) Hargiz talabi shuhrat etmakim: ofat turur. (*Abduxoliq G‘ijduvoniyi*) Kimki tashlandiq yerni obod qilsa, bu yer o‘shaniki bo‘ladi. Bu yerda zolim kishining (hatto) ter to‘kishga ham haqqi yo‘q. (*Abu Iso Muhammad at-Termizi*) Mehnat kishini uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan. Sabrning tagi sariq oltin.

Har ko‘zki, agar olmasa ibrat, ko‘rdir,  
Har luqma, agar bermasa lazzat, sho‘rdir.  
Har to‘n, agar o‘zgarmasa, to‘nmas, u kafan,  
Har xonaki, birdek turaversa, go‘rdir.

(Abdulqodir Bedil)

**94-mashq. Maqollarni ko‘chirib yozing. Undoshlarning yozilishiga diqqat qiling.**

G‘am yema, beg‘am ham bo‘lma. Bog‘ingni zog‘dan saqlamoqchi bo‘lsang, unga e‘tiborda bo‘l. Pokliling — sog‘lig‘ing. Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, duo bilan el. Onangni kaftingga tutsang, singlingni kiftingda tut. Shirin yolg‘ondan ko‘ra achchiq haqiqat yaxshi. Chayonning kasbi chaqish. Sen o‘zingni maqtama, birov seni maqtasin. Suv ichadigan quduqqa hech qachon tosh otma. Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar.

**95-mashq. Matnni o‘qing. Ularda ishlatilayotgan unli va undosh tovushlarga diqqat qiling, talaffuzi va yozilishini kuzating.**

**BUYUK DAVLATCHILIGIMIZ ASOSLARI**

Ko‘hna Turon — ona Turkistonda azaldan bitta g‘oya, bitta tushuncha hamma narsadan muqaddas sanalib kelingan. Bu g‘oya Vatan, ona yurtga muhabbat, mangu ehtirom tuyg‘usidir. Shu tabarruk zaminning munosib farzandlaridan biri sanalgan Yusuf Xos Hojib boqiy davlat uchun to‘rtta

tirgak kerakligini «Qutadg‘u bilig» asarida qayta-qayta ta’kidlagan edi. Bular kuch-qudrat, aql-farosat, sabr-toqat va bilimdir. Tarixdan ma’lumki, shularga asoslangan davlatlar hech qachon kam bo‘lImagen. Qoraxoniylar, somoniylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar, xorazmshohlar, temuriylar davrida yuqoridagi so‘zlarga amal qilingan. Adolat, ma’rifat va yuksak ma’naviyat tarixiy davlatchilikning hamishalik poydevori sanalib kelingan qudratlari davlat barpo etgan Amir Temuring o‘z muhriga «Rosti – rusti», ya’ni «Kuch adolatdadir» deb yozdirib qo‘yanida ham ayni mana shu fikr barqarordir.

Hurmatli yurtboshimiz o‘z nutqlaridan birida: «Milliy g‘ururi, milliy iftixori baland millatni yengib bo‘lmaydi», deb aytgan edilar.

Darhaqiqat, o‘tmishdan saboq olib, kelajagini dadil barpo etayotgan millatni yengish sira mumkin emas.

O‘zbek davlatchiligining asoslari juda mustahkam.

**96-mashq.** Uyga vazifa. «Ma’naviyat — qalbim quyoshi» yoki «Ma’naviyatimiz daholari» mavzularida matn tuzib, unli va undosh tovushlarni izohlang.

### ?

### Savol va topshiriqlar

1. Lab undoshlarining talaffuzi va imlosidagi farqlarni tushuntiring.
2. Til undoshlarining talaffuzi va imlosidagi farqlarni tushuntiring.
3. *X* va *h* undoshlarining talaffuzi va imlosi haqida so‘zlab bering.
4. Qaysi jarangli undoshlar talaffuzda jarangsizlashadi?

## 17-DARS. ASSIMILATSIYA, DISSIMILATSIYA, JARANGSIZLASHISH, METATEZA VA BOSHQA FONETIK HODISALAR

*Darsning maqsadi:*

a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza va boshqa fonetik hodisalar yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;

b) o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** O‘tdi, ishni, zarur so‘zları og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinadi? Mazkur so‘zlardagi fonetik hodisani izohlang.

**2-topshiriq.** Stul, stansiya, shkaf so‘zlarini talaffuz qilganimizda qanday hodisa kuzatiladi?

Nutq jarayonida tovushlarni ketma-ket keltirish yo‘li bilan turli xil ma’noli birliklarni hosil qilamiz. Masalan, *t-o-sh*, *b-o-sh*, *q-o-l*.

Yuqoridagi so‘zlar tarkibidagi tovushlar alohida-alohida emas, balki uzuksiz talaffuz qilinadi, so‘zlar uzuksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to‘liq talaffuz qilinmay turib, nutq a‘zolari ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovushlar zanjiri vujudga keladi.

**! Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.**

Masalan, oq so'zi asosiga -gach qo'shimchasini qo'shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa q dan so'ng til orqa g undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o'tishi qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish, qulaylikka erishish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqa tovushiga aylantiriladi.

Solishtiring: *oqqach, soggani, ekkani* kabi.



**Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar deyiladi. Fonetik hodisalar unlilarga ham, undoshlarga ham taalluqlidir.**

### **97-mashq. Ko'chiring. Fonetik hodisalarning ostiga chizing.**

Sariq — sarg'ay, o'g'il — o'g'lim, singil — singli, sust — susay, taroq-im — tarog'im, o'rtoq-im — o'rtog'im, bilak-i — bilagi, tirkak-i — tirkagi, sarimsoq-i — sarimsog'i, turpoq-i — tuprog'i, kirpik-im — kiprigim.

**98-mashq. Matnni ko'chiring, qanday fonetik hodisalar borligini aniqlab, ularning tagiga chizing. Imlo qoidasiga muvosiq qanday yozilishi lozimligini ko'rsating.**

1. To'yxonaga savzi to'g'ragani chiqdik. 2. Bir borakan, bir yo'g'akan, qadim zamonda bir cholminan kampir bo'lganakan. 3. Cho'nchagimga yusso'm solib, ko'chaga chiqtim. 4. Devol ustida muchicha turipti.

**99-mashq. Quyidagi matnni orfoeipiya qoidalariga rioya qilib o'qing, so'zlarning talaffuziga rioya qiling.**

Oltin o'tda bilinadi, odam — mehnatda. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'in ko'rmassan. Ko'p ishlovchi ko'p yashaydi. Mehnat qilsang, ko'nglingga yorug'lik tushadi. Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab turib baho beradilar. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.

**100-mashq. Maqollarni ifodali o'qing. So'zlardagi fonetik hodisalarni aniqlang.**

Orqada turgan do'stdan oldinda turgan dushman yaxshi. (*Gruzin maqoli*) Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi, tafakkur esa uni yoritadi. (*Ingliz maqoli*) Nodon aytur: g'olib chiqdim, dono aytur: yo'l berdim. (*Tatar maqoli*) Dono olg'a boraturib, orqaga qarab qo'yadi. (*Pushtun maqoli*) Aqlli xalqqa intilsa, nodon o'z qarindosh-urug'lariga intiladi. (*Qirg'iz maqoli*)

Ozodlik — obodlik. (*Tojik maqoli*) Do'stlik shishaga monand, sinsa — ulay olmaysan. (*Rus maqoli*) Kishilarga muhabbat — eng yaxshi davlat. (*Arab maqoli*) Yakkani bo'ri yer. (*Qoraqalpoq maqoli*) Birgalashib ovqatlansang — lazzatlanasan, birgalashib ishlasang — xursand bo'lasan. (*Adigey maqoli*) Haqiqat daraxtini toshga o'tqazganda ham qurimas. (*Gruzin maqoli*) Aqli qariya — oqib turgan daryo. (*Qozoq maqoli*). Hatto eng baland tog' ham quyoshni to'solmas. (*Xitoy maqoli*) Baxt kulgu bor uyga kiradi. (*Yapon maqoli*) Baxt odamni emas, odam baxtni vujudga keltiradi. (*Polyak maqoli*)

**101-mashq.** Sh. Boshbekovning «Temir xotin» dramasidan olingan biror parchani o'qing, personajlar nutqini tahlil qiling. So'zlardagi tovush o'zgarishlarini belgilang.

**102-mashq.** Quyida berilgan so'zlarda ro'y bergan fonetik o'zgarish-larning turini aniqlang, ularni ustunchalarga joylashtiring.

qorin — qornim, yurak — yuragi, o'g'il — o'g'lim, shahar — shahrim, ulug' — ulg'ay, undan — unga, mening — sening, og'iz — og'zim, ko'ngil — ko'nglim.

Tovush orttirilishi	Tovush tushishi	Tovush almashinishi

**103-mashq.** Matnni o'qing. Professor H. Ne'matovning o'zbek tili rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'zlab bering.

### HAMID G'ULOMOVICH NE'MATOV

1941-yili tavallud topgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

O'zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi bo'yicha qator asarlar muallifi. Ular orasida «Qadimgi tarixiy yodgorliklarning funksional morfologiysi», professor Ravshan Rasulov bilan hamkorlikda yozgan «O'zbek tilining sistemaviy leksikologiyasi asoslari» kitoblari alohida ajralib turadi.

H. Ne'matov o'rta umumiy ta'limda «Ona tili» fanini takomillashtirish bo'yicha ham barakali xizmat qildi.

## SO'Z BOSHI, SO'Z O'RTASI VA OXIRIDA UNDOSHLARNING ISHLATILISHI, ULARNING IMLOSI

O'zbekcha so'zlarning fonetik tuzilishidagi o'ziga xoslik shundaki, so'zning boshida ketma-ket ikki undosh bir joyda kelmaydi. Shuningdek, so'zning oxirida ham *st* (*ost, usi*), *lt* (*yilt, milt*), *rt* (*to'rt, turt, qurt*) kabi qo'sh undoshlardan tashqari, boshqa undoshlar yonma-yon kelmaydi.

*Traktor, stakan, stol* kabi so‘z boshida qo‘s sh undosh kelgan so‘zlar xorijiy tillardan kirib kelgan so‘zlardir. So‘zlarning bunday tovush tuzilishi tilimizga xos bo‘lmajanligi uchun ham, qo‘s sh undoshlar orasida, ba‘zan oldida bir unli qo‘s hilib ikki bo‘g‘inga ajratilgan holda talaffuz qilinadi (*tiraktir, istakan, istol* kabi), lekin ular asl holatida yoziladi (*traktor, stakan, stol* kabi).

So‘z oxirida qo‘s sh undosh kelgan *go‘sht, musht* (sht), *daraxt, baxt* (xt), *barg* (rg) kabi so‘zlar esa, asosan, fors-tojik tilidan o‘tgan.

Bunday so‘zlarda yonma-yon kelgan undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldiriladi. Yozuvda yonma-yon kelgan undoshlar saqlanadi.

Talaffuzda:

go‘s  
mush  
farzan

Yozuvda:

go‘sht  
musht  
farzand

**104-mashq.** «Non — rizq-ro‘zimiz» mavzusi bo‘yicha matn tuzing, so‘z boshi va oxirida qo‘s sh undosh kelgan so‘zlarni ko‘chirib yozing. Talaffuzi va imlosini tushuntiring.

**105-mashq.** Matnni o‘qing. Undosh tovushlarning yonma-yon ishlatalishi sabablarini tushuntirib bering.

— Kim, u?

Suv olayotgan Anor yalt etib bolaga qaradi. Qizning yuzlari lov-lov yonar, katta ko‘zlarida o‘t chaqnardi.

— U-mi? U-chi... — Qani, o‘zing top-chi, kimga o‘xshayapti?

— Hech kimga, — Sanjar hamon jahlidan tushmagandi.

— Chirolyi-a? — Anor ko‘z qisdi.

— Kim u? — Sanjar oyog‘i ostida turgan toshni zarb bilan daryoga tepdi.

— Umi? U-chi — u sening pochchang bo‘ladi. Sanjar suv to‘la chelakni qanday tepib yuborganini, og‘zidan yomon so‘z chiqib ketganini bilmay qoldi. Jon-jahdi bilan yugurib ketdi...

Kechqurun esa butun alamini mehmonning ko‘chada qolgan mashinasidan oldi. Mashina eshidiga chirolyi qilib «qur-ruq», «kar-ran-da» deb yozib qo‘ydi. «Pistirma»da turgan Ergash kelib yozuvni ko‘rdi-yu, afsuslangannamo:

— Rasvo qilding, — dedi.

— Nimasi rasvo,— Sanjar unga sotib qo‘ymasaydi degan hadik bilan qaradi.

— «Quruq»da ham «karanda»da ham bittadan «» yoziladi, — dedi Ergash salmoqlanib.

— Sen uni avval bir ko‘rgin, — dedi Sanjar ko‘ngli o‘rniga tushib, — u shunday qur-ruq, shunday kar-ran-daki, uchta «» yozsang ham kamlik qiladi.

(M. Mirzarahimov)

**106-mashq. Kichik hikoyachalarni o‘qing. Undoshlarning yonma-yon kelish sabablarini tushuntiring.**

### «ASPIRO»

Ilgari zamonlarda olimlar o‘z oldilariga yunoncha «aspiron», ya’ni «intilaman» degan shior qo‘yanlar. Ular olam sirlarini chuqurroq bilib olish maqsadida o‘z ustozlaridan mumkin qadar ko‘proq bilim olishga intilishgan. «Aspirant» atamasi «aspiro» so‘zidan olingan bo‘lib, hozirda «bilim egallahga intilish» ma’nosini bildiradi.

Qadim rimliklarda toga kiyish rasm bo‘lgan. Toga degani jun matodan tikilgan rangdor yopinchiqdир. Senatorlar va chavandozlar qizil hoshiyali toga kiyganlar.

Biron mansabga o‘tish harakati bo‘lgan shaxslar esa bu libosni toga-kandida deb ataladigan basavlat sidirg‘a oq xilini kiyib yurishgan. «Falon fanlar nomzodi» (kandidat) degan unvon, shundan kelib chiqqan.

### AVTOMASHINAGA QO‘YILGAN BIRINCHI RAQAM

Avtomashinalarga raqam qo‘yishni birinchi bo‘lib boshlagan kishi berlinlik savdogar Rudolf Gersog edi. U 1901-yilning yozida o‘z avtomobiliga IA1 belgisini osib qo‘yadi. Bu raqamning tarixi qiziq. Rudolfning yoshi ulg‘ayib qolgan bo‘lsa-da, xotini ancha yosh bo‘lib, uni juda sevardi.

Shuning uchun savdogar avtomobilini uning nomi bilan IA deb, ya’ni Ioganna Anker, deb atadi. I raqami esa Rudolfnинг birinchi va oxirgi sevgisini bildirsa kerak.

(«Ma’rifat» gazetasidan)

**107-mashq. So‘z boshi, o‘rtasi va oxirida kelayotgan undoshlarning talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling.**

### KOMPYUTERDAGI HAYOT

Amerikalik Aleksandr Balonkin Nyu-Jersi (AQSH)dagи Texnologiya institutida bir fantastik g‘oya ustida ishlamoqda. «Star» gazetasining ma’lum qilishicha, olim insonning kompyuterdagи abadiy hayotini ta’milanishini yo‘lga qo‘ymoqchi. Uning fikriga ko‘ra, «abadiy hayot»ga kishi miyasi mundarijasini maxsus mikrodisklarga yozib olish orqali erishiladi. Shundan so‘ng u o‘z hayotini «elektron» ravishda davom ettiradi. «Bunday odam, dedi Balonkin, oddiy kishilardan ko‘ra, ancha ustunliklarga ega. Unga na ovqat, na havo va na turar joy kerak bo‘ladi. U xohlasa Arktika yoki Sahroyi Kabirda sayr qilishi, hatto koinotga bemalol chiqishi mumkin».

Bunday inson miyasi radioaktiv batareykalar orqali oziqlanadi, qo‘l-oyoqlari kichik hajmli yadroviy dvigatellar yordamida harakatga keltiriladi. U chiroyli yuz, tanaga ega bo‘lishi mumkin, o‘zini ming xil tusga kiritish imkoniyatiga ega. Ushbu supermen ma’lumot olish uchun rentgen, gamma-

nurlanishi, ultratovush va radioto‘lqinlarni qo‘llashi mumkin. Insoniyat tomonidan to‘plangan, istalgan bilimlar uning miyasiga bir onda yoziladi. Xullas, ana shunaqa gaplar, odamlar to‘rtburchak elektron narsa ichida yashashlari mumkin ekan. Lekin, ming qilsa ham, ushbu, Olloh tomonidan ato etilgan hayotga nima yesin?

(«Turkiston» gazetasidan)

**108-mashq.** So‘zlarni daftaringizga ko‘chirib oling. Undoshlarning yonma-yon kelish sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

Arbob, atrof, ehtiyot, ilhom, imkoniyat, inshoot, qisman, muzday, muharrir, jiddiy, tasavvur, tashqi, mudofaa, matbaa.

Litr, metr, bank, tank, metall, kilovatt, kilogramm, test, trest, kiosk, budjet, rejissor, sekund, abonement, menejment, ocherk, baxt, shkaf, student, studiya.

Inspeksiya, transport, institut.

Trassa, assimilatsiya, dissimilatsiya.

Ganj, daraxt, hunarmand, band, do‘sst, farzand, shikast, mard, rostgo‘y, kaft, kift, karaxt.

**109-mashq.** Matnni o‘qing. So‘z boshi, o‘rtasi va oxirida undoshlar ishlatalgan so‘zlarni toping. Ularga tavsif bering.

### NOBEL VA UNING VASIVATI

Alfred Nobel 1833-yili Shvetsiyaning Stokgolm shahrida iqtidorli kashfiyotchi Emmanuel Nobel oilasida tug‘ilgan. Bola 9 yoshga to‘lganda Nobellar oilasi Sankt-Peterburgga ko‘chib keladi. Ota o‘g‘lini o‘qitish uchun mablag‘ini ayamaydi. Irodasi kuchli, mehribon ona esa o‘g‘liga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi. Til o‘rganishga ishtiyoqi baland, o‘tkir zehn egasi bo‘lmish Alfred 17 yoshida Yevropa tillarining beshtasida bemalol so‘zlasha olardi. Ustozlaridan biri — Peterburg universiteti professori Nikolay Zininning bergen darslari Alfredning organik kimyo faniga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirdi. XIX asrning 30-yillarda oila boshlig‘i Emmanuel Nobelning suv osti minasi kashfiyotiga Rusiyada katta qiziqish bildirildi. O‘sha paytda «Nobel va o‘g‘illari» kompaniyasi gullabyashnayotgan, rus armiyasida esa zamонавиу texnikaga ehtiyoj oshib bora-yotgan edi. Shu bois buyurtmalarning keti uzilmas edi. Qrim urushidan keyin hammasi chappasiga o‘zgardi: kompaniya bankrotlik yoqasiga kelib qoldi.

Kompaniya inqirozga uchragach, Alfredning ota-onasi Shvetsiyaga qaytib ketadi. Alfred esa akalari Lyudvig va Robert bilan Rusiyada qoladi. 70-yillarning boshlarida aka-ukalar Ijevsk shahridagi qurol-aslasa zavodlari ustidan nazorat qilishar edi. Keyinchalik ular Bokuda «Aka-uka Nobel-larning neft ishlab chiqarish shirkatini» (1879) tuzadilar. Bu kompaniya mahsulotlari juda tez fursatda o‘z xaridorlarini topdi. Shirkat neft qazib

chiqarish, kerosin, benzin, parafin, soda mahsulotlari yetkazib berish bilan shug'ullanar edi.

Aka-uka Nobellar izlanardilar, kashfiyotlar qilardilar. Lyudvig dunyodagi eng birinchi tankerni loyihalashtirdi, birinchi sisternani qurdi, birinchilardan bo'lib neft quvurlarini ishlatdi. Alfred esa dinamit, portlatish detonatorini kashf qildi.

Shvetsiyada Boltiq dengizi bo'yida tankerlar quriladigan korxona ishga tushadi. Astraxanda verf quradilar. Aka-ukalar Yevropa va Amerikaning eng ilg'or texnika kashfiyotlaridan unumli foydalana olardilar.

XIX asr oxiriga kelib Nobellarning mablag'i sezilarli darajada oshdi. Rusiya neftining 90 % i ular nazoratida edi. Bu borada aka-ukalar Rokfeller-larning «Standart oyl» kompaniyasidan ilgari borardilar.

Alfredning mehnatsevarligi, tashabbuskorligi, uddaburonligi o'z mevalarini berdi, o'limidan oldin u 355 patent, dunyoning yigirma mamlakatida 90 ga yaqin korxona egasi edi.

Garchi Nobel hayoti davomida atrof-muhitni xarob qiluvchi ko'pgina har xil portlovchi moddalarni kashf etgan bo'lsa-da, u tinchlik tarafdori edi. Olim bo'lishi bilan birga, u yaxshigina shoir ham edi. «Faqtgina adabiyot va fan insoniyat rivojining omili bo'la oladi», deb hisoblardi Alfred. Nobelning o'limidan so'ng undan to'qqiz million dollarlik mablag' qoldi. Uning vasiyatiga binoan pullardan kelgan foyda kimyo, fizika, meditsina, adabiyot sohalariga ulkan hissa qo'shgan insonlarni mukofotlash uchun mo'ljallangan (keyinchalik iqtisod va tinchlik sohasida erishilgan ulkan yutuqlar uchun ham Nobel mukofoti beriladigan bo'ldi). Mukofot 1901-yilning 10-dekabridan boshlab topshirilib kelinayotir. Har yilning shu kuni Stokholm konsert zalida Shvetsiya qiroli Nobel mukofotiga munosib topilgan odamlarni mukofotlaydi.

(«Nobel mukofoti laureatlari» kitobidan)

### **110-mashq. Nuqtalar o'rniغا kerakli harflarni qo'yib ko'chirib yozing.**

Mas...id , i...tido , g'i...jak , sara..jom , k...itansiya , oli...anob, ta...suf, istibdo..., muto...aa, me...yor, ta...jub , min...s, krep...eshin, parf...meriya, simpoz...um, vol...ybol, sup...rgi, majmu..., a...ditorya, suver...nitet.

### **111-mashq. Matnni o'qing, talaffuzi va imlosi bir-biridan farqlanadigan so'zlarga diqqat qiling. Gaplarni ko'chirib yozing.**

#### **TELEFAKS NIMANI BILDIRADI?**

Fan va texnika taraqqiy etgani sari tilimizga ko'plab yangi so'z va atamalar kirib kelmoqda. Shulardan biri telefaks so'zidir. «Amerika» oynomasida yozilishiga qaraganda, bu so'z telefon va faksimil (asl nusxadan olingan tasvir) so'zlarining qisqartirilgan shaklidir. Bunda buyumning nomi yozilgan matn, fotosurat yoki chizma telefon simi orqali mijozlarga yetkaziladi.

Faks usuli bilan tasvirni uzatish uchun har ikki tomonda ham apparat bo'lishi lozim. Telefon simi orqali yuborilgan tasvir bir zumda (masalan, yapon apparatlarida 20 daqiqada) mijozning apparatiga o'matiqgan qog'ozda paydo bo'ladi.

Faks apparatining turlari juda ko'p. Ulardan tijorat va budjet ishlarida foydalanish mumkin.

(«*Gulxan*» jurnalidan)

**112-mashq.** Quyidagi qo'shma so'zlarning qanday yozilishini aniqlang va ko'chirib yozing.

Qirq — bo'g'im, qashqar—gul, chala — savod, xush — bichim, ish — yoqmas, omma — bop, millatlar — aro, tez — oqar, havo — rang, ayta — oladi, qayta — qurish, chanqov — bosdi, umum — davlat, odam — sifat, Tyan — Shan, Chil — ustun.

**113-mashq.** Quyidagi matnni ko'chirib yozing. Bosh harflarning ishlatalish o'rinalarini izohlang.

## TURKISTON YULDUZI

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston o'lkasining hur fikrli kishilaridan biri edi.

Behbudiy 1875-yili Samarcand shahrida dunyoga keldi. Keyinchalik Mahmudxo'ja Behbudiy arab, fors, rus va butun turkiy tillarning yetuk bilimdoni, yuksak didli yozuvchi, bilimdon o'qituvchi, jamoat arbobi va qiyossiz olim sifatida nom qozondi. O'rta Osiyo xalqlarining faxri bo'lgan bu buyuk alloma bizga o'zbek va tojik tillarida yozilgan «Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy» («Qisqacha umumiyoq geografiya»), «Kitob-ul-atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhalii jug'rofiyayi rusiy» («Rossiyaning qisqacha geografiyasi») singari o'lmas asarlarni tuhfa qilib qoldirdi. Behbudiy tomonidan qilingan ishlarni sanay bersak, ularning adog'iga yetmaymiz: u o'z hovlisida bepul mактаб ochib, xalq bolalarini o'qitdi.

«Behbudiy nashriyoti»ni tashkil qilib, o'zbekcha darsliklarni chop ettirdi. Samarcand xalqi uchun maxsus kutubxona va qiroatxona ochdi. 1912-yili «Padarkush» pyesasini yozib, Qo'qon, Buxoro, Andijon, Kattaqo'rg'on, Namangan teatrlarida namoyish qildi. Behbudiyning isyonkorligini yaxshi bilgan Buxoro amiri 1919-yili uni Shahrisabzda qo'lga olib, xalqning haqiqiy farzandini «xalq dushmani» tamg'asi bilan o'ldirtilib yubordi.

(N. Karimov)

**114-mashq.** Matnni o'qing. Undoshlarning ishlatalish o'rinalarini tushuntiring.

## HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI

Birinchi avtomobil Germaniyada paydo bo‘ldi, lekin haydovchilarning no‘noqligi tufayli tez-tez ko‘ngilsiz voqealar ro‘y bera boshladi. Shunda Germaniyada chiqadigan jurnallardan biri ajoyib bir taklif kiritdi. Bu taklifga ko‘ra, politsiya mashina egasiga guvohnoma berishdan oldin uning mashina haydashni bilish-bilmasligini tekshirib ko‘rishi va quvohnoma berishi kerak edi. Dunyoda birinchi haydovchilik guvohnomasi shu tariqa Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan.

(«*Ma’rifat*» gazetasidan)

**115-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni guruhlarga ajratib, jadvalni to‘ldiring.

o‘qibdi, og‘iz, ko‘ngli, tomosha, trolleybus, bog‘ga, Toshkent, ketdi, yozibdi, kutgil, qaytarman, borayotgan, xursand, ko‘rgali, burun, so‘roq, filologiya, monografiya, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, eshittir.

Fonetik tamoyil	Morfologik tamoyil	Tarixiy-an’anaviy tamoyil	Farqlash tamoyili

**116-mashq.** «O‘zbekiston — Yatanim manim» matnini o‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlarni imlo qoidalariga ko‘ra tahlil qiling.

### O‘ZBEKISTON — VATANIM MANIM

Vatan. Vatan, der edilar, na der edim bilmay oni,  
Endi bilsam, Vatan erkan bu tanlarning shirin joni.  
Bir jon emas, ey suvguli, tomirlarning qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarning jononi, Vatan!

Ha, haqiqatan ham, ona yurt — oltin beshik. Vatan esa ostonadan boshlanadi. Ostonadan hatlab o‘tar ekanmiz, beixtiyor Vatan isini his qilamiz. Endi nish urib ko‘karib chiqqan ko‘kat ham, asrlar osha o‘z taftida qizdirgan quyosh ham, bir parcha tuproq ham bu — Vatan, bu — kindik qonimiz to‘kilgan qadamjo. U har bir inson uchun muqaddasdur. Vatan inson uchun misli Ka‘ba, u doimo shunga sig‘inadi va unga sajda qiladi. Vatan bu — moziyning qoni ila sug‘orilgan zamin. Bulbul gulsiz yashay olmaganidek, Vatan ham elsiz bo‘lmaydi. Elsiz Vatan xiyobondir.

Mening Vatanim O‘zbekistondir. U quyosh farzandi. Shuning uchun uning yeri oltin, havosi beg‘ubor, suvi shirin, xalqi ulug‘vordir. O‘zbekistonning — so‘lim bahori, jazirama yozi, mevalari dur va serhosil. kuzi iliq, qishi insonning bahri dilini ochadi. O‘zbekiston boylikka kon diyor. Uning bitmas-tuganmas zaxiralari bizning faxrimizdir. Xalqi esa ulug‘vor, buyuk va donishmanddir. O‘zining bir piyola choyi va bir og‘iz shirin so‘zini yerda

goldirmaydigan bu xalq azal-azaldan o‘zining mehnatsevarligi va mehmon-do‘stligi bilan butun dunyoga dong taratib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston jahon sivosiy hayotiga komil ishonch bilan kirib kelmoqda. Bu shaxdam qadamlar kelajakda, albatta, meva beradi.

(«*Ma’rifat» gazetasidan)*

**117-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing, so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling.**

Xatda gap ko‘p. Maktubda maktubnavisning o‘zi, ichki ruhiy olami to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Yozgan xatiga qarab turib bexato aytish mumkin: bu odam sermulohaza, latif, dono, ishonuvchan, dilgir, kuyunchak, mehribon yo bo‘lmasa shoshqaloq, ziqna, asabiy, qo‘pol, qo‘rs, dag‘al, to‘qimtabiat, befarosat, dali-g‘uli, loqayd va hokazo.

Barmoqlarning ruhi va sehri bo‘ladi. Ana shu sehr barmoqlar hamda qog‘oz orqali boshqalarga ham o‘tadi, ta’sir ko‘rsatadi.

Xat o‘zining nimasi bilan qadrli? Bu mujda, sog‘inch, umid. Odamlar bir-birlaridan mehr-oqibat, taskin, tasalli, qalb malhami kutib yashaydilar. Bir-birlarining nonday arzanda so‘zlarini, shevalarini, islarni sog‘inadilar.

Birovga xat yozish botiniy, ruhiy ehtiyojdan tug‘iladi. Bu juda ham o‘ziga xos dil izhoridir.

Maktubnavislikning o‘zi san’at.

(*G‘aybulla as-Salom*)

**?** *Savol va topshiriqlar*

1. Fonetik hodisalar deganda nimani tushunasiz?
2. Fonetik hodisalar nima uchun ro‘y beradi?
3. O‘zbek (umumturkiy) so‘zlarining boshi va oxiridagi tovush tuzilishi qanday?
4. So‘z boshidagi qo‘s sh undoshlar qaysi tillarga xos va bunday noqulaylik og‘zaki nutqda qanday bartaraf qilinadi?
5. So‘z oxiridagi *sht*, *xt*, *rg* kabi qo‘s sh undoshlar qaysi tillarga xos va ular qanday talaffuz qilinadi?

### 18-DARS. OHANG VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida ohang va uning nutqdagi ahamiyati yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- o‘quvchilarni topqirlik, o‘z fikrini boshqalarga to‘laqonli yetkaza bilish ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq. Mehnatdan qochish xor-u zorlik keltiradi.** Ushbu gapni o‘qing. Undagi urg‘uli o‘rnlarni, pauzalarni toping va izohlang.

Og‘zaki nutq oqimi bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. **Bunday bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi.** Lekin og‘zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori ustiga qo‘yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo‘ladi va bu birliklar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi.

**Ustsegment birliklar urg‘u, to‘xtam (pauza), nutqning emotsiional bo‘yog‘i (darak, so‘roq, buyruq, his-hayajon) kabilarni o‘z ichiga oladi. Yuqorida ko‘rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi.**

Og‘zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o‘zaro munosabatidan iborat bo‘ladi. Ko‘pincha bunga imo-ishoralar, mimikalar qo‘silib, nutqimizni yana ham ta’sirli, bo‘yoq dor qilishga xizmat qiladi.

### URG‘U VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

So‘zlarning bo‘g‘inlardan tashkil topishini aytib o‘tgan edik. Talaffuzda bo‘g‘inlar bir xil talaffuz qilinmaydi.

Ikki va undan ortiq bo‘g‘inlardan tashkil topgan so‘zlarning talaffuzida bo‘g‘inlardan biri ma’lum sababga ko‘ra boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz etiladi. Bu hodisa so‘z urg‘usi hisoblanadi.

Urg‘u yordamida nutq ko‘rkamlashadi, eshituvchiga yoqimli bo‘ladi, uni zeriktirmaydi. Turkiy, jumladan, o‘zbek tilida urg‘u o‘rniga ko‘ra ko‘chib yuruvchi urg‘u sanaladi. Masalan:

*o‘rik, o‘rikzor — o‘rikzorlar — o‘rikzorlarga.*

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi va so‘zni gap tarkibida boshqa so‘zdan ajratish hamda so‘z fonetik tarkibini uyuştirish vazifasini bajaradi.

O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqdir. Masalan: *tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma'lum, bahor* va h.k.

Urg'u ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi.

bog'lar — bog'lár

hozir — hozír

yangi — yangi

etik — etík

akademik — akadémik

Urg'u ikkiga bo'linadi: 1. So'z urg'usi. 2. Ma'no (frazaviy) urg'usi.

So'z urg'usi so'zdagi bo'g'inlardan biriga tushadi. *Akademik litsey, akademik shoir*.

Ma'no urg'usi gapdagi ma'lum bir so'zning boshqalariga nisbatan ta'kidlab, ajratib aytishini ta'minlaydi. Masalan:

*Samarqandda* (boshqa biron-bir shaharda emas) afsonaviy obidalar ko'p.

 So'zdagi bo'g'inlarning, gapdagi so'zlarning boshqalardan kuchliroq talaffuz qilinishiga urg'u deyiladi.

**118-mashq.** Quyida keltirilgan gaplardagi tagiga chizilgan so'zlarning urg'usini qo'yib ko'chiring.

1. Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi. (*H.Olimjon*)

2. Texnik ishlar shuncha ko'payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo'q.

3. Masal, asosan, epik asar turlaridan bo'lib, unda kishilar xarakteriga xos xususiyatlar hayvonlar va o'simliklarga ko'chiriladi.

4. Ey hurmatli, arzimni bir tinglasalar,

Mening hech bir gunohim yo'q.

Menga g'azab qilmasalar.

5. Olma eksa bog'iga har kim,

Mehmoniga ol, ye, demasmi?

«Olma» mening mehmondo'st xalqim

Odatiga yot so'z emasmi?

6. Qani, ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag'rimni ohang,

Nechuk kerak bo'lди senga ko'z yoshim,

Nechun kerak rubob, senga shuncha g'am.

7. Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo,

Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Majnun.

**119-mashq.** Matnni ko'chirib oling. Birinchi va ikkinchi gapdag'i so'zlarning qaysi bo'g'inlariga urg'u tushayotganligini toping va qo'ying.

Rivoyat qilishlaricha, Mashrabning onasi unga homiladorligida qo'shnilarining uzumidan so'ramasdan yemoqchi bo'ladi. Shu payt ona qornidan: «Onajon, luqmayi haromni yemang, bog'ning egasini rozi qilib, keyin uzumni yeng», degan ovoz eshitilibdi. Hali tug'ilmagan Mashrab haromdan hazar qilgan. U tug'ilgandan so'ng ham shu e'tiqodida qoldi. Shoир ko'z ochib g'addor muhtojlikni ko'rди. Qashshoqliк va benavolik, xo'rlik va nohaqlik shoир qalbini iztirobga solaverdi. U qancha yuksaklikka intilgan sari, haqiqat undan yiroqlashdi. Gumrohlik va adolatsizlik, firib-u nayrang shoирni tig' yalang'ochlab qarshi oldi. Shoир nohaqlikka qarshi chiday olmadi, u yovuzlikni, johillikni, adovatni parchalash uchun kurashti. Qalandar qiyofasida, darvesh qiyofasida: boshda kuloh, egnida xirqa, qo'lida aso, yelkasida xurjun bilan haq vaadolat izlab yurt kezdi. Mudroq qalblarni bir chaqin bo'lib uyg'otdi. O'z vujudiga qarshi isyon ko'tardi.

(Rivoyatlardan)

**120-mashq.** Quyidagi so'zlarning qaysi bo'g'iniga urg'u tushayotganligiga diqqat qiling, ularning talaffuzidagi o'ziga xosliklarga e'tibor bering.

Ziyoli, mustamlakachilik, mansabparast, korxona, brokerlik, anjuman, telefaks, iqtisodiy, anhor, moviylik, o'zbilarmonchilik, vatanparvar, yaltiroq, huzurbaxsh, nashriyot, mag'lubiyat, qardoshlarcha.

**121-mashq.** «Halollik nima?» mavzusida matn tuzing va matndan ayrim so'zlarni tanlab, ularga tushayotgan urg'uni belgilang.

**122-mashq.** Quyida berilgan matnni o'qing, so'zlardagi urg'u tushayotgan bo'g'lnarni aniqlab, matnni ko'chirib yozing (uyga topshiriq).

### KROSSVORD IXTIROCHISI HAQIDA

Kunlardan bir kuni Janubiy Afrikadagi Keptaun shahar ro'znomasining muharriri mahalliy qamoqxonadan maktub oldi. Unda g'alati to'rtburchaklar — kvadratlar tasvirlangan bo'lib, har bir katak ichiga bittadan harf joylashtirilgan edi.

— Janob, — deb yozgandi xat muallifi, — men qamoqda o'tirib bir o'yin topdim. Uni krossvord deb atadim. Agar lozim topsangiz, buni ro'znomangizda e'lon qilsangiz ...

Muharrir avvaliga maktubga e'tibor bermadi, kechqurun do'stlari bilan yig'ilgan paytida shunchaki ermak uchun xatni ularga olib ko'rsatgan edi, yangilikka o'ch odamlar mazkur o'yinning mohiyatini tushunib yetib, qamoqxonadagi mahbusning aql-zakovatiga qoyil qolishdi.

Muharrirga esa qamoqxonaga borib, krossvord ixtirochisi bilan tanishishga to‘g‘ri keldi. Ma‘lum bo‘lishicha, u avtomobil halokatiga uchrab qamalgan Viktor Orveli ismli kishi ekan. Krossvord ro‘znomada bosilib chiqqach, unga hamma qiziqib qoldi. O‘yin butun dunyo bo‘ylab tarqalib ketdi.

Krossvord boshqotirmaning bir turi bo‘lib, u ingliz tilida *kross* — «krest» va *word* — «so‘z» degan ma’nolarni bildiradi.

(«*Bu kim? U nima?*» bolalar ensiklopediyasidan)

### **123-mashq. So‘z yasash va orfografiyaga oid quyidagi grammatik topishmoqlarga javob toping.**

1. Tovush emas, harf emas,  
Tanho anglatmas ma’no.  
Asoslarga qo‘silib,  
Bildirar yangi ma’no.
2. So‘zga yangi ma’no bag‘ishlar,  
Yangi ma’no, jilo bag‘ishlar.  
Nimaligin donolar topsin,  
Misol bilan ham isbotlasin.
3. Tanga, senga, Vatanga,  
Yanga, tunga, ham elga.  
Jo‘nalish kelishikning  
Qo‘srimchasi qaysi-ga?
4. Terma, terim, terimchi,  
Qanday so‘zlar toping-chi?
5. Tara-taroq, yangra-yangroq  
Tara bo‘lar nega taroq?  
Yangra bo‘lar nega yangroq.
6. So‘zlar bor yozma nutqda  
Kichik birinchi harfi.  
Gap boshida kelganda,  
Ulg‘ayar kichik harfi?
7. Asos bilan yasovchi  
Qo‘srimchadan iborat.  
Misol bo‘ladi «Suvchi»,  
Nomi nima, toping-chi?
8. Bo‘taloq ham qo‘zichoq,  
Uycha, jonli qo‘g‘irchoq.  
Qaysi qo‘srimchalar bor  
Bu so‘zlarda o‘ylab boq?
9. So‘z yasamas, qo‘srimcha,  
Xizmati bor olamcha.  
So‘z ma’nosini o‘zgartar  
Ular qaychi, suvchi.
10. Kimningdir o‘sgan sochi,  
O‘ylab ko‘ring-chi, To‘ychi  
Qaysisi so‘z yasovchi?
11. O‘rinda bor, o‘rnida yo‘q,  
Bo‘yinda bor, bo‘ynida yo‘q.
12. Bir ming, sening noning,  
Taning, koning,  
Qo‘srimchani o‘ylab toping.
13. Tub, yasama bo‘ladi,  
Qo‘srimcha-yu just bo‘ladi.  
Predmet, harakat, belgi  
Ma’nosin bildiradi.
14. Nuning ham paxtazorинг,  
Quyonning ham quvonинг.  
Ma’noli qismlarni  
So‘zlardan o‘ylab toping.

(R. Sirojiddinov)

## BO‘G‘IN VA UNING TURLARI

Biz so‘zlarni talaffuz qilayotganimizda, o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi bo‘linib-bo‘linib chiqadi. Bu bo‘linish tovush yoki tovushlar yig‘indisi shaklida bo‘ladi. Ana shu hodisa tilda bo‘g‘in deb yuritiladi.



**Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig‘indisiga bo‘g‘in deyiladi.**

Savod chiqarishda va yozuvda bo‘g‘in juda katta amaliy ahamiyatga ega. Bo‘g‘inni tashkil qilishda unli va undosh tovushlar xilma-xil kombinatsiyalarda bir-birlariga qo‘shiladilar.

Masalan:

unli — undosh: *ol, uy, il...*

undosh — unli: *ha, ma, na...*

unli — undosh — unli: *ola, una, ura...*

undosh — unli — undosh: *bir, til, kir...*

undosh — unli — undosh — unli: *vafо, qora, bola...*

undosh — unli — undosh — unli — undosh: *bodom, g‘azab, lobar* va hokazo.

O‘zbek tilidagi so‘zlar *kel, bur, suv* kabi bir bo‘g‘inli, *osmon, qadrdon, iqbol* so‘zlaridek ikki bo‘g‘inli, *kelajak, xayolot, muhabbat* singari uch bo‘g‘inli, *yotoqxona, gumburlamoq, xoinona* kabi to‘rt bo‘g‘inli, *radiokarnay, gultojixo‘roz, abadiylashtirmoq, qurolsizlantirish, aytolmaganliklaringiz-dandir-da* kabi besh va undan ortiq bo‘g‘inli bo‘ladi.

So‘zlar unli tovush bilan tugasa, bunday bo‘g‘inga ochiq bo‘g‘in, undosh tovush bilan tugasa, yopiq bo‘g‘in deb ataladi.

Masalan: a) *dala, tabaqa, havo, ...;* b) *turp, qor, shayton, ...*

**124-mashq. O‘quvchilar hayotidan olingan quyidagi qatralarni o‘qing.**  
**So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘chiring.**

— Menga ruchkangizni berib tursangiz, — deb iltimos qildi singil akasidan.

— Nega o‘zingniki bilan yozmayapsan? — deb so‘radi akasi.

— Meniki ko‘p xato qilyapti, — deb javob berdi singlisi.

O‘qituvchi o‘quvchidan so‘radi:

— O‘g‘irlamoq fe‘li o‘tgan zamonda qanday tuslanadi?

— O‘g‘irladi.

— Kelasi zamonda-chi?

— Qamoqda ...

**125-mashq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘chiring.**

Harf, shogird, manba, sunbul, tinglamoq, ko‘ngil, qalb, singil, jingalak, dekabr, kiosk, teleks, faks, juft, mustaqillik, xushchaqchaqlik, ma’ruza, jahl, albom, mudofaa, taassurot.

**126-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi hikoyachani o‘qib, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.**

## KO‘P TILNI BILUVCHILAR BAHSI

Brusselda qiziq tanlov bo‘lib o‘tdi. Unda G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi poliglotlar — ko‘p tilni biluvchilar o‘zaro kuch sinashdilar. Poliglotlar uchun eng kamida 9 tilni bilish (bunga lotin va esperanto tillari kirmagan) shart qilib qo‘yildi.

Tanlov tashkilotchisi, Belgiyaning Xassalte shahridagi zamonaviy tillarni o‘rganish markazining boshlig‘i E. Xarmansning ta’kidlashicha, bu musobaqa sportchilarning ko‘pkurashi shaklida uyuştirilgan. Hakamlikka esa baholanadigan til ona tilisi bo‘lgan til sohiblari taklif qilingan.

Bu tanlovda Buyuk Britaniya vakili, o‘rta maktab o‘qituvchisi D. Xer g‘olib chiqqan. U 23 tilda erkin gaplasha olar ekan.

### ?

### *Savol va topshiriqlar*

1. Segment birliklar deganda nimani tushunasiz?
2. Ustsegment birliklar nima?
3. Ohang nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Bir jumla tuzib, unga ohang jihatidan tavsif bering.
5. Bo‘g‘in deb nimaga aytildi?
6. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlar haqida gapirib bering.
7. Bo‘g‘inlarning tashkil topishida unli va undosh tovushlar qanday rol o‘ynaydi?
8. Urg‘u nima?
9. So‘z urg‘usi haqida gapirib bering.
10. Ma’no urg‘usi deganda nimani tushunasiz?

### 19-DARS. O'ZBEK TILINING YANGI IMLO QOIDALARI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida yangi imlo qoidalari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni do'stlik va qardoshlik ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Quyida xato berilgan gapni imlo qoidalariغا muvofiq daftaringizga ko'chiring. So'zlarning aytilishi va yozilishidagi farqlarni tushuntiring: *Xaqiyat tikanliy gulga o'xshaydi, xidlashni bilmaganlarni bunniga sanchiladi.*

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

! **So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yak-dillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarni ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.**

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalaramiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarni ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarni tasdiqlash haqida» 339-sonli qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
  - a) unililar imlosi (1—7-bandlar);
  - b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37-bandlar).
3. Qo'shib yozish (38—50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57—56-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).
7. Ko'chirish qoidalari (75—82-bandlar).

## UNLILAR IMLOSI

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o‘rin ajratilgan. *A* harfi *savol, zamon, bahor* so‘zlarida «o» kabi aytilsa ham har vaqt «a» yoziladi.

*O* harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so‘zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: *kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist* va h.k.

Shuningdek, *o* ba’zan *o*’kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: *tonna, noyabr, boks, tort* va h.k.

*I* harfi bilan, *bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi so‘zlarda qisqa aytildi va «i» yoziladi, *badiiy, ommaviy, Lutfiy* singari so‘zlarda «i» cho‘ziq aytildi, lekin doimo «iy» yoziladi.

*Uu* harfi *yutuq, butun, tovuq, sovuq,sovun* kabi so‘zlarda «i»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.

*O’o*’harfi *o’zbek, o’lka, o’simlik* kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

*E* e harfi *e’lon, ehtirom, fe’l, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:

«e», «ö», «io», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:

ye: yetti, yetmish, yetim;

yo: yolg‘iz, yomon, yong‘oq;

yu: yulduz, yumshoq, yumuq.

ya: yakka, yangi, yaroqsiz.

*Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean* singari so‘zlar talaffuzida unlilar orasida «y» undoshi qo‘shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

*Taassurot, taalluqli, taajub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot* kabi so‘zlar o‘rtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

## UNDOSHLAR IMLOSI

1. «B» tovushi *borib, javob, hisob, bob, xitob* kabi so‘zlarda «p», *qibla, tobla* so‘zlarida «v» tarzida aytilsa ham «b» yoziladi.

2. *Avtomat, avtobus, avtomobil* kabi so‘zlarda «v» tovushi «f» tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo «v» yoziladi.

3. *Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl* singari so‘zlarda «f» tovushi «p» kabi aytildi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim «f» yoziladi.

4. *Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot* kabi so‘zlarda «d» tovushi «t» tarzida aytilsa-da, har vaqt «d» yoziladi.

5. *Iztirob, tuzsiz, bo’zchi* so‘zlarida «z» tovushi «s» kabi aytildi, biroq hamisha asliga mos ravishda «z» yoziladi.

6. *J j* harfi *jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj* so'zlarida til oldi, jarangli, portlovchi «*j*», *jurnal, ajdar, garaj, tiraj* so'zlarida esa til oldi, jarangli, sirg'aluvchi «*dj*» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. *Sh sh* harfi *shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. *Sh* harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo'yiladi: *Is 'hoq, as 'hob* kabi.

8. *Ch ch* harfi *chumoli, choy, achchiq, soch* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. *R r* harfi *rahmat, rahm, diyor; L l* harfi *lola, bol, olmoq; N n* harfi *non, ona, osmon; G g* harfi *gul, ega, eg; Kk* harfi *kam, ikki, tok; Y y* harfi *yetti, yuz, dunyo, toy; Ng ng* harfi *ko'ngil, tong, ong; Q q* harfi *qizil, oq, aql; G' g'* harfi *g'oz, og'a, tog'; X x* harfi *xalq, axborot, baxt; H h* harfi *hamma, hosil, ehson, isloh* kabi so'zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. *Farzand, band, poyezd* so'zlaridagi «*d*» undoshi, *go 'sht, past, artist* so'zlaridagi, «*t*» undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, *metall, kilovatt, kongress* kabi so'zlar oxiridagi qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi *a 'lo, ta 'lim, e 'lon, she 'r, fe 'l* kabi so'zlarda unlidan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytishini ta'minlaydi.

13. *Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytildi, lekin tutuq belgisi qo'yilmaydi.

14. *San'at, in 'om, mas'ul* kabi so'zlarda unlidan oldin qo'yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytishini ta'minlaydi.

### **127-mashq. So'zlarni o'qing. Undosh harflarning yozilish o'rinalariga diqqat qiling.**

Javob, xitob, kitob, borib, tub, piyoz, piyola, daryo, obod, ozod, yod, fojia, fotoalbum, futbol, gazeta, geografiya, gilos, hayot, xohlamоq, shoh, xona, taxta, baxt, dorixona, jigar, koreys, jirafa, jurnal, kariyes, ko'klam, lafz, laylak, mablag', ma'no, jumboq, namuna, nomzod, qabul, qishloq, qog'oz, ruxsat, rubob, arra, salomat, sa'va, sergak, tavoze, tahsil, tarozi, vazir, veksel, yomg'ir, yetmish, yarim, zamin, izzat, shisha, shukur, sham, chin, chumchuq, chuquq.

### **128-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Undosh harflarning yozilish o'rinalariga e'tibor qiling.**

Chin do'stlikka hasad begonadir. (*F. Laroshfuko*) Farovonlik istasang, baxtli bo'lganingda ham do'st-yor orttir — dengiz to'lib-toshsa ham daryo suviga muhtojdir. (*Hind hikmati*) Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham o'rganmoq berak. (*Kaykovus*) Kuchni ishga solish badanni, shu bilan birga,

ruhni ham chiniqtiradi. (*A.N. Radishchev*) Agar qiziqsang, qulq bilan butun jahonni tinglash mumkin. Beparvo bo'lsang, o'z uyingda o'tgan sirdan ham voqif bo'lomaysan. (*Oybek*) Yolg'on o'rmonga o'xshaydi: o'rmonga qanchalik kirib boraversang, undan chiqib olish ham shunchalik qiyinlashaveradi. (*A.P. Chexov*)

Kamtar bo'l, barchani etgil bahramand,  
Sening ham martabang bo'lg'usi baland.  
Urug' aralashib avval tuproqqa,  
So'ngra bo'y cho'zadi osmon-falakka.

(*A. Jomiy*)

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Imlo qoidalari deb nimaga aytildi?
2. Unlilar imlosi deganda nimani tushunasiz?
3. Undoshlarning imlosidagi xarakterli o'rinalar haqida so'zlang.

## 20-DARS. ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida asos va qo'shimchalar imlosi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni sadoqat va vafodorlik ruhida tarbiyalash.

✓ *Topshiriq. Qaymoq, burun, o'rín so'zlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing. O'zakda sodir bo'layotgan o'zgarish haqida so'zlab bering.*

1. *a* unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchalari qo'shilganda *a* unlisi *o* aytildi va shunday yoziladi: *sayla* — *saylov*, *qayna* — *qaynoq*, *sayra* — *sayroqi*.

Shuningdek, *o'qi* — *o'quvchi*, *sovi* — *sovug*, *to'qi* — *to'quvchi* so'zlarida *i* unlisi *u* ga aylanishi mumkin.

2. *K k* harfi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ular *g* va *g'* ga aylanadi: *yurak* — *yuragi*, *bilak* — *bilagim*, *tilak* — *tilagim*; *buloq* — *bulog'im*, *qulqoq* — *qulog'ing*, *qishloq* — *qishlog'i* kabi. *Erki*, *ishtiroki*, *huquqi*, *ravnaqi* singari so'zlarda bunday holat kuzatilmaydi.
3. *Singil*, *o'rin*, *ko'ngil*, *o'gil*, *shahar* kabi sozlarga egalik qo'shimchasi, *qayir*, *ayir* so'zlariga nisbat yasovchi qo'shimcha, *ikki*, *olti*, *yetti* so'zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilsa, asosda tovush tushishi hodisasi ro'y beradi.
4. *U*, *shu*, *o'sha* kabi olmoshlarga -da, -dan, -day, -dagi, -dosh, -cha qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* orttiriladi, aksincha, *men*, *sen* olmoshlariga -ni va -ning qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* tushirib qoldiriladi: *bunda*, *shundan*, *o'shancha*, *meni*, *sening* kabi.

5. *Parvo, obro', mavqe so'zlariga egalik qo'shimchalari* (I va II shaxsda) qo'shilsa, bitta y tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyi, obro'yim, mavqeyim* kabi.

6. -*boz*, -*bon* qo'shimchalari -*vos*, -*von* kabi aytilsa-da, doimo asl shakli bo'yicha yoziladi: *dorvoz, bog'bon* kabi.

7. -*dir* nisbat yasovchi qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi: *yondir, bordir, quvdir* kabi (*kel* so'zi bundan mustasno), qolgan o'rnlarda -*tir* shaklida aytildi va shunday yoziladi: *ektir, quyultir, kestir* kabi.

8. -*ga*, -*gacha*, -*gach*, -*guncha*, -*gani*, -*gudek*, -*gan*, -*gin*, -*gina* qo'shimchalari uch xil aytildi va yoziladi: *ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, chiqqach, chiqquncha, chiqqani* kabi.

*Eslatma*: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* so'zleri bunga kirmaydi.

**129-mashq.** So'zlarni o'qing. Asosda qo'shimcha qo'shilishi natijasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni belgilang.

Angla, sanoqsiz, yashovchan, pasaymoq, susaymoq, yig'loqi, dumaloq, qaynoq, sayroqi, so'roqsiz, urna, qulog'i, bo'yog'i, tomog'i, tilagi, yuragi, shahrimiz, ko'ngli, singlisi, mening, undan, bunday, ekkani, eshikka, bog'ga, boqquncha, ekkuncha, chohga.

**130-mashq.** Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. So'zlarning asos qismida bo'layotgan tovush o'zgarishlarini belgilang.

Birovning narsasini so'roqsiz ravishda olish kechirilmas gunoh sanaladi. Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi. Xalqimizning tilagi bitta — tinchlik. Shahrimiz qiyofasi mustaqillik yillarda keskin o'zgarib ketdi. O'zbekiston — Vatanim mening. Bunday ozod va obod mamlakatni bobolarimiz orzu qilishgan, xołos. O'zbekistonning xalqaro obro'yi kundan kunga oshib bormoqda. Dam olish kuni bog'ga ko'chat ekkani bordik. Sportchilarimizning olimpiada o'yinlaridagi ishtiroki hammanizni quvontirdi. Xalqimizning erki o'z qo'lida.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda qanday so'zlarda tovush o'zgarishlari ro'y beradi?
2. Kelishik qo'shimchalarining qo'shilishi natijasida asosda ro'y beradigan o'zgarishlar haqida so'zlab bering.
3. *Ikki, olti, yetti* so'zlariga jamlovchi son yasovchi qo'shimchalarni qo'shing. Tovush o'zgarishlariga diqqat qiling.

## 21-DARS. QO'SHIB YOZISH VA AJRATIB YOZISH

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida so'zlarning qo'shib va ajratib yozilishi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** *Adolatparvar, otboqar, kamchiqim, Shimoliy Amerika* so'zlarining yozilishini izohlang.

**2-topshiriq.** *Har, hech, bir, alla* so'zлari ishtirokida qo'shma so'zlar hosil qiling va ularning yozilishini izohlang.

1. *Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *oshxona, tabriknomा, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo'yumijoz, maymunsifat, kamhosil, umum davlat, bug'doyrang* va h.k.

2. *-r, -ar, -mas* qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *o'rribosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas* kabi.

3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar va sifatlar qo'shib yoziladi: *toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otqulog* singari.

4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljallanganligi kabi ma'nolarни bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *ko'ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko'zoynak, suvilon* kabi.

5. Ikkinchи qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Oqtepa, Uchqo'rg'on, Davlatobod, Xo'jaobod* kabi, lekin *Markaziy Osiyo, Ko'hna Urganch, G'arbiy Yevropa* kabi joy nomlari ajratib yoziladi.

6. Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *telestudiya, fotoapparat, radioto'lqin, etektrarra* kabi.

7. Qisqartma so'zlar har doim qo'shib yoziladi: O'zMU, ToshDPU.

### AJRATIB YOZISH

1. Qo'shma fe'l, shuningdek, ko'makchi fe'lli qo'shilmalar doimo ajratib yoziladi: *kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo'ya qoldi, o'qib chiqdi* kabi.

2. *Har, kech, bir, u, shu, o'sha, hamma* kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o'sha joyda, hamma vaqt* kabi.

3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi: *Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon.*

*Eslatma:* *bilan va uchun* ko'makchilarining qisqargan *la* va *chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *onam-la, sen-chun* singari.

4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi *to'q, och, tim, tang, jiqla* kabi so'zlar ajratib yoziladi: *tim qora, och ko'k, to'q sariq* kabi.

5. Qo'shma sonlar ajratib yoziladi: *o'n to'qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi* va hokazo.

6. *Yildan yilga, kundan kunga* kabi ko'rinishdagi birliklar ham ajratib yoziladi.

7. *Nugtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo* kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

**131-mashq.** So'zlarni qo'shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo'lib ko'chirib yozing.

Ko'z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so'z, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, g'ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qo'rg'on, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov.

**132-mashq.** Gaplarni o'qing. So'zlarning qo'shib yoki ajratib yozi-  
layotganiga diqqat qiling.

Guzar olato'polon bo'ladi. Guzar olatasir bo'ladi. El oqkaltak-qora-kaltak bo'ladi. Farg'onani oqpodsho bosadi. Oqpodsho shahar oralaydi. (*T. Murod*) Ikki kun burun Qumariqqa ketgan edi. (*A. Cho'pon*) Poytaxt atrofидаги ко'плаб со'лим манзилларга борадиган автобуслар шу yerdan jo'naydi: Parkent, So'qoq, Kumushkon, Oqtosh, Chimyon, G'azalkent, Sijjak. (*E. A'zamov*) Mahallamizda ikkita masjid, bitta choyxona, ikkita baqqollik bor. Masjidning bittasi — Tikanlimozorda, ikkinchisi — Yetimmasjid Qo'rg'ontagida. (*G'. G'ulom*) Oybuloq — yurt. Yurtни ташлаб ketib bo'lmaydi. (*Sh. Bo'tayev*) Millatlararo munosabatlar masalasi murakkab va hal qilinishi dolzarb muammolardan biridir. (*E. Vohidov*)

**133-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o'qing. Unli harflarning yozilish o'rinalariga diqqat qiling.

Salomlashish — qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy muloqot — muomala-munosabatni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq o'z urf-odatlari bor. Hindlar qo'l kaftlarini birlashtirgancha, peshanalariga tirab, afg'onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kift urishtirib salomlashsa, inglizlar bosh kiyimini olib, yengil ta'zim qilishadi.

Biz, o'zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda «assalomu alaykum» deya, qo'l olishib ko'rishamiz.

Xalqimizning o'ziga xos tabiatini, lutskorligini, urf-u odatlarini hamma-mizga jonday aziz, qadrdon bo'lib qolgan «Salom» so'zisiz tasavvur qilolmaymiz.

Odamning kimligini uning salomi belgilaydi.

(*M. Sattor*)

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday so‘zlar qo‘sib yoziladi?
2. Qanday so‘zlar ajratib yoziladi?
3. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarga misollar keltiring.

## 22-DARS. BOSH HARFLAR IMLOSI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida bosh harflar imlosi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni buyuk shaxslarning ishlariga hurmat, ularning ishlarini davom ettirish uchun kurashish ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Ota-onangizning ismi va familiyasini, tug‘ilgan joyingizning nomini daftaringizga yozing. Ularning nima sababdan bosh harflar bilan yozilayotganini izohlang.

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: *Zokirjon Shukurjonovich Sobirov, Abdurauf Fitrat* kabi.
2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog‘, tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Muborak, Urgut, Tentaksoy, Qo‘ng‘irtog‘, Qashqadaryo, Qora dengiz* va h.k.
3. Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san‘at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi: «*Malika*» firmasi, «*Sharq*» nashriyot-matbaa konserni, «*O‘zqishloqxo‘jmashxolding*» kompaniyasi, «*Damas*» avtomobili, Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, Xorazm chanqovbosti ichimliklar zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, «*Amudaryo*» jurnalni, «*Shaytanat*» asari va h.k.
4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira kuni*.
5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Yevropa Ittifoqi Kengashi* kabi.
6. Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, «*Umid*» jamg‘armasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi: «*O‘zbekiston Qahramoni*» unvoni, «*Oltin Yulduz*» medali.

Shuningdek, «*Sog‘lom aylod uchun*» ordeni, «*Shuhrat*» medali singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: *Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariiga xizmat qilsagina u qadrildir.* (A. Oripov)

### **134-mashq. Matnni o‘qing. Bosh harflarning ishlatalish o‘rinlarini izohlang.**

Ahmad Yassaviy Turkiston (hozirgi Janubiy Qozog‘iston)dagи Yassi shahrida tavallud topdi. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayx-laridan edi.

Yosh Ahmad dastlab Arslon bobodan, so‘ngra Buxoroda Yusuf Xamadoniydan tahsil oldi. Tasavvuf ilmi bilan jiddiy shug‘ullanib yassa-viya (jahriya) tariqatiga asos soldi.

Ahmad Yassaviydan bizgacha «Hikmatlar» yetib kelgan. Xalq orasida u «Devoni hikmat» nomi bilan mashhur. Hikmatlarga Qul Xoja Ahmad, Xoja Ahmad Yassaviy, Ahmad ibn Ibrohim, Sulton Xoja Ahmad Yassaviy, Miskin Yassaviy, Ahmadiy, Qul Ahmad, Miskin Ahmad kabi taxalluslar qo‘ylgan.

Yassaviy she’rlarida nafsni yengish g‘oyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Mana, bir necha asrdan beri uning hikmatlari xalqimiz tomonidan sevib o‘qilib kelinmoqda.

### **135-mashq. Uyga vazifa. Bosh harflarning ishlatalish sabablarini tushuntirib bering.**

Tohirjon, Shuhratbek, Sayfi Saroyi, Habib Abdullayev; Xiva, Zarafshon, Mirzacho‘l, Amudaryo, Norin, Chortoqsoy; Qurama, Bobotog‘, Hisor; Markaziy Osiyo, Shimoliy Amerika, Janubiy Koreya; Quyosh, Merkuriy, Saturn; «Mahalla» jamg‘armasi, «Matiz» avtomobili, «Turon» ishlab chiqarish birlashmasi; «Mustaqillik» ordeni, «O‘zbekiston xalq artisti», Navro‘z bayrami; O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Don mahsulotlari davlat-aksionerlik korporatsiyasi («O‘zdonmahsulot»), UNESCO tashkiloti.

#### **? Savol va topshiriqlar**

1. Kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi nima sababdan bosh harf bilan yoziladi?
2. Joy nomlarining imlosi haqida so‘zlab bering.
3. Korxona, zavod-fabrika nomlariga misollar keltiring va ularda bosh harflarning ishlatalish o‘rinlarini tushuntiring.

### **23-DARS. CHIZIQCHA BILAN YOZISH VA KO‘CHIRISH QOIDALARI**

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida chiziqcha bilan yozish va ko‘chirib yozish yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni mehr va muruvvat ruhida tarbiyalash.

 **1-topshiriq.** *Tanish-notanish, izzat-ikrom, birma-bir so'zlarining orasida nima sababdan chiziqcha qo'yilishi haqida o'ylab ko'ring.*

**2-topshiriq.** *Bo'g'in ko'chirish qoidalari haqida nimalarni bilasiz? Shu haqda fikrlashing.*

1. Juft yoki takror so'zlarning o'rtasida chiziqcha ishlataladi: *ota-on, orzu-umid, kecha-kunduz, qing'ir-qiyshiq; tog'-tog', sekin-tez* kabi.

2. Juft so'zlar orasida -u, -yu yuklamalari ishlatsa, ular birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa* kabi.

3. *Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri* kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. *Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam* singari o'rtasida -ma yoki -ba qo'shimchalari kelgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. -mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq) yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku* kabi.

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlataladi: *26-uy, 6-xona, 2001-yil, 8-mart.*

Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatilmaydi: *XXI asr, X bob.*

**136-mashq.** So'zlarni o'qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing, so'ng daftaringizga ko'chirib yozing.

Orzu-umid, aka-uka, chol-kampir, issiq-sovuq, kecha-kunduz, el-yurt, asta-sekin; baxt-u saodat, ota-yu ona, qop-qora, ko'm-ko'k, rang-barang, men-a, bor-e, bolam-ey, biz-chi.

**137-mashq.** Gaplarni o'qing, chiziqchaning ishlatalish sabablarini ayting.

Mehribon kishining pand-nasihatlarini olgin — ular seni saodatga yetaklaydi. Ko'zing sog'ida ezgulik qil, mol-dunyong borida ulash, yedir. (*Yusuf Xos Hojib*) Beva-bechora, mayib-majruh, xor-u zor insonlarga ko'ngildan chiqarib berilgan moddiy yordam: pul-non, mayiz-yong'oq, kiyim-bosh va hokazolarga xayr-sadaqa deyiladi. (*M. Sattor*) Go'zallik shunday narsaki, u insonda mehr-muhabbat, shodlik, erkinlik va shunga o'xhash tuyg'ularni uyg'ota olishi shart. (*A. Oripov*) G'o'zalarim tiniqib-tiniqib suv icha berdi. G'o'zalarim qonib-qonib suv icha berdi. Chilla suv — tilla suv bo'ldi. (*T. Murod*)

Aravakash uning so'zini ilib oldi:

— Shirin-shirin gap o'rnida shirin-shirin ashuladan bo'lsin, opa, ta'rifingiz eshitib jigarlarimiz laxta-laxta qon bo'lib ketgan. (*A. Cho'pon*)

## KO'CHIRISH QOIDALARI

1. Satrga sig'may qolgan so'zlar keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi: *tad-birkor, tadbir-kor, kol-lej, ma'-lum, ta'-lim* kabi (tutuq belgisi birinchi bo'g'inda qoldiriladi).
2. So'z boshida kelgan yolg'iz unli hech vaqt yakka o'zi qoldirilmaydi: *e'-lon emas e'lon, u-ka emas uka, mudofa-a emas mudo-faa* singari.
3. So'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birlgilikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafi-ya, foto-grafiya* kabi.
4. *Sh, ch, ng* harflar birikmasi doim birlgilikda yoziladi: *ko-shona, pu-chuq, de-ngiz* kabi.
5. Qisqartma so'zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko'chirilmaydi: *O'zMU, ToshDPU, 2001, 19, XX* kabi.
6. 10-«A» *sinf, 26-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm* kabi ko'rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

**138-mashq.** So'zlarni bo'g'lnlarga ajratib daftaringizga ko'chirib yozing.

Ma'lumot, maxsus, ta'kidlamoq, ko'ngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jurnalist, daftar, O'zMU, XXI asr, Navro'z—2001, 9-«A» *sinf*.

**139-mashq.** Uyga vazifa. Ko'chirish qoidalariiga zid ravishda qism-larga ajratilgan so'zlarni belgilang va ularni to'g'rilib daftaringizga ko'chirib oling.

Den-giz, ta-a-lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-Du, ko'n-gil, transport, mesh-shan, sa-o-dat, ma-'lumot, B-MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, tong-gi, sanoq-li.

### ?

### Savol va topshiriqlar

1. Chiziqcha qanday o'rinnlarda ishlatiladi?
2. Juft so'zlar qanday yoziladi?
3. Bo'g'in ko'chirish qoidalari haqida so'zlab bering.

## 24-DARS. NUQTA, VERGUL VA ULARNING QO'LLANILISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida nuqta va vergul, ularning ishlatilish o'rinnlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni xushyorlik, ogohlilik ruhida tarbiyalash.

 **1-topshiriq.** Egri ishning soyasi ham egri bo‘ladi. Mazkur gapning oxirida nima sababdan nuqta qo‘yilishini aytib bering.

**2-topshiriq.** Vergulning ishlatilish o‘rinlariga misollar keltiring.

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o‘zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta o‘zbek tilida, odatda, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilan darak, buyruq gaplardan so‘ng.

*Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma. Farzandlarimiz doimo sog‘lom bo‘lsin.*

2. Atov gaplardan keyin.

*Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

3. Ismi, otasining ismi (ba‘zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so‘ng.

*M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Cho‘pon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S. Pushkin – rus poeziyasining quyoshi.*

4. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma‘lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng.

va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so‘zlashuv tilida); G‘. G‘. (G‘afur G‘ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O‘qituvchi» NMIU; 1995-y.

5. Qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog‘lanmagan qo‘shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog‘lovchilari bilan boshlanishi mumkin.

*Bobodehqon yerga baraka urug‘ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg‘in.*

6. Ba‘zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.

Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi.  $2 \cdot 2 = 4$  (ikki karra ikki to‘rt).

## VERGUL VA UNING QO‘LLANILISHI

Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniлади.

1. Uyushiq bo'laklar orasida.

*Bolalarning xulqi, olobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim. (M. Inomova)*

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

*Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga, purviqor tog'lar!*

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng.

*Shubhasiz, Vatanimiz jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi.

*Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o'ylab ko'rdingizmi?*

5. Ajratilgan bo'laklar orasida.

*Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakarda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga.

*Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'yra.*

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlataladi.

*Bilimli va tadbirdor bo'ling, lekin bu xislatlarining sizni xudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.*

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlataladi.

*Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.*

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi.

*«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.*

#### **140-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtaning ishlatalish o'rinlarini sharhlang.**

Insonning nima ish qilayotganiga qarab, uning kimligini aytib bersa bo'ladi. (H. Hegel) Qo'lingdan kelmagan ishni qilma. Haqiqiy buyuklik o'zini tuta bilishdan iborat. (F. Lafonten) 2005-yil — Sihat-salomathlik yili. Farzandim — jigarbandim. Dalalarim — bobolarim sho'r-sho'r peshhanasi.

Dalalarim — otalarim yag‘ir-yag‘ir yelkasi. Dalalarim — ayollarim xazon-xazon umri. (*T. Murod*)

- Menga ruxsatmi?
- Ruxsat.
- Boray bo‘lmasa...
- Boring. Bu yoqlarga kelganda... mundoq... kirib turishni ham unutmang. (*Murod Muhammad Do ‘st*)

D i l n a v o z . Shu kishi to‘g‘risinda nima deysan?  
R a h i m b a x s h . Buyukdir.  
D i l n a v o z . Shunga yurakdan hurmatim bor.  
R a h i m b a x s h . Hurmatga arziyidir.  
D i l n a v o z . O‘zi esa ma‘jus.  
R a h i m b a x s h . Insonlik ma‘juslik yo musulmonlikka qaramaydir.  
Lolahardiyol insondir. (*A. Fitrat*)

Toshkent. Mustaqillik maydoni. Navro‘z tantanalarining boshlanishiga sanoqli daqiqalar qoldi. (*Bayram reportajidan*)

#### **141-mashq. Matnni o‘qing. Tinish belgilaringin yozuvdagagi o‘rni haqida fikr yuriting.**

Bir kuni gazeta muharrirlaridan biri havaskor shoirdan xat oldi. Shoir o‘ta mazmunsiz she‘r yozib, tagiga xat ham ilova qilib qo‘ygan ekan:

— Tinish belgilarini qo‘ymadim, uzr, o‘zingiz qo‘yib olarsiz. Fig‘oni falakka chiqqan muharrir darhol havaskor shoirga javob xati yo‘lladi:

— Kelgusi safar tinish belgilaringin o‘zini qo‘yib yuboravering, so‘zlarini o‘zim topib qo‘yarmen.

#### **142-mashq. Vergulning qo‘yilish sabablarini izohlang.**

Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma‘naviy qiyofasi o‘zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.

Yaxshiga yondash, yomondan qoch. Mard bir o‘lar, nomard — ming.

— Bu senmi, qizim!

— Men, otajon! (*A. Qodiriy*)

Pastda, yigirma metrcha quyida, naq oyoqlari ostida Chuqursoy quyosh nurida tasmaday yaltirab oqib yotardi. (*I. Hasanov*)

Illat izlaganga illatdir dunyo,  
G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo,  
Kim neni izlasa topgay begumon,  
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.

(*E. Vohidov*)

- Ha, xola, uyda nima qilasiz?
- Uxlayin, bolam, men qari narsa yarim kechagacha o'tirolamanmi? Sizlar, yosh-yalang o'ynab-kulib ko'ngillarni yozinglar. Men orom olay...  
(A. Cho 'Ipon)

Sidiqjon gap boshlamoqchi bo'lib:

- Qalay, — dedi va sap-sariq qamishzorning u tomonida oqarishib turgan daryoni ko'rsatdi,— bahavo joylar ekanmi? (A. Qahhor)

**143-mashq.** Uyga vazifa. Vergulning gap ma'nosiga qanday ta'sir qilayotganini aytib bering.

Afandi bir kuni boyga:

- Siz odam emassiz, eshak! — deb aytди.

Bundan boyning nihoyatda jahli chiqib Afandini qozixonaga sudradi. Afandi shunday deganligini tan oldi, lekin men boyni «Siz — odam, emassiz eshak» deganman deb, jazodan qutulib ketdi.

## ❓ Savol va topshiriglar

1. Nuqtaning ishlatilish o'rinaliga misollar keltiring.
2. Vergul qanday o'rinalarda ishlatiladi?
3. Uyushiq bo'laklar va undalmalarda vergulning ishlatilishi haqida so'zlab bering.

## 25-DARS. SO'ROQ VA UNDOV BELGILARI, ULARNING QO'LLANILISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida so'roq belgisi, undov belgisi va ularning ishlatilishi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni haq ish uchun kurasha bilish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** So'zning doriga o'xshashini, uning ortiqchasi zarar keltirishini bilasizmi? Ushbu gapda so'roq belgisining nima sababdan ishlatilayotganini izohlang.

**2-topshiriq.** Undov belgisining ishlatilish o'rinaliga misollar keltiring.

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* — so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So‘roq belgisi quyidagi o‘rinlarda ishlataladi:

1. So‘roq gaplarning oxirida.

*Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag‘ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo‘ldim* (darak gap). *Vazifani bajarib bo‘ldim?* (ohang o‘zgaradi).

2. *Kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qaysi?* kabi so‘roq olmoshlaridan so‘ng.

*Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi. «Toping!» ma’nosida.

Abdulla Qodiriyning «O’tkan kunlar» qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi.  $5 \cdot 5 = ?$  (matematikada).

## UNDOV BELGISI VA UNING QO‘LLANILISHI

Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Mutaxassislarining fikricha, u lotincha *lo* — undov so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, unga nuqta (.) ning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlataladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

*Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.*

— *Ana tuproq, mana tuproq!* — deydi. — *Bo‘rsildoq tuproq, mag‘izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq!* (Tog‘ay Murod)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlataladi.

« — *Siz ham oyojni ishlating!* — deb buyurdi. — *Suv ostida o‘pqonlar ko‘p. Tortib ketmasin!*» (P. Qodirov)

3. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng qo‘yiladi.

*Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o‘t, mening qo‘limni tut, belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!* (A. Fitrat)

4. *Ha, yo‘q, xo‘p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so‘z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qo‘yiladi.

— *Balli-ball!* — dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi.

— *Yo‘q! Borolmayman,* — dedi qayrilib. (A. Qodiri)

5. Matn ichida alohida ta’kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin.

«*Boburnoma*da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytılıshi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo‘yiladi.

*Charos kafti bilan yuzini to‘sancha o‘zini orqaga tashladi.*

— *A-a-a!!! — dedi chinqirib. (O‘. Hoshimov)*

— *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

— *Xanjarimiz qonsirag‘on! (A. Qodiriy)*

7. His-hayajon bilan aytigandan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplar-dan so‘ng.

*Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu!* (O‘. Hoshimov)

**144-mashq.** Gaplarni o‘qing. So‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlarini izohlang.

U tug‘ilib esini tanigandan buyon qanday yashadi, nimalar qildi? Odamdek yashadimi? Biron dardmandga dardkash bo‘ldimi?

Yig‘lagan yetimning ko‘z yoshini artdimi? Biron muhtojning og‘irini yengil qildimi? (S. Ahmad)

— Qayerdansiz? — so‘radi kimdir Nazir otadan. Nazir ota aytdi.

— O‘zinglar-chi?

— Yakkabog‘dan. (O‘. Umarbekov)

— Bir narmdek (?) yoy bila bir kiyikning qo‘ltig‘iga otdim. («Boburnoma»)

— Hovlilaringiz katta ekan... — dedi u nihoyat chidolmay. Charos unga yarq etib qaradi. Ko‘zlarida sevinch uchqunlari bir lahma lovullab ketgandy bo‘ldi. Yodgor uning bu qarashidan «bordingizmi?» degan savolni uqdi.

— Nimalarni ko‘rdingiz? — dedi Charos jilmayib.

— So‘rilaringizning panjarasi chiroyli ekan.

— Yana?

— Oshxonangizdagi derazaning bir ko‘zi sinibdi.

— Yana?

— Vodoprovodingiz muzlab qolibdi.

— Uni eritdik... Yana? (O‘. Hoshimov)

**145-mashq.** Matnni o‘qing. Undov belgisining qo‘yilish o‘rinlarini izohlab bering.

Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko‘rgan qop-qora tog‘lar! Ey, Vatanim Turkistonning eski davrini ko‘rgan tog‘ bobolar! Chin aiting! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko‘rub turubsiz! Nimaga bu madaniyatga kirmakka o‘zları harakat qilmaydilar?

Ey vatandoshlarim! Qachong‘acha bu g‘aslat? Nimaga buncha xushyoq-massizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko‘z

oldingizga kelub turg‘on ilm va ma’rifat mevasidan foydalananmasdan nimaga og‘izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko‘z ochinglar!

Uyqudan ko‘z ochinglar! Urununglar! Ilm-ma’rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o‘tdi... (A. Cho ‘Ipon)

**146-mashq. Gaplarni o‘qing. Undov belgisining qo‘yilish o‘rinlarini izohlang.**

— Suv! Suv! — deb qichqirardi mingboshi. Suv! Yuragim kuyib ketdi... yonib ketdi!.. Suv! Suv!!! (A. Cho ‘Ipon) Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman! (T. Murod) Odamlar qiziq-a! Dunyoda bir-biriga o‘xshaydigan ikki odamni hech qachon uchratib bo‘lmaydi. (O. Hoshimov) She‘rim! Yana o‘zing yaxshisan. Bog‘ga kirsang gullar sharmanda. (U. Nosir) Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da. Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi! (A. Qahhor)

**147-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing, undov belgisining qo‘yilish sabablarini izohlang.**

— Pushti panoho! — dedi xudadchi, xiyonatkor o‘z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo‘lmoqchi.

— Xiyonatkoring‘ kim?

— Mirzo Anvar!

Xon seskanib ketdi, hamnishinlar ham alang-jalang bo‘ldilar.

— Keltir!

Xudadchi qullug‘ qilib orqasiga qaytdi. Dahlizdagи Anvar birinchi xonadagi a‘yonni hayratga solib, ikkinchi tanobiyning bo‘sag‘asida, jallodlar o‘rtasida to‘xtadi va xonga ta‘zim etdi.

Raqibini bu qadar jasoratda ko‘rgan Xudoyorning kiprik ostlari uchib, saqol tuklari silkindi va biroz so‘z topolmagandek tamshanib turdi.

— Sen bizga xiyonat qilding‘ it uvli! Anvar bosh irg‘adi.

— Iqrorman.

— Tuzimni unutding‘!

— Tonmayman!

— Iqrorsan, tonmaysan, o‘bdon ish! — dedi zaharxanda qilib xon, — o‘luvdan ham qaytmaysan!?

— Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman! — dedi Anvar iljayib, — o‘zimni o‘limga berib bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman!

Hamnishinlar lablarini tishladilar. Xudoyor istehzoli kuldi.

— Pusulmonchiliq qig‘onsan-da!

— Albatta! — dedi Anvar, — boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchiliqdan chiqqach, men pusulmonchiliq bilan o‘lishni o‘bdan bildim!

(A. Qodiriy)

## ?

### Savollar

1. So‘roq belgisi qanday gaplarda ishlataladi?
2. Undov belgisi gapda nima uchun qo‘yiladi?
3. Darak gaplarni so‘roq yoki undov gaplarga aylantirish mumkinmi?

## 26-DARS. QAVS, KO‘P NUQTA VA ULARNING QO‘LLANILISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida qavs, ko‘p nuqta va ularning ishlatalish o‘rnlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni tadbirkorlik, ishbilarmonlik ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** So‘zlar yoki gaplar nima uchun qavsga olinadi? Shu haqda o‘ylab ko‘ring.

**2-topshiriq.** *Bahor... Butun atrof yam-yashil.* Ko‘p nuqtaning ishlatalish sababini izohlang.

Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatala boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazeti»da 1873-yilda ishlataligani.

U quyidagi o‘rnlarda ishlataladi:

1. Kiritma gaplarda. *O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokiston-dan keyin beshinchи o‘rinda turadi), eksport bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.*

2. Remarkalarda. *Xon (yolg‘iz).* Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (*A. Fitrat*)

3. *Olingan misollar yoki gaplar manbayida.* Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (*Abdullo Avloniy*) Jannah onalar oyog‘i ostidadur. (*Hadisdan*). «*Qasosli dunyo*. («*Avlodlar dovonи romanidan*)

4. Izoh ma’nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida.

*Ro‘za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha)ning birlinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyyati (*demos — xalq, kratos — hokimiyat*) ma’nosini bildiradi.*

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. «*Qutadg‘u bilig*» («*Baxt keltiruvchi bilim*»). *Shuhrat (G‘ulom Aminjonovich Olimov)* atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.

*Eslatma:* qavsdan matematika fanida ham keng foydalilanildi.

$$(57 + 38) - 17 = ?$$

[ ] ko‘rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko‘p uchraydi. Masalan, egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda shah [ a ] ri, o‘r [ i ] ni, sing [ i ] lisi so‘zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko‘ra tushiriladi kabi.

## KO‘P NUQTA VA UNING QO‘LLANILISHI

Ko‘p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e’tiboran, «Turkiston viloyatining gazeti»da muntazam qo‘llangan.

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

*To‘ra biroz o‘ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zining yelkasidagi pogonini ko‘rsatdi.*

— Mana shu imperiya.... .

*Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho‘pon)*

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

*Do ‘xtir ayol og‘iz berkitib piq-piq yig‘ladi.*

— Men... men O‘zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, — deya yig‘ladi.

— Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a... (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

— Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?

— Xo‘s, xo‘s?

— Ilkimdin kelguncha... — deb boshlanar edi.

— Ha-ha, bo‘tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. To‘xtaboev)

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

*Muhammadyor yolg‘iz:*

— Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, — dedi-da, fikrg‘a toldi. (A. Cho‘pon)

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

— Manavi dub eshiklarizingizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

— ...

— Tushundingizmi, deyapman? (X. Sultonov)

6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida.

*Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing.*

*Xayri...x, a...loq, ...abar.*

**148-mashq. Gaplarni o‘qing. Qavsning qo‘yilish o‘rinlarini izohlang.**

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo‘yiladi. (Dilnavoz boshini ko‘tarib) Oh... Ey ko‘k tovushi, to‘g‘ri so‘ylading! Dunyoda kuchsizlikdan

yomonroq narsa yo'q. (*A. Fitrat*) Birjada yetkazib berish vaqt o'tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish (forvord) bitimlari, bir qolipdag'i mollar-ni sotish yoki sotib olish (fuchers) bitimlari hamda kelajakda sotib olish bo'yicha oldi-sotdi (opsion) bitimlari tuziladi. Dehqon (fermer) xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydoni 10 yil ichida 30 baravarga o'sdi. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznesfond)ni tashkil qilish haqida Prezident Farmoni (1995-yil 26-iyul)ni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» («lkki til muhokamasi») asarida fors-tojik va turkiy tillar bir-biriga solishtiriladi. Abdulla Qodiri (Julqunboy)ning «O'tkan kunlar» romani uning o'ziga qo'yilgan boqiy haykaldir.

#### **149-mashq. Gaplarni o'qing. Qavs va undov belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntiring.**

Biz oltmish student dorulfununning adabiyot bo'limida besh yil (!) tahsil ko'rdik, lekin Alisher Navoiyni bilmasdan ketaverdik. (*E. Vohidov*)

Mavlono (*eshikka qarab*). G'ulom Nabi! G'ulom Nabi!

G'ulom Nabi (*kelib*). Labbay!

Mavlono. Bizning bir ishimiz bor. Ichkariga kishi qo'yma!

G'ulom Nabi. Xo'p. (*Chiqar*)

(*A. Fitrat*)

Tabib kosadan barmog'iga biroz ilashtirib yaladi va darrov tuplab tashladi.

— Zahar ichibdi!

Otabek sapchib turib ketdi, tuni qo'rqninch holga kirgan edi.

— Bekor gap!

Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatga keldi. (*A. Qodiri*)

Dehqon (fermer) xo'jaliklari O'zbekistonda tadbirkorlik shakllaridan biridir. Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) o'zbek romançiligini yangi takomil bosqichiga ko'targan adiblardan biridir. Zebi (Zebinisa)ning qishichi yuragi siqilib zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan... edi. (*A. Cho'pon*)

#### **150-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Ko'p nuqtaning ishlatalish sabablarini tushuntiring.**

— E-e, otam... — Qo'zivoyni hijichoq tutib qoldi. — X-xush kekelib... h-hiq... siz... H-hozir sizni... (*M. Ochilov*). Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirganidan keyingina zal asta-sekin tinchiy boshladi. O'sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi:

«... Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...». (*O'. Hoshimov*)

Xoji Ahmad o'lar vaqtida Muhammadyorga qarab:

— O'g'lim! Meros sen...ga...o'Iturgan...joy... Vasiyatim...o'qi... o'...qu...o'qu...o'qi...Men...r-r-r...zomen, — deb jon taslim qildi. (*A. Cho'pon*)

... O'sha kecha shahar ko'chalarida uzoq aylanib yurdim. (*O'. Hoshimov*)

— Yig'layman, to'yib-to'yib yig'lab olaman goho. Pahlavonda ham yurak bor, uning ham g'am-g'ussasi bor, ukam... (*X. To'xtaboyev*)

Asablar,  
Asablar,  
Asablar...  
Sababsiz sochilgan g'azablar  
Gunohsiz chekilgan azoblar. (*E. Vohidov*)

## ?

### Savollar

1. Qavsning ishlatalish o'rirlari qaysilar?
2. Ko'p nuqta qanday hollarda ishlataladi?

## 27-DARS. TIRE, QO'SHTIRNOQ VA ULARNING QO'LLANILISHI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida tire, qo'shtirnoq va ularning ishlatalish o'rirlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;  
b) o'quvchilarni millat sha'ni uchun kurashish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** *Adab — aql va imonning chirog'i, obro'-e'tibor sarmoyasi.* Ushbu gapdag'i chiziqcha va tirening qo'yilish sabablarini izohlang.

**2-topshiriq.** *Qo'shtirnoqning ishlatalish o'rirlariga misollar keltirin va izohlang.*

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatala boshlangan. Tire quyidagi o'rirlarda ishlataladi:

*1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.*

— *Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?*

— *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo'q.*

— *Siz tabibmisiz o'zi?*

— *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo'lmasa yo'q.*

— *Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? — dedi Kesakpolvon g'ijinib.*

— *Olloh bir meniki emas, barchamizniki, — dedi chol ovozini bir pardaga ko'tarib. — Siz nomusulmon odamga o'xshab so'zlar ekansiz.* (*T. Malik*)

*2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida.*

*Til — millatning qalbi. Yer — don, dehqon — xazinabon. Mehnating — boyliging.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin.  
*O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik — barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida.

«*Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir*, deb yozgan edi L.N. Tolstoy.

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.

*1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:*

— «*Amir Temur* ordeni;

— «*Buyuk xizmatlari uchun* ordeni.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.  
*Olamni quyosh yoritadi, insonni — ilm.*

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida.

*O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi — «O'zbekinvest». Veksel — qimmatli qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujyatidir.*

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida.

*Vaqtin ketdi — baxting ketdi.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi.

*Biz — yoshlar — millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi — bir paytiali bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi — katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.*

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:

*Toshkent — Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.*

11. Nashr, kitobot ishlarida.

*X. Sultonov. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. — T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.*

*Eslatma:* hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23. Bugun Toshkentda –3°C sovuq bo'ladi.

**151-mashq.** Matnlarni ko'chirib yozing. Tirening qo'yilish sabablarini tushuntirib bering.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasiga muvofiq quyidagi kunlar bayramlar sifatida dam olish kunlari deb belgilandi:

1-yanvar — Yangi yil;

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni;

21-mart — Navro'z bayrami;

9-may — Xotira va qadrlash kuni;

1-sentabr — Mustaqillik kuni;

8-dekabr — Konstitutsiya kuni.

N. Jo'rayev. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. — T., «Sharq», 1998.

«Turkcha baxtsizdir. Ming yillardan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim, boydir...», deb yozgan edi A. Fitrat ona tilimiz haqida.

Ko'laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

— Kim bu?

— Men Kumush!

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

— Ket mundan!

— Men Kumush!.. — dedi Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadı.

Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga «ket!» amrini bergen edi. (A. Qodiriy)

### **152-mashq. Matnlarni o'qing. Tinish belgilarining qo'yilish o'rinalarini izohlang.**

1994-yil 5-mayda quyidagilar ta'sis etildi:

- «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali;
- «Mustaqillik» ordeni;
- «Do'stlik» ordeni;
- «Jasorat» medali;
- «Shuhrat» medali.

Bugun ko'nglimiz yanada butun. Qaror topgan istiqlolimiz, bosh shiorimiz («Yurtim deb, elim deb yonib yashaylik»), bosh g'oyamiz («O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat»), yetakchi g'oyamiz («Turkiston — umumiy uyimiz»), maskuraviy-intellektual g'oyamiz («Kuch — bilim va tafakkurda») bor. (A. Ibrohimov)

«Turon» — birinchi o'zbek milliy teatr truppasi. Bo'taboy bularni oldinga o'tkazib orqadan yurdilari va Samandarovga yondashib, undan sekin:

— Tinchlikmi? — deb so'radi.

— Tinchlik, — dedi Samandarov.

— Gazet chiqqani rostmi?

— Rost.

— Endi nima bo'ladi?

— Nima bo'lar edi, odamlarning saragi sarakka, puchagi puchakka chiqadi. (A. Qahhor)

«Til unutildi, xalq yodi unutildi, demakdir. Tili yo'q xalqni xalq deb bo'ladimi», deb yozgan E. Vohidov.

**Uyga topshiriq: «Qadimiy va navqiron Xiva» mavzusi bo'yicha matn tuzing, unda ishlataligan tinish belgilarini izohlang.**

**153-mashq. Gaplarni o'qing. Tirening nima sababdan ishlatalayotganini aytib bering.**

— Xudo xudo bo‘la turib avval jon beradi, undan keyin jon oladi. Sen kimsan? Xudodan zo‘rmisan, taqsir?

— Bay-bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!

So‘fi o‘sha xilda gapirganicha pirning boshiga kelib to‘xtadi.

— Yer jonidan ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir?

— Nima bo‘ldi senga, so‘fi? Jinni bo‘ldingmi?

— O‘zлari jinni, taqsir, o‘zлari! Eshaklari jinni, itlari!

— Hay kim bor? Bolalar! — deb qichqirdi eshon o‘rnidan turib orqaga tisarildi.

— Qochma, taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo‘lsam ham xurjunimim ikki ko‘zi to‘ladur... Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman.  
(A. Cho‘pon)

Halol ish — lazzatli yemish. Erga navbat — sherga navbat. Bilim — kuchda, kuch — bilimda. Ilm — yorugiik, jaholat — zulmat. (*Xalq maqollari*).

**Hikmatnomा.** O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. — T., 1990, 528-bet.

## QO‘SHTIRNOQ VA UNING QO‘LLANILISH O‘RINLARI

Qo‘shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A. Barsov kiritgan. O‘zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo‘shtirnoq quyidagi o‘rinlarda ishlataladi.

1. Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi.

*«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa»*, degan edi Sa‘diy Sheroyiz.

I. V. Gyote shunday deb aytgan edi: «*Donishmandlik faqat haqiqatdadir*».

«*Er kishiga zeb-u ziynat*», degan edi Alisher Navoiy, *hikmat va donishdir*.

2. Sitatalar qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari halihanuz o‘z ahamiyatini yo‘qtogani yo‘q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: biri asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.

*Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko‘nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho‘g‘day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...*»

3. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, ishlatalishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, picking, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

*... oradan yana bir necha oy o‘tib, uchinchi marta sud bo‘lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o‘n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi».* (T. Malik)  
*«Xalq artisti», beliga o‘q tekkanday erta-yu kech to‘rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo‘lmoq sirlarini axtaradi, chamasi.* (E. A’zamov)

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

«*Lison ut-tayr*» («*Qush tili*») asari haqida suhbatlashdik.

«*Ma'rifat*» gazetasi, «*Saodat*» jurnali, «*Mening oppoq kabutarlarim*» spektakli, «*Sohibqiron*» dramasi, «*Amir Temur*» portreti.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi.

«*Bilayn*» qo'shma korxonasi, «*Kochxolding*» konserni, «*Kamolot*» yoshlar ijtimoiy harakati, «*Istiqlol*» tennis sport majmuyi, «*Diyor*» savdo uyi, «*Ekosan*» xalqaro jamg'armasi, «*O'zavtosanoat*» aksiyadorlik kompaniyasi, «*GM—O'zbekiston*» qo'shma korxonasi, «*O'zbekiston*» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi.

«*Neksiya*» rusumli yengil mashina, «*Boing*» samolyoti, «*Otayo'l*» avtobusi, «*Rayhon*» alkogolsiz ichimligi, «*Kibo*» oyoq kiyimi, «*Hojimatov damlamasi*».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi.

«*El-yurt hurmati*» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q. G'. Abdullayev «*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi*» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni «*Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida*»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi.

11-«A» sinfi «*Quvnoqlar va zukkolar*» bahsida g'olib chiqdi. O'qituv-chimiz bugungi javobimga «*besh*» baho qo'ydi.

### **154-mashq. Qo'shtirnoqning qo'yilish sabablarini tushuntirib bering.**

1996-yilning 23–26-aprel kunlari Toshkentda to'qimachilik va ko'nchilik sanoatining birinchi xalqaro «Osiyo: gazlama, charm—96» ko'r-gazmasi bo'lib o'tdi, M. Qayumovning «*Ismoil Buxoriy*», N. Mahmudovning «*Bahouddin Naqshband*» hujjatli filmlari namoyish etildi. Yaponiyalik Noriko Magosaki xonim «Yapon va o'zbek tillarining qiyosiy tavsisi» nomli ilmiy risola yozib, nashr qildirdi. «*Qozi*» o'z ishiga puxta bo'lsa-da, xojasining martabasini izzat qilib, «siz buyuring» deganday qaradi. (*T. Malik*) «*Tanqid — kelajakning mevasi*», deydi dono xalqimiz. «*Shahidlar xotirasi*» yodgorlik majmuyi haqida «*O'zbekiston ovozi*» gazetasida maqola berishdi.

**155-mashq.** Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing. Qayerlarda qo‘shtirnoq ishlatalishi lozimligini aniqlang, izohlab, so‘ng gaplarni daftaringizga ko‘chirib oling.

Markaziy Osiyo madaniyati haftalik gazetasini muntazam o‘qib turaman. Vatan, millat so‘zlarini ishlatmay turib ham vatanparvarlik, millat-parvarlik mohiyatini ochib berish mumkin.

Odam keksaygandan keyin yosh bolaga o‘xshab qolarkanmi, mana shu yildan boshlab sal narsani ham ko‘ngilga oladigan tegmanozikka aylandi-qoldi. (*X. Sultonov*) Fitrat so‘zining lug‘aviy ma’nosini ikki jildlik o‘zbek tilining izohli lug‘atidan topolmaysiz. Navoiy lug‘atida tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish deb izohlangan. (*B. Qosimov*) Odob — oltindan qimmat, deydi xalqimiz. Zarafshon—Nyumont qo‘shma korxonasining mahsulotlari dunyo bozorida ancha xaridorgir sanaladi.

Shoir B. Boyqobilov Navoiynoma tetralogiyasi uchun A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini olish baxtiga sazovor bo‘lgan.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Tire o‘zbek yozuvida qachondan boshlab ishlatila boshlangan?
2. Tire bilan chiziqchaning farqini tushuntiring.
3. Qo‘shtirnoqning ishlatalish o‘rinlariga misollar keltiring.

## 28-DARS. IKKI NUQTA, NUQTALI VERGUL VA ULARNING QO‘LLANILISH O‘RINLARI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida ikki nuqta, nuqtali vergul va ularning ishlatalish o‘rinlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni ilmgaga hurmat ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** To‘rt narsa hamma uchun kerak: salomatlik, go‘zal xulq, rostgo‘ylik va halol mehnat. Ushbu gapda ikki nuqtaning nima sababdan ishlatalayotganini izohlang.

**2-topshiriq.** Nuqtali vergulning ishlatalish o‘rinlariga misollar keltiring.

Ikki nuqta o‘zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e’tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlataladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng.

*Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman.* (*A. Qahhor*)

2. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng.

*Bundan so‘ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo‘ldanoq tanchada o‘tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:*

— Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin.

*O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzları: Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.*

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so‘zlardan so‘ng.

*Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni».*

*Yuqoridaqilar asosida yig‘ilish qaror qabul qildi:*

*I. Jamoaning Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.*

*II. Navro‘z — umumxalq bayramini ko‘tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.*

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta‘minlash maqsadida turli xil rasmiy ma‘lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin.

*Toshkentda «Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an‘naviy respublika ilmiy-nazariy konferensiysi bo‘lib o‘tdi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingin ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

*Sidneydagi XXVII Yozgi olimpiada o‘yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi.*

*«Andijon» va «Paxtakor» jamoalari o‘rtasidagi o‘yin durang natija bilan tugadi — 2 : 2.*

*Eslatma:* hisob-kitob ishida bo‘luv alomati sanaladi — 100 : 2=50.

**156-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ikki nuqtaning qo‘yilishi sabablarini tushuntirib bering.

1. Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon, davrada mag‘lub bo‘lsa, taqdирга tan berib ketmaydi. (*T. Murod*) 2. Abdulla Avloniy shunday degan edi: «Ilm — dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir, Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas fazilatdur». 3. Ma‘naviy-axloqiy tarbiyalangan inson shunday insonki, u shariat, tariqat va haqiqat borasida mukammaldir. Unda to‘rt narsa shakllangan bo‘ladi: yaxshi so‘z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma‘rifat. Uning dili pok-u tili pok, ishi va niyatlarini ham pokdir. (*Bahouddin Naqshband*) 4. O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniyo fazilatlar: do‘stlik, mehr-oqibat, odamgarchilik, axloqiy-teranlik ulug‘lanib kelgan. 5. Mavzu: «O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati». 6. Dam olish dasturi: 23.35. «Jazda faqat qizlar». 7. Tahririyat manzili: 110000, Termiz shahri, Navoiy shox ko‘chasi, 71-uy. Tel: 25-04-92. 8. «Neftchi» (Farg‘ona) va «Navbahor» (Namangan) futbol jamoalari o‘rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi — 0 : 0.

## NUQTALI VERGUL VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI

Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

U quyidagi o'rirlarda ishlataliladi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'limgan hollarda.

*Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziyadigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi. (A. Qahhor)*

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

*Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!*

*Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham;*

*Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.*

3. Uyushiq bo'laklar guruhanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhnini anglatuvchi so'zdan keyin.

*Gerb rangli tasvirda bo'tib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.*

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

*Otabek timsoliga tavsif:*

a) *Otabek — o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;*

b) *Otabek — mard va jasur yigit;*

c) *Otabek — o'z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

**157-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtali vergulning ishlatalish o'rinalarini izohlang.**

1. Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan, hovlining etak tomonida bir just yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi. (*O. Otaxonov*) Obidjon borib pechkaning ichiga qo'l tiqadi: nimanidir mahkam ushlaydi. (*A. Qahhor*)

2. «Kamolot — KOMPYUTER» biznes maktabi quyidagi o'quv kurslariga taklif qiladi:

Bir oylik kurslarga:

— buxgalteriya dasturi bilan ishlash ta'limi;

— video operatorlari kursi;

— INTERNETga o'qitish.

Ikki oylik kurslarga:

— zamonaviy buxgalteriya hisobi;

- \ — bank ishi;
- kompyuterda ishlash ta’limi;
- sartaroshlik kursi;
- professional fotograflar.

3. Toshkentning asl nomi Chochdir. Choch — Xirmon o‘rnini ma’nosida. So‘ngroq Choch Shoshga aylanadi. Oxirgi asrlardagining Shosh Toshga aylanadi; Toshkent atala boshlandi. (*G’. G’ulom*)

**158-mashq. Gaplarni o‘qib, qoldirilgan tinish belgilarini toping va daftaringizga to‘g‘rilab ko‘chirib yozing.**

1. Omon Muxtorov shunday degan edi Abdulla Qahhorning shaxsiy ko‘zoynagi bo‘limganida, u hech qachon Qahhor bo‘lmadsi.

2. Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari ataladi

— xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;

— fuqarolarning teng huquqliligi;

— inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;

— hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.

3. 11.20 Yoshlar telekanalida harbiy vatanparvarlik dasturi. 1. Mard-u maydon. 2. Askar maktublari.

4. Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lmog‘i lozim: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham.

5. I.A. Karimovning O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarini o‘qib chiqib muhokama qildik.

6. Ma‘rifat ro‘znomasining manzili: 100085, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32.

7. Bo‘lib o‘tgan uchrashuvda «Pitsburg» jamoasi Boston klubini 6 : 4 hisobida mag‘lubiyatga uchratdi.

### **TINISH BELGILARINING QO‘SHALOQ HOLDA ISHLATILISH O‘RINLARI**

O‘zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma’nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo‘llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo‘llanilishidagi asosiy o‘rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytigan so‘roq gaplar oxirida so‘roq va undov belgilarini ketma-ket qo‘yiladi.

— Axir, ablah, — derdi Yunus, — birovning uyiga oyog‘ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg‘atgani ibo qilmaysan?! (*A. Qahhor*)

2. So‘roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo‘yilishi mumkin. *Ey, purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!!* (*A. Cho‘lpon*)

3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi.

«*Ertaga! — deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi — xo‘sh, ertaga nima bo‘ladi?..»* (N. Qilichev) Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:

— *Topdi-mm!.. Topdi-im!.. (Sh. Bo‘taev).*

4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatalishi mumkin.

«*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi», deb yozgan edi A. Qahhor.*

### **159-mashq. Matnlarni o‘qing. Tinish belgilarinining qo‘sh ishlatalish sabablarini tushuntiring.**

O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi xuddi shu ola-to‘polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozining boricha:

— Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni chaqmoq tekkan daraxtdek turgan joylarida qotirib qo‘ydi.

R a h i m b i y (bo‘g‘iq). Bu kim?.. Kim bu?..

X a y o l (taxtga qarab). Ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt!

... Ey, qop-qora saodat, sensan?!

Ey, insonning dushman tangrisi, qachong‘acha bu ongsizlar to‘dasini o‘zingga ham topindirib hali qurban qilasan?! Ey boyqushlar qafasi, bunday dev ishtahalik hayvonlarning qo‘li bilan qachong‘acha dunyolarni bir-biriga urib turasan?!

R a h i m b i y (o‘ylar). Afrosiyob deydir. Otamdan qochdim deydir. (*Bir-ikki odim bosib, qo‘rqa-qo‘rqa*) Sen kimsan?..

X a y o l. Men... Sening kabi bir zolim qo‘linda mana shuning kabi (*Abdumo ‘minning o‘ligini ko‘rsatib*) hech narsani bilmayin, onglamayin bo‘g‘izlang‘on bir mazlum — Siyovush!.. (*A. Fitrat*)

### **160-mashq. Gaplarni o‘qib, tinish belgilarinining qo‘yilish sabablarini izohlang.**

1. — Daraxt shoxlarining egilishini ko‘r.

— Egilaversin. Hay!.. Ehe-hey!!! Egilaver, shamol, shamo-o-l. E-sa-ve-e-r! (*O. Otaxonov*)

2. — Nima qilaman bunaqa dorilarni?! — dedi jabrlangan.— Menga serebralizin kerak!!! (*O‘lmas Muhiddin*)

3. Gu voh lar. Yo, alhazar!..

Na v ro‘z. Qo‘yvormang! (*Guvochlarga.*) Qani, yuringlar!

Qorining tovushi. Voy!.. Voy qo‘lim!.. Oh!.. (*A. Qahhor*)

4. Bo'ldim-bo'ldim, surxoni bo'ldim-baycha deyin-da.

— Klarabaycha? O'ynab-kulibgina yuribsizmi, Klarabaycha?..

— Nima-nima?

— Klarabaycha?

Ayol lab burdi. Ayol qosh kerdi.

— Baycha? Kakaya baycha? — dedi, — Men Klara Xo'jayevnaman! Men nima deyishimni bilmadim... (*T. Murod*)

### **161-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Tinish belgilarining ishlatalish sabablarini tushuntirib bering.**

1. — O', qardosh, sen faylasuf ekansan. Qo'y, bu gaplarni.

— Bu falsafa emas, bu haqiqat! — dedi Chuvrindi haqoratlangan odamning ovozida. — Avvalgi kuni, idorangizda bizni ancha masalalarda aybladingiz. Mehmoningiz edim, chidab eshitdim. Bizni o'zbek (!) deydilar. Mayli, qaysilarimiz noahildirmiz, boshqadirmiz, lekin o'zbekmiz, «o'z»imizga «bek»miz. Qullikni hazm qilolmaymiz. (*T. Malik*)

2. — Shayx Sa'diyning hikmatli so'zi bor: «Har bir hurigan itni quva bersang, manzilga qachon yetasan?»

3. Ijtimoiy-milliy taraqqiyotning bosh yo'nalishlari:

— demokratiya va qonuniylik;

— mulkchilik shakllarining rang-barangligi va bozor munosabatlari;

— yuksak ma'naviyat va madaniyat, kishilarni o'z tarixiga, xalqning ma'naviy merosi va an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, jahon mada-niyati yutuqlarini egallah;

— xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirib borish. (*Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili*. — T., «Sharq», 1999, 4-bet).

### **• ? Savol va topshiriqlar**

1. Ikki nuqtaning ishlatalish o'rnlari qaysilar?

2. Nuqtali vergul qanday hollarda ishlataladi?

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatalishi haqida gapirib bering.

## MORFEMIKA

### 29-DARS. SO‘ZLARNING MORFEM TARKIBI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida morfemika yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni o‘zbek xalqiga mansub ekanligidan faxrlanish ruhida tarbiyalash.


✓ *Topshiriq.* Yo ‘liqmaslik, tayyorlandi, boshladik so‘zlarini ma’noli qismlarga ajratib, ularni izohlang.

Muhtaram o‘quvchi.

Nutqingizdagи so‘zlarga hech diqqat qilganmisiz?

Ular bir xil shaklda qotib qolgan emas. Nutq talabi bilan ular turli xil qo‘srimchalarni qabul qiladi, o‘zgaradi, turfa ma’nolarni ifodalash uchun xoslanadi.

Misol uchun bиргина «o‘z» so‘ziga e’tibor bering:



Ko‘rinib turibdiki, shakl o‘zgarishi bilan so‘zning ma’nosida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Shu vajdan har bir so‘zni tarkibiy qismga ajratish hamda mazkur qismlarning qanday ma’no anglatayotganligini anglab yetish mumkin. Bu esa tilni bilishdagi eng muhim bosqich sanaladi. Masalan, «*Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga*» maqolidagi «*o‘ziga*» so‘zini «*o‘zga*», «*o‘zini*», «*o‘zimdan*» so‘zlariga almashtirib ko‘ring-chi — sira mumkin emas: mantiq buziladi.

So‘zlar asos va qo‘srimcha qismga ajraladi.

*Litsey-dosh, quvon-ch, maslahat-chi, fikr-iy, ish-i* so‘zlaridan birinchi qism asos sanaladi, ikkinchi qism esa qo‘srimcha qismidir.



**So‘zlarning eng kichik ma’noli qismalarini o‘rgatuvchi tilshunoslik bo‘limiga morfemika deyiladi.**

**162-mashq.** Matnni o‘qing. So‘zlarni asos va qo‘srimcha qismlarga ajarating. Ular haqida fikr yuriting.

U butun nutqini Istiqlolga muhabbat uyg‘otishga qaratdi:

— Istiqlol! Mustaqillik. Ollohga ming qatla shukurlarkim, bu kunlarga ham yetishdik. Ko‘chalarda jar solib: «Suyunchi!», «Suyunchi!» deb uyma-uy yuradigan zamon keldi!

Muxtoriyat!.. Oh-o!.. Bunga yetmoq niyatida ne-ne kurashlar bo‘lmadi? Ne-ne asl farzandlarimiz jonlarini fido qilib, qurban bo‘lib ketmadilar. Istiqlolning bu qadar jon fido qilgulik ne sehri, ne mo‘jizasi borki, asrlardan buyon insoniyat Istiqlol uchun, hatto bir quloch yeri bor xalqlar ham jon olib, jon berib kurashgan. Axir, bizning Turon yurtimiz go‘zallikda ham, boylikda ham Xudoning marhamati yozilgan bir zamin emasmidt? Yillar bo‘yi talanmadimi? O‘zimiz qaytadan ega bo‘lganimizga shukurlar! Muborak bo‘lsin!

Alisher Navoiy «Oltin qafas» deb karomat qilganlaridek, qafasda parvoz bo‘lmaydi! Qafasdagagi qushning sudraluvchi jonivordan ne farqi bor, axir!

Yurt bosqinlari bizning qanotimizni qayirdi. Vaholanki, xalqimizning jahonga parvoz qilarli qanoti bor emasmi? Endi qayrilish bilmasan bu qanot? Ilaho, omin!

(*Shukrullo. «Tirik ruhlar»*)

**163-mashq.** Matnni o‘qing. So‘z shakli yasovchi qo‘srimchalarning asosga qay tartibda qo‘shilayotganligiga e’tiborni qarating va ularni izohlang.

Afg‘onistonning Sind daryosi bo‘yida Jaloliddinning 600–750 kishilik qo‘sini bilan 30000 kishilik mo‘g‘il qo‘sini yovlashdi. Aytishlaricha, o‘sha jangda odamlarning qoni shu darajada ko‘p to‘kildiki, Sind daryosida suv o‘rnida qon oqdi. Sulton Jaloliddinning navkarlari dushman bilan sherdek olishib, faqtgina Jaloliddinning o‘zi daryoning narigi qirg‘og‘iga tirik suzib o‘tib ketdi: omon qoldi.

Bu jangni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan Chingizzon hayratdan shunday deb yuborganini bilmay qoldi:

— Otadan dunyoda hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botirdir... Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin...

Biz ana shunday arslon haybatli, botir va qo‘rqmas, dushman oldida aslo tiz cho‘kmas bobolarimizga farzand ekanligimizdan hamisha faxrlanamiz. Bir umr ulardan o‘rnak olish orzusi bilan yashab o‘tamiz.

(*Darslikdan*)

**164-mashq.** Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarga e’tibor bering. So‘z yasovchi qo‘srimchalarni daftaringizga ko‘chirib oling.

Turkiston Muxtoriyati... Temur xoqonining chin bolalari yoninda, turkistonli tubchak turklari orasinda, mundan o'g'urli, mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so'zni borlig'iga ishonmayman!

Turkiston turkinining qonini qaynatuchi, imonini yuksaltguchi bir quvvat bor esa, yolg'iz shu so'zda bordir: Turkiston Muxtoriyati!

Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, sharafimiz yumurildi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonlig'imiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik.

Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yinsundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashuntirdik, emgaklarimizg'a o'rav saqladuk: Turkiston Muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig'lab qaytg'anда, yorug'siz turmalarda yotg'anda, yirtg'uvchi jandarmning tepgusi bilan yiqlig'anda, yurtlarimiz yondurulg'anda, dindoshlarimiz osulg'anda ongimiz yo'qoldi, miyamiz buzuldi, ko'zimiz yog'dusiz qoldi, biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da ruhimizni ko'tarmak uchun shul qop-qorong'u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o'tmas ko'zimiz shuni ko'rар edi. Ul nima edi? TURKISTON MUXTORIYATI !

(Abdurauf Fitrat)

## YETAKCHI MORFEMA


**So'zning tub ma'noli qismiga asos deyiladi. Asosda qo'shimchalar qo'shish natijasida turli xil ma'nolar yuzaga chiqariladi.** Masalan: *tin-ch*, *tin-ish*, *tin-ch-lik*, *tin-im-siz*, *be-tin-im* kabi so'zlarning asosi «tin» so'zidir, lekin qo'shimcha qo'shilishi bilan ma'no o'zgarib bormoqda.

Ayrim so'zlar tarixiy taraqqiyot natijasida o'zining tub — asos qismini o'zgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. *Yomg'ir* (*yom-g'ir*), *ko'mir* (*ko'm-mir*), *olg'a* (*ol(d)-ga*) kabi so'zlarni asos va qo'shimcha qismga ajratib bo'lmaydi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham asos ko'pincha birinchi bo'lib keladi. Masalan: *tadbirkor*, *toy-choq* va h.k.

**Bir asosdan yasalgan so'zlar asosdosh sanaladi:** *fikrdosh*, *fikriy*, *hamfikr*, *fikran* singari. Ba'zi hollarda asosdan oldin ham qo'shimcha qo'shilishi mumkin. Masalan: *bexabar*, *nodavlat*, *serhashamat*, *bama ni*. Bunday qo'shimchalar, asosan, sifat so'z turkumida uchraydi. Biror narsaga egalikni (*badavlat*, *baquvvat*, *serfarzand*, *serqatnov*) yoki ega emaslikni (*beibo*, *behayo*, *noo'rin*, *nomard*) bildiradi.

Qo'shimcha qo'shilishi bilan ba'zan asosda o'zgarish ro'y berishi mumkin.

**1. Tovush tushadi:** past-ay, sust-ay, o'rin-a



## 2. Tovush o‘zgaradi:

ong-la,



unga,

u-ga,



unga,

son-a,



sana,

shu-da,



shunda,

quvna-q



quvnoq

bu-dan



bundan

## 3. Tovush orttiriladi:

**165-mashq.** Matnni o‘qing. So‘z shakli yasovchi qo‘srimchalarni topib izohlang.

Insondagi har bir tuhfa — ko‘z, quloq, til, oyoq, yurak, aql-zako yaxshilik uchun yaratilgandir. Biz ularni tinmay ishlattyapmizmi, demak, ularning zakotini to‘lashimiz kerak. Zakot bu — sizdan hech narsa so‘ramaganlarga qaytimini kutmay yaxshilik ulashishdir. Agar bu zakotni to‘la masak, ustiga-ustak qo‘limiz, tilimiz, fe’limizni o‘zgalarga ziyon keltirishga majbur qilsak, bizga nasib etgan bu ne’matlar bir kuni, albatta, o‘z xunini so‘raydi. Baxtsizlik, kulfat hech qachon chetdan kelmaydi, biz uni o‘z fe’limiz bilan yasab olamiz.

Ishingiz o‘ngidan kelavermayaptimi, demak, birovlarga qilgan baxililingiz uchun javob beryapsiz.

Uyingizga ketma-ket kulfat yog‘ilib qoldimi, bilingki, dilozorlik qilganingiz uchun qaytimini olyapsiz.

Kimadir qasd qilish payiga tushdingizmi, demak, eng yaxshi bolangizning qaysidir yo‘li bog‘landi.

Bu rivoyat emas, bu hikoyat emas. «Qilmish — qidirmish» deganlari bu! Siz birovgaga birgina boshingiz bilan yomonlik qilasiz, kulfatni esa butun oilangiz, ko‘pincha esa eng asragan, yaxshi ko‘rgan kishingiz tortadi.

Hadisi sharifda shunday deyilgan: «Odamlarga nisbatan yomonligingni to‘xtat, shu o‘zingga sadaqa bo‘ladi».

**166-mashq.** Matnni o‘qing. So‘z yasovchi qo‘srimchalarni ko‘chirib yozib, izohlang.

Shunday eshitdimki, bir kishining qo‘yi haddan tashqari ko‘p edi. Uning nomusli va xiyonat qilmaydigan bir cho‘poni bor ekan. U har kuni qo‘ylarni sog‘ib, sutni qo‘y egasining oldiga keltirardi. Qo‘y egasi sutga yarim hissa suv qo‘shib, sottirardi. Cho‘pon unga shunday nasihat qildi: «Ey xoja, odamlarga xiyonat qilmaginki, o‘zingga zarar yetkazasan». U kishi cho‘ponning nasihatini eshitmadni va xiyonat qilaverdi. Bir kecha bahor vaqtida ko‘p yomg‘ir yog‘di. Sel kelib qo‘ylarni oqizib ketdi va barcha

qo‘ylar halok bo‘ldi. Cho‘pon xojasining oldiga bordi. Qo‘y egasi unga dedi: «Bugun nima uchun sut keltirmading?» Cho‘pon: «Ey xaja, men senga sutga suv qo‘shmagin degan edim, mening so‘zimni aslo eshitmading. O‘tgan kechasi sutga qo‘shgan suvlaring hammasi yig‘ilib, sel bo‘lib oqdi va qo‘ylarni oqizib ketdi», deb javob berdi.

### **167-mashq. Matnni o‘qing. Ko‘makchi morfemalarni topib, izohlang.**

«Hibat ul-haqoyiq» asarining tili sodda, ravon, ifodalari ta’sirchan. Unda turkiy tilning o‘ziga xos jozibali so‘zlari katta o‘rin tutadi. Asarda takrorlanishlarni hisobda olmaganda mingga yaqin so‘z qo‘llangan. Ularning uchdan ikki qismini sof turkiy so‘zlar tashkil qiladi. (B. To‘xliyev)

### **168-mashq. Matnni ko‘chirib oling. Qo‘srimchalarning turlarini aniqlab, yozilishini izohlang.**

Bir vaqtlar bir odam yo‘lda yayov ketar ekan, o‘z-o‘ziga:

— Bu yerda, bu sahroyi biyobonda mendan ongsizroq, bechoraroq odam bormikan, — dedi. U yerdan o‘tib ketayotgan, ustiga yuk ortilgan eshak bu dardmand odamning so‘zini eshitib, unga:

— Ey aqsliz odam! Nega holingdan bunday shikoyat qilasan? Allohga shukur etib yo‘lingdan ketaver. Eshakka minmagansan, ammo men kabi yuk ostida emassan-ku! Holingga shukur qilmaysanmi? — dedi.

(Sharg rivoyatlaridan)

### **169-mashq. Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarning turlarini aniqlang va izohlang.**

Donolar yig‘ilishib, dunyoda nima aziz ekanligidan bahs-munozara qilibdilar.

— Hayot aziz, — dedi bir donishmand,

— Hayot bor ekanki, barcha mavjudot bor. Non aziz, — debdi ikkinchisi, — agar nondek mo‘tabar noz-ne’mat bo‘lmasa, hayot ham, tirik mavjudot ham bo‘lmaydi.

Davrada turli-tuman aziz narsalar aytilaveribdi-yu, oxiri eng keksa dono hakim bahsga bunday deb xulosa yasabdi: «Hayot otliq shirin ne’mat ham, jonli va jonsiz jamiki mavjudot ham, nondek aziz oziqalar ham — hammasi dunyoning yagona aqlli xilqati — inson uchun yaratilgan. Xulosa shuki, dunyoda inson aziz, insondan buyuk va mo‘tabar xilqat yo‘q».

Davradagi donolar keksa hakimning fikrini: «Haq gap, chin gap», deb tasdiq etibdilar.

### **170-mashq. Matnni ko‘chirib oling. Qo‘srimchalarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.**

O‘g‘lim! Farzandingni bir ishni boshlashdan oldin «Bismillahir Rohmanir Rohiyim» deb aytishga o‘rgat. Shuningdek, ovqatlanishdan oldin

ham. Bola ichi bo'sh chelakka o'xshaydi. Nima quysang — go'zal narsani ham, yomon narsani ham oladi. Ayni o'rganadigan payti uni o'z holiga tashlab qo'yma, chunki parvarishsiz daraxtning mevasi bemaza bo'lur.

Bolaga ovqatlanish odobini o'rgat. Luqmani katta olmaslikni, shoshmasdan, yaxshilab chaynab, keyin yutishni, qorni to'yib yemaslikni, suv va havo uchun ham joy qoldirishni, ovqatdan oldin va keyin qo'lni yuvishni, tanovul qilib bo'lgach, Allohga hamd aytishni va shuning kabi fazilatlarni ta'lim ber. Qobiliyati va singdirishiga qarab zamonaviy texnikadan o'rgat.

(*Bobolarning o'gitlaridan*)

## ?

### Savollar

1. So'zning asos qismi deb nimaga aytildi?
2. Qo'shimchalar deb nimaga aytildi?
3. Qo'shimchalar qanday turlarga bo'linib ketadi?

## 30-DARS. KO'MAKCHI MORFEMALAR (QO'SHIMCHALAR)

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida qo'shimchalar va ularning turlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni o'zidan kattalarni hurmat qilish, ustozlarni e'zozlash ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Berilgan so'zlarda takrorlanuvchi qismlarni toping va bu so'zlardagi ma'nno bog'lanishini aniqlang: *tosh—toshloq, boy—boyi, paxta—paxtazor, paxtakor, paxtachi, temir—temirchi, qora—qoray, suv—suvla, suvchi.*

Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yangi-yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Bu yangi tushunchalarning har biri alohida-alohida so'zlar bilan ifodalanganda edi, so'zlarining soni cheksiz ravishda ko'payib ketgan va ularni xotirada saqlash imkoniyati yo'qolgan, natijada tilimiz aloqa vositasi sifatida yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lardi.

Tilning imkoniyatlari shu darajada boyki, oz vositalar bilan cheksiz tushunchalarni, xilma-xil axborotlarni ifodalash mumkin.

Yangi-yangi tushunchalarni ifodalashda ilgari tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarga ko'makchi morfemalarni qo'shib, yangi so'z hosil qilish usuli keng qo'llaniladi. **Ana shunday usul bilan yangi so'z hosil qilish so'z yasalishi sanaladi.**

**Ko'makchi morfemalar qo'shish yo'li bilan yangi so'z yasalishi doimo ikki qismning bo'linishini talab qiladi:**

1. So'z yasashga asos qism.
2. Yasovchi qism.

## **Yasovchi qismni tashkil etgan morfemalar so‘z yasovchi morfemalar deyiladi.**

Masalan, *terim* so‘zi *ter* so‘ziga *-im* so‘z yasovchi morfemasini qo‘shish orqali hosil qilingan. *Terimchi* so‘zi esa *terim* so‘ziga *-chi* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan. Demak, birinchi so‘zda yasovchi asos *ter*, ikkinchi so‘zda esa *terimdir*.

*Ishchi*, *ishla* so‘zlarining yasalish asosi bir xil. Bir asosdan hosil bo‘lgan so‘zlar so‘z yasalish uyasini tashkil etadi.

*Suvchi* so‘zi «suv quyish bilan shug‘ullanuvchi shaxs» ma’nosini, *temirchi* so‘zi «temir bilan ish ko‘ruvchi shaxs», *toshloq* «toshga serob joy» ma’nosini bildiradi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yasovchi morfema asosida yangi yasalgan so‘z yasashga asos bo‘lgan so‘zning ma’nosiga asoslanadi, uning ma’nosi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Agar yasalgan so‘z bilan yasashga asos qism o‘rtasida ana shunday bog‘lanish bo‘lmasa, yasama so‘z hisoblanmaydi.

Solishtiring: *tepki* «tepishga xoslangan» so‘zi *tep* so‘zi bilan mazmunan bog‘lanadi, lekin *tulki*, *eski* so‘zlarini *tul* va *ki*, *es* va *ki* qismlarga ajratib bo‘lmaydi, chunki *tulki* va *eski* so‘zları, *tul*—«beva», *es*—«*aql*», «*xotira*» so‘zları bilan mazmuniy bog‘lanmaydi.

**Yetakchi morfemalarga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilmaydigan, so‘zning turli xil shakllarini vujudga keltiradigan morfemalar shakl yasovchi morfemalar deyiladi.** Masalan, *yaxshigina*, *Zamiraxon*, *ukamni* va h.k.

Yuqorida qora harflar bilan berilgan morfemalar shakl yasovchi morfemalardir. Shakl yasovchi morfemalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko‘ra ikki guruhgaga bo‘linadi:

1. Sintaktik munosabat bildirmaydigan morfemalar. Bunday morfemalar lug‘aviy shakl yasovchi morfemalar sanaladi.

2. Sintaktik munosabat bildiradigan morfemalar. Bunday morfemalar sintaktik shakl yasovchi morfemalar hisoblanadi.

*O‘qigach* so‘zidagi *-gach* morfemasi *o‘qi* so‘ziga qo‘shilib, undan yangi so‘z ham yasamaydi, bu so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun ham xizmat qilmaydi. Shuning uchun u lug‘aviy shakl yasovchi morfemadir.

**Yetakchi morfemaga qo‘shilib, undan yangi so‘z yasamaydigan va o‘zi qo‘shilgan so‘zni boshqasiga bog‘lash uchun xizmat qilmaydigan shakl yasovchi morfemalarga lug‘aviy shakl yasovchi morfemalar deyiladi.**

*Kitobim*, *kitobni* so‘zlarida kitob so‘ziga qo‘shilgan *-im* va *-ni* morfemalari o‘zi qo‘shilgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

**So‘zga qo‘shilib, uni ma’lum morfologik shaklini ko‘rsatuvchi va boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi shakl yasovchi morfemalarga sintaktik shakl yasovchi morfemalar deyiladi.**

Egalik, kelishik, shaxs-son morfemalari sintaktik shakl yasovchi morfemalar tarkibiga kiradi.

**171-mashq.** Quyida berilgan matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ko'makchi morfemalarga ta'rif bering.

— Ustod sizga salom yo'lladi...


— **Abadulabad** salomat bo'lg'aylar. Marhamat, noz-ne'matdan olg'aysiz, azizim... Mavlono Muhiddin shosha-pisha patirlarni ushatdi. Ali Qushchini **dasturxonqa** qistadi. Ali Qushchi sovuq kulimsirab:

— Salom bilan birga ustod bir nozik tilak **bildirdilar**, — dedi. Mavlono Muhiddinning patir **ushatayotgan** nozik **barmoqlari** harakatdan to'xtab havoda muallaq osilib qoldi.

— Ne tilak ermish?

— Xabaringiz bordir, azizim, bugun **subhidam** a'lo hazratlari Movarounnahr sarhadiga qo'shin tortib kirgan shahzodaga qarshi yurish boshladi... **Inshoolloh**, 40 yil shafoat qilgan Tangri taolo bu safar ham o'z **inoyatini** darig' tutmas... Va lekin, bandayi g'ofil Haq taoloni **bilmoxda** ojizdurmiz...

**172-mashq.** Rasmdan foydalanim «Bobolar ruhi hamisha bizga yor» mavzusida matn tuzing. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating, ko'makchi morfemalarni topib, izohlang.



**173-mashq.** Quyidagi so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ma'no-larini izohlang. Qo'shimchalarni sinonim, omonim, antonimlik xusu-siyatiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Dadillashtirmoq, dam-badam, yorilmoq, zirqiramoq, yo'rgaklatmoq, yo'lattirmoq.

1. -li, ba-, bo-; 2. -gi, -ki, -qi; 3. -iy, -viy; 4. -chan, -kash; 5. -dor; 6. ser-; 7. ba-, bo-; 8. be-, no-; 9. -choq, -chak; 10. -kir, -qir, -gi, -gir; 11. -k, -q; 12. -ik, -iq; 13. -simon; 14. -iv, -al, -ion; 15. -ag'on, -ma.

**174-mashq.** Quyidagi ertakni ifodali o‘qing, ostiga chizilgan so‘zlarni ma’noli qismlarga ajratib, unga ma’nodosh so‘zlar toping. Ko‘makchi morfemalarning turlarini aniqlang.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda go‘zal, ta’rifi yetti iqlimga ketgan chiroyli bir qiz bor ekan. Kunlarning birida sehrgar kampir bu qizni umrbod uxlatib qo‘yibdi. Shahzoda bu qizni uyg‘otish payiga tushib uzoq o‘ylabdi. Juda ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazibdi, bu qiz faqat «hayot suvi» bilan uyg‘onarmish. «Hayot suvi»ni topish maqsadida haligi shahzoda ko‘p choralarini izlabdi, oxir-oqibatda shahzoda baland tog‘ga chiqib tabiblar aytgan o‘sha «hayot bulog‘i»ni topibdi va suvni olib kelib qizga ichiribdi. Go‘zal qiz o‘sha zahotivoq o‘ziga kelib, ko‘zini ochibdi. Ular murod-maqsadlariga yetishibdi.

**175-mashq.** Quyida berilgan matndagi ajratilgan so‘zlarning tarkibini aniqlang va ma’nosini izohli lug‘atdan o‘rganing.

«... hijriy 950 (1543)-yilda bir kecha Samarqandda yong‘in chiqdi. Hazrati eshon masjidi tevaragida joylashgan bozori attoron, bozori sarrofon, bozori gog‘ozfurushon, bozori sahhofon, bazzozon, bozori tuxumduzon tamoman yonib kul bo‘ldi...»

**176-mashq.** «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dan mushrif, sarkor, muhtasib, imom, mudarris, muazzin singari mansab, lavozimga doir so‘zlarining ma’nosini o‘rganib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

**177-mashq.** «Makroiqtisodiyot nima?» matnini o‘qing, undagi yangi so‘zlarga izoh bering. Ular tarkibidagi ko‘makchi morfemalarni turlarga ajrating.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini hisoblab borishdir. Hozirgi kunda ilg‘or mamlakatlarda ishlab chiqarish natijalarini makroiqtisodiy parametrlar (yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad) orqali tahlil etishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunday tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqlari haqidagi, statistik ma’lumotlar batafsil tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotning asosiy muammolarini umumjamiyat nuqtayi nazaridan yechadigan bo‘limi makroiqtisodiyot deyiladi. Umumiylab va taklif, inflatsiya, iqtisodiy yuksalish, ishsizlik, turmush kechirish darajasi, davlat xarajatlari, soliqlar kabi tushunchalar makroiqtisodiyot predmeti jumlasidandir.

Makroiqtisodiyot iqtisodiyotni yaxlit holicha o‘rganadi va uning mohiyatini yalpi taklifning, ya’ni iqtisodiy tizimning yalpi ishlab chiqarish imkoniyatlarining hal qiluvchi omillarini va yangi talabning, ya’ni iqtisodiy

birliklarning ishlab chiqarilgan talabalariga va ko'rsatilgan xizmatlariga sarf qilingan umumiy xarajatlarini hal qiluvchi omillarini tahlil qilishni tashkil qiladi.

Makroiqtisodiyotga doir yangi so'zlar: litsenziya, lizing, birja, broker, assotsiatsiya, auksion, marketing, menejment, praysing, kredit, investitsiya, ssuda, tashqi savdo defitsiti, aksiz solig'i, avtoritar kapitalizm, barter savdosi.

(*Darslikdan*)

**178-mashq.** «O'zbekiston mashinasozligi» mavzusidagi matnni o'qing, zamonaviy kasb-hunarlarga, ularning o'ziga xos xususiyatlariga munosabat bildiring. Qo'shimchalarga diqqatni qarating, ularni turlari bo'yicha tahlil qiling.

O'zbekistonda avtomobil zavodining qurilishiga Prezidentimiz Islom Karimovning 1992-yil iyun oyida Koreya Respublikasiga tashrifi, shu asnoda «DAEWO Motors» korporatsiyasi bilan tanishuvi chog'ida asos solingen edi. Oradan ko'p o'tmay avtomobilsozlik sohasida qo'shma korxona barpo etish haqidagi hujjat imzolandi. 1993-yilning martida «O'zDEUavto» O'zbekiston — Janubiy Koreya qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida avtomobil zavodi qurilishi boshlandi. 1996-yil 19-iyul kuni Asakada «O'zDEUavto» qo'shma korxonasining rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. Ana shu tarixiy sanadan boshlab Markaziy Osiyoda yagona Asaka avtomobil zavodida eng zamonaviy standartlarga javob beradigan qulay, ishonchli va tejamkorligi bilan dunyo bo'yicha raqobatlasha oladigan yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoxda. Hammamiz uchun qadrdon bo'lib qolgan mashinalar hayotimizning ajralmas qismiga, milliy g'ururimizga aylandi.

O'tgan davr Asaka avtomobil zavodi uchun tom ma'nodagi sinov va yuksalish yillari bo'ldi. 1996-yilda zavodning ahil va professional jamoasi avtomobilning bir yo'la uchta turi — «Damas», «Nexia», «Tico» liniyalarini ishga tushirish bilan ilk muhim qadamni qo'ydi. Faoliyatining birinchi yilida korxonada 25,3 ming yengil mashina ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 230 mingga yetdi. «Lasetti», «Spark», «Epika», «Captiva» avtomobillarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2008-yil mamlakatimiz avtomobil sanoati hayotida muhim voqeа ro'y berdi. O'sha yilning 21-fevral kuni Asaka avtomobil zavodi negizida «O'z-avtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va «General Motors» korporatsiyasi ta'sischiligidagi yangi qo'shma korxona — «GM — O'zbekiston» tashkil etildi.

Qisqa davrda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga erishishga muvaffaq bo'lmoxdamiz va bu butun dunyonи hayratga solmoqda. Biz o'zimiz ishlab chiqargan mashinalarda o'zimiz tanlagan yo'lidan bormoqdamiz.

(«Xalq so'zi» gazetasidan)

**179-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o'qib, «Ogohlikka da'vat» mavzusida insho yozishga tayyorlaning.

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,  
Oq yuvib, oq taragansan o'zing bizni.  
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,  
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

(M. Yusuf)

Vatan! Bu so'zni sevmaydigan, mehr bilan tilga olmaydigan hech bir inson topilmasa kerak! Vatan — har bir inson tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan tabarruk go'sha! Ona zamin — ko'zlarida hayrat aks etgan bala-kayning ilk muallimi. Vatan — kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi.

Ona zamin! Bu so'z qon-qonimizga, vujudimizga singib ketgan, bir umrga yuragimizda muhrlanib qolgan, eng muqaddas, eng unutilmas kalomdir! Vatan sevgisidan yurak yorug', imon va e'tiqod uyg'oq bo'ladi.

Bu tuproqning farzandlari bek bo'ladi,  
Topgan-tutgan davlatlari erk bo'ladi.  
Ildizlari Hazrati o'zbek bo'ladi,  
Beshigida avliyolar o'sgan elim!

(M. Yusuf)

## ?

### Savollar

1. Ko'makchi morfemalar deb nimaga aytildi?
2. Sintaktik munosabat bildirmaydigan morfemalar qaysilar?
3. Sintaktik munosabat bildiradigan morfemalarga qaysi morfemalar kiradi?

## 31-DARS. MORFEMALARNING AGGLUTINATIV TABIATI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida morfemalarning o'zbek tilidagi o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni o'z zamonasiga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalash.

**Topshiriq.** *Un, topshir, ko'r so'zlariga qo'shimchalar qo'shib ko'ring. Qo'shimchalarning so'zdagi o'rniغا e'tibor bering.*

O'zbek tilida ko'makchi morfemalar, ya'ni qo'shimchalar yetakchi morfemadan so'ng keladi. Masalan,

*zamon-dosh  
zamondosh-lar  
zamondoshlar-im  
zamondoshlarim-ga*

**Asosga eng avval so‘z yasovchi qo‘srimcha, so‘ng lug‘aviy shakl yasovchi qo‘srimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar qo‘shiladi.**

Masalan, *sholi-kor, muqova-soz, kamtar-on, tadbirkor-lar, sana-moq, yaltira-sh, fidokorlar-ga, o‘rnashdi-m, uyqusirab-man* kabi.

Asosga so‘z yasovchi qo‘srimcha, shakl yasovchi qo‘srimchalar ikkitadan qo‘silsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridagi tartib buzilmaydi.

Masalan, *mulk-dor-lik, bil-im-li, jo‘sh-qin-lik, ko‘k-ish-roq, o‘yna-t-di, ket-a-yotir-man, sinf-dosh-lar-im-dan, bor-a-yotgan-ingiz-ni, varaq-la-sh-ni*.

Ba‘zi bir hollarda so‘z yasovchi qo‘srimcha asosga old tomondan kelib qo‘silishi ham mumkin (masalan, *no-o‘rin*), lekin bunday old qo‘srimchalar o‘zbek tilida juda kam.

Shuningdek, ayrim so‘zlarda umumiylar tartib buzilishi ham kuzatiladi: *es-la-gan-lik* kabi. Bunda asos + so‘z yasovchi qo‘srimcha + shakl yasovchi qo‘srimcha + so‘z yasovchi qo‘srimcha qo‘silmoqda.

Umuman olganda, qo‘srimchalarining qo‘silishida o‘ng qo‘l qoidasiga rioxaya qilinadi.

**180-mashq. Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarining o‘zakka qay tartibda qo‘silayotganligiga diqqat qiling.**

## YOSHLAR — VATANNING QANOTLARI

O‘zbekistonning kelajagi yorug‘, ertasi porloq. Uning oltin kaliti yoshlari qo‘lida. Ular shu kalit yordamida yo‘llaridagi muammolarni yechib keta-veradilar. Xalqimiz dilbandlari bugun dunyoning eng taraqqiy etgan go‘simalarida ta’lim olib kelmoqdalar. Fan-texnika, ilm sirlarini o‘rganib yurtimizni obod qilish yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Ishonamizki, yoshlarimiz o‘zlarining zimmasiga yuklangan vazifani sharaf bilan ado etadi, O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi.

**181-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘z yasovchi hamda shakl yasovchi qo‘srimchalarni aniqlab, ularning agglutinativ xususiyatlarini izohlang.**

Kitob bilan abadiy do‘s tutining. Orangizdan qil ham o‘tmasin.

Xorijiy tillarni qunt bilan o‘rganing.

Vatan tarixini biling. Uni har xil murtad talqinlardan, tuhmat va axlatlardan tinimsiz tozalang. Shavkatli tariximizni zamona viy, mahobatli tarixiy ishlar bilan boyitishga harakat qiling.

Kamtarga kamol — manmanga zavol. Takabburlik qilmang. Xokisor bo‘lishga harakat qiling. Kibrilanmang. Maqtasa, Sizni boshqalar maqtasin. Siz esa olqishlarni eshitmang.

G‘azablanmang. G‘azab sizni to‘g‘ri izdan chiqarib yuboradi. Har qanday holatda ham sokin bo‘lishga intiling.

Dilozor bo‘lmang. Dilozordan Xudo bezor. Odamlar bilan shunday gaplastingki, ular yana Sizga intilsinlar. Siz bilan suhbatlashishni havas qilsinlar.

Ota-onा, qavm-qarindosh, yor-birodarlarning ahvoididan doim xabar olib turing. Ota-onaning duosini olib qolishga oshiqing. Savob ishlar orasida eng zaruri shu.

(*G‘aybulla al-Salom*)

**182-mashq.** Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarni aniqlab, ularni turlarga ajrating.

Hoy Ubaydulloxon! Ubaydulloxon! Qani, seni yo‘qlovchi bir mehriboning bormi? Hozir sening bog‘laringga bahor keldi. Maysalar unmoqda. Osmoningda turnalar! Nahot, ularning qur-quri senga eshitilmasa?! Xumori tutib yig‘lamaysanmi? Qirlaringdagи lolalar, binafshalar, varrak uchirgan tomlaringdagи chuchmomalar nahot xumor qilib ko‘zlaringga ko‘rimmasa!

Uning xayolida jonlangan onasining nolalari qanchalik aqlli bo‘lmasin, ammo otasi Asadullo maxsumning yoshligidan qulog‘iga quygan hikmatlari xayolidan kecharkan, qamoq azob-uqubatlarini ham, sog‘inch xumorlarini ham birdan unutardi. Yangidan o‘zida kuch-g‘ayrat tuyardi, kelajagiga, o‘z maqsadlariga erishishga umid uyg‘onardi.

— Bir g‘ofil bandani g‘aflat uyqusidan uyg‘otib, yo‘lga solmoqning o‘zi qanchalik savob!

Bir yetimning boshini silasang, bir g‘aribning mushkulini oson qilsang, bir bechoraning ko‘ngliga malham bo‘lsang, buning savobiga ne yetsin! «Ammo, xalqning dardiga darmon bo‘lmoq niyatida jon fido qilsang, uning baxt-saodati uchun o‘z halovatingdan kechsang, hayotingni uning yo‘liga tiksang, buning savobiga teng savob bo‘larmikan dunyoda! Bunday bandasidan Xudoyim o‘z marhamatini darig‘ tutmaydi», — derdi otasi.

Darhaqiqat, xalq uchun jonini qurban qilishdan afzalroq inson uchun ulug‘roq savob yo‘q! Xalqning baxt-saodati, ozodligi yo‘lida qurban bo‘lganlarga, o‘lim yo‘q!

(*Shukrullo. «Tirik ruhlar»*)

**183-mashq.** Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarni topib, ularni izohlang. Qo‘srimchalarga xos bo‘lgan belgilarni ayтиb bering.

Avtomobillar shaharda paydo bo‘lganining dastlabki vaqtlarida, ko‘chada uning «Nexia» xilini qurshab olgan odamlarning yuzlarida tabassum va ko‘zlarida sevinch alomatlarini ko‘rdim. Uning muhokamasi qizib ketib, ulardan biri: «Qoyilman, zo‘r mashina bo‘libdi. «Volga»mni sotib, uni olmasam, otimni boshqa qo‘yaman», desa, ikkinchi bir kishi:

«Buni qaranglar, xuddi qaddi-qomati kelishgan kelinchakka o‘xshaydi, men ham uni sotib olishga ahd qildim», dedi.

Uchinchchi shaxs ham hayratini yashirolmadi:

«Ajabo, bu mashina Amerikada yoki Germaniyada ishlanganga o‘xshaydi. Uni qaysi magazinda sotisharkan?»

Borgan sari mashina atrofidagi odamlar soni ko‘payib, har kim bilganini gapiraverdi. Nihoyat, mashina nomini qanday atash bo‘yicha ham bahs boshlanib, uni «O‘zbekiston», «Lochin», «Sirdaryo», «Andijon» deb atash kerak, degan ovozlar eshitildi. «Malika», «Ozodlik» degan nomlar ham eshitildi. Mashina egasi paydo bo‘lganda, uni savollar bilan ko‘mib tashlashdi.

Xullas, shunday ajoyib manzaraning guvohi bo‘ldimki, «Nexia» O‘zbekistonning mo‘jizasi sisfatida barchani hayratlantirdi, qoyil qoldirdi va mustaqillikning kuch-qudratini gavdalantirdi. Endilikda bizning avtomashinalarimiz jahon kezib, jonajon O‘zbekiston nomini va sharafini olamga taratmoqda...

(Hamid Ziyoyev)

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. O‘zbek tilida qo‘shimchalar so‘zning qaysi tomoniga qo‘shiladi?
2. So‘z yasovchi qo‘shimchalar so‘zning oldiga ham qo‘shilishi mumkinmi?
3. Ikkilandi so‘zidagi qo‘shimchalarning o‘rnini belgilang.

## 32-DARS. OLD QO‘SHIMCHALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida old qo‘shimchalar yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni kuyunchaklik, boshqalarga hamdardlik ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** *Davlat, farzand, xabar, obro‘ so‘zlariga no-, ser-, be-, bo-* qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘ring. Ularning asosga qay taxlitda qo‘shilayotganiga e’tibor bering.

O‘zbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik hamda rus tillari bilan o‘zaro aloqada yashab keldi. Buning natijasida tilimizga o‘sha tillarga xos bo‘lgan yasalmalar va so‘z yasalish qolipi ham o‘zlashdi. Shulardan biri old qo‘shimchali so‘zlar va old qo‘shimchalar sanaladi. Bular quyidagilar:

ba-: batafsil, badavlat, bayhatbat;

be-: bexavotir, beg‘ubor, befarosat;

no-: noumid, noqulay, norozi;

ser-: serzavq, sergap, serhosil.

Shuningdek, kam qo'llaniluvchi *badfe'l*, *badjahl*, *badnafs*, *xushxabar*, *xushro'y*, *xushvaqt*, *hamfikr*, *hamshahar*, *hamsuhbat* singari so'z yasalishi holatlari ham mayjud.

-ba, ser- qo'shimchalari, asosan, otga qo'shilib, asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning me'yordan ortiq, ko'p ekanligini bildirsa, be-; no-qo'shimchalari xuddi shu narsalarga ega emaslikni anglatadi. Solishtiring: *baquvvat*, *serma'no*, *behayo*, *noo'r'in*.

Mazkur qo'shimchalar -li, -siz, -dor qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatida bo'la oladi.

Masalan: *badavlat*—*davlatli*, *beqiyos*—*qiyossiz*, *noo'r'in*—*o'rinsiz*, *sertashvish*—*tashvishli*.

**184-mashq. Gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing. Old qo'shimchalarning ishlatalishiga e'tibor bering.**

Serjanjal uyda baraka yo'q. Qanoat qorin to'ydiradi, beqanoat o'zin o'ldiradi. Eshik ochiq bo'lsa ham beruxsat kirma. Badavlat va baquvvat dushmandan emas, ochko'z va badnafs, ichi qora odamga sherik bo'lib qolishdan qo'rqi. Nomard do'sti seni chohga yetaklar.

Unda beravzan ekan har bir bino,  
Ul binolarning ichinda yo'q havo,  
So'risi yo'q, sahni yo'q, ayvoni yo'q.  
Aqrabolar yo'q, aziz mehmoni yo'q,  
Beo'chog'-u bepalos-u betanur,  
Betaom-u belibos-u qayda nur.

(Chustiy)

**185-mashq. Gaplarni o'qing. Old qo'shimchalarni aniqlab, ular haqida fikr bildiring.**

1. Serjahl va serzarda bo'lmanq, odamlar e'tiboridan qolasiz. 2. Noo'r'in aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi. 3. Baquvvat va kuchli farzandlari bor xalqni hech kim yengolmas. 4. Serquyosh o'lkamizning har bir qarich yeri biz uchun muqaddas. 5. Nomard do'st dushmanidan yomon.

**186-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing, ularni daftaringizga ko'chirib oling. Be-, ba-, no-, ser- old qo'shimchalari o'rnida ularning sinomilarini qo'llash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida bahs yuriting.**

Bevafo do'stdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq yaxshi. Bevaqt qichqirgan xo'roznинг boshini kesadilar. Bemehr qarindoshdan mehr bergen yot yaxshi. Benuqson do'st axtargan do'stsiz qoladi. Besabab oyoqqa tikan kirmas. Befoyda so'zni aytma, foydali so'zdan qaytma. Nomard bo'lib

ko‘pga kirguncha, mard bo‘lib o‘lgan yaxshi. Nohaq ishga rivoj yo‘q. Serdaraxt qishloqni sel olmas. Serva’da kishi yolg‘onchi bo‘lur.

Ona — oliyhimmat, ona — sersaxo,  
Ona sertilakdir, ona — serduo.  
Ota-onani kim etmasa rizo,  
U rasvoyi olam bo‘lur el aro.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Old qo‘srimchalar deb qanday qo‘srimchalarga aytildi?
2. Old qo‘srimchalarni boshqa qo‘srimchalar bilan almashtirish mumkinmi?
3. Old qo‘srimchalarning o‘zbek tiliga o‘zlashish sabablari haqida so‘zlang.

## 33-DARS. QO‘SHIMCHALARDA SHAKLDOSHLIK

*Darsning maqsadi:*

a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida qo‘srimchalardagi shakldoshlik, ma’nodoshlik va zid ma’nolilik yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;

b) o‘quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** O‘yinchoq — erinchoq, pistirma — bo‘g‘ma, yig‘in — to‘lin so‘zlaridagi qo‘srimchalarni bir-biriga solishtiring va o‘rtadagi farqlarini tushuntiring.

**2-topshiriq.** Yomg‘irli — seryomg‘ir so‘zlaridagi -li va ser-qo‘srimchalari bildirayotgan ma’nolarni izohlang.

**Shakldoshlik nafaqat leksemalarga, balki qo‘srimchalarga ham xos xususiyat sanaladi. Qo‘srimchalarning ayrimlari ifodalanishiga ko‘ra aynan bir-biriga o‘xshasa-da, mazmun-mohiyati bilan keskin farqlanadi.**

Masalan, -in qo‘srimchasi:

a) ot	b) sifat	d) ravish	e) fe'lning nisbat
yasovchi	yasovchi	yasovchi	shaklini yasovchi
tiqin	to‘lin	ostin-ustin	ilin
yig‘in	erkin	birin-ketin	ko‘rin
chaqin	yashirin	qishin-yozin	qilin

Bunday qo‘srimchalar o‘zbek tilida ko‘plab uchraydi. -ma, -chi, -li, -dor, -ch, -(i)sh, -ar, -ik, -k, -ish, -qin, -chaq, -(a) y, -siz kabi qo‘srimchalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shakldosh qo'shimchalar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi.

1. So'z yasovchilar.

qalamdon (ot)	qadrdon (sifat)
toshqin (ot)	jo'shqin (sifat)
tepki (ot)	kechki (sifat)
qatlama (ot)	bo'g'ma (sifat)
o'roq (ot)	qo'rqoq (sifat)
yoshlik (ot)	sirdaryolik (sifat)
yuzsiz (sifat)	so'zsiz (ravish)
yugurik (sifat)	ko'rik (ot)

2. So'z yasovchi qo'shimcha so'z shakli yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'ladi.

kelinchak (erkalash, hurmatlash shakli)	erinchak (sifat yasovchi)
gapirma (fe'lning bo'lishsiz shakli)	burma (sifat yasovchi)
yuzlab (chama son shakli)	haftalab (ravish yasovchi)
qizcha (kichraytirish shakli)	erkakcha (ravish yasovchi)
Dilafro'xon (hurmat shakli)	kitobxon(ot yasovchi)
do'sti (III shaxs, birlik shakli)	boyi (fe'l yasovchi)

3. Har qanday holatda so'z shakli yasaydi.

oqish (ozaytirma shakli)	kelish (harakat nomi)
otam (egalik shakli)	ko'rdim (shaxs-son shakli)
ukang (egalik shakli)	bording (shaxs-son shakli)

**187-mashq. Qo'shimchalar yordamida so'zlar yasang va ulardagি qo'shimchalarga xos bo'lgan shakldoshlarni izohlang.**

-t, -ch, -uq, -gi, -un

Namuna:

tin-ch (sifat yasovchi)

sevin-ch (ot yasovchi)

**188-mashq. Gaplarni o'qing. Shakldosh qo'shimchalarni topib, ularni izohlang.**

Hunar ado bo'imas boylikdir. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhoniylikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ishsizlik illatning uyasi. Barvaqt turishga odatlaning, baraka topasiz. Vafoli odamning do'stlari ham samimiyl bo'ladi. Bevafo do'stdan jabrli dushman afzal.

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim.

(Bobur)

Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. (*Navoiy*) Qiziga qalamdon totib oldi. Bilimdon va tadbirdor, raqobatbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi sanaladi.

**189-mashq.** Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Qo‘shimchalaragi shakldoshlarni tushuntirib bering:

*chiziq — tiniq, bosqin — sotqin, sezgi — qadimgi, otashin — ekin, qirg‘in — so‘lg‘in, chirik — elak.*

## QO‘SHIMCHALAR MA’NODOSHLIGI

**Qo‘shimchalarda shakldoshlikdan tashqari ma’nodoshlik hodisasi ham uchraydi.** Ba’zan ma’lum bir so‘z yasash ma’nosini ifodalash uchun birdan ortiq qo‘shimchalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Masalan, -*li* qo‘shimchasi o‘rniga -*kor*, -*dor*, *bo-*, *ba-*, *ser-* qo‘shimchalarini qo‘llash mumkin:

itoatli — itoatkor  
shirali — shirador  
savlatli — basavlat  
sutli — sersut  
obro‘li — boobro‘

Shuningdek, -*chi* o‘rnida, -*shunos*, -*kash*, -*kor*; -*siz* o‘rnida esa *be-*, *no-* old qo‘shimchalarini qo‘llash kuzatiladi.

adabiyotchi — adabiyotshunos  
aravachi — aravakash  
g‘allachi — g‘allakor  
hayosiz — behayo  
o‘rinsiz — noo‘rin

**Hamma holatlarda ham yuqoridagicha ma’nodoshlik yuzaga kelavermaydi.** Masalan, *nodavlat tashkilotlari* deyish o‘rniga *bedavlat tashkilotlari* deyilsa, uslubiy g‘alizlik yuzaga keladi.

**Demak, qo‘shimchalardagi ma’nodoshlik nutqning muayyan davrdagi meyorlari asosida yuzaga keladigan til hodisasi sanaladi.**

**190-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ma’nodosh qo‘shimchalarini topib ularni izohlang.

Ulamolar suhbatida bo‘l, pok, sof niyatli kishilarga talpin. (*Amir Temur o‘gitlaridan*) Bilimli kishi kerakli so‘zni so‘zlaydi, keraksiz so‘zni ko‘mib tashlaydi. (*Ahmad Yugnakiy*) Ilmsiz inson — mevasiz daraxt. Mevali daraxtga tosh otadilar. Obro‘li, izzattalab bo‘lishni istasang ilm o‘rgan.

Bilimsiz kishilarning ko‘ngli xurofotga moyil bo‘ladi. (*Abu Rayhon Beruniy*) Sabrli odam uzoq yashaydi. Sabrsiz odam o‘z boshiga falokat keltiradi. Uning otasi mahallaning tag-tugli, baobro‘ odamlaridan edi. El g‘amiga dardkash bo‘lgan inson hech qachon hayotda qoqilmaydi. Dardchil yuraklarga sevinchlar yog‘di.

**191-mashq.** Matnlarni o‘qing. So‘zlar tarkibida noto‘g‘ri qo‘llangan qo‘srimchalarni aniqlab, to‘g‘risiga almashtiring.

Bir kuni Suqrotdan so‘radilar:

- Boodob bilan noodobning o‘rtasidagi farq nimada? — U javob berdi:  
— Gapiradigan hayvon bilan gapirmaydigan hayvon kabi.

Bir hakimdan: «Ko‘rkam xulqдор kishi kim?» deb so‘radilar. U: «Yomon xulqqa sabr qilgan», deb javob berdi.

Vatan mening jon-u tanim sajdaxonamdir,  
U mening to‘lin oyim, tinch-omonim,  
Izzatim, sharafim, Ka’bam, qiblam  
Hamda gulistonimdir.

(A. Fitrat)

**192-mashq.** Asosdosh so‘zlarga misollar keltiring. Ular ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

N a m u n a : *tinch, tinim, tinimsiz, betinim...*

Qarigan chog‘da halovat istasang, yoshlikda tinimsiz ilm o‘rganish payida bo‘l. Tinch bo‘lay desang, nafsiningti tiy. Tinim bilmay kitob o‘qigan kishi bir kuni farog‘at topadi. Ilm ishtiyoqida betinim bo‘lgan tolibning ko‘ziga mol-dunyo ko‘rinmas.

## QO‘SHIMCHALARDA ZID MA’NOLILIK

**Nutqni ravon, ta’sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor bo‘lib chiqishida zid ma’noli qo‘srimchalardan foydalanishning ahamiyati katta.**

Masalan, *-li* qo‘srimchasi *-siz*, *be-*, *no-* qo‘srimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo‘yiladi. Aqli — aqlsiz, iboli — beibo, o‘rinli — noo‘rin kabi.

Bunday qo‘srimchalar, asosan, sifat so‘z turkumida ishlataladi. *Ser-* qo‘srimchasi *be-* qo‘srimchasiga, *ba-* qo‘srimchasi *-siz* qo‘srimchasiga, *bo-* qo‘srimchasi *-siz* va *be-* qo‘srimchalariga, *-dor* qo‘srimchasi *-siz* va *be-* qo‘srimchalariga nisbatan zid ma’nolidir.

Bunday qo'shimchalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: biror belgi-xususiyatga, shakl-shamoyilga yoki rang-tusga egalikni bildiruvchi qo'shimchalar (-*li*, *bo-*, *ser-*, *ba-*, *-dor*); shunday belgiga ega emaslikni ifodalovchi qo'shimchalar (-*siz*, *be-*, *no-*).

Masalan:

badavlat — davlatsiz  
shirador — beshira, shirasiz  
sero't — o'tsiz  
baobro' — beobro', obro'siz  
ko'ngilli — ko'ngilsiz

**Qo'shimchalar shakldoshligi, ma'nodoshligi va zid ma'noliligi nutqni ko'rkan qiladi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, uning uslubiy jihatdan rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, ta'sirchanligini oshiradi.**

**193-mashq. Gaplarni o'qing. Qo'shimchalarga xos xususiyatlarni aniqlang va tushuntirib bering.**

Odobni beodobdan o'rgan. Bemaza qovunning urug'i ko'p. Do'stsiz boshim — tuzsiz oshim. Aqlsiz do'stdan aqli dushman afzal. Serdaraxt qishloqni suv olmas. Oryatsiz odamdan qoch. Sababsiz kulgi — yomon tarbiya natijasidir. Mevasiz shox osmonga tirmashur, mevali shox yerga engashur.

O'z nafsi mag'lub etgan marddir,  
G'iybatlardan uzoq ketolgan marddir.  
Nomard tegib o'tar yiqilganlarga,  
Ojizlar qo'lini tutolgan marddir. (Rudakiy)

**194-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying va gaplarni ko'chirib yozing. Qo'shimchalardagi zid ma'noliliklarni izohlang.**

Bola... uy — bozor, bola... uy — mozor. Samara... o'tgan yoshlik umrni uzaytiradi. Samar... o'tgan vaqtingga achin. Hisob... do'st ayrilmas. Hisob... boylik topma, aql top. Vijdon... bo'lish chinakam insoniylik belgisidir. Vijdon... do'st boshga kulfat keltiradi. Aql..., keng fikrlovchi bo'ling, har bir ishning ketini o'ylab turib amalga oshiring. Aql...lik balosiga yo'liq mang, u sizni xonavayron qiladi.

**195-mashq.** O‘zbek xalq maqollaridan zid ma’noli qo‘sishchalar ishlataltigan misollar toping va izohlang. Ularni daftaringizga ko‘chirib yozing.

## NUTQDA BIR ASOSLI SO‘ZLARDAN FOYDALANISH

Tildagi so‘zlar yangi paydo bo‘lgan so‘zlar hisobigagina emas, balki oldindan muomala-munosabatda mavjud bo‘lib kelgan so‘z asosida yangi leksemalarni hosil qilish yo‘li bilan ko‘payib boradi. Bitta asos vositasida bir nechta yangi so‘z yasalishi mumkin: *suqli, sersuv, suvsizlik*.

Bir asosli so‘zlarga asosdosh so‘zlar deyiladi.

Namunalar: *tinch, tinim, tinimsiz, notinch, notinchlik; gulli, guldor, gulchi, gulchilik, sergul; shoxli, shoxdor, shoxsimon, sershox; obro ‘li, obro ‘siz, baobro ‘* va h.k.

**196-mashq.** Gaplarni o‘qing. Asosdosh so‘zlarni aniqlab, ularni izohlab bering.

O‘zbek xalqi, o‘zbek tuprog‘i umrini paxtaga baxshida etdi. Qish demadi, yoz demadi — paxta, dedi. Tun demadi, kun demadi — paxta, dedi.

— Onaxon, ism-sharifingiz, kasb-koringiz? Onaxon kamtarlik ila javob berdi:

— Ismi sharifim — Paxtaxon! Paxtaoy desangiz ham bo‘laveradi! Kasb-korim — paxtakor!

Ona tabiatimizda necha xil rang bo‘lsa, barcha-barchasi paxtazorda mujassamdir...

(Tog‘ay Murod)

**197-mashq.** Quyidagi asosdosh so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni daftaringizga ko‘chirib oling.

meva-mevali-mevazor-mevasiz; osh-oshpaz-oshxo‘r-oshamoq; ko‘ngil-ko‘ngilli-ko‘ngilsiz-ko‘ngilchan; do‘ppi-do‘ppido‘z-do‘ppili-do‘ppisiz; ish-ishchi-ishchan-ishsiz-ishsizlik-beish-ish-la-ishlov.

N a m u n a : Anor butasimon mevali daraxtlar oilasiga kiradi. Qaqrab yotgan qirlar bag‘ri bir yil ichida mevazor bog‘ga aylandi-qoldi. Mevasiz daraxt faqat o‘tinlikka yaraydi.

**198-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Asosdosh so‘zlarni topib, ularni izohlang.

O‘zbekistonni o‘zbek xalqi o‘z mehnati, aql-idroki bilan yaratgan! O‘zbekistonni mo‘jizalar diyori, jannatdek mamlakat deydilar. Bu go‘zal Vatan osmonidan tappa-tayyor holda o‘zicha yerga tushib qolmagan. U tinimsiz xatti-harakat va fidokorona mehnat ila, xalq dahosi ila bunyod etilgan.

O‘zbek xalqi azaldan o‘z Vataniga — O‘zbekistoniga, Turkistoniga, Turoniga ega bo‘lgan, hech qachon bevatan bo‘lgan emas. Vatanparvarlik, fidokorlik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan xislatlardan sanaladi.

(«*Vatan tuyg‘usi*» kitobidan)



### *Savol va topshiriqlar*

1. Qo‘sishimchalarda shakldoshlikni izohlang.
2. Qo‘sishimchalarda ma’nodoshlik deganda nimani tushunasiz?
3. Qo‘sishimchalarda zid ma’nolilik deganda nimani tushunasiz?
4. Asosdosh so‘zlar qanday yasaladi?

### 34-DARS. SO'Z YASALISHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida o'zbek tilida so'z yasalishi yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- o'quvchilarni sharm-hayoli va andishali bo'lish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** Tarbiyali, tarbiyasiz, tarbiyalanmoq so'zlaridagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping. Ulardagi umumiy holatlarni izohlang.

**2-topshiriq.** Qo ' bola, qo ' lqop, qo ' larra so'zlaridagi so'z yasalish hodisasini tushuntiring.

Tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarishda, rivojlanishdadir.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda paydo bo'lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi so'zlar paydo bo'ladi.

**Yangi so'zlar ikki xil yo'1 bilan vujudga keladi:** 1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyati asosida. 2. Boshqa tillardan so'z olish asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so'zlarining hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga qo'shimcha qo'shish usuli yoki so'z qo'shish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tu-shunchasini ifodalash ehtiyojini qondirish uchun kompyuter so'ziga o'zbek tilida oldindan «ma'lum mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosi ni ifodalovchi -chi qo'shimchasidan foydalanildi. *Kompyuterchi* «kompyuter bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini bildirdi.



**Tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga ma'lum yasovchi vositalar qo'shish bilan yangi so'z hosil qilinishiga so'z yasalishi hodisasi, shunday hodisani o'rganadigan tilshunoslik bo'limiga esa so'z yasalishi deylidi.**

Demak, so'z yasalishi atamasi ikki ma'noda: a) so'z yasalishi hodisasi ma'nosida va b) so'z yasalishi hodisasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi ma'nosida qo'llaniladi.

#### ?

#### Savol va topshiriqlar

1. Tilning lug'at tarkibi qanday boyib boradi?
2. So'z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
3. *Temirchi, dutorchi, xizmatchi* so'zlarini ma'noli qismlargaga bo'lib, bu so'zlar uchun umumiyligi bo'lgan qismni toping va ma'nosini tushuntiring.

## SO'Z YASALISHINING TUZILISHI

1. *Ter, terim, terimchi.* 2. *Tara, taroq, taroqchi* so'zlariga e'tibor bersangiz, shuni sezasizki, birinchi guruhdagi so'zlarning hammasida *ter* so'zi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa *tara* qismi hammasi uchun umumiy sanaladi.

Ko'rinaridiki, so'z yasalishi hodisasi o'zining ichki tuzilishiga ega bo'ladi va ikkita tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birligida yasalmani tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan *terim* so'zida *ter-* qismi yasashga asos, -*im* qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qo'shilishidan hosil bo'lgan hosila esa — *terim* yasalma hisoblanadi. *Terimchi* so'zida esa *terim yasashga asos qism, -chi yasovchi vosita, terimchi esa yasalma* sanaladi.

**So'zning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. So'zning ma'noli qismlarga bo'linishi uning morfemik tuzilishi sanaladi.**

So'zda nechta ma'noli qism bo'lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, *terimchi* uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *ter-im-chi*. *Terimchilar* so'zi esa to'rtta ma'noli qismdan iborat: *ter-im-chi-lar*. *Ter-imchilarga* so'zi beshta ma'noli qismdan iborat: Shuning uchun u morfemik tuzilishga ko'ra besh qismga bo'linadi: *ter-im-chi-lar-ga*.

Ko'rinaridiki, so'zning morfemik tuzilishi yasovchi qo'shimchalarni ham, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini ham o'z ichiga oladi. So'zning morfemik tuzilishini belgilashda ma'noli qismlarning so'z yasovchi yoki so'z o'zgartiruvchi ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. Qanday ma'noli qismlardan — morfemalardan iborat ekanligi e'tiborga olinadi.

So'zning yasalish tuzilishi esa faqat yasovchilarnigina o'z ichiga oladi. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'z yasalishi tuzilishiga kirmaydi.

So'z yasalishi tuzilishi doimo ikkita tarkibiy qismni — yasashga asos va yasovchi vositani o'z ichiga oladi. Agar so'zda birdan ortiq yasovchi qo'shimchalar ishtirot etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita sanaladi, oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, *taroqchi* so'zida -*chi* yasovchi vosita, *taroq* yasashga asos, *taroqchi* yasalma, *taroq* so'zida esa -*q* yasovchi vosita, *tara* yasashga asos, *taroq* yasalma hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'z yasalishi tuzilishida yasashga asos qism bilan yasalma o'rtasida mazmuniy bog'liqlik, mazmuniy davomiylik bo'ladi. Yasalmada yasashga asos davom etadi. Masalan, *tepki* so'zida yasalma bo'lib, -*ki* yasovchi vositasida *tep* so'zidan yasalgan. *Tepki* yasashga asos qism ma'nosini davom ettiradi: 1. *Tepki uchun xoslangan moslama* (otish qurolida). 2. *Tepki zarbasi* (tepki yedi).

**199-mashq. Hikmatli gaplarni o'qing, so'zlardagi yasalish hodisalarini aniqlab, ularni izohlang.**

## HAYO VA ANDISHA HAQIDA

Andishali odam yaxshilik doyasidir.  
Hayo bilan andisha — qo'sh ziynat.  
Andisha — yaxshilik yo'li a poyandoz.  
Andisha — kelajak yo'llarini munavvar etuvchi mash'ala.  
Hayosiz o'zining uyalmasligi bilan do'stini uyaltiradi.  
Andishali odam iffatli bo'ladi.  
Andishali muloqot — ulug'lik belgisi.  
Odamning hayo va andishasi — uning ko'rkidir.  
Vafo yo'q yerda hayo yashamaydi.  
Uyalish — insoniylikdan.  
O'rinsiz uyalib, maqsadni ro'yobga chiqara olmaslik — noshudlikdir.  
Uyat — boshni yerga egadi.  
Andishasizlikning hosili — xijolat.

**200-mashq. Matnni o'qing. Dor so'zi bilan bog'liq holatda hosil bo'la-yotgan yangi so'zlarga diqqat qiling, ularning yasalish o'rinlarini izohlang.**

Dor so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi ma'nolarda ishlatalidi:

1. Arqon va yog'ochlardan iborat dorbozlik qurilmasi. Masalan: Men dor deganda mutlaqo boshqa bir narsani ko'z oldimga keltirgan ekanman. O'rda ustiga qurilgan dor Toshpo'lat dorbozchining qurilgan doriga sira ham o'xshamasdi. (*N. Safarov*)

2. Kishini osib o'ldirish uchun o'rnatiladigan maxsus qurilma. Masalan:

Qahr ila Xabbozni bardor etar.

Dor boshina oni sangsor etar.

*(Durbek)*

3. Kiyim quritish uchun tortiladigan arqon. Masalan:

Shoyi-shalpar ko'ylagim yuvmay ilingan dorga,  
Toleyimning yo'qligidin yolg'onchi bo'ldim yorga.

*(Xalq qo'shiqlaridan)*

4. Kiyim-boshni ilish uchun shipga parallel ravishda tortiladigan ip yoki arqon. Masalan:

Ro'molimni olibsan,  
Olib dorga solibsan.  
Ro'molimni berolmay,  
Uvolimga qolibsan.

*(Xalq qo'shiqlaridan)*

Eski o'zbek tilidagi *dor* ma'nosi uy, hovli (masalan, «Boburnoma»da... safe dorlar tikibdurlar) va shaxs otini yasovchi qo'shimcha -*dor*, chunonchi, *amaldor*, *jahondor*, *xazinador* so'zlaridagi holatlar bunga aloqador emas.

**201-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing, tagiga chizilgan so‘zlardagi yasalish o‘rinlariga izoh bering.**

Hozirgi maymunlar ichida shimpanze o‘zining fikr ifodalash va uni tushunish borasida boshqa maymun turlaridan ajralib turadi.

Amerikalik olimlar — Uosho ismli 11 oylik maymun bolasini olib, uning intellektual, psixologik va nutq jarayonini tekshirib ko‘rishgan. Tadqiqotchilar Uosho uchun yosh bolalarga normal hisoblangan sharoit va muhit yaratganlar hamda o‘zlarini doimo u bilan birga bo‘lganlar.

Uosho nutqining takomili juda sekin borgan. U besh yoshida *kim? nima? qayer? kimni?* kabi so‘roqlarga 2 yoshli bola darajasida, ko‘proq imo-ishoralar bilan javob bergan. Keyinchalik ham uning fikr ifodalashda nutqdan foydalanishi natijasiz bo‘lgan. Tadqiqotchilar ta’kidlashiga ko‘ra, maymunlarning nutq apparati fiziologik jihatdan inson nutq apparatidan uzoq va nomutanosibdir. Bu borada to‘tilar ustun turadi. Lekin shimpanzeda fikr olish qobiliyati, intellektual xususiyatlari birmuncha yuqoridir.

Olimlar Uoshoning belgi va imo-ishora bilan fikr ifodalashini tekshirganlarida, u salkam uch yil ichida ingliz tilidagi 132 ta ishora belgilarini o‘rgangan va o‘rinli ishlatgan.

Uoshoning sevimli o‘vinchoqlarini yashik ichiga berkitib qo‘yganda, u «och» ishorasini ifoda etgan. Keyinchalik esa bu ishorani u yopiq eshikka nisbatan, so‘ngra esa, chanqaganda suvgaga nisbatan ishlatgan. Ishoraviy takomil natijasida u suv ichmoq ishorasini barmoqlarini yumib, bosh barmog‘ini yuqoriga ko‘tarib og‘ziga tomon olib kelish bilan ifoda etgan, ma‘lum davr o‘tgach, bu ishora boshqa turli suvuqliklarni ichish maqsadining ifodasi tarzida namoyon bo‘lgan (sut, kofe va boshq.).

Ma‘lum ishoraviy belgilarni o‘zlashtirgandan 2 yil o‘tgach, Uosho 2 ishora belgisini qo‘sishish orqali o‘z maqsadini ifoda eta boshlagan. «Ochish» va «ichish» dan iborat ishoraviy birikmalarni ixtiro etgan. Shimpanze muallimi bilan sayrga chiqib, oqqushni ko‘rganda beixтиyor «suyuqlik» va «qush» ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga «kalit — ochish — ovqat» ishoralari bilan murojaat qilganligi aytildi.

Shunisi xarakterlikki, kichik Uosho bir qancha odamlar va hayvonlar (yo‘lbars, bo‘ri, it va boshq.) rasmlarini aralashtirib qo‘yganda, ularni odamlar va hayvonlar guruhiiga ajratib, o‘zining rasmini ham insonlar guruhiiga qo‘shtan.

(«Fan va turmush» jurnalidan)

## **? Savol va topshiriqlar**

1. So‘z yasalishining tuzilishi qanday qismlarni o‘z ichiga oladi?
2. So‘z yasalishining tuzilishi bilan so‘zning morfemik tuzilishi o‘rtasidagi farqni aytинг.
3. O‘rog, kurak, suvchi so‘zlaridagi yasashga asos bilan yasalma o‘rtasidagi mazmuni bog‘lanishni tushuntiring.

## 35-DARS. SO‘Z YASALISHI USULLARI

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida so‘z yasalish usullari yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o‘quvchilarni turli-tuman kasb-korlarga qiziqtilish ruhida tarbiyalash.

✓ **1-topshiriq.** *-dosh, -kor, -shunos* qo‘srimchalari ishtirokida so‘zlar yasang va ulardagi umumiylikni izohlang.

**2-topshiriq.** *Bo‘tako‘z va ko‘zoznak* so‘zlaridagi so‘z yasalishini izohlang.

So‘z yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga ko‘ra so‘z yasalishining bir necha usullari bor: 1) yasashga asos qismiga qo‘srimchalar qo‘sishish orqali (affiksatsiya); 2) so‘zlarni qo‘sishish orqali (kompozitsiya). Masalan, *ishla* so‘zi *ish* qismiga (yasashga asos) *-la* qo‘srimchasini qo‘sishish yo‘li bilan hosil bo‘lgan. *Qo‘shma korxona, ishlab chiqarish* singari so‘zlar esa ikki so‘zni bir-biriga qo‘sishish asosida hosil qilingan.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashning mahsuldor usuli qo‘srimchalar qo‘sishish yo‘li bilan so‘z yasash — affiksatsiyadir. Bu usul tilda mayjud bo‘lgan muayyan so‘z yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so‘zlovchi xotirasida so‘z yasashning qoliplari mayjud bo‘ladi. Masalan, ot+chi «shaxs oti yasovchi» (*ishchi, temirchi, suvchi*); ot+li «belgingin mavjudligi yoki ortiqligi» (*suvli, mevali*) va boshq. Ana shu so‘z yasash qoliplari asosida turli-tuman yasama so‘zlar hosil qilinadi.

**So‘zlovchi xotirasida, so‘z yasash qoliplari va ularning ma’nolari haqida ko‘nikmaning mavjud bo‘lishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi.**

So‘z yasash qoliplari va ularning ma’nolari bir xil yasovchi qo‘srimchali so‘zlarni ma’lum uyalarga birlashtirish asosida aniqlanadi. Masalan:

traktorchi	yig‘la	binokor
kombaynchi	sizla	g‘allakor
suvchi	qo‘lla	paxtakor
ekskavatorchi	oqla	o‘ymakor
tikuvchi	ishla	sholikor

**202-mashq.** Matnni o‘qing, so‘zlarning yasalish o‘rinlariga e’tibor bering, ularni izohlang.

### «QOZON» TOPONIMI HAQIDA

Yer yuzida hamma joyning o‘z atamasi mayjud. Geografik joyning nomi kishilik jamiyatni uchun katta ahamiyat kasb etadigan faktordir.

Toponim — yer atamasi. Shuning uchun ham ko‘p adabiyotlarda joy nomlari grekcha toponim (*topos* — joy, yer; *onoma* — so‘z) so‘zi bilan almashtinib ishlataladi. Geografik nomlarning kelib chiqishini, ishlatalishini, hosil bo‘lish qonuniyatlarini, grammatik qurilishini toponimikada o‘rganamiz.

Toponimlar turli so‘z turkumlaridan, har xil mazmundagi so‘zlar va ularning qo‘silmasidan hosil bo‘lishi mumkin. Toponimlar ichida xo‘jalik terminlari ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Qozon turkcha so‘z bo‘lib, rus, ukrain, belorus va bolgarlar toponomikasida keng uchraydi. Bu toponim garchi bir ma’noda uchramasa-da, lekin geografik nom sifatida mavjuddir.

**Qozon** — Tataristonning poytaxti, Turkmanistonda **Qozonjik** shahri, Ozarbayjonda **Qozonbuloq** va **Qozonko‘l** gidronimlari, Kavkazda va Qrimda **Qazantip** qo‘ltig‘i va burni, Olatovda **Qozon** daryosi mavjud.

**Qozon** so‘zining toponim holida ishlatalishi chet el joy nomlarda ham uchraydi: Bolgariyadagi Bolqon tog‘larida **Qozonliq** shahri va vodiysi bor. Jahonga mashhur **Qozonlik** gullar plantatsiyasi ham Dunaydagi **Qozon** oralig‘ida joylashgan.

Yana shunga o‘xshash bir qancha geografik nomlarni Turkiya va Eronda uchratish mumkin.

(A. Ishayev)

**203-mashq.** Matnni o‘qing. Yasama so‘zlarni aniqlang, ularning yasalish holatlarini izohlang.

Mening bolalik yillarim Farg‘ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on degan qishloqlarida o‘tgan. O‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida, bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rganday bo‘lar edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobur bo‘lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o‘limgan edi, shunda otqorovul odamlarga yuzlanib: «Yopiray, bunaqa battol o‘g‘rini birinchi marta ko‘ryapman, men unga o‘q uzibman-u, kiprik qoqmadila» degan edi.

Zehnimda shunga o‘xshash qalqib yurgan xotiralardan tashqari, qalqimasdan toshdek cho‘kib yotgan xotiralar hali hisobsiz ekanidan uzoq vaqt bexabar ekanman. Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar.

Bundan o‘ttiz yil burun men u kishining 22 tomlik to‘plamini qo‘limdan qo‘ymay o‘qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go‘yo muborak ko‘zoynaklarini berdilar-u: «Ma, buni taqib, o‘z xalqingning o‘tmishiga nazar sol!» dedilar.

(Abdulla Qahhor)

**204-mashq.** So‘zlarni qo‘sish orqali yasalgan leksik birliklarni aniqlang, ularga tavsif bering.

Ammamning eri mo‘ynado‘z-kosib. Bola-chaqalari bo‘limganidan, uylari biznikiga o‘xshash to‘s-to‘polon emas — yig‘inchoqli, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchangal qushlardan: qarchig‘ay, miqqiy, qirg‘iy; urishadigan qushlardan: dakan xo‘roz, oddiy xo‘roz, amirxon xo‘roz,

kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho'pqafasda, to'rqafasda saqlanadi); sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q...

Gulbahor, gulra'no, gulsar, gulhamishabahor, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilib sanab tugatib bo'lmaydi. Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuri diydalaridek parvarish qiladilar.

(*G'afur G'ulom*)

**205-mashq.** Maqollarni o'qing. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlarni aniqlab, ularni izohlang.

Daraxt ildizi bilan kuchli, inson — do'stlari bilan. Qalbaki do'st ochiq dushmandan yomon. Yo'ldoshini tashlagan yo'lda qolur. Yiqilganda bo'limasa tirak, vafosiz do'st nimaga kerak? Rejasiz ish — qolipsiz g'isht. Hushyorlik — mustahkam qo'rg'on. Ezgulikning cheki yo'q. Bahorgi harakat — kuzgi barakat. Go'zallik ilm-u ma'rifatda. Mard maydonda bilinadi, nomard — ishda. Do'stlik barcha boylikdan afzal. Qo'rroqda uyat bo'limas. Aqli o'zini ayblar, aqlsiz — do'stini. O'qigan o'qdan oshar, nodon turtkidan shoshar. Qo'yni qassob so'ysin, oshni oshpaz pishirsin. Nomard non ustida ham nolishini qo'ymas. Itni qopag'on qilgan egasi. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga — un. Yer — don, dehqon — xazinabon.

**206-mashq.** Kompozitsion usul bilan yasalgan so'zlarni namundagidek ko'chirib yozing.

Qo'shma otlar: oqqush...

Qo'shma ravishlar: har yerda...

Qo'shma sifatlar: sheryurak...

Qo'shma fe'llar: borib kelmoq...

bilaguzuk, olachipor, tamom bo'lmoq, shirinso'z, achchiqtosh, sakkizoyoq, bodomqovoq, oltingugurt, tillaqo'ng'iz, e'lon qilmoq, kamunum, obod aylamoq, olib kelmoq, sarson etmoq, tumanlararo, biryo'la, umum-xalq, bir zumda, kinonigoh, sadarayhon, o'zibo'larchilik, tekintomoq, ikkiyoqlama, ta'zim aylamoq, kinoyulduz, olibstotar, g'ayrat qilmoq, kirib chiqmoq, favorang, oshpichoq, kamsuv, biokimyo, umumshahar.

**207-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o'qing. Morfologik usul bilan yasalgan so'zlarni topib, ularni izohlang.

### VAZIR TUTISH TUZUGI

Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi — aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u raiyat ahvoldidan xabardorlik, ularga nisba-

tan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to‘g‘rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko‘rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aystsalar eshitmaydi...

Qaysi vazir g‘iybat gaplarni aytса, uydirma gaplarga qulоq solsa, jabr-zulm qilsа, o‘ziga yoqmagan kishilarni yo‘qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli-yu zoti yomon, hasadchi, gina, kek saqlovchi, qora ko‘ngillik kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin.

Aqli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo‘lurki, bir to‘g‘ri tadbir qo‘llab g‘anim dushmanini parokanda qilib yubora oladi, murosa-yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o‘ziga rom qiladi.

(«Temur tuzuklari»dan)

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. So‘z yasashning qanday usullarini bilasiz?
2. Affiksatsiya usuli haqida so‘zlang.
3. So‘z yasash qolipi nima?
4. So‘z yasash qolipi qanday aniqlanadi?

## 36-DARS. SO‘Z YASASH JARAYONIDA RO‘Y BERADIGAN O‘ZGARISHLAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida so‘z yasash jarayonida asosda ro‘y beradigan o‘zgarishlar yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;

b) o‘quvchilarni ezzulik, yaxshiliklarga hamisha shaylik ruhida tarbiyalash.

✓ **Topshiriq.** Yumala, sayra, qayna so‘zlariga -q yoki -qi qo‘sishimchasi qo‘shilganda asosda qanday tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladi? Shu haqda o‘ylab ko‘ring.

Turkiy, jumladan, o‘zbek tili morfologik jihatdan agglutinativ tillar qatoriga kiradi. Agglutinativ tillar quyidagi xususiyatlari bilan flektiv tillardan ajralib turadi: 1) nechta grammatick ma‘no bo‘lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatick shakl qo‘llaniladi. Masalan, *yoz-ma-say-di-m*; 2) grammatick shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi; 3) grammatick ma‘noning ko‘payishi bilan, so‘zning grammatick shakkllari ham chapdan o‘ngga qarab cho‘zilib boradi; 4) grammatick qo‘sishchalarning qo‘shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o‘zgartirmaydi.

O'zbek tilida so'z yasalish jarayonida so'z yasash asosiga yasovchi qismning qo'shilishi natijasida asos qismning tovush tarkibida ba'zan o'zgarish ro'y berishining guvohi bo'lamiz. Ularni quyidagicha guruhash mumkin:

1. *Sust, past* singari so'zlarga -ay yasovchi vositasi qo'shilganda, yasashga asos qismda mavjud bo'lgan oxirgi «t» undoshi tushib qoladi. Masalan, *susay, pasay* kabi.

2. *Qizil, sariq* kabi ikki bo'g'inli so'zlardan -ar, -ay yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganda, yasashga asos qism bo'lgan *qizilning* «il» qismi va *sariq* ning ikkinchi bo'g'indagi «i» unlisi tushib qoladi. Masalan, *qizil+ar — qizar, sariq+ay — sarg'ay* kabi.

3. *So'ra, sayla, quvna, to'qi, o'qi* kabi ikkinchi bo'g'ini «a» bilan tugagan so'zlarga -q, -v yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda, yasashga asos qism oxiridagi «a» unlisi «o» unlisiga, «i» unlisi «u» unlisiga aylanadi. Masalan, *so'ra+q — so'roq, sayla+v — saylov, quvna+q — quvnoq, to'qi+v — to'quv, o'qi+v — o'quv* kabi.

4. *O'yin, qiyin* kabi ikki bo'g'inli so'zlarga -a yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda, yasashga asos qismning ikkinchi bo'g'indagi «i» unlisi tushib qoladi. Masalan, *o'yin+a — o'yna, qiyin+a — qiyna* kabi.

5. *Son, yosh, ong* kabi so'zlarga fe'l yasovchi -a yoki -la qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismda tovush o'zgarishi ro'y beradi: Masalan, *sana, yasha, angla* kabi.

Shu ko'rsatilgan o'zgarishlarning o'ziyoq o'zbek tilida ba'zi hollarda fuziya (fleksiya) elementlari ham mavjud ekanligini ko'rsatadi.

### **208-mashq. Gaplarni o'qing. Qo'shimchalar tarkibida sodir bo'layotgan tovush o'zgarishlarini belgilang.**

Inson o'z umrining hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi. Jo'jani kuzda sanaydilar. Gulla, yashna, mustaqil O'zbekiston! Respublikamiz iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining eng qiyin bosqichlarini ortda qoldirib, bugungi kunda yangicha takomil bosqichiga chiqib oldi. Mamlakatimizda mana bir necha yillardiki, saylovlar muqobillik asosida o'tkazilmoqda. Salimjon qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi. Davr qiyonoqlari o'tkinchi — hali hamma narsa oldinda... Kuz kelishi bilan daraxtlarning barglari sarg'a-yib, oltin rangini ola boshladи. Radiordan o'ynoqi musiqa yangradi.

### **209-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, ularning ichidan qaysi birlarida tovush o'zgarishlari sodir bo'layotganini belgilang.**

Ozaymoq, ko'paymoq, qizarmoq, bo'zarmoq, pasaymoq, susaymoq, sayramoq, yig'loqi, dumaloq, toshloq, pishloq, qishloq, boshla, ishla, tashla, angla, sana, jo'na, uxla, qiyma, qiyina, gapir, chaqir, tinchi, qarmoq, yashar.

### **210-mashq. Uyga vazifa. «Akademik litsey o'quvchisi qanday bo'lishi kerak?» mavzusida yozma ish yozing. Matnda ishlatalgan so'zlar ichidan yasama so'zlarni aniqlang va ularga tavsif bering.**

### 37-DARS. INSHO HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida insho yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- o'quvchilarni sinchkovlik ruhida tarbiyalash.

Savodxonlik darajasini tekshirishning sinalgan usullaridan biri INSHO sanaladi. Shu o'rinda insho va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida biroz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Insho so'zi aslida arabcha so'z bo'lib, «paydo qilish», «ijod», «yuzaga keltirish», «yozuv», «sochma asar», «xat» singari ma'nolarni bildiradi.

Insho quyidagi ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.
2. Uni oqqa ko'chirib yozish.

Inshoning qoralama nusxasi ishning dastlabki bosqichi bo'lganligi uchun unda o'chirilgan, so'zlarning o'rni almashtirilgan, jumlalar tuzatilgan o'rirlarning bo'lishi tabiiy. Qoralama nusxadagi bunday tuzatishlar ish tekshirilayotganda xato hisoblanmaydi va ular hisobga olinmaydi. Insho tekshiruvchi, hatto ba'zi bir paytlarda oq nusxadagi jumlalarning g'alizligini aniqlashtirish maqsadida qoralama nusxaga uni solishtirishi, agar unda jumla to'g'ri tuzilgan bo'lsa, oq nusxadagi xatoni hisobga olmasdan ketishi ham mumkin. Bu esa amaldagi qoidalarga muvofiq bo'ladi. Qoralama nusxada ham insho uchun reja tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va lo'nda shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxani haddan tashqari bo'yab, inshoni o'ta e'tiborsizlik bilan yozish maqsadga muvofiq emas.

Xomaki nusxani yozishda quyidagi holatlarga diqqatni qaratish tavsiya etiladi.

#### INSHONING XOMAKI NUSXASINI TAYYORLASH UCHUN TAVSIYALAR

1. Qaysi mavzu bo'yicha insho yozishingizni puxta o'ylab oling. Nimalar haqida yozish lozimligi ustida bosh qotiring.
2. Insho mavzusiga oid materiallarni, masalan, yozuvchi, uning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, siz insho yozmoqchi bo'lgan asar va uning yozuvchi ijodida tutgan o'rni, asarning mavzusi va g'oyaviy yo'nalishlari, bosh qahramonlari, asardagi voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan insho yozish uchun birinchi galda kerak bo'ladigan holatlarni eslang, so'ngra ularni qog'ozga tushira boshlang.

3. Insho bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yig'ib chiqing.
4. Insho mavzusini yoritish uchun o'zingizga ma'qul kelgan usulni tanlang.
5. Insho uchun reja tuzib oling va mazkur reja asosida insho yozishga kirishing.
6. Insho yozayotganda fikrlarning izchilligiga, insho materiallarining aniq va lo'nda shakllarda berilayotganligiga alohida e'tibor berib boring.
7. Inshoning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qiyotganingizda quyidagi holatlarga e'tibor qiling. Insho mavzusi yetarlicha yoritilganmi? Inshoning mazmuni talabga javob bera oladimi yoki yo'qmi? Inshoda ortiqcha so'z va gaplar uchramaydimi? Agar shunday so'z va gaplarga duch kelsangiz ularni insho matnidan chiqarib tashlang, bo'sh ko'ringan o'rirlarni to'ldiring.
8. Inshoning tiliga alohida e'tibor qiling.
9. Yozganlariningizni oqqa ko'chiring.

Inshoning qoralama nusxasi but bo'lgach, uni oqqa ko'chirish jara-yonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o'ziga xos tartibotlariga qat'iy rioya qilish kerak. Inshoning oq nusxasida o'chirilgan va ustiga yozib qo'yilgan joylar bo'lmasligi lozim.

Inshoning sarvarag'iga o'quvchining ism-sharifi yoki unga aloqador bo'lgan so'zlar amaldagi tartib-qoidalar asosida yozib qo'yilishi shart. Insho ustiga turli xil belgilar qo'yilmaydi.

Agar talaba tomonidan maqsadli ravishda yuqoridagi qoidalarga amal qilinmagan bo'lsa, bunday insholarga «qoniqarsiz» baho qo'yiladi.

Insho yozib bo'lingandan so'ng u o'quvchi tomonidan diqqat bilan o'qib chiqiladi va har ikkala nusxa sarvaraq bilan birgalikda o'quvchiga topshiriladi.

O'quvchilarga belgilab berilgan insho mavzularidan tashqariga chiqish, insho mavzularini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, o'zları xohlagan mavzu bo'yicha insho yozish huquqlari berilmaydi. Inshoni baholash paytida oq nusxadagi mazmun va savodxonlik hisobga olinadi.

### **38-DARS. INSHO YOZISH UCHUN ASOSIY YO'L-YO'RIQLAR**

*Darsning maqsadi:*

- a) ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida insho yozish uchun asosiy yo'l-yo'riqlar yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- b) o'quvchilarni o'z fikrini izchil, aniq bayon qila olish ruhida tarbiyalash.

O'quvchilarga insho yozish uchun 4 akademik soatdan iborat vaqt beriladi. Ular mana shu vaqt mobaynida tavsiya qilingan insho mavzularidan birini tanlab, mazkur mavzu bo'yicha o'zlarining fikr va mulohazalarini qoralab olishlari kerak. Qoralama nusxa ustida obdan o'ylab, fikrlar

nihoyasiga yetgach, qoralama nusxdagi matnni shoshmasdan, chiroyli yozuv bilan oqqa ko'chirib yozish tavsya etiladi. Insho mavzusini yoritishda iloji boricha o'rinsiz so'z va iboralardan qochish, mujmal hamda noaniq fikrlarni bayon qilmaslik lozim. Sodda va ixcham so'zlardan, gaplardan foydalanish, bayon qilingan fikr va mulohazalarni dalillar bilan isbotlash inshoning qadr-qimmatini oshirish uchun xizmat qilishi tabiiy. Inshodagi fikrlar, albatta, xulosalanishi shart.

Aziz o'quvchilar, inshoni yozish paytida quyidagi holatlarga e'tibor berib ketsangiz, bularning sizga foydasi tekkan bo'lar edi:

1. Tuzilayotgan jumlalarning lo'nda va aniq bo'lishiga alohida e'tibor berib borish kerak.

2. Insho mazmuni materiallarni bayon qilish uslubi bilan chambarchas bog'liq ekanligini hech qachon unutmang.

3. Insho mavzusi bilan bog'liq materiallarni bayon qilayotganingizda izchillikka qattiq rioya qiling. Insho mavzusiga aloqador shaxslarning nomlarini, badiiy asarlardan olingan parchalarni, tarixiy faktlarni, toponomik atamalarni yozishda amaldagi imlo qoidalaridan kelib chiqqan holda ish ko'ring.

4. Inshoni yuksak savodxonlik bilan yozishga harakat qiling.

5. Tinish belgilarining ishlatilish o'rinalariga diqqat qiling. Ularning shakllari aniq va ko'rinarli bo'lsin.

6. Insho husnixat qoidalariga muvofiq ravishda yozilsin.

Inshoning hajmi 4—5 sahifadan (varaq emas) iborat bo'lsa, yetadi. O'ta ixcham shakllarda yozilgan yoki mazmuni huda-behuda so'zlar bilan to'ldirilib yuborilgan cho'ziq insholar ishning umumiy bahosiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Har qanday insho quyidagi uch bo'limdan iborat bo'ladi. Buni foiz nuqtayi nazaridan quyidagicha ko'rsatish o'rnlidir.

Kirish	Asosiy qism	Xulosa
10—15 %	70—80 %	10—15 %

Foiz nuqtayi nazaridan inshodagi qismlar o'rtasida nomuvofiqliklar uchrasa, xususan, kirish va xulosa qismi kengaytirilib yuborilgan bo'lsa-yu, asosiy qism o'ta tor bo'lib qolgan bo'lsa, bu narsa inshoning mazmuniga jiddiy darajada putur yetkazishi mumkin. Inshoni baholayotganda, albatta, bular ham hisobga olinadi.

7. Insho mavzusi aniqlab olingach, mazkur mavzudan kelib chiqqan holda insho rejasi tuziladi. Tuziladigan reja insho mazmunini o'zida to'la-to'kis ravishda namoyon qilib turmog'i, u izchillik asosida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog'i darkor. Insho rejasi tuzib olingandan so'ng mavzuga har tomonlama mos keladigan muqaddima so'z (epigraf) tanlab olinadi.

8. Insho boshqalarga xalaqit bermasdan, umumiy tartib-intizomga qat-tiq rioya qilgan holda yoziladi.

9. Tayyor yozilgan, trafaret usulidagi insholardan foydalanishga sira ham harakat qilmang. Ular sizni adashtiradi, fikrlaringizdan chalg'itadi.

Yuqoridagi aytilganlarga rioya qilsangiz, o'z mulohazalaringizni dadil va qo'rqlasdan bayon qilsangiz, Sizning yaxshi baho olishingizga biz kafolat bera olamiz.

### **39-DARS. INSHO REJASI VA UNGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR**

*Darsning maqsadi:*

- ilmiy maqsad: o'quvchilarning ongida insho rejasi va unga qo'yiladigan talablar yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;
- o'quvchilarni har bir ishni aniq reja asosida bajarish ruhida tariyash.

Reja inshoning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Dengizda ketayotgan kemalar qирг'оqdagi mayoqqa qarab o'zlariga yo'l belgilaganlari singari insho yozayotgan shaxslar ham ma'lum bir reja asosida o'zlarining fikr va mulohazalarini qog'ozga tushira boshlaydilar. Yaxshi tuzilgan reja inshoning izchilligini ta'minlaydi, o'quvchi reja asosida qaysi fikrdan keyin qaysisini bayon qilishni aniq his qilib turadi. Har tomonlama o'ylab tuzilgan, o'zida insho mavzusining hamma jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja yariminsho demakdir. U inshoning nihoyatda ixcham, lo'nda shakllardagi o'ziga xos ko'rinishidir.

Insho rejasi ikki xil: sodda va murakkab ko'rinishda bo'ladi.

Odatda, erkin va ijodiy mavzulardagi insholar yozilayotganda yoki aniq bir yozuvchining ijodiga baho berilayotganda sodda shakldagi insho rejalaridan foydalaniлади. Bunda rejadagi har bir band ixcham va sodda gaplar dan iborat bo'ladi. Sodda shakldagi insho rejasi tuzilayotganda mavzuga har tomonlama mos keladigan materiallardan, xalq maqollaridan va ibratl iplardan, hikmatli so'zlardan foydalanish maqsadga muvofigdir.

Sodda ko'rinishlardagi reja namunalarini insho mazmunining nihoyatda ixchamlashtirilgan shakllari deyish ham mumkin, negaki, yaxshi tuzilgan sodda rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilliги haqida aniq bir tasavvurlarni berishi turgan gap.

### **SODDA KO'RINISHDAGI REJA NAMUNALARI**

Bunday tipdagи insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va ulardan keyin nuqta qo'yiladi.

N a m u n a : «Do'st bilan obod uying...»

Reja :

1. Do'stlik so'zining ma'nosini men qanday tushunaman?
2. Do'st boshga kulfat tushganda sinaladi.
3. Do'stlik, birodarlik insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Sodda ko‘inishdagi insho rejalari tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilash va ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo‘yish, shuningdek, ularni a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi. Tartibni belgilashning eng maqbul yo‘li arab raqamlarini qo‘yib, ulardan so‘ng nuqtani ishlatishdir.

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan rejalarda undan keyin qanday tinish belgisini ishlatish kerakligi ham haligacha hal etilmagan masalalardan biridir. Sababi o‘quvchilar «Reja» deb yozganlaridan so‘ng ba‘zan hech qanday tinish belgisini ishlatmaydilar, gohida esa undan keyin nuqta belgisini qo‘yadilar. Shuningdek, rejadan so‘ng ikki nuqtani ishlatish ham tez-tez uchrab turadi. Shu o‘rinda «Mazkur holatning qaysinisi amaldagi qoidalarga to‘g‘ri keladi?» degan savolning paydo bo‘lishi turgan gap. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ya’ni «**Sarlavhadan keyin hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi**», «**Xabar, darak ma’nosidagi atov gaplarning oxirida nuqta qo‘llaniladi**» degan qoidalarga asoslanadigan bo‘lsak, har uchala holatda ham to‘g‘ri va qonuniy yo‘l tutgan bo‘lamiz. Biz mazkur tavsifnomamizda «Izoh ma’nosidagi so‘zlardan keyin ikki nuqta qo‘yiladi», degan qoidaga rioya qilgan holda reja deb yozgandan keyin ikki nuqta ishlatishni (Reja:) ma’qul ko‘rdik. Zero, har qanday reja umumlashtiruvchi so‘z, uning ostidagi gaplar esa rejaning izohi, uning maqsadiga bo‘ysunuvchi mantiqiy davomidir.

N a m u n a l a r :

**Mavzu: «Mustaqillik deganda men nimani tushunaman?»**

Reja :

1. Ozodlik va erk uchun kurashish xalqimizning azaliy xususiyatlardan biridir.
2. Mustaqillik bayraming qutlug‘ bo‘lsin, ona O‘zbekiston!
3. Istiqlol va istiqbol.

**Mavzu: «Boburnoma — memuar asar»**

Reja :

1. «Boburnoma» ning yaratilish tarixi haqida.
2. Asardi tarixiy joylar tasviri.
3. Tarixiy shaxslarga xos bo‘lgan sifatlarning «Boburnoma»da berilishi.
4. Asarda moziyga aloqador faktlarning bayon etilishi.
5. «Boburnoma»ning tili haqida.

**Mavzu: «Uyg‘un lirkasida ona-Vatan madhi»**

Reja :

1. Uyg‘un lirkasining g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida.
2. Uyg‘un she’rlarida go‘zal ona tabiatimizning tarannum etilishi.
3. Shoirning asarlarida vatandoshlarimizga xos bo‘lgan sifatlarning ulug‘lanishi.
4. Uyg‘unning she’riy asarlarida Vatanimiz kuch-qudratining madh qilinishi.

Yuqoridagi mavzular bo'yicha o'quvchining istak-xohishiga ko'ra, murakkab ko'rinishdagi insho rejalarini tuzish ham mumkin.

Insho yozilayotganda sodda ko'rinishdagi insho rejalarini bilan bir qatorda, insho mavzularining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda murakkab ko'rinishlardagi insho rejalarini ham tuzilishi kuzatiladi. Bunday tipdagi reja namunalari tuzilayotganda o'quvchilar insho mavzulariga alohida diqqat-e'tibor bilan yondashmoqlari lozim, chunki adabiy-badiiy va adabiy-ijodiy xarakterlardagi insholarning aksariyati voqealarga boy, rang-barang timsollar galereyasiga ega bo'lgan, g'oyaviy hamda badiiy jihatdan pishiq-puxta, mukammal asarlarning mazmuniga asoslangan bo'ladi. Bu esa insho yozilayotgan paytda o'ziga xos murakkab vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

## **MURAKKAB KO'RINISHDAGI REJA NAMUNALARI**

Murakkab ko'rinishdagi reja namunalari sodda rejallardan o'zining «Kirish», «Asosiy qism», «Xulosa» tarzida o'ziga xos tarkibiy qismlarga bo'linishi bilan keskin farqlanib turadi. Bundan tashqari, har bir qismining o'zi bo'lakchalarga bo'linib ketishi mumkin. Murakkab rejallarda tinish belgilaringin qo'llanilishi ham birmuncha e'tiborni jalb qiladi.

Quyidagi murakkab ko'rinishdagi reja namunasiga diqqat qiling.

***Mavzu. «Alisher Navoiy lirkasida insonni sevish va adolatparvarlik o'yasining berilishi»***

Reja:

I. Kirish. Alisher Navoiyning lirk merosi haqida ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy lirkasining g'oyaviy yo'naliishlari to'g'risida.
2. Shoir asarlarida chinakam insoniy fazilatlarning ulug'lanishi.
3. Shoir she'rlarida inson timsoli.
4. Navoiy asarlarida adolatparvarlik g'oyalaringin tarannum etilishi.

III. Xulosa. Shoir g'oyalari amalda.

Ko'rini turibdiki, yuqoridagi insho rejalarida tinish belgilaringin ishlatalishi sodda ko'rinishdagi insho rejasiga qaraganda birmuncha murakkabroq.

Murakkab ko'rinishdagi insho rejalarini uchun rejaning quyidagi tiplarini namuna sifatida tavsiya qilish mumkin.

***Mavzu. «Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi Anvar obraz»***

Reja:

I. Kirish. Abdulla Qodiriyning nasriy asarlari haqida ma'lumot.

## II. Asosiy qism:

1. Anvar timsoli orqali ilm olishga ishtiyoqmand, qobiliyatli yoshlar xarakterining berilishi.
2. Anvar — o‘z so‘zida sobit turadigan sadoqatli do‘sit.
3. Anvar timsolida vafodorlik va pokdomonlik tuyg‘ularining ulug‘-lanishi.
4. Anvar timsoli yordamida ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyat-larining berilishi.

## III. Xulosa. Anvar timsolining tarbiyaviy ahamiyati.

*Mavzu. «Abdulla Oripov she’riyati va zamonamiz»*

Reja:

I. Kirish. Abdulla Oripovning she’riy asarlari haqida ma’lumot.

II. Asosiy qism:

a) Abdulla Oripovning she’rlarida ona O‘zbekiston go‘zalliklarining ulug‘lanishi;

b) shoir asarlarida zamondoshlarimiz obrazi;

d) Abdulla Oripov she’rlarida istiqlol mavzusining yoritilishi.

III. Xulosa. Abdulla Oripov asarlari bizni hayotni sevishga chaqiradi.

Yuqoridaq insho rejalarining sxemasini quyidagicha qilib ko‘rsatish mumkin.

*I-mavzu: « \_\_\_\_\_ »*

Reja:

Kirish. \_\_\_\_\_ .

Asosiy qism:

1. \_\_\_\_\_ .

2. \_\_\_\_\_ .

3. \_\_\_\_\_ .

Xulosa. \_\_\_\_\_ .

Bunda tartib bildiruvchi 1, 2, 3 singari arab raqamlaridan va har bir gapdan so‘ng nuqta belgisi qo‘yish lozimligini hech qachon unutmaslik lozim.

Agarda «Asosiy qism» dagi bandlarning tartibi a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilanib, ulardan keyin yopiluvchi qavs qo‘yilsa, shunga muvofiq ravishda gaplarning oxiriga nuqtali vergul qo‘yiladi. Oxirgi bandda kelayotgan gap bundan mustasno.

Sxemasi:

*2-mavzu: « \_\_\_\_\_ »*

Reja:

Kirish. \_\_\_\_\_ .

Asosiy qism:

- a) \_\_\_\_\_ ;  
b) \_\_\_\_\_ ;  
d) \_\_\_\_\_ .  
Xulosa. \_\_\_\_\_ .

Bundan tashqari, insho rejalari yana ham murakkablashtirilib, «Asosiy qism» dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o‘z ichida mayda bo‘lakchalarga bo‘lib yuborilishi mumkin.

### **Mavzu. «Nodira ijodiga tavsif»**

Reja:

I. Kirish. Nodiraning adabiy merosi haqida qisqacha ma’lumot.

II. Asosiy qism:

1. Nodira ijodida chinakam insoniy tuyg‘ularning ifodalaniishi.
2. Shoira she’rlarida xalqparvarlik g‘oyalarining aks ettirilishi.
3. Nodira — vafodor yor va sevimli ona.

III. Xulosa. Nodira asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.

Xulosa qilib aytganimizda, insho rejasini tuzishda o‘zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilgan holda ish tutishni tavsija qilamiz. O‘rni kelganda shuni ham alohida ta’kidlashni istardikki, ayrim ro‘znama va oynomalarimiz, xususan, «Yosh kuch», «Mushtum», «Guliston» jurnallarining tahririysi, «O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati» haftanomasining jamoasi, «Turkiston» gazetasidagi xodimlar, shuningdek, nashriyotlardagi mutaxassislar davr talablaridan kelib chiqqan holda ko‘plab ruscha-baynalmilal so‘zlarni etimologik (grafik) tamoyilda emas, fonetik tamoyilga ko‘ra ular qanday aytilsa, yozuvda shunday shaklda bermoqdalar. Masalan, *sex*, *aprel*, *sirk*, *oktabr* singari. Bundan tashqari, nomlarning — atamalarning ishlatalishida xilma-xilliklar juda ko‘payib ketdi. Bunday paytlarda o‘quvchilarda, qaysinisi to‘g‘ri: «Klassik adabiyotmi, mumtoz adabiyotmi?», «Samolyot deb yozsak to‘g‘ri bo‘ladimi yoki tayyora?», «Internatsional o‘rniga baynalmilalni qo‘llasak, tog‘rimi?» degan qator savollarning paydo bo‘lishi tabiiy.

Bu o‘rinda tilimiz uchun qayg‘urayotgan, uning obro‘sni uchun jon kuydirayotgan hamyurtlarimizning til borasidagi har qanday xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlasak arziydi, lekin ular tomonidan tavsija qilinayotgan holatlar hali mutaxassislar tomonidan imlo qoidalariga muvofiq ravishda qonunlashtirib berilganicha yo‘q. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘z insholarida hozirgi imlo qoidalarimizdan chetga chiqqan misollarga murojaat etadigan bo‘lsalar, buni alohida raqam bilan belgilab, so‘ng varaqning pastiga izohlab ketishlarini, ya’ni ongli ravishda o‘sha so‘z yoki iboradan foydalanganliklari haqida belgi qo‘yib yozishlarini so‘rardik. Shundagina tekshiruvchi tomonidan bunday so‘zlar xato hisoblanmasligi mumkin, aks holda ikki o‘rtada kelishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

## INSHOGA EPIGRAF TANLASH

Odatda, insho yozayotgan o‘quvchi o‘zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyoqarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan, unga ohangdosh tarzda jaranglovchi hikmatli so‘z hamda gaplardan, maqlol va matallardan muqaddima (kirish) so‘zi sifatida ustalik bilan foydalanadi.

Epigrafning qo‘yilishi ixtiyoriy, lekin qo‘yillayotgan epigraf mavzuga g‘oyaviy muqtayi nazardan to‘la-to‘kis ravishda mos kelmog‘i lozim. Yaxshi topib yozilgan epigraflarning o‘ziyoq o‘quvchining qanday dunyoqarashga ega ekanligidan, uning bilim va malakalari o‘lchovidan yaqqol dalolat berib turadi.

Epigraflar uchun yuqorida aytib o‘tganimizdek, xalq maqollaridan, matal va hikmatli so‘zlardan, buyuk kishilarining fikrlaridan, shuningdek, badiiy asarlardan olingan sitata (parcha)lardan foydalanish maqsadga muvo-fiqdır. Olingan epigraflarda aniqlik va qisqalik, lo‘ndalik bo‘lmog‘i darkor. Yarim yoki bir sahifalik epigraflar inshoning mazmuniga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy.

Keltirilgan epigraflar imlo qoidalariga mos ravishda varaqning yarmidan oxiriga qarab yoziladi. Aksariyat holatlarda ular qo‘shtirnoqqa olinmaydi, biroq undan so‘ng epigraf olingan manba yoki muallifning ism-familiyasi, albatta, ko‘rsatilishi shart. Masalan: «Avaz o‘tar ijodida ozodlik, ilm-fan va madaniyatning targ‘ib qilinishi», degan mavzu uchun quyidagicha fikrni epigraf sifatida tanlash mumkin: Ilm baxt keltiradi (*xalq maqoli*)

### 40-DARS. INSHONING ASOSIY MATNI USTIDA ISHLASH

*Darsning maqsadi:*

a) ilmiy maqsad: o‘quvchilarning ongida inshoning asosiy matni yuzasidan bilim va malakalar hosil qilish;

b) o‘quvchilarni xushmuomalalik, shirinso‘zlik ruhida tarbiyalash.

Inshodagi «**Asosiy qism**» ishning butun mazmunini, g‘oyaviy uyg‘unliklarini va yo‘nalishlarini, o‘quvchilarning dunyoqarashini, fikrlash doirasini o‘zida yaqqol ifodalab turuvchi bo‘lim sanaladi.

Odatda, inshoning «**Kirish**» qismida yozuvchining hayoti va ijodi bo‘yicha umumiyl, qisqa va aniq gaplarni bitish maqsadga muvo-fiqdır, shuningdek, bu qismda ma’lum bir asarning yaratilish tarixi yoki g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida ham yozilishi mumkin.

Asosiy matnda esa o‘quvchining ma’lum bir insho mavzusi yuzasidan mulohazalari, fikrlari o‘z aksini topmog‘i darkor bo‘ladi, shuning uchun ham insho yozayotgan shaxslarga o‘zlarini uchun aniq bo‘limgan, mavhum mavzular bo‘yicha yozma ish yozish tavsiya etilmaydi. Shunisi qiziqliki, aksariyat o‘quvchilarimiz adabiyotimiz tarixida muhim o‘rin tutgan mash-

hur asarlarni o'qimasdan turib ham ulardagi timsollar yoki asarning mazmuni haqida insho yozishga kirishaveradilar. Natijada ular asarni yaxshi bilmaganliklari uchun ko'plab chalkashliklarga, noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday salbiy holatlarga duch kelmaslik uchun o'quvchilar, birinchi navbatda, darsliklardi gi materiallardan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim. Shundagina o'quvchilar inshoning asosiy qismida mavzu yuzasidan o'zlarida hosil qilingan bilim va ko'nikmalarni hech qiynalmasdan, batafsil bayon qila oladilar.

Yozuvchining ijodi bo'yicha fikr va mulohazalar bildirilayotganda, timsollarga tavsif berilayotganda shoshma-shosharlik bilan ish tutish, chala fikrlarni bayon etish yaramaydi. Aytilayotgan fikrlar she'riy va nasriy parchalar bilan asoslangan taqdirdagina insho mazmuni risoladagidek bo'lishi mumkin.

Har bir so'zni o'z o'rnila qo'llash, og'zaki so'zlashuv uslubiga va shevaga xos so'zlardan qochish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish inshoning qimmatini oshiradi.

Yozilayotgan har bir gapda o'quvchining ijodkorligi, mustaqil fikrlashi barq urib turmog'i kerak.

Inshoning «**Xulosa**» qismida esa o'quvchining insho mavzusi bo'yicha umumiy xulosalari, mazmunning hozirgi davr bilan bog'liq jihatlari, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondoshlarimiz uchun namunaviy tomonlari haqida fikrlar yuritiladi.

Xullas, insho yozish o'quvchidan, birinchi navbatda, bilim va malaka, e'tibor, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlikni talab qiladi.

## Namuna

Namuna uchun berilayotgan mazkur inshoni ideal insho deb qabul qilmaslik lozim.

### **Yaxshi so'z — jon ozig'i**

Reja:

1. So'zlashish madaniyati haqida.
2. Yaxshi gap bilan ilon ham inidan chiqadi.
3. Yomon so'z kishiga kulfat keltiradi, yaxshi so'z — baxt.

Tilingni asragin, tishing sinmasin.

(*Xalq maqoli*)

Inson yer yuzidagi eng oliy darajada taraqqiy etgan mavjudot sanaladi. Insonga tabiat tomonidan ato etilgan sifatlar, imkoniyatlar juda ko'p, behisob. Ana shunday imkoniyatlardan biri bu uning tilidir.

Til aloqa-aratashuvning eng muhim va betimsol vositasи sifatida insonlar hayotida qiyossiz darajada amaliy ahamiyatga ega. Odamlar ana shu til vositasida bir-birlari bilan suhabtlashadilar, fikr berib, fikr oladilar. Ming

afsuski, hamma ham o'zi uchun berilgan bu cheksiz imkoniyatdan — tildan o'rinli foydalana olmaydi. Hayotimizda xushmuomala, shirinso'z odamlar bilan birgalikda so'zlashish madaniyatidan yiroq, dag'al va qo'pol so'zli kimsalar ham tez-tez uchrab turadi. Odamning ular bilan suhbatlashishdan yuragi bezillaydi, chunki bu toifadagi kishilar o'rinsiz gap-so'zlari bilan suhbatdoshining diliqa ozor yetkazadi. Shu o'rinda xalqimiz tomonidan aytilgan «Tig' yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi» degan maqolda olam-olam ma'no yotganligiga ishonasan kishi.

Hazrati Alisher Navoiyning qalamiga mansub «Yaxshi so'z — jon ozig'i» degan ibratli gapda ham buyuk hikmat yotganligini his qilishimiz mumkin.

Har bir inson so'zlash va tinglash madaniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Zero, shirinsuxan va xushmuomala insonlarni hamma hurmat qiladi. Ular bilan bir marta suhbat qurgan odamning ruhi yengil tortadi.

Yaxshi so'zlash degani o'zining gaplarini maqol-u matallar, she'riy parchalar bilan bezab gapirish degani emas, balki ko'ngliga kelgan gaplarni o'rinli va foydali tarzda, yumshoqlik hamda bosiqlik bilan so'zlash deganidir.

Har narsaga jahli chiqaveradigan, og'zidan bodi kirib, shodi chiqadigan, o'zini tuta bilmaydigan odamlarni hech kim hurmat qilmaydi. Xalq unday odamlarni kinoya bilan «biroz fe'li torroq», «yengilroq» deb ataydi. Shuning uchun ham insonlar bir-biri bilan gaplashganda xushmuomala bo'lmog'i darkor.

Tili zahar, hamisha atrofdagilarning diliqa ozor yetkazadigan kimsalarning hayotda qoqilishi tabiiy bir holdir.

Hayotning bir qonuniyatiga qoyil qolish kerak. Shirinzabon, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lgan shaxslarning xarakterlarida insof va diyonat, poklik va adolat tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Ularning tilidan bol tomib turishi bejiz emas. «Yaxshi gap bilan ilon ham inidan chiqadi», degan maqolning tagida ma'no ko'p. Buning aksi o'laroq, doimo zaharxandalik bilan so'zlaydigan, tili achchiq kimsalarning zolim va mansabparast, johil bo'lishlarida ham hayotiy bir mantiq borga o'xshaydi.

O'rni kelganda shuni ham alohida ta'kidlab o'tmog'imiz kerakki, har bir inson o'zining ona tilida aniq va sof, talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirmog'i lozim. Har ikki so'zining birida «chao», «privet», «korochе govorya» degan xorijiy so'zlarni qo'shib gapiradigan shaxslar o'zlarini o'ta madaniyatli deb hisoblasalar ham, aslida, ular g'irt madaniyatsiz, muomala odobidan yiroq kimsalardir. Ularga ergashish bizni to'g'ri yo'ldan adashtirishi mumkin. Bugungi davr talabi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligi ham bizdan xuddi shu narsani taqozo qilmoqda.

Xalqimizning «Yaxshi topib gapiradi, yomon — qopib» degan maqolida ham jon bor. Yaxshi so'z insonlarga baxt keltiradi. Barcha kulfatlarning boshi kishining yomon tilidir. Xalqimiz o'rtasida obro'-e'tibor topgan, shuhrat qozongan kishilarning barchasi bunday yuksak nomga o'zlarining

so‘zi, ishi bilan erishganlar. Shunday ekan, bizning har birimiz tilimizdan chiqayotgan har qanday so‘zga nisbatan diqqat-e’tibor bilan yondashmog‘imiz lozim. Qachon va qayerda, kimga, qaysi gapni qay yo‘sinda aytá bilishga odatlanish odob-axloqning o‘ziga xos me’yoridan darak berib turadi.

Bizning kelajagimiz, istiqlol g‘alabalarini saqlab qolmog‘imiz, mustaqil O‘zbekistonimizning shon-shuhratini qaytadan butun dunyoga yoyishimiz uchun yurtimizga xushfe’I va suxandon, xushmuomala, madaniyatli insonlar kerak bo‘ladi. Bunga esa insonlar o‘zining shirin so‘zi orqali erishishi mumkin. Har qanday holatda ham avval o‘ylab turib, keyin so‘zlashga o‘rganaylik.

## INSHONI BAHOLASH METODLARI

Yozilgan insholarni baholashda Respublika Ta’lim markazi tomonidan tavsiya etilgan yo‘riqnomadan foydalilanildi.

Insho mavzusi to‘la-to‘kis ravishda, hech qanday imloviy xatolarsiz, izchillik asosida, yetarlicha faktlar yordamida ochilgan bo‘lsa, ishga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash yaqqol sezilib tursa, bunday insholarga «a’lo» baho qo‘yiladi. Masmuni o‘ta yaxshi bo‘lgan, 1 ta imloviy va 1 ta ishoraviy xatolikka yo‘l qo‘yilgan insholarga ham «a’lo» baho qo‘yish mumkin.

Insho mavzusi to‘liq oolib berilgan bo‘lsa, ishda aniqlik hamda izchillik sezilsa, ijodkorlik ustun bo‘lsa, imloviy xatolarning nisbati ishoraviy xatolarga qaraganda ozroq, umumiy miqdori 6 tagacha bo‘lgan insholarga «yaxshi» baho qo‘yish tavsiya etiladi.

Insho mavzusi oxirigacha oolib berilgan bo‘lsa, lekin unda ayrim chalkashliklar, noaniqliklar uchrab tursa, ko‘pi bilan 4 ta imloviy, 4 ta uslubiy, 2 ta ishoraviy, jami 10 ta xatosi bo‘lgan (imloviy, uslubiy, ishoraviy xatoliklarning nisbati o‘zgarishi mumkin, biroq umumiy ko‘rsatkich qat’iy qoladi) ishlarga «qoniqarli» baho qo‘yiladi.

O‘quvchi tomonidan mavzu yetarlicha yoritilmagan, qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, fikrlashda noaniqliklar sezilib tursa, jumlalar bir-biri bilan bog‘lanmasa, ijodkorlik sezilmasa, xatolarning soni yuqorida nisbatlardan ortiq bo‘lsa, unday ishlarga «qoniqarsiz» baho qo‘yiladi.

Shuningdek, o‘quv yurtlarining o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda yozilgan insholar sinov tariqasida «qoniqarli» yoki «qoniqarsiz» deb baholanishi mumkin.

# **HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

## *2 - K I T O B*

---

## **1-DARS. O‘TILGANLARNI TAKRORLASH**

**I-mashq.** She’rni badiiy o‘qish san’atiga rioya qilgan holda o‘qing va yod oling. Unli va undosh tovushlarni aniqlab, ularga tavsif bering.

### **O‘ZBEKISTON**

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,  
Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni,  
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,  
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

N a q a r o t

Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!  
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

Qalqoningmiz qasd qilsa kim gar joningga,  
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.  
Gulday o‘pib asragaymiz ostonangni,  
Yovlar yaqin yo‘lmagay qo‘rg‘oningga.

N a q a r o t

Tuzing totib unutganlar xor bo‘ladi,  
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi.  
Tinch kuningni ko‘rolmagan yurtfurushlar  
Bir kun bir kaft tuprog‘ingga zor bo‘ladi.

N a q a r o t

*Muhammad Yusuf*

## 1.1. FONETIKA

### ? Savol va topshiriqlar

1. «Fonetika» deganda nimani tushunasiz?
2. Fonema va tovush munosabati qanday?
3. Harf va fonema munosabati haqida gapiring.
4. Unli tovush deb qanday tovushlarga aytildi?
5. Undosh tovushlarni qaysi jihatlariga ko‘ra tavsif qilish mumkin?

**2-mashq.** Fonetik usul bilan so‘zlar hosil qilinishini aniqlang, bunga siz ham misollar yozing (tovush o‘zgarishi, tovushlarning ikkilanishi, tovush tushib qolishi, tovushlarning o‘rin almashishi kabi hodisalarga e’tibor bering).

Ko‘z—ko‘r, tun—kun, aka—uka, siq—suq; silamoq—siylamoq, qatiq—qattiq; taqa—taqqa, tog‘a—taqa, toshmoq—shoshmoq.

**3-mashq.** Quyidagi so‘zlarni nutq tovushlarining o‘zgarish qonuniyatlariga ko‘ra izohlang.

Avhol, dayra, turpoq, istadion, ustol, g‘ish, go‘sh, tralebus, tiraktr, direktir, paryot, aylanayin, damaz, kamputer.

**4-mashq.** Quyidagi talaffuzi yaqin so‘zlar (paronimlar) orqali ifodalangan ma’nolarni tushuntiring.

### JAYRON—JIYRON

Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh. (*A. Oripov*)

Jiyron tog‘dan tog‘ga o‘tib, qayerga borishini bilmasdi.

### SODA—SODDA

Soda tabobat va pazandachilikda ishlatalidigan bikarbonatdir.

Suvga soda qo‘shib, chayib yuborishni unutmang. Sodda — sofdir, jo‘n, oddiy.

Sodda, yoqimli liboslar o‘ziga yarashib turgan qizlar tabassum bilan qarab turardi. (*Gazetadan*)

**5-mashq.** So‘z ma’nosini farqlash uchun xizmat qilayotgan fonemalarni aniqlab, shu so‘zlarning ma’nosini izohlang va misollar keltiring.

Siqim — sig‘im, sirop — serob, sudxo‘r — sutxo‘r, soliq — solih, so‘kmoq — suqmoq, tang — tong, uzuk — uzik, urish — urush, undash — undosh, ana — ona.

**6-mashq.** Savollarga javob bering.

1. Til va nutqning farqini ayting.
2. Tovush va ovozning o‘xhash va farqli tomonlarini tushuntirib bering.
3. Har bir nutq organi qanday vazifa bajaradi, ta’rif bering.
4. Nima uchun nutq organlari faol va passiv deb ataladi?
5. Undoshlarning hosil bo‘lish o‘rni deganda nimalarni tushunasiz.
6. Fonema nima?
7. Siz o‘rganayotgan tillarda unlilar miqdori qanday, o‘xhash va farqli tomonlarini ayting.
8. «Yoshlarga berilgan imkoniyatlar» mavzusida matn tuzing, matnda ishlatilgan ayrim unli va undoshlarga tavsif bering.

**7-mashq.** Matnni o‘qing, undosh tovushlarni aniqlab, ularni quyida berilgan guruuhlar bo‘yicha ajrating.

1. Bolalikda quyosh sekin chiqayotgandek bo‘laveradi. Keksalikda quyosh tez botayotgandek bo‘laveradi.
2. It tumshug‘ini suqqani bilan daryo harom bo‘lib qolmaydi. Nomard tosh otgani bilan tog‘ qulab tushmaydi.
3. Vijdonli inson uchun «Shu mening mushkulimni oson qilarmikin» deb birovning ko‘ziga termilishdan ortiq azob yo‘q.

(O‘. Hoshimov)

1. Paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra:
  - a) lab undoshlari;
  - b) til yoki til-tish undoshlari;
  - c) bo‘g‘iz undoshlari.
2. Aytilish usuliga ko‘ra:
  - a) portlovcilar;
  - b) sirg‘aluvchilar.
3. Tovush psychalarining ishtirokiga ko‘ra:
  - a) jarangli undoshlar;
  - b) jarangsiz undoshlar.
4. Ovozning ishtirokiga ko‘ra:
  - a) sonorlar;
  - b) shovqintilar.
5. Tarkibiga ko‘ra:
  - a) sof undoshlar;
  - b) qorishiq undoshlar.

**8-mashq.** «Mafkura — millat tug‘i», «Al-Xorazmiy», «Abu Ali ibn Sino» yoki shunga o‘xshash millatimiz daholari haqida matn tuzing. Unda ishlatalilgan so‘zlarni tubandagi jadvalga ko‘chirib yozing. O‘zbek allomalari haqida savol-javob uyshtiring.

Qo‘sish undoshli so‘zlar	Takror undoshli so‘zlar	Qator keladigan undoshli so‘zlar

**9-mashq.** Berilgan matnni quyidagicha tahlil qiling.

- a) orfoepik me’yor asosida o‘qib, magnitofon lentafiga yozib oling va eshititing. Matndagi adabiy talaffuzdan chekinishga yo‘l qo‘yilgan o‘rinlarni aniqlang, daftaringizga ko‘chiring va izohlang;
- b) yoddosh undoshlarni aniqlab, talaffuzini izohlang;
- c) matndagi ayrim so‘zlarning umumiy talaffuzida hozirgi adabiy til me’yordan chekinishlar borligini aniqlang.

Yoshi ellikdan oshibdi. Qanchadan qancha narsalarni ko‘ribdi. Qiziq. Nimalarни ko‘rdi? O‘ylab qarasa, hech nimani ko‘rmaganga o‘xshaydi. Ro‘parasida zulmat, ortiga o‘girilib qarasa, qorong‘i — bo‘shliq. Faqat uqubat uchun tug‘ilgan odam ham u kabi uqubat chekmasa kerak. Qoq suyak topgan it ham o‘zini baxtli his qilar, balki. Shuncha boyligi bo‘la turib nima uchun Asadbek baxtsiz?..

Har bir odamning baxt daraxti o‘ziga alohida bo‘ladi. Bu baxt daraxtini boylik bulog‘i suvi bilan sug‘orib, meva olmoqchi bo‘lganlar yanglishadilar.

Asadbek ana shu adashuvchilardan biri edi.

Faqat imon bulog‘idan suv ichgan baxt daraxtigina shirin meva berishini hamma ham anglab yetavermaydi.

Asadbek ana shu anglamaganlardan biri edi.

Zulm bulog‘idan suv ichgan baxt daraxti qiyomatda zaqqum daraxtiga aylanajagidan barcha xabardormi?

(T. Malik)

**10-mashq.** Gaplarni ko‘chirib yozing, so‘ngra ularni nutqning fonetik bo‘linishi bo‘yicha tahlil qiling, har bir gap tarkibida nechta sintagma (takt), so‘z, bo‘g‘in va tovushlar borligini aniqlang.

N a m u n a : Eng buyuk jihod: insonning nafsi bilan: shayton bilan qilgan: jihodidir: Sen ham:doim: ularga qarshi kurash.

I z o h . Sintagmalardan so‘ng ikki nuqta qo‘yilgan.

Bu gap 7 ta sintagma (takt) dan iborat bo'lib, 16 ta so'zga, so'zlar esa 33 ta bo'g'in va 82 ta tovushga bo'linadi.

1. Yolg'iz qolishing yomon odamlar bilan birga bo'lisingdan yaxshiroqdir. Buni uqib ol. Yomon odamlardan hamisha uzoq yur.

2. Haqdo'stlaring ko'ngillarini aslo ranjitma. Xafa qilsang, dushmanlaringning orzularini bajargan bo'lasan. Natijada azoblarga qolasan.

3. Yomonliklardan yiroq yurmoqchi bo'lsang, tilingga ehtiyot bo'1. Yo yaxshi gaplardan gapir, yoxud sukut saqla.

4. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi.

5. Ey inson, bilmaganingni hamisha so'ra. Olimning yonidan ayrilma. Undan olgan fayz ila atrofni munavvar ayla.

(M. Kamol)

**11-mashq.** She'riy matnni daftaringizga ko'chiring, bo'g'inxalarning turlarini aniqlab, ochiq bo'g'inning ostiga bir, yopiq bo'g'inning tagiga ikki chiziq chizing. Urg'ularini ham aniqlang.

Aytilmagan bir qo'shiqsan,  
Jayxundirsan, Sayxundirsan,  
Sen-da Sug'dsan, Sen-da Shoshsan,  
Ko'hna Turon — ona tilim.  
Jaloliddin Manguberdi,  
«Yurtim» dedi, «tilim» dedi.  
Chingizzon ham ming havasda:  
«Shunday bo'lsa o'g'lim», dedi!  
Sug'd yozuvi, o'z yozuvim,  
Turkiy tilim, o'zbek tilim.

**12-mashq.** «Amir Temur o'gitlari» mavzusida hikoyacha tuzing. Unda so'zlar tarkibida kelayotgan undosh tovushlarga diqqat qiling.

**13-mashq.** Darsga bir dona maysa olib kel. Uni ta'rif-u tavsif etib matn tuzing. Matn ichida kelayotgan unli va undosh tovushlarga, ularning ishlatalish o'rinalariga diqqat qiling. Matn mazmunini yoritishda sizga quyidagi parcha yordam beradi:

Zilday zamin darz ketibdi,  
Qilday maysa dastidan...

(T. Sodiqova)

## Tayanch tushunchalar

fonetika, tovush, unli tovush, undosh tovush, jarangli undosh tovush, jarangsiz undosh tovush, sirg‘aluvchi tovush, portlovchi tovush, sonor tovush, yon tovush, titroq tovush.

### 1.2. MORFEMIKA

**14-mashq.** Quyidagi qo‘sishimchalarni daftaringizga ko‘chirib yozing, ularni so‘zlarga qo‘sing. Qo‘sishimchalarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi variantlarini ham aytинг:

-ko‘r, -g‘il, -gil, -qil, -ing, -ung, -yin, -ayin, -ay, -y, -mak.

N a m u n a : *qilg‘il (qilgil)*

Bori elg‘a yaxshilik qilg‘ilki mundin yaxshi yo‘q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik‘.

(Bobur)

**15-mashq.** Berilgan so‘zlarni morfemalarga ajratib, tahlil qiling.

Fazilatlari, o‘qiganimda, barqarorlik, vatandoshimiz, faxrlanishga, qiyofasini, sog‘inchning, g‘ururlanishdi, avaylaylik, asrandi, dog‘lab, kuchaytirdi.

Namuna: *barakasini* — *baraka* — *o‘zak, -si* — *egalik qo‘sishchasi*.  
*III shaxs, birlikni ifodalovchi qo‘sishcha, -ni* — *tushum kelishigi qo‘sishchasi*.

**16-mashq.** «Bugungi harakat — ertangi barakat» mavzusida ijodiy insho yozing.

**17-mashq.** Gaplarni yozing va qora harflar bilan yozilgan so‘zlarni tarkibga ajrating.

1. Biz hech kimdan kam emasmiz, agar **bahamjihat** bo‘lib, **aql-zakovatimizni** to‘la ishga solib mehnat qilsak, albatta, eng taraqqiy etgan mamlakatlarga yetib olamiz.

2. Tarixga «Kompyuter asri» nomi bilan kirgan ushbu asr nafaqat **bizning O‘zbekistonda**, balki butun jahonda o‘chmas iz qoldiradi.

3. Ey odam farzandlari, **umrlaringizni** tavba va yaxshi amal bilan bezanglar, boshqalarga yomonlik qilishdan o‘zingizni saqlanglar.

4. Dunyo **yaralibdiki**, eng ezgu qadriyatlar, urf-odatlar, milliy iftixor tuyg‘ulari millatlarni asrlar davomida ma’naviy kamol toptirib, **aqliy salohiyatini** uyg‘otib keladi. (M. Mirzo)

5. Ilmga tashnalik, til bitish, bilim olishga ishtiyoq, hayotni **yaxshilashga** jaddu jahd meni xursand qiladi.

6. Istiqlol bergen eng buyuk ne'mat o'zlikni anglash, milliy g'urur va oriyatni tiklash bo'ldi. (*Gazetadan*)

**18-mashq.** Ko'chiring, asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.

Millatlarning o'z milliy qadriyatlariga e'zozi, hurmati va sadoqati qanchalar ulug' bo'lsa, ularning jahonda tutgan o'rni, nufuzi ham shunchalar yuksak bo'lib borar ekan.

Shunisi quvonchlikki, dunyoga o'z ezgu-qadriyatları bilan mashhur bo'lgan xalqlar ichida biz Vatan deb e'zozlayotgan shu qadim yurtning, ajdodlarimizning ham o'z o'rni bor. Ayni paytda, o'z qadriyatlarimizning umuminsoniy jihatlaridan faxrlanish bilan birga, o'zga millatlarning betakror urf-odatlariga hurmat bilan qaraymiz.

Men yoshligimdan hindlarning mehmon kelganda, nikoh va boshqa marosimlarda qadrdonlari bo'yniga gulchambar taqishlaridan ta'sirlanaman. Yana hindlarning ota-onasi bilan ko'rishayotganda egilib xoki moyini ko'zga surtishlari, hatto hind ayollarining tur mush o'rtog'iga nisbatan shunday hurmati ham men uchun nihoyatda go'zal va betakror bo'lib tuyuladi. Yaponlar-chi, rahbarmi, oddiy ishchimi, ayolmi yoki erkakmi, bir-birlari bilan duch kelganda nim tabassumda egilib salomlashadi.

Butun dunyodagi juda ko'p xalqlar biz — o'zbeklarning ota-onaga, ustozga bo'lgan hurmatimiz, nonga nisbatan e'zozimiz, marhumlar ruhiga bo'lgan e'tiborimiz, tug'ilib o'sgan makon — Ona yurtga mehrmuhabbatimiz, duoni qadrlashimiz, mahalla-ko'ydag'i oqibatimiz, ibo, hayo, sadoqat, or-nomusni joyiga qo'yishimizga havas bilan qarashadi, tan berishadi.

(*M. Mirzo*)

**19-mashq.** Matnni o'qing, o'zbek tilining rivojiga munosib hissa qo'shgan qanday tilshunos olimlarni bilasiz, ular haqida so'zlab bering.

### ALIBEK RUSTAMOV (1931)

Filologiya fanlari doktori (1968), professor (1968), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Alibek Rustamov (1995) o'zbek tili tarixi, tilning badiiy-estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiylasalari bo'yicha bir qancha asarlar yaratdi. Xususan, «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), «Qofiya nima?» (1975), «Mahmud Zamashariy»

(1971), akademik G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida qimmatga ega.

Akademik Alibek Rustamov oliy o'quv yurtlarida filologiya ta'limi ni yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Qadimgi turkiy til» (1982) o'quv qo'llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o'qish va ularni tahlil etish bo'yicha talabalarning doimiy hamrohiga aylanib qoldi.

✓ **Uyga topshiriq.** Ona tili fanining fonetika, morfemika, morfologiya bo'limi bo'yicha boshqotirma tayyorlang.

**20-mashq.** «Dilxiroj», «Shashmaqom», «Lazgi», «Ushshoq» kabi mumtoz kuylardan namunalar eshitib, ular asosida gaplar tuzing. Tuzgan matningiz ichida eng ko'p qo'llangan faol so'z yasovchi qo'shimchalarni ajratib, ularni izohlang.

**21-mashq.** So'zlarning qanday yasalganligini aniqlang.

Sog'lomlashtirish, zamondosh, ishbilarmon, ko'kardi, hamfikr, otingugurt, salmoqdar, Oqxo'rg'on, Soyguzar, mashaqqatli, tarjimon, yetimparvarlik, xo'randa, hurfikr, muxtoriyat, aqlilik, zardo'zlik, insoniylilik, saxovatpesha, foydalanmoqda, tekislash, tetapoya, jilovkorlar, sug'urtalash, texnologiya, dolzarb, oqilonqa, oromijon.

### Tayanch tushunchalar

o'zak, qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, so'z shakli yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, old qo'shimcha.

## 1.3. SO'Z TURKUMALARINI TAKRORLASH, ESGA OLISH

**22-mashq.** Qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan sifat yasash mahsuldar usul sanaladi. Shunga asoslangan holda quyidagi qo'shimchalar yordamida so'zlar hosil qiling:

-ma, -dor, ser-, ba-, be-, -mand, -kor, -siz, -chak, -chan, -choq, -chiq, -qoq, -agon, -man, -ildoq, -namo, bad-, -don, -bop, -chil, xush-, -kash ...

**23-mashq.** Uyga topshiriq. Ko‘chiring. Matndagi so‘zlarni bir-biridan vertikal chiziq bilan ajratib, ustiga qaysi so‘z turkumiga oidligini yozib qo‘ying.

## O‘ZBEKISTON

Bolalarimga, nevaralarimga razm solaman. Ular boshqacha fikrlaydigan kishilar bo‘lib o‘smoqdalar. Men yangi asrda o‘zbekistonlik har bir fuqaroning xonadoni obod va farovon bo‘lishini, har bir kishi o‘z ishi, umridan rozi bo‘lib yashashini istayman.

Olimlarimiz, adiblarimiz eng nufuzli xalqaro mukofotlar sohibi bo‘lsalar, sportchilarimiz shoda-shoda medallar olsalar, Osiyo o‘yinlari, olimpiada o‘yinlari bizning vatanimizda o‘tsa — bu mening orzuyim. Inshoolloh, shunday bo‘ladi ham. Yangi asr chin ma’noda hamkorlik, o‘zaro raqobat va ayni vaqtida o‘zaro kelishuvlar asri bo‘lajak.

Bunda nafaqat ishbilarmonlik, aqliy salohiyat kuchini ko‘rsatadi, balki ma’naviy komillik ham zarur bo‘ladi. Taraqqiyot inson qo‘li bilan bo‘lar ekan, jamiyat sog‘lomligi taraqqiyot kafolati ekan, mehr-oqibat, muruvvat va saxovatning ko‘proq qalblardan joy olishini, «Mening yaxshi yashashim boshqalarning ham yaxshi yashashiga xalaqit bermasin, aksincha, yordam bersin» degan tamoyilning tantana qilishini, dunyo xalqlari o‘zbeklarni ko‘rganda: «Bulardan ko‘ra ahil xalq yo‘q!» degan bahoni berishini, ishimizga, yashashimizga xalaqit berayotgan hasad, hirs, ko‘ra olmaslik illatlarining tobora kamayib borishini xohlardim.

Inshoolloh, shunday bo‘lajak...

(N. Komilov)

**24-mashq.** Gaplarni o‘qing, so‘ngra undagi olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib ko‘chiring va ularga tasnif bering.

Inson — butun bir olam, faqat unda asosiy tuyg‘u olrijanoblik bo‘lsa bas. (F. M. Dostoyevskiy) Ezgulik insonning ma’naviy olamidagi quyoshdir. (G. Toro) Har narsaga qarshi turish mumkin, lekin saxovatga qarshi turib bo‘lmaydi. (J. J. Russo) Men ezgulikdan boshqa biron-bir afzallikni bilmayman. (L. Betxoven)

Bir g‘aribning ko‘nglini shod aylasang,  
Yo‘l bosib Ka‘ba sari bormoq abas.

(Huvaydo)

**25-mashq.** Gaplarni fonetik, morfologik va so‘z tarkibi bo‘yicha og‘zaki tahlil qiling.

Bizni ona yanglig‘ oq yuvib, oq taragan Vatanni sevmoq bu muqaddas burchdir. (M.A. Sholoxov) Vatandan tashqarida baxt yo‘q, har kim jonajon yerida ildiz otsin. (I.S. Turgenev) Bizga ota-onalar, bolalar,

xesh-u aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz «Vatan» otli so‘zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, axir, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilalar ekan. (*Sitseron*)

**26-mashq.** O‘qing. So‘zlarni turkumlarga guruhlab daftaringizga ko‘chiring.

1. Bir narsaga so‘z berdingmi, uni, albatta, bajar. So‘zda turish imon alomatidir. Buni yaxshi bilib ol. 2. Yolg‘onchining muruvvati bo‘lmaydi. U har insonga zahar sochadi. Yolg‘onchiga ishonma, so‘ziga aldanma. 3. Bior narsa haqida faqat imonlilar bilan maslahatlash. Bu maslahat seni faqat yaxshilikka erishtiradi. 4. Intiqom olgan yaxshi odam emas. Yaxshi odam intiqom olmaydi. 5. Qadringni bilganing sayin imonli bo‘lasan, qadringni bilmasang, sharmanda bo‘lasan. 6. Dunyoda vaqt juda qimmatlidir. Vaqtning qadrini bil. Ne yoziqliki, ko‘p odamlar buning qadriga yetmaydilar. 7. Ishlagan kishi vaqt qiymatini, dangasalar esa vaqtlarining qiymatini bilmaydilar, o‘zlarini yomonliklardan qutqara olmaydilar. 8. Xayrli ishni niyat qilgan vaqtingda uning mevasiga shoshilma, toki hoy-u havasning shaytoni seni yengmasin.

(*M. Kamol*)

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l	Ravish

**27-mashq.** O‘qing. Matn ichidan ot, olmosh, fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarni toping.

### KIBRDAN SAQLANING

Mutakabbirlik qilish hech bir mo‘min bandaga hargiz durust ham, joiz ham ermas. «Men falonchidan kammanmi? U kim bo‘lib qolibdi?» deguvchilar eslasinlarki, Iblis Odam alayhissalomga sajda qilishdan bosh tortib: «Sen loydan yaratgan kimsaga sajda qilurmanmi?» dedi. (**«Isro» surasi, 61-oyat**)

Yana aytdi: «Men undan yaxshiroqdurman». (**«Sod» surasi, 76-oyat**) Endi agar suratda tavozelik qilib yurganlar bo‘lsa, o‘z ibodatlaridan g‘ururlanib, ko‘ngillarida o‘zlarini boshqa gunohkor bandalardan yuqori qo‘ymasun. O‘zining gunohlarini eslasun. Har bir odamni ko‘rganda shu odam avliyomikin deb o‘ylash lozimligini aytganlar o‘tmish ajdodlarimiz. «Nega Xudoyim falonchini qilgan gunohlari uchun azoblamas ekan?»

deguvchilar va boshqalarni past ko‘rguvchilarga ushbu hikoyat ibrat bo‘lsin. Shayx Hasan Basriy rahmatullohu alayhi daryo bo‘ylab kelayotir erdilar. Sohilda bir erkak bir xotun birla sharob ichib o‘lturg‘onini ko‘rdilar. Shayxning ko‘ziga bul ish makruh, ya’ni xunuk bo‘lib ko‘rindi: «Bular nechuk bandalarki, erkak birla xotun kishi sharob ichib o‘lturg‘ay?» deb o‘zini alardin baland ko‘rdi. Shu paytda daryoda bir kema g‘arq bo‘ldi. Kemedagilar: «Ey, Xudoning bandasi!» deb nido qildilar, ya’niki madad so‘radilar. Sharob ichguychi kishi o‘zini daryog‘a tashlab kemadagilarni mollari birla olib chiqdi, magar bir kishi qolib ketdi. Sharob ichg‘on kishi Hasan Basriyning qoshig‘a kelib «Ul kishi senga qoldi» dedi. Shayx daryog‘a qadam qo‘ydi ersa suvg‘a botub ketdi, holo ilgari suvning ustida xuddi quruqliqdagi kabi yurib, hatto namoz ham o‘qig‘on erdi. Qo‘rqib daryodan chiqdi. Boyagi kishi yana daryog‘a tushib qolgan odamni ham qutqardi.

So‘ngra shayxga kelib aytdi: «Ey Hasan Basriy, bir martaba o‘zingni birovdan baland tutganing sababli daryog‘a botding, bundan so‘ng hargiz bundog‘ish qilmag‘il. Ul ayol mening onam bo‘ladi. Seni sinamoq uchun onamni nomahram ko‘rsatib qo‘ydim. Ichg‘onimiz sut erdiki, sening ko‘zingga sharob qilib ko‘rsatdim».

**28-mashq.** She’rni badiiy o‘qish san’atiga rioya qilgan holda o‘qing, so‘ngra sifat turkumiga oid so‘zlarni topib, alohida yozib chiqing.

## SEN MILLATNING MULKISAN

So‘zi qudratlisi, sirli,  
Ham go‘zal, ham sehrli,  
Go‘yoki tirik jondek,  
Muhabbatli, mehrli,  
Go‘zal, janona tilim,  
Asl, durdona tilim.  
Dilimiz tarjimoni,  
Fikrimiz jism-u joni  
So‘zlar bo‘lsak so‘zimiz,  
Xaloskori, posboni,  
Ona til, ona tilim,  
Asl, durdona tilim.  
Sen millatning mulkisan,  
Chiroyisan, ko‘rkisan,  
Fe‘l-atvori, ruhini,

Aks ettirgan ko‘zgusan,  
Donishmand, dono tilim,  
Asl durdona tilim.  
Sensiz na ilm bo‘lar.  
Na fikr, bilim bo‘lar.  
Sen bo‘lmasang so‘zlarining,  
Bag‘ri ming tilim bo‘lar,  
Onajon, ona tilim,  
Mening shohona tilim.  
Kuylar bo‘lsak kuyimiz,  
O‘ylar bo‘lsak o‘yimiz,  
Fikr bo‘lsak bo‘yimiz,  
Bo‘ylar bo‘lsak bo‘yimiz,  
Sen o‘zing ona tilim,  
Yakka-yagona tilim.

(Barot Yarash)



**Uyga topshiriq.** Tilxat va ma'lumotnomaga namuna yozib kelish.

### **Tayanch tushunchalar**

so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, taqlid so'z, modal so'z, undov so'z.

---

## **2-DARS. ADABIY TIL HAQIDA MA'LUMOT. ADABIY TIL SHAKLLARI**

### **2.1. ADABIY TIL**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga adabiy til va uning shakllari haqida ma'lumotlar berish, ularni to'g'ri va yoqimli so'zlashga o'rgatish.

**R e j a:**

- \* Adabiy til haqida ma'lumot.
- \* Xalq shevalari.
- \* Adabiy tilning xalq shevalaridan farqi.

✓ **I-topshiriq.** Har millatning taraqqiysi ilm ila, nodon xalqning ko'z yoshi marjon emish. (*A. Avloniy*)

Gapdag'i so'zlarni izohlab, adabiy til haqida fikr yuriting.

Har kuni radio va televide niye orqali turli axborotlarni eshitgasingizda, gazeta va jurnallar o'qiganingizda, siz mansub bo'lgan qishloq yoki shahar aholisi gaplashayotgan tilning radio, televide niye, matbuot tilidan ma'lum farq qiladigan tomonlarini payqaysiz. Bundan ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tilimiz adabiy til va mahalliy xalq shevalarini o'z ichiga oladi.

! **Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarining qaysi hududda yashashidan qat'i nazar barchasi uchun umumiyligini bo'lgan til adabiy til sanaladi.**

Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Bu jihatdan adabiy til xalq shevalariga qarama-qarshi qo'yiladi.

! **Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi.**

Shevalar shu xususiyatlari bilan boshqa hududga mansub shevalardan va ayni paytda adabiy tildan farq qiladi.

Adabiy til xalq shevalaridan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Demak, adabiy til xalq shevalaridan uzilgan til emas.

Adabiy til xalq shevalari negizida so‘z ustalari tomonidan umumlashtirish, qat’iy me’yorlarni ishlab chiqish yo‘li bilan hosil qilinadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili ko‘proq qarluq, qisman qipchoq va o‘g‘uz shevalari negizida vujudga ketgan. Qarluq shevasi vakillari ko‘proq Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlari va ularning atroflaridagi hududlarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu sheva vakillarini Markaziy Osiyoning bir qancha joylarida, xorijiy mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Har bir ziyoli o‘zi mansub bo‘lgan hudud tili xususiyatlaridan qutulib, adabiy tilda gapirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Masalan, *ashi*, *kevotti*, *kelutti*, *kelopti*, *oka*, *aqa-baqa* singari shakllarni nutqda qo‘llash so‘zlovchida nutq madaniyatining shakllanma-ganligidan dalolat beradi.

## ؟ Savol va topshiriqlar

1. Adabiy til nima va u xalq shevalaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Xalq shevalari deganda nimani tushunasiz va uning adabiy til bilan aloqasi qanday?
3. Siz mansub bo‘lgan shevaning adabiy tildan farq qiladigan tomonlarini aytинг.

**29-mashq.** O‘z shevangizga xos so‘zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me’yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.

**30-mashq.** Quyidagi chizmani ko‘chiring. Illova qilingan so‘zlarni o‘qib, ularni orfografiya qoidalariga rioya qilgan holda namunada ko‘rsatilganidek chizmani to‘ldiring.

## N a m u n a

So‘zlar	Asos	Qo‘srim-chcha	Aytishi	Yozishi	Yozuv tamoyili
Bog‘ga Uchinchi Stakan	bog‘ uch stakan	-ga -inchi	bog‘ga uchinchi istakan	bog‘ga uchinchi stakan	fonetik morphologik shakliy

Ishga, tog‘ga, tikkan, ketgach, aeroport, tushunmoq, kompaniya, fikr, monolog, qutildi, ko‘m-ko‘k, o‘qibdi, so‘roq, sana, angla, terakka.

**31-mashq.** Eski adabiy tilda yozilgan baytlarni hozirgi adabiy tilga aylantiring.

So‘z guharig‘a erur anga sharaf,  
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.

Til bu chamanning varaqi lolasi,  
So'z dururidin bo'lubon jolasi.

So'zdin o'likning tanida ruhi pok,  
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

Turguzub o'lgani kalomi fasih,  
O'zig'a «jonbaxsh» laqab deb Masih.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

G'uncha og'izliq, sanami no'shlab,  
So'zdin agar aylasa, xomush lab.

Donayi dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bag'rida durdona bil.

(«Hayrat ul-abror»dan)

**32-mashq.** Matnlardan keltirilgan parchalarni o'qing. Shevaga xos so'zlarda, adabiy tildan chekinish bo'lgan holatni topib, ularning o'rniiga adabiy tildagi muqobilini qo'ying. Shevaga xos so'zlarning qaysi jihatdan farqlanishini izohlang.

1. — Xo'p, — dedi Saidiy bir kecha Yo'Ichiboyga, — yerni oldingiz, peshanangizdan chorakorchilikni o'chirdingiz, bordi-yu, zamon teskari bo'lib ketsa nima bo'ladi?

— Oq poshsho kelsa deysizmi?

— Bari bir-da... Boyni yomon ko'radigan hukumat bilan, albatta, boyni yaxshi ko'radigan poshsho urishadi. 2. Menikini ham olarmishsizlar, deb eshitdim. Agar oladigan bo'lsanglar, javur, ukalar... Hukumat kambag'alparvar bo'lsa, men boy emas... 3. Saidiy hovlining sahniga burildi, dimog'iga zirvak hidi keldi. 4. Domla qizini Saidiy tomon yo'lladi.

— So'rash, o'rischa, znakom bo'linglar... 5. Necha kundan beri kirib, ko'r deyman, bu bevosh uyalaman, deb hech kirmaydi. 6. Yoqubjon javob bermay, qo'lidagi o'zi tergan bir necha satrni nabordan ottisk olish uchun press yoniga keldi. U qaytib kelib izoh bermoqchi edi, ammo metrepaj ruxsatsiz harf terish mumkin emasligini aytib, ottisk olgani qo'yaganidan keyin, vyorstka tamom bo'lguncha indamay, tergan naborini tarqatish bilan ovora bo'ldi. 7. — Bu yashshamay o'lgurning o'zi yomon, — dedi opasi, mushtini yerga qadab, — sen bilan orani buzishga buzib boshiga ish tushgandan keyin biram o'tirgani joy topolmay yurdiki... (A. Qahhor)

**33-mashq.** Jonli so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarni yozma adabiy tilda yozing.

N a m u n a: sevindi — suyundi.

Anjon — Andijon, Samarqan — Samarcand, asma— asthma, do‘slik — do‘stlik, ishleman — ishlayman, telvizor — televizor, ko‘yni — ko‘ngli, obketaman — olib ketaman, to‘r — to‘rt, ishka — ishga, silar — sizlar, bo‘maydi — bo‘lmaydi, istudent — student, abzal — afzal, kexsa — keksa, mart — mard, dasro‘mol — dastro‘mol.

Yuqoridagi so‘zlar ishtirokida og‘zaki matn tuzing.

**34-mashq.** Hamzaning hajviy she’rini «nutq toni»ga (yuqori tanta-navorlik, jo‘shqinlik) e’tibor bergan holda o‘qing.

### MEVALAR MOJAROSI

Gilos haddan oshiqib,  
Xafalikdan toshiqib,  
Keldi o‘rik boshiga,  
Musht ko‘tarib shoshiqb:  
«—Ey o‘rik, san so‘zlama,  
Maqtanmoqni ko‘zlama!  
Yonboshingga bir tepay,  
Bog‘ga hargiz yuzlama  
G‘o‘rang qursin, kech bitar,  
Yegan kishi tish sinar...»

Yuqoridagi she’rdan xulosa qilib, eski adabiy tilning xalq tiliga qanday moslashganini tushuntiring.

**35-mashq.** Og‘zaki va yozma adabiy tilning rivojlanishida nutq turlari (monolog, dialoglar)ning ahamiyati bormi? Quyidagi monologik nutq fikrlaringizni isbotlash uchun asos bo‘lsin.

Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Ikromjonning nutqidan namunalar:

— Yo‘q, hali bilagimda kuchim bor. Yuragimda o‘t so‘ngani yo‘q. Bu alamlarni, bu xo‘rliklarni oyoq ostiga olib toptamagunumcha yashashim shart. Yashayman! Boshimga tugamas savdolar solgan urush olovi o‘chganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rishim shart. Shu yerda turib nemisga o‘q otaman. O‘qim qolmasa, qo‘ltiqtayog‘im bilan boshini yanchaman. O‘lish yo‘q. O‘lish — nomardlik. Nomard bo‘lib o‘lishni istamayman, istamayman...

— Yo‘q, bolam, men dardga chalinmayman. Men o‘lmayman. Tik bo‘lsam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam surilib hu o‘sha ufqqa boraman. Ufqdan turib Yozyovonimga bir qayrilib qarayman. Ufqqa bormay o‘lishim mumkin emas...

**36-mashq.** E. Vohidovning «Nutq haqida»gi she'rini yod oling. Oddiy so'zlashuvda ishlatiladigan so'zlarga e'tibor bering.

**37-mashq.** Badiiy asarlarda adabiy til bilan birgalikda og'zaki so'zlashuv tilining unsurlaridan ham keng foydalilanadi. Ushbu matndan ana shunday o'rinlarni toping.

## TABIB

«Nosir buva o'rikdan yiqilib tushibdi», degan xabar juda tez tarqaldi. O'g'illari, qizlari, boringki, jamiki qarindosh-urug'lari to'plandi. Nosir buva yet mishga kirgandi. Shunday ekan, bu yog'i ma'lum-da! Erkaklar bir-birlari bilan ma'noli bosh chayqashar, xotinlar burchak-burchaklarda «otamo'-o»lab yig'lash mashqini boshlashdi. Busiz mumkin emas-da! Axir, yet mishga kirgan ota o'rikdan yiqilib, so'rida yotgancha inqillashni ham ja o'rniga qo'yemoqda. Faqat kampiri — Chaman xola beparvo. Qarib miyasi suyulib qolgan-da, shu pallada sigirining kanasini terish bilan band. Eshikdan o'rtancha o'g'li Akramjon kirganidagina u sal sergaklandi. Akramjon onasiga bosh irg'ab qo'ydi-yu, boshqalarga qaramadiyam.

- Ota, tuzukmisiz? — bemorni turtib so'radi u.
- Ixi, ixi, ixi! A-a-akram, s-s-senmisan? — ota ko'zini xiyol ochdi.
- Menman, otam, menman.
- Rozi bo'lasan endi, — deb vidolashganday ko'zini yumdi.
- E, qayoqdagi gaplar bilan odamni qo'rqtitmang! — Akram qo'l siltadi. — O'rikdan yiqilganlarning hammasi o'laversa — sanoqli odamlar qolardi bu dunyoda!
- Sen oldin men yiqilgan joyni ko'rgin! — bemorning ovozi dadilroq yangradi. Hatto qo'lini ko'tarib o'rikka imladi. — Hov anovi ayridan yiqlidim!
- E, bu ayri nima bo'libdi! — Akram o'rik tomon yurib, shart shoxga chiqdi. — Shu yerdan yiqildingizmi? — so'radi yana u.
- Ha, ha...
- Bu yerdan yiqilgan odam o'lmaydi. — O'ladimi? Bo'lmasa menam tashlayman, o'laman, birgalashib ketamiz. Mana qarab turing! — deb Akram tashlamoqchi bo'ldi.
- Hay-hay-hay! — Nosir buva qaydan g'ayrat topdi o'mganini ko'tarib qo'l siltay ketdi. — O'lmaydikan, o'lmaydikan! Tashlama, mana, men, o'lmadim-ku!
- O'lmasa ham et-beti lat yeydi, o'n-o'n besh kun oh-voh deb ko'rgani kelganlarning ovqatini yeb mazza qilib yotadi! Menam bekorchiman, ota, hasratlashib yotamiz-da. Qarab turing!

— Yo‘-yo‘-yo‘q! Lat ham yemas ekan, mana! — bemor o‘rnidan dast turib ketdi. — Qara, hamma yog‘im sog‘-u salomat! Tush!

Akramjon o‘rikdan tushdi. O‘g‘il-qizlar, qarindoshlar qo‘l siltashib jo‘nab qolishdi. Chaman xola qo‘li bilan Akramjonning yelkasiga qoqdi:

— Akram, yaxshiyam sen borsan, bolam. Bilardim otang, o‘Imasdi, ammo «oh-voh» qilib yotib olardi. Uch oy kasal boqardik.

(*Said Anvar*)

**38-mashq.** So‘zlashuv nutqiga xos qisqargan so‘z shakllarini orfoepik me‘yorlarga muvofiq talaffuz qiling, so‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.

Olvoling, ketvordi, kemayapti, kamayipti, daraxtti, ishlamedi, boriylar, turmayladi, isrop qimeylik, tayarlandi, ardoladi, ketomadi, g‘iyvat

### Tayanch tushunchalar

adabiy til, sheva, lahja.

## 2.2. ADABII TIL SHAKLLARI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini shakllantirish, ularda shunday ko‘nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Adabiy til shakllari.
  - \* Yozma adabiy til va uning turlari.
  - \* Og‘zaki adabiy til va uning turlari.

Adabiy til yozma va og‘zaki shakllarga ega bo‘ladi.

! **Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til yozma adabiy til sanaladi.**

Masalan, gazeta-jurnallar tili, ish qog‘ozlari tili va boshqalar.

! **Tovushlar vositasida og‘zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga og‘zaki adabiy til deyiladi.**

Masalan, radio, televide niye orqali uzatiluvchi suxandon yoki jurnalist nutqi va hokazolar.

Adabiy tilning rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me‘yorlarining shakllanishida adabiyotning ta’siri kuchli bo‘ladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas. Badiiy tilda adabiy til bilan bирgalikda turli shevalarga yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

Odamlar aqlining chirog‘i bilim,  
Balodan saqlanish yarog‘i bilim.

(*Rudakiy*)

Badiiy til (badiiy nutq), adabiy tilning og‘zaki so‘zlashuv uslubi, publisistik uslub, rasmiy uslub singari uslublardan biri, ya’ni badiiy uslub sanaladi. Ko‘rinadiki, adabiy til badiiy tildan kengroq tushuncha bo‘lib, badiiy tilni ham o‘z ichiga oladi.

### ?

**Savol va topshiriqlar**

1. Yozma adabiy til nima?
2. Og‘zaki adabiy til deganda nimani tushunasiz?
3. Badiiy til bilan adabiy til bir narsami?
4. Adabiy tilning qanday uslublarini bilasiz?

**39-mashq.** Yuqoridagi fikrlarga asoslanib siz ham «Suxandonlik daqiqalari»ni o‘tkazing.

**40-mashq.** Keltirilgan misollardan shevalarga va kasb-hunarga xos so‘zlar ishlataligan o‘rnirlarni aniqlang va tushuntiring.

1. Dukchi eshon hamma vaqt bo‘z ko‘ynak va ishton bilan malla to‘n kiyar edi. Boshiga kichik salsa va kuloh kiyib, bo‘zi mahsi-kavush kiyar edi, hech vaqt yangi va yaxshi ipakli to‘n kiymas edi. (*F. Otabekov*)

2. Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushkan: endi, ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi.

3. So‘fi uygaga kirgandan keyin sallasini Qurbon bibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg‘itdi.

4. Qizlarning bu «ittik» (o‘tkir zo‘r) payloqchisini ko‘plashib uyg‘otdilar, aravadan ko‘plashib tushirdilar.

5. Men buvizzdan beruxsat mehmon chaqirmayman.

6. Kech payt men o‘zim kirib, Enaxonga aytib qo‘yaman.

7. Xudovandi karim, bu erkaklarni muncha yaxshi ko‘rar ekan, a..?

8. Odmi kiyimda ko‘rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo‘ychi, tuyachi deb o‘ylaydilar.

9. «Uziqararoq» xotin uchrab bir chang solsa, hech narsa qolmaydi.

10. Shunday aziz cho‘qqat «xizmat haqi» besh ming so‘mlarga yetib boradigan bir «ish» topib keldi. (*A. Cho‘pon*)

**41-mashq.** «Zumrad bahor» mavzusida xalq shevalariga hamda adabiy tilga asoslangan ikki matn tuzing. Har ikki matnning farqini tushuntiring.

**42-mashq.** Adabiy til me'yorlariga rioya qilinmagan so'zlarni toping. Muallif nima uchun adabiy til me'yorlariga rioya qilmagan? Buning matn uchun qanday ahamiyati bor?

Otabek boyagi yarim vaziyatini buzmay so'radi:

- Zaynabning so'ziga Siz ishondingizmi?
- Ishonmaydirg'on gapmi?

— Yaxshi, men unga shunday deb aytgan ham bo'layin, lekin shunda ham Sizning xafalanishingiz menga qiziq tuyuladir. Ayniqsa, sizdan gap... Kumush ishonmadi. Otabek uning orqa sochidan tutib:

— Qani, gapiring-chi menga, orangizdan bir gap o'tdimi, — deb so'radi.

— Ha, o'tdi, — dedi Kumush va chetga qarab kulimsiradi.

— O'n besh kun bo'lmasdan?

— Menden boshqa xotin bo'lsa, Zaynabingiz bilan birinchi kundanoq arazlashar edi...

— Xudo xayringizni bersin...

— Kesatmang.

— Kesatmasam gapiring.

Kumushning raqobati biroz tushgan edi, uch-to'rt kunlik mojarodan yaxshig'ina hasrat ochildi. Otabek hasratni yarim jiddiy tinglab bordi. Zaynabning keyingi so'zi va so'ng'i yelpitish fojalari ham hasrat qolipig'a birma-bir kirib chiqди. Hasrat tug'ilg'ondan so'ng Otabekning yuzidagi boyagi yarimjiddiylik ketib, uning o'mini o'ychanlik oldi. Ul shu holatda anchagina so'zsiz qoldi va oxirida o'zidan natija kutib o'ltirg'uvchi Kumushga qarab, kulib qo'ydi.

— Nega kulasiz?

— Chunki yig'lamoqqa arzimaydi. Kumushning qoshlari chimirildi:

— Zaynabingizning bu qilig'ig'a men chidolmayman.

— Chidash va chidamasni hozircha bir tarafga qo'yib turayliq, — dedi Otabek. — Ammo hammadan ilgari Sizdan so'rayman: Menga ishonchingiz bormi?

— Bor, ham yo'q, — dedi Kumush.

...Kumush uyalgannomo yuzini chetga burdi. Otabek tovushini sekinlatib davom etdi:

— O'tgan kuni Sizdan «Toshkentda qolasizmi, yo'qmi?» deb so'rag'onim ham faqat shunga o'xhash gaplar bilan Siz xafa bo'lmang, deb aytilgan edi.

(A. Qodiriy)

**43-mashq.** Quyidagi fikrlarning mag‘zini chaqing. Uni misollar bilan tushuntiring.

Xalq tili adabiy tilimizning ichki oziqlantiruvchi hayotbaxsh manbayidir. Xalq tiliga asoslangan adabiy til qotib qolgan emas, u o‘zgaradi, boyib boradi va takomillashadi.

**44-mashq.** Matnni ko‘chiring. Badiiy til xalq tilidan qanday farqlanishini bilib oling.

Manzura toliqqan bo‘lishiga qaramay tunda uxlay olmadi. Yumshoq o‘rin unga tikanzor kabi tuyildi. Oиласидан ilk karra uzoqroq ketgani uchun qalbi notinch edi. Bezovalta yurak yurtidagi noxushliklarni sezib, vujudini beholgina titratib turardi. Shu azobdan qiyngagan Manzuraga bu shaharning tuni behad uzunday tuyildi. Uy isib ketib, nafas olishga arzir havo qolmaganday bo‘ldi. O‘rnidan turib, peshayvonga chiqadigan eshnikni ochdi. Yuziga salqin shabada urildi, orom oldi. Tashqarida maydalab yomg‘ir yog‘a boshlagan, sanoqsiz chiroqlar yorug‘ida bog‘ to‘lin oy nuriga cho‘milganday so‘limlik kashf etgan edi, ammo bu so‘limlik uning kayfiyatini yaxhilashga qodir emas edi. Bu olamaro tunni bedor o‘tkazgan faqatgina Manzura emas. Necha ming, balki necha yuz ming, balki undan-da ko‘p odam — xasta ham, tani sog‘ ham, podsho ham, qayg‘uli ham, qayg‘usiz ham... tunni bedor o‘tkazadi. Hech kim o‘sha tunning o‘zida qayerdadir jigarbandi ham qalb titrog‘ida ekanini bilmaydi. Ahmoq Manzura ham ortida eri bilan qizining tunni uyqusiz o‘tkazishganidan bexabar edi.

(T. Malik)

**45-mashq.** Berilgan so‘zlarni siz ham davom ettiring (20—30 taga yetkazing).

Xalq tilida talaffuz qilinadi	Adabiy tilda talaffuz qilinishi kerak
qoshizi tepasi	qoshingizning tepasi
ashinda	ana shunda
maylis	majlis
qahlama	qatlama
siynim bo‘ladi	singlim bo‘ladi

**46-mashq.** Latifalarni ko‘chiring, ularning adabiy tilga yoki xalq shevalari tiliga mansub ekanini izohlang.

VAJ

Afandi xufya dorifurushlik qilayotgan ekan, xaridor yorliqqa razm solib, norozi ohangda debdi:

- Voy, bu doringiz rappa-raso uch yil burun chiqqan ekan-ku?  
Afandi pinagani buzmay debdi:
- Mayli, siz ham menga uch yil avval chiqqan puldan bera qoling.

## SHISHANING PULI

Afandi ichkilikka ruju qo'yanidan xotini bilan jiqqamusht bo'lar ekan. Bir kuni u allanimalarning sharaq-shurug'idan uyg'onib, erinibgina ko'zini ochsa, xotini bir to'rxalta shishalarni ko'targancha qayergadir ketyapti.

- Ha, xotin, saharmardonda yo'l bo'lsin? — debdi Afandi.
- Ichishingizning kasridansovunga pul qolmabdi, ordona qolsin.
- Rahmat demaysanmi, nomard xotin. Men ichib shishalarni bo'shatmaganimdasovunga pulni qayerdan topar eding.

## MAHLUQO

Do'stlari Afandidan so'rashibdi:

- Mulla Nasriddin, yangamni nima deb chaqirasiz?
- Mahluqo, — deb kerilibdi Afandi.
- Qoyil! — xitob qilishibdi suhbatdoshlari. Shunda Afandi sekkingina qo'shib qo'yibdi:
- Jahlim chiqqanda, oxirgi harfini tashlab chaqiraman.

## Tayanch tushunchalar

yozma adabiy til, og'zaki adabiy til.

## 3-DARS. LEKSIKOLOGIYA. SO‘Z VA LEKSEMA

### 3.1. LEKSIKOLOGIYA

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda so‘z va uning xususiyatlari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, ularni so‘zdan unumli va samarali foydalanishga o‘rgatish.

**R e j a:**

\* Leksika haqida.

\* Leksikologiya haqida ma’lumot.



**1-topshiriq.** So‘z haqida qanday maqollarni bilasiz? Ulardan namunalar keltiring.

**2-topshiriq.** So‘z qilichdan o‘tkir maqolining ma’nosini izohlang.

Har qanday tilni o‘rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma’lum bir tildagi ana shunday so‘zlar yig‘indisi shu tilning lug‘at tarkibini tashkil qildi.

**Leksika** atamasi ikki ma’noda qo’llaniladi:

a) tilning lug‘at tarkibi, so‘zlar yig‘indisi;

b) lug‘at tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi.

**Leksika** atamasining ikkinchi ma’nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo’llaniladi.

! **Leksikologiya yunoncha *lexikos* — so‘z, so‘zga doir va *logos* — ta’limot so‘zlarining birikuvidan olingan bo‘lib, leksika (so‘z) haqidagi ta’limot demakdir.** Demak, so‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga leksikologiya (ba’zan leksika) deyiladi.



**Savollarga javob bering**

1. Leksika nima?
2. Leksikologiya nimani o‘rganadi?

**47-mashq.** So'zning qudrati haqidagi quyidagi rivoyatni o'qing. So'z to'g'risida siz ham fikr yuriting.

O'tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. Shunda dehqon:

— Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? — deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

— Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? — deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u tanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va:

— Ey, notavon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku! — deb g'azab qilibdi.

— O'zingni bos, — debdi yo'lovchi, — birinchi yili sen menga «donishmand» deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa menga «gado» so'zini munosib ko'rning va men senga gadoning javobini berdim, — degan ekan ...

**48-mashq.** O'qing. Alisher Navoiy gulni qanday ifodalaganiga e'tibor bering. Gul va giyohlarning leksik ma'nosini izohlang.

## GUL VA NAVOIY NAVOSI

Alisher Navoiy o'z asarlarida gul, uning vazifasini o'taydigan giyoh va o'simliklar, gulga aloqador ashylar, shuningdek, mavjudotlarning juda ko'pidan va xilma-xillaridan keng foydalanadi. Shu bilan bir vaqtida ulug' shoир o'z maqsadlarini ifodalashda gul va gulistonlardan ayrim g'azallarining ba'zi baytlaridagina foydalanib qo'ya qolmay, balki o'nlab g'azallarini butun-butunligicha ana shunday ifodalashga bag'ishlaydi. Ularda o'nlab xildagi gullar: nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon, xino, zanboq guli, lola, sadbarg, ra'no, hazorg'uncha, zag'far,

sumanpar; yoqimli hidi va go'zal ko'rinishi bilan gulni eslatuvchi giyohlar: sunbul, ishqil pechan; manzarali daraxtlar: sarv, ar-ar, arg'uvon, shamshod kabilar haqida ma'lumot beradi. Ya'ni: guloroy — gul bilan bezangan, gulrez — gul to'kuvchi, gulpo'sh — gul yopingan, qip-qizil gulday kiyangan, gubang — yoqimli ovoz, bulbul ovozi, guldastaband — majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda mislsiz zo'r xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida aytib o'tilgan iboralarning aksariyatini ulug' Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan: gul, chechak, vard, shugufa kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko'pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma'nolar hosil qilgan: gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go'dak), gul (umuman inson), gul (qizamiq) singari.

Buyuk shoirning asarlarida gul tushunchasidan foydalanish ko'lami katta va keng...

(O. Valixonov)

**49-mashq.** O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning leksik ma'nosini aytинг, qo'shimcha ma'nolarini ham tushuntirib bering.

Yettita gunohdan saqlaning doim,  
Sizni kechirmagay keyin xudoym  
Solib boshingizga fitna-falokat,  
Oxiri keltirar sizga halokat.  
  
Bo'lsangiz agarda siz yuragi chirk,  
Olloh taologa keltirsangiz shirk,  
Sehrli ish bilan bo'lsangiz mashg'ul,  
Bilingki, Ollohga kelmagay ma'qul.  
  
Ham nohaq birovning qadriga yetmoq,  
Bilingki, do'zaxning tubiga ketmoq,  
Qilmasdan birovg'a zug'um-u zo'rlik,  
Yomondir qilsangiz lekin sudxo'rlik.  
  
Hamda yetimlarning molini yemoq,  
Lozim bu ishlardan «alhazar» demoq.  
Jang chog'i dashmandan bo'lsangiz «quyon»,  
Buning oqibati biling ko'p yomon.  
Xoin deb nomingiz chiqib el aro,  
Sharmanda bo'lasiz har ikki dunyo.  
Eri bor, mo'mina, iffatli ayol  
Haqida qilmasangiz hech yomon xayol,  
Kim so'kib, tuhmat-la desa uni g'ar,

Bilsinki, do'zaxga tushar muqarrar.  
Bu yetti gunohdan saqlan, ey muslim,  
Yo'ldan ozdirmasini seni so'ng hech kim.  
Garchi bu olamda ko'p erur shayton,  
Goh odam shaklida bo'lar namoyon.  
Dilingizda bo'lsa Xudoyi karim?  
Shayton qochar sizdan yetti chaqirim!

### Tayanch tushunchalar

leksika, leksikologiya, lug'at tarkibi.

## 3.2. SO'Z VA LEKSEMA

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda so'zning tovush hamda ma'no tomoni haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* So'z haqida tushuncha.
  - \* Leksema.
  - \* Leksik ma'no.
  - \* Grammatik ma'no.

✓ **1-topshiriq.** Vatan haqida bitta she'rni daftaringizga yozing va bu she'r tarkibida nechta so'z ishtirok etayotganini aniqlang.

**2-topshiriq.** So'z deganda nimani tushunishingizni bayon qiling.

Nutqimiz so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. So'zni talaffuz qilganimizda va qulog'imiz bilan eshitganimizda go'yo u faqat tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlikdek tuyiladi. So'zni bunday tasavvur qilish bir yoqlamadir, chunki har qanday tovushlar birikmasi so'zni hosil qilavermaydi. Masalan, *so'*, *ko's* singari tovush birikmalarini so'z deb bo'ladimi? Yo'q. So'z bo'lish uchun tovushlar birikmasining o'ziga kifoya qilmaydi. Ma'lum tovush va tovushlar birikmasi ma'no bilan bog'langandagina so'zga aylanadi. Yuqoridagi tovush birikmalarining tartibini o'zgartirsak, ular ma'lum ma'no bilan bog'lanadi. Masalan, *o's*, *so'k* kabi.

Demak, so'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mavjud.

! **Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi.**

So‘z ikki xil ma’no bildiradi. Bu ikki xil ma’noni *opa* so‘zi misolida ko‘rib chiqaylik.

*Opas* so‘zi *aka*, *uka*, *singil* singari so‘zlar bilan qarindoshlik ma’nosini bilan bir guruhgaga birlashadi. Ayni paytda, bir guruhgaga mansub bo‘lgan yuqoridagi so‘zlar bir-biriga zidlanganda, ma’lum ma’nolari bilan o‘zaro farqlanadi.

Xususan, *opas* so‘zi o‘gay *opaga* zidlanganda, qon-qarindoshlik (o‘gay emaslik) ma’nosini bildirishi bilan; *opas* so‘ziga zidlanganda, men bilan bir bo‘g‘inga mansublik ma’nosini bildirishi bilan; *aka*, *uka* so‘zlariga zidlanganda, ayol jinsiga mansublik ma’nosini bilan; *singil* so‘ziga zidlanganda esa *opening* mendan kattalik, singilning esa kichiklik ma’nosiga egaligi bilan farq qiladi.

**! *Opas* so‘zining boshqa qarindoshlik bildiruvchi so‘zlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan ma’nolarining jami uning atash ma’nosini yoki leksik ma’nosini deyiladi.**

*Opas* so‘zi yuqoridagi ma’nodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlilik ma’nolariga ham ega. Bu ma’nolar uning grammatik ma’nosini sanaladi.

Ko‘rinadiki, nutq jarayonida har bir so‘z leksik va grammatik ma’nolar uyg‘unligidan tashkil topadi.

Odatda, leksik va grammatik ma’nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **so‘z** atamasi qo‘llaniladi.

Grammatik ma’nosiz, faqat leksik ma’no bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qo‘llaniladi.

Bunday vaqtida **so‘z** morfologiya birligi sifatida, **leksema** esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

**! Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan so‘zlarni ajratamiz.**  
**• So‘zlar esa leksema va grammatik qo‘sishchalariga bo‘linadi. Tilning lug‘aviy (leksik) ma’no bildiruvchi birligi leksema sanaladi.**  
Lug‘atlarda bosh so‘z sifatida leksemalar beriladi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. So‘z tovush tomonidan tashqari yana nimaga ega bo‘lishi kerak?
2. So‘zning leksik ma’nosini deganda nimani tushunasiz?
3. So‘zning grammatik ma’nosini nima?
4. Leksema va so‘z nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
5. Bitta gap keltirib, uni so‘zlarga ajrating, so‘zlarning leksema qismini aniqlang.

**50-mashq.** So'zlardagi ichki ma'noviy farqlarni izohlab bering.

Boshqacha — o'zgacha — ajib — ajoyib — g'alati — g'aroyib — alomat — antiqa.

Tuzuk — durust — bir navi — yaxshi — zo'r — a'lo — gap yo'q — mixdek.

**51-mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning leksik ma'nolarini aytинг. Ularning qaysi so'z turkumiga kirishini izohlang. Leksik ma'no bildirmaydigan so'zlarga ham misollar keltiring.

## SUVNING TOMCHISI HAM SUV

Biz hamma vaqt, hamma joyda: «Nonni uvol qilmang. Non aziz, nonning ushog'i ham non», deymiz. To'ylarda, yig'inlarda, hatto uyda dasturxon atrofida nonushtaga o'tirganimizda ham keragidan ortiqcha non sindirilsa: «Qo'ying, ushatmang, nonning ortiqchasini uvol gilrang», deymiz.

Ammo suvni bernalol isrof qilish — oqizish mumkinmi? Suv o'tkazgich jo'mraklaridan suv to'xtamay oqib yotsa ham: «Hoy, suvni bekordan bekorga sarflama. Uvol qilma, to'xtatib qo'y!» deb aytmaymiz. Vaholanki, ana shu suv bo'lmasa bug'doy qayda, un qayda, non qayda?! Tejashni suvdan, suv qatrasidan boshlamoq kerak. Uvolni, savobni izlamoq kerak. «Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur» yoki «Toma-toma ko'l bo'lur», deb ona xalqimiz bejiz aytmagan. Nonning uvog'i ham non bo'lganidek, suvning tomchisi ham suvdir. Gohida suv uvolini o'ylab hayron qolaman. Agar bizni uvoli tutsa, faqat suvning uvoli tutadi.

Ko'pincha ko'cha-ko'yni to'ldirib ibodat uchun masjidga o'tib ketayotgan mahalladoshlarimizni ko'rib xayolga cho'maman. Ha, ular savob uchun namoz o'qishi ibodat. Zakot berish ibodat. Odamlarning joniga oro kirib og'ir yumushini yengil qilish ham ibodat, savob, lekin ibodatning kattasi, savoblarning ulug'i ham bor. Suvni tejash, pokligini, sofligini, tozaligini, sifatini saqlash, uvol qilmaslik savoblarning eng kattasidir, ibodatlarning eng ulug'idir, amallarning eng chiroylisidir.

Faxriddin Turgoniy o'z davridayoq suvlarni iflos qilmaslik haqida o'ta ta'sirli, foydali fikrlar bildirib, shunday she'rlarni yozib qoldirgan edi:

Bugun chashma suvin qilsang agar xor,  
Boshqa icholmassan bu suvdan zinhor.

Bolalar! Ona-Vatanga, o'zimizga, avlodlarimizga zarar keltirayotganimizni, iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarga og'u — zahar solayot-

ganimizni, qolaversa, o‘zimizni o‘zimiz zaharlayotganimizni bilyapmizmi? Sezyapmizmi? O‘z rizq-ro‘zimizni qismaylik, o‘z umrimizga, bola-chaqalarimiz umriga o‘zimiz zomin bo‘lmaylik.

Oxir-oqibatda biz oqar suvlarga tashlab yuborgan oqovalar, axlat va kimiyoiv chiqindilar Orol dengiziga yetib borguncha achib-sasib, qurib, zahar-zaqqumga aylanib, havoga ko‘tarilib, shamollar bilan qaytib yana boshimizga yog‘ilyapti. «Qaytar dunyo», deb shuni aytalar kerak.

(A. Abdurahmon o‘g‘li)

**52-mashq.** Ko‘chiring, ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalarining leksik ma’nolari hamda qo‘sishmacha ma’nolarini tushuntirib bering.

## HALOLLIK GIGIYENASI

Dasturxonimizga tortiladigan taom masalliqlarini xarid qilishdan to uni tayyorlab, pishirib, suzib keltirguncha ularning ozodaligiga e’tibor qilamiz. Muzxonada saqlaymiz, chang-g‘ubordan muhofazalash uchun doka-sochiqlar yopib qo‘yamiz. Nihoyat, ovqatlanishga o‘tirishdan avval qo‘llarimizni yuvamiz; qoshiq va sanchqilarni qayta-qayta artishdan erinmaymiz.

Uncha-buncha ozodalik gigiyenasiga odatlanganimiz bois, mikrobdan qo‘rqamiz, biroq ozodalik gigiyenasidan ilgariroq keladigan, ehtimol mikrobdan dahshatliroq bo‘lgan halollik gigiyenasinı xayolimizga keltirmaymiz.

Dasturxonimizga tortilayotgan masalliqlarni, tanovul qilayotgan nozne’matlarni halollab topdikmi? Qayerdan keldi ular ro‘zg‘orimizga? Qaysi mehnatlarimiz evaziga qozonimizga solyapmiz ularni? Birovlarning haqidan urib qolganimiz hisobiga emasmi? Kimlarnidir qon qaqqashitish hisobiga orttirmagan edikmi ularni? Boshiga og‘ir musibat tushgan bechoradan tama yo‘li bilan undirib olgan poralarimiz hisobiga emasmi?..

Nopok va harom yo‘llar bilan topilgan taomni jig‘ildonga tijishtirayotib ozodalik gigiyenasiga har qancha rioya qilmaylik, bu bilan luqmamiz poklanib qoladimi?

Bozor munosabatlarining tinimsiz toblanishi, o‘tish davrining shiddati va behalovat turmush tarzi odamlarni shu qadar komiga tortib ketdiki, bunday nozik savollar haqida o‘ylashga, mulohaza yuritishga fursat yetmayapti. Eng dahshatlisi shundaki, mana shunday taqchillikka ko‘nika borganimiz sayin o‘zimizni savolga tutish, o‘zimizni o‘zimiz tergash odati ham unutilib ketmoqda.

Ehtimol, bandasining tabiatida, fe’l-atvorida mana shunday bosartusarini bilmay qolish odati mayjudligi uchun ham Alloh taolo hikmatlarga boy Ramazon oyini yaratgan chiqar! Kundalik behalovatliklar orasida ma’naviy poklanmoqlik uchun namoz fursatlari joriy etildi, yillik behalovatliklar ichra nafas rostlamoqlik uchun esa ro‘za oyi belgilandi.

Nafasni rostlashni nafsn ni rostlash deya talqin qilsak ham yanglish-masmiz.

Tirik jon bor ekan, nafsiga qulqoq osmay iloji yo‘q, zero, hech bir banda Payg‘ambarimiz alayhissalom singari go‘daklik kezlari nafs pardasidan xalos etilgan emas. Bu yorug‘ olamning boqiy jumboqlaridan biri shuki, nafs bandalarining insoniylik martabasi, halolligi, diyonat va imon maqomi nafsn ni tiya olish-olmaslik bilan belgilanadi.

Yaxshiyam, jamivatimizda ijtimoiy muhofaza siyosati barqaror, aks holda shataloq otayotgan, imoniy nafsn ni bozoriy nafsga ikki qo‘llab almashlab yuborayotganlar yana qanaqangi «karomatlar» ko‘rsatmas edi! Shuning uchun ham barchamiz «Halollik gigiyenasi»ga rioya qilaylik!

### **Tayanch tushunchalar**

so‘z, leksema, leksik ma’no, grammatik ma’no.

---

## **4-DARS. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR. KO'CHMA MA'NOLAR VA ULARNING TURLARI**

### **4.1. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, ularni o'z nutqlarida so'z ma'nolaridan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

- R e j a:**
- \* Ko'p ma'noli so'zlar va ularning paydo bo'lish sabablari.
  - \* Bir ma'noli so'zlar.
  - \* Ko'p ma'noli so'zlarda ma'noning darajalanishi: to'g'ri ma'no va ko'chma ma'nolar.

✓ **1-topshiriq.** «Navoiy» dramasida Mansur Navoiyga: «Pirim, kechiring, itlik qildim» deb yolvoradi. Shu iboraning ma'nosini tushuntiring. It so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ayting.

**2-topshiriq.** *Bulbul* so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ayting. Ko'chma ma'nosini asosida gap tuzing.

Tilimizdagи so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolidir, chunki kishilar o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lган tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lardi.

Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliliklarning turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lган so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli so'zlar maydonga keladi. Masalan, *tosh* so'zi dastlab «qattiq», «sovut jism» ma'nosida qo'llangan: «Yo 'Ida tosh yetibdi.» Keyinchalik «qattiqlik» ma'nosini faollashtirib, *toshbag'ir*, *bag'ri tosh* birikmalarida bag'irning sifatlovchisi vazifasida ko'chma ma'noda qo'llanila boshlangan. Yoki ko'z so'zi dastlab faqat «tirik organizmning qavariq shaklga ega bo'lган ko'rish a'zosi»

ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik «qabariqlik» ma'nosini faollashtirish asosida «daraxtning ko'zi», «yorug'lik bilan ta'minlash» ma'nosini faollashtirish orqali «derazaning ko'zi» ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

! **Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi.**

Polisemiya yunoncha *poli* — **ko'p, semia** — **ma'no** so'zlaridan olingen bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* — **bir, semia** — **ma'no**)ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosini asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasbhunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinali foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

## ? *Savol va topshiriqlar*

1. Ko'p ma'noli so'zlar nima?
2. Ko'p ma'noli so'zlar nima uchun paydo bo'ladi?
3. Ko'chma ma'no qanday aniqlanadi?
4. To'g'ri ma'no-chi?

**53-mashq.** Ko'chiring. Ko'chma ma'noda qo'llangan fe'llarni toping.

1. Tojixon Saidanining kelganidan xursand bo'ldi, minnatdorchilik bildirgani so'z, o'tqazgani joy topolmay qoldi. (*A. Qahhor*) 2. Tushirilgan molning isini chiqarmadi. 3. Shundan so'ng ikkovi shuncha qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aytib tamom qildi. (*A. Qahhor*) 4. Mamlakatning istiqboli ham, kelajagi ham yoshlari, sog'lom insonlar qo'lida bo'lishi tabiiy holdir.

**N a m u n a :** Pok niyatli (sofdil, diyonatli, yuragi toza) kishilarga, olimlar va fozillarga dargohim doimo ochiq edi.

**54-mashq.** A. Navoiyning «So‘z durredurkim, aning daryosi ko‘ngildir» degan fikrlarining mazmunini ayting va uni munozaraga aylantiring. So‘ng quyidagi matnni o‘qing. O‘zbek tili leksikasi takomiliga munosib hissa qo‘sghan olimlarning ishlari haqida so‘zlab bering.

### IRISTOY QO‘CHQORTOYEV (1936—2000)

Filologiya fanlari doktori (1978), professor (1981), O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (2000) Iristoy Qo‘chqortoyev o‘zbek tilining leksikologiyasi, uslubiyati, tilning umumiy-nazariy masalalari bilan bog‘liq bir qator asarlarning muallifi. Ular orasida «Ferdinand de-Sossurning lingvistik konsepsiyasi» (1976), «So‘z ma’nosи va uning valentligi» (1977) kabi kitoblari tilshunoslikning nazariy muammolarini yoritishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, u oliy maktablarda til bilimini o‘qitishni takomil-lashtirish bo‘yicha ham ulkan ishlarni amalgalashdi. Xususan, oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun yozilgan «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), «Turkiy filologiyaga kirish» (1976), «Tilshunoslikka kirish» (1976), «Umumiyligining tilshunoslik», «Lingvistik ta’limot tarixi» (1980) kabi o‘quv qo‘llanmalari tilshunoslik nazariyasi va turkiyshunoslikni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

**55-mashq.** Ushbu gaplardagi ma’no ko‘chishini izohlang.

Besh qo‘lini og‘ziga tiqmoq, besh qo‘l barobar emas, yuzlar, ko‘zlar boqar edi biz tomon, eshikka kiraylik.

O‘zingiz ham yuqorida giga o‘xhash ma’no ko‘chishga misollar yozing.

### Tayanch tushunchalar

bir ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, polisemiya, to‘g‘ri ma’no, ko‘chma ma’no.

## 4.2. KO‘CHMA MA’NOLAR VA ULARNING TURLARI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chirilishi haqida bilim hamda ko‘nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Ko‘chma ma’no va uning paydo bo‘lish usullari.
  - \* Metafora va uning xususiyatlari.
  - \* Metonimiya va uning uslubiy xususiyatlari.
  - \* Sinekdoxa va uning uslubiy xususiyatlari.
  - \* Funksiyadoshlik va uning uslubiy xususiyatlari.

✓ **1-topshiriq.** Asal so‘zining to‘g‘ri (o‘z) va ko‘chma ma’nosini aniqlang. Ko‘chma ma’no bilan to‘g‘ri ma’no o‘rtasida qanday bog‘liqlik borligani ayting.

**2-topshiriq.** Xom so‘zining to‘g‘ri va ko‘chma ma’nosini aniqlang. Bu ikki ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlikn tushuntiring.

Ko‘p ma’noli so‘zlar va ma’nolarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarga bo‘linishini yuqorida ko‘rib o‘tdik.

Borliqdagi narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomi sifatida ham qo‘llaniladi. Bunday vaqtida bitta nom bir necha narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *burun* so‘zi «tirik organizmning yuz qismidan bo‘rtib chiqqan nafas olish organi» ma’nosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlukka tomon bo‘rtib chiqqan qismi» ma’nosini ham ifodalarydi. Predmetlar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik (yuz qismdan bo‘rtib chiqqan burun bilan yer qirg‘og‘ining dengiz yoki okeanga qarab bo‘rtib chiqishi o‘rtasidagi o‘xshashlik) birining nomini ikkinchisi o‘rnida qo‘llashga asos bo‘lgan.

! **Ma’no ko‘chishining nima asosda ro‘yobga chiqishiga ko‘ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud.**

**56-mashq.** Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Omonim yoki polisemantik so‘z ekanligini aniqlang.

Do‘sst, yosh, yuz, nafis, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o‘ch, quloq...

N a m u n a :

1. Olti narsa rohatda yashashga yordam beradi, shulardan biri haqiqiy do‘sting bo‘lmoqligidir. 2. Bugungi kechamizga shoir Do‘sst Hamdam ham tashrif buyurgan. 3. Do‘sst!!! Yana bir just qo‘shiq bo‘lsin!

**57-mashq.** Quyidagi so‘zlarning har biri bilan ikkitadan gaplar tuzing. Ularning birida shu so‘z o‘z asl ma’nosida, ikkinchisida ko‘chma ma’noda qo‘llansin.

Shayton, tulki, ola, tor, yumshoq, dum, ajdaho, ilon, tamoq, luqma, dunyo, og‘irlilik, shisha, tosh, karam...

**58-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni ajratib, ma’no ko‘chishning turini yozing.

1. «Semurg» «Sug‘diyona»ni qabul qilib, raqiblar darvozasiga ketma-ket beshta to‘p kiritishga muvaffaq bo‘ldi. 2. Qo‘sнимизнинг о‘гли

dadasi bilan tortishayotganining ustidan chiqib qoldim. 3. Yangi binolar qurilishi asossiz ravishda cho‘zib yuborilmoqda. 4. Bedob qizning gapini onasi tekislab turdi. 5. Prezidentimiz adashganlar uchun to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib berdi. 6. Bolam, ho‘l-u quruqqa qanoat qil, ana o‘sanda sen, kayvoniy odam bo‘lsan. 7. Muallif dutor haqida yozadi va bu bilan o‘zbek cholg‘u asbobini birinchi bo‘lib tilga oladi. 8. O‘g‘lining dardida sarg‘aygan onaning oh-vohlariga chidab bo‘lmasdi. 9. Tun o‘z o‘rnini tongga bo‘shatib berdi. 10. Navoiy ko‘hna Sharqning ulug‘ mutafakkiri sifatida o‘z asarlari bilan o‘sha davr ijtimoiy masalalarini ham ko‘tarib chiqdi. 11. Go‘zal bu gaplarning hammasini yuragining tubiga joylagan edi, uni hech kimga oshkor aytta olmasdi. 12. Yigitning uylanayotganini eshitgan qizning qalbi yaralandi.

**59-mashq.** Quyida berilgan so‘zlar qavs ichidagi so‘zlar bilan birga qanday ma’noga ega bo‘lganligini tushuntiring.

Maslahat (oldi, qildi, soldi), dili (qora, siyoh, pok), toshmoq (suv, ichi, to‘lib), mayl(i) (qo‘sishimchasi, bo‘ldi, bildirdi), zarar (yetkazadi, qildi, ko‘rdi), iliq (gap, suhabat, suv), dars (hayot, matematika), ochmoq (ko‘ngil, eshik, yo‘l).

**60-mashq.** Berilgan so‘zlarni ikki ustunga bo‘lib ko‘chiring.

Ko‘p ma’noli  
(polisemantik)

Bir ma’noli  
(monosemantik)

Atlas, xosiyat, kompyuter, xurmo, xunuk, parcha, xoreografiya, patir, pasta, patnis, g‘ildirak, g‘isht, g‘oz, g‘uncha, gazeta, grammatika, urg‘u, dunyo, tilxat, paxta, soya, shaxs, olmosh, doya, qoshiq, qoya, xat, quy, davlat, qushni, marketing, vertolyot, tirnoq, maqol, uy, tom, kirish so‘z, undalma, yuvg‘ich, dars, haykal, topishmoq, aruz, tish, til ...

**61-mashq.** Uyga topshiriq. Ma’no ko‘chishning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik usullariga Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Tohir Malik asarlardidan misollar yozing.

---

## **5-DARS. METAFORA VA METONIMIYA HAMDA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **5.1. METAFORA VA UNING USLUBIYATI**

✓ **1-topshiriq.** *Qozonning qulog‘i, odamning qulog‘i* birikmalaridagi *qulog* so‘zining to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarini ayting. Ko‘chma ma’no bilan to‘g‘ri ma’no o‘rtasidagi aloqani tushuntiring.

Nutqimizda eng keng tarqalgan ma’no ko‘chish usuli metaforadir.

! **Metafora** (yunoncha *metaphora* — ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xhashlik asosida ko‘chishidir. Masalan, *tandirning og‘zi* birikmasida *og‘iz* so‘zining ma’nosini odam yoki hayvon og‘ziga tashqi o‘xhashligi asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xhashlik turli asosda bo‘lishi mumkin:

1. Ikki predmet o‘rtasidagi shakliy o‘xhashlik. Masalan, *odam qulog‘i* va *qozon qulog‘i*.

2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo‘yicha o‘xhashlik. Masalan, *itning dumi, samolyot dumi* va boshqalar.

Nutq jarayonida metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

#### **? Savol va topshiriqlar**

1. Metafora deganda nimani tushunasiz?

2. Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chishiga o‘zingiz beshta misol keltirib, ma’no ko‘chish asosini tushuntirib bering.

**62-mashq.** Gaplarni o‘qing, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni toping va izohlang.

1. Bola onasining oldiga tushib, pildirab ketdi. (*Oybek*) 2. Otam yetim-larning boshini siladi. 3. Mungli kuy yurakni tirnar edi. 4. Soraxon qo‘l siltab, onamning o‘zlari ham urishqoqlar, dedi. (*A.Qahhor*) 5. Yo‘lchi-

ning so'zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi. (*Oybek*) 6. Bolalar yopishaver vergach, xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi. (*Oybek*) 7. Kuyov qo'lini ko'ksiga qo'yib: «...ishoning, dada, Karomatni boshimga ko'taraman», dedi. (*S. Ahmad*) 8. O'shanda ham Yusuf amaki dadamni yolg'izlatmay, holidan xabar olib turgan. (*H. Nazir*) 9. Kuyov bo'lmay qaro yer bo'lgur na o'ligini ko'rsatadi, na tirigini. (*A. Qahhor*)

**63-mashq.** She'mni o'qing, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni topib ularni izohlang.

Barcha haq ishida bo'ling salomat,  
Yog'sa ham har yondan tavqi malomat,  
Ezgu ishingizni ettiring davom,  
Yaratgan qo'llagay sizlarni mudom,  
Kim sherik bor desa agar Ollohg'a,  
Shubhasiz botgaydir katta gunohg'a.  
Nohaqdan bir inson qonini to'kmoq,  
Gunoh dengiziga baayni cho'kmoq.  
Ota-onasiga kimki bo'lsa oq,  
Bu ham og'ir gunoh sanalgay mutloq.  
Agarda yolg'ondan bersa guvohlik,  
Uning ham gunohin kechirmas Xoliq.  
Shu to'rtta gunohdan bo'lsa kim forig',  
Bilingki, ularning manglayi yorug'.

(*O. Bo'riyev*)

**64-mashq.** Ko'chiring. «*Palak*» so'zining bir necha xil ma'nolari borligini bilib oling. Siz ham uyingizda *til*, *ter* kabi so'zlarning ma'nolarini ana shunday izohlab kelting.

1. Palak. Ma'lum bir urug'dan ko'karib chiqib, yer yuzalab o'sib, gullab hosil beradigan poliz o'simligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak.

... So'lg'in palaklarda o'smay qolib ketgan xomaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib ko'rinar edi. (*A. Muxtor*)

2. Palak. Polizchilar nutqida ba'zan qovun yoki handalak urug'i tushunchasida ham qo'llanadi. Masalan: To'rt egat palak ekdim.

3. Palak. Xalqimiz urf-odatiga ko'ra, qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi.

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar,  
Balki, sayladilar undan ham ortiq.

Poyiga ipakdan palak soldilar,  
So'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.

(A. Oripov)

4. Palak. «Parvoysi palak» iborasida o‘z ishiga mas’uliyatsizlik, e’tiborsizlik bilan qarash, beg‘amlik ma’nolari tushuniladi.

Atrofda bo’layotgan voqealarga Mo‘ydinning parvoysi palak edi.

5. O‘xshatish ma’nosida ham qo‘llaniladi. «Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da», dedi so‘fi yonidagilarga qarab.

**65-mashq.** Keltirilgan misollardan metafora usuli bilan so‘z ma’nosini ko‘chishining yo‘llarini aniqlang, ularga izohlar bering.

Rahmi kelib bulutning  
Yig‘lab to‘kar yoshini.  
Qushlar qochar, majnuntol  
Ko‘taradi boshini.  
Bulutning orasidan  
Quyosh kulib qaraydi,  
Majnuntooling yuvilgan  
Sochlarini taraydi.

(E. Vohidov)

Qalam ushladimmi, demak — o‘yin bas,  
Yayrab ocholmaydi gul dudog‘ini  
Shundoq yurak yutib so‘rasha olmas,  
Xonamda qoldirgan qo‘g‘irchog‘ini.  
Burchak-burchakda jim tortishar burun,  
Bilmam qanday o‘y-u xayol ichida.  
Tuzsiz she’rlarim deb shirindan shirin,  
Bolalarim yurar oyoq uchida...

(M. Yusuf)

**66-mashq.** Quyidagi ismlarning qaysi predmetlarga nisbatan qo‘yilganini aniqlang. So‘ng sinfdoshlarining ismlaridagi metafora usuli bilan qo‘yilgan nomlarni toping va ularni izohlang.

Yo‘lbars, Bo‘riboy, Qoplombek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalcon, Oyxon, Arslon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda.

**67-mashq.** «Qovunlar payrovi»ni o‘qing. Ko‘chma ma’noda kelgan so‘zlarni aniqlab, ularga tavsif bering.

Odiljon:

— Qovun tanlashda tashqi ko‘rinishiga qarab tanlamaslik kerak ekan. Yaxshi qovun deb olsam, **pirsildoq** chiqib qoldi.

Muhammadjon:

— Yangi qovun navlarini yaratayotgan mirishkor dehqonlarimizga rahmat, oshqovoqqa o'xshaganini oluvdim, **obinovvot** ekan.

Odiljon:

— Bu safar qovun tanlashda adashmagan ekanman, oq qovun deb olsam, **eski chopon** chiqib qoldi.

Muhammadjon:

— O'zi kichkina-yu, nimaga tosh bosyapti desam, **bo'rikallaga** o'xshaydi.

Odiljon:

— Rahmat, qovun bahonasida ozgina kulishib ham oldik. Xalqimizning dasturxoniga shirin-shakar qovunlarni yetkazib berayotgan dehqonlarimizning **umri boqiy** bo'lsin.

## 5.2. METONIMIYA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



**Topshiriq.** «Hamza»ga bordik birikmasidagi «Hamza» so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nosini aniqlang. To'g'ri va ko'chma ma'no o'rtaida qanday bog'lanish borligini aytинг.

*Navoiyni oldim qo'limga* deydilar. Navoiyni qo'lga olib bo'ladimi? U buyum emas-ku qo'lda ko'taradigan!? *Bedilni o'qir edim* deydilar. Bedil kitob emas-ku!? *Samovarda osh yedik* deymiz. Samovar ustiga o'tirib osh yeb ko'ring-chi, kuyib qolasiz...

Hojiboy Tojiboyevning «O'zbekning gapi qiziq» ruknidagi bunday ichakuzdi hangomalarini ko'p eshitgansiz va huzur qilib kulgansiz, lekin bu hangomalardan nima uchun kulishimiz sababini bilasizmi? Hojiboy Tojiboyevning mahorati shundaki, u so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini anglagan holda ko'chma ma'nolarda qo'llangan so'zlarning to'g'ri ma'nosini izohlab, undan odamlarni kuldira oldi.

Yuqorida keltirilgan gaplar tarkibida kulgi qo'zg'atish uchun asos bo'lgan so'zlarning barchasi ko'chma ma'noning bir turi — metonimiyaga asoslangan.



**Metonimiya** yunoncha **metonymia** — qayta nomlash demakdir.

**Narsa va hodisalar o'rtaida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi.**

Yuqoridagi misollarda shoir bilan uning asarlari (chunki shoir va uning asari o'rtaida ongimizda doimiy bog'lanish bor), choy ichiladigan

joy bilan choy qaynatiladigan buyum o'rtasidagi aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisi uchun ko'chgan:

*Navoiyni qo 'iga oldim* deganda Navoiy asarlarini, *Bedilni o 'qir edim* deganda ham uning asarlarini tushunamiz.

Metonimiya asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi.



## *Savol va topshiriqlar*

1. Metonimiyyada ko'chma ma'no qanday asosda vujudga keladi?
2. Metonimiyaning metaforadan farqini tushuntirib bering.
3. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishga ikkita misol keltirib, ma'no ko'chish sababini izohlang.

**68-mashq.** Gaplarni o'qing, aloqadorlik asosida so'z ma'nosining ko'chish o'rirlarini izohlang.

«Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi? (*Bekatdagi yo 'lovchining murojaati*)

Ichak-chavog'im tugadi, endi kalla sotaman. (*Qassobning gapidan*)

Mabodo, «Besh bolali yigitcha» kelmadimi? (*Kitobxonning sotuvchiga bergen savolidan*)

Navbatim sumka ko'targan «jinsi»dan keyin. (*Xaridorning javobi*)  
«Navoiy»ni kechadan beri ko'tarib yuribman. (*O'quvchining nutqidan*)

**69-mashq.** Gaplarni o'qing, aloqadorlik asosida yangi ma'no hosil qilingan o'rirlarni topib ularga izoh bering.

«Oltin vodiy» poyezdi, olmaning afrosiyobi navi, «Zarafshon» futbol komandasasi, amarfuzin malhami, Hojimatov damlamasи, Sarimsoqovning yarimmaydoni, rentgen apparati, «Chorsu» mehmonxonasi, «Ford» avtomobili, «Toshkent» qahvaxonasi, volt, amper kabi so'z va so'z birikmalaridagi so'z ma'nosining ko'chishida nimalarga e'tibor berilganini aniqlang.

---

## **6-DARS. SINEKDOXA VA VAZIFADOSHLIK HAMDA ULARNING USLUBIYATI**

### **6.1. SINEKDOXA VA UNING USLUBIYATLARI**

✓ *Topshiriq.* Uyimizda uchta tuyoq bor deganda nimani tushunasiz? Tuyoq so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nosini aytинг va ular o'rtasida qanday bog'liqlik borligini izohlang.

- Farzandi bormi?
- Tirnoqqa zor.

Yuqorida dialogda tinglovchi so'zlochining savoliga «Yo 'q!» deb javob berishi ham mumkin edi, lekin u «*tirnoqqa zor*» iborasini ishlatalishni ma'qul ko'rdi. Bu bilan suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yo'qligini bayon qilish bilangina cheklanib qolmasdan, uning farzand ko'rishga tashnaligini ham alohida ta'kidlab ko'rsatdi.

Nima uchun *farzand* yoki *bola* o'miga *tirnoq* so'zi ishlataliyapti? Tirnoq bolaning bir kichkinagina a'zosi. Shu a'zoga ham zorligi, tashna ekanligini bildirish bilan bolaga zor ekanligi bo'rttirib ko'rsatilyapti.

Bu o'rinda butun bir narsa, ya'ni bola uning qismi — tirnog'i orqali ifodalanyapti. Ana shunday ma'no ko'chish usuli sinekdoxa hisoblanadi.

! **Sinekdoxa yunoncha synekdoche — birgalikda anglash**  
so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi.

Ma'no ko'chishning bu turi ham nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo'lishida katta ahamiyatga ega.

? **Savol va topshiriqlar**

1. Sinekdoxa ko'chma ma'no hosil qilishning qanday usuli?
2. Sinekdoxaning metasfora va metonimiyadan farqi nimada?
3. Sinekdoxaga uchta misol topib, ko'chma ma'no hosil bo'lish sababini tushuntiring.

**70-mashq.** Quyidagi hodisaning sinekdoxa ekanligini isbotlab bering.

Qo'l, oyoq, bosh, tish, burun, chakka so'zлari orqali sinekdoxa usuli bilan qanday ma'no hosil bo'layotganini misollar yordamida tushuntiring.

**N a m u n a :**

Olma guli — gul emas, taqsam chakkamda turmas. (*Qo'shiqdan*)

**71-mashq.** *Olma archiyotib qo'lini kesib olmoq, yig'ilishga mo'ylovni chaqirib kelmoq, g'ildirakni yurgizmoq, cho'loqqa achinish bilan qaramoq* birikmalaridagi ma'no ko'chish usulini izohlang. O'zingiz ham sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chishiga misollar keltiring.

**72-mashq.** Boborahim Mashrabning «Sajda aylar zohid ul mehrob aro, Men qilurman sajada egma qoshima» baytida keltirilgan «egma qosh» iborasining nima uchun sinekdoxaga misol bo'la olishini isbotlang. So'ng mumtoz she'riyatda *oy yuz, qorako'z, og bilak, sarv qad* kabi atamalarning *yor, dildor* ma'nolarida ishlatilganligiga misollar keltirib, ularning ma'nolari ustida fikr yuriting.

## 6.2. VAZIFADOSHLIK VA UNING USLUBIYATI

✓ **1-topshiriq.** *Stolning oyog'i birikmasidagi oyoq so'zining ma'nosini tushuntiring. So'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini ayting. To'g'ri va ko'chma ma'nolar o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.*

*Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.*

Yuqoridagi ikki gapda qo'llanilgan chiroq so'zining ma'nosiga e'tibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodalayotganining guvohi bo'lasiz. Birinchisida «elektr toki orqali yorituvchi noksimon (lampochka) yoki tayoqsimon asbob»ni, ikkinchisida esa «kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob»ni bildiradi.

Bu asboblar shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo'q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifaviy bir xillikka ko'ra ilgari yog'ga pilik tekkizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismga shisha o'rnatilgan yoritgich asbobni, keyinroq esa elektr tokidan foydalananishga o'tilgandan so'ng lampochkalarni ham ifodalash uchun qo'llaniladi. Natijada chiroq so'zi bir-biriga o'xshamaydigan xilma-xil yorituvchi vositalarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

! **Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi.**

Vazifadoshlilik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.



## Savol va topshiriqlar

1. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi deganda nimani tushunasiz?
2. Vazifadoshlik asosida ko'chma ma'no ifodalashning metafora, metonimiya, sinekdoxa asosida ko'chma ma'no ifodalashdan qanday farqi borligini tushuntiring.
3. Vazifadoshlik asosida ko'chma ma'nining ifodalanishiga uchta misol keltiring va ko'chma ma'no ifodalash sababini izohlab bering.

**73-mashq.** Hikoyatni o'qing, so'z ma'nosini ko'chirilgan o'rinni topib, unga tavsif bering.

Ikki kishi poyezdda hamroh bo'lib ketishayotgan edi. Ulardan birining ko'zi tashqarida o'tlab yurgan qo'y-qo'zilarga tushdi va dedi:

— Qiziq, bu yerdagi tuyoqlar soni nechta ekan-a?

Ikkinchisi ularga biroz qarab turdi-da, shunday deb javob berdi:

— O'tloqda bir ming qirq uchta qo'y bor.

— O'lay agar, — dedi birinchisi, — shu qo'y larning egasi bo'lma-ganimda, bu gapingizga sira ishonmagan bo'lardim. Qanday topdingiz?

— Buning hech ham qiyin joyi yo'q, — dedi hozirjavoblik bilan unisi. — Barcha tuyoqlarni hisoblab chiqib, to'rtga bo'ldim-qo'ydim...

**74-mashq.** *Qanot, yurak, oyoq, ko'z, bosh so'zlarini vazifadoshlik asosida ko'chma ma'nolarda ishlating.* Ma'no ko'chishning nimaga asoslanayotganiga diqqat qiling.

**75-mashq.** Gaplarni o'qing, sinekdoxa yoki vazifadoshlik usuli bilan so'z ma'nosini ko'chirilgan o'rirlarni topib, izohlang.

1. Sekinroq gapiring, aylanay, devorning ham qulog'i bor.
2. Hozirgi yoshlаримизга ко'з тегмасин, ular bizдан ко'ра ақлироқ, билимдонроқ бо'lib o'sishyapti.
3. Guruhimizning birlashishi uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi.
4. Samolyotning qanoti o'ta pishiq materialdan ishlangan.
5. Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning qo'li baland keldi.
6. Olimpiadada birinchilikni bu gal Buxoro olib ketdi.
7. Avtomobilning eshigini ochib do'stini chiqarib oldi.
8. Askarlarimiz Vatan sarhadlarini ko'z bo'lib, qulqoq bo'lib tun-u kun sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar.
9. Bu xush-xabarni do'starimga yetkazish uchun oyoq bo'lib yugurdim.

## Tayanch tushunchalar

metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ma'no ko'chishi.

---

## **7-DARS. ATAMA VA ATAMASHUNOSLIK.** **ATAMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

### **7.1. ATAMA VA ATAMASHUNOSLIK**

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda iste’mol doirasi chegaralangan leksika va unda atamalarning tutgan o‘rnini haqida bilim hamda ko‘nikmalar hosil qilish, ularga atamalarning tildagi o‘rnini ko‘rsatib berish.

- R e j a:**
- \* Atama haqida ma’lumot.
  - \* Atama bilan umumxalq so‘zlarining munosabati.
  - \* Atamalarning tildagi ahamiyati.
  - \* Atamashunoslik haqida.

✓ **1-topshiriq.** Suv so‘zining kashtachilikdagi va kimyo fanidagi ma’nolarini tushuntiring. Ularning umumxalq tilidagi suv so‘zi ma’nosini bilan solishtirib, farqini aytинг.

**2-topshiriq.** Audit, kredit so‘zlarining ma’nosini aytинг va ularning qaysi sohada qo’llanilishini tushuntiring.

Shu kunga qadar bir nechta fanlarni o‘qidingiz. Har qaysi fanda ma’lum ilmiy tushunchalarни ifodalovchi o‘ziga xos so‘zlarga duch keldingiz. Masalan, kimyo fanidagi *suv* so‘zining ma’nosini umumxalq tilida qo’llaniladigan *suv* so‘zining ma’nosidan farq qiladi. Xuddi shunday holatni *temir, oltingugurt, oltin* singari so‘zlarda ham kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, turli kasb-hunar tarmoqlarida ham umumxalq tilidan ma’nosini chegaralab olingen so‘zlar qo’llaniladi. Masalan, chevarchilik sohasidagi *suv* so‘zining ma’nosini umumxalq tilidagi suv so‘zining ma’nosidan tamomila farq qiladi. Shuningdek, duradgorlik sohasida ishlataladigan *qosh* so‘zining ma’nosini umumxalq tilidagi *qosh* so‘zining ma’nosidan yanada boshqacharoq. Atamalar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari negizida hosil qilinishi bilan birga, boshqa tillardan ham tayyor holda olinadi. Masalan, *menejment, konsalting* kabi.

! **Atamalarni tartibga solish har bir tilda katta ahamiyatga ega.** Shuning uchun atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo‘limi borki, bunday bo‘lim atamashunoslik (*terminologiya*) deb yuritiladi.

Atamashunoslikning o'rganish birligi **atamalar** (terminlar)dir.

Har bir fan, kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikninggina muammosi bo'lib qolmay, u barcha fan va kasb-hunarning ham asosiy masalalaridandir. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-hunar sohalarida atamalarni tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni mumkin qadar milliylashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlardan atamalar yaratishda unumli foydalanish (kichik korxona, jamoa xo'jaligi, tadbirkor, qo'shma korxona kabi), shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (kompyuter, fermer, dizayn) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq o'rtaida keng iste'molda bo'lgan radio (ovoznigor emas), aeroport (tayyoragoh emas), institut (oliygoh emas), avtobus (ko'pkursi emas), telefon (durovoz emas), samolyot (uchqoq emas) kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda mustaqillik sharoitida buyuk burilishlar bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi: *birja, diler, aksiya, audit, auditor* kabi. Ana shu yo'llar bilan atamalar izga solinmoqda.

Istagan o'zbek tilida so'zlashuvchilardan *ildiz* nima deb so'rasangiz, o'simlikning oziqa bilan ta'minlab turadigan qismi deb javob beradi.

Lekin matematikaga daxldor kishilar bu savolga  $\sqrt{ }$  ishorasi, matematik amallardan biri ekanligini aytadi.

Ko'rindaniki, bir so'z umumxalq tilida bir ma'noni, ma'lum ixtisoslik sohasida esa boshqa ma'noni ifodalaydi yoki *qosh* so'zi umumxalq tilida «odamning yuz qismida ko'z kosasidan tepada yoysimon shaklda o'sib chiqqan yung» hamda «yon» (qoshimda o'tiribdi) ma'nolarini bildirsга, duradgorlikda boshqa ma'noni ifodalaydi.

Muayyan fan tarmoqlari, kasb-hunar sohalarida ma'lum tushunchalarni aniq ifodalash uchun umumxalq tilida ishlatalayotgan so'zlardan ma'nosini maxsuslashtirish yo'li bilan foydalaniadi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda matematik tushuncha uchun umumxalq tilidan *ildiz* so'zining ma'nosini maxsuslashtirish yo'li bilan olingan. Agar umumxalq tilida ana shunday so'zlarni topish imkoniyati bo'lmasa, u vaqtida boshqa tillardan tayyor holda olinadi. Masalan, *fonema, valentlik, element, sinus, kosinus* va boshqalar.

! **Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosini maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalariga atama (termin) deyiladi.**

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Atama deganda nimani tushunasiz?
2. Atama qanday hosil qilinadi?
3. Atamaning umumxalq so'zidan qanday farqi bor?
4. Atamalarni yasash va ularni tartibga solish muammolari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

**76-mashq.** Geografiya faniga oid atamalarni izohi bilan ko'chiring.  
Namuna: garmasel — issiq (quruq) shamol.

Durbin, vulqon, atlas, gerbariy, gipoteza, materiklar, kanal, kontur karta, magnit, mineral, meteorologiya, radiatsiya, toponim, ekvator, yupiter, qo'ltiq, balans, biosfera.

**77-mashq.** «Amir Temur davrida davlat boshqaruvida ayollar» mavzusida matn tuzing. Matn ichida quyidagi atamalarni ham qo'llang.

Saroy, manbashunoslik, elchi, etnograf, sharqshunos, mohir siyosatchi, sulola, musiqachi, davlat, meros, tillaqosh, baldoq, chophon, qilich, kamar, muzey.

**78-mashq.** 3 guruhga bo'lining. Belgilangan qisqa muddat ichida 1-qator ilm-fanga oid, 2-qator san'at va madaniyatga, 3-qator texnikaga oid atamalarni navbat bilan yozuv taxtasiga yozing. Qaysi guruh atamalarni ko'p va to'g'ri topa olsa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

**79-mashq.** Ko'chiring, berilgan matndan atamalarni toping va uni alohida belgilang.

## TARIX — HAQIQAT MEZONI

Tarix — haqiqat mezoni, jarchisi. U alday olmaydi, aldanmaydi ham. Tarixiy jarayonlarni yoshlarimiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qilmoqda. Amir Temur ham haqli ravishda ota yurti Shahrисабзда qurdirgan Oqsaroy peshtоqiga «Qudratimizga shashshubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing», deb yozdirib qo'ygan edi. Bu buyuk sarkardalik, o'z kuch-qudrati, mustaqilligiga ishonch, qat'iyat ramzi edi. Demak, Turonzamin yoshlari, ahli omma uchun ibratlari iboralar bu! «Tuzuklar»da o'qiyimiz: «Dilda e'tiqod butun bo'lsa, aslo naslimiz yo'qolmagay, tilimiz unutilmagay. E'tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay. Haqiqat — sihat-salomatlik, haqiqat — tartib, haqiqat — adolat demakdir. Kuch adolatdadir». Yo'boshchimiz yoshlarning yanada barkamol va sog'lom, jismongan baquvvat, ma'naviyati yetuk bo'lishiga alohida ahamiyat beradi. Bu borada bobomiz Amir Temurning

olib borgan ma'naviy-ma'rifiy ishlari ibratlidir. Chunonchi, Sohibqiron oila, nikoh, millat tozaligi va sofligiga katta e'tibor bergan. Chunki mamlakatning istiqboli, kelajagi ham yoshlar, sog'lom insonlar qo'lida bo'lishi tabiiy holdir. Millat, qavm-u qarindosh, urug'-naslning tozaligi insoniy xislatlar — ongning shakllanishi, o'z Vataniga sadoqat, millatparvarlik, tenglik, do'st-u hamkorlikni barpo qilishga bog'liq.

(K. Normatov)

**80-mashq.** O'qing. Quyidagi fikrlarni qayta hikoya qiling. Matndagi atamalarni toping.

## EKOLOGIK MUAMMOLAR

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammozi alohida e'tiborga molikdir. Uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratildi. O'rmonlar o'ylamay-netmay, vahshiyarcha kesib tashlanar edi. Yoqilg'i va mineral-xomashyo zaxiralari real ehtiyoj bilan taqqoslanmagan holda juda ko'p miqdorda qazib olingenidan ko'pchilik qismi qayta ishlanmagan chiqitlar sifatida uyulib yotar edi. Tabiatni muhofaza qiluvchi eng oddiy tozalash inshootlariga ega bo'lмаган bahaybat sanoat korxonalari faol bunyod etildi. Natijada barcha zaharli va zararli sanoat chiqindilari ulkan havo kengliklarini, suv havzalarini, yer maydonlarini iflosantiradigan bo'ldi. O'z ko'lami jihatidan beqiyos darajada katta gidroenergetika loyihalarini ro'yobga chiqarish, transport kommunikatsiyalarini (BAM, TurkSib kabi temiryo'llarni, avtomobil, neft-gaz magistrallarini va irrigatsiya tarmoqlarini) bunyod etish nafaqat tabiiy zaxiralarni qashshoqlashtirdi, balki butun boshli aholi punktlarining yo'q bo'lib ketishiga, ekologik muvozanat, iqlim, odamlarning hayot va faoliyat sharoitlarining buzilishiga ham olib keldi.

...Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalb etish birinchi darajali vazifadir.

### 7.2. ATAMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Har qanday fan sohalarining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega.

Istiqlolga erishgunga qadar o'zbek ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi atamalarning rivojiga e'tibor berilmadi. Natijada atamalarning

ko‘pchiligi ras tilida qanday bo‘lsa, shundayligicha olindi. Masalan, *spravka, doklad, kanselariya* va boshqalar.

Mustaqillik sharoitida atamalarni izga solish eng dolzarb vazifa-lardandir.

Atamalarni tartibga solish harakati mustaqillikning ilk davrlarida turli yo‘sinda olib borildi: a) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o‘rniga arab-fors tilidan atamalar tanlash: *aeroport* o‘rniga *tayyoragoh*; *samolyot* o‘rniga *tayyora*; *institut* o‘rniga *oliygoh, rayon* o‘rniga *nohiya, radio* o‘rniga *ovoznigor, telefon* o‘rniga *durovoz* kabilar; b) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o‘zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo‘lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o‘zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo‘llash. Masalan, *aksiya — hissa, aksioner — hissador, kanselariya — devonxona, pechat — muhr, gimn — madhiya, tamojnya — bojxona, bank — banka, samolyot — samolyot, vertolyot — vertolyot, raketa — raketa, tank — tank, telefon — telefon, kompyuter — kompyuter* kabi. Atamalarni izga solishning keyingi yo‘li istiqbolli yo‘l ekanligi hammaga ayon bo‘ldi, chunki boshqa tillardan atama qabul qilmaydigan birorta ham til yo‘q. Masalan, *telefon, kompyuter* atamalari dunyoning hamma tillariga kirib borgan.

Hozirgi kunimizda o‘zbek tili *birja, dizayn, lizing, marketing, menejment, monitoring, audit* singari yuzlab boshqa tillardan olingan atamalar hisobiga boyib bormoqda.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Atamalarni tartibga solishga qanday zarurat tug‘ildi?
2. Atamalarni tartibga solishning qaysi yo‘llarini bilasiz va qaysisi sizga ma’qulroq?
3. Iqtisodiyot sohasida qabul qilingan beshta yangi atama topping va ular ishtirokida gap tuzing.

**81-mashq.** Uyga topshiriq. «O‘Imas navolar» mavzusida insho yozing. San‘atshunoslikka oid atamalardan foydalaning. Inshoga quyidagi to‘rtlikni epigraf qilib oling.

San‘atga baxsh umrning so‘ngsiz mo‘jizasi bor,  
U dunyoni tark etsa, undan dunyo qoladi.  
Inson umri sarhadli, qo‘shiq umri poyindor,  
Navosiz yuraklardan o‘Imas navo qoladi.

**82-mashq.** Semantika, polisemiya, monosemiya, leksikografiya kabi atamalarning lug‘aviy ma’nolarini izohlang.

**83-mashq.** Grammatik o‘yin — topshiriq. Ikki guruhga bo‘lining. Tilshunoslikka oid atamalardan foydalanib, tez aytish bo‘yicha so‘z zanjiri tuzing.

Bunda so‘zning oxiridagi tovushga qarab, ikki guruh shu tovushdan boshlanuvchi so‘z aytadi.

<i>I</i> guruh	<i>II</i> guruh
ko‘makchi	imlo
olmosh	sheva
adabiy til	leksikologiya
yasovchi	ibora

**84-mashq.** 1798-yilda yaratilgan Muhammad Xoksorning «Muntaxob ul-lug‘at» asarida astronomiya, matematika, musiqashunoslik, adabiyot faniga oid atamalar berilgan. Ularni daftaringizga ko‘chiring, ma’nolarini izohlang.

Sath, vatar, mintaqa, xatti ustuvo (ekvator); ag‘oni, nag‘ma, surud, «Hijoz», «Ajam», «Iraq», nag‘amot, musiqa, navo, ohang, bad‘e, tashbeh, ramz, radif, fasohat, majoz, nazm, hijo, she’r.

**85-mashq.** Huquqshunoslikka oid atamalarni izohi bilan ko‘chiring, yozilishiga diqqat qiling.

Amnistiya, arbitraj, arxiv, audit, bankrot, brifing, vaucher, viza (ruxsatnoma), grant, deklaratsiya, demokratiya, dividend, dotatsiya, investitsiya, interpol, kadastr, kvorum, kvota, kongress, konstitutsiya, lizing, magistr, okrug, patent, reglament, sanatsiya, sanksiya, tender, terror, ekstremizm.

**86-mashq.** Matnni o‘qing, atamalarni topib, ularni izohlang.

Vodorodning ishlatilishi uning kimyoviy xossalariiga asoslangan. Undan kislород bilan birikkan paytida ko‘p issiqlik chiqadi. Shu bois, vodoroddan motor yoqilg‘isi sifatida foydalaniladi. Metallarni qirqish va payvandlash ishlarida ham u faol qo‘llaniladi. Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi. Ammiakdan, o‘z navbatida, nitrat kislota olinadi.

### Tayanch tushunchalar

atama, atamashunoslik, iste’mol doirasi chegaralangan leksika.

---

## 8-DARS. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISHI. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

### 8.1. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISHI

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda o'zbek tili leksikasining takomil topib borish yo'llari, tildagi so'zlarning eskirib borishi va ularning o'rniga yangilarining kirib kelishi haqida bilim hamda ko'nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Leksika tarkibidagi o'zgarishlarning sabablari.
  - \* Ayrim leksemalarning eskirishi va uning sabablari: arxaizmlar va istorizmlar (tarixiy so'zlar).
  - \* Yangi so'zlarning paydo bo'lish sabablari.
  - \* Neologizmlar.

✓ **1-topshiriq.** Navoiyning quyidagi baytidan hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydigan so'zlarni aniqlang: «Jam' bo'lib bir kun guliston qushlari, Boshoq bahr-u biyobon qushlari. Barcha bir manzilda majma' tuzdilar, Har bir o'z haylu safni ko'rguzdilar».

**2-topshiriq.** Vaucher, tender so'zlarining ma'nosini tushuntiring va ularning o'zbek tilida qachondan boshlab qo'llanganini aytинг.

Bizni qurshab turgan olamdag'i hamma narsa va hodisalar uzlusiz o'sishda-rivojlanishdadir. Masalan, hovlingizga ko'chat ekdingiz. U ko'karib, asta-sekin rivojlana boshlaydi, lekin uning rivojlanish jarayonini oddiy ko'z bilan kuzata olmaysiz. Ko'chat ekilgan holat bilan uning bir necha oy yoki yil o'tgandan keyingi holatini solishtirsangiz, undagi ro'y bergen o'zgarishlarni payqaysiz.

Xuddi shuningdek, siz bilan biz gaplashib turgan til ham muttasil rivojlanishda, o'zgarishdadir. Bu o'zgarishlarni shu tilning ikki davr oralig'idagi holatiga qarab bilib olamiz. Masalan, Navoiy tili bilan hozirgi davrdagi o'zbek tili yoki Fitrat, Cho'lpionlar davri bilan bugungi o'zbek tilini solishtirsak, bu ikki davr oralig'ida ro'y bergen o'zgarishlar leksikada ko'proq aks etganini sezishimiz mumkin.

Ko‘rinadiki, bunday o‘zgarishlar tilning lug‘at jamg‘armasida ko‘proq namoyon bo‘ladi, chunki xalqimiz tarixida ro‘y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar tufayli yangi so‘zlar kirib keladi, ayrim so‘zlar iste’moldan chiqib ketadi. Masalan, eski o‘zbek tiliga xos *cherik* (askar), o‘ko‘s (ko‘p), *talim* (bir qancha) singari so‘zlar bugungi kunda qo‘llanilmaydi.

! **Ular o‘zbek tili leksikasining eskirgan qatlamini tashkil qiladi. Ularga nisbatan eskirgan so‘zlar yoki arxaizmlar va istorizmlar atamasi ishlatiladi.**

**Bunga zid o‘laroq, *konsalting*, *audit*, *sammıt* singari so‘zlar esa tilimizga endigina kirib kelyapti. Ular yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, ya’ni neologizmlar sanaladi.**

Sobiq sho‘rolar davrida *siyosiy byuro*, *pioneer*, *komsomol*, *oktabrat* singari so‘z va birikmalari faol qo‘llanilgan bo‘lsa, mustaqillik sharoitida bunday so‘zlarni ifodalaydigan tushunchalarga hayotda o‘rin qolmadidi. Shuning uchun ular iste’moldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda yangicha davlat va xo‘jalik boshqaruviiga, bozor iqtisodiyotiga doir bir qator yangi so‘zlar paydo bo‘ldi. Ayrim eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan so‘zlar yangitdan olib kirildi. Masalan, *hokimiyat*, *hokimlik*, *vazir*, *vazirlilik*, *devonxona* va boshqalar.

Shunday qilib, o‘zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo‘lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning iste’moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarning esa kirib kelishi hisobiga doimo o‘zgarib, rivojlanib, boyib boradi.

## ? *Savol va topshiriqlar*

1. Tilning rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek tili leksikasidagi o‘zgarishlar haqida gapiring.
3. Mustaqillik sharoitida yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni aytинг.

**87-mashq.** Quyidagi so‘zlarni faol va passiv so‘zlarga ajrating.

Yer, quyosh, odam, bashar, chaqmoq, uy, yo‘l, dinozavr, uzoq, imlo, g‘azal, koinot, ayol, odob, daryo, rejalashtirish, tabib, jadallashtirish, ekmoq, olim, magistratura, bakalavr, zilzila, toshqin, kuldi, sun‘iy, agrotexnika, iste’mol, yig‘lamoq, yilnomha, yoqilg‘i, hafta, sut, qatiq, tovar.

**88-mashq.** Arxaik so‘zlarga ma’no jihatidan muqobil zamонавиy so‘zlar toping.

Yog‘iy, dubulg‘a, bitik, cherik, firqa, yovuq, pud, qadoq, etmak, handasa.

**89-mashq.** Biror gazetani kuzatib, ularda qo'llangan 15—20 ta eskirgan, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni aniqlang, so'ng gap shaklida ko'chirib yozib, ularning qanday nutqiy ehtiyoj uchun qo'llanganini izohlang.

**90-mashq.** Matnni ko'chiring. Tarixiy so'zlarga bir chiziq, arxaik so'zlarga ikki chiziq chizing. Ularga uslub jihatidan mos tushadigan muqobil zamonaviy so'zlar toping.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Mironshoh keyingi paytda aysh-u ishratga berilib ketib, davlat ishlariga qaramay qo'yadi. Sohibqiron kelinidan bu xabarni eshitgach, ertasi kuni hazrat eng nufuzli kishilarini kengashga to'plab, Mironshoh masalasini o'rtaqa qo'yadi. Amir Temurning o'zi Mironshoh va uning arkoni davlatiga o'lim jazosi berilishini aytadi. Temurning piri Sayyid Baraka va ayrim amaldorlar bu hukmga qat'ian qarshi chiqadilar, lekin Temur o'z so'zida mahkam turib olgach, Amir Shoh Malik o'rnidan turib: «O'g'lingiz-ku, davlatpanoh», deydi. Amir Shoh Malikka g'azab bilan tikiladi. Shoh Malik esa yana: «Shahzoda sizning farzandi arjumandingiz erur, davlatpanoh, qatl qildirsangiz, islom qilichiga farzandkushlik isnodi dog' bo'lib tushmog'i muqarrardur», deydi. Amir Temurning yanada g'azabi avjga chiqib: «Men ahkomi shariatda emas, o'z saltanatimda tartib o'rnatmog'im lozim!» deydi.

Shunda Sayyid Baraka o'midan turib: «Baribir, har bir ishdan Olloh taolo voqifdur, hukmdor!» deya ogohlantiradi. Shundan so'ng Temur o'zicha bir qarorga keladi-da, g'azabdan tushib kengash tugaganligini ma'lum qiladi.

Ertasi shahar xalqini katta maydonga yig'ib, Mironshoh boshliq uning barcha amir va amaldorlarini qo'llari bog'liq holda zindondan olib chiqib, shahar maydoniga olib keladilar. Maydon o'rtasida turgan jallod hazrat Sohibqironning so'nggi buyrug'ini kutardi.

Baraka boshliq barcha amirlar, beklar va shahzodalar o'rtaqa tushib, Mironshohning gunohidan o'tishni Sohibqirondan iltijo qilib yolboradilar. Shundan so'nggina Mironshoh banddan ozod etilib, haramidagi xotinlari va kanizaklaridan faqat farzandi borlarigina unga qoldiriladi.

(T. Fayziyev. «Amir Temur saboqlari»)

**91-mashq.** So'zlarning tarixiylik jihatidan qaysi qatlamga xosligini aniqlang.

Qarol, feodal, rejissor, yulduz, tashabbus, Turkiston, rasadxona, ochilg'on, teleskop, kuyov, teatr, malay, san'at, dizayn, arbob, epizod, rutba, musofirxona, mirshabxona, devon, milliy xavfsizlik, diplomatiya, aviasozlik, jumhuriyat, dukchi, charx, mug'anniy, ashula, fermer,

kompyuter, cho‘pchak, musallas, nota, professor, studiya, sanatsiya, asov, taqa, tarbiya, erk, ma’rifat, aravakash, mahliqo, qalandarlar, rafiq, mushk-u anbar, faytun, mehmon, g‘oyibona, g‘anim.

**92-mashq.** Gazetalarning biridan kasb-hunarga oid 10—15 ta so‘zlarni toping, so‘ng gap shaklida ko‘chirib yozib, qaysi kasbga oid so‘z ekanini aniqlab, ma’nosini izohlang.

**93-mashq.** Quyidagi arxaik so‘zlarga ma’no jihatdan muqobil zamonaviy so‘zlar toping.

Bitik, cherik, etmak, yog‘iy, dubulg‘a, firqa, yovuq, handasa, fasohat, fiqh.

**94-mashq.** A. Qahhorning «Jonfig‘on» hikoyasidan olingan parchani o‘qib, eskirgan va zamonaviy so‘zlarni toping va izohlang.

Malohatxon Jonfig‘on izvoshchilikdan haydalgan yili, mahalladagi aktiv ayollarning himoyasi ostida, erining qarshiligiga qaramay, rayon Sovetiga farrosh bo‘lib ishga kirgan ekan, o‘qibdi, hademay savodi chiqibdi, bir yil-bir yarim yildan keyin hatto majlislarda dokladchiga: «O‘rtoq, Sizga savolim bor», deydigan bo‘libdi. Rayon Sovetining shofyori Timchenko degan ayol uning sog‘lomligiga, kuchiga, abjirligiga, ayniqsa, zehniga qoyil bo‘lib yurar ekan, bir kuni uygaga chaqirib, «sen shofyor bo‘lgin, nima yordam kerak bo‘lsa beraman», debdi. Malohat ham shunday bir narsani orzu qilib yurar ekan, darrov ko‘nidbi. Shundan keyin Timchenko uni birmuncha vaqt shofyorlar kursiga tayyorlabdi, oqibatda kirgizib ham qo‘yibdi.

Jonfig‘on avvallari uning niyatiga, o‘qishga «notovon ko‘ngil..., orzuga ayb yo‘q» degan nazar bilan qarab yurar ekan, bir vaqt qarasaki, Malohat kursni bitirib, gruzovoy minib yuribdi! Jonfig‘on bunga ham ko‘nikibdi — «ha, endi, minsanibda, shu ham martabami, mashinani o‘zi o‘ylab chiqaribdimi» deb, o‘ziga tasalli beribdi, biroq Malohat ikki yilda uch marta mukofotlanibdi. Jonfig‘on mukofotni o‘z gazi bilan o‘lchagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi.

**95-mashq.** Dehqonchilik kasbiga oid eskirgan so‘zlarning ostiga chizing.

Dehqonchilik kasbiga oid dalaga qo‘sish chiqarish bilan bog‘liq «shoxmaylar» marosimi alohida quvonch va tantana bilan nishonlanadi. Odatda, dalaga qo‘sish chiqarish kunini qishloqdagi tajribali dehqon

(oqsoqol) belgilab bergan. Shoxmaylar dushanba, chorshanba va juma kunlaridan biriga to‘g‘ri kelishi lozim bo‘lgan, chunki bu kunlar dehqonlar tasavvurida baxt, omad keltiriladigan kunlar hisoblangan. Asosan, qo‘sish chiqarish Navro‘z kunlari boshlangan, ammo yerlar pishib yetishsa, ob-havoga qarab Navro‘zga qadar ham o‘tkazilgan.

Shoxmaylar tantanalariga to‘q-farovon joylarda qishloqning barcha ahli tayyorgarlik ko‘rgan: har bir xonadon turli taomlar tayyorlagan, non-u qatlama, patirlar yopilgan, bo‘g‘irsoq va po‘ssiqlar pishirilgan. Marosim o‘tkaziladigan joy supurilib-sidirilib, sholcha, kigiz-u gilamlar to‘shilib, dasturxonlar yoyilgan, unga tayyorlangan taomlar tortilgan. Qishloq ahli to‘plangach, oqsoqol yaxshi tilaklar bilan duo-fotiha qilib, pishirilgan narsalar aholi orasida tarqatilgan. Shundan so‘ng qo‘sish chiqarish uchun maxsus boqilib turgan ho‘kizlardan biri olib chiqilgan va o‘tgan yilgi hosilning oxirgi tutamidan tayyorlangan kulcha qishloqning barcha mo‘tabar qariyalari va boshqa ishtirokchilariga bir parchadan sindirib berilgan. Kulchaning bir bo‘lagi tanlab olingan ho‘kizga ham yedirilgan. Nihoyat, ko‘z tegmasin deb ho‘kizlarning shoxiga zig‘ir yog‘i surtilgan, ins-jinslardan va yovuz ruhlardan pok bo‘lsin deb isiriq tutatilgan.

Dastlab qo‘sni qishloqning eng hurmatli oqsoqoli qo‘sish bilan kuchi yetguncha toq marta haydab, keyin o‘tgan yilgi hosilning oxirgi tutamidan olingan bug‘doydan irimiga haydalgan yerga bir necha hovuch sepgan. Mazkur marosimdan so‘ng barcha dehqonlar ho‘kizlarini yetaklab uyga qaytganlar.

(I. Jabborov)

### ✓ Tayanch tushunchalar

eski qatlam, yangi qatlam, arxaizmlar, istorizmlar (eskirgan so‘zlar), neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar).

## 8.2. O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda o‘zbek tili leksikasining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyib borishi haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

**R e j a:**

- \* O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari haqida.
- \* Ichki imkoniyatlar asosida o‘zbek tilining boyishi.
- \* Boshqa tillardan so‘z olish asosida leksikaning boyishi.

**!** *1-topshiriq.* Kadastr, lizing so‘zlarining ma’nosini tushuntiring va ularning o‘zbek tiliga boshqa tildan olinish sababini aytинг.

**2-topshiriq.** Ilgari iste’moldan chiqib ketgan so‘zlarning yangi ma’noda qo’llanayotganiga misollar keltiring.

**!** **O‘zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi.** Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) o‘z ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan so‘z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi.

1. O‘zbek tili leksikasining birinchi yo‘l bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan, a) ilgari qo’llanilib, keyin iste’moldan chiqib ketgan so‘zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalinish: *vazir*, *hokim*, *viloyat*, *shirkat*, *noib*, *tuman* kabi; b) yasovchi qo’shimchalar yordamida yangi so‘z yasash: *uyali telefon*, *omonatchi*, *pudratchi*, *bojxona*, *auditchi (auditor)*, *dizaynchi (dizayner)* va boshqalar; d) dialektal so‘zlarni faollashtirish: *mengzamoq* (Xorazm) «o’xshatmoq», «tenglashtirmoq», «qiyoslamoq» ma’nosida.

2. O‘zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so‘z olmasdan faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo‘q. Bundan o‘zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma’lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o‘z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo‘lgandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Mahmud Koshg’ariy, Alisher Navoiylar ham shunga da’vat qilganlar.


Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so‘zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring*, *diler*, *skayner* kabi.

Bularning hammasi o‘zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda.

## **?** *Savol va topshiriqlar*

1. O‘zbek tili leksikasi qaysi yo‘llar bilan boyib, rivojlanib bormoqda?
2. Leksikaning ichki manbalar asosida rivojlanishi deganda nimani tushunasiz va ularning usullari qanday?
3. Tashqi manbalarga qanday holatlarda murojaat etiladi?

Quyidagi chizmani daftaringizga ko‘chiring va uni yodda saqlang.



**96-mashq.** Uyga topshiriq. Yuqorida berilgan chizmaning har biriga misollar yozing.

**97-mashq.** O'zlashma so'zlarning qaysi tilga oid ekanligini ko'rsating (arabcha, forscha, lotincha, ruscha)

Saodat, taxt, mashina, a'llo, she'r, karaxt, badjahl, shoir, maorif, xo'roz, gazeta, baxt, ruchka, sehr, stol, bioximiya, dazmol, ruxsat, ro'za, qoida, sur'at, obyekt, donishmand, parta, paravoz, muomala.

**98-mashq.** O'zbek tili leksikasining tashqi manba asosida boyishiga misollar keltiring.

**99-mashq.** Quyidagi matnni ko'chiring. Rus tilidan hamda arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarni alohida-alohida ko'chiring.

### ABO MUSLIM

13-dekabrda «Turon» qishloq binosida ulug' adibimiz, muallif Fitratning 5 parda 7 ko'rinishli «Abo Muslim Xurosoniy» nomli tomoshasi o'ynaldi.

Oxirgi ko'rinishda abbosiylarning birinchi xalifasi rolini Sayfi qori juda yumshoq o'ynadi. Ayniqsa, Abo Muslim bilan Marv begi qizining o'lishlari chog'ida, karomatgo'y shayx choponi ostidan hovarjlarning jasusi Zahhok chiqib kelgan vaqtida, o'zining katta va tuzalmas xatolarini

anglag‘on damlarda shu qadar kam harakat edikim, sira qo‘ya qoling! Sayfi qorining ampulasi (o‘ynayturgan o‘yunlari) belkulikdir. Rejissur shuni ko‘zda tutib uni g‘oyat jiddiy bo‘lg‘on shu xil rollarga chiqarmaslig‘i kerak.

Bizning Turkistonda «dog‘uli ayyor» deb nom chiqarg‘on Zahhok rolida Uyg‘ur boshdan oyoq yaxshi. Ko‘zga ilinar-ilinmas sustlik va ruhsizligini sanamasak, Marv begining qizi Gulnor rolida Ma’suma xonim yaxshi, Abo Muslimning vaziri Homid rolida O‘ktam, Marv begi rolida Sayfi qori, Amir Ali rolida Shokir, Gulnorning enagasi rolida Robiya Tutash tekis o‘ynaydilar. Narsiyor rolida chiqqan Bosit bilan Yazid roldagi Olimning yuksak ruh bilan vaziyat va ahbolg‘a yondashtirib o‘ynashlarini aytib o‘tmak kerak. Boshqa kichkina vazifalar ham durust bajarildi.

Sahnamizning o‘zini tuzatishga ham jiddiy harakatlar ko‘rila boshladи. Sirdaryo muzofot firqa qo‘mitasining mas‘ul sarkotibi o‘rtoq Abdulhay Toji bilan Eski shahar ijroko‘mining muvaqqat raisi Mannon Ramz o‘rtokdar markazning birdan bir san‘at markazi bo‘lg‘on «Turon» binosi va Davlat necha havaslik kishilarga topshirib pullik yordam va‘da qilg‘onlar.

(A. Cho‘pon)

**100-mashq.** Tilimiz taraqqiyotida sinonimlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ikki xil baza asosida paydo bo‘ladi: tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so‘z olish natijasida. E’tibor bering!

### 1. Tojik tilida

chorpoya  
olov  
chopon  
kissa  
dasta  
buqa  
jilt  
oftob  
osmon

### 2. O‘zbek tilida

so‘ri  
o‘t  
to‘n  
cho‘ntak  
sop  
novvos  
muqova  
quyosh  
ko‘k

Tojik tilidan so‘z o‘tish natijasida qo‘shma va juft so‘zlar ham paydo bo‘lgan.

Bosh (pana), qon (xo‘r), qo‘sh (nay), shirin (so‘z), yalang (bosh), qahr-g‘azab, to‘y-tomosha, sog‘-salomat, achchiq-chuchuk.

**101-mashq.** Berilgan so‘zlar qaysi tillardan o‘zbek tilining leksik qatlamiga o‘zlashganligini lug‘at yordamida aniqlang. Bu so‘zlarning o‘zbek tilida qo‘llanilish sabablarini tushuntiring.

Sport taym, lizing, aviatsiya, garaj, okean, xorijiy kompaniyalar, firma, kooperativ, avans, sug'urta, aksiya, apelsin, limon, lenta, pyesa, epos, kokteyl, obyekt.

**102-mashq.** A. Hojiyev, L. Reshetovlarning «O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati»dagi 20 ta so'zni ajratib, ma'nolarini puxta o'rGANING. Ularning qaysi tillardan o'zbek tiliga o'zlashganini toping.

**103-mashq.** Matnni ko'chiring. So'ngra umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar, forscha-tojikcha so'zlar, arabcha so'zlarni joylashtirilgan chizma chizing va matndagi so'zlarni shu chizmalarga joylashtiring.

## FARZAND VA OTA UCHRASHUVI

«Toshkent — Andijon» poyezdi Asakaga yetib keldi. Yo'lovchilar teztez vagonlardan tusha boshladilar. Havo ochiq, ko'kda son-sanoqsiz yulduzlar charaqlagan, mayin shabada esib turibdi. Shahrixon soyi shovullab, suvi qirg'oqqa uriladi, paxsa devorlardan engashgan olcha munchoqlari, oq o'riklar oydinda ko'zga tashlanib qoladi, uzoqlarda elektr chiroqlari miltillaydi. Yuk xaltasini orqa lab olgan imoni komil, mo'min yigit bu manzaralarga suqlanib, ko'cha o'rtasidan kelmoqda. Uzoq vaqt jang olovlarida yurgan kishi uchun bu manzaralar orombaxsh tuyilar, quvonchi ichiga sig'mas edi. Novcha teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi, shamol novda-nihollarni tebratadi. Ana, tong ham otmoqda. Allaqqayerda bulbul to'lib-toshib kuylaydi, yaqin o'ttada xo'roz qichqiradi. Ko'prik oldida fonus ko'targan kishi paydo bo'ldi. Bu — Po'latjonning otasi edi. Po'latjonning tili tanglayiga yopishib qolgandek gapira olmas, vujudi esa karaxt bo'lib qolgandek qimirlamas edi. Farzand bilan ota uchrashuvini ko'kdagi oy kuzatar edi.

**104-mashq.** O'zbek tiliga rus tili va Yevropa (ingliz, nemis, fransuz, ispan) tillaridan o'zlashgan so'zlarga misollar keltiring.

**105-mashq.** O'zbek tiliga oid bo'lgan quyidagi turkiy so'zlarni uch guruuhga ajratib ko'chiring.

1. Tub so'zlar. 2. Aslida yasama, hozirda bir o'zakni tashkil qiluvchi so'z. 3. Yasama, qo'shma, juft so'zlar.

Tush, ish, bor, kel, uch, qush, bugun, bog'ich, qalin, burun, ochko'z, bo'yinbog', bog'lash, iturug', ayg'oqchi, bola, dala, ertaga, to'ng'ich, kunbotar, miskar, tuz, baldoq, oltov, to'ng'iz ...

Yuqoridagi so'zlarni siz ham davom ettiring.

## Tayanch tushunchalar

o'zbek tili leksikasining boyish manbalari, ichki manba, tashqi manba, arabcha so'zlar, forscha-tojikcha so'zlar, ruscha-baynalmilal so'zlar.

---

## **9-DARS. QO'LLANILISH DOIRASI CHEGARALANMAGAN VA CHEGARALANGAN SO'ZLAR. NOMSHUNOSLIK**

### **9.1. QO'LLANILISH DOIRASI CHEGARALANMAGAN VA CHEGARALANGAN SO'ZLAR**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda iste'mol doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika, unda dialektizmlar va sotsial chegaralangan so'zlarning o'rni haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**R e j a:**

- \* So'zlarning qo'llanilish doirasiga ko'ra tasnifi.
- \* Qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar (umumiste'moldagi so'zlar).
- \* Qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar.



**1-topshiriq.** *Takya, kallapo'sh, prizma* so'zlarining qo'llanilish doirasini aytинг.

**2-topshiriq.** Sheva va ma'lum bir fan doirasida qo'llaniladigan oltita so'z topib, ularni gap ichida keltiring.

So'zlar qo'llanilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan va chegaralangan so'zlarga bo'linadi.



**Umumxalq tilida keng qo'llaniladigan va shu tilda so'zlashuv-chilarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlarga qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi.** Ular neytral leksika atamasi bilan ham yuritiladi. Masalan, *non, un, bug'doy, salam, daftар, qor, bulut* va boshqalar.

**Faqat ma'lum sotsial guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'limgan so'zlar chegaralangan so'zlar sanaladi.**

Bunday so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar).
2. Sotsial chegaralangan so'zlar.



**Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'limgan so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar yoki dialektizmlar deyiladi.** Masalan, *eshik* «hovli», «uy» (Andijon), *shoti*

«narvon» (Andijon, Farg‘ona, Namangan), *takya* «do‘ppi» (Xorazm) va boshqalar.

! **Ma’lum ijtimoiy guruuh doirasidagina ishlatiladigan so‘zlarga sotsial chegaralangan so‘zlar deyiladi.** Masalan, «otarchi»lar doirasida qo‘llaniladigan so‘zlar: yakan «*pul*», danap «*qiz bola*»; temiryo‘l kuzatuvchilari doirasida qo‘llaniladigan so‘zlar: *qaychi* «taftishchi», kolxoz «chiptasiz yo‘lovchi».

Bunday so‘zlar argolar deb yuritiladi.

Ayrim argolar umumtil leksikasidan olinadi. Bunday vaqtida bu so‘zlar umumtildagiga nisbatan boshqa ma’noda qo‘llaniladi. Masalan, kolxoz umumtil leksikasida eskirgan bo‘lib, jamoa xo‘jaligini ifodalagan bo‘lsa, temiryo‘l kuzatuvchilari tilida boshqa ma’noni ifodalaydi.

! **Shuningdek, ayrim tabaqa vakillari tilida faol ishlatiladigan leksemalar ham uchrab turadi, bular jargonlar deyiladi.** Masalan, olampanoh, validayi muhtarama, padari buzrukvor, manzirat qilmoq va hokazo.

## ? *Savol va topshiriqlar*

1. Qo‘llanilish doirasiga ko‘ra so‘zlar qanday turlarga bo‘linadi?
2. Dialektizmlar deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?
3. Sotsial chegaralangan so‘zlarga qanday so‘zlar kiradi?

**106-mashq.** Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevangizda uchraydigan so‘zlardan misollar keltiring. Ularning adabiy tildagi ma’nosini ham ko‘rsatib bering.

**107-mashq.** Matnni o‘qing. Dialektal so‘zlarning ishlatilishiga e’tibor bering.

- Nabiram hazilga moyil. Ammo u ketdi, degan, siz o‘ldimi, degansiz, haymi?
- Shundoq-ku... lekin...
- Aka Abdurahmon amonme? Nima deydi? Jalil tabibning gapini so‘zma-so‘z takrorladi.
- Hay, pulingiz kissangizgame?
- Ha.
- Oling.
- Qancha?

Hayim aytdi. Jalil qo‘yin cho‘ntagidan gazetaga o‘rog‘liq pulni olib sanamoqchi edi, yamoqchi urishib dedi:

— He esingizga bir narsa sizning. Bu yerga sanamang pulni, boshqa joyga sanab keling.

Jalil xoliroq ko‘chaga borib pulni sanab yana gazeta parchasiga o‘radi-da, ustaxonaga kelib, yamoqchiga uzatdi.

- Erta keling, — dedi yamoqchi.
- Yana ertami?
- Ha sizga osonme, bu! Xohlasangiz boshqa yerga izlang.
- Xo‘p, xo‘p...

(Tohir Malik)

**108-mashq.** Matnni o‘qing. Dialektizmlarni topib, tahlil qiling. Yozuvchining uslubiy maqsadini izohlang.

Bir faqir bir badavlat odamga hamsoya erdi. Bir kuni aning o‘g‘li faqirning uyiga borib ko‘rdiki, ul odam bola-chaqasi birlan allaqanday taomni yeb o‘ltiribdur, andak zamon tikilib turib ul taomga mayl qildi, ammo uy egalarining hech qaysisi ani taklif qilmadi...

Bola yig‘lab uyiga qaytdi. Ota-onasi yig‘laganing boisini so‘radilar. U bola faqirning taomga taklif qilmaganidan shikoyat qildi. Otasi buyurdiki, filhol anvoyi laziz taomlardan pishirgaylar. Bola taomni yemadi, manga hamsoyaning taomidan kerak deb, andoq yig‘lab turdiki, otasi faqirning uyiga bordi va aytdiki, ey faqir, bizga ranj va ozor yetkurganining nimaga kerak bo‘lur, deb. Faqir andak fursat boshini quyi solib turib dediki: «Ey xo‘ja, bul ishda sir bordir, mandin tilamaglik, ul sirning pardasini ko‘tarsam». Ammo tavongar (boy) so‘radiki: «Birovga halol va harom taom bo‘lurmۇ?» deb. Faqir javob berdiki: «Magar masjidda eshitmadingmuki, bechora, ahvoli tang bo‘lgan odamlarga murdorni (harom) yemak haloldir, deb. Bilgilki, bolalarim uch kundan buyon hech bir taom yemas erdilar va men hech iloj topmay yurdim. Oxirilamr bu kun bir chor devorga kirib o‘lib yotgan eshakni ko‘rib, go‘shtidan bir miqdor kesib uygaga keltirdim. O‘g‘ling uyimga kelgan mahalda ul harom o‘lgan eshakning go‘shtini yeb o‘tirgan erdik». Tavongar faqirni ko‘p duo qildi va dediki: «Bir masjid solurman, aning savobi sangadir...»

(«Hikoyatlar»dan)

**109-mashq.** Jargonga o‘nta misol keltiring, shu misollar yordamida jargonlarning odatdagagi so‘zlardan farqini tushuntiring.

### Tayanch tushunchalar

umumxalq tilida ishlatiladigan so‘zlar, neytral leksika, hududiy chegaralangan so‘zlar (dialektizmlar), sotsial chegaralangan so‘zlar (argo va jargonlar).

## 9.2. NOMSHUNOSLIK

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda nomshunoslik (onomastika) haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish. Ularga nomlash tamoyillari haqida ma’lumotlar berish.

- R e j a:**
- \* Nomshunoslik (onomastika) haqida ma'lumot.
  - \* Obyektlarning nomlanish asoslari (nom va nomlanuvchi obyekt o'rtaсидаги munosabat).
  - \* Nomlarning nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra tasnifi.

✓ **1-topshiriq.** *Uchtepa, Beshkapa* singari so'zlar nimani ifodalaydi? Bu nomlar bilan ular ifodalagan nom o'rtaсидаги bog'liqliknini aniqlang.

**2-topshiriq.** *Bo'riboy, Xoldorali, Hayitboy, Safarali* kabi kishi nomlari kimlarga va nima uchun qo'yilishini izohlang.

Siz yashab turgan joydagi ko'chalar, maydonlar, shahar va qishloqlar, daryo, ko'l, tepalik, qabristonlar, ma'lum nom bilan yuritiladi. Masalan, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, «Mustaqillik» maydoni, Alisher Navoiy nomli jamoa xo'jaligi va boshqalar.

Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishida ularning ma'lum belgilari e'tiborga olinadi. Buyuk shaxslarning nomini abadiylashtirish uchun u bilan qandaydir bog'liq bo'lgan holat hisobga olinadi yoki shaxsga katta hurmat yuzasidan joy shu shaxs nomi bilan yuritiladi. Masalan, Hamzaobod shahri shu joyda ma'lum davr yashab, mehnat qilgan Hamza nomi bilan; Qipchoq, Saroy qishloqlarining nomlari shu qishloq aholisining etnik kelib chiqishi bilan, Qatorterak, Uchtol, Beshariq, Baland masjid singari joy nomlari shu joydagi o'simlik, bino, suv inshooti xususiyati bilan bog'liq ravishda qo'llangandir. Shaxsga qo'yilgan nomlarda esa ota-onaning orzu-umidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshavoy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy) o'z aksini topgan bo'ladi.

! **Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ulananuvchi tilshunoslikning bo'limiga onomastika (lot. *onuma* — nom so'zidan olingan)** deyiladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar **antroponimlar** (lot. *antropoz* — shaxs, odam; *onuma* — nom): *Ahmad, Karim* va boshqalar.
2. Geografik obyektlar va ularning nomlari **toponimlar** (lot. *topos* — qishloq, shahar, maydon, ko'cha, *onuma* — nom): *Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi* kabi.
3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar (lot. *soom* — hayvon, *opuna* — nom): *to'rtko'z, bo'ribosar* kabi.

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar (daryo, ko‘l, dengiz nomlari) **gidronimlar** (lot. *gidro* — daryo, suv, *onuma* — nom): *Orol dengizi*, *Balxash ko‘li*, *Qashqadaryo* kabi.

## ❓ *Savol va topshiriqlar*

1. Onomastikada nima haqida bahs yuritiladi?
2. Nomlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Nom bilan nomlanuvchi obyekt o‘rtasida qanday munosabatlar bor?

**110-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni obyekt turiga ko‘ra guruhlang: (toponimlar, antroponimlar, zoonimlar, gidronimlar) Kattaqo‘rg‘on, Sirdaryo, Dilnavoz, tulki, tuya, Sarvigul, Yo‘lbars, Sher, Shahnoza, Amudaryo, Bulqoboshi, Zadaryo, ot, Koson, Shahriyor, Abdulhoshim, Orol dengizi, Kampiravot, Azov dengizi, Nil daryosi, Sevan ko‘li, Ra’no, Dilorom, eshak, qo‘y, ho‘kiz, Mavluda, Behzod, Bobur, Farg‘ona kanali.

**111-mashq.** Suv havzalari bilan atalgan joy nomlarini izohi bilan o‘qing.

Achchiqko‘l — Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi qishloq. Achchiqko‘l — asli suv havzalaridan biri — ko‘Ining nomi, ko‘l suvining achchiqligi, o‘ta sho‘r ekanligi, iste’mol qilish uchun yaroqsizligi ko‘Ining shu tarzda nomlanishiga sabab bo‘lgan. Ko‘l hozirda yo‘q bo‘lib ketgan, lekin uning nomi shu atrofdagi aholi turar joyi atamasi sifatida saqlanib qolgan. Aniqrog‘i, ko‘l nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan.

Xalqimizda «Ko‘l qurisa ham nomi qurimaydi» degan naql bor. Darhaqiqat, respublikamizda garchi o‘zi qurib, yo‘qolib ketgan bo‘lsada, nomi hamon saqlanib qolgan ko‘llar anchagini topiladi. Ular hozirda qishloq nomlari sifatida yashab kelmoqda.

Shaytonko‘l (Farg‘ona viloyati Beshariq tumani), Oydinko‘l (Farg‘ona viloyati Buvayda tumani), Qorako‘l (Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani), Oqko‘l (Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani), Damko‘l (Farg‘ona viloyati tumani), Qo‘g‘aliko‘l (Namangan viloyati Zadaryo tumani), Bordimko‘l (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani), Darvozako‘l, Sho‘rko‘l (Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on viloyati), Chapko‘l, Polvonko‘l (Namangan viloyati Norin tumani), Oltinko‘l (Andijon viloyati Oltinko‘l tumani), Bordonko‘l (Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani) singari qishloq nomlari hozirda mavjuddir.

**112-mashq.** Siz qanday suv havzalari va inshootlar nomlarini (gidronimlar) bilasiz? Ularni sanab o'ting. Agar bilsangiz izohi bilan bering. So'ng professor E. Begmatov haqidagi matnni o'qing, uning o'zbek nomshunosligini rivojlantirishdagi xizmatlarini belgilang.

**ERNST BEGMATOV**  
(1936)

Filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov o'zbek nutq madaniyati, leksikologiyasi muammolarini hal qilishda barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa, uning o'zbek onomastikasining shakllanishi va rivojida katta xizmati bor. Olim bu sohada o'zining qator asarlarini e'lon qildi. Ular ichida «Kishi nomlari imlosi» (1970), «O'zbek ismlari imlosi» (1972), 14600 ismnning izohini o'z ichiga olgan «O'zbek ismlari» (1999) kitoblari alohida qimmatga ega.

**113-mashq.** Gidronimlarni quyidagi turlarga ajratib yozing.

Ko'l nomlari	Soy nomlari	Daryo va kanal nomlari
Oydinko'l	Shahrixonsoy	Qoradaryo

**114-mashq.** Quyida berilgan toponimni o'qing, so'ngra siz ham toponimlarga misollar yozib, uni izohlang.

Nazarmahram — Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim kishi ismi va Qo'qon xonligi davridagi amal — mansabga oid atamalardan biri mahram so'zidan tarkib topgan. Mahram — xonga yaqin bo'lган va uning huzuriga kira oladigan kishi. Shuningdek, mahramlar saroydagi boshqa ishlarni ham bajarganlar. Ko'rindiki, o'tmishda mansab nomlari ko'pincha amal egasining nomiga qo'shilib aytilgan. Shunga ko'ra ba'zi joy nomlariga kishi ismi va mansab nomi atama bo'lib qolgan, Nazarmahram fikrimizning isbotidir.

(N. Oxunov)

**115-mashq.** Uyga topshiriq. «Geografiya» darsligidan foydalananib, joy nomlari (toponimlar)ning quyidagi turlariga misollar yozing.

O'rmon, to'qay, sahro, yaylov, yo'l, dala, dasht.

**116-mashq.** Aholining yashash maskanlarini nomlashda, xalqning iqtisodiy turmush tarzi, shug'ullanuvchi kasb-kori ham hisobga olinadi. Vaqtlar o'tishi bilan hunar, garchi o'zgarib ketsa-da, joy nomlari saqlanib qoladi.

### E'tibor berинг:

Miskarchilik, Ko'nchilik, Egarchi, Jiyakchi, Taqachi, O'qchi, Miltiqsoz, Bo'rchi, Ketmonchi, Charmgarguzar, Tandirchi, Sovungarlik.

Yuqoridagi qishloq nomlarini yozing. Har biri ishtirokida ikkitadan gap yozing. Ularning bittasi atoqli, ikkinchisi turdosh ot bo'lib kelsin. O'zingiz yashab turgan joy nomini, uning atrofidan oqib o'tadigan daryo, soy, ariq, tog', ko'l, adir nonmlarini daftaringizga yozing va ularni izohlang.

**117-mashq.** Joylarning nomlanishida qabila nomlari, joylarning relyefi hisobga olinadimi? Fikrning to'g'ri, noto'g'riliгини isbotlash uchun misollar yozing.

N a m u n a : Nayman, Jaloyir, Do'rmon, Uzunko'cha, Baland-qishloq, Chuqurko'cha kabi.

**118-mashq.** Qabristonlarning nomlanishiga misollar keltiring, izohini ayting.

Namuna: Chig'atoy qabristoni (Toshkent shahri), Mirpo'stin ota (Andijon shahri), Tutlug' ota qabristoni (Xo'jaobod tumani).

**119-mashq.** O'zbekcha ismlar tarkibida nomning oxiriga yoki oldiga qo'shilib keluvchi lug'aviy unsurlar ishtirokida so'zlar yozing.

bek, boy, bobo, buva, mir, mirza, xo'ja, qul, beka, bibi, begin, bonu, gul, oyim, poshsha, momo, sho.

**120-mashq.** Zamonaviy ismlarga alisbo tartibida misollar yozing.

**121-mashq.** Kishi ismini bildiruvchi qo'shma otlarga misollar yozing va ularning nutqda qo'llanishini tushuntiring.

**122-mashq.** O'zingiz yashaydigan (shahar, qishloq) tarkibiga kiruvchi ko'chalarining nomlarini yozing va izohlang.

**123-mashq.** Ko'chiring. Antroponiimlar va toponimlarning ostiga chizing.

## CHO'QQI SARI INTILISH

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida «Yil maktabi — 2009» ko'rik-tanlovining II bosqichi o'tkazildi.

Vohaning har bir tumanidan eng namunali 17 ta maktab vakillari faol qatnashgan ushbu tanlovda har bir maktab jamoasi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar namoyish qilindi. Ularda maktab hayotidan

olingen lavhalar, ilg'or ish tajribalaridan namunalar va joriy yilda tashkil qilingan markazlar haqida ma'lumot berilgan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi XTB xodimi Sodiq Raimberdiyev boshchiligidagi hakamlar hay'ati har bir maktab ishining mazmunini va faoliyatini to'g'ri baholab bordi.

Bunda ular maktabning moddiy-texnik bazasiga, pedagogik jamoa va o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning hisobotiga, o'quvchilarning darslik bilan ta'minlanganligi, DTS asosida o'quvchilarning fanlar bo'yicha samaradorligi, maktabda innovatsiya, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, o'quvchilarning to'garak va maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga jalb etilishi, o'quvchilarning fan olimpiiadalariga, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishiga asosiy e'tiborni qaratdilar.

Tanlov natijasiga ko'ra, Nukus shahridagi Oqsunbo'l opa Karakayeva rahbarlik qilayotgan 20-maktab 1-o'rinni egalladi, 2-o'ringa 2 ta maktab talabgor bo'ldi. Bular Taxtako'priq tumanidagi 6-maktab hamda Kegeyli tumanidagi 26-maktablardir. Qo'ng'iroq tumanidagi 1 maktab, Mo'ynoq shahridagi 2-maktab, Xo'jayli tumanidagi 7-maktablar 3-o'ringa loyiq deb topildi.

G'olib maktablar munosib taqdirlandilar. Shunday qilib, Toshkentda o'tadigan «Yil maktabi — 2009» ko'rik-tanloving so'nggi bosqichida ishtirok etish uchun Nukus shahrining 20-maktabiga yo'llanma berildi.

(«*Ma'rifat* gazetasidan)

**124-mashq.** Kiyim-kechak mavzuviy guruhiga oid so'zlarni toping va ularni ichki mazmun (bosh kiyimlar, poyabzallar, ust kiyim, ichki kiyimlar)iga ko'ra ajrating.

N a m u n a:

ro'mol, durra, telpak, shapka, shlapa — ayollarning bosh kiyimi.

**125-mashq.** Keng iste'moldagi quyidagi so'zlarni guruhlar (odam va hayvon a'zolari, tabiiy borliqqa oid hodisa, harakat va holatni ifodalovchi nomlar) ga ajratib ko'chiring.

Pishirmoq, boqmoq, g'or, cho'qqi, tovon, to'piq, bosh, oyoq, yurmoq, turmoq, yer, quyosh, urmoq, yugurmoq, oy, suv, qo'l, barmoq, tirnoq, chopmoq, havo, sakramoq, daryo, tog', jag', bo'yin, tirsak, siljimoq sudralmoq, soy, tog', cho'zilmoq, dara, qir, og'iz, jag', o'chmoq, teri, ekmoq, bel, dovon, cho'qqi, boqmoq.

## Tayanch tushunchalar

nomlanuvchi obyekt, onomastika (nomshunoslik), antroponim (shaxs nomlari), toponim (joy nomlari), zoonim (hayvon nomlari), gidronim (suv bilan bog'liq bo'lgan nomlar).

---

## 10-DARS. OMONIM VA SINONIMLAR HAMDA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

### 10.1. OMONIMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda omonimlar (shakldosh so‘zlar va qo‘sishchalar), ularning ishlatalishi haqida bilim hamda ko‘nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Omonimlar (shakldosh so‘zlar) haqida ma’lumot.
  - \* Omonimlarning turlari.
  - \* Lug‘aviy (leksik) omonimlarning nutqdagi ahamiyati.

✓ **1-topshiriq.** Yutmoq so‘zining shakldoshlarini aytинг. Ularning har qaysi ma’nosini gap ichida izohlang.

**2-topshiriq.** O’t so‘zining shakldoshlarini aytинг va ularning har birini gap ichida keltiring.

! **Tilimizda tovush (yozuvda harflar) tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar va qo‘sishchalar mavjud.** Bunday so‘z va qo‘sishchalarining omonimlar (lot. *homos* — bir, *onuma* — nom) yoki shakldoshlar deyilishidan xabaringaz bor. Masalan, ot «hayvon», ot «ism», ot «irg‘it» kabi. Shuningdek, tilimizda qo‘sishchalar o‘rtasida ham shakldoshlik munosabatlari mavjud. Masalan, -chi qo‘sishchasi so‘z yasovchi qo‘sishcha (ishchi, suvchi) hamda yuklama (sen-chi, ayt-chi) ma’nolarida ishlatalidi. Shunga ko‘ra, omonimlar **lug‘aviy** (leksik) omonimlar hamda **affiks** omonimlarga bo‘linadi.

Lug‘aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so‘z o‘yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san’atida ulardan o‘rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi.

Masalan, Abdulhay Maxsum Navbahor payrovi bo‘yicha askiyada: «*Ikkovlaring ham o‘ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog‘ga kirib, daraxtlarni oglaymiz*», *desam*, «*Bizni ish kam joyga yetaklang*», *deysizlar*. Bu o‘rinda *ish kam* «uzum ko‘tarib taraladigan moslama» va «ish kam» ma’nolarini bildirish uchun qo‘llangan yoki G‘ulomjon Ro‘ziboyev

*cho ‘tir so‘zining tovush tomonining bir xilligidan foydalanib, ikki so‘z o‘rnida ishlataladi:*

*«Bir gap eshitib qoldim. Saydullaxon choyxonada nasiyaga muomala qilib, idoraga pul topshirmagan ekan, hisobchilar o‘zini o‘tgazib olib, «cho ‘turyapti» deb eshitdim.»* Bu o‘rinda *cho ‘tir so‘zi*: 1. Bujur. 2. Cho‘t ur ma’nolarida ishlataligan.

O‘zbek tilida leksik omonimlar ko‘p ishlatilganligi sababli, u maxsus she‘riy janr — tuyuqqa ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

**126-mashq.** Ashula payrovi bo‘yicha Erka qori aytgan quyidagi askiyadagi «galdir» so‘zining ma’nolarini aytin.

Erka qori: — Saydali, bu Rasuljonni shogirdlikka olgанингиздан keyin ahvoldidan ham xabardor bo‘lib turing-da. Kechagi kuni to‘yda yuz grammni otvolib, galdirab yuribdi.

**127-mashq.** Askiyani o‘qing, shakldosh so‘zlarni topib, ularni izohlang.

## ASKIYA

QODIRJON AKA: — Aminbuva, ho‘ anavi oshpazni ko‘rdingizmi, QOVOQ OSHga kerak deyapti.

AMINBUVA: — Mulla Qodirjon, avval meva-chevalardan olsangizchi, darrov OSH QOVOQSIZ bo‘lsin demasdan.

QODIRJON AKA: — Bo‘lmasa, yozgi mevalardan to‘yib yeb oling, QOVOQ OSHSIZ ketasiz.

AMINBUVA: — Ho, Ikromiddin, uka ho! Qodirjonning gaplarini eshityapsizmi? Ataylab shahardan kelib QOVOQ OSHSIZ ketmaylik deydiilar. OSHQOVOQDAN QOVOQ OSH qilib qo‘yaqoling.

QODIRJON AKA: — Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishi-rishingiz bitta OSh-ku, QOVOQ ham solasiz-a!

IKROMIDDIN: — Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz, bu sho‘r OSHQOVOQ-da.

AMINBUVA: — Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga OSH QOVOQDAN olinsa bo‘ldi.

QODIRJON AKA: — Aminbuva, ajoyib xushfe’l odamsiz-da, indamay olaverasiz: OSHGA QOVOQ SOLINMAYDI deb.

AMINBUVA: — Tirikligimda yeb olay, bir qozonni tushirsangiz-a, OSH QOVOQDAN ketadi deb.

IKROMIDDIN: — Qo‘yinglar, qovun sayliga kelgansizlar, bunaqa sovuq gapirmanglar. Qayoqdan ham tansiq ovqat qilaman dedim. Qodirjon aka, biroz u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tiringlar, boshqa ovqat qilaman! QOVOQSIZ!

**128-mashq.** Ma'lumki, shakldosh so'zlardan foydalanganda ham shakliy, ham mazmuniy go'zallik aks etadi. Shakldoshlik so'zning ma'no jilolarini namoyish qiluvchi lisoniy hodisalardandir. U nutqda ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. E'tibor bering.

Bunim yo'q, unim yo'q,  
Uyimda unim yo'q.  
Ishimda unum yo'q,  
Aytishga unim yo'q

(Kamiy)

Yuqoridagi tuyuqni tahlil qilib, shakldosh so'zlar (lug'aviy omonimlar)ning izohini yozing.

**129-mashq.** Ko'chiring. Lug'aviy omonimlarni toping, ma'nosini izohlang.

1. Kamina 80 yoshni qoralayapman, mustaqil davlat O'zbekistonning ardoqli farzandiman. 2. Men otam haqida roman qoralayapman. 3. Hammang o'z aravangni tort. 4. Odinaxon dasturxon ustiga tort tortdi. 5. 31- avgust sanasi hech qachon, hech kimning yodidan ko'tarilmaydi. 6. Keltirilgan mollarni birma-bir sana. 7. Yuzta nomarddan bitta mard yaxshidir. Yuz terisini toza saqlamoq uni har xil mikroblardan xoli qiladi.

Siz ham yuqoridagidek gaplar tuzib, mashqni davom ettiring.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Omonimlar (shakldoshlar) deganda nimani tushunasiz?
2. Omonimlarning qanday turlari bor?
3. Leksik omonimlar (shakldosh so'zlar)ning nutqda qanday ahamiyati bor?

### Tayanch tushunchalar

omonimlar, lug'aviy (leksik) omonimlar, shakldosh so'zlar, grammatik omonimlar.

## 10.2. SINONIMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda sinonimlar (ma'nodosh so'zlar va qo'shimchalar), ularning ishlatalishi haqida bilim hamda ko'nigmalar hosil qilish.

- R e j a:
- \* Sinonimlar haqida ma'lumot.
  - \* Sinonimlarning turlari va affiks sinonimlar.
  - \* Sinonimlar uyasi yoki qatori va dominanta.
  - \* Nutqda leksik sinonimlardan foydalanishning ahamiyati.



**1-topishriq.** Yemoq, iste'mol qilmoq, tanovul qilmoq so'zlari ishtirokida gap tuzing. Ularning umumiy va farqli tomonlarini ayting.

**2-topshiriq.** Qaramoq so'zining ma'nodoshlarini topib, ularni gap ichida keltiring. O'zaro umumiy va farqli tomonlarini tushuntiring

Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq* singari so'zlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi* — *tilshunos*, *dardchil* — *dardkash*, *o'rinsiz* — *beo'rin*, *hafsalal* — *hafsalal* kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.



**Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi.** O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

**So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi.** Lug'aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida *yuz* so'zidan chap tomondagи to'rtta so'zda (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*) ijobiy baho va uchtasida (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomonidan beshta so'zda (*bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *aftda* salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroqdir). Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi **dominanta** (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida **yuz** dominanta sanaladi.

Sinonimlar qatori a'zolaridan nutq jarayonida o'rinali foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Lug‘aviy sinonimlar nima?
2. Sinonimlar qatori (uya) deganda nimani tushunasiz?
3. Sinonimlar qatorida qanday so‘z dominanta bo‘ladi?

**130-mashq.** Matnni o‘qib, undan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni toping. Har bir sifatning yoniga uning sinonimlarini ham yozib boring.

Prezidentimiz aytganlaridek, «Amir Temur shaxsini idrok etish tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni ulug‘lash tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir».

Tarix — haqiqat mezoni, jarchisi. U alday olmaydi, aldanmaydi ham. Tarixiy jarayonlarni yoshlarmiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qilmoqda. Amir Temur ham haqli ravishda ota yurti Shahrisabzda qurdirgan Oqsaroy peshtoqiga «Qudratimizga shashubhangiz bo‘lsa, biz qurdirgan binolarga boqing», deb yozdirib qo‘yan edi. Bu buyuk sarkardalik, o‘z kuch-qudrati, mustaqilligiga ishonch, qat’iyat ramzi edi. Demak, Turonzamin yoshlari, ahli omma uchun ibratlari iboralar bu! «Tuzuklar»da o‘qiyimiz: «Dilda e’tiqod butun bo‘lsa, aslo naslimiz yo‘qolmagay, tilimiz unutilmagay, e’tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay...» Yo‘lboshchimiz jismonan baquvvat. Ma’naviyati yetuk bo‘lishiga alohida ahamiyat beradi. Bu borada bobomiz Amir Temurning olib borgan ma’naviy-ma’rifiy ishlari ibratlidir. Chunonchi, Sohibqiron oila, nikoh, millat tozaligiga va sofligiga katta e’tibor bergen.

**131-mashq.** Ishbilarmon so‘zining ma’nosini izohlang. Shu so‘z ichidan bir necha so‘zlar hosil qiling, atamalarning ostiga chizing.

ish, bil, armon, nom, in, on, omi, rom, nor, anor, ob, ishla, mol, bilim, shina...

Yuqoridagi o‘yinni siz ham davom ettiring.

**132-mashq.** Quyidagi ustunchalarni davom ettiring.

#### Sifat sinonimlar

Gavdali, jussali,  
barvasta, norg‘ul,  
barzangi

#### Fe'l sinonimlar

Gangimoq, dovdiramoq,  
esankiramoq, kalovlanmoq,  
talmovsiramoq

**133-mashq.** Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini topib, ular ishtirotida gaplar tuzib yozing.

ozod, rost, soqchi, mashaqqat, g‘amgin, tanti, ittifoq, ayovsiz, asil, va’dalashmoq, vaqt, dang‘illama, yorug‘, istamoq, ixlosmand.

**134-mashq.** Tilshunos olim A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlari-ning izohli lug‘ati»dan misollar o‘qing. Xotirangizda nechtasini eslab qoldingiz. Uni daftaringizga ko‘chirib yozing.

**135-mashq.** Uyga topshiriq. Shukur Qurbonning «Ay, ona til!» she’rini yozing va yod oling. So‘ngra she’rda ishlatilgan: *bandalari, on, xiyonat, kuchli, yarog’, aynimadi, hasadgo’y* kabi so‘zlarning sinonimik qatorlari ham yozing.

## AY, ONA TIL!

Seni xudo bergen menga, mening xalqimga,  
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas.

Seni xato baholagan — kulgi har kimga,  
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo‘lmay qolmas.

Senda Davlat maqomi ne, yaralganing on  
Xalq maqomin oglansan-ku, qutlug’, poyidor.  
Shuhratparast zotmidingki, har turfa nishon  
Ko‘kragingga ilib olsang qator va qator.

Balli! Hanuz xiyonatning yuzlari qora,  
Balli! Hanuz sadoqatdan gurkiraydi qalb  
Ohanglaring dunyodagi eng kuchli yarog‘,  
Shu yarog‘-la axir asrab-avaylanar xalq.

Chegaralar yo‘qdir senga, sarhadlar osha  
Sen tufayli aynimadi qancha bag‘irdosh.  
O‘zbekligim, ay, ona til, dilingda yashar,  
Til ostiga joylanganday qimmatbaho tosh.

Ne tong, asos — mohiyatni belgilar azal,  
Ne tong, eski yozuv o‘xshar ko‘hna ildizga.  
Novdalari yuraklarda, ruhda mukammal,  
Shox barglari, g‘unchalari yetgan yulduzga.

Senga faqat hasadgo‘ylar qilar yovqarash,  
Seni manfur bosqinchilar yoqtirmas faqat.  
Ay, ona til, o‘zing uchun o‘zing ham kurash,  
Ay, ona til, g‘animlarga aylama shafqat.

«Nun» ko‘zlarining kattaroq och, «dol»laring yoy qil,  
«Alif»laring o‘q qilib ot ular ko‘ksiga.  
Ma’nolarining namoyon et, yovlarni loy qil,  
Yetmish olam mo‘jizasini ko‘rsat ko‘zimga.

(*Sh. Qurbon*)

**136-mashq.** Matnni o'qing. Uning tarkibidagi lug'aviy sinonimlarni topib, ularni alohida ko'chirib yozing.

## USTOZLARNI HURMATLASH BAYONIDA

Har bir inson uchun o'z muallimini va ustozini e'zozlash, hurmat va ehtiromini ado qilish shartdir. Negaki, bu zotlar har qanday insonning ruhini tarbiyalaydi, ma'naviy boylik bilan to'ldiradi, har qanday ruhiy va maishiy kamchilik hamda illatlarni poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan xoli va ozod qiladi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u insoniyatni ilm bezagi bilan ziynatlaydi, ularga chiroyli va yoqimli fazilatlar bilan chiroy va oro beradi, tushuntirish bilan foydasiz narsalardan odamni xalos etadi, insonni haqiqiy komil inson darajasiga yetkazish bilan bilim xazinasini ularning qalblariga joylaydi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u sening insonlik haq-huquqlaring nimadan iborat ekanini tushuntirib beradi, yaramas, yomon ishlardan qaytaradi va eng yaxshi ishlar va fazilatlar sari yo'l ko'rsatadi. Ular sening yuksakliging va kamolga yetishingni o'ylashib, hamisha jon kuydirishadi, el ichida o'ylab, butun kuch va imkoniyatlaringni ishga solishadi.

Muallim va ustozning vaqtлari qimmatli ekanligini bilib, aytganlariga diqqat bilan qulq sol. Bordi-yu, biror narsani tushunmay qolsang, odob va muloyimlik bilan qayta so'rashing zarur. Muallim va ustozing nima so'rasalar kulib turib, odob va ikrom bilan chiroyli so'zlarni saralab javob ber. Ilm maskanidan tashqarida yoki ko'cha-ko'yda ularni ko'rib qolsang ta'zim bajo qil, qo'lingni ko'ksingga qo'yib salom ber.

*(Abduqodir Nuriy al-Barzanjiy)*

**137-mashq.** Matnni o'qing. Fe'llarni topib, uni sinonimlar bilan almashtirib ko'chiring.

## MOHI RAMAZON HALOLLIK OYI

Barcha-barchamizni hushyorlikka da'vat etuvchi Ramazon kirib keldi. Mag'firat oyi, tavba oyi, mehr-muruvvat oyi, ezgu niyatlar oyi, badniyatlardan parhezlanish oyi, yaratgan egamizdan qo'rqaqidan, hatto nafsi hakalak otib, halollik, vijdon, diyonat so'zlarini eshitganda istehzoli kuladiganlar ham o'zini o'zi savolga tutadigan oy:

Halol bilan haromning farqiga boryapmanmi?  
O'zganining haqiga xiyonat qilmayapmanmi?  
Kibr-u havoga berilmadimmi?  
Zulm o'tkazmayapmanmi?  
Urimni o'tkinchi hoy-u havaslarga sovurmayaapmanmi?

Jaholat va mutaassiblikka og‘madimmi?  
Mansabni suiste’mol qilmayapmanmi?  
Ma’naviy haq-huquqimni anglab yetayapmanmi?  
Savolning cheki yo‘q, binobarin, Ramazon — savollar oyi desak ham to‘g‘ri bo‘lar. O‘zgalar tergamasidan burun o‘zini o‘zi tergashga odatlanish ham imon belgisi. Ramazon, «Siz shunga qodirmisiz?» deya savolga tutmoqda har birimizni.

Bir nufuzli davraga haddan tashqari qimmatbaho yasan-tusan qilgan erkak-ayol kirib keldi: qaragan ham, qaramagan ham havaslandi. Bir ziyoli kishi: «Bu er-xotin shu qadar shohona kiyinishga o‘zlarini qanchalik ma’naviy haqli deb hisoblaydilar?» deya savol qotdi.

Hech kim javob bermadi, lekin savol ko‘pchilikni o‘ylantirib qo‘ydi. Ehtimol, o‘sha tobda har kim o‘zini o‘zi dabdabaga haqlimanmi?... Men shunday mavqeni egallab turishga haqlimanmi?... degan savolga javob izlar.

Kun bo‘yi non-choydan tiyilib yurish aytarli mashaqqat emas, bu Ro‘zaning eng jo‘n va zohiriylifodasi, xolos, lekin halollik gigiyenasi nuqtayi nazaridan o‘zini taftish etishga har kim ham qodir emas. Bunisi qiyin, Ro‘za esa — ushbu qiyinni osonlashtirish uchun berilgan imkoniyat.

Iloyo, bir-birovimizni halollik yili bilan, imon asri bilan muborakbod etaylik. Aziz yurtdoshlar! Ramazon oyida ana shunday qutlug‘ niyatlar bilan yashaylik!

*(Xurshid Do‘stmuhammad)*

**138-mashq.** She’rni nasriy bayon qiling. Ostiga chizilgan so‘zlarning sinonimini ham toping.

Ollohnning aytgani erur muqarrar,  
Xesh-u begonaga aylang barobar,  
Har neki buyursa pok Parvardigor  
Uni joriy qiling adashmay zinhor.

**139-mashq.** Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini topib, izohlang.

Guvoh, zaif, kuchli, tinch, epchil, qobiliyat, hissa.

### Tayanch tushunchalar

ma’nodosh so‘zlar, lug‘aviy (leksik) sinonimlar, affiks sinonimlar, sinonimlar qatori (uya), bosh so‘z (dominant).

---

## **11-DARS. ANTONIMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. TAKRORLASH**

### **11.1. ANTONIMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda zid ma’noli so‘zlar va qo‘srimchalar haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish. O‘tilganlarni takrorlash.

- R e j a:**
- \* Qarama-qarshi ma’noli so‘z va qo‘srimchalar haqida antonimlarning turlari.
  - \* Nutqda antonimlardan foydalanishning ahamiyati.
  - \* O‘tilganlarni takrorlash.

✓ **1-topshiriq.** Uzun so‘zining ziddini ayting va bu zid ma’noli so‘z asosida gap tuzing.

**2-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarning ziddoshlarini toping va ularni gap ichida keltiring: yaqin..., issiq..., shirin..., oq..., baland..., yaxshi...

Biz o‘zimizni qurshab turgan olamni sezgi a’zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o‘zaro o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilim faoliyatimiz zidlanishlarga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Shuning uchun zidlanishlarga bizning ajodolarimiz Abu Nasr Forobi, Jaloliddin Rumiy va boshqalar katta ahamiyat bergenlar, xususan, Jaloliddin Rumiying ta’kidlashlaricha, har qanday «ashyo»ning qimmati ziddi bilan ayon bo‘ladi, ziddi bo‘lmagan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurming oshkor bo‘lishi uchun qorong‘i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi... Odam ro‘parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir‘avnning, Ibrohim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo‘lishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Ana shunday zidlanishlar tilimizda ham o‘z ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning ziddi xayolimizga keladi. Masalan, oq — qora, uzun — qisqa (kalta), baland — past, dono — ahmoq; -li (suvli), -siz (suvsiz) va boshqalar.

! O‘zaro zid ma’noli so‘z va qo‘sishimchalarga antonimlar deyiladi. So‘z maqomidagi antonimlar lug‘aviy (leksik) antonimlar, qo‘sishimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi.

Nutqimizda lug‘aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta’sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma’noli so‘zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san’at hosil qilinadi. Bunday san’atga tazod san’ati deyiladi.

**140-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib ko‘chiring:

1. Sinonimlar.
2. Antonimlar.

Katta-kichik, taom-ovqat, yaxshi-yomon, qisqa-uzun, yuz-chehra, xafa-xursand, qorong‘i-yorug‘, botir-qo‘rqmas, keksa-mo‘ysafid, kambag‘al-bechora, urush-tinchlik, istamoq-qidirmoq, issiq-sovuq, halol-harom, tovush-ovoz, mehnatkash-ishchan, falak-osmon, tirik-o‘lik, kiyim-libos, kun-tun, pishiq-xom, bosh-kalla, halak-halok, so‘zjadi-gapirdi, xat-xabar.

**141-mashq.** Berilgan maqollarni ko‘chiring. Antonimlarning ostiga chizing.

1. Birlashgan daryo bo‘lur, tarqalgan irmoq bo‘lur.
2. Bolali uy — bozor, bolasiz uy — mozor.
3. Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur.
4. Do‘sit achitib gapirar, dushman — kuldirib.
5. Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l.
6. Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.
7. Kam gapirsang, ko‘p eshitasan.
8. Oyoq kiyiming tor bo‘lsa, dunyoning kengligidan ne foyda.
9. Erni er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham xotin.
10. Qo‘y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi.
11. Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer.
12. Aytar so‘zni ayt, aytmash so‘zdan qayt.

### Tayanch tushunchalar

antonimlar (ziddoshlari), lug‘aviy (leksik) antonimlar, affiks (qo‘sishimcha holatidagi) antonimlar, zidlash san’ati (tazod).

## 11.2. TAKRORLASH

«O‘zbekiston XXI asrda» yoki «Amir Temur dahosi» mavzularidan birida insho yozing. Yozgan inshoyingizda shakldosh, ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlardan foydalanishga harakat qiling. O‘tilgan mavzularni yodga olgan holda ishga ijodiy yondashing.

## **12-DARS. BARQAROR BIRIKMALAR**

### **12.1. BARQAROR BIRIKMALAR**

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda barqaror birikmalar haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish. Ularni nutqda iboralardan, maqol va matallardan, hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatish.

- R e j a:**
- \* Barqaror birikmalar haqida.
  - \* Barqaror birikmalarning turlari: frazeologizm, maqol, matal va hikmatli so‘zlar.

✓ **1-topishriq.** *Boshi osmonga yetdi va quvondi o‘rtasidagi umumiyy va farqli jihatlarni ayting*

**2-topshiriq.** Vatanni sevish haqida uchta maqol keltiring va ularning o‘ziga xos tomonlarini tushuntiring.

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamida qilib, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz.

Masalan, *Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib, og‘zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og‘zim ochilib qoldi* birikmasi so‘zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan.

*Og‘iz ochilib qolmoq* birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema *hayron bo‘lmoq* leksemasi ifodalagan ma’noga teng keladi. Yoki *yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz*, jumlasida *deydi xalqimiz* birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘lsa, undan oldingi so‘zlar so‘zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so‘zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir.

! **Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.**

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.

2. Ma’no butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini ta’minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi paremiologiya (lot. *parema* — barqaror, *logos* — ta’limot), barqaror birikmalar lug‘atini tuzish muammolarini o‘rganuvchi bo‘lim esa paremiografiya (lot. *parema* — barqaror, *grosfo* — yozmoq) sanaladi.

**142-mashq.** Quyida berilgan barqaror birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing. Birikmalar ma’nolarini izohlang.

Yerga ursa ko‘kka sachraydi, yaxshi ko‘rmoq, me’dasiga tegmoq, yuragi toza, tepe sochi tikka bo‘lmoq, ko‘nglida kiri yo‘q, og‘ziga tolqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, oq ko‘ngil, ko‘nglini yozdi, o‘takasi yorildi, tishini tishiga qo‘ymoq, ipidan ignasigacha, og‘zining tanobi qochadigan.

**143-mashq.** Quyidagi iboralarni yozing. Ular yordamida gaplar tuzing.

Ishtahasi karnay, qo‘ling dard ko‘rmasin, og‘zi ochilib qoldi, gullab qo‘ydi, ko‘kragini yerga bermoq, loy bo‘lmoq, misi chiqmoq, tuyog‘ini shiqillatmoq, aravani tortmoq, og‘zi qulog‘iga yetmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, boshi osmonga yetmoq, arpasini xom o‘rmoq, taqdirga tan bermoq, qulq solmoq, misi chiqdi.

**144-mashq.** Ixtiyoriy mavzuda matn tuzing. Unda iboralardan unumli foydalaning.

**145-mashq.** Ko‘chiring. Iboraarning ostiga chizing. Ma’nosi qaysi so‘zga to‘g‘ri kelishini ayting.

1. Unga yetib olganimda, vujudimni sevinch qoplagan, kutilmagan uchrashuvdan boshim osmonga yetgan edi. (*O’. Umarbekov*) 2. Issiqning va yog‘liq ovqatlarning damini kesish uchun hech kim piyoladan, choynakdan qo‘l uzmas edi. (*Oybek*) 3. Ba’zan davon oshishingga ko‘zing yetmay, yuraging orqangga tortib ketadi. 4. So‘nggi bir-ikki soat ichida yuz bergen bu ikki quvonchli hodisa Rahim Saidovning boshini aylantirib qo‘yan, kim bilandir ularning o‘rtoqlashgisi kelib qolgan edi. 5. Voy, qulog‘ingizga tanbur chertyapmanmi? Uzukni-da. Qarang, shunaqasi menqa juda yarashar ekan. (*O’. Umarbekov*) 6. Tansiq go‘yo bo‘g‘il-ganday uh tortdi. Shunday qarindoshlarni ko‘kka ko‘targan dadasidan xafa bo‘ldi u. (*Oybek*) 7. Zokir o‘z bo‘yniga olgan tashvishining naqadar qiyinligini endi sezdi. (*P. Qodirov*) 8. Ammo Egamberdi mashinaning

quli. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham so‘z bermay qo‘yadi u. (*Oybek*) 9. Bu yodda Jamol Bo‘riboyevday og‘aynilari bo‘lgan, yulduzni benarvon uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak. (*O. Yoqubov*) 10. Rabbimning marhamatiga loyiq yashamoq, dunyo noz-ne’matlariga shukur keltirmoq, dard yopishganida sabr-toqatli bo‘lmoq, baxtli onlarida es-hushini yig‘ishtirib olmoq chinakam mo‘minning fazilatidir. (*Gazetadan*)

**146-mashq.** Keltirilgan frazeologizmlarga antonimik juft bo‘ladigan til birliklari tanlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yerga urmoq, ichi qora, qo‘li egri, pixini yorgan, sirkasi suv ko‘tarmaydigan, qildan qiyiq topmoq, terisiga sig‘may ketdi, yer bilan yakson qilmoq, ipidan ignasigacha.

**147-mashq.** Badiiy asarlardan frazeologizmlarga misollar topib yozing, ularni izohlang.

**148-mashq.** To‘rtliklarni o‘qing. Iboralarni topib, uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

1. Bilaman, ta’rifing so‘zga sig‘maydi,  
Go‘zallik haqida gap sotmoq bekor.  
Dildagi husndan andoza olgan —  
Go‘zalliging qalbni etadi takror.
2. Yurak og‘rir, sezdirmaydi til,  
Jism mag‘rur, bo‘zlaydi ko‘ngil  
Bu keng dilga sig‘olmaydi qil  
Men kutgan kun, sen kelmagan kun.
3. Bir kun ko‘zlarimdan qochdi uyqular,  
Bir kun yuragini ochdi tuyg‘ular...  
Men seni esladim entikib, yonib,  
Men seni izladim baridan tonib.  
Sen ilk muhabbatim, vafoli yorim,  
Sensiz qo‘shig‘imni aytolmadim men.
4. Yangi tong, do‘stginam, boshlanmay turib  
Ushbu tun bag‘riga birpas tut qulqoq.  
Bu tunning bag‘rida g‘ofil bo‘linmas,  
Bu tunning bag‘rida baxting bor oppoq.

(*Nazira as-Salom*)

## 12.2. BARQAROR BIRIKMALAR TASNIFI

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Frazeologizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so‘zlar ma’no jihatdan uyg‘unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko‘pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Masalan, *qulog‘i ding bo‘lmoq — hushyor bo‘lmoq, qovog‘i osilmoq — xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi qochdi — quvonmoq* kabi.

**Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar !  
• ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.**

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so‘zlar frazeologizmnинг faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetdi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

**149-mashq.** Quyida berilgan frazeologizmlarning har biri ishtirokida alohida-alohida gap tuzing. Ularning gap mazmunini yuzaga chiqarishdagi o‘rnini belgilang.

Hafsalasi pir bo‘lmoq, ko‘zi ochilmoq, qulog‘i tom bitmoq, o‘pkasini cho‘pga ilgan, oyog‘ini qo‘lga olmoq, boshi osmonga yetmoq, ko‘zi uchib turgani yo‘q.

Quyida berilgan gaplardagi frazeologik birikmalarni topib, ma’nosini sharhlang.

1. Arava bo‘lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi.
2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... (*S. Abdulla*)
3. Ishqilib baraka topsin, shu doktorlar boshing yostiqqa tekkanda joningga aro kirishadi.

4. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi.
  5. Qizlar har zamonda ishdan bosh ko‘tarib, bir-biriga gap otishadi.
- (*S. Ahmad*)
6. Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keldi. (*S. Azimov*)
  7. ...Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz.
  8. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. (*Asqad Muxtor*)
  9. Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi.
  10. ...Uning ko‘zları qinidan chiqayozdi. (*Oybek*)

**150-mashq.** Matnni o‘qing, Sh. Rahmatullayevning o‘zbek lug‘at-shunosligini boyitish yo‘lidagi xizmatlarini belgilang.

### SHAVKAT UBAYDULLAYEVICH RAHMATULLAYEV (1926)

Filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullayev o‘zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, morfologiyaning rivoji uchun katta hissa qo‘sghan olimdir. Ayniqsa, o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishida uning xizmati katta. Shuningdek, o‘zbek tilining izohli, etimologik, imlo lug‘atlarini tuzishda barakali mehnat qilib kelmoqda. Ular orasida «O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati» (1964), «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» (1978), «O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» (1980), «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» (1984), «O‘zbek tilining qisqacha etimologik lug‘ati» (2000) kabi asarlari alohida ajralib turadi.

**151-mashq.** Frazeologik iboralarning sinonimlarini toping, ular ishtirokida gap tuzing.

1. Boshi ko‘kka yetmoq.
2. Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq.
3. Ichini mushuk tirnamoq.
4. Ko‘zini bo‘yamoq.
5. Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq.
6. Tepa sochi tikka bo‘lmoq.
7. Tomdan tarasha tushganday.
8. Xamirdan qil sug‘urmoq.
9. Tarvuzi qo‘lidan tushmoq.
10. Ikki oyog‘ini tirab turmoq.

**152-mashq.** Matnni o‘qing. «Tulki qiziga to‘y berdi» iborasini izohlang. Yana shu kabi qanday iboralarni bilasiz? Ularni ham izohlashga harakat qiling.

Qor laylaklab-laylaklab yog‘di. Qor yerga tushib-tushmay yog‘di.

Laylakqor taqqa tindi. Yerda qor tugul, nam-da bo‘lmadi. Qor havosida bo‘lmadi. O‘ynab qo‘yay, bundayin havoni oti nima bo‘ldi? Qor yog‘madi, deyin, dedim — havoda laylaklab qor o‘ynadi. Laylaklab qor yog‘di, deyin, dedim — yerda qordan nishona bo‘lmadi. Dehqon bunday havoni:

— Tulki qiziga to‘y berdi, — deydi.

Kechasi yig‘ilishda raisimiz kundalik yaganani so‘radi. Yo‘l-yo‘riqlar berdi.

Shunda raisimiz oldida turgan telefon jiringladi.

Raisimiz telefonda salom-alik qilgan bo‘ldi.

Gap-so‘zidan bildim — raisimiz ideologiya bilan gapirishdi. Ob-havoni gapirishdi. Chaynab-chaynab gapirishdi.

Raisimiz sharaqlatib telefon dastasini tashladi. Derazaga qarab, lab burdi.

— Tavba, — dedi, — ajab vakilamiz bor-da! «Kolxozlaringda qor yog‘gan emish, g‘o‘za nima bo‘ldi?» deydi.

— Qor yog‘gan, tulki qiziga to‘y berdi, desam, «Tulkiyam to‘y qiladimi?» deydi...

(*Tog‘ay Murod. «Otamdan qolgan dalalar»*)

---

## **13-DARS. MAQOL VA MATALLAR**

### **13.1. MAQOLLAR**

! Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi.

Masalan, *Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to‘nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi.

So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdir qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

**153-mashq.** Quyida berilgan maqollar va matallarning ma’nosini sharhlang.

1. Do‘sting bo‘lsa bog‘ing chamandir,  
Do‘sting bo‘magani — fe‘ling yomondir.
2. Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan.
3. To‘g‘ri o‘zadi, egri to‘zadi.
4. Saxiy bilan baxil bir buloqdan suv ichmas.
5. Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda.
6. Er yigitning quvvati — el quvvati.
7. Ayolning sarishtasi — odamning farishtasi.
8. To‘g‘ri yurdim yetdim murodga,  
Egri yurdim qoldim uyatga.
9. Ko‘ngli qoraning yuzi qora.
10. Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.

**154-mashq.** Matnni ko‘chiring. Maqollarning ma’nolarini izohlang.

Telbaga tilmoch kerak emas,  
Telbaning terisi qalin.

Tikan bo‘lib oyoqqa sochilguncha,  
Gul bo‘lib ko‘krakka sanchil.

Toza ko‘zaning suvi toza.

Gado arazlasa, to‘rvasiga ziyon.

Ahmoqning aqli to‘pig‘ida.

O‘yla, izla, top o‘yini!

**155-mashq.** Matnni o‘qing. Maqollarni mazmuniga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratib ko‘chiring:

1. Vatan va vatanparvarlik haqida.
2. Do‘stlik haqida.
3. Mehnat va mehnatsevarlik haqida.
4. Kamtarlik va manmanlik haqida.

Maqollarning har qaysisini izohlang.

O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha,  
O‘z yurtingda gado bo‘l.

Bekorchining beti yo‘q,  
Qozon osar eti yo‘q.

Beli og‘rimaganning non yeishini ko‘r.

Bir yil tut ekkan kishi  
Qirq yil gavhar terar.

Bodom po‘sti bilan  
Odam do‘sti bilan.  
Bir tariqdan bo‘tqa bo‘lmash.

Arg‘amchiga qil quvvat.

Buzoqning yugurgani somonxonagacha.

Ishni asbob qiladi,  
Egasi lof uradi.

Kamtar bo‘lsang osh ko‘p,  
Manman bo‘lsang, tosh ko‘p

Mevali daraxtning shoxi egik.

**156-mashq.** O'zingiz donolik, manmanlik, ochko'zlik, do'stlik, mehnatsevarlik, dangasalik kabi mavzularga oid o'nta maqol topib yozing, ma'nosini izohlang.

**157-mashq.** O'zbek maqollarining izohli lug'atidan bir necha maqollarni izohi bilan o'qing, ayrimlarini yozing. So'ngra ularni izohlang.

N a m u n a : Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi.

Bu maqolni to'g'ridan to'g'ri shu ma'noda ham, majozan «Ozgina, kichkina kamchilikni, xavf-xatarni nazar-pisand qilmay yurma, shundan senga katta ziyon-zaxmat yetishi mumkin, ehtiyoj bo'l», degan ma'noda ham qo'llaydilar.

«Yolg'iz baloga indamasang ko'payadi» degan maqol ham borki, u keyingi aytilgan ma'noda ishlataladi.

**158-mashq.** «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Xotin-qizlar ensiklopediyasi» haqida nimalar bilasiz?

**159-mashq.** Berilgan gaplardan zamонавиқ qatlамга oid frazeologizmni topping va ularning semantik hamda uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.

1. G'ilay kelib hiqildog'idan olganda o't bilan o'yashayotganini fahmladi.

2. Bu omi banda islom farzandi uchun bunday qasam ichmoq durust emasligini bilsa edi, tiliga ehtiyoj bo'lmasmidtি?

3. Kecha kavushingni sudrab, poyezdga osilib kelib, bugun taxtga o'tirmoqchimisan?

4. Katta ketuvchi «qozi» xo'jayinning fe'li aynib turganini fahmlab, bunday kezlarda chorakta gap ham ortiqchaligini bilgani uchun lom-mim demay, barcha ehtiromini ta'zim orqali izhor eta oldi.

5. Ajablanarli yeri shundaki, tor ko'ngil daladan panoh izlamoqda edi.

6. O'zini qudrat bobida ikkinchi o'ringa qo'yuvchi Kesakpolvon esa cholni shaharga olib kelishiga, do'stining shu chol qo'lidan shifo topishiga, shu tufayli «Asadbek — Chuvrindi» bitimining kulini ko'kka sovurishiga amin edi.

7. Abdurahmon tabib unga biroz tikilib turgach, tilga kirdi.

8. Tuzatsangiz, og'zingizga siqqancha so'raysiz, bir tiyin kam bergan — nomard!

9. O'zim ahmoqman, deb o'yladi Kesakpolvon, yigitlarni yuborsam-ku, yumaloq-yostiq qilib bo'lsa ham yetkazishardi.

10. Chol musulmonsheva ko'rinsa-da, ba'zan o'zini tuta olmay qolardi.

(T. Malik)

**160-mashq.** «Xotin-qizlar ensiklopediyasi»dan olingan she’riy parchalarni o‘qing, undagi eskirgan so‘zlarni alohida belgilang, ularning hozirda qo‘llanilishini tushuntiring.

1. Onalar oyog‘i ostidadir  
Ravzayi jannat-u jinon bog‘i,  
Ravza bog‘i visoli istar ersang,  
Bo‘l onaning oyog‘in tuprog‘i.
2. Yuz tuman nopol erdin yaxshiroq,  
Pok xotunlar oyog‘ining izi.
3. Boshni fido qilg‘il ano qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ato boshig‘a.
4. Tun-kuningga aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.
5. Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi,  
Sharaf toji erur oyog‘in gardi.
6. Tozalikda sarvdan qolishmaydi gul,  
Ammo vafo bobida sobit emas ul.
7. Yaxshi xotinlar safoyi zuhdidin  
Olam ichra gar yorug‘lik bo‘lsa fosh,  
Yo‘q ajab, chunkim arab alfozida  
Istiloh ichra muannasdur quyosh.

### 13.2. MATALLAR

! Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallar hisoblanadi.

Masalan,

Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.

Qimirlagan qir oshar.

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

**161-mashq.** Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning «Hikmat-noma» («O'zbek maqollarining izohli lug'ati») kitobidan olingan quyidagi izohni o'qing. Siz ham matallarga misollar keltirib, ularning variantlarini topib izohlang.

### AVVAL O'YLA, KEYIN SO'YLA

Jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlarda so'zlashish odobiga qat'iy rrioya qilishlari zarurligi ta'kidlanadi. Kishi aytadigan har bir so'zi (gapi)ni avval o'ylab olishi, so'ngra so'zlashi lozim. O'ylamay aytilgan so'z kishini ko'pchilik oldida uyalib qolishiga, hatto fojeiy ahvolga tushishiga sabab bo'lishi mumkin. «So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha, tilga kelturma va har nekim ko'ngilda bor tilga surma». (A. Navoiy) Variantlari: «O'ylamaguncha so'ylama», «Ko'p o'yla, oz so'yla», «O'n qatim o'yla, bir qatim so'yla», «Dilda pishir, tilda gapir», «O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir», «Tez so'zlagan tez pushmon bo'lar» va hokazo.

**162-mashq.** Dunyo xalqlarining tillaridan olingan maqollar va matallarni o'qing. Ularning o'zbek tilidagi muqobil variantlarini topib, izohlang.

**163-mashq.** Gaplarni o'qing. Ularda ilgari surilgan g'oya haqida fikr yuriting. Matallarni belgilang.

Aql aqldan quvvat oladi. Ahmoqning aqli — to'pig'ida. Davlat bitar, bilim tugamas. Go'zallik — ilm-u ma'rifatda. Tirmashgan tog'dan oshar. Yurti boyning o'zi boy. Eldan ayrilguncha, jondan ayrıl. Ari zahrini chekmagan bol qadrini bilmas. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. Yigit husni mehnatda. Kiyimning yangisi yaxshi, do'stning — eskisi. Dono bilan nodon bitta buloqdan suv ichmas. Teran daryo tinch oqar. Ilm — tubsiz quduq. Yolg'onning umri qisqa. Do'stlik — barcha boylikdan afzal... Sabr tog'ni yiqitar. Marddan ot qolur, nomardan — dod. Hunar oshatar, mehnat yashnatar. Ko'klam — mehnat bilan ko'rakam. Kumushdek ter to'ksang, gavhardekk dur olasan.

---

## 14-DARS. HIKMATLI SO‘ZLAR (AFORIZMLAR). TAKRORLASH

### 14.1. HIKMATLI SO‘ZLAR (AFORIZMLAR)

! Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so‘zlar (aforizmlar) deyiladi.

Masalan,

Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.  
(A. Navoiy)

Hikmatli so‘zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya’ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko‘ra boshqa barqaror birlıklar bilan umumiylilik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi.

Hikmatli so‘zlarni o‘rganib, xotirada saqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay bilish kishining so‘z san’attkori, donishmand bo‘lishini ta’minlaydi.

Rebusni yeching. Tushirib qoldirilgan harflarni yozish natijasida hosil bo‘ladigan hikmatli so‘zni toping.

	D		H		N	I		O	
		R	T	Q	D	R	T		I
B		L	R	,	U	D	A	T	
Y	R	N		N	G		E	Q	I
B		Y		O‘	U	R	.		

Javobi:

Dehqoni boy yurt qudratli bo‘lur, qudratli yurtning dehqoni boy bo‘lur. (I. Karimov)

**164-mashq.** Alisher Navoiyning qanday hikmatli so‘zlarini bilasiz? Ulardan o‘ntasini ko‘chirib yozing. Ma’nosini sharhlab bering.

## VATANGA OID HIKMATLI SO‘ZLAR

1. Vatan — onaning ko‘ksidan boshlanadi.
2. Vatan tuyg‘usining manzillari beshikdan qabrgachadir.
3. Vatanni sevish hissi — bu shunchaki tug‘ma mayl emas, u sarbaland va muqaddas tuyg‘udir.
4. Vatan tuprog‘i oyoqdan emas, balki qadoq bog‘lagan qo‘llardan bo‘sса olgisi keladi.
5. Belingiz Vatan yukidan bukchaysin.
6. Vatan yuki zalvorli bo‘lsa-da, maloli yo‘q.
7. Quyoshga juftlik yarashmaganidek, Vatanni ham sherigi yo‘q.
8. Vatan sadaqaga berilmagan, uni bizga taqdir ato etgan.
9. Vatan — eng katta taqdir.
10. Sen Vatanni madh etgan minbar — mehrobdir.
11. Imon — vijdonning qiblesi. Vatan ham bamisoli qiblagohdir.
12. Vatan nechog‘liq ulkan bo‘lmasin, u qalbga ham, ko‘z qorachi-  
g‘iga ham jo bo‘la oladi.
13. Vatan ishq oshiq sevgisidek qalbning tub-tubidan joy olgan bo‘ladi.
14. Vatan xokini to‘tiyoga aylantirish uchun alkemyogar bo‘lish shart  
emas.
15. Vatanfurush o‘z oltin beshigini pullaydi.
16. Vatan tuyg‘usi ustuvor yurtda vatanfurushning bozori kasoddir.

(Murod Xidir)

Yuqoridagi fikrlarni yozing va mag‘zini chaqing. Siz ham Vatan haqidagi hikmatli fikrlarni davom ettiring. Ot so‘z turkumining ishlatalishiga e’tibor bering.

## 165-mashq. Ilm haqidagi hikmatlarni yod oling.

1. Ilmsiz inson — mevasiz daraxt.
2. Nodonga ilm o‘rgatmoq umrni zoye o‘tkazmoqdir.
3. Ilm bir xazina bo‘lsa, bu xazinaning kaliti savoddir.
4. Ilm kelinchakka o‘xshaydi, u hikmat va pinhonlikni yoqtiradi.
5. Ilm — inson ziynati.
6. Qog‘ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi.
7. Kimki ilm bilan aqlini oshirishga urinsa, mol-u davlat o‘zi kelaveradi.
8. Ilm bo‘lmasa odamning hayvondan farqi bo‘lmas edi.
9. Molni ishlatganing sari ozayadi, ilm esa ko‘payadi.
10. Har kimki erur ulamo mohir, Bo‘lg‘ay anga so‘zning husni zohir.

(Shavqiy Kattaqo ‘rg‘oniy)

**166-mashq.** Quyidagi hikmatlarni o‘qing va ularga izoh bering. Ularda ilgari surilgan g‘oyalar haqida fikr yuriting.

Tilimizning tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor.

(M. Shayxzoda)

\* \* \*

Til uslub uchun shaxmat taxtasidagi shohdir.

(K. Fedin)

\* \* \*

Kitobxonga bir fikrni anglatish uchun yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan ochiq, ravon va sodda til kerak.

(A. Qahhor)

\* \* \*

O‘zbek tili xazinasidagi so‘zlar shu qadar ko‘p va jilovkorki, bu tilda hech qiynalmasdan go‘zal asarlar: she’rlar, qissa va hikoyalar bitish mumkin.

(N. Tixonov)

**167-mashq.** Amir Temur tomonidan aytilan o‘gitlarni daftaringizga yozib oling va ular haqida bahs tashkil qiling.

Ulamolar suhbatida bo‘l, pok, sof niyatli kishilarga talpin. Kechira olishlik mardlik, kechira bilmaslik nomardlik. Ahli ehson bilan jahon gulshani obod bo‘lar. Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritadi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Dushmanning kulgani — siringni bilgani. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. Kuch — adolatdadir.

**168-mashq.** Hadislarni o‘qing. Ularning hayotimizga naqadar to‘g‘ri kelishi haqida fikr yuriting. O‘zingiz ham hadislarga namunalar aytинг va daftaringizga yozing.

Kasbning eng yaxshisi kishining o‘z qo‘li bilan bajarilgan ishi va halol savodi. Sadaqaning afzali musulmon kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa musulmon birodarlariga ham o‘rgatishi. Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda tunaydi. Ilmni yozib qo‘yish bilan bog‘lab olinglar. Ilm ibodatdan afzal. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. Kimki shoshmay, sabr-qanoat bilan ish qilsa, qilgan ishi to‘g‘ri chiqadi. Saxiy kishining taomi shifodir. Odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi.

**169-mashq.** Matnni o‘qing va undan o‘zingizga tegishli xulosa chiqarib oling. Aflatunning o‘z shogirdi Arastuga qilgan nasihatlari.

Hamisha ilm payida bo‘lib, qalbing ham, ko‘zing ham doimo bedor bo‘lsin. Uyqu va oromni o‘ylab bugungi ishni ertaga qoldirma. Badbaxt shunday kishiki, ishining oqibatini o‘ylamaydi, gunoh ishlardan o‘zini tiymaydi. Barchani birdek sev, biror kishi baloga duchor bo‘lsa, unga ko‘mak qo‘lini cho‘z. Har kimning gapini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilmay turib, tekshirmay turib, hukm chiqarma. Qaysi ishda bo‘lmasin, sustkashlik qilma. Yaxshilik qilishda chegara bor deb o‘ylama. Hakimlar hikmatini yod ol. Mol-dunyo hirsini ko‘nglingdan quv. Yoqimli odoblardan ko‘z yumma. Tuban ishlarga qo‘l urma. Hamma bilan gaplashganda ham kamtarlikni qo‘ldan berma. Birovni xor sanama, hamisha adolatni o‘zingga shior qil!

### **?** Savol va topshiriqlar

1. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?
2. Barqaror birikmaning qanday turlari mavjud?
3. Frazeologizm nima?
4. Maqol va matal deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday birikmalar hikmatli so‘zlar (aforizmlar) sanaladi?

### Tayanch tushunchalar

barqaror birikmalar, iboralar, frazeologizmlar, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar (aforizmlar), paremalar, paremiologiya.

## 14.2. TAKRORLASH

«Mening qishlog‘im (yoki shahrim)» mavzusida insho yozing. Unda maqol, matal, hikmatli so‘z va iboralardan o‘rinli foydalanishga harakat qiling.

---

## **15-DARS. O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI (LUG'ATSHUNOSLIGI). ENSIKLOPEDIK (QOMUSIY) LUG'ATLAR VA ULARDAN FOYDALANISH**

### **15.1. O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI (LUG'ATSHUNOSLIGI)**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda lug'at va ularning turlari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, ularni lug'atlardan to'g'ri foydalinishga o'rgatash.

- R e j a:**
- \* Leksikografiya haqida ma'lumot.
  - \* Lug'at va uning tiplari.
  - \* Ensiklopedik lug'atlar.
  - \* Filologik lug'atlar.

✓ **Topshiriq.** «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» bilan «O'zbek tilining izohli lug'ati» kitoblarini bir-biriga solishtirib, ular o'rtasida qanday farq borligini ayting.

! **Leksikografiya lot.** *lexikos* — so'z, *grapho* — chizmoq, yozmoq so'zlaridan olingan bo'lib, lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va usullaridir.

Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarining ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o'z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

! **Avvalo,** lug'atlar ikki turli bo'ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar; 2) filologik (lingvistik) lug'atlar.

Bu ikki turdag'i lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.



## Savol va topshiriqlar

1. Leksikografiya nima va u nimalar haqida bahs yuritadi?
2. Lug‘at deganda nimani tushunasiz va u qanday turlarga bo‘linadi?
3. Ensiklopedik lug‘at bilan filologik lug‘atlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. «Istiqlol» lug‘at birligini ensiklopedik va filologik jihatdan izohlang.
5. Izohli va tarjima lug‘atlarning farqini ayting.
6. Qanday izohli lug‘atlarni bilasiz?

**170-mashq.** Ushbu izoh qanday lug‘atdan olingan? U nima deb ataladi va muallifi kim?

Mag‘zini chaqmoq: kim, nimaning? Ma’nosini tag-tubigacha o‘rganib yetmoq, anglab yetmoq. «Yer sotgan er bo‘lmaydi, er yer sotmaydi. Mana bu gapning mag‘zini chaq». (*Oybek. «Qutlug‘ qon»*)

**171-mashq.** «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (Moskva, «Русский язык» nashriyoti, 1981-yil, 2-jild)dan *ona, diyor, yurt, maskan, o‘yla so‘zlariga berilgan izohlarni o‘qing va ular haqida bahs yuriting.*

N a m u n a:

Vatan [a] 1. Kishi tug‘ilib o‘sgan va uning fuqarosi hisoblangan mamlakat, ona yurt: Ona-Vatan, Ulug‘ Vatan.

2. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i, yurt, diyor: Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.

3. Turar joy, boshpana, maskan, uy: o‘ziga vatan qurmoq.

**172-mashq.** Matnni o‘qing. Tarixda yaratilgan yana qanday lug‘atlarni bilasiz. Shu haqda so‘zlab bering.

Atoqli tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk» asari turkiy xalqlarning ilk lug‘ati sanaladi.

Muallif uni 1072-yilda yoza boshlagan va 1074-yilda yozib tugatgan. Bunga qadar u bir necha o‘n yillar davomida Chin (Xitoy)dan tortib to Rum (Vizantiya)ga qadar bo‘lgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma-bir o‘rganib chiqqan. Bu haqda uning o‘zi shunday deb yozadi:

— Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim. Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim.

Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim.

Devon ikki qismdan iborat: «Muqaddima» va «Lug'at».

Undan mehnat va marosim qo'shiqlari, o'gitnomalar, munozara shaklidagi to'rtliklar, Alp Er To'nga (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy yodgorliklar o'rinni olgan.

«Devon-u lug'otit turk» bitmas-tuganmas ilm manbayidir.

## 15.2. ENSIKLOPEDIK (QOMUSIY) LUG'ATLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o'z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug'atlar ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o'z izohini topadi.

Qomusiy lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun 14 jildli O'zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 akademik, 13 akademianing muxbir a'zosi, 88 fan doktori, professor, 539 fan nomzodi va boshqa ko'plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mayjud. Mazkur jild ustida 1965—1971-yillarda mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971—1980-yillarda oralig'ida O'zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O'sha davr uchun bu juda katta voqeа edi, lekin ushbu qomusiy lug'atdagi ko'plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishslash, mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan yoritish lozim bo'lib qoldi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ni yaratish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida 2000—2006-yillarda 12 jildli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» yaratildi.

Toshkent shahrida ensiklopedik lug'atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan alohida muassasa — «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko'rsatmoqda.

**173-mashq.** «U kim? Bu nima?» («Bolalar ensiklopediyasi», 1987—1988-yillarda, 3 jildli) kitobidan olingan quyidagi matnni o'qing. So'ng istagan harfingizni o'chib, o'zingizga ma'qul bo'lgan so'zning izohini daftaringizga ko'chirib oling, izohlang.

Kitobdagagi barcha maqolalar alfavit tartibida joylashgan. Birinchi kitob A—Y harflari bilan, ikkinchi kitob K—R harflari bilan, uchinchini kitob S—H harflari bilan boshlanadigan maqolalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, sizni «Buxoro» maqolasini qiziqtiradi. 1-jildning 99-betidagi B harfi mundarijasiga qarang. U yerda kitobdagagi B harfi bilan boshlanadigan hamma maqolalar ko‘rsatib qo‘yilgan. «Buxoro»ni topdingizmi? Kitobning qaysi betida shu haqda hikoya qilingan? 150-betida. Mana, maqolaning o‘zi. Unda Ko‘hna Buxoro haqida, uning tarixi, ajoyib yodgorliklari to‘g‘risida hikoya qilinadi. Shu jilddan jiyda, zilzila, Ibn Sino, yo‘lbars kabi boshqa maqolalarni ham topishingiz mumkin.

**174-mashq.** «Salomatlik» ensiklopediyasidan afoniya (30-bet), nutq (296-bet), oliv nerv faoliyati (314-bet) so‘zlariga berilgan izohlarni o‘qing. Ular haqida fikr yuriting.

N a m u n a:

Afoniya (yunoncha **a** — inkor qo‘sishimcha va **phoni** — ovoz) — shivirlab gapistish qobiliyati saqlangan holda ovoz chiqmay qolishi. A. turli kasalliklar: hiqildoq, nerv sistemasi, shuningdek, organizmning umumiy kasalliklari belgisi bo‘lishi mumkin. Chin, paralitik, funksional va spastik A. farq qilinadi.

Ovoz boyqlamalarining yetarli yumilmasligi va tebranmasligi bilan bog‘liq kasalliklarida (yallig‘lanish, rak va h.k.) chin A. ro‘y beradi. Hiqildoq nervi faoliyatining bir tomonlama buzilishi, nerv kasalliklari paralitik A. ga sababchi bo‘lishi mumkin.

Odatda, miya yarimsharlarida ovoz boyqlamalini harakatlantiruvchi nerv mexanizmlarining vaqtincha tormozlanishi, ruhiy iztirob, qo‘rqish va B. natijasida funksional A. yuzaga keladi.

Halgum va hiqildoq shilliq qavatiga o‘yuvchi kimyoviy moddalarining ta’sir etishi spastik A.ga sabab bo‘ladi (30-bet).

**175-mashq.** «Uy-ro‘zg‘or ensiklopediya»sidan ism qo‘yish (206—208-betlar), kutubxona (248—249-betlar), elektr asbob (500-bet) so‘zlarini namunadagidek ko‘chirib yozing. Bu haqda fikr yuriting.

N a m u n a:

Dessert — dasturxonga issiq ovqatdan so‘ng tortiladigan shirin taomlar (kisel, kompot, krem va boshqalar), ho‘l mevalar, konditer mahsulotlari. Dessert uchun maxsus idishlardan foydalaniлади (dessert likop, dessert qoshiq, pichoq va shu kabilar) (167-bet).

---

## **16-DARS. FILOLOGIK LUG‘ATLAR VA ULARNING TIPLARI**

Filologik lug‘atlar ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruqlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug‘atlarning o‘zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug‘atlariga bo‘linadi.

! **Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar izohli lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar esa tarjima lug‘at sanaladi.**

1981-yili Moskvadagi «Русский язык» nashriyoti nashr qilingan 2 jiddli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», 2006—2008-yillarda «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so‘z hamda so‘z birikmasini o‘z ichiga olgan 5 jiddli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», 2001-yili Toshkentdag‘i «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati» yoki o‘zbekcha—ruscha, inglizcha—ruscha—o‘zbekcha lug‘atlar bunga misol bo‘la oladi.

! **Izohli lug‘atlar so‘zlikning tanlanishiga ko‘ra umumiyligi va tarmoq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar umumiyligi izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar tarmoq lug‘at hisoblanadi. (Masalan, kasb-hunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar.)**

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta madaniy va ma’naviy boyligi sanaladi.

**176-mashq.** Quyidagi berilgan izohli lug‘atlarning nomini va nashr ma’lumotlarini daftaringizga yozib oling. Ularni topib, mazkur lug‘atlar bilan ishslashni o‘rganing.

«Navoiy asarlari lug‘ati» — Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972, 784 bet.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» — Moskva, «Русский язык» nashriyoti, 1981, 1-jild—632 bet; 2-jild—715 bet.

«Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» — Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1983, 1-jild — 656 bet; 1983, 2-jild — 644 bet; 1984, 3-jild — 622 bet; 1984, 4-jild — 634 bet.

«Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati» — Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1998, 318 bet.

«O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati» — Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2001.

**177-mashq.** «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati» (Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1998 yil, 318 bet)dan olingan.

Alternativa (13-bet), birja (22—23-betlar), investitsiya (68—69-betlar), mafkura (106—107-betlar), ombudsman (179—180-betlar), xalqaro tillar (231—232-betlar) kabi atamalardan biriga berilgan izohni daftaringizga ko‘chirib yozing va shu haqda fikr yuriting.

**178-mashq.** «O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati» (Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2001)dan vatan, yurt, o‘lka, diyor, maskan so‘zlariga berilgan izohlarni o‘qing, so‘ng ular haqida babs uyshtiring.

**179-mashq.** «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati»dan olingan quyidagi parchani o‘qing.

Davlat tuzilishi va uning shakllari. Davlat o‘z tuzilishi jihatidan uch turda: federativ, konfederativ va unitar tarzda bo‘lishi mumkin. Bunday holat davlatning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi, qismlarning markaziy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek, har bir hududiy qismning huquqiy mavqeysi turlicha mohiyat kasb etishidan kelib chiqadi.

Unitar (yaxlit) davlatlar, federatsiyadan farqli o‘laroq, viloyat, o‘lka, tuman, guberna, grafliklar singari ma’muriy-hududiy qismlardan tashkil topgan tuzumdir.

Federativ (murakkab) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qismlardan tuzilgan bo‘ladi. (Masalan, AQSHda shtatlar, GFRda hududiy yer birliklari federatsiyaning tarkibiy qismlaridir).

Konfederatsiya davlat tuzilishining shunday bir shakliki, unga ko‘ra konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar o‘z mustaqilliklarini to‘la saqlab qolgan holda muayyan bir maqsad (harbiy, xo‘jalik, muhim ichki va tashqi siyosat masalalari)da o‘z kuchlarini uyg‘unlashtirib, ish ko‘radilar.

## ?

### Savollar va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi haqida so‘zlab bering.
2. Unitar davlat deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekiston Respublikasida davlat kim tomonidan boshqariladi?

**180-mashq.** «O'zbekcha—ruscha lug'at» (Toshkent, O'zSE Bosh redaksiyasi, 1988)dan olingen quyidagi parchaga diqqat qiling. Tarjima lug'atlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting.

**BILIM** 1. Знание, познание (в какой-л. области);

**Kuch ~ da** сила в знании ~ *yurti*

1. Учебное заведение: училище;

2. Ист. институт просвещения ~ *olmoq* получать знание;

3. Наука, отрасль знания; *til ~* и языкоизнание.

**BILIMDON** знающий, сведущий, имеющий глубокие познания (в какой-л. области): образованный, эрудированный// eruditli.

~ *agronom* — знающий agronom.

**BILIMDONLIK** знания, обладание знаниями или навыками; образованность, эрудиция ~ *qilmoq* ирон. мудрить, мудрствовать.

**181-mashq.** O'zbekcha—inglizcha, o'zbekcha—nemischa, o'zbekcha—fransuzcha lug'atlarda so'zlar qanday beriladi.

Uyingizda ulardan namunalar bo'lsa, ikki-uchta so'zga berilgan izohni ko'chirib yozing va ular haqida fikr yuriting.

**182-mashq.** Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov, R. Shukurovlarning «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati»dan olingen quyidagi misolga diqqat qiling. So'ng *botir—qo'rqoq, mag'lub—g'olib, sun'iy—tabiiy* antonimlariga izoh bering.

### ACHCHIQ 1

Ta'mi qalampirnikiga  
o'xshash  
achchiq dori  
achchiq anor

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. (*Otalar so'zi*)

### ACHCHIQ 2

Kishining izzat-naf-siga tegadigan, xafa qiladigan

achchiq so'z

achchiq turmush

Achchiq savol berib shirin javob kutma.

### SHIRIN 1

Ta'mi shakarnikiga o'xshash  
shirin  
chuchuk dori  
chuchuk anor

### SHIRIN 2

Kishiga rohat bag'ishlaydi-gan, xursand qiladigan

shirin so'z

shirin turmush

(*Magol*)

**183-mashq.** A. O’lmasov, N. To‘xliyevning «Bozor iqtisodiyoti» (qisqacha lug‘at-ma’lumotnoma)dan olingan tubandagi misolni daftaringizga yozib oling. So‘ng barter, debitor, diler, lizing, marketing, xolding-kompaniya so‘zlariga izoh berishga urinib ko‘ring.

**POLIS** (*fr. polici, ital. pollissa — tilxat*) — shaxsiy yoki mulkiy sug‘urta shartnomasi zarurat tug‘ilganda sug‘urtachiga qarshi da‘vo qo‘zg‘atib zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.

**184-mashq.** «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» (Toshkent, «O‘qituvchi», 1984)dan olingan tubandagi misolni o‘qing. So‘ngra, zang, qarshi, kech, mushak, oqim, tuy, et, qil kabi omonimlarga u kabi izoh bering.

## BOG‘

**Bog‘** 1 ot. Biror narsaning to‘dalab bog‘langan holati (сноп, вязанка, пучок). Bog‘lamoq, bog‘lash ***bir bog‘ beda, bir bog‘ piyoz*** (ukrop, kashnich, rediska).

**Bog‘** 2 (tojikcha) ot. Uzum (tok), mevali daraxtlar ko‘p ekilgan yer uchastkasi (сад). *Bog‘bon, bog‘dor, bog‘iston, bog‘cha (bolalar bog‘chasi), bog‘-rog‘, bog‘-bo‘ston. Uzumini ye, bog‘ini surishtirma. Bog‘ga boqsang bog‘ bo‘ladi, botmon dahsar yog‘ bo‘ladi. (Maqol)*

---

## **17-DARS. IMLO LUG'ATI VA ETIMOLOGIK LUG'AT HAMDA UNDAN FOYDALANISH**

### **17.1. IMLO LUG'ATI VA UNDAN FOYDALANISH**

! **Har bir tilda shu tildagi so‘zlarni to‘g‘ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalalar majmuyi bo‘ladi. Bunga imlo yoki orfografiya qoidalari deyiladi.** Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuviga o‘tilishi munosabati bilan imlo qoidalariغا ham sezilarli darajada o‘zgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yili A. Hojiyev muharrirligida yangi «O‘zbek tilining imlo lug‘ati» nashr qilindi.

Imlo lug‘atlarida so‘zlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibi bilan beriladi.

**185-mashq.** Quyidagi imlo lug‘atlarining nashr ma’lumotlarini daftaringizga ko‘chirib oling va ular bilan ishlash ko‘nikmasini o‘zlashtirib olishga harakat qiling.

Birlashgan o‘zbek alfaviti va orfografiyasi. — Toshkent, «UzFAN», 1940.

S. Ibrohimov, M. Rahmonov. Imlo lug‘ati. — Toshkent, «O‘qituvchi», 1956, 1964.

S. Ibrohimov, E. Begmatov, A. Ahmedov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Toshkent, «FAN», 1976.

A. Hojiyev muharrirligi ostida chiqarilgan «O‘zbek tilining imlo lug‘ati». — Toshkent, «O‘qituvchi», 1995.

**186-mashq.** «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»dan foydalanib, tubandagi so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling.

Taajjub, taalluqli, budjet, taassurot, bug‘doy, televideniye, e’lon, e’tibor, izzat, jo‘sinqin, ko‘za, mo‘jiza, muomala, mo‘tabar, oktabr.

**187-mashq.** Quyidagi noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarning «Imlo lug‘ati»dan yozilishini aniqlang hamda daftaringizga ko‘chirib oling.

afg‘on  
avf  
battar  
baynalminal  
gram  
istehzo  
ta’magir  
ta’qiqlamoq  
xayol  
xohlamoq

## 17.2. ETIMOLOGIK LUG‘AT VA UNDAN FOYDALANISH

Tildagi har bir so‘z o‘zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, *ichkari* so‘zi *ich* o‘zagida tomon ma’nosini beruvchi *-gari* qo‘sishchasidan iborat.

! Tildagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘z ichiga olgan lug‘atlar etimologik lug‘atlar sanaladi.

Prof. Sh. Rahmatullayevning ko‘p yillik samarali mehnatlari tufayli o‘zbek tilida ham dastlabki etimologik lug‘at paydo bo‘ldi.

**188-mashq.** Quyidagi lug‘at matnni o‘qing.

Izohli lug‘atdan namuna:

**TOVUQ 1.** Go‘shti, pati va tuxumi uchun boqiladigan urg‘ochi uy parrandas. Sertuxum tovuq. Kurk tovuq. Tovuq katagi. *Tovuqning tushiga don kiradi.* (Maqol) *Bir tovugqa ham suv kerak, ham don kerak.* Tirikchilik uchun kishiga hamma narsa kerak, degan ma’nodagi maqol. *Ola tovug somon sochar, o‘z aybini o‘zi ochar.* O‘zining yoki yaqinlarining aybini gapirib yuradigan odam haqida aytildigani maqol.

Dumi yuligan tovuqday q. **dum** 1. Oyog‘i kuygan tovuqday q. **oyoq**. Shu parrandaning go‘shti (ovqat, masalliq sifatida). Qovurilgan tovuq. Tovuqni yesang, bir yeysan, tuxumini yesang, ming yeysan. (Maqol)  
4. Ba’zi qushlarning modasi, makiyon. Qirg‘ovulning tovug‘i.  
5. Muchal yil hisobida o‘ninch yil nomi. Uning yili tovuq.  
Tovuq yili muchal yil hisobida o‘ninch yil (q. **muchal**).

## **189-mashq.** Quyidagi lug‘at matnni o‘qing.

Ensiklopedik lug‘atdan namuna:

**TOVUQ.** Uy tovuqlari — tovuqsimonlar turkumiga mansub parranda. Yovvoyi bankiv tovug‘idan tarqalgan. Parrandalarning eng ko‘p sonli turi. Undan tuxum, go‘sht, par va pat olinadi, axlatidan o‘g‘it sifatida foydalанилди. Berilадиган mahsulotiga qarab, T.lar serpusht, hammabop (tuxum-go‘sht uchun boqilадиган) va go‘shtdor zotlarga bo‘linadi. Bular tashqi ko‘rinishi va tuzilish xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Serpusht T.lar kichkina, tez voyaga yetadi, hammaboplari yirikroq, yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Xo‘rozlarning oyoqlari pastki qismida pixi, boshida toji bo‘ladi. Serpusht T.lar toji bargsimon, tumshug‘i sal pastga qaragan. Tumshug‘i va pixining rangi deyarli hamma zotlarda bir xil: sariq, och pushti, qora va hokazo. Pati turli rangda.

Serpusht T.lar 1,8—2,2 kg, xo‘rozlari 2,7—3,0 kg; hammaboplari 2,5—4,0 kg, go‘shtdorlari 3,0—4,5 kg, tuxumdan chiqqan jo‘jalari 30—35 g, 70—80 kunlik hammabop zot jo‘jalari serpushtlaridan 20—30 % og‘ir.

Serpusht zotlar yiliga 220—250, ayrimlari 365 tagacha tuxum qiladi.

Zotdor T.lar seleksiya yo‘li bilan ko‘paytirilganda serpusht bo‘ladi. T. 5—6 oylikdan tuxumga kiradi, dastlabki tuxumi 40—50 g, 1 yoshga yaqinlashgach 55—65 gramm. Hammabop zotlar tuxumi mayda. T. tullaganda tuxum qilmaydi, tullah 2—3 hafta, ba’zilarida 2 oy va undan ortiq davom etadi.

T. 10 yilgacha tuxum qilishi mumkin. Sanoat maqsadida tuxum yetishtiradigan xo‘jaliklarda T.lar tuxumga kirgandan keyin faqat bir yil saqlash iqtisodiy foyda keltiradi, chunki tuxumi T.ning yoshiga qarab, yiliga 10—15 % kamayadi, naslchilik xo‘jaliklarida faqat sermahsul T.lar 2-, 3- yilga qoldiriladi. Nasldor T.larning 50—60 % yoshiga yetmagan, 30—35 % ikki yoshli va 10 % uch yoshli bo‘ladi. Xo‘rozlar 2—3 yil saqlanadi, 8—12 tovuqqa 1 ta xo‘roz to‘g‘ri keladi. Jo‘jalar inkubatorda ochiladi. Embrional rivojlanish davri o‘rtta hisobda 21 kun. T. parrandaxonalarda don, sabzavot, mineral oziqlar, vitamin va b. bilan boqiladi.

### **Topshiriqlar**

1. «Tovuq»ning ikki xil lug‘atda qanday izohlanganini tushuntiring.

2. Ensiklopedik lug‘at bilan izohli lug‘atning farqini aytинг.

3. «Gul»ning ensiklopedik va izohli lug‘atlarda qanday izohlanishini yozib ko‘rsating.

**190-mashq.** Quyidagi savollarga javob bering.

1. Lug‘at nima?
2. Lug‘atlar qanday guruhlanadi va turlarga bo‘linadi?
3. Siz qanday lug‘atlarni bilasiz?
4. Istalgan lug‘at to‘g‘risida quyidagi reja asosida referat yozing:
  - I. Lug‘at kim tomonidan va qachon tuzilgan?
  - II. Lug‘at nomi kimlarga mo‘ljallangan?
  - III. Lug‘atda izohlangan so‘zlarning soni.
  - IV. Lug‘atda so‘zlarning joylashtirilishi.
  - V. Lug‘at maqolchasining mazmuniy mundarijasi.
  - VI. Ma’noni izohlashning qanday usullaridan foydalaniqgan?

**191-mashq.** «O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati» (Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririysi, 2001)dan sammit, tadbirkor, fermer, kollej, litsey kabi so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring va ularning qanday izohlanganligiga diqqat qiling.

### Tayanch tushunchalar

lug‘atshunoslik, leksikografiya, ensiklopedik (qomusiy) lug‘at, filologik (lingvistik) lug‘at, izohli lug‘at, tarjima lug‘at, imlo lug‘ati, etimologik lug‘at.

---

## **18-DARS. USLUBIYAT**

### **18.1. USLUBIYAT VA NUTQ USLUBLARI TASNIFI**

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda nutq uslublari va ularning turlari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, ularni o‘z nutqlarida so‘zlardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatish.

- R e j a:**
- \* Nutq uslublari va ularning turlari.
  - \* Og‘zaki so‘zlashuv uslubi.
  - \* Badiiy uslub.
  - \* Rasmiy uslub.
  - \* Ilmiy uslub.
  - \* Publitsistik uslub.

Radio, televideniye orqali taralayotgan suxandonlar nutqini har kuni eshitasiz. Gazeta-jurnallarda e’lon qilinayotgan xabarlarni o‘qisiz. Badiiy asarlarni mutoala qilib, tilimizning badiiy-estetik quvvatidan bahramand bo‘lasiz. Fizika, matematika singari fanlarni ham o‘zbek tilida o‘qisiz, shu bilan birgalikda ko‘cha-ko‘yda, oilada, mahallada turli yoshdagi kishilar bilan muloqotga kirishasiz.

Agar yuqorida bayon qilingan nutqiy jarayonlarga e’tibor bilan qarasangiz, ularning hammasi garchi o‘zbek tilining bevosita voqealanishi bo‘lsa ham, lekin ma’lum jihatlari bilan bir-biridan farqlanishining guvohi bo‘lasiz.

Demak, adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida qo‘llaniladigan bir necha ko‘rinishlari mavjud. Ana shunday ko‘rinishlari nutq uslublari hisoblanadi.

**Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida**  
! **qo‘llaniladigan ko‘rinishi nutq uslublari deyiladi.**  
**O‘zbek tilining nutq uslublarini o‘rganuvchi tilshunoslik**  
**bo‘limiga esa o‘zbek tili uslubiyati deyiladi.**

O‘zbek tilining ichki tuzilishinigina o‘rganish bizga bu til haqida to‘la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram, qimmatli, aziz* singari so‘zlarni ma’lum shaxs bildiruvchi so‘zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo‘sib ishlatishingiz mumkin: *Muhtaram Solijon Soqihevich! Qimmatli aka, aziz opajon* kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga

qo'llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo'llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

O'zbek adabiy tili quyidagi uslublar orqali namoyon bo'ladi:  
1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) ilmiy uslub. Bularidan so'zlashuv uslubi og'zaki nutqqa xos bo'lsa, qolgan uslublar esa ham og'zaki, ham yozma shakllarga ega. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma'ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma'ruzaning o'zi esa og'zaki nutqqa xosdir. Shuningdek, badiiy uslubning ham yozma va og'zaki (xalq og'zaki ijodi) ko'rinishi borligini bilasiz.

Tilimizda barcha uslublarda teng qo'llaniladigan so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so'zlar ham mavjud. Shuning uchun so'zlar ana shu belgiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:  
1) uslubiy betaraf so'zlar (masalan, so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftar, ovqat va boshqalar); 2) uslubiy xoslangan so'zlar (mazkur, binobarin, dudoq, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayonnoma, nota va boshqalar).

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Nutq uslublari nima va ular tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rGANILADI?
2. Nutqning qanday uslublari bor?
3. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so'zlarga misollar keltiring.
4. Nutq uslublarini bilishda bilimning qanday ahamiyati bor?

**192-mashq.** Berilgan matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang va uning o'ziga xos belgilarini aytib bering.

Qaysi bir yili olis bir qishloqdan o'gay akasi kelib, uch-to'rt kun qo'nib ketgan edi. U ham o'ziga o'xshagan mo'min-musulmongina chol bo'lganidan juda topishdilar. Har kun xonaqohga birga borardilar.

— So'fi, biror kasb peshasini tutmay o'tib ketayotibsiz-a? — dedi akasi xonaqohga keta turib.

— E-e, — dedi so'fi cho'zib va o'zidan xursand kulimsirash bilan bir kulimsiradi, — mening davlatim hech kimda yo'q, aka! Eshon bobo Xudoyimning sevgan quli, noz-u ne'mat to'rt tarafdan suvday oqib turadi. Daryo bo'yidamiz-u, chanqaymizmi? G'alati ekansiz.

Shu kulimsirash bilan biroz borgandan keyin bu safar jiddiyroq qilib dedi:

— Ahliyamiz ham uchiga chiqqan chevar, Xudoga shukur. Ojizamiz ham do'ppi tikishga «farang» bo'lib chiqdi! Ro'zg'orning ko'p-kamlarini o'zları bitirishadi. Men bohzur tasbehimni aylantirib yotsam bo'la beradi.

(Abdulhamid Cho'pon)

**193-mashq.** Quyidagi matnning qaysi uslubga oidligini aniqlang va unga tavsif bering. Uni namuna sifatida qabul qilib o'zingiz ham shunga o'xshash misollar toping.

Tildagi har bir so'z o'z o'rniда qo'llangandagina nutqimiz ko'r kam, jozibador bo'ladi.

Masalan, professor, dotsent, prorektor, rektor, direktor kabi so'zlar rasmiy uslub uchun xos me'yor sanaladi, biroq qolgan uslublarda ularni aynan ishlatib bo'lmaydi. Ishxonada «Professor E. Begmatov, sizni talabalar kutishyapti» deyish mumkin, lekin uyda unga o'zining farzandlari «dada» deyishning o'rniغا «professor» deb murojaat qila olishmaydi — me'yor buziladi.

**194-mashq.** Quyidagi matnning qaysi uslubga xosligini aniqlab, unga tavsif bering.

Xudo ne'matlarin oliysi idrok,  
Aqlni madh etar kimki dili pok.

Aql yo'l ko'rsatib, dilni etar shod  
Har ikki olamda aqli obod.

Aql bir tirik jon — bilmaydi zavol,  
Aql turmush asli buni yodlab ol.

Aqldan g'amginlik, shodlik, o'ktamlik,  
Aqldan borlig-u yo'qlig-u kamlik.

Kishi ish qilarkan beaql-u idrok,  
Bu ishdan bo'ladi yurak-bag'ri chok.

(Abulqosim Firdavsiy)

## 18.2. SO'ZLASHUV USLUBI

! **Kundalik hayotda uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.**

Oddiy so'zlashuv uslubida so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so'zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so'raysiz:

— *Beshinchidan ikkita* (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o‘tirmaysiz).

So‘zlashuv uslubining o‘zi ikki turga bo‘linadi:

1) adabiy so‘zlashuv uslubi; 2) oddiy so‘zlashuv uslubi.

! **Ma’lum adabiy til me’yorlariga bo‘ysungan, tartibga solingan so‘zlashuv uslubiga adabiy so‘zlashuv uslubi deyiladi.**

Adabiy tilning og‘zaki shakli adabiy so‘zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshtirishlari, televideniye ko‘rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

**Adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so‘zlashuv uslubi sanaladi.**

Oddiy so‘zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo‘lgan nutqiy ortiqchilikka ham yo‘l qo‘yiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining tartibi ham ancha erkin bo‘ladi. Ba’zan shevaga xos so‘zlar, qo‘pol, dag‘al so‘zlar ham kuzatiladi, lekin bularni qo‘llash so‘zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun siz oddiy so‘zlashuv nutqingizda ham o‘zingizning yuksak madaniyatingizni namoyish eting.

**195-mashq.** Abdulhamid Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parchani o‘qing. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinlarni topib, izohlang.

So‘fi yana past toifa oldida muborak og‘zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo‘ldi:

— Badbaxt fitna! Qo‘yananmi-qo‘ymaysanmi, axir?!

«Hubbuli vatani minal imon» deganlar — «Vatanni sevish imondan», axir! Bilmasang, bekor-da! Vatani yo‘q — dunyoda lo‘li xolos. Meni bevatan deb bilingmi?

So‘fi biroz qizib ham ketdi.

— Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘risvoyning religa tushib, «hayt» deb... Makkatilloga jo‘nab qolaman. Hovling boshingdan qolsin, fitna!

Bu safar Qurvonbibi yalinib-yolvorib zo‘rg‘a tinchitdi.

Chinakam, so‘fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Birikki marta pasport oldi ham. Faqat, nima uchundir, oyog‘ini o‘z shahrining tuprog‘idan uza olmaydi.

**196-mashq.** Gaplarni o‘qing, og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinnarni izohlang.

Otasi yoki u tengi boshqa kishiga «paxan», «boboy», onalariga «babulya», «babushka», «kampirsho», aka-ukalariga nisbatan «brat», «bratan», «bratishka» deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so‘zlar qulqoqqa og‘ir eshitiladi.

Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha—hindcha shakllarda o‘rinsiz qisqartirilib aytilishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi.

Ko‘cha-ko‘yda, avtobuslarda, o‘quv dargohlarida «xey», «vey», «xov» deb yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do‘stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlari ham uchrab turadi.

Bularning hammasi o‘ta madaniyatsizlik, odob me’yorini bilmaslik sanaladi.

(A. Mirzaboboyev)

**197-mashq.** Mirza Karimning «Mohlaroyim» romanidan olingan parchani o‘qing. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinnarni topib belgilang.

Darvoza zulfini tushib, eshik qiya ochildi, oppoq ro‘molga o‘ralgan kampirning mushtdekkina boshi ko‘rindi.

— Voy, o‘lay, kimsan, yo‘lovchimisan yoki... Kir, kir, bo‘yginangdan tasadduuq...

Adolat yurishga holi qolmay, o‘zini kampir bag‘riga otdi.

— Hay, hay, yiqitvoray deding-ku... Oyog‘ingga oyoq qolmabdiya? Kel, qo‘lingni ber, jonim. Ko‘taray desam jonim yarimta...

— Onajon...

— Voy, ona degan tillaringdan o‘rgilay. Nima bo‘ldi, jonim?

Kampir darvozani yopayotib, ko‘cha tarafga nazar tashladi. Shu mahal uch otliq otlarini niqtagancha Quva tomon choptirib o‘tishdi. Kampirning yuragi shuv etdi. Darrov ko‘ngliga kelgan o‘yni quvib chiqarmoqchiday, ko‘ylagi yoqasini ko‘tarib, «puf-puf»ladi. Adolatni suyab uyiga olib kirdi. Uni yonboshlatib, sekin o‘rnidan turdi.

— Bolam, kechagi ko‘mochim bor. Oqshomda chavati qilgandim, tatigin, xo‘pmi, o‘zingga kelasan...

---

## **19-DARS. PUBLITSISTIK VA BADIY USLUB**

### **19.1. PUBLITSISTIK USLUB**

Publitsistika (lot. *publika* — xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalaşarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

**Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.**

**Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.**

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilari ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarini ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrnинг o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniyeda beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamphlet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari sanaladi. U ham bo'lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

#### **?** *Savol va topshiriqlar*

1. Publitsistik uslubning o'ziga xos tomonlarini aytинг.
2. Qanday uslubga publitsistik uslub deyiladi?
3. Publitsistik uslubning qanday shakllari bor?

**198-mashq.** Quyidagi matnni o'qing. Uning nima sababdan publitsistik uslubga kiritilganini izohlang.

## MILLIY MAFKURANING NEGIZI

Siyosiy tutqunlik og'ir, lekin milliy o'lim — millatning butkul halokatidir. O'zbek xalqi o'tgan asrda chorizm istilosiga tufayli siyosiy tutqunlikka tushdi, biroq milliy qiyofasini yo'qotmadi. Ana shu milliy qiyofamizdan bugungi siyosiy mustaqilligimiz o'sib chiqdi, chunki ma'naviyat siyosiy ozodlikka chorlayveradi. Prezident aytganidek: «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin».

Milliy mafkuramizning negizlaridan biri — tilga bo'lgan munosabatimizdadir. Til — millat vakillarini mustahkam birlashtiruvchi, tutib turuvchi belbog'. Demak, bu ramziy belbog'ning kuchi, qudrati siz-u bizlarning ona tilimizga bo'lgan munosabatimizga bog'liqdir.

Mafkura bo'limasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Qayerdaki mafkuraviy bo'shilq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Mafkura sohasida bo'shilq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Inson uzlusiz ravishda ezzulikka yo'g'rilgan ruhiy, ma'rifiy va ma'naviy oziqa olib turmasa, bularning o'rnini yot ta'sirlar ishg'ol etadi.

Milliy mafkura millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishiga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir. Bizning istiqlol mafkuramiz asriy milliy qadriyatimizga, yangi vujudga kelgan va kelayotgan xalqimizning bugungi va kelajakdag'i manfaatlarini ifodaydigan fikrlarga — xalq tafakkuriga asoslanishi lozim.

(A. Ibrohimov)

**199-mashq.** Maktubni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan o'rirlarni topib, ularni izohlang. Siz ham biron-bir asar qahramoniga shunday maktub yozishga harakat qilib ko'ring.

## TURSUNBOYGA AYTAR SO'ZLARIM!

(*Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Tursunboyga maktub*)

Qishloqning bir xonardonida «chiroq yoqildi», ya'ni Jannat xola va Ikromjon tog'a o'g'il ko'rdilar. O'g'lining ismini Tursunboy deb atashdi. Samimi odamlar xonardonida yoqilgan chiroq siz edingiz, Tursunboy!

Siz yosholigingizdan ishyoqmas, dangasa, qo'rroq bo'lib o'sdingiz. Qarang, katta yigit bo'lib ham qolibsiz. Afsuslar bo'lsinkim, Jahon urushi bo'lib qoldi. Sizni ham urushga chaqirtirishdi. Ota-onangiz ko'plar qatori yakka-yu yolg'izini Vatan himoyasiga yubordilar. Ular: «O'g'limiz jang qilib, xalqimni ozod, yurtimni obod qiladi», deb orzulagan edilar. Ammo, ammo... Ota-onam orzusi osmonga havodek uchib ketdi. Orzulari og'zida qoldi. Siz urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdingiz, so'ngra qishloqning chetida, to'qayzorlar orasida berkinib yurdingiz. Buni onangizdan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora Jannat xola... Har kuni o'y-xayoli, hayoti to'qayzorda bo'lib qoldi. Otangizdan berkitib ovqat olib kelar edi. Buni o'zgalar bilib qolishidan juda-juda qo'rqrar edi.

Sizga maktub bitmoqdaman-u, xayolimga quyidagi misralar kelaveradi. Jannat xola zorlanayotganga o'xshaydi nazarimda:

Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,  
Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.  
Bu yorug' dunyoda bormi, bilmayman,  
O'z o'g'lin yo'liga intizor menday...

(M. Yusuf)

Kunlar o'tdi... Onangiz xastalana boshladni, chunki uni vijdon azobi qiynar edi. Faqat sizni o'ylar edi.

Kunlardan bir kuni Ona sizga og'riyotganini aytdi, siz bu gapga parvo ham qilmadingiz, qo'lidan ovqatni olib hayvonlarcha ovqat yeyar edingiz. Ha, siz faqat o'zingizni, qorningizni o'ylar edingiz.

Siz to'qayzordasiz... Ana shunday kunlarning birida ko'chadan tobut ko'tarib, yig'i bilan mahalla-ko'yingiz, qarindosh-urug'laringiz, padaringiz Ikromjon ota o'tib borar edi. Yuragingiz sezdi, tobut ichidagi sizning mushfiqqina onangiz Jannat xola edi. Yuragingizni g'am-alam bosdi, chunki shunda Siz: «Endi menga kim ovqat olib keladi», deya alam chekdingiz. O'shanda ham o'zingizni o'yladingiz. Onayizorga ozgina bo'lsa ham achinmadingiz-a?!

Nahotki, onangizni tuproqqa qo'yib kelishga ham yaramagan bo'lsangaz? Yo'q! Sizni odam bolasi, deya olmayman.

Tursunboy! Bir umr vijdon azobida qiynalishingizni xayolingizga keltirdingizmi? Shu payt sizni haqoratlagim keldi. Yo'q! Yo'q! Unday demayman, chunki har bir qilayotgan ishimizning oxiratda javobi bor-ku axir?! Sizni yuraksiz, dilsiz, zabonsiz, bir quriyotgan daraxtga qiyoslayman, xolos.

**200-mashq.** Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan ko'tarinkilik, ifodalilikka diqqat qiling.

## TEMUR BOBOGA MUROJAAT!

Tun yozib yubordi qora zulfini, majnuntol belanchakni tebrab ohista, qurbaqa-yu chigirkalar boshlaydi alla. Parquv bulutlarga boshini qo'yib, hilol u xlabelotir shirin, beozor. Go'zal kanizaklar — hadsiz yulduzlar uning tegrasida qurishar davra. Sokinlik ko'rpasin yopinib olib, mizg'i yotir Zamin tinch va osuda... Faqat mening bezovta qalbim uyqu to'rlariga ilinmaydi hech. Ichki tug'yonlarim bo'g'zimdan toshib, Sizga xat bitmoqqa tutaman qalam. Siyohimning rangi etmasin hayron, siyohdonga dilim qonin ezg'ilab to'kdim.

Dil so'zlarine ne deysizmi? Eshiting bobo!

Siz tiklagan Turonzamin halihanuz turadur, og'a-ini turkiyingiz bir-birini suyadir. Biri o'zbek, biri tojik, biri qirg'iz, turkmandir, bir-biriga xuddi tog'a, og'a-ini, singildir.

Bobojonim, axir aytинг, orzuyingiz shul emassi, tomirimda oqayotgan Turkiy degan qonmasmi? Siz yaratgan ko'hna bino, qarang, qanday ko'rksamdir. Bir-biriga do'stlasharkan o'g'lonlaringiz, Bobo, yurtning, elning kelajagi gullab, yashaydi obod.

Qaytib keldi elga insof, vijdon hamda e'tiqod, go'yo qora zulmat ichra balqib chiqdi, nur, oftob. Erlarida mardlik mo'l-ko'l, ayolida nazokat, farzandlari bari baxtli, yurtda ko'pdir halovat. Tinglang, bobo. O'g'lonlari yurtim deya uyg'onsin, qalbimda erk ataluvchi o'chmas olovlar yonsin, yog'iylarning ko'zi chiqib, soqolini silasan, qabrdan ham qo'llab turgan qo'ling yaxshi deyarlar, fido bo'lay, jonim bobo, qo'llab turing o'zingiz. Ijobat bo'lur, bilaman, Sizning har duoyingiz...

...Vaqt oxirlab qolibdi, qalamim ham tolibdi. Otayotgan tong misol yorug' bo'lsin kelajak, pok ruhingiz qo'llasin, farzandingiz kutajak.

*(D. Jo'rayeva)*

## 19.2. BADIY USLUB

Badiiy asarlarni ko'p o'qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi.

**!** **Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisob-lanadi.**

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zbek shevalariga,

kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatala beradi.

Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqeа-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publisistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Badiiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Badiiy uslubning o'ziga xos jihatlarini bayon qiling.

**201-mashq.** A. Qahhorning «O'jar» hikoyasidan olingan parchani o'qing. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

— Hozir, hozir! — dedi, — Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'lim! E, yotganmiding! Mayli bu yoqqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shedrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

— Yo'q, Siz savolni noto'g'ri qo'ydingiz, — dedi Zargarov.

— Bunday: Saltikov ilgari o'lganmi, Shedrin?

— Ikkovi bitta odam-ku! — dedi Suyar, nima ekanini bilolmay.

Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o'rnidan turib o'yinga tushdi. Qutbiddinov do'q urdi:

— Saltikov bilan Shedrin-a? Kim aytdi senga?

— O'zim bilaman, kitobda bor.

— Kitobda bor? Shaxmatni ko'proq o'yna, itvachcha!

Qutbiddinov bola bechorani ko'p urishdi... Suyar yig'lab yubordi...

Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko'tarib chiqdi.

— Mana, — dedi portretni ko'rsatib, — mana, Saltikov-Shedrin!

**202-mashq.** Chistonlarni o'qing, ular asosida she'riy asarlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting. Yana qanday she'riy janrlarni bilasiz. Misollar keltiring.

U nima, og'zi bor ammo tishi yo'q,

Og'ziga ne tushsa qiyar, ishi yo'q.

Barmoqni tekkizar bo'lsang og'ziga,

Changalin soladi, hech qo'rqishi yo'q.

Katta tuya — sumi yo‘q,  
Ovqat uchun g‘ami yo‘q.  
Daryodan suv ichadi,  
Odamga rizq sochadi.

U nadirkim doimo davron kezar,  
Barcha olam ichra sargardon kezar,  
Yo‘q qarori, bir umr g‘ayratdadir,  
Elga rizq bermoq uchun hikmatdadir.

(A. So‘fiyev)

**203-mashq.** Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasidan olingan parchani o‘qing. Dramatik janrning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.

D o m l a: — Shariat ilmi va zaruriyati diniya bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmak, albatga, sizga lozimdir.

B o y: — Shariat ilmini o‘qutmakni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

D o m l a: — Zaruroti diniyaga na dersiz?

B o y: — Men o‘zum besh vaqt nomozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zum o‘rgaturman.

D o m l a: — Xat va savodga na dersiz? Holbuki, savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur.

B o y: — Bu fikringiz g‘alat, chunki meni savodim yo‘q, bovujud shul shahrimizni katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

D o m l a: — Siz ilgari zamonda bir nav‘i ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkarmak uchun ilm kerak...

**204-mashq.** She’rni o‘qing, uslubiy xossalariini aniqlang. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini toping.

## BOBUR DARDI

Boshlab keldi bu yoqlarga oyoqlarim,  
Qaytib ona tuprog‘imga ketolmadim.  
Farg‘onada qol mish do‘st-u o‘rtoqlarim,  
Qaytib ular visoliga yetolmadim,  
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmadim...

Qorlar erir bu daryolar oqar toshib,  
Ketgim kelar ona yurtga tog‘lar oshib,  
Lekin dushman yo‘lim to‘sgay doim shoshib,  
Ona diyor, visolingga yetolmayman,  
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman...

Dushmanlarning qo‘li uzun zamon bo‘ldi,  
Ona yurtim yov qo‘lida tamom bo‘ldi,  
Tashlab chiqdim — bu ishim ko‘p yomon bo‘ldi,  
Qaytib endi u yoqlarga yetolmayman,  
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman.

Vafo qilmay jafo qildi do‘s-t-u yorim,  
Hind-afg‘onga boshlab keldi nomus, orim,  
Qaytmoq uchun garchi ko‘pdir ixtiyorim,  
Lekin ortga qaytolmayman, ketolmayman,  
Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman...

(Abdulhay Sobirov)

**205-mashq.** O‘qing, matnning qaysi uslubga xos ekanligini ayting.

1. Qorda ko‘milgan izni dadam ko‘ribdi shekilli, kechqurun oyimdan so‘radi:

— Kimga ko‘mir berding?

Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi.

— Habiba buvi shamollab qopti. Ko‘miri yo‘q ekan, oborib berdim. Dadam oyimni urishmadni. (*O‘. Hoshimov*)

2. Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo‘lgan xalq halokatga mahkum. Diniga, ma’rifatiga, xulq-atvoriga, kiyim-kechagiga va hayot tarziga ko‘ra o‘zaro ko‘p mushtaraklikka ega bo‘lgan Ovro‘pa xalqlari, shunga qaramay, har qaysisi o‘z ona tilini saqlab qola bilgan. Ular ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilarki, tili yo‘q bo‘lsa, millat ham yo‘q bo‘lib ketadi. (*Ismoilbek G‘asprali*)

---

## **20-DARS. RASMIY VA ILMIY USLUB**

### **20.1. RASMIY USLUB**

**! Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida  
qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.**

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy — devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnama, bildirgi, tavsifnama, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnama); diplomatik uslub (nota, bayonotnama, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriyl vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi — axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalg'a oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanganadi (*ogohlantirilsin, topshirilsin* kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G». Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinnbosari lavozimida ishlaydi...»

### **? Savol va topshiriglar**

1. Rasmiy uslub nima?
2. Rasmiy uslubning qanday turlarini bilasiz?
3. Rasmiy uslubning o'ziga xos tomonlari haqida gapiring.

**206-mashq.** Ariza namunasini o'qing. Siz ham o'zingizga moslab shu asosda ariza yozishga odatlaning.

N a m u n a:

*Asaka akademik litseyi direktori  
D. Mo'minovga 2-bosqich tala-  
basi M. Abdullayevdan*

A r i z a

2012-yilning 4—6-aprel kunlari Chirchiq shahrida respublika birinchiligi uchun boks bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarda ishtirok etishim uchun ruxsat berishingizni hamda ko'rsatilgan kunlarda darslardan ozod qilishingizni so'rayman.

(imzo) *M. Abdullayev*

*2012-yil 2-aprel*

**207-mashq.** Elektr quvvatini hisob-kitob qilish bo'yicha abonent daftarchasining qanday to'ldirilishiga diqqat qiling. Xonadoningizdagi telefon, gaz bilan bog'liq daftarchalarni to'ldirishga urinib ko'ring.

2012-yil 3-may 11260	Yil, oy Schotchik
10760 0500	Ko'rsatkichi kvt. soat
2000 s 200 t s-t. s-t.	Summa Jarima (pena) Hammasi

Abonent manzili: Buxoro shahri, Fitrat ko'chasi, 3-uy.

Abonent № 3095276, I. Vohidov.

**208-mashq.** Bildirishnoma, tilxat, ishonch qog'ozi, majlis bayoni, dalolatnoma kabi ish qog'ozlarini yozing. So'ng ularni birgalikda tahlil qiling.

N a m u n a:

### ISHONCH QOG'OZI

Men, Urganch akademik litseyining 2-bosqich talabasi O. Olloberganov, menqa litsey tomonidan ajratilgan mukofot pulini sinfdoshim A. Do'simovning olishi uchun ishonch bildiraman.

A. Do'simovning tug'ilganligi haqidagi guvohnomasi № TN 5891346.

(imzo) *O. Olloberganov*

*2012-yil 8-fevral*

**209-mashq.** Quyidagi reklama matnini o'qing. Uning tili va uslubi ustida ishlang.

## AZIZ HAMYURTLAR!

Agar Andijonning eng xushhavo va xushmanzara go'shasi bo'lmish Bog'ishamolga Sizning yo'lingiz tushsa, albatta, «Bir zumda» oshxonasiiga kirib o'ting. Bu yerda tayyorlanayotgan turli-tuman shirin milliy taomlar, qulay shart-sharoitlar va yuqori darajada ko'rsatilayotgan xizmatimiz sizga, so'zsiz, manzur bo'ladi. Qolaversa, go'zal O'zbekistonimizning mashhur kishilarini bilan bir piyola choy ustida suhbatda bo'lishingiz mumkin. Ko'nglingiz ko'tarilib, kayfiyatizingiz a'lo bo'lishiga shak-shubha yo'qdir.

Shu bilan birga, «Bir zumda» oshxonasida tavallud kunlaringizni, nikoh kechalarini va boshqa turli tantanalarni o'tkazishingiz mumkin.

Biz Sizni kutamiz, Sizga xizmat qilganimizdan mammunmiz.

Manzilimiz: Bog'ishamol dahasi, «Bir zumda» oshxonasi.

Telefonlarimiz: 224-88-09, 293-34-77.

*Aziz mehmonimiz bo'ling!*

## 20.2 ILMIY USLUB

!  
**Ilmi-fan sohasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.**

Ilmiy uslub daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarining keng qo'llanishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

!  
**Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhgaga bo'linadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.**

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo'llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetka-zish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publisistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publisistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarini bayon qilish kuchli bo'ladi.



## Savol va topshiriqlar

1. Ilmiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Ilmiy uslubning o‘ziga xos belgilari qanday?
3. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

**210-mashq.** Matnni o‘qing, ilmiy uslubga xos bo‘lgan o‘rnlarga diqqat qilib ularni izohlang.

Bakteriyalarni o‘ldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda bo‘ladi.

Leykotsit tarkibidagi leykin ham bakteriyalarni o‘ldiradi. Shuningdek, leykinga o‘xhash plakin degan modda qon trombotsitlaridan ajratib olinadi.

Qonning tabiiy muhofaza moddalaridan biri betalizin hisoblanadi.

Mana shulardan tashqari, qon va organizm suyuqliklarida «ingibitorlar» deb atalgan moddalar ham topilgan. Ular mikroblarning rivojlanishini va ko‘payishini to‘xtatibgina qolmay, balki viruslarga qarshi g‘oyatda faol ta’sir qiladi. Chunonchi, nukleazalar oqsil tabiatli fermentativ moddalar bo‘lib, nuklein kislotalarni parchalaydi. Shunisi ham borki, ribonuklein kislota RNKning faqat ribonukleaza fermenti, dezoksiribonuklein esa DNKning dezoksiribonukleaza fermentinigina parchalaydi.

**211-mashq.** Matnni o‘qing, unda ishlatalgan atamalarga diqqat qiling va ularning ilmiy uslubni vujudga keltirishdagi o‘rnini belgilang.

Mikrobiologiyaning rivojlanishi tufayli sanoatda turli antibiotiklar, aminokislotalar, stearid garmonlar va enzimlar ishlab chiqarish imkoniyati tug‘ildi.

Hozirgi vaqtida sintetik yuvuvchi vositalarda gidromentlar ishlatilmoqda. Ular suvda erimaydigan murakkab organik moddalarini katalizator sifatida parchalaydi, natijada hosil bo‘lgan «mayda» molekulalar suvda yaxshi eriydi. Shu tipdagি ferment (enzim)lardan proteazlar kengroq tarqalgan. Bundan tashqari, amilaza ham keng ishlatilmoqda; bu ferment uglevodorodlarni gidroliz qiladi va yog‘ni parchalaydi.

Mamlakatimizda yaqindan beri tarkibiga enzim qo‘silgan yuvuvchi vositalarning yangi xillari ishlab chiqarilmoqda. «Sino» pastasi va «Oka» poroshogi turli xil gazlamalar va sun‘iy-sintetik tolalardan to‘qilgan kiyimlarni yuvish uchun mo‘ljallangan.

**212-mashq.** Iqtisodiyot sohasiga oid quyidagi matnni o‘qing. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering. Atamalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va izohlang.

Bozorda, tovar muomalasi jarayonida tovar pulga almashinishi (sotish) va pulning tovarga almashinishi (xarid qilish) sodir bo‘ladi. Bunga tovar-pul munosabatlari deyiladi. Shuning uchun ham bozor pul vositasida tovarlar oldi-sotdisi asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. U xaridorlar va sotuvchilarni birga qo‘shuvchi mexanizm sanaladi.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida takror ishlab chiqarishning ayrboshlash bosqichiga xosdir. Bu yerda ayrboshlashni tushunish kerak. Bir tovar to‘g‘ridan to‘g‘ri (barter yo‘li bilan) ikkinchi bir tovarga almashganda bozor munosabatlari yuzaga kelmaydi. Bundan ko‘rinadiki, bozorning eng muhim sharti pul bo‘lib, tovar ayrboshlashganda u vositachi bo‘lishi kerak. Berilgan ta’rifga ko‘ra aytish mumkinki, bozor jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimining murakkab iqtisodiy tarkibiy qismidir, chunki u ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida markaziy o‘rin tutadi. Demak, jamiyat rivojlanishining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tomonlarini ham qamrab oladi.

**213-mashq.** Quyidagi atamalar asosida ilmiy uslubga xos matn tuzing.

Vazn, aruz, qofiya, she’riy janr, tuyuq, misra, radif, ruboiy, oddiy ruboiy, taronayi ruboiy.

**214-mashq.** Ko‘chiring. Berilgan matndan ilmiy uslubga xos so‘zlarni aniqlang.

Sonli tengsizliklarning asosiy xossalari.

Istalgan qo‘shiluvchining, tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga shu qo‘shiluvchining ishorasini qarama-qarshiga almashtirgan holda ko‘chirish mumkin.

Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa ko‘paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi o‘zgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa ko‘paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarshisiga o‘zgaradi.

Chap va o‘ng qismlari musbat bo‘lgan bir xil ishorali tengsizliklarni ko‘paytirish natijasida xuddi shu ishorali tengsizlik hosil bo‘ladi. (*Darslikdan*)

**215-mashq.** «Tadbirkorlikka keng yo‘l», «Kichik korxonalar hayotidan», «Bozor infrastrukturasi», «Makroiqtisodiyot nima?» kabi mavzulardan birida ilmiy-ommabop matn tuzing, matnning o‘ziga xos tomonlarini izohlang.

**216-mashq.** Uch guruhgaga bo‘lining: 1-guruh huquqshunoslik, 2-guruh matematika, 3-guruh tilshunoslik faniga oid atamalarni yozib izohlasinlar.

**217-mashq.** O‘qing. Quyidagi matn ichidan ilmiy uslubga xos so‘zлarni toping. Shu so‘zлar ishtirokida gaplar tuzing.

Ikkinchи darajali bo‘laklar fikrni to‘laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular faqat bosh bo‘laklarga bog‘lanib, ularni izohlab, to‘ldiribgina qolmay bir-birlariga bog‘lanishi, bir-birining ma’nosini aniqlashi ham mumkin.

Gaplar tuzilishiga ko‘ra, to‘rt xil bo‘ladi: sodda, qo‘shma, murakkab gaplar va periodlar.

Sodda gap ma’lum fikr, maqsadni ifodalovchi, grammatic va intonatsion tomondan shakllangan sintaktik birlikdir. Sodda gap tuzilishiga ko‘ra yig‘iq yoki yoyiq bo‘lishi mumkin. Bosh bo‘laklardan tarkib topgan gaplar yig‘iq gap, agar bosh bo‘laklardan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etsa yoyiq gap sanaladi.

**218-mashq.** O‘qing. Matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang, uni boshqa uslubga o‘tkazib gapiring.

Tekislikdagi tuproqning tarkibi, undagi nam miqdori, turli yil fasllardagi issiqlik va yorug‘lik miqdoriga qarab tog‘ oldi va tog‘larda turlituman o‘simliklar o‘sadi. Qanday bo‘lmasin bitta turning katta-katta maydonlarda chakalakzor hosil qilishi tabiatda juda kam uchraydi. Odatda, har xil o‘simliklar birgalikda yashayvermasdan, balki ma’lum o‘simlik turlari bir-biri bilan birga o‘sadi. Tabiatda o‘simliklarning gruppalanishi tasodifiy emas. O‘simliklar millionlarcha yillar davomida shunday turkumlanib qolgan. Muayyan tashqi muhit bilan bog‘langan o‘simliklarga birgalikda o‘sishi mumkin edi. Shuning natijasida ma’lum bir joydagи sharoitlarga moslashgan o‘simlik gruppaları, ya’ni birga o‘sadigan o‘simliklar paydo bo‘lgan.

---

## **21-DARS. MORFOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI. SO'Z TURKUMLARI**

### **21.1. MORFOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI**

**Darsning maqsadi:** grammatikaning morfologiya qismi va uning o'rganish obyekti haqida talabalarda bilim hamda ko'nikma hosil qilish.

**R e j a :**

- \* Grammatika va uning qismlari.
- \* Morfologiya va uning o'rganish obyekti: so'z shakllari.
- \* Morfologianing leksikologiya bilan aloqasi.
- \* Morfologianing sintaksis bilan aloqasi.



**1-topshiriq.** *Kitobni, kitobga, kitobim, kitoblar* so'zlarining hammasida takrorlanayotgan umumiy qism va unga qo'shilayotgan o'zgaruvchi qismni toping. Ko'makchi morfema (o'zgaruvchi qism) va yetakchi morfema (umumiy qism) ma'nolarini tushuntiring.

**2-topshiriq.** *Kitob* so'zining uch shaxsga munosabatini ko'rsating. Masalan, I kitobim. II ... , III ...

Shaxsga munosabatni ifodalayotgan qismlarni ayting.

Siz kitobning I bo'limida leksikologiya yuzasidan izchil ma'lumot oldingiz. Leksikologianing o'rganish obyekti leksik so'z (leksema) va uning ma'nolari ekanligini bilingiz.

Grammatika (grek. grammatica «harf o'qish va yozish san'ati», «harf») atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.



**Morfologiya** (yunon. *morfos* «shakl», *logos* «ta'limot» so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'limotdir.

Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi ham, morfologiya bo'limi ham so'z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo'lim so'zning qaysi tomoniga

e'tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so'z (leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, morfologiya so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfologik shakllarini o'rghanadi. Masalan, *qalam*, *qalamning*, *qalamni*, *qalamga*, *qalamdan*, *qalamda* shakllari bir so'zning (qalam so'zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so'z shakllarining hammasida takrorlanayotgan qalam qismi ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi yozish, chizish uchun mo'ljallangan grafit toshga yog'och qoplama o'rnatilgan o'quv qurolini bildiradi. Bu qalam leksemasining (leksik so'zning) atash ma'nosi sanaladi. Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'rGANILADI. Shu bilan birgalikda qalam so'zi *daftар*, *kitob* so'zlari singari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu esa qalam so'zining ikkinchi ma'nosi — grammatik ma'nosi sanaladi. Ana shu grammatik ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'rganiladi.

### ! Shunday qilib, morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo'yicha bahs yuritadi.

Ko'rindiki, so'zning leksik ma'nosi bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma'nolarini ifodalovchi umumiy grammatik ma'nolari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. So'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatik (predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, morfologiya bilan sintaksis o'rtasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

### ? Savol va topshiriqlar

1. Grammatika deganda nimani tushunasiz va u qanday qismlarni o'z ichiga oladi?
2. Morfologiya nimalar haqida bahs yuritadi?
3. Morfologiyaning leksikologiya bilan aloqasi haqida gapiring.
4. Morfologiyaning sintaksis bilan aloqasini ayting.

**219-mashq.** *Biz, obod, va, ozod, O'zbekiston, yasha so'zlari ishtirokida gap tuzing. Gap ichidagi so'zlarning bir-biri bilan bog'lanish holatlariga diqqat qiling. Gapda ishtirok etayotgan so'zlarning leksik hamda grammatik ma'nolarini aniqlang.*

**220-mashq.** *Hikoyatni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling. Mazkur so'zlarning leksik va grammatik ma'nolari haqida fikr yuriting.*

Ishini yaxshi bajargan odam ipak qurti kabitdir. Bir kuni o'rgimchak ipak qurtiga bunday dedi:

— Birodarim ipak qurt, ozgina pilla o'rash uchun necha kun tinmaysan. Men bo'lsam, bir devorni bir necha soatda o'rab **tashlayman**.

Ipak qurti unga:

— To'g'ri, o'rgimchak qardosh, sen qisqa vaqtida ishni bitira olasan, ammo qilgan **ishningning** birovga foydasi tegmaydi. Vaqtning zoye ketadi, vaqt qadrini bilasanmi o'zi? Men sekin, shoshilmay ishlayman, ammo tolamdan ajib, go'zal, **betimsol** matolar to'qiladi. Buni sen tasavvur qila olmaysan. Ipagim ajoyib ishlarga qodir. Insonlar mening mahsulimdan ko'p foyda ko'radilar. Oz ish qilaman, ammo ishimni puxta, toza qilaman. O'z san'atimni yaxshi ishlata bilaman. **Ishimni** shunday puxta qilganimdan baxtiyorman. Ishini yaxshi bajargan, san'atini yaxshi qo'llaganlarni Olloh sevadi. Payg'ambarimiz sevadi. Insonlar ham juda sevadilar, duo qiladilar. Mana shuning uchun men juda baxtiyorman va saodatmandman. Ishimni, vazifamni yaxshi bajaraveraman. Vaqtni bekor **o'tkazmayman**, — deb javob berdi.

**221-mashq.** Matnni o'qing. Onani ulug'lovchi maqol, matal, hikmatlarni eslang. Eng ma'qullarini daftaringizga ko'chiring. Ulardagi so'zlarning bir-biriga bog'lanish holatlariga e'tibor bering. Bu so'zlarning yana qanday grammatik shakllarga ega bo'la olishi mumkinligini o'ylab ko'ring.

Dunyoning zahiriyligi va botiniy ko'rkiga ko'rak qo'shib turgan eng oliy tuyg'u bor. Bu o'sha har kuni har bir qalb yangilab turuvchi muhabbatdir.

Bu tuyg'u, avvalo, ota-onaga bo'lgan mehrdan boshlanadi.

Azal-azaldan otalarimiz o'tirgan uyning tomiga chiqish gunoh hisoblangan. «Agar sen kaftingda cho'g'ni changallab 20 yillik yo'lni bosib o'tsang ham, onangning bir kechalik uyqusini buzib, alla aytgan va bergen oq sutini oqlay olmaysan», deyishadi ota-bobolarimiz. Onalar bu dunyoni tark etganda ham onaligacha qolishlari bor gap. Sababi, bir yigit go'zal bir qizga oshiq bo'libdi. U qiz esa yigitga: «Muhabbatning chin bo'lsa, onangning yuragini olib kel», debdi. Yigit ishq uchun o'zi oq sut berib o'stirgan onasining yuragini olib ketayotib yiqilib tushibdi. Shunda ona yuragi tilga kiribdi:

— «Jonim, bolam, yomon yiqilmadingni, u yer, bu yering lat yemadimi?»

Ha, do'stlar, ona mehrining sheri shu qadar yuksakki, hatto, u olamdan ko'z yumsa ham o'z farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi, unga baxt tilaydi.

Biz ham doimo onani qadrLAYLIK.

**222-mashq.** «Yoshlar — Vatanning qanotlari», «Kompyuter xonasi», «Qo'shma korxonalar hayotidan» kabi mavzularning birida matn yarating. Matndagi so'zlarning grammatik shakllariga diqqat qiling.

### ?

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Grammatika deganda nimani tushunasiz?
2. Grammatika necha qismdan iborat?
3. Leksik ma'no nima va uning grammatik ma'noga qanday aloqasi bor?
4. Morfologiya nimani o'rgatadi?

### **Tayanch tushunchalar**

grammatika, morfologiya, leksik ma'no, grammatik ma'no, so'z shakllari, sintaksis, so'zlarning bir-biriga bog'lanishi.

## **21.2. SO'Z TURKUMLARI**

**Darsning maqsadi:** so'z turkumlari va ularning tasnifi bo'yicha talabalarda bilim hamda ko'nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* So'z turkumlari haqida ma'lumot.
  - \* Mustaqil so'zlar.
  - \* Yordamchi so'zlar.
  - \* Undov, modal, taqlid so'zlar.

✓ **Topshiriq.** Berilgan matndagi so'zlarni turkumlarga ajrating.

Asal mijozni tozalaydi, tomir yo'llarini ravon qiladi, unda ho'llik va gazakni shimdiruvchi quvvat bor. U ho'llik va gazakni badanning chuquq yerlaridan tortadi, go'shtni sasish va buzilishdan saqlaydi, yaralarni bitiradi, ko'z xiraligini ketkizadi.

So'zlar borliqdagi nimani bildirishi (umumiyl grammatic ma'nosiga yoki bildirmasligi, ma'lum so'roqqa javob bo'lishi yoki bo'lmastigiga ko'ra, mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlarga bo'linadi).

!


**Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, atash va umumiyl grammatic ma'noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo'lgan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. Masalan, *gul* (*nima?*), *chol* (*kim?*), *chiroyli* (*qanday?*), *yuztacha* (*nechta?*), *keldi* (*nima qildi?*) kabi.**

! Ma'lum so'roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo'lmanan, faqat grammatik ma'no ifodalovchi, lekin o'zidan oldin kelgan so'zga grammatik shakl sifatida qo'shilib, u bilan bir lug'aviy urg'u ostida birlashmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi. Masalan, ammo, ham, faqat, -chi (ayt-chi), -mi (sizmi?) kabi.

Bulardan tashqari, mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o'zida ma'lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so'zlar bor. Bunday so'zlar undov so'zlar, modal so'zlar, taqlid so'zlarni o'z ichiga oladi.

So'zlarning umumiyligini grammatik ma'nolariga ko'ra ana shunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari sanaladi.

Shunday qilib, so'zlar, eng avvalo, uch guruhga bo'linadi: 1) mustaqil so'zlar; 2) yordamchi so'zlar; 3) oraliqdagi so'zlar (undov, modal, taqlid so'zlar). Mustaqil va yordamchi so'zlar ham o'z ichida bir necha turlarga bo'linadi: Mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh; yordamchi so'zlar: ko'makchi, yuklama, bog'lovchi kabi. So'zlarning turkumlarga bo'linishini quyidagi jadvalda ko'ring:



## ❓ Savol va topshiriqlar

1. So‘z turkumlari deganda nimani tushunasiz?
2. So‘zlarning mustaqil va yordamchi so‘zlarga bo‘linishida ularning qaysi belgisiga tayaniladi?
3. Oraliqdagi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatini tushuntiring.

**223-mashq.** «Ismoil Somoni maqbarasi» matnini o‘qing. Matnda ishtirok etayotgan so‘zlarni turkumlarga ajrating. «Registon maydoni», «Bibixonim masjidi», «Oqsaroy», «Ichon qal’ा» kabi tarixiy obidalarning tasvirlari asosida kichik hikoya tuzing. Ularda ishtirok etayotgan so‘zlarning qaysi so‘z turkumlariga kirishi to‘g’risida fikrlang.

### ISMOIL SOMONIY MAQBARASI

«Ilm-fanni egallash har bir muslima va muslimga farzdir». Bu da’vat ushbu shahardagi madrasa eshigining yuqori qismiga o‘yib bitilgan.

Buxoro O‘rtalari Osiyoning ko‘hna shaharlaridan. Bu o‘lkani va unda qad ko‘targan dastlabki shaharni aholi qadimda «Bug‘ora», ya’ni «tangri jamoli» deb yuritishgan.

Buxoro ko‘p asrlar davomida O‘rtalari Osiyoning asosiy shahri bo‘lib keldi. Bu esa arxitektura yodgorliklarining nihoyatda ko‘payib ketishiga sabab bo‘ldi. Hozir shaharni «muzey-shahar» desa arziyi. Bu nomga, butun manzaralari saqlangan holda o‘sib borayotgan qurilishlar, inshootlar juda mos keladi. Buxoro tarixiy obidalarga juda boy. Bu obidalardan biri Ismoil Somoni maqbarasi hisoblanadi.

Ismoil Somoni 849-yilda Farg‘ona shahrida tavallud topgan. 14 yoshida otasi vafot etib, akasi Nasr qo‘lida qolgan. Ismoil Somoni o‘z hokimligining (874—907) dastlabki davrlarida katta qiyinchiliklarga duch keladi.

Ismoil Somoni o‘z davrining yirik va aqli davlat arboblaridan bo‘lgan. U asosiy diqqat-e’tiborini o‘z davri uchun ilg‘or hisoblanmish markazlashgan davlat tizimini joriy etishga qaratdi. Ismoil Somoni shunday bir qudratli markazlashgan davlat barpo qiladiki, bu davlat o‘sha vaqtida Sharqda shuhrat topadi. Ismoil Somoni aqli, adolatl, shavkatli, fikr va tadbir egasi bo‘lgan. Ismoil Somoni 907-yilda vafot etadi. Taxtga o‘g‘li Ahmad (907—914) o‘tiradi.

Ismoil Somoni maqbarasi Somoniylar nomli madaniyat va istirohat bog‘ida joylashgan.

Maqbaraning ichki va tashqi devorlari jimjimador tiniq g‘ishtdan qurilgan. O‘sha vaqlarda koshin bo‘limgani uchun bino shunday usul bilan bezatilgan. Ustalar kvadrat shaklidagi g‘ishtlarni har xil usulda terib devorni badiiy jihatdan juda chiroyl qilib bezatganlar. Bu o‘ziga xos

naqsh maqbaraning tekis devorini juda nafis qilgan. Ertadan kechgacha quyosh og'ishgan sari maqbaraning g'isht bezaklari ham har xil tusga kirib tovlanadi. Oy yorug'ida, ayniqsa, chirolyi bo'ladi. Jahon arxitekturasida bu usulda bezatilgan birorta boshqa tarixiy yodgorlik yo'q. Shuning uchun ham maqbara jahon ahamiyatiga egadir. Agar bu maqbaraga har tomonlama qaraganda yetti xil tovlanadi.

Maqbaraning to'rt tomoni bir xilda. Maqbaraning yuqori qismida binoning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tgan qirq darchali yo'lak mavjud. Bu yo'lak yodgorlikning chiroyini biroz ochadi va uning vazmin gumbazini yengillashtiradi.

Maqbara kvadrat shaklidagi pishiq g'ishtdan qurilgan. Devorlari tekis bo'lib, to'rt tomonidan bittadan ravoqli eshigi bor. Yog'och xariga maqbaraning qurilgan vaqt va boshqa yozuvlar yozilgan, sharq tomoni binoning old tomoni hisoblanadi. Maqbara atrofiga g'ishtdan maydoncha qurilgan. Hozir bu yerga sayohatchilar tez-tez kelib turadi. Ismoil Somoniylar maqbarasini Vatanimizdan tashqari joylarda ham yaxshi biladilar. Maqbara kub shaklida bo'lib, yarimsharsimon qubba bilan yopilgan. Burchaklarida to'rtta kichkina qubba bor. Devori qalin bo'lganligi tufayli bu yodgorlik ming yildan beri yaxshi saqlanib keladi.

Ismoil Somoniylar maqbarasi har tomonlama o'z zamonasining manfaatlari va ruhini aks ettiradi.

Yozma manbalar va xalq rivoyatlariga qaraganda bu yodgorlik somoniylar sulolasi asoschisi Ismoil Somoniyning o'zi hayot bo'l-ganda otasining qabri ustiga qurilgan. Keyinchalik o'zi ham shu yerga dafn etilgan. Bu yodgorlik 892 va 907-yillarda qurilgan deb taxmin qilinadi.

**224-mashq.** «Ma'naviyatsiz kelajak yo'q» mavzusida insho yozing. Inshoda maqol, matal, ibora va shu kabilardan umumiy foydalananishga harakat qiling. Yozgan inshoyingizda qo'llanilgan so'zlarni so'z turkumlari bo'yicha tasniflab berishga harakat qiling.

**225-mashq.** «Zarbulmasal»dan olingen quyidagi maqol va matallarning mazmunini sharhlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni turkumlar bo'yicha tasnif qilib bering.

... **Anda** Qurqush aydi: «**Bor maqtansa** topilur, yo'q maqtansa chopilur» degan **yaxshilar** masali bordur. «**Boyo'g'lining** og'zini bir burchidan **ming** chordevor **chiqar** «qizimning qalini» **deb**. Holo hazrati Sayid Muhammad Umar ahd-u avonlarida olam — ma'mur, raiyat — masrur. **Har nechuk** abushqalar marvariddin, qurutkalar marjondin tasbehlar evururlar, bir bo'sh chordevor topilmas, uyolurmiz. «O'yylagan qo'l tek turmas», «Uyot o'limdin qattiq». **Va yana** aytmishlarki:

«Erman yag‘ochining **egilgani** — **singani**, er yigitning uyolgani — o‘lgani». Sani ahvoling olamga ma’lum. «Oyni etak **bilan** yopib bo‘lmas», «Chumchuq semurub botmon bo‘lmas»; «Olako‘zanak olmoni bo‘lsa **ham** arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham ahvoli ma’lum».

## ❓ *Savollarga javob bering*

1. Morfologiya deb nimaga aytildi?
2. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning qaysi xususiyatlariga diqqat qilinadi?
3. Mustaqil so‘z turkumlari qaysilar?
4. Yordamchi so‘z turkumlariga qaysi so‘zlar kiradi va nima uchun?
5. Oraliqdagi so‘zlar qaysilar?

### **Tayanch tushunchalar**

morfologiya, mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, oraliqdagi so‘zlar, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, bog‘lovchi, yuklama, taqlid so‘z, undov so‘z, modal so‘z.

---

## 22-DARS. OT VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** ot va uning uslubiy xususiyatlari haqida talabalarda bilim hamda ko'nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Ot va uning grammatic shakllari.
  - \* Otlarda son ma'nosining ifodalanishi va ularning uslubiy xususiyatlari.
  - \* Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarda ko'plik va egalik shakllarin o'rinalashishi.

✓ **Topshiriq.** Berilgan matnni ko'chiring, otlarning tagiga chizing va qanday shaklda ekanligini aytинг.

Yashash, bu — orzular qanotin kermoq,  
Yashash, bu — muhabbat gullarin termoq,  
Yashash, bu — umrning gulgun damlari,  
El uchun yashamoq, el uchun bermoq.

(O. Matjon)

Borliqdagi narsa va hodisalarning, afsonaviy tushunchalarning nomi ot turkumiga mansub ekanligini bilasiz. Shuningdek, otlarning turdosh va atoqli otlarga bo'linishi, son (birlik-ko'plik), egalik va kelishik shakllariga, shuningdek, ba'zan erkalash — hurmat shakllariga ega bo'lishi haqida ham o'rta umumiy ta'limdi ma'lumotga ega bo'lgansiz.

Otlardagi yuqorida ko'rsatilgan grammatic shakllar nutq jarayonida turli xil uslubiy xususiyatlarga ham ega bo'ladi.

Otlar son-miqdor ma'nosiga ega va u birlik yoki ko'plik shakllari orqali ifodalanadi. Birlik nol ko'rsatkich (maxsus grammatic ko'rsatkichning yo'qligi)ga ega.

! Ko'plik -*lar* qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Bunga morfologik yo'l deyiladi. Masalan, uylar, do'stlar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo'lgan sanoq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini: ko'p, ancha kabi so'zlarni qo'shish yordamida ham ko'plikni ifodalash mumkin. Bunga esa sintaktik yo'l deyiladi. Masalan, *ko'p odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar* kabi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plik shakli sanaluvchi *-lar* otlarga qo'shilib doimo ko'plikni bildiravermaydi. U birlik ma'nosini o'zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda *-lar* hurmat, tasviriylikni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, *ko'zlarimga ishonmayman*. («O'tkan kunlar») Bu jumladagi *ko'zlarimga* so'zini birlik shaklga — *ko'zimga* shakliga almashtirib ko'ring. Ikkinci holat bilan birinchi holat bir xil ma'noni — birlik ma'nosini (bir kishining ko'zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta'sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo'q. Yana solishtiring:

*Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi — Bolalarning shovqinidan boshim og'rib ketdi.* Har ikki holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so'zidagi *-lar* ko'plikni bildirmsandan, bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma'no esa ikkinchi holatda yo'q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklda kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan, *Ko'chaga qum to'kilgan yoki Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam*.

Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganda ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. *Suvlar* (gazli suv, mineral suv kabi); *bozordagi unlar*. Ba'zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko'z yoshini artdi — ko'z yoshlarini artdi*.

Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: Olimjonlar kelishdi (*bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari*); *Mirzacho'llar obod bo'ldi* (*Mirzacho'l va unga yaqin joylar*).

Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shilib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishiha ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rinalashishi farqlanadi:

1. I shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelganda ko'pincha egalik qo'shimchasi oldin, ko'plik qo'shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, *Dadamlar keldilar. Opamlar salom aytdilar*. Agar bu tartib o'zgarib, ko'plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, shaxsning ko'pligini ifodalash mumkin: Qiyoqlang: *Opalarim kelishdi*.

2. Ko'plik shakli. II shaxs egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanilganda, ko'plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *Xayriniso, dadamning opalari bo'ladilar*.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Otning son shakli deganda nimani tushunasiz va qanday ifodalanadi?
2. Ko‘plik shakli qanday vaqtarda birlik ma’noni o‘zgartirmaydi va bunday holatda qanday vazifalarni bajaradi?
3. Qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarda ko‘plik va egalik shakllarining o‘rinalashishi qanday bo‘ladi?

**226-mashq.** O‘qing, ot so‘z turkumining nutqimizda qay darajada ishtirot etishiga diqqat qiling. Ona tilimizni boyitish va sofligini saqlash uchun nimalar qilishimizni bilib oling.

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi faqat o‘zbeklar uchungina emas, balki respublikamiz hududida yashayotgan barcha millat vakillari uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki bu qonun o‘zbek tilini Davlat tili sifatida e’tirof etish bilan birga, respublikamizda to‘p bo‘lib istiqomat qilayotgan boshqa xalqlar tillarini ham himoya qiladi.

## ?

### Savollarga javob bering

1. Ona tilimizga davlat tili maqomini berishdan maqsad nima?
2. «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun moddalaridan aytib bering.

**227-mashq.** «Qonun va ijro» mavzusida uy inshosi yozing. (Bunda asosan 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonunning hayotga tatbiq etilishini yoriting).

**228-mashq.** «Yaxshi so‘z — muxtasar» mavzusidagi matnni o‘qing. Ot so‘z turkumining matnda ishlatalishiga e’tibor bering.

## YAXSHI SO‘Z — MUXTASAR

Bir donishmanddan shogirdlari:

— Nima qilsak tinch va rohatda umr kechiramiz? — deb so‘radilar.

Donishmand:

— Hech qayerda hech kimga birorta so‘z so‘zlamang, sukut eting, — deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

— Axir, doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Bosh-qacha yo‘l ko‘rsating! — dedilar.

Donishmand shunday maslahat berdi:

— Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira ham nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchining ko‘nglini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehr-u vafo,  
Nomunosisib so‘zlasang, yetgay jafo.

Ha, til bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham — boshga balo. Shuning uchun donishmandlar so‘zni doriga o‘xshatadilar. «Ortiqchasi zarar keltiradi», — deydilar. Bu fikrni ulug‘ bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» nomli ilk turkiy badiy asarida shunday bayon etgan:

Tilingni avayla — omondir boshing,  
So‘zingni avayla — uzayar yoshing.  
Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malik,  
Ortiq so‘z qiladi va boshni egik.

Bu fikrlar bundan o‘n asr ilgari aytigelan. Shundan buyon bu mavzuda yana qanchadan qancha durdona fikrlar dunyoga keldi, ammo odamlarning SO‘Zga bo‘lgan munosabati hamon turliligicha qolmoqda. Buning boisini XX asr shoiri Tolib Yo‘ldosh shunday izohlaydi:

Bir so‘z bilan har kishi  
O‘zligini ko‘rsatar,  
So‘z gavharin ko‘pincha  
Dono olar, ko‘r sotar.

Afsuski, o‘zlarining bo‘lar-bo‘lmas gaplari, mahmadonaliklari bilan kishilarning asabiga tegadigan va, eng muhimmi, ularning sog‘lig‘ini, qimmatli vaqtlarini o‘g‘irlaydiganlar hali ham kam emas. Duchi kelgan kishiga qalbini ochiq maktubday yoyib yuradigan bunday kimsalarga ko‘cha-ko‘yda ham, oshxona va majlislarda ham, bazni-u jamshidlarda ham tez-tez duchi kelib turamiz.

Alisher Navoiy bunday kishilarni kechalar tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshatadi va davom etib yozadi: «Oz gapirmoq hikmatga sabab; oz yemoq — sog‘liqqa sabab. Og‘ziga kelganni demoq — nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq — hayvonning ishi»

Bayt:

«Ko‘p demak birla bo‘limgil nodon,  
Ko‘p yemak birla bo‘limgil hayvon».

Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so‘zlarnigina aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim.

(S. Mo‘minov)

## ✓ *Toshpiriqlar*

1. Yuqoridagi matnda berilgan maqol va she'riy parchalarni yod oling.
2. Nima uchun bir til 32 posbon ichiga olingan, degan muammoli savolni babs-munozaraga aylantiring.
3. So'zlash odobiga oid quyidagi maqollarni ham bilib oling:  
 «Gap egasi bilan yurmaydi», «So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing — oltin», «Saqlangan so'z sof oltin», «Aytmasdan burun so'zga sen ega, aytgandan so'ng senga so'z ega», «Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt», «Arzimagan gap og'izda qolsin!»

**229-mashq.** Otlarning quyidagi nomlar bildirishiga misollar yozing.

Shaxs nomlari		Hayvonot nomlari		Narsa-buyum nomlari		O'simlik nomlari	
shaxs va kasb	qarin-doshlik	uy hayvonlari	yovvoyi hayvon	qurol-asлаha	kiyim-kechak	o'simliklar	mevalar

**230-mashq.** Mavhum otlarni quyidagi guruhlarga ajrating.

Belgi-xususiyat bo'yicha	Harakat-holat bo'yicha	Voqeа-hodisa bo'yicha
yaxshilik	chopiq	urush

So'ng tubandagi matnni o'qib, tilshunos olim A. Hojiyevning o'zbek tili takomiliyati uchun amalga oshirgan ishlari haqida babs-munozara yuriting.

**AZIM PO'LATOVICH HOJIYEV  
(1933—2012)**

Filologiya fanlari doktori (1968), professor (1977), O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000) Azim Hojiyev o'zbek tili morfologiyasi, so'z yasalishi, leksikologiyasi va leksikografiyasi, orfografiyasi bo'yicha bir qancha asarlari bilan o'zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissasini qo'shdi. Ular orasida «O'zbek tilida ko'makchi fe'llar» (1966), «To'liqsiz fe'l» (1970), «Fe'l» (1973), «Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi» (1979), «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»(1980), «O'zbek lingvistik terminlarining izohli lug'ati» (1984), «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati» (2002) kabi asarlari alohida qimmatga ega.

A. Hojiyev o‘rtá va oliv maktablarda ona tilini, hozirgi o‘zbek tilining nazariy muammolarini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha ham barakali faoliyat ko‘rsatmoqda. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida oliv o‘quv yurti filologiya fakultetlari talabalari uchun «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» — 1-qism (1980) darsligi, o‘rtá maktablarning V—IX sinflari uchun «Ona tili» dasturi (1992) va darsligi (1992—1994) yaratildi.

**231-mashq.** Ko‘chiring. Matndagi atoqli otlarni toping, ularning yozilishiga alohida e’tibor bering.

### AHMAD AL-FARG‘ONIY

Ahmad al-Farg‘oniyning to‘liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniyidir.

U VIII asr oxirlarida Qubo (hozirgi Quva) shahrida dunyoga keladi. Quva shahri o‘sha davrning madaniy-ilmiy markazlaridan bo‘lgan. 20 yoshgacha Quva shahrida yashab, shu yerda ta‘lim oladi.

Uning nomi o‘sha davrlardayoq keng tarqalib, Mary shahriga taklif etiladi. Ahmad al-Farg‘oniy nomi ko‘p o‘tmay shunchalik e’tibor qozondiki, 30—35 yoshlarida uni «Tinchlik shahri» deb atalgan Bag‘dodga «Bilim uyi», ya’ni «Xizonat al-hikma» yoki «Bayt ul-hikmat»ga taklif etishadi. Uning ko‘philik asarlari Ma’mun huzurida yashagan davrida yaratildi. Uning mashhur «Kitob javome» ilm an-nujum val-harakat as-samoviya («Astronomiya va sayyoralar harakati») kitobi ham o‘sha davrda yaratildi.

Olimning asarlari XII asrdayoq Italiya, Fransiya hamda Germaniya universitetlarida o‘qitala boshlandi. Bu davrda uning mashhur asarlari lotin tiliga, Ya’qub Onado‘liy tomonidan ibroniyligiga o‘girildi.

Ahmad al-Farg‘oniy Ovro‘pada Alfraganus nomi bilan mashhur bo‘ldi. Uning qo‘lyozmalari dunyo bo‘yicha tarqalgandir. Amerikaning Princeton universiteti, Sankt-Peterburg, Qohira, Parij, Mexiko va Hindistonda olimning qo‘lyozmalari mavjudligi ro‘yxatga olingan.

Al-Farg‘oniy kabi buyuk bobokalonlarimizning nomlarini va asarlarini tiklashimiz milliy qadriyatlarimizni anglashda, o‘zligimizni idrok etishimizda ibratli saboq bo‘ladi.

(N. Ibrohimov)

**232-mashq.** Ot yasovchi qo‘srimchalar bo‘yicha «Bu meniki» o‘yin-topshirig‘ini bajaring.

I guruh — qurol va narsa oti yasovchilar;

II guruh — belgi hamda mavhum ot yasovchilar;

III guruh — holat-harakat otini yasovchilar.

Quyida so‘zlarning o‘rnii aralashtirib berilgan. So‘zlardan siz o‘zingizga tegishli bo‘lgan qo‘srimchani ajratib oling.

Muattarligi, bilim, surma, cholg‘u, ishonch, chiqindi, tepki, ushlagich, ravshanlik, o‘rash, tuyg‘u, mangu, sevinch, etik, borliq, tortma, oshnoligim, tuzum, og‘u, to‘kinlik, to‘kinchilik, tirkak, bo‘shlik, tortindi, bilim, boshim, tortiq, ezbilik, tilagim, siniq, buzuq, handaq, yotoq, intiq, taxmon, boylik, orzu, boylam, tutatqi, insoniylik, bolaligim, yelpig‘ich, boyligim.

Yuqoridagi so‘zlarni nima uchun o‘z guruhingizga yozganingiz sababini tushuntiring.

**233-mashq.** Otlarni topib, yasalishini tushuntiring.

## DOR PAYROVI

**AYNIDDIN AKA:** — E, kelinglar mullo Ubaydullo, Sotvoldixon, Jaloliddin. Bu DORning tagiga kim olib keldi sizlarni? Yoki «Osilsang baland DORga osil» deb yuribsizlarmi?

**UBAYDULLO:** — Ha, hunar xumor qilarkan, Ayniddin aka. Bir paytlar hammamiz binoyidek DORBOZ edik. Qo‘yib bersa hali ham bo‘sh kelmaymiz. Faqat mana bu Jaloliddin amaldor bo‘lgandan beri arqondan qochadigan bo‘lib qoldi.

**SOTVOLDI:** — To‘g‘ri aytdingiz. Buning ustiga xiyla dimog‘ DOR ham. Shunaqa bo‘Imaganda yaxshi tomoshalar ko‘rsatib, haligacha nishonDOR bo‘lardi.

**AYNIDDIN AKA:** — Gapni juda to‘g‘ri aytdingiz. Ichimizda o‘ziga qarab yuradigan husnDOR ham Foziljon edi-da.

**FOZILJON:** — Ayniddin aka, siz bizning guruhni tark etmasdan DORda «ha, ha» deb tursangiz o‘sha ham tuyaga maDOR-da.

**UBAYDULLO:** — Sotvoddi aka, xalq ichida yurish-turishingizni ko‘rganlar baho berishyapti: «Bu juda taqvoDOR!» deb.

**SOTVOLDI:** — Qo‘yinglar, mayli, Jaloliddin aka yuqoriga chiqmasa chiqmasin. Bilasizlar-ku bu juda jahIDOR. Yana birortasini ustiga langarni tushirib yuborib aybDOR bo‘lmasin.

**AYNIDDIN AKA:** — Foziljon, boshqalar DORda o‘yin namoyish qilsa, bir chig‘iriqda o‘ynamaysizmi, sizda iqtidOR bor-ku.

**FOZILJON:** — Ayniddin aka, Jaloliddinni taklif qilsak, ikkita toshni qo‘lida, bittasini og‘zida tishlab bir o‘yin ko‘rsatsin-a, ishimiz juda samaraDOR bo‘lardi-da.

**JALOLIDDIN:** — Foziljonning inisi: «DORbozlarni ko‘rasizlar, qaranglar» deb, qo‘snihsining o‘g‘illari ELDOR bilan SARDORni olib chiqibdi.

**SOTVOLDI:** — Jaloliddin ham bir narsani bilmasa ish qilmaydi. Qo‘snihsining bolasini olib chiqib o‘ynatsa ham odamlar aytadi-da, «Bu vafoDOR» deb.

**234-mashq.** Quyidagi mashqdan morfologik usul bilan yasalgan otlarni toping va ularni izohlab bering.

Aytishlaricha, bir badavlat kishining yakka-yu yagona o‘g‘li bo‘lib, u nihoyatda isrofchi va behuda sarflochchi edi.

Ota o‘z o‘g‘lining noqobil ekanini bilgani uchun oldindan chora ko‘rib, o‘lar paytida unga nasihat qilib debdi:

— Ey, o‘g‘lim, men o‘lganimdan keyin boyliklarimning bari senga qoladi. Ishonchim komilki, sen ularning barini behuda sarflab bitirasan. Qo‘lingda hech narsa qolmay, ochlik va nochorlik bilan oxiri o‘limingga rozi bo‘lasan. Men narigi uyning burchagidagi toming shipiga bir arqon bog‘lab qo‘yibman. Jondan to‘yan paytingda o‘zingni o‘sha arqonga osgin!

Ota shu gaplarni aytib jon berdi. Noqobil o‘g‘il ko‘p o‘tmay, barcha pullarni sarflab tamomladi. Oxiri gadoylik qilishdan or qilib o‘zini osib o‘ldirishga qaror qildi. Otasi tayinlab ketgan uygaga kirib, arqonning uchini bo‘yniga solib, o‘zini osdi. Tom to‘sini uni ko‘tarolmay sinib ketdi. Shu onda tuproq aralash otasi ataylab o‘g‘li uchun bekitib ketgan boyliklar yerga tushdi. Mehnat bilan topiladigan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il endi pulni o‘ylab ishlata digan, xayrli yo‘llarga sarflaydigan bo‘ldi. Otasi xotirasi uchun xalqni xushnud qilishga va saxovat nuridan bahramand qilishga kirishdi.

**235-mashq.** Arastu pandnomasini o‘qing. Yasama otlarni topib, izohlang.

Ey Iskandar, dilingni ilm bilan obod qil, ilmsiz kishilar bilan suhbat qurma, umringni behuda o‘tkazma, muvaffaqiyatlaringga mag‘rurlanma, gina-hasad qiluvchilarni uyingga kiritma, gina-kuduratdan o‘zingni xoli tut, birovga nisbatan gina saqlama, yomonlig-u ochko‘zlik qilishdan qoch, yaxshilig-u saxiylik qilishga intil. Yaxshi kishilarni yaxshi so‘z va yaxshi hadyalar bilan sarafroz-u dilxush qil. Tarbiya ta’sir qilmaydigan kishilar bilan yaqinlik qilmaginki, bo‘ri yoki ilon ahyon-ahyonda zarar yetkazadi, ammo zarari halokatl bo‘ladi.

Ey Iskandar, birov bilan maslahatlashadigan bo‘lsang aqlli va dono kishilarni topib maslahatlash, oliyimmat kishilardan yordam so‘ra.

Maqtovlarga, balandparvoz so‘zlarga uchma, qo‘li ochiq va saxovatli bo‘l, biror yerga yetsang u yerdagi sinalmagan suvlardan ichma, biror yerda notanish meva-chevaga duch kelsang, uning foyda-zararini bilmay turib yema!

Har kim dono bo‘lsa yeish bobida,  
Bilmagan narsasin yemaydi zinhor.

Biror yo'lda zarar ko'p bo'lsa agar,  
Kuchi ko'p bo'lsa ham yurmaydi zinhor.  
Sinalmagan yo'l-u cho'l yaqin bo'lsa ham,  
Sinalgan uzoqdan qolmaydi zinhor!

Ey Iskandar, safar-u sayohatga chiqqanda shunchalik yuk olginki, uni ko'tarib yurishdan o'zing bezor bo'limagin, buning ustiga kuch-qudratdan ham qolmagin. Sharob ichishni odat qilmaki, u behushlik va g'ofilikka olib boradi. Sadoqat — vafo nimaligini biluvchi kishilarni hamisha aziz tut. Qiyinchilik onlarida sabr-bardosh yo'ldoshing bo'lsin, umidsizlikka tushma. Kimki birov larga jabr-sitam qilaversa, o'zi ham uzoq yashamaydi. Birov senga jabr-u jafo qilgan bo'lsa yoki sen birovga yaxshilik qilgan bo'lsang, har ikkovini ham unut. Murod-maqsadingga yetgan fursat-onlaringda xanda urib kulmaki, atrofda turganlarga xunuk ko'rinasan. Agar ish aksincha bo'lsa, g'am-u anduhingni birov larga bildirma!

**236-mashq.** Jamoa bo'lib fikrlash uchun uch guruhga bo'lining. O'z joylaringizni egallab doira shaklida o'tiring. (Bu vaqtda musiqa qo'yiladi. Uchala guruhga ham savollar beriladi. Savollarga javob hozirlayotgan paytda ham musiqa ijro etiladi. 10 minutdan so'ng barcha guruhdagilar joylariga o'tiradilar. Guruh boshlig'i savollarga javobni aytib beradi yoki o'qib beradi.)

### Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin

1-g u r u h g a

1. Ot so'z turkumining grammatik ma'nosini aytинг.
2. Otlarning yasalishini tushuntiring.
3. Nutqda otning o'rni va ahamiyati haqida gapiring.
4. So'z yasovchi qo'shimchalarни aytинг.
5. So'z yasovchi qo'shimchalar mavjudligining nima ahamiyati bor?
6. Yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasini aytинг.
7. Kelishik shakllari o'rtasidagi sinonimiya qanday bo'ladi?
8. Ko'makchi va kelishiklar sinonimiyasini tushuntiring.

2-g u r u h g a

1. Ot so'z turkumining morfologik xususiyatini aytинг.
2. So'z yasovchilar o'rtasida antonimiya bo'ladimi?
3. Sof ko'makchilarni kelishik bilan almashtiring.
4. Qaratqich kelishigiga ta'rif bering.
5. Kelishiklarning qo'llanishiga ta'rif bering.
6. Harakat — holat oti qanday bo'ladi?

7. Qaratqich kelishigi bilan tushum kelishigining farqini aiting.
8. Sintaktik usul bilan ot yasalishi deganda nimani tushunasiz?

### 3 - g u r u h g a

1. Bir kelishik qo'shimchasining o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkinmi?
2. Atoqli otlarni turdosh otlarga aylantiring.
3. Sifat turkumiga oid so'zlardan hosil qilingan atoqli otlarni aiting.
4. Fe'llardan hosil qilingan atoqli otlarni yozing.
5. Ikki yoki undan ortiq o'zakdan hosil bo'lgan atoqli otlarga misollar keltiring.
6. Vosita ma'nosini bildiruvchi kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar orasidagi sinonimiyani misollar bilan tushuntiring.

**237-mashq.** Ot so'z turkumiga oid so'zlarni toping va ularni izohlang.

## HADIS NAMUNALARIDAN

*Rahmli va mehribon Tangri nomi bilan  
Rasululloh alayhissalom aytadilar:*

Iljni o'rghanib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir.

\* \* \*

Qaysi bir xalqning ichida jinoyat va gunoh ish qiluvchilardan ko'ra qilmaydiganlar ko'p va kuchli bo'la turib ularni tiyib qo'ymasalar Tangrining ofati hammalariga barobar bo'ladi.

\* \* \*

Inson farzandi yaratilganda yonida o'limning 99 sababi ham birga yaratiladi. Agar u shu o'limlardan xalos topib yashasagina, unga qarilik nasib etadi.

\* \* \*

Odamlar bilan murosa-yu madorada bo'lish ham sadaqa hisoblanur.

Garchi o'zlarining amal qilmasangiz-da, odamlarga amri ma'ruf qilaveringlar va garchi o'zlarining saqlanmasangiz-da, yomon ishlardan boshqalarni qaytaraveringlar.

\* \* \*

Foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so'rab, har bir narsa, hatto dengizdag'i baliqlar ham istig'for aytadilar.

\* \* \*

Bemorni ko'rgani borganda uning peshanasiga qo'lni qo'yib hol-ahvol so'rash barkamol ziyyorat hisoblanadi. Qo'l berib ko'rishib salomlashish mukammal bo'ladi.

**238-mashq.** Franklinning dono fikrlarini o'qing. Otlarning uslubiy xossalariqa diqqat qiling.

- Ishingni qamchila, toki ish seni qamchilay boshlamasin.
- Qunt — omadning onasi.
- Yerga engashganning qomati oliftaning bo'yidan balandroq.
- Qo'shnining uyidan o'z vaqtida ket, to u sendan bezib ketmasin.
- Qarzini o'z vaqtida qaytaradigan kishi — boshqalarning hamyoniga xo'jayindir.
- Qabrga kirganda to'yib uqlab olarsan.
- Erta turib, erta yotish — sog'lom, boy va dono qilur.
- Bitta bugun ikkita ertagi kunni bosadi.
- Ko'proq rohat topay desang, undan nariroq qoch.
- Eng yaxshi xizmatkoring bo'lishini istaysanmi? Unda o'zingga o'zing xizmat qil.
- Oz-oz tejilib, katta-katta sarmoya hosil bo'lur.
- Bitta o'choqqa o'tin g'amlashdan ko'ra ikkita o'choq qurish yengilroq.
- Dastlabki maylni yengish undan keyin keladiganlarini qondi-rishdan osonroq.
- Nafsing bilan maslahat qilishdan avval hamyoning bilan kengash.
- Ishlaydigan kalit doim yaraqlab turadi.
- Barcha bilan xushmuomala, ko'pchilik bilan dilkash va ayrimlar bilan apoq-chapoq bo'l.
- Yalqovlik — xuddi zang: ishlab to'zganga qaraganda tezroq yemiradi.
- Bahona izlaydigan ustaning usta ekani shubhali.

- Ishni nazorat qilmaslik — ishchilarga hamyonni olib qo'yishday gap.
  - Uch marta ko'chish bitta yong'in bilan teng.
  - Arraning qipig'i mayda, ammo chinorni qulatadi.
  - Hayitgacha qarz olsang, ertaga hayit deyaver.
  - Maslahat berish mumkin-u, g'ayrat berib bo'lmaydi.
1. **Tiyilish** — to'yib ketguncha yemaslik, kayf bo'lguncha ichmaslik.
  2. **Sokinlik** — faqat o'zingga yoki boshqalarga foyda keltirish mumkin bo'lgan so'zlarni so'zlash, quruq gaplardan qochish.
  3. **Tartib** — har bir buyumni o'z joyida saqlash; har bir mashg'ulotga muayyan vaqt ajratish.
  4. **Qat'iyat** — nimani qilish lozim bo'lsa, so'zsiz shunga kirishish; kirishilgan narsani esa so'zsiz bajarish.
  5. **Tejamplilik** — pulni faqat yaxshilik keltiradigan ishlarga sarflash, ya'ni hech narsani isrof qilmaslik.
  6. **Mehnatsevarlik** — vaqtini bekor o'tkazmaslik; har doim foydali biror ish bilan mashg'ul bo'lish; har qanday befoyda mashg'ulotdan voz kechish.
  7. **Samimiyat** — yolg'on yoki allov bilan hech kimga zarar keltirmaslik, solih va adolatli fikr yuritish; bu tamoyillarga gapirganda ham amal qilish.
  8. **Adolat** — hech kimga zarar keltirmaslik;adolatsizlik qilmaslik va zimmadagi ezgu ishlarni bajarmay qo'ymaslik.
  9. **Me'yor** — hech narsada haddan oshmaslik; adolatsizlik tufayli tug'iladigan alam tuyg'usini imkonli boricha tiyish.
  10. **Ofiyat** — badan bulg'anishiga yo'l qo'ymaslik; kiyinish va turar joyda orastalikka amal qilish.
  11. **Xotirjamlik** — arzimas narsalar hamda odatdag'i yoki muqarrar holatlardan hayajonga tushmaslik.
  12. **Donolik**.
  13. **Kamtarlik** — Suqrotga taqlid qilish.

**239-mashq.** O'qing. Ot so'z turkumiga xos so'zlarni toping va ularni belgilang.

Aziz farzandlar! Siz o'z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko'z qarog'larisiz. Ammo, unutmang: tanbal, daqqi, bezori, sharobxo'r, g'irrom, fosiq, giyohvand, fahsh kishi ma'naviy nogiron degan so'z. Unga hech kimning ko'zi uchib turgani yo'q. O'zi uchun, qorni uchun yashab, nafs gadosi bo'lib yurganlar jamiyat uchun «ortiqcha odamlardir».

Azizlar! Fan cho'qqilarini egallang. Tokim ilmiy taraqqiyotda biz faol «iste'molchi» emas, faol bunyodkorlik maqomini qo'lga kiritaylik.

(*G'aybulla as-Salom*)

**240-mashq.** Sirojiddin Sayyidning «Vatan nadir?» she'rini ifodali o'qing. So'ng she'rni nasriy bayon qiling.

## VATAN NADIR?

Vatan nadir — anglang ranj-u ozoridan,  
So'rang uni Mirzo Bobur mozoridan.  
O'z zuryodin haydab gulshan, gulzoridan,  
Dovonlarda bag'ri biryon yurt edi bu.

Dilni o'rtar hamon g'am-u g'urbatlari,  
Yot ellarda qolib ketdi turbatlari,  
«Fig'onkim...» deb o'tdi qancha furqatlari,  
Yorkentlarda ko'zi jayron yurt edi bu.

O'zi gulday o'g'lonlarin saylab berib,  
Nomlarini ro'yxatlarga joylab berib,  
Cho'lponlarin o'zi itday boylab berib,  
Izlaridan o'zi giryon yurt edi bu.

Kelgandi nom borki bunga kelib ketgan,  
Cho'ntaklari tillolarga to'lib ketgan,  
Yana xokisor el ustidan kulib ketgan  
Mehmoni ko'p, mute mezbon yurt edi bu.

...Nadir millat qudratining tamadduni?  
Amir Temur haykalidan so'rang buni,  
Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni?  
Jahongiri bexonumon yurt edi bu.

Bir sultonni Xudo yurtga qarab bergay,  
Olam ahli so'ng u yurtga taraf bergay,  
Abadiyat qadar unga sharaf bergay,  
Sharaf-shoni ro'yi jahon yurt bo'ldi bu!

(*Sirojiddin Sayyid*)

Ayrim so'zlar izohi: **turbatlari** — tuproq, yer, ziyyaratgoh, maqbara, **giryon** — yig'lovchi, yig'lab turgan; **bexonumon** — uy-joysiz, darbadar, **ro'yi jahon** — yer yuzi.

**241-mashq.** Quyida berilgan mashqimiz «Xato topping» deb nomlanadi. Noto‘g‘ri qo‘llangan kelishik qo‘srimchalarini aniqlang.

1. Azizlarim, tinglasangiz jim,  
Bir suhbatning keldi-da gali.
2. Insonga eshitish qobiliyatni tufayligina til, nutq paydo bo‘ladi. Qulog‘idan kirgan tovush, so‘z, gap va iboralar shaklida og‘ziga chiqadi, shuning uchun ham donishmand xalqimiz: «Suv onasiga — buloq, so‘z onasiga — quloq» deb bejiz aytmagan. Shu bois qadimda homilador ayollarga zavqli qo‘sriqlar, ramzli, ta’sirchan so‘zlardan-da tashkil topgan latifalar, hikmatlar aytilgan, ona tabiatidan, ruhli holatidan qarab xatga-harakat qilingan, ta’sirchanda so‘zlar topilgan.
3. O’tkir Hoshimov tinglamoqlik san‘ati haqida: «Meni shu qadar yurt e’tiboriga tushmog‘imda bir kichik xislat, ya’ni tinglash, tinglay olishligim ko‘proq yordam bergen bo‘lsa ajab emas. Negaki, men shu kun qadar tinglagan, tinglayotgan saboqlarimni yurtni o‘ziga asar sifatida taqdim etyapman», degan edi.
4. So‘z tinglaganda u yoq-bu yoqqa alanglab yoki hardamxayollik bilan emas, alohida e’tiborda tinglaganlar. Ayniqsa, kattalar tomonidan berilgan dashnom, tanbehni sukut saqlab eshitganlar.
5. Qarashda noravo narsada kar bo‘l, tinglashda noloyiq, gap-so‘zda kar bo‘l.
6. Tinglash ham so‘zlashga kam baholanmaydigan mehnat bo‘lib, uni qonun-qoidalariga amal qilsangiz, yaxshi suhbatdosh bo‘lishni birinchi va eng muhim shartiga amalda qilgan bo‘lasiz.
7. Ona tilidan mahrum bo‘lish — onadan ajrab qolishdan ham mudhishiroq.
8. Ey, qobil farzandi arjumand, iloyo, sizning yomon ko‘zdan, nogahoniy ajal, balo-qazolardan, bevaqt o‘lim va tuhmatlardan o‘z panohiga asrasin.

**242-mashq.** Yozing, gaplarda **-lar** qo‘srimchasi qanday ma’no anglatayotganini aytинг. Uslubiy xususiyatini izohlang.

1. Bu hayot chashmasi qoshiga bizlar kabi juda ko‘p kishilar keldilar, tiriklik nash‘asiga g‘arq bo‘lib, o‘ltirdilar, so‘ng bir-bir abadiy yo‘qlik sari ketdilar.
2. Boburning yoniga Hofiz Qo‘ykiylar tashrif buyurdilar.
3. Bu buligo‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi uning ko‘ngillariga zavq bag‘ishlamas edi.
4. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat va toqi ravoqda tanho o‘tkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chog‘lardagina Yusufiyni chaqirib chog‘ir buyurar edi.
5. Meni Sohibqiron «yetti iqlimning shamsi anvari», «shahanshohi olam» deb ko‘klarga ko‘taradilar, deya hasratli tovush bilan

so‘zlardi Bobur. 6. Humoyun Mirzo kecha oqshomlarda muborak huzuringizga otlangan ekan. 7. Ilohim, tangri o‘z panohlarida asrasin sizni. 8. Begimlar ham, Nozimalar ham hali men aytgandek o‘qib edilar, dedi Gulbadanbegim, 9. Kamina qulingizning sadoqati ham, jasorati ham zoti muboraklariga kundek rayshandir. 10. Zoti shariflari ijozat etsalar. 11. Tabarruk bitiklari nomuborak quloglarimizga sazovor ko‘rilsa, boshlarimiz ko‘kka yeturdi. 12. O‘zlari ham tashrif buyuribdilar-da?

(X. Sultonov)

### **Ot so‘z turkumi va uning xususiyatlariga oid grammatik topishmoqlar javobini toping**

1. Koning, noning, taronang  
Kitobing, sening tuning.  
Qaratqich kelishikning  
Qo‘srimchasi qaysi-ning?
2. Seni, qani ham, ya’ni  
Tuni, meni ham eni.  
Tushum kelishigining  
Qo‘srimchasi qaysi-ni?
3. Tuning, to‘ning  
Kunning, koning,  
Qaratqich qo‘srimchasi  
Toping, qaysi-ning?
4. Toshkentlik, farg‘onalik,  
Oylik, ellik, sutchilik.  
So‘zlarda bor -lik, -chilik,  
Nimadir -lik ham -chilik?
5. G‘ayratliga hamrohman,  
Dangasadan yiroqman.  
Kim doim vaqtli tursa,  
Jismoniy mashqlar qilsa,  
Unga quvvat beraman,  
Bunda ko‘pdir ot so‘zlar  
Kim topib, topib so‘zlar.
6. Nonni kam yegin yozda  
Ko‘proq yurgin piyoda  
Olma, o‘rik, shaftoli  
O‘rik, bodom va oli,  
Qovun, tarvuz, ko‘ksulton,  
Gilos, olcha, do‘lana,

Yo qishda yong‘oq, asal,  
Tandan ko‘chadi kasal.  
Necha ot, necha fe'l bor,  
Toping berib e'tibor?

7. Qama bo‘lar qachon ot,  
Bo‘ya bo‘lar qachon ot?  
Yama, bo‘ya ham tara  
Qachon bo‘lib qolar ot?

### **Topishmoqlarning javobi**

1. Sening so‘zidagi -ning.
2. Seni, meni so‘zlaridagi -ni.
3. Kunning so‘zidagi -ning.
4. Ot yasovchi qo‘srimchalar.
5. Beshta mavhum ot.
6. Besh dona mavhum ot.  
(18 ta ot, 4 ta fe'l bor).
7. «q» qo‘srimchasini olganda.

### **❓ Savollarga javob bering**

1. Ot deb nimaga aytildi?
2. Otlarning ko‘plik shakli qanday vositalar orqali yasaladi?
3. Otlarning uslubiy xossalari deganda nimani tushunasiz?
4. Yasama otlar qanday hosil qilinadi?
5. Atoqli otlarning hosil bo‘lish yo‘llari haqida gapiring.
6. Turdosh otlarga misollar keltiring va ularni izohlang.

### **Tayanch tushunchalar**

turdosh ot, atoqli ot, birlik shakl, ko‘plik shakl, egalik shakl, kelishik shakl, hurmat shakl, ot yasalishi, morfologik usul bilan ot yasalishi, sintaktik usul bilan ot yasalishi.

## 23-DARS. SIFAT VA UNING USLUBIYATI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda sifat va uning xususiyatlari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Sifat haqida umumiy o‘rta ta’limda olingan bilimlarni eslash.
  - \* Sifat ma’nodoshlari uslubiyati.
  - \* Sifat ma’nodoshlaridan nutqda o‘rinli foydalanish.

✓ **1-topshiriq.** Tug‘ilgan yurtingiz haqida sifatlardan foydalangan holda kichik hikoya yozing. Qaysi sifatlardan foydalanganingizni va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aytинг.

**2-topshiriq.** Matndan sifatlarni toping. Ularning qanday belgilarni ifodalayotganini aniqlang.

Oh sukunat portlar saharda,  
Kun nurida yonib, yaraqlab  
Chopib kirar sovuq shaharga  
Yalangoyoq yashil daraxtlar.

(*Shavkat Rahmon*)

! **Sinfingizdagи mavjud narsalar:** stol, stul; devorga osilgan taxta; o‘quv qurollaringiz, kitob, daftар, qalam, ruchka va boshqalarining hammasi ma’lum belgilarga (**rang, hajm, shakl — xususiyat kabi**) ega. Masalan, stol ko‘k, sariq; baland, past, katta-kichik singari hajm-shaklga ega. Ana shunday belgilarni ifodalovchi so‘zlarning sifat hisoblanishi haqida o‘rta umumiy ta’limda ma’lumot olgansiz.

Ma’lum belgi bir necha so‘zlar orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan: katta, ulug‘, ulkan, buyuk, gigant; chiroyli, go‘zal, xushro‘y, bejirim va boshq. Bunday so‘zlar muayyan bir umumiy ma’no asosida birlashsalar ham, lekin ular bir-biridan ma’lum farqlanishga ham ega. Bunday farqlanish ularning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishida, ma’lum uslubga xoslanishida aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, *odam* so‘zi katta, *buyuk*, *ulkan*, *ulug‘* sifatlarini qabul qila oladi, lekin *gigant* sifati odam bilan bog‘lana olmaydi. Chunki u qurilishlarda binolarning shakl-belgisini

ifodalashga xoslangan. Shuningdek, *ulug'*, *buyuk* so'zları shakl belgisidan tashqari xususiyat belgisini ham ifodalaydi. Bunday vaqtida ular bilan ma'nodosh bo'lib keladi. *Ulkan, gigant* so'zlarida esa bunday ma'no yo'qligi uchun ular bilan ma'nodoshlikni hosil qila olmaydi.

Shuning uchun ham sifatlarning ma'nodoshlarini bilish va o'z o'rniда qo'llay bilishi so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatadi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatlar sinonimiyasiga misollar keltiring.
3. Sifatlar sinonimiyasining nutqda tanlanish imkoniyati haqida gapiring.

**243-mashq.** Berilgan mashq. «Xato toping!» deb nomlanadi. Matnni o'qigandan so'ng sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ikki ustunga bo'lib ko'chiring. Xato yozilgan o'rirlarni aniqlang va so'zlarni to'g'rilab qo'ying.

## HAYO KO'ZDAN BILINUR

Hayotiy tajribalar va olimlarning xulosalari shundan dalolat bermoqdaki, odamzot dunyoga kelib neki topgan bo'lsa, hayo va ibo tufayli, neki yo'qotgan bo'lsa, hayosizlik va ibosizlik tufaylidir. Bu tuyg'u inson deb atalmish eng sirli mo'jizani hayvonod dunyosidan farqlaydigan, tabiat va jamiyat muvozanatini saqlab turadigan eng nozik, eng ilohiy tuyg'udir.

Yaratganga beedad shukrlar bo'lsinki, u o'zi suygan bandalarining qalbida mudrab yotgan halol va xaromning, ibo bilan xayosizlikning farqiga borish tuyg'usini qaytadan uyg'otmoqda.

Bizga sadoqatlik do'st, iboli suhbatdosh tanlashda odamlarning so'zidan ham ko'ra, ularning ko'zları ko'proq yordam beradi. Ulug'lar yuziga har qanday holda ham tik boqmaslik bizga ota-bobolarimizdan qolgan tabbarruk merosdir. Jumladan, payg'ambarlarimizdan hikoya qilingan kitoblardan birida bu haqda quyidagi rivoyat ibratli bitilgan: «Payg'ambarimiz Ibrohim Halililloh tush ko'rdilar. Tushlarida vahiy kelib, qurban kerak, dedi. Ibrohim yuz tuya qurbanlik qildi. Parvardigor: — Bir dilga ikki suyaklik sig'mas: yo Ismoilni (Ibrohimning o'g'li) yoki meni degil, — dedilar. Halil o'g'lini qurbanlik qilishga rozilik berdi. U o'g'lini yuvintirib, kiyintirib safarga olib chiqib, qurban qilishga taraddudlandi. Shunda shayton Ismoilga:

— Otang sening joningni olishga olib ketyapti. Sen qochib, ket, — dedi.

Ismoil shaytonning so'ziga kirmadi, aksincha, otasining qurboni bo'lishga rozilik berdi va otasiga quyidagi iltimoslarini bildirdi:

1. Qo‘limni bog‘lab qo‘yingki, qizg‘ish qonim sizga sachrab osiy bo‘lmayin.

2. Qonli to‘nimni onamga elting. Toki menga to‘ymagan onam duo qilib tursinlar. Bergan oq sutlariga rozi bo‘lsinlar.

3. Boshimni kesar holatda yuzimni yerga qaratib qo‘yingki, Sizga bog‘araz nigoh bilan boqib qo‘ymayin.

Ota-o‘g‘il yig‘ladilar. Ota o‘g‘il aytganlarini bajardi. Ibrohim o‘tkir pichoq uchini Ismoilning bo‘g‘ziga tiradi. Pichoq o‘tmadi. Halil pichoqni qattiq toshda urdi. Tosh kesildi... Shu payt hazrat Jabroil bir katta qo‘chqor keltirdi va Ismoilga tahsin aytib, shu qo‘chqorni qurbanlik qilishni buyurdi...» Qarang, hatto qurban qilmoqchi bo‘lgan chog‘ida ham ota ra‘yiga qarshi bormaslik, jumladan, unga g‘araz nigoh bilan boqib qo‘yishdan qo‘rqishlik tuyg‘usi Ismoilni banogox o‘limdan qutqarib qoldi. Aksincha, bo‘lganida esa uning o‘limi muqarrar edi. Ma’lum bo‘lishicha, ota-onha va ustozlar yuziga har qanday sharoitda ham tik boqmaslik nafaqat o‘zbeklar, balki butun muslimmonlar uchun xos ekan.

**244-mashq.** O‘qing, sifatlarning uslubiy xususiyatlari, ya’ni predmetning belgisini qiyoslab, kuchaytirib, darajalab ko‘rsatilishini tushuntiring.

## MILLATNI BIRLASHTIRUVCHI BAYROQ

Aslida ma’naviyat tushunchasi ma’rifat va madaniyat tamoyillari bilan birga milliy mafkurani ham o‘z qamroviga oladi. Milliy mafkura nazariy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, u ma’naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Mafkura falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy-estetik tafakkurning nazariy asoslariga suyanadi.

Prezidentimizning «Kuch — bilim va tafakkurda» degan dono hikmati mafkura haqidagi mulohazalarimizga tag‘in ham oydinlik kiritdi. Ana shu shiordek eng yangroq, eng teran mushohadalar haqida o‘ylarkanman, beixtiyor olis moziy esga tushadi...

Bizning milliy mafkuramiz ko‘p ming yillik juda boy merosimizga, milliy qadriyatlarimizga, mutafakkir, ajdodlarimiz ta’limotlariga va ilg‘or zamondoshlarimizning zakovatiga suyanadi va ayni mahalda umumbashariy ma’naviyatning sarchashmalaridan oziqlanadi. Shuning uchun ham tub mohiyatiga ko‘ra millatimiz mafkurasi ham baynalmilal, ham umuminsoniydir. Mafkurmizning yagona milliy mafkura ekanligi va bu maqomning O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan va shu yurtning fuqarosi sanalgan 130 dan ziyod millat vakillari manfaatlariga zid kelmasligi barchaga ayon. O‘zga millat vakiliga ham ikki davlat fuqaroligi huquqining berilmasligi biror millatga mansub vatandoshimiz qadr-qimmatini o‘zgalardan juda yuqori tutmaslik yoki kamshitmaslik natijasidir.

Albatta, Oktabr to'ntarishidan keyin eng zukko jadidlar va taraqqiyat parvar ziyolilar shakllanib borayotgan bugungi mafkuramizni orzu qilgan bo'lishlari mumkin. Shunday bo'lgan chog'da ham ularning ezgu-umidlari faqat farazligicha qolib ketishi tayin edi. Qizil imperiya hukm surgan davrda milliy mafkura tamg'asida bo'lish taxayyulning o'zginasi edi, xolos.

Qizil imperiyaning sho'rolarga xos, ya'ni har qanday milliy tuyg'uni tahqirlovchi yakkahokimlikka asoslangan eng jirkanch mafkurasini yurtboshimiz tamoman yaroqsiz, deb topdi va barcha tamoyillarining mustabid tuzum manfaatlariga xizmat qiluvchi mohiyatini ohib tashladi.

(M. Xidir)

**245-mashq.** «Ranglar jilosи» deb nomlangan matnni o'qing, sifatlarini topib ularning uslubiy xossalari belgilang.

**Oq rang** tozalik, musaffolik, iffat, yorug'lik, donishmandlik, haqiqat va ezgu — iroda ramzidir. Bular oq rangning bir jihat, biroq boshqa jihatiga ko'ra u motam, o'lim, qo'rkoqlikni ifodalarydi. Yaponiya va Xitoyda aynan oq rang motam va qayg'u rangi hisoblanadi.

**Qora rangli kiyim** kiyishni yoqtiruvchi odam hamma narsalarga qarshi, o'jar. Isyon bilan hammasidan voz kechishni istaydi. Bu holat kishining kuch to'plashi uchun vaqtincha chekingan, tin olgan davriga muvofiq keladi. Qora rangning ijobjiy sifatlari ham yo'q emas: masalan, nikoh to'ylarida kuyovning qora kastum-shimda bo'lishi yoki qora kastum-shimning rasmiy marosimlarda kiyilishi bu rangning obro'-e'tibor, tantanavorlik ramzi ekanligini ham ifodalarydi.

**Qizil rang** inson hayotidagi eng kuchli hayajonni ifodalarydi. Mutaxassislarning kuzatuvalariga ko'ra, kishining qizil rangli kiyim tanlashi uning o'zini namoyon etishga bo'lgan harakati bilan bog'liq. Shuningdek, qizil tartibsizlik, inqilob, mayjud tartib-qoidalarga bo'ysunmaslik, ularni rad etish alomati hamdir. Qizilning manbayi olov, u issiqlik va harorat beradi, shuningdek, u muhabbat rangi ham hisoblanadi.

**Sariq rang** — ochiqlik, faollik, ozodlikka va kuch-quvvatga intilish rangi. Sariq quyosh va yoz faslining rangi, u kelajakka umidvorlikni o'zida ifodalarydi. Sariq oltin rangi bo'lganligi uchun shon-shuhrat va ilohiy hukmronlik ramzi ham hisoblanadi.

**Kulrang** u na oq, na qora, o'rtalikdagi neytral chegara rangdir. Kimki bu rangga ko'proq moyil bo'lsa, demak, u o'zini hamma narsadan to'sib chegaralab olishni, har qanday majburiyatlardan xalos bo'lib, hech narsada ishtirok etmaslikni istaydi. Kulrang kiyigan odam boshqalarning o'zi haqida bilishlarini istamaydi: kulrang — sirlarni yashirish xususiyatiga ega.

**Ko'k rang** — ochiq osmon va dengiz rangi sifatida o'zida yuksaklik va chuqurlikni ifoda etadi. Ruhshunos olimlar ko'k rangning inson asablariga

tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Boshqa jihatdan ko'k beo'ylik, turg'unlik, hayotdan ajralib qolish kabilarni ifodalaydi. Havo-yilik, havoyi o'ylar kabi iboralar ham ko'k rangning ana shu sifatlari bilan aloqador. Ko'k sodiqlik va tartib-intizom rangi ham hisoblanadi.

**Yashil rang** — tiriklik, o'sish va umid ramzi. Bahor fasli chechaklari rangi. Boshqa bir jihatiga ko'ra u zahar, kasallik va g'o'rlikni ham bildiradi. Shuningdek, yashil rang mo'l-ko'Ichilik, to'kin-sochinlik, rivojlanishni ham bildiradi. Islom dinida yashil ilohiy rang sanaladi.

**246-mashq.** Maqol va hikmatlar ichidan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni toping, sifatning otga o'tish holati bormi?

Baxil boyga borguncha,  
Karamli tog'ga borar.

Baxildan tosh so'raguncha,  
Gadoydan osh so'ra.

Nomardga yalinma,  
Bir baloga chalinma.

Aqsiz do'stga kular,  
Aqli do'stini suyar.

Johil ulfat — boshingga kulfat.

Yaxshi do'sting kuldirar,  
Yomon do'sting kuydirar.

Aybsiz do'st izlagan do'stsiz qolar.

Issiq kiyim tanni ilitar,  
Issiq so'z jonni ilitar.

Noinsofga erk bersang, elni talar.

**247-mashq.** Nuqtalar o'rniga sifat turkumiga oid so'zlarni qo'yib ko'chiring.

...Farzandlar! Bilginki, insonga beriladigan... sifat odobdir. ...axloqqa ega bo'lishi ham odobdan sanaladi. Xush va odobli kishilarga barcha, hatto dushmanlari ham tan beradi. ... odamni esa, hamma insonlar, hatto ota-onasi ham yomon ko'radi.

Odob har bir fazilatga yo'ldir.

Kimki yoshligida.... bo'lmasa, bir umr bad... qolib ketishi mumkin.

Majlis odobi. Ey... bolam! Maktabga borsang, o'z o'rningga o'tirasan, ammo... kishilar orasida... roq joyga o'tirganing afzal. Ikki kishining o'rtasiga ularning ... hech qachon o'tirma. Ohista va muloyimlik bilan o'tir. Gapisang gaping... bo'lsin. Shoshma-shosharlik qilma, pala-partish gapirma. Ko'p

kulishdan, hazil-mutoyibadan uzoq bo'l! Barmog'ing bilan burningni o'ynama. Tuplamagin. Esnasang, chap kaftingga orqasi bilan og'zingni bekit. «Astagfirulloh» degin. Aksirsang, darhol «Alhamdulilloh» degin. Hammaga... yuzlik, muloyimlik bilan gapir.

Muomala odobi. Ey farzandim! Inson yolg'iz yashay olmaydi. Qalblar hamisha bir-biriga ... talpinib turadi. Shuning uchun... do'stlar paydo bo'ladi, o'zaro hamjihatlik yuzaga chiqadi... odamlar bir-birlariga yordam beradi, ko'ngillar ulfat tutinadi. Do'stlarining mehrini qozonay desang, ulardan ... munosabat ko'rishni xohlasang, sen ham ularga... muomalada bo'lishing lozim. Xulqi... bolalarni yaxshi bo'lishga chaqir. Yolg'on gapirishdan, dangasalikdan butunlay hazar et.

(A. Hikmatov)

**248-mashq.** Ko'chiring, sifatlarning ma'nodoshlarini topib yoniga yozib bering.

N a m u n a : 1. Yoshlardan yurak jo'shqinligi, qalb qo'ri, bilak kuchi, teran (zukko, yuksak) aql-idrok talab qilinadi. (*G'aybulla as-Salom*) 2. Auditoriyaga qomatini tik tutgan, xushbichim, o'ziga yarashgan kastumshim, ustidan yupqa qavilgan beqasam to'n kiygan, oyog'ida zamonaviy tuqli, bo'ynida chiroyli galstugi, ko'zida tilla gardishli ko'zoynagi bor, kalta mo'ylov qo'yan, moshrang do'ppili kishi viqor bilan kirib keldi. (*B. Do'storayev*) 3. Kattaqo'rg'on suv ombori o'nlarcha chaqirimlarga cho'zilib, kengayib zumrad ko'l kabi adirlar o'rtasida yoyilib yotadi. 4. XX asr ikkinchi yarmida dunyoning ijtimoiyat bilan juda jiddiy va juda chuqur shug'ullanadigan qismida «globalizm» degan tushuncha vujudga keldi. (*I. Gafurov*) 5. Aldov, makr, xiyonat bilan hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar ishonuvchan xalqlarni bir umrga tutqunga olish, johil bo'lib qolish, mehnatdan boshi chiqmasligi, o'zligi, qadr-qimmati, taqdiri, istiqboli haqida o'ylamasligi uchun ozmuncha sa'y-harakat qilishmadi. 6. Chet ellarda vatandoshlar ona yurt haqida ko'zidan yosh, titroq hayajon bilan gapirishlari, bir siqim tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilishlari haqida o'qigan, eshitgan edik, o'zimiz guvoh bo'ldik, deydi Anvar. (*S. Umirov*) 7. O'zbekiston deb atalmish bizning mamlakatimizda mohir jurnalistlar anchagina. 8. Shayx Jaloliddin Kubrodek ulug' zotlar, Sulton Jaloliddin Manguberdidek bahodir farzandlar timsolida boshlangan va yarim asr davom etgan Vatan ozodligi uchun kurash ona xalqimiz uchun nihoyatda og'ir kechdi. (*M. Abdullayev*)

### Tayanch tushunchalar

sifat, sifatlarda ma'nodoshlik, shakl belgisi, xususiyat belgisi, rang belgisi, maza-ta'm belgisi.

---

## **24-DARS. SIFAT DARAJALARI VA SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALARING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **24.1. SIFAT DARAJALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** sifat darajalaridan o'rinli foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Sifatlarda belgining darajalanishi haqida.
  - \* Sifatlarda belgining darajalanishini ifodalovchi vositalar.

✓ *Topshiriq.* Qora sifati bildirgan rangning turli darajalarini va ular qanday ifodalanishini ko'rsating (kuchsiz, kuchli).

Sifatlar belgini to'g'ridan to'g'ri (oq, ko'k kabi) yoki bir belgini qiyoslab, darajalab ko'rsatishi ham mumkin. Masalan, *ko'kish*, *ko'kintir*, *ko'm-ko'k*, *to'q ko'k*, *och ko'k* va boshq. Bulardan ko'k belgini to'g'ridan to'g'ri ifodalab uning me'yorda ekanligini; *ko'kish*, *ko'kintir*, ko'k belgining me'yordan kam ekanligini, ko'klik haqidagi tasavvurimizga yetmaganligini, *ko'm-ko'k*, *to'q ko'k* sifatlari esa belgining me'yordan ortiq, kuchli ekanligini bildiradi.

! **Odatda, sifatlarning uch darajasi ajratiladi: a) oddiy daraja;**  
**b) orttirma daraja; d) ozaytirma daraja.**

Belgining ortiq-kamlik munosabati ifodalanmaydigan sifatlar oddiy darajadagi sifatlar sanaladi. Bunday sifatlarda maxsus daraja hosil qiluvchi vosita bo'lmaydi. *Shirin*, *go'zal*, *oq*, *qora* singari sifatlar oddiy darajaga mansubdir.

Belgining mo'ljaldan ortiqligini, kuchliligini bildirgan sifatlar orttirma darajadagi sifatlar hisoblanadi.

Bunday sifatlar: 1. Oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo'g'inidagi oxirgi undoshning *m* yoki *p* undoshiga almashtirib yoki shunday undosh qo'shib sifat oldidan takrorlash orqali: *ko'm-ko'k*; *sariq* — *sap-sariq*, *qizil* — *qip-qizil* kabi;

2. Tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish yo'li bilan: *achchiq* — *a:chchiq*, uzun — *u:zun*; *chiroyli* — *chiro:qli* kabi;

3. Sifat oldidan *juda*, *g'oyat*, *nihoyatda*, *behad* singari so'zlarni qo'shish yo'li bilan: *yaxshi* — *juda (behad, g'oyat, nihoyatda)* *yaxshi* kabi.

Belgining mo'ljalidan kamligini, kuchsizligini ifodalaydigan sifatlar ozaytirma darajadagi sifatlar hisoblanadi.

Bunday sifatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi: 1) sifat oldidan *sal*, *picha*, *ozgina*, *xiyol*, *biroz* kabi so'zlarni keltirish yo'li bilan: *to'la* — *sal to'la*, *achchiq* — *ozgina achchiq*; 2) sifat oxiriga *-roq*, *-(i)sh*, *(i)mtir* qo'shimchalarini qo'shish orqali: *sariq* — *sariqroq* (*sarg'ish*, *sarg'imir*) kabi.

Bular ichida *-roq* qo'shimchasi *biroz*, *sal*, ba'zan *nim*, *och* so'zlar bilan sinonim bo'lib keladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnidagi ikkinchisini qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, *qizilroq* — *sal qizil*, *biroz qizil*, *och qizil* kabi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Sifat darajalari deganda nimani tushunasiz?

2. Sifatning qanday darajalarini bilasiz?

3. Uchta sifat topib, uni turli daraja shakllarida keltiring. Ma'no farqini tushuntiring.

**249-mashq.** Sifatlarni toping. Ularning uslubiy xossalari aniqlang.

## ODAMNI BILISH

- Ko'z ravshan bo'lsa, qalbning oqligi, xush-xurramlik belgisidir.

- Ko'z kichik bo'lsa, ojizlik va g'am-anduhga botganlik belgisidir.

- Ko'z yirik bo'lsa, ablah va nodonlikdan dalolatdir.

- Ko'z harakatsiz, xira bo'lsa ham ablakhlikning dalilidir.

- Ko'z kichik va xira bo'lsa, ochko'z va molparast bo'ladi.

- Ko'z tim qora bo'lsa, badgumon va qo'rqaqlikdan belgidir.

- Ko'z moviy bo'lsa, besharm, bevafo, e'tiqodi va imon sustligi dalilidir.

- Ko'z yoshlanmaydigan (va benur) bo'lsa, unday kishi odamlar qonini to'kishga shay bo'ladi.

- Agar ko'k, qora yo shahlo ko'zda qora nuqtalar va feruzarang qo'shilgan bo'lsa, u kishining ichi qora, o'zi shahvatga o'chdir.

- Kimning ko'zi g'oyat yaxshi ko'rsa, uning achchig'i tez chiqadir.

- Kimki kulganda ko'zida yosh yiltillasa, u yaxshi xulq-atvor egasidir.

- Kimki ko'zini tez-tez yumib ochsa, u sodiq do'st va yomon ishlardan xoli kishidir.

**250-mashq.** -roq orqali shakllangan sifatlarda boshqa vositalar, ya’ni -dan, qaraganda, ko’ra, nisbatan kabilar ham ishtirok etishiga misollar yozing.

**251-mashq.** -iy, -viy sifat yasovchi qo’shimchalar yordamida so‘zlar yasang va ularning o‘zagini toping.

N a m u n a : ilmiy, ruhiy, ma’naviy, badiiy, Fuzuliy, lug‘aviy, hajviy, jismoniy, dunyoviy, nasriy, aqliy, kimyoviy, Nizomiy, axloqiy, samoviy, Nasimiy, lisoniy, fazoviy, mafkuraviy, ashayoviy...

**252-mashq.** Ranglar xarakteringizni belgilaydi. O’rtoqlaringizning qaysi rangni yoqtirishiga qarab turib xarakterini aniqlang.

QIZIL RANG — Harakatchan, irodali, o‘ziga ishonuvchan. Oilada qattiqqo‘l, talabchan.

OLOVRANG — Ko‘ngli ochiq, ulfatchilikni yoqtiradigan, jozi-bador.

SARIQ RANG — Bilimli, maqsad sari intiluvchan, hayotga muhabbat bilan qarovchi.

HAVORANG — Aqli, ehtiyyotkor, ko‘nglidagi gapni ochiq aytaver-maydigan, xushomaddan yiroq.

OQ RANG — Xayolparast, yolg‘izlikni yoqtiradigan, qalbi pok.

KULRANG — Og‘ir-bosiq, o‘y-fikr bilan ish ko‘radigan.

QORA RANG — Faqat o‘zini o‘ylovchi, xudbin, boshqalarning yutuqlarini ko‘ra olmaydigan, ichi qora.

**253-mashq.** Grammatik o‘yin. Katakchalarни sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan to‘ldiring. Kim tez va to‘g‘ri to‘ldiradi.

Asliy sifat	Nisbiy sifat	Sifatning daraja shakli	Sifatning orttirma shakli	Yasama sifat

### Tayanch tushunchalar

oddiy daraja, ozaytirma sifat, kuchaytirma sifat.

## 24.2. SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALARING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** sifat yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi va ularning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

- R e j a:**
- \* Tub va yasama sifatlar.
  - \* Sifat yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi va ularning uslubiy xususiyatlari.

✓ **Topshiriq.** Quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalarning ma'nodoshlarini aniqlang. Ular o'rtasidagi umumiyligi va o'ziga xos jihatlarni ayting. Shirali — ... suvli — ...

! **Sifatlarning tub va yasama bo'lishidan xabardorsiz.** Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz belgi bildiruvchi so'zlar tub sifatlar sanaladi. Masalan, go'zal, xunuk, oq, qora kabi. Yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan hosil qilingan sifatlar yasama sifat hisoblanadi. Masalan, suv so'ziga -li qo'shimchasi qo'shish orqali o'zak ifodalagan narsaning mayjudligini, me'yordan ortiqligini (suvli) bildiradi, -siz qo'shimchasini qo'shish orqali esa, aksincha, o'zak ifodalagan narsaning yo'qligini yoki me'yordan kamligini (suvsiz) bildiradi.

Sifat yasovchi -li qo'shimchasi -dor, -kor qo'shimchalari va -old qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, go'shtli—go'shtdor, gunohli—gunohkor, mazali—bemaza kabi; lekin doimo ham ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, yurakli, kuchli so'zlarini bayurak, yurakdor, yurakkor, kuchdor, bakuch, kuchkor deb bo'lmaydi.

Sifat yasovchi -siz qo'shimchasi be-, no- old qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, umidsiz, beumid — noumid; lekin ularni ham doimo bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, aqslizni beaql deyish mumkin, lekin noaql deb bo'lmaydi. Shuningdek, nomard, noma'lum singari so'zlardagi no-old qo'shimchasini be- old qo'shimchasi va -siz qo'shimchasiga almashtirib bo'lmaydi, chunki bu so'zlar fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tayyor holda o'tgan. Hozirgi o'zbek tilida yasalgan emas.

Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinni foydalanish katta ahamiyatga ega.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Yasama sifat nima va qanday vositalar yordamida sifat yasaladi?
2. Sifat yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Sifat yasovchi qo'shimchalarni bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydigan holatlarni aytинг.

**254-mashq.** Uyga topshiriq. O'qigan badiiy asaringizga taqriz yozing.  
Unda yasovchi qo'shimchalarni ham ishlating.

**255-mashq.** Talabalarga eslatma!

1. O'z nutqingizda keng iste'molda bo'limgan so'zlarni ko'proq ishlating.
2. Yetarli darajada so'z boyligiga ega bo'ling.
3. Gapda so'zlarni o'rini va me'yorida ishlating, gapni grammatic jihatdan to'g'ri tuzing, tasviriy vositalardan unumli va o'rini foydalaning.
4. To'g'ri yozish ko'nikmasini hosil qiling.
5. Matn yaratish qobiliyatini o'zingizda mujassam eting.
6. Matnni tahlil qilishga o'rganing.
7. Mushohada malakasiga ega bo'ling.
8. So'z ma'nodoshlaridan unumli foydalaning.

Aziz talaba! Og'zaki va yozma nutq jarayonida yuqoridagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan tinglovchigina so'z xazinasining durdonalaridan oqilona foydalana olgan bo'ldi.

Topshiriq. Yuqoridagi fikrlarga amal qilib, «Bir qultum suv» mavzusida matn tuzing. Bu grammatic o'zin-topshiriq «Matnni davom ettiring» deb ataladi. (Har bir talaba bittadan gap yozib, bog'lanishli matnni davom ettiradilar.)

Topshiriqni bajarganingizdan so'ng esa matnda ishlatilgan sifat so'z turkumiga e'tibor bering va uning ostiga bir chiziq chizing.

**256-mashq.** Sifat yasovchi qo'shimchalar dagi antonimlik munosabatini, shuningdek, ularning ma'nodoshini ham aytинг. O'quv xonasidagi birinchi qator insondagi ijobiy fazilatlarni (rostgo'y, kuyunchak), ikkinchi qator shu so'zlarning qarama-qarshi ma'nolari — salbiy fazilatlarini (yalqov, yolg'onchi) topadilar.

**Ijobiy:**

mehrli  
beozor

**Salbiy:**

bemehr  
dilozor

**257-mashq.** O'qituvchi matn o'qiydi. Talabalar uning ichidan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni xotiraga joylab o'tiradilar. Talabalar matnni tinglab bo'lganlaridan so'ng sifat so'z turkumiga oid so'zlarni navbat bilan aytadilar, o'qituvchi uni yozuv taxtasiga yozib boradi. (Bu mashqni guruhlararo musobaqa tarzida o'tkazish mumkin.)

## KARVON QO'NG'IROG'I

Karvon qo'ng'irog'i jarangi. Bugun va o'tmish sadosi uyg'unlashadi. ... Bir yonda yangi-yangi keng, ravon ko'chalar, osmono'par zamonaevi binolar bilan sayqal topgan ulug' poytaxt — shahri azim, mustaqil yurt faxri — Toshkent! O'zini anglamoqchi bo'lgan, avvalo, poytaxtini sevadi.

Bir yonda Asaka zavodi. O'zbekning yengil mashinalari. Nelarga qodir emas bu xalq. Kechagina «Senlar bitta velosiped ham ishlab chiqarolmaysan» degan g'animlarimiz ko'rsinlar buni.

Bir yonda Kamchiq dovoni. Yaxshilar yo'l quradi, ko'priklar bunyod etadi. «Savob ishni har kuni qil, har dam qil».

Sanasak faxr etgulik muvaffaqiyat ko'p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga suv-u havodek zarur — ulug' ne'mat — Tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog'iga talpinyapmiz.

«Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo'yanida bizning o'rnimiz qayerda va qanday bo'ladi?»

«Xon bo'lsang-da bog' yarat, gadoy bo'lsang-da bog' yarat — bir kunmas bir kun mevasini tatirsan».

Yangi mingyillikda O'zbekistondek beباو bog', gulshan diyor bilan kirib boryapmiz. Yangi dunyoga xarobalar emas, mana shunday ko'rkam bog'lar yaratib bergen xalqning to'rdan joy olishga haqqi bormiyo'qmi? «Yaxshi niyat — yarim davlat». Bu so'zni mendek bir qalamkashning niyati deb qabul qilsangiz, murod hosil. Zero, yangi ostonada turgan, avvalo, yaxshi niyat qiladi.

Qaysiki oila, qaysiki bino va qaysiki asr poydevori poklik asosiga qurilar ekan, unda totuvlik, hamjihatlik adolat va tinchlik barqaror bo'ladi.

Yangi mingyillik!

Yangi asr!

Men senga pok g'isht qo'yishni istayman. Karvon qo'ng'irog'i eshitilyapti. Hayajonli tarixiy damlar.

Yana ming yillardan so'ng shunday hayajonli daqiqalarda avlodlari-mizning yangi dunyoni pok kutib olishlarini istayman.

(To'lqin Hayit)

**258-mashq.** Berilgan matnni o'qing, sifat yasovchi qo'shimchali so'zlarni ajrating. O'rniga uslab tomondan mos tushadigan sinonim so'zlar qo'yib ko'chiring.

## QALB GO'ZALLIGI — INSON ZIYNATI

Odamzod hamisha go'zallikka intilib yashaydi. Afsuski, bunda tashqi ko'rк-tarovat-u husn-malohatning hamisha qo'li ustun. Ma'naviy pokdamonlik, qalb go'zalligi ko'pincha e'tibordan chetda qolib, o'z bahosini topavermaydi. Vaqt o'tishi bilan yuz-ko'zdagi o't-o'lov o'rnini son-sanoqsiz ajinlar egallaydi, adl qomat esa kamondan to'n kiyadi.

Botiniy malohat esa aksincha. Xuddi sharshara ostidagi gavharmijoz yillar davomida sayqallashadi, yangi-yangi qirralari ochiladi, tobora tiniqlashib, ruhiy kamolat sari ko'tariladi.

Biroq, inson inson-da, o'tkinchi dunyoga aldangani yetmaganiday ko'zga tez tashlanuvchi «yulduz»larga umid bog'laydi va tong yorishib, quyosh borliq uzra zarrin nurlarini sochgandagina qalbida son-sanoqsiz armonlar ila adashganini anglab yetadi. Kunning haqligini kunduzi barcha barobarligini tushunaveradi. Bor hikmat shundaki, uning qudratini tundayoq his etmoqqa qodir tafakkur kerak.

Insoniyat yaralganidan buyon davom etib kelayotgan surunkali ofatlardan biri bu komil inson qadr-qimmatini vaqtida baholay olmaslik, qadriga yetmaslik, iliq nafasiga qulqutmay, g'animat damlarni g'aflatda, razolat va jaholat iskanjasida o'tkazmoqlikdir. Biroq, bu ham xatoning oxiri emas. Hamma balo poklikni inkor etish bilan nopolklar yo'liga poyandoz to'shalishidadir. Goho hayratdan yoqa ushlaysan: nahotki, ezgulikning peshanasi bu qadar sho'r bo'lsa, oqillikning puch yong'oqchalik qadri sezilmasa, yaxshilar jazo topsa, yomonlar sarbaland yursa?

Yo'q, bunchalik emas. Axir, inson uchun dil farog'atidan ortiq ne'mat bormi? Nega gunohlarimizdan pushaymon bo'lish, istig'for aytish, tavba-tazarru qilish, oxiratni o'ylash o'rniga oxirgi nafasga qadar moddiy boylik, mol-dunyo uchun o'zimizni o'tdan cho'qqa uramiz, dil oynasini xiralashtiramiz. Holbuki, bu dunyoda chinakam qayg'urishga arziyidigan bitta yo'qotish bor, u ham bo'lsa, imondan ayrimoqdir.

(A. Abdullayev)

**259-mashq.** Jon taslim qilayotgan shoirning berilgan gaplarini o'qib oling, muallifini toping va undagi fikrlarni munozaraga aylantiring. Matnda sifatlarning ishlatilishiga alohida diqqat qiling.

«Men sizlarni Vatansiz qildim. Vatanga yarog‘ ko‘tarib bormang. Agar shunday qilsangiz, men go‘rimda tik turaman».

Yuqorida fikr aytgan shoir hatto o‘z o‘limidan so‘ng ham Vatani uzra farzandlarining yarog‘ ko‘tarib borishini istamagan. Ona- Vatanning muqaddasligini bir umr qalbida saqlagan va ana shu tuyg‘uni farzandlariga ham singdira olgan.

**260-mashq.** Berilgan grammatik topishmoqlar orqali sifat so‘z turkumi bo‘yicha olgan bilimlaringizni sinab ko‘ring.

1. Ozaytirma sifatlar

Hosil qiladi -gina,  
Kim topadi bu -gina  
Qachon bo‘ladi -kina?

2. Shakli boshqa, ma’nosi

Bir xil bo‘lgan qo‘s Shimcha  
Bundayin qo‘s Shimchalar  
Sifat yasar ko‘pincha?

3. Quroq, qayroq, kattaroq,

Biroq, tezroq ham yaroq.  
Sifat so‘zni kim topadi,  
Uch-to‘rt misol keltirar.

4. Ko‘m-ko‘k, qizil, sap-sariq,

Dumaloq, oppoq, yashil,  
Bular qanday sifatlar  
Ma’nosin kim izohlar?

5. Shirin so‘z aytilsa, bemor bo‘lar sog‘,

O‘rinsiz so‘z bilan ko‘ngil bo‘lar dog‘,  
Subhidam har qancha xushlol saylasa,  
Xushovoz bulbuldek bo‘lolmaydi zog‘.  
Matnda qaysi so‘zlar  
Toping qanday sifatlar?

6. -li, -siz qo‘s Shimchalar bor,

Ma’nodosh, tengdoshi bor?

7. Poyonsiz, cheksiz, tuzsiz,

Esiz, uyqusiz, borsiz  
Olti so‘zda olti -siz,  
Sifatlarni toping siz?

8. -Chan dan oldin turar ish,  
-Ki dan oltin turar qish.  
-Chan, -ki, ish, qish birlashib  
Qaysi so'z hosil qilarmish?
9. Kes so'zi oladi -gir,  
Kes, chop, tom ham olar -gir.  
-«gir olib, kes, chop, top»lar  
Aiting, qanday yozilar?
10. Yoshlikda odating bo'lsa harorat,  
Hurmating o'rnnini oladi nafrat.  
Xushfe'llik bolada yaxshi fazilat  
Bunda bor otlarmi yoki sifat?

(R. Sirojiddinov)

### Javoblar

1. - *gina* qo'shimchasi jarangsiz undoshdan so'ng - *kina* tarzida bo'ladi.
2. - *be*, - *ba*, - *li*, - *siz* qo'shimchalari.
3. Quroq, kattaroq so'zлari.
4. Oddiy va orttirma darajadagi sifatlar.
5. Tub, yasama sifatlar, oddiy darajadagi sifatlar.
6. - *be*, - *ba* kabi sinonimlari bor.
7. Poyonsiz, cheksiz so'zlaridagi - *siz*.
8. Yasama sifat.
9. Keskir, topqir, chopqir.
10. Yaxshi — sifat, xushfe'llik, yomonlik, hurmat, nafrat — ot.

✓ ***Topshiriq.*** Siz nutqiy tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?  
Misollar bilan tushuntiring.

***261-mashq.*** Gaplarni ko'chiring. So'ngra undagi sifatlarni alohida yozing, har birining ma'nosini, gapdag'i vazifasini, darajasini, sodda yo qo'shmaligini belgilang.

1. Naddoslar ko'chasining o'ng tomonida kattakon karvonsaroy bo'lib Jome va Ark ko'chasining boshida qad ko'targan serhasham madrasa bilan ajoyib bir uchlikdan iborat silsila tashkil qilar, bir-biriga mutanosib husn qo'shardi. 2. Bir necha diltortar bo'lmalarda yoshgina cho'rilar, huriqoday kanizaklar turardi. 3. Abu Bakr Kalaviyning eng ezgu amoli kishi ko'nglini olish, miskinli qalbini farahbaxsh etish, o'ziga ziyon bo'lsa-da, o'zga dilini ovlashdir. 4. Baland bo'yli, shopmo'ylov bir yigit Abu Bakr Kalaviy oldida xuddi tol oldidagi terakday serrayib turardi. Yoniga qilich emas, uzun pichoq osib olgandi... «Barvasta qomatli, jussador, fil uning salobati

oldida xartumini yerga qo‘yadi...», o‘yladi Abu Bakr Kalaviy. 5. Poshshoying shulmi? — so‘radi napisandlik bilan Ahiy Jabbor. 6. Tolibi ilmlarga shul narsa ayon bo‘lsinkim, bir bebaho risola, risolayi majmua bordir, ilmgan dil bergenlar o‘sani topmaklari lozim. 7. Risolada Arastu, Al-Forobiy, Ibn Sinolarning bebadal asarlari jam bo‘lmishdir... 8. Qizning ochiq chehraligi, uning oyday jamoliga mahliyo bo‘lgan yigitni yana ham o‘rtantirib yubordi. 9. Qizda husn-u malohatdan boshqa ifodalab bo‘lmas bir sehr-jodu ham mujassam ekan, bunga yigitning imoni komil edi.

(Muhammad Ali)

**262-mashq.** Berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Yasama sifat o‘rnida ikki so‘zli birikmadan ham foydalansa bo‘ladimi?
2. Sifat yasovchilar antonimik munosabat hosil qilishini tushuntiring.
3. Sifatlash vazifasida kelgan *kabi*, *yanglig'*, *o‘xhash*, *singari* va boshqa ko‘makchilardan ham o‘rni bilan nutqimizda foydalaniladi. Buni missollar bilan isbotlang.

**263-mashq.** Mashqni o‘qing. Sintaktik usul bilan yasalgan sifatlarni toping. Ularni daftaringizga ko‘chirib yozing.

**YOR-YOR**

Qudaposhsha, uyingizga kelin keldi, yor-yor,  
Kelinmas, bir umrga qiziz keldi, yor-yor.  
O‘g‘lingizga vafodor hamroh keldi, yor-yor,  
Muhabbatin o‘zi-la ola keldi, yor-yor.  
Oppoq harir ko‘ylagin kiyib keldi, yor-yor,  
Shirin so‘zin tiliga qo‘yib keldi, yor-yor.  
Mahallaga lochin qush uchib keldi, yor-yor,  
Sadoqat-u iffatni quchib keldi, yor-yor.  
Bu makonga anor yuz kirib keldi, yor-yor,  
Izli-qutli qadamin qo‘yib keldi, yor-yor.  
Bu baxtli xonadonga suluv keldi, yor-yor,  
Shirin so‘z-u, xushbichim totuv keldi, yor-yor.  
Bu uyga baxti bekam gulnoz keldi, yor-yor,  
O‘z sepini saralab, hur qiz keldi, yor-yor.  
Oq yuzli keliningiz qalamqoshdir, yor-yor.  
Uzun soch, kamtar beka, mehnatkashdir, yor-yor,  
Qirq kokilin orqaga tashlab keldi, yor-yor.  
Yurtga tinchlik, elga boylik boshlab keldi, yor-yor,  
Barchangizga salomin berib keldi, yor-yor.

Qaynonaga quchog‘in ochib keldi, yor-yor,  
Bu uy bir umrligin bilib keldi, yor-yor.  
Tillo simli ro‘molni boshga yoyar, yor-yor,  
Qayin-bo‘yin izzatin joyga qo‘yar, yor-yor.  
Kuyov bolaga bergen chin so‘zi bor, yor-yor,  
Keldi kelin — qizingiz ta‘zim ila, yor-yor,  
Bag‘ringizga bosingiz mehr ila, yor-yor.

(*Farida Abdumalik qizi*)

**264-mashq.** Berilgan sifatlarni qavs ichidagi otlarga biriktirib so‘z birikmasi hosil qilib ko‘chiring. Ayrim sifatlar uslubiy jihatdan ot bilan so‘z birikmasi hosil qilolmaslik sabablarini tushuntiring.

Xipcha (bel, uy, ish), ulug‘ (kitob, inson, tabiat), chalkash (fikr, qiz, mo‘jiza), yumshoq (so‘z, fikr, piyola), mazali (sho‘rva, ish, ko‘rpa), qishloqi (bola, bug‘doy, rang), qalin (so‘z, kitob, soat), notavon (kampir, paxta, musiqa), keng (sahro, kitob, choynak), gigant (uy, qand, yer), yashil (ovoz, boylik, fikr), laqma (yigit, tish, ruchka).

**265-mashq.** Uyga topshiriq. T. Malikning «Shaytanat» romanidagi Asadbek hamda A. Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi Anvar tim sollariga tavsif yozing. Unda personajlarni tavsiflovchi sifatlarni toping. Sifatlarning uslubiy xususiyatini aniqlang.

**266-mashq.** Quyidagi matnni o‘qing, sifatlarni toping, ularni izohlang.

Temur baland qadli, uzun bo‘yli, tik qomatli, go‘yo u qadimiy pahlavonlar avlodidan bo‘lib, keng peshanali, katta boshli, g‘oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo‘lalik, rangi oq-u qizil yuzlik, lekin dog‘siz, bug‘doyrang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o‘ng oyoq-ko‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisolik ikki sham bo‘lsa-da, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi. U o‘limdan qo‘rqmas, yoshi saksonga yetgan bo‘lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgiyu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi (so‘zda) o‘ziga ozor yetadigan biror narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi.

Temur tamg‘asining naqshi «rosti rusti» bo‘lib, bu «haqgo‘y bo‘lsang, najot toparsan» demakdir.

(*Ibn Arabshoh*)

### Tayanch tushunchalar

tub sifat, yasama sifat, old qo‘shimcha, sifat yasovchi qo‘shimchalar sinonimiysi.

---

## 25-DARS. SON VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** son va uning uslubiy xususiyatlari bo'yicha talabalarda bilim hamda ko'nikma hosil qilish.

- R e j a:**
- \* Son haqida ma'lumot.
  - \* Sonning tuzilishi va ma'no turlari.
  - \* Qo'shma sonlarda sonlar tartibi.


✓ **1-topshiriq.** Tarjimayi holingizni yozing. Qanday sonlardan foydalanganingizni aytинг.

**2-topshiriq.** Bir soniga *-ta*, *-tadan*, *-inchi* qo'shimchalarini qo'shing va ularning ma'nolarini tushuntiring.

! **Sanaluvchi predmetlarning miqdorini, son-sanog'ini, tartibini bildirgan so'z turkumlari son deyiladi.** Sonlar necha?, qancha, nechta?, nechanchi?, qancha? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, o'n, ikki, besh; o'nta kitob, o'ninchi sınıf, o'ntadan olma, uchala kishi kabi.

Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta sondan foydalilanadi. Bulardan to'qqiztasi birlik sonlar: *bir*, *ikki*, *uch*, *to'rt*, *besh*, *olti*, *yetti*, *sakkiz*, *to'qqiz*; to'qqiztasi o'nlik sonlar: *o'n*, *yigirma*, *o'ttiz*, *qirq*, *ellik*, *oltmish*, *yetmish*, *sakson*, *to'qson*; beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: *yuz*, *ming*, *million*, *milliard*. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida «*nol*»ga zidlanadi. Nol son miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (*o'n bir*, *yigirma besh*, *to'qson to'qqiz*), shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishiidan (*bir yuz ellik ming*, *to'qqiz milliard ikki yuz million*, *o'n bir ming besh yuz*) hosil bo'ladi.

Sonlar ma'nosiga ko'ra sanoq so'zlar, tartib sonlar, jamlovchi sonlar, dona sonlar, taqsim sonlar, chama sonlarga bo'linadi. Sonning ma'no turlarini quyidagi chizmada ko'ring.



! Bu ko‘rsatilgan son turlaridan har qaysisining o‘z shakllari mavjud. Bosh shakl orqali ifodalangan miqdor nomlariga sanoq sonlar deyiladi. Masalan, *bir*, *o‘n*, *yigirma*, *ming*, *million* kabi.

**Predmetning tartibini bildirgan sonlarga tartib son deyiladi.**

Tartib sonlar sanoq sonlarga *-nchi*, *-inchi* qo‘sishimchalarini qo‘sish yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Bulardan *-nchi* unli bilan tugagan, *-inchi* undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi. Masalan, *besh* — *beshinchi*, *o‘n* — *o‘ninchi*, *ikki* — *ikkinchchi*.

! **Predmet miqdorini jamlab ko‘rsatgan sonlarga jamlovchi sonlar deyiladi.** Jamlovchi sonlar sanoq songa *-ov*, *-ala ba’zan -ovlon* (eski shakl) qo‘sishimchalarini qo‘sish bilan hosil bo‘ladi. Jamlovchi sonlar otlashgan xususiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun jamlovchi son qo‘sishimchalari ko‘plik va uch shaxsdagi egalik qo‘sishimchalaridan birini olib keladi. Masalan, *besh* — *beshovi* — *beshovlari*, *uch* — *uchalasi* — *uchalalari*, *ikki* — *ikkovlon*, *ikkalasi* kabi. Misol: *To‘rtovlon tugal bo‘lsa, ko‘kdagini undirar, oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar.* Ko‘rinib turibdiki, *-ov*, *-ovlon* birlik sonlarga, ikkidan yuqorisiga qo‘shiladi. Bir soniga *-ov* qo‘sishchasi qo‘silib jamlovchi «kimdir» degan ma’noda qo‘llanadigan birov so‘zi son ma’nosini yo‘qotib, olmosh turkumiga o‘tgan.

*-ala* qo‘sishchasini olgan son egalik qo‘sishchasini olmasligi ham mumkin. U vaqtida son otlashmagan bo‘ladi. Masalan, *ikkala kishi*.

Jamlovchi son qo‘sishimchalari unli bilan tugagan sonlarga qo‘shilganda, son oxiridagi unli tushib qoladi. Masalan: *ikki — ikkovi*, *ikkalasi*; *yetti* — *yettovi*, *yettalasi* kabi.

! **Predmet miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi.** Dona sonlar sanoq songa *-ta* qo‘sishchasini qo‘sish orqali yasaladi. Masalan, *besh* — *beshta*, *o‘n* — *o‘nta*. Bu qo‘sishcha faqat donalab sanalishi mumkin bo‘lgan predmetlarni sanash uchun qo‘llaniladi. Masalan, *o‘nta kitob*, *beshta daftар*, lekin *o‘nta kerosin*, *beshta benzин* deb bo‘lmaydi. *O‘nta suv*

deyilishi mumkin, lekin bu vaqtida o'nta soni shisha ma'nosini ham o'z ichiga oladi. O'nta suv «*o'n shisha suv*» ma'nosida qo'llaniladi. Shuningdek, mashinaga quylgan benzin haqida gap ketganda, *o'nta quy*, *o'titzta quydim*, degan jumllalarni eshitamiz. Bunday vaqtida dona son «*litr*» ma'nosini ham o'z ichiga oladi. *O'nta quydim* jumlesi «*o'n litr quydim*» ma'nosini ifodalaydi.

**Predmet miqdorini taqsimlab ifodalaydigan sonlarga taqsim son deyiladi.** Taqsim sonlar sanoq songa *-tadan* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi va ikkitadan ortiq predmetlarning bo'laklarga teng ajratilganini bildiradi. Masalan, *ikkitadan*, *o'ntadan* kabi.

**Predmetning taxminiy miqdorini bildirgan sonlar chama sonlar deyiladi.** Chama sonlar son asosiga *-tacha*, *-lab* qo'shimchalari qo'shishi orqali hosil bo'ladi. Masalan: *o'ntacha*, *minglab* kabi.

**Eslatma:** o'zbek tili tarixida miqdorni ifodalash uchun *lak* (yuz ming), *tuman* (ming) sonlari ham ishlatalgan.

Sonning ma'nosiga ko'ra turlari va ularni hosil qilish vositalarini quyidagi jadvaldan ko'ring:

Son asosi	Qo'shimcha	Son turi
uch	-inchি	tartib son
	-ov, ala	jamlovchi son
	-ta	dona son
	-tacha	chama son
	-tadan	taqsim son

**Eslatma:** uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi sonlar sehrli sonlar sifatida ham talqin qilinadi.

**267-mashq.** «Al-Jome' as-Sahih» to'plamida berilgan sonlarni ko'ching, ma'nosiga ko'ra turini ustiga yozing.

«Al-Jome' as-Sahih» to'plamini tilga olganimizdayoq Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy xayolimizga keladi. U Islom olamida Qur'onidan keyingi kitob va «Kutub as-sitta» (olti hadis to'plami)ning avvalgisidir. Mazkur asar haqida muallifning o'zi shunday deydi: «Hadislarni to'plamga kiritishimdan avval g'usl qilib, so'ng ikki rakaat istixora namozini o'qir edim. Men bu to'plamdagи hadislarni jami olti yuz ming aralash va ikki yuz mingga sahih hadislar orasidan ajratib oldim.

To'plamni yozish uchun o'n olti yil umrimni sarfladim. Toki bu Olloh bilan mening o'rtamda hujjat bo'lsin uchun» (Imom az-Zahobiy, «Siyor a'lom an-Nubalo», 12-jild, 391-bet).

To‘plam 97 kitob (fasl) va 3405 bobdan iborat. To‘plamdagি hadislarning soni esa quyidagichadir:

Mutaba’at (ketma-ket davom etuvchi) hadislarning soni 344 ta.

Ta’aliq (hoshiyasida izoh bilan kelgan) hadislarning soni 1341 ta.

Takror kelmaydigan mavsula (Muhammad payg‘ambarga bog‘langan) hadislarning soni 2602 ta.

Takror keladiganlar soni 7397 ta.

«Al-Jome’ as-Sahih»ning barcha hadislari 183 ta sahoba vositasi bilan rivoyat qilinib, ularning 31 tasi ayollardir.

To‘plamdagи eng ko‘p rivoyat qilgan sahabalar alohida beshlikni tashkil qiladi. Uning turlicha nusxalari nashr qilingan. «Buloq» nomli 8 jilddan iborat bo‘lgan nusxasi nashr etilgan. Bu sulton Abdul Hamid tasarrufi bilan besh ming nusxada chop etilgan.

**268-mashq.** Hayotingiz davomida ro‘y bergen eng esda qolarli yil va kunlarni esga oling hamda yozing. Nima uchun shu sana xotirangizda saqlanib qolninganiga qisqacha izoh bering.

**269-mashq.** Matndagi otlashgan sonlarni toping.

1. Tayog‘i yo‘g‘on birni urar, so‘zi yo‘g‘on mingni urar.
2. To‘qqizida bo‘limgan aql, to‘qsonida ham bo‘lmas.
3. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar. To‘rtovlon tugal bo‘lsa, ko‘kdagini undirar.
4. To‘rtovlon ancha suhbatlashdi, keyin ikkitasi uy ichida qoldi, yana ikkitasi esa otiga minib yo‘lga ravona bo‘ldi.
5. Mingta shirin nasihatdan bitta o‘rnak yaxshi.
6. Birni bersang otangga, mingni olasang bolangdan.
7. Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi.
8. Ikki yomon qo‘silsa, keng dunyoga sig‘maydi.

**270-mashq.** Ko‘chiring. Noto‘g‘ri qo‘llangan sonlarni to‘g‘ri shaklda yozing. Uslubiy xatolarga izoh bering.

1. Sizlar yetib kelganingizda soat beshlarda edi.
2. Har hektar yerdan 40 sentnerda paxta topshirganlarga ofarinlar aytdik.
3. 10 gektarchadan yerda makkajo‘xori yetishtirdik.
4. Sanamay sakkiztacha dema.
5. Shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari yuzasidan 140 larcha dehqon xo‘jaligida monitoring o‘tkazildi.
6. Yigirma uch yigirma to‘rtalovi kunlari respublika xo‘jalik sudlarining 2000-yilinchchi faoliyati yakuni va oldinda turgan vazifalarni yanada yuqori darajada ta‘minlashga qaratilgan Plenum bo‘lib o‘tdi.
7. Huquqni bilmaganlar soni 2 ta barobarga kamaydi.
8. «Inson va Qonun» gazetasi 1996-yil o‘ttizovi yanvardan chiqa boshlagan.
9. Bittaga kessang, o‘ntaga ek.

**271-mashq.** Son turkumiga oid grammatik topishmoqlarning javobini toping.

Biri nomlar, biri sanar,  
Biri belgi bildirar.

Qanday so‘zlar ekan ular,  
Kim misol bilan aytar?

Aytishda qo‘srimcha,  
Yozganda chiziqcha?  
Nima -tacha, -larcha, -lab,  
Narsa sanar chamalab?

Ikki, yettida bordir,  
Sakkiz, to‘qqizda bordir.  
Yana qaysi so‘zda bor?  
O‘ylab toping nima bor?

Qirq besh — toq son,  
O‘ttiz — just son,  
Qirq besh, o‘ttiz  
Qanday bo‘lak,  
Tire bunda nega kerak?

Kartadan ham bittadan,  
Butadan ham uchtadan.

Taqsim son qo‘srimchasi  
Toping-chi qaysi -tadan?

Zo‘r kishi birni yiqrar,  
Bilimdon mingni yiqrar.  
«Birni», «mingni» so‘zlar  
Toping-chi, qanday so‘zlar?

Olti bo‘libdi oltov,  
Yetti bo‘libdi yettov  
Olti, yettidagi i  
Nega tushibdi darrov?

Son va otdan tuzilar,  
Qanday son hisoblanar?  
O‘ylab top bir minutda,  
Misoli ham bor bunda.

Ikki nolcha o‘rtasida  
Qiya turar bir chiziq,  
Qaysi so‘zning belgisi u  
O‘ylab toping-chi, qiziq?

### **Topishmoqlarning javoblari**

1. Ot, son, sifat so‘zlar.
2. Tartib son qo‘srimchasi — chiziqcha.
3. Qator kelgan bir xil undoshli sonlar nomi.
4. Ega va kesim orasida tire qo‘yiladi.
5. Bittadan, uchtadan.
6. Otlashgan sonlar.
7. 6 soniga -ov qo‘silsa i unlisi tushiriladi.
8. Miqdor son — bir daqiqa.
9. Foiz belgisi.

### **Tayanch tushunchalar**

son, dona son, tartib son, jamlovchi son, chama son, taqsim son.

---

## **26-DARS. SON VA O'LCHOV SO'ZLAR.**

### **SONLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

#### **26.1. SON VA O'LCHOV SO'ZLAR**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga o'lchov birliklari haqida ma'lumot berish va ularni ifodalovchi so'zlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

- R e j a:**
- \* O'lchov birliklari haqida.
  - \* O'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar va ularning turlari.

✓ **Topshiriq.** O'n shisha yog', bir litr suv, o'n kilogramm paxta, besh kilometr (chaqirim) yo'l birikmalaridagi shisha, litr, gramm, kilometr, chaqirim so'zlarining qanday o'lchov birliklari ekanligini ayting.

Son bilan sanalayotgan predmet o'rtasida ko'pincha o'lchov so'zları qo'llaniladi.

Tilimizda turli xil o'lchovlar va shu o'lchovlarni ifodalovchi so'zlar bor. Ular quyidagicha:

T/r	O'lchov turlari	O'lchov so'zlar (hozirgi)	Tarixiy o'lchov so'zlar
1.	Og'irlik o'lchovlari	milligramm, gramm, kilo (gramm), litr, tonna, sentner	misqol, botmon, paysa, dahsar
2.	Uzunlik o'lchovlari	millimetrik, santimetr, ditsimetr, kilometr	chaqirim, qarich, yog'och, gaz, qalam
3.	Donalik o'lchovlari	dona, bosh, nafar, tup	dona, bosh, hafar
4.	Maydon o'lchovlari	sotix, gektar	tanob

**Sanoq son bilan sanalayotgan predmet o'rtasida qo'llanadigan o'lchov birliklariga o'lchov so'zları deyiladi.** Masalan, *o'n kilo (gramm) un, uch tonna paxta, besh kilometr yo'l kabi.*

Yuqorida sanab o'tilgan o'lchov birliklarining ayrimlari o'lchanayotgan, sanalayotgan predmetning qandayligiga xoslangan bo'ladi. Masalan, *nafar* shaxslarning, *bosh* hayvonlarning, *litr* suyuqliklarning, *tup* o'sim-

liklarning miqdorini ifodalashga xoslangan: *besh tup daraxt (pomidor), o'n bosh qo'y, to'rt nafar talaba* kabi.

O'Ichov so'zlar ichida ayrimlari faqat o'Ichov — hisob ma'nosini bildirsa, ayrimlari alohida olinganda predmet nomini, matn ichidagina o'Ichov birligi ma'nosini bildiradi. Masalan, suyuqlik o'Ichovi uchun *paqir (chelak)*, *shisha, bochka*; xashak-o'tinlarni o'Ichash uchun *tutam, quchoq, bog'*; uzunlikni o'Ichash uchun *qarich, qadam, yog'och* singari so'zlar faqat matn ichidagina qo'llaniladi. Masalan, *besh shisha mineral suv, uch bochka pivo, bir paqir yog'; yuz bog' beda, bir quchoq o'tin, bir tutam xashak, uch qarich gazmol, besh qadam yo'l* kabi.

Alovida olinganda esa narsa va hodisalarning nomini bildiradi. *Shisha, paqir, qarich, qadam* kabi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. O'Ichov so'zlari deganda qanday so'zlarni tushunasiz?
2. O'Ichov so'zlarining qanday ma'no turlarini bilasiz?
3. Sof o'Ichovni bildiradigan so'zlar bilan faqat matn ichida o'Ichov bildiradigan so'zlarni aiting.

**272-mashq.** Berilgan so'zlarni to'rtta ustunga bo'lib ko'chiring, ya'ni:

Uzunlik o'Ichovini bildiruvchi

Yosh hisobini bildiruvchi

Vaqt o'Ichovini bildiruvchi

Pul hisobini bildiruvchi

Tanga, tillo, asr, yil, yosh, yashar, tanob, quloch, oylik, oy, hafta, so'm, tiyin, soat, kunduz, kunlik, qadam, metr, paqir, minut, miri, chiqim, kilometr, daqiqa, soniya, lahza, chaqa, dollar, bir karra, qirqi bo'ldi, bugun yigirmasi, chaqirim, 2 kun, 60 yillik.

**273-mashq.** Butunning, guruhning yoki to'daning qismini hisoblash uchun ishlataladigan quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Burda, para, varrak (sahifa), og'iz, luqma, siqim, tilim (karch), chimdim, qultum, tomchi, qatra, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, bo'lak, shingil.

**274-mashq.** To'dalab, guruhlab ko'rsatuvchi o'Ichov so'zlarini o'qing. Ular ishtirokida «pul bozorida» nomli qisqacha bog'lanishli matn tuzing.

Hisob so'zlari:

Gala, to'p, guruh, to'da, dasta, bog' (bog'lam), quchoq, moda, nafar, hovuch.

**275-mashq.** O'Ichov so'zlari ot turkumidagi so'zlardan iborat bo'lishiga misollar aiting. Ma'lumki, nutqimizda hisob so'zlarining ishlatalish doirasi keng va turli-tumandir. Qadimdan predmetlarni o'Ichash

uchun turli idishlar yoki boshqa o‘lchov vositalari ishlatalilgan. Ulardan ayrimlarining ishlatalishi toraygan yoki kengaygan. Yozing!

Toraygan

Kengaygan

So‘zlar: qadoq, jon, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so‘lkavoy, tosh, pud, mahal (vaqt), yumaloq, mehnat kuni, gektar, kubometr, kilovatt, soat, sotix, metr, kilo, minut, foiz, nafar, tup, shisha, paqir, bog‘, quchoq.

### Tayanch tushunchalar

o‘lchov so‘zları, og‘irlilik o‘lchovları, uzunlik o‘lchovları, donalik o‘lchovları, maydon o‘lchovları, hisob so‘zlar.

## 26.2. SONLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** sonlarning uslubiy xususiyatlarini tushuntirish orqali talabalarning nutqiy malakasini oshirish.

- R e j a:**
- \* Sonlarning miqdor bildiruvchi boshqa so‘zlaridan farqi.
  - \* Sonlarga qo‘sishchalarning qo‘shilishi.

✓ **1-topshiriq.** Ko‘p so‘zi bilan o‘nta so‘zini birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llang.

**2-topshiriq.** -ov, -ala qo‘sishchalarni o‘nlik sonfarga qo‘sding. Bir soniga -ov qo‘sishchasini qo‘sghaningizda qanday ma’no ifodalaganini aytинг.

Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarini bildiradi. ! Ana shu xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so‘zlardan farq qiladi. Solishtiring: *Magazindan kitob oldim. (Miqdori bittami, undan ortiqmi, noma'lum.) Magazindan ko‘p kitob oldim. (Miqdori bittadan ortiq, lekin nechtaligi noma'lum.) Magazindan o‘nta kitob oldim. (Miqdorning nechtaligi aniq.)*

Birdan boshqa sonlarning barchasi predmet bildiruvchi so‘zlarga qo‘silib, uning bittadan ortigligini, ko‘pligini ifodalaganligi uchun son bilan birga kelgan otlar ko‘plik shaklini olmaydi. Masalan, *olma — olmalar*. Lekin *ikkita olma, o‘nta olmani, ikkita olmalar, o‘nta olmalar* deb bo‘lmaydi. Bu o‘zbek adabiy tili uchun me‘yorning buzilishi bo‘ladi.

Sonlarga -ov, -ala qo‘sishchalari qo‘silib jamlik ma’nosi anglashiladi. Bu qo‘sishchalalar jamlik ma’nosini ifodalar ekan, demak, ular bir sonidan boshqa sonlarga qo‘siladi. Masalan,

*ikkovimiz* deyish mumkin, lekin *birlamiz* deyilmaydi. -ov bir soniga qo'shilib jamlilikni emas, balki gumon-taxmin ma'nosini bildiradi va olmosh so'z turkumiga o'tadi: *Birov (kimdir) keldi*.

-ov, -ala qo'shimchalari ikki sonidan yigirma sonigacha qo'shiladi, lekin yigirma soni bu qo'shimchalar bilan qo'llanil-maydi. *O'n — o'novi* deyish mumkin, biroq *yigirma — yigirmovi — yigirmalasi* deyilmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, sonlar tuzilishiga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1. Sodda sonlar; 2. Qo'shma sonlar. Faqt bir tarkibdan (bitta sondan) tashkil topgan sonlar sodda sonlar deyiladi. Masalan, *ikki, uch, o'n, yigirma* va boshqalar. Ikki va undan ortiq tarkibdan (sondan) tashkil topgan sonlar qo'shma sonlar deyiladi. Masalan, *o'n ikki, bir yuz yigirma, bir million, ikki ming uch yuz o'n*. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma son tarkibiy qismlarining qat'iy joylashish o'mi bor: yuzgacha bo'lgan sonlardan oldin katta son, undan so'ng kichik son keladi. Masalan, *o'n bir, o'ttiz besh* kabi. Yuzlikdan keyingi sonlarda birlik va o'nlik sonlar ulardan oldin kelishi ham, keyin kelishi ham mumkin. Birlik va o'nlik sonlar yuzlik, minglik sonlarning qayerida kelishiga ko'ra ma'no juda kuchli farqlanadi:

Birlik va o'nlik sonlar, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelgan son qancha bo'lsa yuzlik va undan ortiq sonlar shuncha barobar ortiq ekanligi anglashiladi. Masalan, ikki yuz degani ikkita yuz deganidir. Aksincha, birlik va o'nlik sonlar yuzlik hamda undan ortiq sonlardan keyin kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning birlik o'nlik sonlar bilan ortganligini bildiradi. Masalan, ikki yuz uch degani ikkita yuz-u va unga uchning qo'shilushi deganidir.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Sonlar qanday miqdorni bildiradi?
2. Son bilan kelgan otlar -lar bilan kela oladimi?
3. -ov, -ala qo'shimchalari qanday sonlarga qo'shiladi?
4. Qo'shma son qismlari qanlay joylashadi?

**276-mashq.** Matnni o'qing. Unda ishlatilgan sonlarni ko'chirib, ularning ma'nosini, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

## SABR-QANOAT HAQIDA

Sabr-qanoat insonlar uchun buyuk bir fazilat. Inson har bir ishni sabr va qanoat bilan olib borsa, maqsadiga erishadi. Tinch va rohatda yashashni istagan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qiladi, nafsi falokatdan, g'ururidan saqlaydi. Sabr boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lishimizni talab etadi, shuning uchun ham, birinchidan,

har bir ishda sabr bilan harakat qilish lozim. Islom dinida sabr yuksak axloqiy fazilatlardan biri bo‘lib, mo‘min-musulmon kishining ruhiy tayanchi va hidoyatga boshlovchi omildir. Sabr haqida «Qur’oni Karim»da yetmish marotaba zikr qilingani ham beziz emas. Boshqa hech qaysi fazilat bu miqdorda zikr etilmagan. Shuning uchun ham «Qur’oni Karim»ning «Anfol» surasining 46-oyatida «Sabr-toqat qilingiz! Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir», deyilgan.

«Qur’on» sabrli kishilarda uch xislat borligini, bu xislatlar ulardan boshqalarda bo‘lmasligini aytadi.

Birinchisi, ularga Allohnинг mag‘firati bo‘ladi. Bu ular uchun maqtov bo‘lib, bu dunyoda ham, u dunyoda ham sharafdir.

Ikkinchisi, Allohnинг rahmati. Musibat uchun Alloh lutf va ehson qiladi.

Uchinchisi, ular hidoyatda yurgan kishilar sanaladi. Haq va to‘g‘ri yo‘lda ekanliklari uchun musibat chog‘ida o‘zini qanday tutish kerak bo‘lsa, shunday tutganliklari bois ularga xafagarchilik va dard-u hasrat o‘z hukmini o‘tkaza olmasligi ta’kidlanadi.

Sabr-toqatli kishi har bir ishda diyonatli, adolatli bo‘ladi. U boshqalarning kamchiligidan kulmaydi, aksincha, unga yaqindan yordam beradi. Sabr-qanoatli odamda atrofdagilarga huzur bag‘ishlaydigan odatlar paydo bo‘ladi. Sabr-toqat qanchalik og‘ir bo‘lmashin, keyinroq shodlik keltiradi. Shu bois, sabr bilan zafar bir-biriga qadimdan do‘sht bo‘lib kelmoqda.

(U. Mahkamov)

**277-mashq.** Matnni o‘qing. Sonlarni topib, ularning uslubiy xossalarnini aniqlang.

## HIJRIY YIL HISOBI

O‘rta Osiyoda XIX asrgacha hijriy yil hisobi qo‘llangan. U milodiy 622-yil 16-iyuldan boshlanadi. Bir hijriy yil 12 oy, bir oy esa Oy fazalarining takrorlanish (masalan, yangi Oy chiqishi) davriga teng va 29, 30 kundan iborat. Shuning uchun toq raqamli oylar 30 kun, juft raqamli oylar 29 kun va bir hijriy yil 354 kunga teng.

**Alg oritm:** Hijriy yilni milodiya o‘tkazish uchun uni  $0,97$  ga ko‘paytirib yaxlitlash va 622 ni qo‘sish kerak. Misol: Beruniy hijriy 362-yilda tug‘ilgan.  $362 \times 0,97 = 351$ ;  $351 + 622 = 973$ . Demak, Beruniy tavalludi milodiy 973-yil.

**Alg oritm:** Milodiy yilni hijriyga o‘tkazish uchun 621 ni ayirib,  $1,03$  ga ko‘paytirish va yaxlitlash kerak. Misol: Alisher Navoiy tavalludi topgan 1441-yil uchun,  $1441 - 621 = 820$ ;  $820 \times 1,03 = 844,6$ .

**I z o h:** Algoritmlar taqribiylari — bir yilga farq qiladigan natija berishi mumkin.

**278-mashq.** Quyidagi hadisning mazmun-mohiyatini ochib bering. O'zaro fikrlashing.

Mo'min mo'min uchun bir-birini suyab turgan ikki bino yanglig' bo'lmos'i lozim.

**279-mashq.** O'qing. Matnda ishlatilgan sonlarga diqqat qiling.

## ILMGA BAXSHIDA UMR

Hadis ilmida «Amir ul-mo'minin», «Imom ul-muhaddisin» degan sharaflı nomlarga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy 194-hijriyda (810-yil 10-iyul) Buxoroning Xartang qishlog'ida tavallud topgan. 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga boradi va hadisni o'rganish maqsadida Hijozda qoladi. U Basrada bo'lganida 16 kunda 15 mingdan ziyod hadisni yod olgan. Ikki marta Shom, Misr, Jaziraga bordi, to'rt marta Basraga safar qildi. Olti yil Hijozda yashadi. Rivoyatlarga qaraganda, yuz mingga yaqin hadisni ishonch bilan va yana ikki yuz ming hadisni shunchaki yod olgan.

Imom al-Buxoriy «Sahih»ni to'plagandan so'ng Buxoroga qaytadi. Naysaburda uni to'rt ming suvori chiqib, katta tantana bilan kutib olgani ma'lum. U Buxoroga qaytar ekan, shaharga bir farsah qolganda bir chodir tutib, dam olish uchun to'xtaydi. Shahar ahli unga peshvoz chiqdi. Samarqand ahli esa unga maktub yo'llab o'z shaharlariga taklif qilgan. Buxoriy taklifni qabul qilib yo'liga otlanadi. Samarqanddan ikki farsah masofada joylashgan ona qishlog'iga yetgach, qavm-u qarindoshlari yonida to'xtaydi. Bir muddat o'tgach, muhaddis 256-yil hijriyda, fitr bayrami, payshanbaga o'tar kechasi vafot etadi va o'sha yerda dafn etiladi. («*Sharg mash'ali*» jurnali, 1998, № 3—4)

## Tayanch tushunchalar

birlik son, o'nlik son, sodda son, qo'shma son, sonlarda jamlik ma'nosi, sonlarda gumon ma'nosi.

---

## 27-DARS. OLMOSHLARNING MA’NO XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** olmoshlarning ma’no xususiyatlari haqidagi talabalarning bilimlarini mustahkamlash.

- R e j a:**
- \* Olmosh va uning vazifalari.
  - \* Olmoshlarning ma’no turlari.

✓ **Topshiriq.** «Mingta siz-bizdan bitta jiz-biz yaxshi», «Sen ham, siz ham bir og‘izdan chiqadi» maqollarining tarkibida kelayotgan olmoshlarning uslubiy xossalari izohlang. Siz ham olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Beruniy Xoraznning qadimgi poytaxti Kot (Kat) shahrida tug‘ilgan. Uning ismi Muhammad, otasining ismi esa Ahmadadir. Bu gapda Beruniy atoqli oti o‘rnida Uning so‘zi almashib, atoqli ot ifodalagan ma’noni anglatadi. Yoki: «Yaxshilik qo‘lingdan kelmasa, yomonlik qilma. Bu hech qachon yodingdan chiqmasin». Mazkur gapda esa bu so‘zi oldingi butun gap o‘rnida almashib kelyapti.*

! **Barcha mustaqil so‘z turkumlari va hatto yordamchi so‘zlar hamda gap o‘rnida almashinib kelgan so‘zlarga olmosh deyiladi.**

Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe'l o‘rnida va ba'zan yordamchi so‘z, gap o‘rnida almashinib keladi. Masalan, *Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag‘ishladi. Gullarning ko‘pi pushti rangda. Ana shu rang menga juda yogadi. Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog‘bonning jahlini chiqardi. Va bog‘lovchisi o‘zaro teng ma’noli gaplarni bog‘laydi.* Bu teng bog‘lovchilar sirasiga kiradi. Bu gaplarning birinchisida *gul* (ot) o‘rnida u, ikkinchisida *pushti* (sifat) o‘rnida ana shu, uchinchi gapda *uza boshladi* (fe'l) o‘rnida bu so‘zları, to‘rtinchi gapda *va bog‘lovchi* o‘rnida *bu olmoshi* almashinib kelyapti.

Olmoshlar bevosita atash ma’nosiga ega bo‘lmaganligi uchun **«ichi bo‘sh so‘zlar»** deb ham yuritiladi.

Olmoshlar qanday so‘zlarning o‘rnida almashinib kelishi va qanday ma’noni ifodalashiga ko‘ra, bir necha ma’no turlariga bo‘linadi. Buni quyidagi jadvalda ko‘ring:

T/r	Olmoshlarning ma'no turlari	Ma'nolari va ta'rifi	Misollar
1.	Kishilik olmoshlari	Shaxs ma'nosini bildiruvchi otlar o'rniда almashinib keladi va ularga ishora qiladi. Shaxs ma'nosini bildiruvchi so'zlar o'rniда qo'llanib, unga ishora qiluvchi olmoshlarga kishilik olmoshlari deyiladi.	men (kamina) — biz sen — siz u — ular (alar)
2.	Ko'rsatish olmoshlari	Mustaqil so'zlar yoki gaplar o'rniда kelib, ularni ko'rsatib keladi. Mustaqil so'zlar orqali ifodalan-gan shaxs, predmet belgi, harakatlarni ko'rsatib kelgan olmosh-larga ko'rsatish olmoshlari deyiladi.	u, bu, shu, o'sha, mana bu (manavi), mana shu, ushbu
3.	So'roq olmoshlari	So'zlovchiga noma'lum bo'lgan shaxs narsa, belgi-xususiyatlarni so'rash ma'nosini bildiradi. Shaxs, narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni so'rash uchun ishlatali-digan olmoshlarga so'roq olmoshlari deyiladi.	kim?, nima?, qachon?, qaysi?, qancha?, necha?, nimaga?, qani?, nima qildi?, nima bo'ldi?
4.	Birgalik — ajratish olmoshlari	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bil-diruvchi mustaqil so'zlar o'rniда almashinib, ularning ma'nosini umumlashtirib, jamlab keladi. Mustaqil so'zlar o'rniда kelib, uning ma'nosini jamlab, umum- lashtirib keluvchi olmoshlarga birgalik olmoshlari deyiladi.	1) jamlik ol-moshlari: hamma, barcha, bari 2) ajratish ol-moshlari: har kim, har nima, har qancha, har qanday, har qaysi, har bir, har narsa
5.	Bo'lishsizlik olmoshlari	Shaxs-narsa, belgi-xususiyat bil-diruvchi mustaqil so'zlar o'rniда kelib, uning inkorini bildiradi. Mustaqil so'zlar o'rniда kelib, uning inkorini bildirgan olmosh-larga bo'lishsizlik olmoshlari deyiladi.	hech kim, hech nima, hech qan-cha, hech qan- day, hech qana-qa, hech narsa, hech bir

6.	O'zlik olmoshi	Uchala shaxsdagi kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanib, ma'nosini ta'kidlab keladi. Kishilik olmoshlari o'rnida kelib, uning ma'nosini ta'kidlab ko'rsatuvchi olmoshga o'zlik olmoshi deyiladi.	o'z
7.	Gumon olmoshlari	Shaxs-narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida kelib, uning ma'nosini taxminlab, gumonlab keluvchi olmoshlarga gumon olmoshlari deyiladi.	1) allakim, allanarsa, allaqanday, allaqancha kabi 2) kimdir, nima dir, qaysidir

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Olmosh deganda qanday so'z turkumini tushunasiz?
2. Ot, sifat, son, ravish, fe'llarning har biri o'rnida almashib kelgan olmoshlarga misollar keltiring.
3. Yordamchi so'zlar va gap o'rnida qo'llangan olmoshlarga misollar keltiring.
4. Olmoshlarning ma'no turlarini aytинг.

**280-mashq.** Gaplarni o'qib, olmoshlarni aniqlang va ularning ishlatalish o'rinaliga diqqat qiling.

1. Biz ona yurt, aziz Vatan debon sog'inch va orziqishlarda yashaymiz, mo'tabar tuprog'imizning har bir qarich yerini, har bir giyohini ko'zimizga surtamiz. 2. Siz Sherali Jo'rayev bugun Toshkentda ijro etgan yangi qo'shiqning ikki kundan keyin Termiz shahridagi ovoz yozish nuqtalarida yangrayotganiga ajablanmaysiz, chunki bilasiz: yaxshi qo'shiq ham xushxabardek tez tarqaladi. (*S. Sayyid*) 3. Gaplaringizdan juda shodman, lekin mana bu cho'pon hamma gapdan, hatto mendan, mening hayotimdan ham xabardor bo'lgan Qo'ychibor aka kim bo'ldi? 4. Bu bir hikoyat va yo rivoyatdir, balkim tiriklik haqidagi aytilgan qo'shiqdir. 5. U ba'zan tojikcha lajhada gapirardi, ba'zan o'zbekcha qochirimlar qilardi. (*Sh. Jo'rayev*) 6. Odamlar g'urur, chegarasiz manmansirash tufayli ne-ne kulftatlarga duchor bo'lмаган deysiz, shuning uchun ham Islom tafakkurining buyuk natijasi hisoblangan so'fizmda inson o'z «men»idan kechmay turib Ollohnini tanimaydi, degan aqida bor edi. 7. Inson sirliligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetmaguncha, olam tinch, dunyo farovon bo'lmaydi. (*S. Mo'min*)

**281-mashq.** Qatralarni o'qing, ularda ishlatalgan olmoshlarning uslubiy xossalalarini aniqlang.

Bir donishmanddan so'rashibdi:

— Eng yomon illat nima?

— Noshukurlik, — debdi u, — noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o'ralgan kishi his etish, jamiyki narsadan lazzatlanish, bahramand bo'lish qobiliyatini yo'qotadi.

\* \* \*

Gohida har bir kunning qurboni bo'lging keladi,  
Gohida har bir kunni kaltaklab urging keladi.

\* \* \*

Ba'zan yomon odamlar kasriga uchrab  
Yaxshilardan ajrab qolishingga oz qoladi.

\* \* \*

Bekatdan chiqqan bir yo'lovchi o'rnini topib bahuzur joylashib olgach, so'radi:

— Bu avtobus, qayoqqa borarkin?

\* \* \*

U kim bilan suhbatdosh bo'lmasin g'iyyatdan boshlaydi gapni.

— Katta og'iz Malikaxonning kiygan ko'ylagini ko'rdingizmi, hech bir maqtanadigan joyi yo'q.

— Qo'ying, — dedim men darhol to'xtatib. — Birovning orqasidan gapirguncha oldiga borib aytin!

— Iye, esimni yebmanmi. Keyin ko'ziga yomon ko'rinish-a?

\* \* \*

Bir dugonam g'alati jilmayib mendan kechirim so'radi:

— Xafa bo'ldingmi boyagi gapimga. Yaxshi gap-ku. Qarshimizdan boshqa tanish qiz chiqib qoldi. Dugonam meni unutib, endi unga murojaat qila boshladi:

— Ey, Mayjuda, boyta sizni «ipay oyim» deganimga xafa bo'l-dingizmi?

Qiz qo'lini siltagancha hech narsa demasdan jo'nab qoldi.

Dugonam yo'lakda uchragan uchinchi qizga gap qistirdi:

— Hov, ili-miliq, qayoqqa?

Dugonam endi bu qizdan ham kechirim so'rashi kerak.

**282-mashq.** Matnni o'qing, olmoshlarni topib, ularga tavsif bering.

Boshimga bir savdo tushdi-yu rahmatli otamning o'z tilovatlarida: «Nohaq tuhmat, bemahal o'limdan o'zing asragin», deya qiladigan iltijolari qulog'im ostida jaranglab ketdi. Hamisha shunday: «Salomatlik qadriga yetmas — bemor bo'limguncha» deganlaridek, xom sut emgan

notavon bandalar boshimizga biror kulfat tushmaguncha yoki peshanamiz biror yerga «taq» etib urilmaguncha, so‘zning ham, nasihat va duoning ham qadriga yetmaymiz. Deyarli har kuni ro‘baro‘ bo‘ladigan oshnolarimiz pand berib, boshimiz malomatlarga qolganidan keyingina beg‘ubor o‘tgan kunlarimiz, beig‘vo kechgan onlarimiz ko‘zimizga to‘tiyo bo‘lib ko‘rina boshlaydi. Faqat shundan keyingina tilimizdagи «tuhmat», «bo‘hton» degan so‘zlarning ma’nolarini, ularning paydo bo‘lish sabablarini qidirib qolamiz, faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ochamiz va ilgari e‘tiborni tortmagan hikmatlar dardimizga malhamdek yoqa boshlaydi: «Kaltafahmlar faqat odamlarning kamchiligini ko‘radilar-u, fazilatlariga e‘tibor bermaydilar. Ular badanning nuqul gazak olgan a‘zosiga qo‘nmoqchi bo‘layotgan pashshaga o‘xshaydilar. Bo‘hton ham yaxshi odamlarga yopishadi».

Ha, ming afsuski, tuhmat balosi ham yaxshilarning, biror sohada omadi chopib, ishi yurishib qolganlarning gardaniga yopishadi. Yana mevali daraxtga tosh otiladi! Bunga misol izlab ovora bo‘lmasligimiz uchun Fitrat, Cho‘lpion, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlar taqdirini bir bor eslab qo‘yishning o‘zi kifoya. Xalqimizning bu asl farzandlari, eng birinchi navbatda, g‘arazgo‘y, toshbag‘ir, qora yurak hamkasblarining qurbanbi bo‘ldilar. O‘zbek adabiyotining yorqin yulduzlar bo‘lgan bunday jahonshumul iste‘dodlar hasadgo‘y va g‘alamis hamkasblarining bo‘toni tufayli bu yorug‘ olamni bag‘ri xun bo‘lib o‘tkazishga, otashin so‘zlarini bo‘g‘izlari olib ketishga majbur bo‘ldilar. Xo‘s, tuhmat shu qadar jirkanch illat ekan, unga qarshi qanday chora qo‘llagan ma‘qul? Bizningcha, choralarining eng birinchi va eng osoni — tuhmatchining so‘zini tinglamaslikdir. Zero, shariat hukmiga binoan g‘iybatning sherigidir. U g‘iybatchini inkor qilib, gapini bo‘lishi, mavzuni boshqa yoqqa burish bilangina bu gunohdan qutulib qoladi.

✓ **Uyga topshiriq.** «Sen ham, siz ham bir og‘izdan chiqadi...» mavzusida matn tuzing, unda ishlatilgan olmoshlarga diqqat qiling va ularni izohlang.

### Tayanch tushunchalar

olmosh, kishilik olmoshlari, ko‘rsatish olmoshlari, o‘zlik olmoshi, so‘roq olmoshlari, belgilash-jamlash olmoshlari, bo‘lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari.

---

## **28-DARS. KELISHIK VA EGALIK SHAKLLARI HAMDA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **28.1. KELISHIK QO'SHIMCHALARI VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** kelishiklar haqidagi talabalar bilimini mustahkamlash, ularda kelishiklardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

**R e j a:** \* Kelishik haqida ma'lumot.

\* Kelishik uyasi.

\* Kelishiklarning o'zaro vazifa almashinishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi birikmalarda nuqtalar o'rniغا tegishli qo'shimchalarni qo'ying. Qanday tegishli qo'shimchalar qo'yaningizni aytинг. *Maktab... bordim; olma... yedim; o'rik... guli.*

**2-topshiriq.** *Uzum ye, uzumni ye, uzumdan ye* birikmalarining bir-biridan farqini aytинг.

*Do'stimgning maktubi. Bozorga bormoq. Uzumni yemoq.* Birinchi birikmada -ning shakli do'stim so'zini *maktub* so'ziga; ikkinchi birikmada -ga qo'shimchasi *bozor* so'zini *bormoq* so'ziga; uchinchi birikmada -ni qo'shimchasi *uzum* so'zini *yemoq* so'ziga tobelash yo'li bilan bog'lash vazifasini bajaradi.

! **Ot va otlashgan so'zlarga qo'shilib, uni boshqa so'zlarga bog'lab keladigan grammatik shakllar tizimi kelishik qo'shimchalari hisoblanadi.**

Kelishik qo'shimchalarining jami kelishik uyasini tashkil etadi. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

T/r	Kelishik nomi	Kelishik shakllari	Misollar
1.	Bosh kelishik	—	O'rik gulladi
2.	Qaratqich kelishigi	-ning	O'rikning guli
3.	Tushum kelishigi	-ni	O'rikni yemoq
4.	Chiqish kelishigi	-dan	O'rikdan olmoq
5.	Jo'nalish kelishigi	-ga, -ka, -qa	O'rikka to'ymoq
6.	O'rinn-payt kelishigi	-da	O'rikda ko'rmoq

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, tobe so‘z hokim so‘zning ma’nosigi talab etgan kelishik qo‘srimchasi oladi. Masalan, o ‘tirmoq so‘zida o‘tirish joyi bilan bog‘lanish imkoniyati bor. Shuning uchun unga bog‘langan so‘z o‘rin kelishigini oladi. *Yemoq* so‘zida esa bunday ma’no yo‘q. Shuning uchun u o‘rin kelishigi olgan so‘z bilan bog‘lana olmaydi. *Yemoq* so‘zida yeyiladigan narsa (obyekt) ma’nosigi borligi uchun xuddi shunday ma’noga ega bo‘lgan tushum yoki chiqish kelishigini olgan so‘z bilan bog‘lana oladi.

Kelishik qo‘srimchalari biri o‘rnida ikkinchisi ko‘pincha almashinib kelishi va birikma ma’nosiga ta’sir etishi mumkin.

Avvalo, og‘zaki nutqda qaratqich kelishigi shakli bilan tushum kelishigi shakli farqlanmaydi. Har ikki kelishik uchun tushum kelishigi shakli qo‘llaniladi, lekin bunday qo‘llanish ma’noni o‘zgartirmaydi.

Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi shakllari bosh kelishik shakli bilan almashinishi mumkin. Masalan, *o‘rikning guli* — *o‘rik guli*. *Uzumni yedi* — *uzum yedi*.

Qaratqich qo‘srimchasingning bunday ikki xil qo‘llanilishi o‘rtasida quyidagicha ma’no farqlanishi bor: ikkinchi holatda umuman o‘rik guli ma’nosii bildirilsa, birinchi holat, ya’ni qaratqich kelishigi bilan kelgan holatda predmetning aniqligi va bu predmetning ta’kidlanishini bildiradi. Xuddi shunday ma’no farqlanishi tushum kelishigi bilan bosh kelishik almashgan holatda ham kuzatiladi: *uzumni yedi* (so‘zlovchi va tinglovchi ma’lum bo‘lgan aniq uzum) — *uzum yedi* (umuman uzum).

Tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi o‘zaro almashinib kelishi mumkin. Bunday vaqtida tushum kelishigi qo‘llanilgan birikma uch xil ko‘rinishga ega bo‘ladi:

*Uzumni yedi* — *uzum yedi* — *uzumdan yedi*. Birinchi va ikkinchi holatda butun (ya’ni uzumning hammasi) ma’nosii bo‘lsa, uchinchi holatda qism ma’nosii (uzumning bir qismi) ifodalanadi.

Ko‘rinadiki, kelishik qo‘srimchalardan o‘tinli, maqsadga muvofiq foydalanish fikrni aniq ifodalashga katta yordam beradi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Kelishik qo‘srimchalari deganda nimani tushunasiz?
2. Kelishik qo‘srimchalari uyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Qaysi kelishik o‘zaro almashinishi mumkin va bu almashinuv ma’noga qanday ta’sir etadi?

**283-mashq.** Ko‘chiring, belgili va belgisiz qaratqich shaklli so‘zlarni aniqlang. Ularning ma’no va uslubiy vazifasini bayon qiling.

1. «Boburnoma» personajlar tavsifi, ularning shakl-shamoyilini ta’riflashdan boshlanadi.

2. Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini.
3. Dangasaning vajি ko'p.
4. Bu gaplarning barisini Hafiza xomush va oqilona tinglab, Umidning hamma fikrlariga qo'shilishini bosh qimirlatib bildirardi. (*Mirmuhsin*)
5. Bolalarimiz urush davrining azob-uqubatlarini, o'kinch-alamlarini ko'rmaganligi bizning baxtimizdir.
6. Prezidentimiz: «Har qanday inson uchun eng katta boylik bu uning o'z tilidir. Navoiy ijodi o'zbeklar uchun katta boylik», degan edi. Darhaqiqat, Navoiyni tushunish uchun millat tilining barcha shevalaridan xabardor bo'lmoq lozim. (*Gazetadan*)
7. Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan. (*P. Qodirov*)
8. Hayotim lazzati, qalbim qo'risan, Vatanim!
9. Noming qalbim so'rog'indadur, jamoling ko'z qarog'imdadur. (*O'. Jamol*)
10. Bir lahza jimlikdan keyin allaqayerdan qo'ylarning, sigirlarning ma'rashi, ho'kizlarning o'kirishi eshitildi.
11. Saidiy o'zining ish bo'lmasiga kirib, deraza yonidagi kresloga o'tirdi-da, stol ustidagi kitobni oldi. (*A. Qahhor*)

**284-mashq.** O'qing. Tushum kelishigidagi so'zlarni aniqlang. Tushum kelishigi shaklining belgili va belgisiz ishlatalish sabablarini aytинг. Tushum va chiqish kelishigi shakllarining sinonimiyasidagi uslubiy bo'yoqni tushuntiring.

1. Onam har gal xokandozni bo'shatganida qop-qora chang ko'tariladi.
2. U kamni siltab ko'rpachaga o'tqazdi-yu, ikki kafti bilan yuzini to'sgancha o'kirib yubordi.
3. Uning bunaqangi bor ovoz bilan kulganini hech qachon eshitgan emasdym.
4. Tolda chumchuq ko'rdim. Sherzod har safar hind kuylarini eshitganda rohat qilaridi.
5. U g'ashi kelib yuz o'girdi-da, deraza oldiga borib, o'y surdi.
6. U erkin muhabbat degan gapni noto'g'ri tushunayotgan, sevgidek tabarruk hisni oyoq osti qilayotgan odamlar to'g'risida yozishni ko'pdan buyon izlar edi. (*O'. Hoshimov*)
7. Agar men ul allomayi davronni o'z gulshanimda ko'rmoq istaganimda, yetti qavat yerning ostidan bo'lsa ham toptirib keltirar edim.
8. Abdulvafo Sariq bu og'ir o'ylardan charchab boshini yostiqqa qo'ydi, qo'yan zahoti pinakka ketgan ekan, bir mahal allaqanday shov-shuv eshitib, ko'zini ochdi. (*O. Yoqubov*)

**285-mashq.** Gaplarni o‘qing, qaratqich va tushum kelishigi shakllari o‘rinli qo‘llanganmi? Har bir kelishik shaklini o‘z o‘rniga qo‘yib, ko‘chiring.

1. Ma’rifatchilar elimizga ma’rifat urug‘ini sochishda fidoyilik ko‘rsatdilar.

2. Xalqparvar va insofli, diyonatli, boy-badavlat kishilarni moddiy yordamisiz ma’rifatchilar faoliyat ko‘rsata olmas edilar.

3. Tijorat, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan boyigan elimizni ishbilarmon kishilari o‘z davrini millionerlaridir.

4. Muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatni tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy qarashlarni butun bir tizimiga mafkura deyiladi.

5. Xalqimiz Alloh taologa ibodat qilishni biladilar, yaxshi tilaklar tilaydilar.

6. Tushuntirishni hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix hamda falfafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko‘rsatmoqda.

7. Odamlarning ma’naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroning uni yoshidan qat‘i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo‘limizdir. (*I. G‘afurov*)

8. Makoning bo‘libdi tog‘lar orasi,  
Sensan go‘zallikni asli, sarasi.  
Mayus yuragingda ishqning yarasi,  
Sen ham oshiqmisan yoki ohujon.

(*A. Oripov*)

**286-mashq.** Matnni o‘qing, o‘rin-payt va chiqish kelishigi shakllarining semantik-uslubiy vazifasini bayon qiling. Bu kelishik shakllari qachon ko‘makchi so‘zlar bilan sinonimik qator tashkil qilishini ko‘rsating.

## SHE’RIYATNING CHO‘G‘I

Mirtemirning she’riyati adirlar, qirlar, uvalar, dalalar, bog‘larning manzaralari bilan to‘liq bir she’riyat. Chunki uning tug‘ilgan joyi Turkistondagi Qoratog‘ etaklari — ko‘klam toshqinlaridangina lablarini ho‘llab olguvchi soylar, qizg‘ish qirlar va cheksiz sayhonlar, onda-sonda bir uchraydigan muzbuloqlar toshqinlardan paydo bo‘lgan ko‘llar yurti... Mirtemir tabiati mana shunchalar rangdor yurtda 1910-yilning yoz oyalarida dunyoga keldi.

Mirtemirni olam va borliq — tabiat kitobini o‘qishga onasi o‘rgatdi. Uning go‘dak hislarini oliyanob bir izga soldi. Yuragiga go‘zallikdan bahrha olish tuyg‘usini quydi. So‘zning ta‘mi, totidan zavq ola bilishdek noyob bir san‘atga qalbida muhabbat va qiziqish uyg‘otdi. Mirtemirning onasi so‘zga g‘oyat chechan, zukko, kayvoni onalardan edi. U kishi hamma

so‘zlariga maqol bilan rang va ma’no berib so‘zlar ekanlar. She’riyat cho‘g‘ini o‘g‘il yuragiga solgan mehribon ona siymosi shoirning butun ijodida ezzulikning porloq bir ramzidek gavdalanim turadi.

«...Hovlimizda bir tup jiyda bo‘lardi — quchoq yetmas, nuqra yaproq, bobomning bobosini ko‘rgan non jiyda... Onam hamisha shu jiyda tagida bir nima tikib yoki yamab, un qorib yo xamir kesib o‘tirgani hamon ko‘z o‘ngimda. Agar men biror sho‘xlik qilsam, shu jiyda tagida turib, qo‘lini yanar edi. Agar biron xush yumush qilsam, shu jiyda tagida olqish olar edim.

Ayniqsa, gullaganda, yopiray, buning hidi... Hech gulda bunaqangi hid bo‘lmas, pishganda-chi? Hovli yuzi yaltiroq yoqut donlarga to‘lib ketar edi. Ta‘mi-chi? Nonday to‘q. Shirin, shifoli. Onam xalta-xalta qoqlab olar edi yoz bo‘yi.

Men hovlimga bordim, bolaligimda ko‘rganlarimdan yolg‘iz shu jiyda qolibdi — tarvaqay, g‘adir. Chiyoq qadimgidek. Men jiyda yoniga kelib tiz cho‘kdim va g‘o‘dir po‘stloqlariga peshanamni qo‘yib pichirladim: Onajon...»

(I. G‘afurov)

**287-mashq.** «Zulfiyaxonim qizlari» mavzusida bahs-munozara o‘tkazing. Qo‘srimchalarning ishlatalishiga diqqat qiling. Zulfiya she’ridan olingan quyidagi parcha munozarangiz uchun epigraf bo‘lsin.

Salom mening, aziz dugonalarim,  
Azizim, lobarim, chevarim qizlar.  
Ey, toza qalbimning oshnolari  
Kuylarim ilhom, sevarim qizlar.

**288-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘srimchalalarini tegishli ko‘makchilar bilan almashtirib, gaplarni ko‘chiring. Kelishik shakli va ko‘makchi so‘zlar sinonimiysi orasidagi uslubiy farqlarini tushuntiring.

1. **Axloq-odobga** bag‘ishlangan kitob. 2. Odam **odamga** hamisha kerak.
3. **Gulruxsorni** ko‘rish nasib etmaydi. 4. Bu yulduzlar **qayerdan** kelgan, bibijon? 5. Qora **libosga** o‘randi. 6. Abu Ali endi **G‘aznaga** yo‘l oldi. 7. **Begin-ga** o‘xhashni xohlayman. 8. Beruniy indamay **eshikka** yo‘naldi. 9. Go‘yo bu **ertakda** kamina sulton Sohibqironning izzatini yerga urgan emishman. 10. Qaysi **gunohlaringga** seni qyinoqqa soldilar. 11. Malikul sharob o‘zlarini Ibn Sino deb, oqko‘ngil avomni tunab yurguvchi **qalloblarni** ko‘p eshitgan edi. 12. Yuzi qizil shoyi **belbog‘ga** o‘ralgan sulton bir-ikki marta pitir-pitir qildi-da, o‘likday uzala tushib yotib oldi. 13. Bu **sotqinligingga**, yigirma yil qora daftarga bitgan ig‘vo so‘zlaringga ne olding? 14. Navkar uning qo‘llaridan qayirib, **eshikka** sudradi.

(O. Yoqubov)

**289-mashq.** Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib yozing va uslubiy jihatdan farqini aytинг.

1. Kim mактабга qадам bosган kуни (-da, -dan) ochiq chehra bilan qаршилаган ustozini yo'qlaydi. 2. Kim o'z murabbiysining farzandi (-ni, -ning) yонига olib, hayotdagи о'mни topib olishiga ko'maklashyapti. 3. Gap Arastu haqida borar ekan, yana bir rivoyat (-ni, -dan) keltirish bilan ustoz-shogirdlik o'rtasidagi munosabatlar azaldan oson kechmaganligi (-ni, -ning) pisanda etmoqchimiz. (*Gaz.*) 4. Bu durdonalar (-ni, -dan) har bir odam o'zi bitta-bittadan terib, husn xazinasiga keltirib to'kadi. 5. Akalarim bilan bir g'ujum-bir g'ujum (-da, -dan) talashib edik. 6. O'girilib qaradim-u, uch-to'rt qadam park (-dan, -da) turgan ammaga ko'zim tushdi. 7. Laylaktepa (-ga, -dan) o'tib Qozirabotga borganda qaynama buloq (-da, -dan) muzday tiniq suv ichdik. 8. «Siyomon ko'prik»dan o'tish (-ni, -ning) o'zi bir tomosha. Terak bo'yи chuqurlik (-ka, -da) suv qorayib oqadi. 9. Aravakashlar so'kingan, eshaklar hangragan, og'zi (-da, -dan) tupugi osilgan, usti (-ga, -da) qop-qop somon tog'dek uyulgan tuyalar ham o'tib qoladi.

(*O'. Hoshimov*)

**290-mashq.** Matndagi grammatik-uslubiy xatolarni aniqlang. Uni qonun-qoidalar asosida qayta tahrir qilib ko'chiring.

## BU YO'LDA XATO QILMA

Bahor fasllarni eng qaynoq, eng sertashvish, ayni zamonga eng zavqbaxshi. Undan gulyaproqlarni atri, jonbaxsh ellarni sho'xligi, uyg'ongan hayotni jilvasi... Daraxtlar gullaydi, qushlar kuylaydi... Ularni gullarida ham, qushlarning kuylarida ham surriyot istaginiн taronasi. Nebaxt, tabiat taqozosi bu!

Bu taqozoga inson ham bahramand. Unda ham bahor kabi qiyg'os gullaydigan, qushlar kabi sevgi taronasida kuylaydigan oltin davr bor. Bu davr uni o'z sakkiz yoshi. Bunga «balog'at» «sevgi yoshi» ham deydilar. Mayli, gap uning nima deyishdan emas, mohiyatidan. Darhaqiqat, o'n sakkizga kirganki bor, qalbi muhabbatga yo alami bilan jarohatlangan, yo lazzati bilan baxt dukuridan to'lган bo'ladi.

Xo'sh, bu savdodan hamma ham bir xil qaraydimi?

Afsuski, yo'q. Ba'zi yoshlар sevgini shunchaki ko'ngilxushligi deb engil-elpi qarashsa, ba'zi keksalar, uni bog'lovchi, yaratuvchi, baxtsaodat keltiruvchi kuchining tan olmaydilar.

Bu boradan farzand uchun eng ko'p jonkuyar, eng to'g'ri maslahat hatto'y, eng yaqin do'st ota-onadir.

Darhaqiqat, ota-ona roziligi, ayniqsa, maslahati bilan qurilgan yosh oila qariyb zavol ko'rmaydi.

(*M. Ismoilov*)

**291-mashq.** Quyidagi matndan kichraytirish — erkalash shakllarini toping. Har bir shaklning semantik-uslubiy xususiyatini bayon eting.

## TO‘YGA AYT MADINGIZ

Saodat xola akajonimni yo‘qlab kelay deb, ertalabdan issiq non yopib, dasturxoncha qilib, qo‘sni qishloqqa paxtazor oralab yo‘lga tushibdi. Bog‘ tarafdan o‘tdi, bu yerga kelib bolakay davrlari esga tushdi, jajjiligidagi o‘rtoqlari yodiga keldi. Birdan hovlidan kelayotgan ovozni eshitib to‘xtab qoldi. Musiqa ashula, «Tabriklaymiz», «Kelinchak qutlug‘ bo‘lsin!» degan so‘zlarni eshitib, beixtiyor xo‘rligi kelibdi. «Huv desa, yetadigan joydaman, bir og‘iz: «Opajon, kelin olyapmiz!» desa bo‘ladi», deya o‘z-o‘ziga gapirganicha kelgan yo‘liga qaytibdi.

Uyga kelsa, akajonisi so‘rida xo‘jayini bilan choy ichib o‘tirgan mish.

— Ha, to‘yni boshlab, endi aytgani keldingizmi? — debdi o‘pkaginasi to‘lib Saodat xola.

Saodat xola eshitganlarini to‘kib solibdi.

— Ha, singilginam-a, — debdi akasi. — Axir, u magnitofon-ku? O‘sha sen «uylantirib» qaytgan jiyaning kecha qo‘ymasdan bozorchadan bir qo‘zichoq o‘rniga o‘shani oldirdi. O‘rtog‘ining to‘yini «yozib» kelgandi. Shuni eshitib o‘tirishgandir, shumtakalar.

(Jurnalidan)

## Tayanch tushunchalar

kelishik, bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, jo‘nalish kelishigi, chiqish kelishigi.

## 28.2. EGALIK SHAKLLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** egalik shakllari yuzasidan talabalar bilimlarini mustahkamlash, ularda egalik qo‘srimchalaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

**R e j a:**

- \* Egalik qo‘srimchalari haqida.
- \* Egalik qo‘srimchalarining shaxs-son ma’nolari bo‘yicha turlari.
- \* Ko‘plik shaklidagi egalik qo‘srimchalarining birlik ma’nosida qo‘llanilishi va buning sabablari.

 **Topshiriq.** Berilgan birikmalardagi nuqtalar o'rniغا mos keladigan qo'shimchalarni qo'ying. Bu qo'shimchalarning ma'nosi va vazifasini aytинг.

Men... kitob...  
Sen... kitob...  
U... kitob ...

Biz... kitob...  
Siz... kitob...  
Ular... kitob.

Bir shaxsga mansub bo'lgan egalik qo'shimchalari birlik va ko'plikni ifodalash bo'yicha o'zaro farqlanadi. Ularni quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Shaxs-son	Birlik	Ko'plik
I shaxs	- (i) m	- (i) miz
II shaxs	- (i) ng	- (i) ngiz
III shaxs	- (s) i	- lari

Egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik ma'nolari asosida yuqoridaagi kabi zidlanishi ayrim vaqtarda buziladi. Bunday vaqtida ko'plik shakli o'zi qo'llanayotgan narsa-hodisaning birdan ortiqligini emas, balki hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan, *Onamiz dam olgani ketdilar*.

II shaxs egalik qo'shimchasining ko'plik shakli ko'pincha «siz»lash ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *opang* («sen»siraganini bildiradi) — *opangiz* («siz»lashni bildiradi)

Bunday hodisa III shaxs egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik shakliga ham daxldordir. Masalan, *opasi* («sen»lash) — *opalari* («siz»lashni bildiradi).

Badiiy uslubda tilimizning bunday imkoniyatidan personajlar xarakterini ochishda ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, *Xo'jayinning itlari*. (*A. Qahhor*) It hurmatga sazovor emas. Lekin xo'jayiniga lagambordorlik shunday kuchlikni, uning itiga ham ana shunday munosabat bildiriladi.

! Otlarning uch shaxsdan biriga mansub ekanligini bildiruvchi  
• shakllar tizimi egalik qo'shimchalari sanaladi.

## ? Savol va topshiriqlar

1. Egalik qo'shimchalari deganda nimani tushunasiz?
2. Egalik qo'shimchalarining ko'plik shakllari doimo ko'plik ma'nosini bildiradimi? Agar ko'plikni bildirmasa, qanday vazifada qo'llaniladi?

**292-mashq.** Matnni ko‘chiring, egalik qo‘shimchalarini semantik-uslubiy jihatdan ta’riflang.

Hakim Sanoiy aytadi:

- Kishi o‘z sirini besh xil kishiga aytmasligi kerak. Bularning birinchisi — makr-u hiylali ayol, ikkinchisi — balog‘atga yetmagan bola, uchinchisi — tentak, to‘rtinchisi — birovga tobe kishi, beshinchisi — sinalmagan do‘sit.

Yengiltak va makr sohibasi bo‘lmish ayolga sir aytgan kishining ishi go‘yo olovga paxta tashlab, unga «kuyma!» deb yuborgan kishining ishiga o‘xshaydi. Bolalarga sir aytgan kishining ishi esa suvgaga ko‘za tashlab, unga «ho‘l bo‘lma!» deb buyurgan kishining ishiga o‘xshaydi. Tentakka sir aytgan kishining ishi go‘yo mushukka go‘sht tashlab, unga «yema!» deb buyurgan kishining ishiga o‘xshaydi. Biror tasodif tufayli birovga qaram va tobe bo‘lib qolgan kishiga sir aytgan kishining ishi go‘yo it oldiga suyak tashlab, unga «g‘ajima!» deb buyurgan kishining ishiga o‘xshaydi. Sinalmagan do‘siga sir aytgan kishining ishi go‘yo o‘zini o‘zi daryoga otib, do‘siga xitob qilgan holda: «Meni g‘arq bo‘lishdan qutqar!» degan kishining ishiga o‘xshaydi.



**Uyga topshiriq.** Biror gazeta, jurnallardan *-lar* qo‘shimchasi anglatgan ma’nolarning har biriga: ko‘plik, umumlashtirish, hurmat, mubolag‘a, taxmin, kinoya kabilarga 3–4 tadan misol topib yozing va uslubiy xususiyatini izohlang.

**293-mashq.** Ko‘chiring. So‘zlardagi ko‘plik, egalik qo‘shimchalarining qo‘shilishiga e’tibor qiling. Ularning o‘rin almashishidagi ma’naviy-uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Farzandim — farzandimiz. Boshim — boshlarim, iztirobler — iztirobimiz, kuyov — kuyovingiz, yuzlarim — yuzim, do‘stim — do‘stginam — do‘stlarim, uyimizda — uylarimizda, hayajonimiz — hayajonlarim, xirmon — xirmonlarim — xirmonimiz, dillarim — dilla-ringiz — dilimiz, ko‘zdan ayrıldi — ko‘zidan ayrıldi, mashinadan chiqdi — mashinasidan chiqdi.

### Tayanch tushunchalar

egalik qo‘shimchalari, birlik son, ko‘plik son, egalik qo‘shimchalarida hurmat ma’nosи, egalik qo‘shimchalarida kesatiq ma’nosи.

---

## 29-DARS. FE'L VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** fe'l haqida talabalarning o'rtal umumiyligi ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, fe'llardan o'rinali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Fe'l haqida ma'lumot.
  - \* Fe'llarning mazmuniy turlari.
  - \* Fe'llarning uslubiy xoslanishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan matndan fe'llarni toping va bu fe'llarni harakat bildiruvchi fe'llarga va holat bildiruvchi fe'llarga ajrating.

Taqdir sinoviga g'am chekma sira,  
Niyatni to'g'ri qil yosh to'kma sira,  
Kelajakning nurli cho'qqisiga boq,  
Ezgulik ishini tark etma sira.

(Q. Parpiyev)

**2-topshiriq.** O'qidi, o'qitdi, o'qimadi, o'qidik fe'llaridagi ajratib ko'rsatilgan qo'shimchalarining qanday qo'shimchalar ekanligi va ma'nolarini aytинг.

! Harakat-holat ma'nosini ifodalab, nima qildi (bo'ldi)?, nima qilyapti (bo'lyapti)?, nima qiladi (bo'ladi?) singari so'roqlarga javob bo'lувчи so'z turkumiga fe'l deyiladi. Masalan: *Talaba o'qidi (nima qildi?). Mashinalar guvullaydi* (nima qiladi?) kabi.

Fe'l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

1. **Yumush fe'llari:** *ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi* va boshqalar.
2. **Tafakkur fe'llari:** *o'ylaydi, o'qidi, kashf qildi* kabi.
3. **Sezgi fe'llari:** *sezdi, his qildi*.
4. **Ruhiy holat fe'llari:** *kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi, iztirob chekdi*.

5. **Nutq fe'llari:** *gapirdi, so'zladi, bayon qildi, ifoda qildi, ming'irladi, do'ng'illadi.*
6. **Ishora fe'llari:** *imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi* va boshqalar.
7. **Jismoniy holat fe'llari:** *og'ridi, isitma chiqdi, xastalandi, sog'aydi, kuchaydi, charchadi* kabi.
8. **Tabiiy holat fe'llari:** *eridi, muzladi, yetdi, uxladi* va boshqalar.
9. **Ko'rish fe'llari:** *qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi.*

Yuqoridagi fe'l turlarining har qaysisi bir necha fe'llarni o'z ichiga oladi. Bu fe'lllar harakat-holat ma'nosini qanday ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishlarni kuzatish mumkin:

1. Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko'ra farqlanishi: jilmaymoq — kulimsiramoq — kulmoq.
2. Ijobiy va salbiy bahoga ega bo'lishligiga ko'ra: kulmoq — tirjaymoq; so'zlamoq — to'ng'illamoq, ming'irlamoq.
3. Uslubiy xoslanishiga ko'ra: kulmoq (umumiste'moldagi so'z) — tabassum qilmoq (badiiy uslubga xos), so'zlamoq (umumiste'moldagi so'z) — nutq ijod etmoq (badiiy uslubiga xos) kabi.

Yuqoridagi fe'llarning har qaysisini o'z o'rnida ishlatish nutqning ravonligi, aniqligi va ifodaliliginini ta'minlaydi.

## **?** *Savol va topshiriqlar*

1. Fe'l deb qanday so'z turkumiga aytildi?
2. Fe'llarning qanday ma'no turlarini bilasiz?
3. Bir ma'no guruhiга mansub fe'llar qanday belgilariga ko'ra farqlanadi?

**294-mashq.** Topishmoqlarni o'qing. Fe'llarni harakat bildiruvchi va holat bildiruvchi fe'llarga ajratib yozing.

Dam oladi kunduzi, xonardonning yulduzi. Kechasi ochilur, osmonga sochilur. Osmonda u yaraqlab, kulib turar charaqlab.

Oyna emas jimirlar, tek turmasdan qimirlar. Kundalik tarix o'zi, har yerda uning so'zi. Katta oppoq dasturxon, yer yuzini qoplagan. Tunda ko'rib cho'g' deysan, Tongda ko'rib yo'q deysan. Tanga-tanga to'ni bor, mitti ko'zi unga yor. Yursa suvlar jimirlar, Qamishlar ham qimirlar. Qulochida qo'sh-qo'sh halqa, Xizmat qilar charchamay xalqqa. Kulib turar misoli oftob, Hamrohidir chang, tor va rubob.

**295-mashq.** Fe'llarni harakat-holat ifodalanishiga ko'ra guruhga ajrating, har bir turiga o'ntadan misol yozing.

yumush	tafak-kur	sezish	ruhiy holat	nutq	ishora	jismo-niy holat	tabiiy holat	ko‘-rish	yurish

**296-mashq.** O‘zbek tilida fe’llar leksik-grammatik xususiyatlari ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘linadi: mustaqil fe’llar, yordamchi fe’llar. Siz ham quyidagi matn ichidan mustaqil fe’l va yordamchi fe’llarni ajratib yozing, shaxs-son qo‘srimchalarini aniqlang.

### ZULFIYAXONIM

Dunyo qadim-qadimdan sharq ayoli, turkiy ayollarni yaxshi tanigan. Tarixning barcha bosqichlarida ular dunyoga o‘zining borligini goh mardlik, jasorat bilan, goh tadbir-u oqilalik bilan, goh she’riyat bilan bildirib, tanitib, tan oldirib kelganlar. Ana shu zotlardan biri Zulfiyaxonim bo‘lib, u el muhabbatiga, ayollar ishonchiga tasodifiy bir holatda muyassar bo‘lgan emas. Opaning huzuriga olis qishloqlardan yuzlari quyoshda qorayib ketgan, ajinlari bolalagan ayollar qo‘llarida go‘dagi bilan madad so‘rab kelardi. Ustoz ularning boshini silar edi, yupatar edi.

«Sakson yil lovullab so‘nmagan o‘tman», deydi Zulfiyaxonim she’rlarining birida.

Men dengizning labida turdim,

Dengiz to‘lib chayqaldi yurak.

Xalqning og‘riqlariga, quvonchlariga joni bilan tutashmagan shoira bunday yoza olmaydi.

Biz shoiraning ovozlarini, chiroyli qarashlarini, issiq qo‘llarini sog‘ingan edik. Ular xonaga kirganda bir qalqib tushib, o‘zimizni o‘nglab olar edik.

Balki, Prezidentimiz Farmoni bilan adabiyotimizga kirib kelayotgan yangi Zulfiya qizlarining kuchli ovozlari bu sog‘inchimizni bosar. Balki, ustozni ko‘rgan ko‘zlarimiz bilan bir-birlarimizga termilib, bu sog‘inchga malham toparmiz. Nima bo‘lganda ham biz «Bu bog‘lar bir bog‘lar bo‘ladi hali» degan taskin bilan yashaymiz.

(Q. Rahimboyeva)

**297-mashq.** Sharq tafakkuri xazinasidan olingan «Vatan» haqida berilgan satrlardan o‘kinch fe’llarini toping, zamonini aniqlang.

Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb,  
Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb,  
Birma-bir jonimiz etamiz fido,  
Vatanni dushmanga bermaymiz aslo!

(Abulqosim Firdavsiy)

Qafas xoh fil suyakdir, xoh tillo,  
Chekar qush bo'ston dardini, tanho.

(*Xusrav Dehlaviy*)

Kimki g'animat deb vatandin quchar,  
Boshqaga ham ko'ngil qo'yolmay o'tar.  
Uchqun toshdan ajrab chiqqanidan so'ng,  
Qancha ardoqlama, bari bir uchar.

(*Abduqodir Bedil*)

Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranji g'urbat havas aylama.

(*Alisher Navoiy*)

**298-mashq.** Quyidagi balladaning mazmunini nasriy yo'l bilan og'zaki bayon qiling. So'ng fe'l mayllarini aniqlang, ularni alohida ko'chirib yozing.

## O'G'IZXON VA YOVUZXON

...Kuchli raqib — qo'shni xondan  
Maktub olmish O'g'izxon.  
Unda shunday bitilgan mish:  
«Tingla, so'zimni, ey xon.  
Duldulingni yoqtirganman,  
Uni yuborgin menga.  
Yo'qsa, qo'shin tortgaydirman  
Yurtingga — makoningga!»  
Behuda qon oqmasin deb  
U yutib fig'onini  
Yuboribdi raqibiga,  
Sevgan arg'umog'ini.  
Biroz fursat o'tib ul xon  
Yana maktub yo'llabdi.  
Undagi shart — misli to'fon,  
Barchani o'ylatibdi:  
«Xotiningni suyib qoldim,  
Uni tortiq et menga.  
Yo'qsa qo'shin tortgaydirman,  
Manzil-u makoningga». .  
Haqoratdan battar edi,  
Garchi bu shart, bu so'rov.  
Malikadan voz kechdi u,  
Qon to'kmasin deya yov.  
Yeb to'yagan yalab to'ymas,

Deganicha bor ekan.  
Ul yovuz xon tag'in shunday  
Maktub yuborgan ekan:  
«Falon yering ma'qul ko'rdim,  
Uni in'om et menga.  
Yo'qsa qo'shin tortgaydirman,  
Seni tug'gan Vatanga!»  
Har galgidek mashvaratga,  
Yig'ilgan oqsoqollar.  
«Mayli, bergin», deb aytishdi  
Surib og'ir xayollar:  
«Balki uning nafsi qonib,  
Shu bilan daf bo'lgaydir.  
Bir parcha yer ketsa, mulking  
Kamayib qolmagaydir...»  
« — Yo'q! — deya shitob bilan  
Turib ketdi O'g'izzon.  
— Ajdodlarim yotgan xokni,  
Bermagayman hech qachon!  
Bu zaminning har zarrasi,  
Qalbimga ildiz otgan.  
Magar uni yovga bersam,  
Quyosh biz uchun botgan...»  
Shundoq deya shoh O'g'izzon,  
Qilichini sug'urdi.  
Lashkar tortib, raqibini,  
Qoni bilan sug'ordi...  
Zafar bilan qaytarkan u,  
Onajon — tuprog'iga.  
Shunday so'zlar yozdiribdi,  
Yurtining bayrog'iga:  
«Bobolarim ruhi kezgan,  
Har qarich yer — muqaddas.  
Yuragimiz unga qalqon,  
Bo'lsin to so'nggi nafas!..»

(*Toshpo'l lat Ahmad*)

### **Tayanch tushunchalar**

fe'l, yumush fe'llari, tafakkur fe'llari, sezgi fe'llari, ruhiy holat fe'llari, nutq fe'llari, ishora fe'llari, jismoniy holat fe'llari, tabiiy holat fe'llari, ko'rish fe'llari.

---

## **30-DARS. NISBAT VA MAYL QO'SHIMCHA-LARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **30.1. NISBAT SHAKLLARI USLUBIYATI**

**Darsning maqsadi:** nisbat shakllari haqida o'rtal umumiylarda olgan bilimlarni mustahkamlash.

Nisbat shakllaridan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Nisbat shakllari haqida ma'lumot.
  - \* Nisbat shakllari tasnifi.
  - \* Nisbat shakllarining o'zaro vazifaviy almashinuviga va uning uslubiy xususiyatlari.

✓ **Topshiriq.** Yozda fe'lidan -ish, -il, -dir qo'shimchalari orqali turli nisbat shakllarini hosil qiling. Har qaysi nisbat shakli qo'shilganda ma'noda qanday o'zgarish ro'y berayotganligini ayting.

*O'qidi, o'qitdi, o'qishdi, o'qildi fe'llarining o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor bering. Ularning hammasi bir xil o'zakdan iborat. Shu bilan birga, ularning hammasi bir xil zamon shakliga (-di) ega. Shunday bo'lishiga qaramay, ular bir-biridan ma'lum ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Ikkinci fe'lida fe'l o'zagiga -t qo'shimchasi qo'shilib, bir shaxs boshqa shaxsga o'qish harakatini bajartirganini bildiradi.*

Uchinchi fe'lida esa fe'l o'zagiga -sh qo'shimchasi qo'shilib, fe'l o'zagida ifodalangan o'qish harakatining birgalikda bajarilganini, to'rtinchchi fe'lida esa fe'l o'zagiga -l qo'shimchasi qo'shilib, o'zakdan anglashilgan o'qish harakatining kim tomonidan bajarilgani noma'-lumligini ifodalaydi.

Ko'rinaldi, yuqorida fe'llarning hammasi harakat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni qanday ifodalashiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

! **Fe'lidan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllariga nisbat shakllari, shunday shakllar tizimiga esa nisbat kategoriyasi deyiladi.**

## Nisbat shakllari va ularning ma'nolarini quyidagi jadvalda ko'ring:

T/r	Nisbat turlari	Nisbat shakllari	Ma'nolari	Misollar
1.	Bosh nisbat	—	Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi	o'qidi, kelyapti
2.	Birgalik nisbat	-ish, -ish	Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodelaydi	o'qishdi, kelishyapti
3.	Orttirma nisbat	-dir (-tir), -giz, (-qiz, -g'iz), -kaz (-qaz), -t, -iz, -ar, -sat	Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradi	qoldirdi, ketirdi, kirgizdi, o'tkazdi (o'tkizdi), o'qitdi, tomizdi, qaytardi, ko'r-satdi
4.	O'zlik nisbat	-l(il), -n (-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi	yuvindi, kiyindi, qo'zg'aldi
5.	Majhul nisbat	-l(-il), -n (-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum bo'ladi	yuvildi, qilindi, bajarildi

Ba'zan bir nisbat ma'nosini o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniлади. Xususan, bosh nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatalishi mumkin. Masalan, *keldi* — *kelishdi*, *kelyapti* — *kelishyapti*, Shuningdek, bosh nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniлади: *qildim* o'rniga *qilindi*, *bajardim* o'rniga *bajarildi*, *kiring* o'rniga *kirilsin* каби. Bunday holat ma'lum uslub-emotsional ma'no talabi bilan ro'y berdi. Ko'pincha keyingi holat hurmat, kamtarlik ma'nolarini ifodelaydi.

**299-mashq.** Fe'lning aniq, majhul, o'zlik, birgalik va orttirma nisbatlarini aniqlang. Nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar ostiga chizing. Fe'lning qaysi nisbatda ekanligini qisqacha yozib qo'ying.

N a m u n a: U ohista tebrandi (o'zlik nisbatda).

1. Qayumxon Olimovichning uyida zo'r tantana. Shaharning ko'zga ko'ringan odamlari taklif etilgan. Ikki qavatli kottejning hovlisi taxta so'rilar, institut oshxonasidan keltirilgan stol-stullar bilan bezatilgan.

(T. Mahmud)

2. Studentlar bir chekkada samovar qo'ygan, choynak-piyolalarni yuvib, artishgan, qo'li to'rtta, oyog'i oltita bo'lib u yoqdan bu yoqqa narsa tashigan, domlaning ko'z qiri tushib qolarmikan degan niyatda ko'ngil erib xizmat qilishardi. Mehmonlar kechroq taklif etilgan edi.

(*T. Mahmud*)

3. Lagan-tovoqning biri-birisiga tekkan tovushi eshitilib, Otabek o'zini ohistagini yo'lakka oldi. (*A. Qodiriy*)

4. «Sarob» romani 1953-yilda Stalin o'lgach, mamlakatda boshqacha — iliq shabadalar esa boshlagan, КПСС XX syezdi «dohiy» shaxsiga sig'inish va uning o'tkazgan siyosatini qoralagan bir paytdagina qayta qo'lga olindi. (*R. Qo'chqor*)

5. Ahmoq yolg'onga to'n kiygizdi boplab, bor-yo'g'i bir hamroh emish-a, qaysi nodon ishonar bunga. (*A. Dilmurod*)

6. Bizning asabimiz necha ming yillar,  
Kishanlar ostida shu qadar pishdiki,  
Shuncha og'irlik ostida aslo  
Shoshmadik, dushmanlar hayron qolishdi!  
O'n olti martaba to'plandik bizlar  
Rejalar tortishdik yangi ishlarga,  
Nima deyishni bilmaydi dushman,  
Bir reja bo'yicha yugurishlarga!

(*Abdulhamid Cho'pon*)

**300-mashq.** Fe'l nisbatlari bo'yicha guruuhlararo «Bu bizniki» grammatik o'yin-topshirig'ini bajaring.

I guruh aniq  
va majhul nisbat

II guruh o'zlik va  
birgalik nisbati

III guruh orttirma  
nisbat

## SO'ZLAR

Tashidi, kiyindi, tortdi, torttirdi, tanish, bezaldi, bezatdi, tashlandi, tashlandik, o'qish, ilit, ilitildi, puslandi, chalindi, chaldirdi, tinglashdi, chiqdi, chizildi, boyidi, qo'llanma, qo'lladi, qo'llattirdi, ortdi, eslashdi, achindi, achitqi, aytishdi, tushuntirdi, ishslash, olqish, so'zlashdi, so'zlashishdi, uqtirilgan, tiklatildi, bo'lindi, qaltiradi, ochildi, ochdi, suhbatlash, toshdi, pishdi, tinglandi, tinglash, o'rnatishdi, to'lashdi, dalillash, o'tirish, o'tirishdi, sezdi, seskandi, kechirtirdi, taltaytirdi, bilgizdi, chiniqirtirdi, siltatdi, chuvildi, tugaldi, tirmashdi, topishdi, o'zgarildi.

**301-mashq.** Navoiy asarlari lug‘atidan keltirilgan misollarni diqqat bilan o‘qing. So‘ngra *bosh* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan fe’llar sinonimiyasiga e’tibor berib yozing.

Bosh oqarmoq — sochi oqarmoq, qartaymoq.

Bosh olib chiqmoq — hamma narsaning bahridan o‘tmoq, kechmoq, tark qilmoq.

Bosh uchurmak, bosh tushirmoq — o‘ldirmoq, boshini kesmoq.

Bosh ura kirishmoq — ko‘rina boshlamoq.

Bosh o‘g‘irlamoq — bosh olmoq, o‘ldirmoq.

Bosh o‘ynamoq — o‘yinda boshni tikmoq, qurban bo‘lmoq.

Bosh indurmak — 1. Ta’zim qilmoq; 2. Pisand qilmoq.

Bosh tortmoq — ko‘tarilmoq, yuqorilashmoq.

Bosh chiqarmoq — o‘zini tortmoq, o‘zini ayamoq, saqlamoq.

Ollida bosh quymoq — o‘zini kichik olmoq, itoat qilmoq, iltijo etmoq.

Boshidin quymoq — esidan, yodidan chiqmoq.

Boshdin quymoq — bahridan o‘tmoq, kechmoq, tark qilmoq.

Boshiga yetmoq — tepasiga kelmoq, oldiga kelmoq.

Boshi falakdin o‘tmoq — ulug‘ martaba hosil qilmoq.

Xotindin bosh ko‘tarmak — itoatda bo‘lmoq, chizgan chizig‘idan chiqmaslik.

### Tayanch tushunchalar

fe'l nisbatlari, bosh nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat, o‘zlik nisbat, majhul nisbat.

## 30.2. MAYL QO‘SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** mayl shakllari yuzasidan talabalarning o‘rta umumiy ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash.

Mayl shakllaridan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

**R e j a:**      \* Mayl shakllari haqida ma’lumot.  
                      \* Mayl shakllari tasnifi.

✓ **Topshiriq.** Kel... so‘zi oxiridagi nuqtalar o‘rniga -sa, -ay (-gin, -sin), -moqchi shakllarini qo‘ying. Har qaysi shaklda qanday ma’no’ ifodalanayotganini ayting.

1. *Bordim, bording, bordi*; 2. *Boray, borgin, borsin*; 3. *Borsam, borsang, borsa*; 4. *Bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchisiz* singari *bormoq fe’lining turli shakllari ma’nosiga e’tibor bering*. Bulardan birinchi guruhdagilar bilan ikkinchi, uchinchi va to’rtinchi guruhdagilar zamon ma’nosi bilan farq qiladi. Birinchi guruhdagilar o’tgan zamonni, qolgan guruhdagilar kelasi zamonni bildiradi. Ular o’tasidagi farq faqat shu bilangina cheklanmaydi.

Yuqoridagi to’rt guruhdagi fe’llar so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham farq qiladi. Birinchi guruhdagi fe’llar harakat-holatni uning bajarilgan vaqt bilan bog‘liq holda ifodalaydi. Harakat-holatning bajarilish-bajarilmashligi aniq bilinib turadi.

Ikkinci guruhdagi fe’llarda harakatni bajarishga buyruq ma’nosi, uchinchi guruhdagi fe’llarda harakatning bajarilish sharti ma’nosi, uchinchi guruhda esa harakatning bajarilish ma’nosi ifodalanadi va bu guruhning har qaysisi ana shu ma’nolariga ko‘ra o’zaro farqlanadi.

! So‘zlovchining fe’ldan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini bildirgan fe'l shakllariga mayl shakllari, shunday shakllar tizimiga esa mayl kategoriyasi deyildi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida yuqoridagi ma’nolarga muvofiq keladigan to’rt turdag'i mayl shakllari mavjud. Ularni quyidagi jadvalda ko‘ring:

T/r	Mayl turlari	Mayl ko‘rsatkichlari	Misollar	Ma’nolari
1.	Ijro mayli	—	Ko‘rdim, ko‘ryapman, ko‘raman, ko‘rding, ko‘ryapsan, ko‘rasan, ko‘rdi, ko‘ryapti, ko‘radi	Harakatning ijro qilish-qilinmasligini bildiradi
2.	Buyruq-istik mayli	-y(-ay) -ylik (-aylik), -ng (-ing), -ing, -ngiz (-inglar), -sin, -sinlar	Yozay, to‘qiy, yoz, yozing, yozgan, yozingiz, yozsin, yozsinlar	Harakatni bajarishga da’vat etish ma’nosini bildiradi
3.	Shart mayli	-sa	Yozsam, yozsang, yozsa	Shart bo‘lgan harakatni ifodalaydi
4.	Maqsad mayli	-moqchi	Yozmoqchiman, yozmoqchisan, yozmoqchi	Harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi

Yuqorida fe'l shakllaridan o'rinli foydalanish nutqingizni aniq, ravon ifodalashga yordam beradi.

### **302-mashq.** Gaplarni o'qing, fe'l mayllarini aniqlang.

Endi, sen, ey ayanch masxaraboz va o'zingniki bo'limgan ishlarga aralashib yuradigan telba, sen endi meni kechir! Ko'ngillarga alam berishni bas qiling. Damingizni chiqarmasdan turing: men sizni yuragingizga bir alam bermoqchiman: agarda u yurak hech narsa kor qilmas bir ma'dandan iborat bo'limasa, agarda jinoyatga ko'nkish orqasida har qanday hisdan mahrum bir misga aylanmagan esa, men unga achitib-achitib bir alam berayin deyman. (*Abdulhamid Cho'pon*)

2. Navoiy zamonida bo'lib o'tgan bir galgi mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she'rni chunonam dabdabali ohangda o'qibdiki, uning bu qilmishi ko'pchilikka ma'qul tushmabdi. Shunda mashhur donishmandlardan biri u kishiga:

— Mavlono, siz she'r o'qiydirsizmu yoki odam qo'rqtasizmu? — deya tanbeh bergan ekan. (*Z. Vasify*)

3. Kesak desangiz ham mayliga, lekin sansiramang, Arslonbek. Men sizdan ikki yosh kattaman. Shu yerda bo'yiga yetgan qizim, bola-chaqali o'g'lim o'tiribdi. Kozimbekning orzusini ko'ring, sansiramang. (*A. Qahhor*)

**303-mashq.** «Tongda turmoqlikning xosiyati» mavzusida matn tuzing, bunda sinonim fe'llardan unumli foydalaning.

**304-mashq.** Matnni o'qing. Fe'l mayli qo'shimchalarini ajratib yozing va uslubiy vazifalarini aniqlang.

## ENG YAXSHI DORI

Shunday xastalar bo'ladiki, ularni faqat so'z bilan davolamoq zarur. Abu Ali ibn Sinoning fikriga qaraganda, bemorni dori-darmon bilan birga so'z bilan davolagan ham afzal, chunki so'z shunchalik sir-sinoatga ega bir mo'jiza hisoblanadi.

Bir og'iz shirin so'z. Siz bu so'zning naqadar umidbaxsh va katta qudratga ega ekanligini his qilganmisiz? Qiziq, ba'zan noyob dori-darmonlar-u zamонавиъ тиббиёт асбоб-ускунлари ham ojizlik qilib qolganda ana shu bir og'iz so'z bemorga ruhiy dalda, jismoniy quvvat bag'ishlaydi! Chunki so'z xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, avvalo, bosh miyaga ta'sir qiladi. Bosh miya esa organizmdagi butun jarayonlarni boshqaradi va nazorat qilib turadi. Yomon so'z orqali asabiylashganda, odamning aft-angori o'zgaradi, rangi o'chadi, qo'l va oyoqlari titraydi, quloqqa so'z kirmaydi, nafas olishi va yurak urishi tezlashadi. Shu payt kishi o'zini bosib ololmasa, yomon kasallikka chalinishi mumkin.

Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Luqmoni Hakim ko‘chada ketayotgan ekan. Qarasa, sal oldinda borayotgan bir qiz dam-badam qon tuplarmish. Hakim qiz uyiga kirib ketgach, uning orqasidan kirdi. Luqmoni Hakim qizning otasiga: «Qizingiz bedavo dardga uchrabdi, afsuski, muolajaning iloji yo‘q», debdi. Uning bu so‘zlarini haligi qiz eshik orqasida eshitib turgan ekan. Birdan yuragi duk-duk urib, qaltirab yiqilibdi va hushidan ketibdi. Xullas, shu bir og‘iz so‘z oqibatida qiz ruhiy dardga giriftor bo‘lib, olamdan o‘tibdi.

...Kunlarning birida qizning otasi Luqmoni Hakimni uchratib qolibdi. Shunda ota:

— Taqsir, qizim bedavo dardga chalinganini qanday bilib edingiz? — deb so‘rabdi. Luqmoni Hakim debdi:

— Qizingiz ko‘chada kela turib, bot-bot qon tuplaganini ko‘rgan edim.

Bu javobni eshitgan chol shart etib, o‘z peshanasiga uribdi. Keyin sal o‘ziga kelgach:

— E, attang, qizim o‘sha kuni shotut yeb edi, siz ko‘rgan tupik shotut sharbatli edi-ku! E, attang! — debdi.

Hakim chol oldida tiz cho‘kib, uzr so‘rabdi:

— Siz menga va bizdan so‘nggi avlodlarga unutilmas saboq berdingiz. Bir so‘z bilan soppa-sog‘ odamni o‘ldirish yoki bemorni oyoqqa turg‘izib yuborish mumkin ekan! Yunonlar: «Dardni bilmasang, yaxshisi sen bemorni tinch qo‘y», deb bejiz aytmagan ekanlar.

**305-mashq.** Ko‘chiring. Fe’llarni ajratib, maylini hamda zamonini aniqlang.

— Saroy ahli uch toifaga bo‘linadi, — dedi O‘gdilmish. — Birinchisi — sendan ulug‘lar, ularni ulug‘lab, so‘zlarini qadrла.

— Donolar bek haqida juda yaxshi deyishgan:

Kichikka ulug‘lik ulug‘dan bo‘lar,  
Ulug‘ga egilsa, kichik qut olar.

Ulug‘lar so‘zin tut, yumush qil, yugur,  
Ulug‘ so‘zin tut sang, tilak tez kelur.

Bulardan bo‘lagi sening tengdoshlar. Ularni o‘zingdan uzoqlash-tirsang yov, yaqinlashtirsang qadrdon do‘sit bo‘lishadi. Oxirgisi — sendan kichiklar. Barcha achchiq-chuchuk ular bilan bo‘ladi. Ular ishini o‘rinlatса, taqdirlash, gunoh qilsa, tartibga chaqirish lozim. Yoshlarni bekor, behuda qo‘ymaslik, ishlarini so‘rab-surishtirib turish shart. Ularni mensimay qo‘yish xayolingga kelmasin. Ularga aytildigan so‘zlarining tiyib tur. Qo‘ldoshlar qaysi yo‘lni tutsa, sen ham o‘shanday qilgan, toki ular

bundan sevinch topishsin. O'zingga tenglarni yaqin tut. Tengdosh tengdosh uchun — ko'rk. Yomon fe'l-atvor egalarini zinhor yaqin tutmagin.

Do'stlik, yaqinlik 2 xil bo'ladi: biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kelsa, boshqa bir do'stlik shaxsiy manfaatlarni deb bo'ladi. O'z nafini o'ylab qilingan do'stlikka juda tez soya tushadi. Do'st kishining shunday hikmatli gapi mavjud:

— Do'stni foyda-zarar ichida sinash kerak. Sen do'st bo'lish uchun oyoq qo'ysang, o'zingni mahkam tut. Do'stning haqiqiy dilini bilmoqchi bo'lsang, sinash uchun unga tilingda g'azab qilib yoki yuzingni tund, ya'ni qovog'ingni solib ko'r.

Do'stning senga qanchalik muhabbatি borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak.

(*Yusuf Xos Hojib*)

**306-mashq.** Ikki guruhga bo'lining. Berilgan fe'llarga qaysi guruh ko'p sinonimlar topa oladi.

Topshiriq: keldi... va tura... fe'llari oxiridagi nuqtalar o'rniga uchta shaxs va birlik-ko'plikka mansub qo'shimchalarni qo'ying. Ularning ma'nolarini aytинг.

Ichmoq, otmoq, so'zlamoq, chopmoq, eshitmoq, qaramoq.

### Tayanch tushunchalar

fe'l mayllari, ijro mayli, buyruq-istik mayli, shart mayli, maqsad mayli.

---

## **31-DARS. SHAXS-SON VA ZAMON QO'SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **31.1. SHAXS-SON QO'SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** talabalarning shaxs-son qo'shimchalari yuzasidan o'rta umumiy ta'limda olgan bilimlarini mustahkamlash. Shaxs-son qo'shimchalaridan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Shaxs-son qo'shimchalari haqida ma'lumot.
  - \* Shaxs-son qo'shimchalarining o'zaro vazifa jihatidan almashinuvni va uning uslubiy xususiyatlari.

✓ *Topshiriq. O'qidi... va bora... fe'llari oxiridagi nuqtalar o'rniga uchta shaxs va birlikning ko'plikka mansub qo'shimchalarini qo'ying. Ularning ma'nolarini ayting.*

! **Fe'lidan ifodalangan harakatning shaxslarga munosabatini bildirgan qo'shimchalarga shaxs-son qo'shimchalari deyiladi. Masalan, keldim, yozding, boraman so'zlaridagi -m, -ng, -man qo'shimchalari.**

Bunday qo'shimchalarning shaxs-son qo'shimchalari deb yuritilishiga sabab shuki, shaxs qo'shimchalari ayni paytda sonni ham bildirib turadi: yo birlik, yo ko'plik shaklida bo'ladi. Masalan,

#### **Birlik**

yozdi-m  
yozdi-ng  
yozdi-

#### **Ko'plik**

yozdi-k  
yozdi-ngiz (laring)  
yozdi-lar (yozishdi)

Ba'zi holatlarda birinchi shaxsni ifodalash uchun ikkinchi shaxs qo'shimchasi, shuningdek, birlik ma'nosini ifodalash uchun ko'plik qo'shimchalari qo'llanishi mumkin. Bunday holatlar ma'lum uslubiy maqsadda ro'y beradi. Masalan, *Yurasan, yurasan, hech masofa kamaymaydi — yuraman, yuraman, hech masofa kamaymaydi*.

Ikkinchı va uchinchi shaxs birlik shakllari o‘rnida ko‘plik shakli qo‘llanilsa, shaxs ko‘pligi emas, balki shaxsga hurmat ma’nosи ifodalanadi. Masalan, *Dadam keldilar. Siz juda yoqimli kuyladingiz. So‘zlang.* (A. Qodiriy)

Ayrim o‘zbek shevalarida shart maylidan keyin qo‘shiladigan shaxs-son shakllari o‘rniga o‘tgan zamonning -gan shakli, hozirgi va kelasi zamon shakllaridan keyin ishlataladigan shakl qo‘llaniladi. Masalan, *borsa o‘rniga borsamiz, borsavuz.*

Shaxs-son qo‘shimchalarini quyidagi jadvalda ko‘ring:

T/r	Shaxs-son asosi	Saxs	Shaxs-son shakllari		Misollar	
			birlik	ko‘plik	birlik	ko‘plik
1.	a) o‘tgan zamon aniq maylining -di shakli b) kelasi zamon shart mayli	I II III	-m -ng -o	-k -ngiz -lar	keldim kelsam kelding kelsang keldi kelsa	keldik kelsak keldingiz kelsangiz keldilar kelsalar
2.	a) o‘tgan zamon aniq maylining -gan shakli b) hozirgi zamon aniq maylining shakllari d) kelasi zamon aniq mayli	I II III	-man -san -adi	-miz -siz -adilar	kelganman kelaman kelgansan kelyapsan kelyapti kelaman kelasan keladi	kelganmiz kelyapmiz kelamiz kelgansiz kelyapsiz kelyaptilar  kelamiz kelasiz keladilar
3.	kelasi zamon buyruq-istik mayli	I	-ay, -y -gin, -sin	-aylik, -ylik, -hgiz (lar), — sinlar	kelay kelgin kelsin	kelaylik keling (iz) kelsinlar

II shaxs buyruq mayli qo‘shimchalar o‘rniga III shaxs buyruq mayli qo‘shimchasi ishlataladi. Masalan, *kiring o‘rniga kirsinlar, o‘tiring o‘rniga o‘tirsinlar.* Bunday holat o‘zidan katta yoki obro‘li kishilarga nisbatan qo‘llanilib, hurmat ma’nosи ifodalanadi.

**307-mashq.** O'qing. Fe'llarni ko'chirib, ularning har biriga to'la ta'nif bering, qaysi maylda kelayotganiga diqqat qiling.

N a m u n a: Yugurdi — harakatni bildiradi: bo'lishli, o'tgan zamonda, aniq nisbatda, xabar maylida, sodda fe'l, kesim vazifasida

1. Odam odamdan qutular, o'z fe'lidan qutulmas. 2. Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi. 3. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. (*Magollar*) 4. Hech bir kishilik madaniyati she'rsiz mayjud bo'la olmaydi. (*E. Talabov*) 5. Haqiqatan ham sho'rolar davri mafkurasi kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, boshqacha qilib aytganda, boqimandalik tushunchasini singdirib kelgan edi. Bunday yondashish kishilarda tashabbusni bo'g'ib qo'yardi, chunki kishi o'zining samarali mehnatidan manfaatdor bo'lmasa, unda halol mehnatga intilish, ish natijasi uchun mas'uliyatni oshirish tuyg'usi yo'qoladi. (*N. Jo'rayev*)

**308-mashq.** Uyga topshiriq. Shoir Muhammad Yusufning she'rini badiiy o'qish san'atiga rioya qilib o'qing, yod oling. Uni nasriy yo'l bilan bayon qiling. Fe'l va fe'l shakllarini topib, ostiga chizing.

## YURTIM, ADO BO'LMAS ARMONLARING BOR

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,  
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.  
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,  
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar  
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.  
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,  
Fayzullodek mardi maydonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,  
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.  
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,  
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,  
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni,  
Qayin barglar yopib qaro ko'zini,  
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,  
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,  
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar —  
Mehrobdan chiqqan chayonlaring bor...

Qurboning bo'layin, ey onajonim,  
Sening faryodlaring, mening fig'onim,  
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,  
Aystsang ado bo'lmas dostonlaring bor.

(M. Yusuf)

**309-mashq.** Ko'chiring. Fe'l mayllarini aniqlang.

1. Rasululloh aytmishlar: «Alloh taolo: «Men dunyodagi hamma borliqqa rahm qiluvchi Rahmonman va rahmnini yaratdim», demish».
2. Abu Hurayra aytdilar: «Rasululloh: «Agar mamluk (qul) o'g'rilik qilsa, uni yigirma tangaga bo'lsa ham sotib yubor», dedilar». (*Imom al-Buxoriy*)
3. «Bir balandga chiqib, urduni mulohaza qilib, buyurdukkim, urdu tevasini sanagaylar». (*Boburnoma dan*) 4. Zaynab bir turluq holga tushdi, kuchlangandek qilib: «Ular nega ketsinlar!» dedi. 5. Otabek keyin onasining fikriga qisman qo'shilib: «Agar men sizning talabingizni ma'qul qiladirg'on bo'lsam, ayniqsa, qizingizning ko'ngliga shubha keladir... Sizga aytkuligi yo'q, bu to'g'riga manim aralashmog'im...» (*A. Qodiriy*)

**310-mashq.** «Yuvosh yigit sizga yoqadimi?» mavzusini munozaraga epigraf qilib oling.

Juda yuvoshsan deb aytaverib biz  
Qo'yga aylantirdik hurkak olqorni,  
Juda ishlaydi deb maqtayverib biz  
Eshak qilib oldik uchqur tulporni.  
Endi aytishim shart shundayin so'zlar:  
Qo'ylar o'xshasinlar hurkak olqorga.  
Toki bu so'zimni tinglagan kezlar  
Eshaklar aylansin tag'in tulporga.

(A. Mo'minov)

Yuqorida ishlatilgan fe'llarga tavsif bering.

### Tayanch tushunchalar

shaxs-son qo'shimchalari, tuslovchi qo'shimchalar, birlik son, ko'plik son, shaxs-son asosi.

## 31.2. ZAMON QO'SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** zamon qo'shimchalari yuzasidan o'rta umumiy ta'limda olgan bilimlarni mustahkamlash. Zamon qo'shimchalaridan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Zamon qo'shimchalari haqida ma'lumot.
  - \* Zamon qo'shimchalarining tasnifi.
  - \* Zamon qo'shimchalarining o'zaro vazifaviy almashtiruviga va uning uslubiy xususiyatlari.

*Keldim, kelyapman, kelaman fe'lllarining uchalasi ham I shaxsni bildiradi, lekin ular harakatning nutq momentiga nisbatan qachon bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan farq qiladi.*

- Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga zamon shakllari, ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriysi deyiladi.**

Zamon turini belgilashda so'zlanayotgan nutq vaqtin asosiy tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi. Ana shunga ko'ra uch zamonga bo'linadi: 1) o'tgan zamon, 2) hozirgi zamon, 3) kelasi zamon.

- Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq so'zlanayotgan vaqtidan oldin bo'lib o'tganligini bildirgan shakllar o'tgan zamon shakllari sanaladi.** O'tgan zamon shakllariga quyidagi shakllar kiradi: *-di, -gan, -ib (-man, -san, -di) kabi.* Masalan, *keldi, kelgan, kelibman, kelibsan* va boshqalar.

Bu shakllar garchi «o'tgan zamona» umumiyligi ma'nosi asosida birlashsa ham, lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan ma'lum ma'nosiga ko'ra farq qiladi: *-gan* shakli *-di* ga nisbatan harakatning nutq so'zlangan vaqtidan ancha oldin ro'y bergenini bildiradi.

*-ibdi, -ibman, -ibsan* shakllari esa so'zlovchi nutq momentidan oldin ro'y bergen harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. Masalan, *O'g'rini eshakka teskari mindiribdi. (Ertakdan)*

*-di* shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi.

Solishtiring:

*Keldi  
Kelgan  
Kelgan edi  
Kelibdi*

- Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqtida ro'y berishi yoki bermasligini bildirgan shakllarga hozirgi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa hozirgi zamon kategoriysi deyiladi.** Hozirgi zamon ma'nosi *-yapti, -yotir, -moqda* singari qo'shimchalar qo'shish orqali ifodalanadi. Masalan, *yozyapti, yozmoqda, yozayotir.* Bulardan *-yapti, -moqda* fe'l asoslariga, *-yotir* esa fe'lning ravishdosh shakliga qo'shiladi.

Hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanadi, -*yapti* uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, -*moqda*, -*yotir yozma* nutq uslubiga xosdir.

! Fe'lidan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqt dan so'ng ro'y berish-bermasligini bildirgan zamon shakllariga kelasi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa kelasi zamon kategoriyasi deyiladi.

Kelasi zamon ma'nosi fe'lning -a ravishdosh shakliga -*di*, -*jak*; fe'l asoslariga -*ar*, -*ur*, -*gusi* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan, *keladi*, *kelajak*, *kelar* (*ur*), *kelgusi* kabi.

Bulardan -*adi*, -*ar* uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, -*jak*, -*gay*, -*ur*, -*gusi* shakllari badiiy va publisistik uslubga xosdir.

Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra -*adi* va -*ar* shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday ma'noga betaraf bo'lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma'nosiga ega.

Solishtiring: *keladi* — *kelar*.

Ba'zan turli zamonga mansub bo'lgan shakllar o'zaro almashinishi mumkin. Masalan, *Tanklar*, *zambaraklar* ag'anab yotibdi. Bir jangchining peshanasi bog'langan, bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda. (Shuhrat)

O'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning ko'z oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlataligan.

## ? Savol va topshiriqlar

1. Zamon shakllari deb qanday shakllarga aytildi?
2. Zamon shakllari necha turli bo'ladi? Ularning bir-biridan farqini aytинг.
3. Zamon qo'shimchalarining o'zaro almashinuvi va buning o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.

**311-mashq.** Berilgan gaplarning xatosini toping.

1. 1227-yili Botuxonning ukasi Berkaxon Oltin O'rda taxtiga chiqayapti.
2. 1996-yil Prezident Islom Karimovning Farmoni bilan «Amir Temur yili» deb e'lon qilinmoqchi edi.
3. Tarixiy Vatanini yodididan chiqargan odam yashab turgan joyining ham qadriga yetmoqchi.
4. Poydevorsiz imorat bo'Imaganidek, o'qildizsiz daraxt yuksaklikka bo'y cho'zadi, bo'ronlarga dosh beryapti.
5. Oiladaga mehnat tarbiyasi bolalarni uy yumushiga jalb etishdan boshlaymiz.
6. Ko'zimiz yorug' jahonni ko'rgan edi. Kamalakning tovlanishi — yetti tusni bir-biridan ajrata olmoqchi edik.

**312-mashq.** Keltirilgan fe'lllar qanday (rasmiy, so'zlashuv, badiiy) uslubga xosligini yozing.

Ming'irlamoq, ozod etilmoq, qaror qabul qilmoq, g'azablanmoq, xushnud bo'lmoq, valdiramoq, sayr ayladi, izhor qildi, g'imirlamoq, nishonladi, e'tiroz bildirmoq, gap otmoq, nutq so'zlamoq, tashrif buyurmoq, xitlamoq, so'ppaymoq, ovoz bermoq, tasdiqladi, dardiga darmon bo'ldi, so'zga chiqmoq, maza qilmoq, masxaralamoq, kuyunmoq, vujudga kelmoq, inkor qilmoq, jilvalanmoq, mahliyo etmoq.

**313-mashq.** Matnni ko'chiring. Fe'lllarning o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarini aniqlab, ustiga yozib ko'rsating, ma'no ottenkasini izohlang.

## HADISI SHARIF

Islom shariatining asosiy manbalaridan ikkinchisi sunnatdir. Sunnat Rasulullohdan naql qilingan Hadisi shariflar orqali shakllanadi. Hadisi shariflarda Rasululloh alayhissalomning so'zlari, qilgan ish faoliyatları va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari to'g'risida hikoya qilinadi. Shu uch xil uslubning har biri sunnat deyiladi.

Hadisi shariflarni yig'ib kitob shakliga keltirish, asosan, Payg'ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan. Bu sharafli ish hijratning uchinchi asriga kelib keng quloch yoygan. Islom olamining o'sha paytdagi madaniy markazlardan sanalgan shaharlarda Hadis fani bilan shug'ullanuvchi muhaddislar ko'p bo'lgan. Ular Hadis to'plamlarini tuzishgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo'lib, bularni Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom at-Termizi, Imom an-Nasoiy va Imom ibn Mojalor tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarning to'rt nafari turonzaminlik bo'lgani bilan butun Islom dunyosi miqyosida faxrlansak arziyi.

Muhaddislik shu qadar sharafli va sermashaqqat ishki, u kishidan zakovat, kuch-quvvat, fidoyilik, yuksak iqtidor va kuchli quvvayi hofizani talab qiladi.

(«Vatan tuyg'usi»)

**314-mashq.** Gaplarni o'qing. Fe'llarni ko'chirib, nisbat, mayl, zamon, shaxs va sonini izohlang.

1. Tomirida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur qoni jo'sh urgan pahlavon o'g'lonlarimiz omon bo'lishsin. 2. Bizning xodimlarimiz bankdagi har bir murakkab jarayonlarni ham bemalol uddalashdi. 3. Avvallari

bitta-yarimta yosh-yalanglarning chekishi ham bizga g‘ayrioddiy hol tuyulardi. 4. Anjuman yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqilib, ishtirokchilarga tarqatildi. 5. Vohada islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotini mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadbirlar o‘z samarasini bermoqda. 6. Bir narsa kishida umid uyg‘otadi: farg‘onaliklar nafaqat asrimizning so‘nggi yilini, balki yangi mingyillikni munosib ko‘rsatkichlar bilan kutib olishga harakat qilmoqdalar. 7. Istiqlol tufayli chekka qishloqlarda ham havaslansa arzigulik korxonalar yaratildi. 8. Korxonamiz ishga tushgach, O‘zbekiston tamg‘asi bitilgan mahsulotlar ichki bozorga dadil kirib boradi. 9. Mustaqillikning zafarli qadami, huzurbaxsh nasimi butun mamlakatda bo‘lgani kabi Andijonning Ko‘makay qishlog‘ini ham o‘zgartirib yubordi.

**315-mashq.** Matnni o‘qing, fe’llarni topib izohlang. O‘zbek tilining rivojlanishiga munosib hissa qo‘sghan yana qanday tilshunos olimlarni bilasiz, ular haqida so‘zlab bering.

### SHONAZAR SHOABDURAHMONOV (1923—2011)

Filologiya fanlari doktori (1964), professor (1967), O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1974) Shonazar Shoabdurahmonov o‘zbek tili fonetikasi, o‘zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksiko-grafiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratdi. Jumladan, «O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar» (1953), «Fonetika. O‘zbek tili fonetikasiga doir ba’zi masalalar» (1953), «O‘zbek tilida punktuatsiya» (1955), «O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari» (1962) kabi asarları o‘zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo‘lib qo’shildi.

Akademik Sh. Shoabdurahmonov o‘rtá va oliy ta’limda o‘zbek tili va tilshunosligini o‘qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning V. Reshetov bilan hamkorlikda oliy maktablarning o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun chiqarilgan «O‘zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978) darsligi, shuningdek, o‘rtá maktablarning IX sinfi uchun hammualliflikda yozilgan «O‘zbek tili» (1977, 1978, 1980, 1982) hamda oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (1980) darsliklari alohida ahamiyatga ega.

**316-mashq.** «Fe’l» so‘z turkumi yuzasidan olgan bilimlaringizni sinash maqsadida grammatik topishmoqlarning javobini toping va yozing.

1. Barmoqda, qaramoqda,  
Qaytmoqda ham aytmoqda.  
Qaysi so'z ot, qaysi fe'l,  
Ham bo'lishli qaysi fe'l?
2. O'qish, olqish, qurilish,  
Chiqish, qamish, muyulish,  
So'zida bor -sh, -ish lar,  
Ularni kim izohlar.
3. O'yin, qiyin so'ziga  
Fe'l yasovchi -a qo'shsak,  
Nimadir tushib qolar,  
O'yin, qiyin so'zidan?
4. Tiriklikning sharti bor,  
U ham bo'lsa harakat.  
Shun-chun deydi donolar,  
Harakatda barakat,  
Harakatning nomi bor,  
Yalovchilar ham bor,  
Topib bering, E'tibor.
5. O'yin, qiyin, past, son, ot  
So'zлari o'zgaribdi.  
O'yna, qiyna ham ata,  
Pasay, sana bo'libdi.  
O'ylab toping, bolalar,  
Nega shunday bo'libdi?
6. Yoshlikda nihol o'tkaz,  
Asra, voyaga yetkaz,  
Daraxting kuchga to'lsin,  
G'uj-g'uj mevasi bo'lsin,  
Oftob hil-hil pishirsin,  
Do'stlaring to'yib yesin.  
  
Senga rahmatlar aysin.  
Bunda bor qanday fe'llar,  
Qanday ma'no bildirar?
7. Ishla, o'yla ham yalla,  
Sayla, bola ham alla.  
Olti so'zda olti -la,  
Fe'l yasovchi qaysi-la?

8. Son-sanog‘in bo‘libdi,  
Ong-anglagin bo‘libdi.  
«Son», «ong» so‘zlarida «o»  
Yumalab «a» bo‘libdi.  
Kim dono bo‘lsa topsin,  
Nega shunday bo‘libdi?

9. O‘zak — negizida -ib  
Gohida bo‘ladi -b  
So‘ng qo‘silar shaxs-son,  
Qanday fe'l, qaysi zamon?

10. Terdi ham terdirishdi.  
Terdirildi, terdirdi  
Fe'llar qaysi nisbatda  
Kim topadi birpasda?

### Topishmoqlarning javoblari

1. Qaramoqda, qaytmoqda, aytmoqda — fe'llar, barmoqda — ot.
2. O‘qish, qurilish, chiqish so‘zлari — harakat nomlari, olqish, qamish, muyulish so‘zлari — ot.
3. O‘yin, qiyin so‘zlaridagi «i» tushiriladi.
4. -moq, -sh, -ish, -v, -uv.
5. O‘yin, qiyin, past, son, ot so‘zлardan fe'l hosil qilinganda o‘yin, qiyin so‘zлardagi i unlisi tushiriladi, past so‘zidagi t tushiriladi, son, ot so‘zlaridagi o tovushi a bilan almashadi.
6. Buyruq maylidagi fe'llar.
7. Ishla, o‘yla, sayla so‘zlaridagi -la.
8. Son, ong so‘zlariga -a qo‘srimchasi qo‘silsa, o unlisi a bilan almashadi.
9. O‘tgan zamon hikoya fe'li -b qo‘srimchasi undosh bilan tugagan fe'l o‘zak-negiziga -ib tarzida qo‘siladi.
10. Aniq, birgalik va orttirma nisbatdagи fe'llar.

**317-mashq.** Hikmatlardagi fe'llarni aniqlang. Ularning vazifasini uslubiy jihatdan iboralar ham bajara oladimi? O‘rnini almashtirib yozing.

### HIKMATLAR GULDASTASI

Bir donishmand aytgan ekan: «Imonsiz odam o‘zining yomonligini bilmaydi, agar bilsa, u yaxshi odam bo‘lishga harakat qilardi».

Bir oqil va hazilkash odam sayohat vaqtida olis shahardagi do‘stiga ko‘nglidagi nozik fikrlarini aytib, maktub yozayotgan edi. Bir befarosat hamrohidan beruxsat hadeb maktubda nimalar yozilganiga qarayveribdi. Oqil odam maktubiga mana bu so‘zлarni qo‘sib qo‘yibdi:

«Agar yonimda bir befarosat, birovlarning xatiga qiziquvchi tentak bo‘lma ganda edi, yana boshqa gaplarni ham yozar edim».

Haligi befarosat bu so‘zlarni o‘qib, jahli chiqdi va e’tiroz bildirdi:

— Qachon xatingga qarabman?

Unisi esa javob beribdi: «Sening haqingda yozganimni qayoqdan biling?»

Bir hurmatli odam kasal bo‘lib, uyida yotgan edi. Besh-oltita xira, g‘ashga teguvchi odamlar bemorni ko‘rishga bordilar. Ular bemor yonida uzoq o‘tirib, har xil maza-bemaza gaplari bilan uni toliqtirib qo‘ydlilar. Oxiri, ketayotganlarida bir befarosat odam bemordan:

— Bizga vasiyat tariqasida nasihatlariningizni aytsangiz, — deb so‘radi.

Hurmatli odam haligi befarosat ziyoratchilarga qarab bunday dedi:

— Sizlarga vasiyatim shuki, biror do‘stingiz yoki ustozingiz kasal bo‘lib qolganida, uni maza-bemaza gaplar bilan toliqtirib qo‘ymanglar.

Bir necha hazilkash odamlar bir qizg‘anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo‘lishibdi, ammo darvoza taqillatganlarida xasis odamning xizmatkori chiqdi. Mehmonlarni ko‘rib, ichkariga kirib ketdi. So‘ng qaytib chiqib aytdi:

— Kechirasizlar, xojamiz kecha kechqurun o‘lgan edilar. Erta tongda dafn etib kelgan edik.

Hazilkash mehmonlar bunga ishonmadilar va aytdilar:

— Xojangiz rahmatli, biz uchun juda aziz, qadrli odam edilar. Ularning janozasida bo‘lish bizga nasib etmadni, endi uylariga kirib, fotiha o‘qib ketmasak bo‘limas.

Boyagi xasis xoja mehmonlarni qabul qilishdan boshqa iloji qolmabdi.  
*(Faxriddin Ali Safiy)*

**318-mashq.** Berilgan fe’llarni boshqa nisbatga aylantiring, gapda qanday o‘zgarish bo‘lganini tushuntiring.

1. «Dunyo» qo‘srig‘ining so‘zlarini farg‘onalik shoir Oxunjon Hakimov ipga terilgan dur misol qog‘ozga tushirgan. «Bir kam dunyo, kimni sevib, kimni xor qilasan?» Darhaqiqat, insoniyat yaratilibdiki, oddiygina, jo‘ngina, soddagina tuyulgan shu jumboq yechimini topolmay ovora. (*Gazetadan*)

2. Oyqiz keksa bog‘bonni yelkasidan ushlab, mehribonlik bilan joyiga o‘tkazdi. (*Sh. Rashidov*) 3. O‘rik daraxti ostidagi supada yotgan Murotali, odatdagidek, tong saharda uyg‘ondi. (*Sh. Rashidov*) 4. Til — millatning eng muhim belgisidir. (*A. Fitrat*) 5. Ravshanlik tilning asosiy fazilati hisoblanadi. (*Arastu*) 6. Yomg‘ir, suv to‘lqini ham, suv ko‘pigi ham asosan suv bo‘lganligi uchun yana suvgaga qaytadilar. (*Sh. Zunnun*) 7. Sabr qiling, hurmatli kitobxon, oldin qishloq bilan tanishaylik. (*I. Rahim*) 8. Yigit o‘zini chetga olishga tirishdi, xalq to‘lqini uni surib ketdi. (*Oybek*) 9. Men o‘ylaymanki, bugungi kun sizning hayotingizda o‘chmas iz qoldiradi. Vatan oldidagi, o‘tganlar ruhi oldidagi, el-yurt oldidagi burchingizni yana bir bor eslatib o‘tdi. (*Gazetadan*)

**319-mashq.** Fe'l nisbati yasovchi qo'shimchalar o'zaro sinonimik qator hosil qiladiganlarini yozing. Ularga misollar keltiring.

**320-mashq.** Buyruq va shart mayllarining qo'shimchalari ayrim nutq uslublarini har xil ifodalashda ahamiyatlidir. Shuning uchun ham quyidagi matnni o'qib, yuqoridagi qo'shimchalar gapga qanday uslubiy bo'yoq berayotganligini tushuntiring.

## OFTOB OYIM (*Onam haqida*)

Ismingizni kim qo'yibdi, Oftob oyim?! Ismingizday yuzingiz, ko'zin-giz, so'zingiz issiq, nurli, haroratlri.

Oftob oyim, Siz bugun momosiz. Oppoq sochlaringiz oq ipakdir, ko'zlardagi mehr, mehnatkash qo'llardagi saxovat, bekalikdagi mahoratga ta'rif yo'q. Siz bir paytlar kelin bo'lgansiz. Sumbul sochlaringiz taqimini o'pib yelkalaringga sig'magan, o'smadan payvasta qoshlar parvozi, istarasi issiq bug'doyrang yuzlar, kulib turuvchi ko'zlar, ma'no mag'izli so'zlar Sizni bo'lgan.

Bolalar, gul-u lolalar, ortingizdan suq bilan qarayotgan oq gul, qizil gullarni ko'rib suyungansiz. Bag'ringiz to'lib, yolg'izligingiz ham bilinmagan-da, fahm-farosat sizda naqd edi. Andishani toj deb bilgansiz. Turmushda tog' bo'ldingiz, bor-u yo'qqa ko'ndingiz. Dilbandlarni oq yuvdingiz, halol pand-u qand berdingiz.

Oftob oyim, Siz muloyim, begoyimsiz. Hamon farishtalisiz, kulsangiz dil yorishadi, yursangiz gul ochiladi. Gullaringiz g'unchaladi, chiroy ochdi. Gulga oshnosiz, do'stga tashnasiz. Mehr izlaysiz, asta so'zlaysiz. Jonga jonsiz, butun imkonsiz.

Oftob oyim, Siz davlatim, shifo savlatim, she'rim, nafosatimsiz. Keling, issiq yuzingizga yuzim bosay, hayot, taft olay, mehnatkash qo'lingiz o'pay, silab bir suyay, poyingizga sajdalar qilay, umrlar tilay. Bizni kutasiz, ilinasiz, sog'inasiz — yurak bisotingiz, boyligingizni. Mehrlisiz, mehr berasiz, mehrga talpinasiz. Uyg'oq yashaysiz, g'amlar kelsa ham, ularga qilich solasiz, haromga yo'liqsangiz hazar qilasiz. Siz borki, darvozalar ochiq, gul-u rayhonlar xandon, quyosh ham kular, uylar ham to'lar.

Oftob oyim, Siz kechirimli, bardoshli, jonsarak ona. Besh qiz, o'g'ilni yaratgan ona, ertaklar-u rivoyatlar yaratgan ona. Tong saharlab uyqudan turib, oydin baxt-u rizq-ro'zlar so'ragan ona. Ismingizni so'rasalar, xosiyatli, insof-diyonatli, qalbingiz go'zal. Siz muhtaram, chin validam, Makkatilloyimsiz, mening onam — Oftob oyimsiz.

(M. G'anijon qizi)

### Tayanch tushunchalar

fe'l zamonlari, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

---

## 32-DARS. FE'LLARNING YASALISHI

### 32.1. QO'SHIMCHALAR YORDAMIDA FE'L YASASH

**Darsning maqsadi:** fe'llarning yasalishi bo'yicha o'rta umumiy ta'limda oлган bilimlarini mustahkamlash va chiqurlashtirish.

- R e j a:**
- \* Fe'llarning yasalishi haqida.
  - \* Fe'l yasashning yo'llari.

Fe'llar ham boshqa mustaqil so'z turkumlari kabi tub va yasama bo'ladi. Masalan, *kel*, *ket*, *yur*, *o'qi* singari fe'llar tub fe'llar: *ishla*, *o'yna*, *jonlan*, *tasdiq qildi*, *kasal bo'ldi* kabi fe'llar yasama sanaladi.

**Yasama fe'llar yasashga asos qismiga ma'lum yasovchi vosita qo'shish yordami bilan hosil qilinadi.** Yasovchi vosita qo'shimcha yoki so'z bo'lishi mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan misollardan oxirgi ikkitasi yasashga asos qismiga (*tasdiq*, *kasal*) so'z holida yasovchi vosita (*qildi*, *bo'ldi*) qo'shish yordamida hosil qilingan. Boshqalari esa qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yasalgan. Shunga ko'ra, fe'l yasalishi ikki guruhga bo'linadi:

- a) qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan (affiksatsiya);
- b) so'z qo'shish yo'li bilan (kompozitsiya).

Birinchi yo'l bilan yasalgan fe'llar sodda fe'llar, ikkinchi yo'l bilan yasalgan fe'llar qo'shma fe'llar hisoblanadi.

#### ?

#### Savol va topshiriqlar

1. Yasama fe'l deganda qanday fe'llarni tushunasiz?
2. Yasama fe'llar qanday usullar bilan hosil qilinadi?
3. Sodda va qo'shma fe'llarga misollar keltiriring va qo'shma fe'llarning qanday yo'l bilan hosil bo'lganini tushuntiring.

Fe'l yasashning eng keng tarqalgan turi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan fe'l yasash sanaladi. Bunday usul bilan fe'l bo'Imagan so'zlardan fe'l yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida eng faol fe'l yasovchi qo'shimcha -la qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha sondan boshqa barcha so'z turkumlariga qo'shilib fe'l yasay oladi. Masalan, *oqla*, *ishla*, *tekisla*, *tezla*, *dodla*, *voyvoyla* kabi.

1. *-la* qo'shimchasi otlarga qo'shilib fe'l yasaganda, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) yasashga asos qismdan anglashilgan narsa — predmet bilan ta'minlash: *o'g'itla, moyla*;

b) narsa — qurol bildiruvchi otlarga qo'shilib, shu asbob bilan bajariladigan harakatni bildiradi: *qaychila, arrala, egovla, ketmonla*;

d) yasashga asos qismdan anglashilgan narsani yuzaga keltirish ma'nosini bildiradi: *urug 'la, bolala* kabi.

2. Sifat va ravishlarga *-la* yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi. Masalan, *tekisla, silliqla, to'g'rila, tezla, tozala* kabi.

3. *-la* qo'shimchasi undov so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qismdan ifodalangan his-hayajon, buyruq — xitoblarining bajarish harakatini bildiradi: *hihila, ufla, dodla* kabi.

4. *-la* qo'shimchasi taqlid so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qism ifodalagan tovushning yuz berishini ifodalaydi: *gumburla, taraqla* kabi.

Sifat, ravish, undov va taqlid so'zlarga *-la* yasovchi qo'shimchasi qo'shilib fe'l yasalganda, yasovchi qo'shimcha *qil, et, de* singari ko'makchi fe'llari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi va ularni ko'pincha biri o'mida ikkinchisini qo'llash imkoniyati bo'ladi. Masalan, *tekisla—tekis qil, silliqla—silliq qil, ufla—uf de, dodla—dod de, gumburla—gubur et, taraqladi—taraq etdi* kabi. Lekin doimo emas. Masalan: *tezla ni tez qilga almashtirib bo'lmaydi*.

Eslatma: 1. *-la* fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan *-ta (izla -ista), -ga, -ka (hidla — iska)* holida ham talaffuz qilinadi.

2. *-la* fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan bilan qo'shimchasining qisqargan shakli *-la* (*qo'l-la* bajarib bo'lmaydi) hamda *-la (-oq, -yoq* yuklamasi bilan ma'nodosh) yuklamasi bilan omonimlik munosabatida bo'ladi. Shuning uchun *-la* yasovchisini so'zga kuchaytiruv—ta'kid ma'nosini yuklaydigan *-la* yuklamasidan farq qilish kerak. Masalan, *kelib -la ketdi — kelib ketdi; qo'lla (madad qil) va qo'l-la (qo'l bilan)*.

Hozirgi o'zbek tilida *-la* qo'shimchasidan tashqari yana quyidagi qo'shimchalar yordamida fe'l yasaladi:

— *i: boy—boyi, tinch—tinchi, chang—changi* kabi

— *illa: chirq—chirqilla, qur—qurilla* kabi

— *ira: yarq—yarqira, chirq—chirqira* kabi

— *(a)y: past—pasay, sust—susay, ko'p—ko'pay, oz—ozay*

— *(a)r: ko'k—ko'kar, sariq—sarg'ay, eski—eskir, qisqa—qisqar* kabi

— *sira: suv—suvsira, yot—yotsira, tuz—tuzsira* kabi

— *(i), (i)q: yo'l—yo'liq, kech—kechik, zo'r—zo'riq* va boshqalar.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan fe'l yasalishi haqida gapiring.
2. -la qo'shimchasining sinonimlari va omonimlarini aytинг.
3. Fe'l yasovchi qo'shimchalarni sanang va ularning har qaysisiga misollar keltiring.

**321-mashq.** Quyidagi fel yasovchi qo'shimchalarni yozing: -la, -a, -y, -illa, -r, -ir, -ar, -ay, -sa, -sira, -imsira, -ik.

Yuqoridagi qo'shimchalarni ishtirok ettirib gaplar tuzing. Yozgan gaplaringizda -a, -y, -ir, -ar, -ay, -ik kabi qo'shimchalardan fe'l yasalsasin.

**322-mashq.** Maqollarni o'qing va yod oling. Nuqtalar o'rniغا fe'l yasovchi qo'shimchalarni qo'yib ko'chiring.

1. Vijdonsiz kishidan o'pka...ma.
2. Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang.  
Yomondan burun o'lasan.  
Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang,  
Yaxshilik bilan un...san.
3. Oxir zamon bo'lsa, tog'a jiyan bilan qozi...ar.
4. Yomonga yo'l ...sang, «yov keldi» qilar.
5. Dushman siringni o'g'irlar.  
Do'st xatoingni to'g'ri...r.
6. Chin do'st boringni oshirar,  
Yo'g'ingni yash..ar ?
7. Yo'lda yoursang, tuyu ish...t,  
Elda yoursang — miya.
8. Aqlliga aytdim, ang...di — bildi,  
Aqlsizga aytdim, shaq...b kului.
9. It ir...shni onasidan o'rganar.
10. Katta yesang ham, katta gap...ma.
11. Qarindoshingni yomon ...b,  
Qaydan tug'gan toparsan.

**323-mashq.** Yasama fe'llarni topib, ko'chirib yozing. So'ngra tarkiblarga ajratting.

1. Chin do'st uldirkim, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.
2. Biror mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholaradolat o'rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotishi lozim.
3. Zulmning nom-nishonini yo'qotgin.
4. Qilmoqchi bo'lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinchalar. Agar biror ishni qilmaslikka so'z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo'lamasinchalar.

5. Podshoh har kimning so‘zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin.

6. Shoshmaslik kerak yerda shoshilmadim, shoshilarli ishlarni kechiktirmadim. Qaysi ishni chorayi tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim.

7. Sipohning tarqoqligi sultanatning kuchsizlanishiga olib keladi.

8. Hayotning ko‘p issiqsovug‘ini ko‘rib... saboq olib, tajribamni oshirdim. Do‘sst-u dashman bilan kelishib yashadim.

### Tayanch tushunchalar

fe‘l yasalishi, fe‘l yasovchi qo‘shimchalar, yasovchi vosita, affiksatsiya usuli bilan fe‘l yasash, yasashga asos qism.

## 32.2. SO‘Z QO‘SHISH BILAN FE‘L YASALISHI VA UNING SINONIMIYASI

**Darsning maqsadi:** so‘z qo‘shish yo‘li bilan fe‘l yasalishi bo‘yicha o‘rtta umumiy ta’limda olgan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.

- R e j a:**
- \* So‘z qo‘shish yo‘li bilan fe‘l yasash haqida ma‘lumot.
  - \* Qo‘shma fe’llarning tarkibiga ko‘ra turlari.
  - \* Yetakchi va ko‘makchi fe’llar.

Yasashga asos qismga yasovchi vosita sifatida *aylamoq, qilmoq, etmoq, olmoq, bermoq* singari so‘zlar qo‘shilib yangi fe‘l yasalishi ham mumkin. Masalan, *javob berdi, olib keldi, bayon qildi, kasal bo‘ldi* va hokazo.

Bunday yo‘l bilan, odatda, qo‘shma fe’llar hosil bo‘ladi.

Qo‘shma fe’llar tarkibiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: a) ot+fe‘l tuzilishidagi qo‘shma fe’llar. Masalan, *tasdiq qildi, vayron bo‘ldi* kabi; b) fe‘l+ fe’l tuzilishidagi qo‘shma fe’llar. Masalan, *borib keldi, kirib chiqdi, olib keldi* kabi.

Fe‘ldan boshqa so‘zlarga *qilmoq, aylamoq, etmoq, bo‘lmoq* fe’llarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qo‘shma fe’llar ot+fe‘l tuzilishidagi qo‘shma fe’llarni hosil qiladi. Masalan, *bayon qilmoq (etmoq, aytmoq), turmush qilmoq, o‘sal bo‘lmoq, o‘sal qilmoq, bayram qilmoq (etmoq)*, yangi bo‘lmoq, *shunday bo‘ldi, tarag etdi* kabi.

! **Ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan fe'llar fe'l+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llar sanaladi.** Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning -b (-ib), ba'zan -a ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shim-chalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi. Masalan, *sotib olmoq, olib keldi (ola keldi)*.

Ot+fe'l tuzilishidaga qo'shma fe'llarda ikkinchi qismni tashkil etgan *ayla* uslubiy xoslangan bo'lib, faqat badiiy uslub doirasida qo'llaniladi. *Qilmoq, etmoq, bo'lmoq* fe'llari esa uslubiy betaraf so'zlardir. Masalan, *javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi* kabi qo'shma fe'llar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lib, ular uslubiy jihatdangina farqlanadi. *Javob ayladi* badiiy uslubga xos, qolganlari uslubiy betaraf so'zlar sanaladi.

---

## **33-DARS. KO‘MAKCHI FE’LLAR VA ULARNING VAZIFALARI. BO‘LISHLI VA BO‘LISHSIZLIK SHAKLLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **33.1. KO‘MAKCHI FE’LLAR VA ULARNING VAZIFALARI**

*Ishlab chiqdi, ishlab bo‘ldi, ishlay boshladi, ishlab yuribdi, ishlab go‘ydi, ishlab yubordi, ishlab yozdi, ishlab turibdi, ishlab ko‘rdi singari so‘zlarga e’tibor bersangiz, ularning hammasi bir umumiyligini — «ishlamoq» ma’nosini ifodalaydi. Bu ma’no, asosan, ravishdosh shaklidagi birinchi qismdan anglashiladi. Ikkinci qism esa birinchi qismdan anglashilgan leksik ma’noga turli qo‘srimcha ma’nolarni (harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugallanishi, oson bajarilganligi, tez bajarilganligi, harakatni bajarishga uringanligi kabi) ma’nolarni yuklaydi.*

**Bunday so‘zlar ham tuzilishiga ko‘ra, fe’l+fe’l tarzida bo‘ladi.**  
! **Birinchi fe’l so‘zning asosiy leksik ma’nosini ifodalaydi. Shuning uchun u yetakchi fe’l sanaladi. Ikkinci qismi esa birinchi qismiga (yetakchi fe’lga) qo‘silib, unga turli xil qo‘srimcha ma’nolarni yuklaydi, lekin yetakchi fe’lning leksik ma’nosini o‘zgartirib yubormaydi.**


**Undan yangi fe’l hosil bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday fe’llarga ko‘makchi fe’llar deyiladi.**

Shuni ta’kidlash kerakki, faqat ko‘makchi fe’l vazifasini bajaruvchi alohida fe’llar mavjud emas. Bir qator mustaqil fe’llar yetakchi fe’l qo‘silganda ko‘makchi fe’l vazifasida keladi.

Ularga quyidagilar kiradi: *boshla, yot, tur, bor, o’tir bo‘l, bitir, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, yot, qara, boq* va boshqalar.

Yuqoridagi fe’llar faqat yetakchi fe’lga qo‘silgandagina ko‘makchi fe’l vazifasida keladi. Yetakchi fe’l esa ravishdoshning -(i)b va -a, -y shakllarida bo‘ladi.

Masalan,



Keyingi so'zlar ko'makchi fe'llar bo'lib, ular ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'lga qo'shilib, turli xil qo'shimcha ma'nolarni anglatmoqda.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Yetakchi va ko'makchi fe'llar qanday fe'llar ekanligini tushuntiring.
2. Yuqoridagi misollardan foydalangan holda *uxlamoq*, *o'ynameq*, *qaramoq* fe'llarini yetakchi shaklga kiritib, uni ko'makchi fe'llar bilan biriktiring, ma'nosini tushuntiring.

**324-mashq.** Qo'shma fe'llarni topib, yasalishini tushuntiring. Yasalish holatlariga diqqat qiling.

Podsho xizmatkorini qoshiga chaqirib dedi:

- Ushbu shahardagi barcha tentaklarning nomini qog'ozga bitib kel!
- Bosh ustiga, — dedi xizmatkor, lekin bir shartim bor: ro'yxatni olganingizdan keyin meni jazolamaysiz.

Podsho rozi bo'ldi.

Xizmatkor ertasiga ro'yxatni keltirgach, podsho unga ko'z yugurtirmasdanoq o'shqirdi:

- Nega mening nomimni birinchi qilib yozib qo'yding. Hoziroq dorga osilasan. Uni o'chirib tashla!
- Meni afv eting, — dedi tiz cho'kib xizmatkor, — nomingiz, albatta, o'chiriladi.

## SHIJOATLI CHUMOLI

Chumoli jon-jahdi bilan o'zidan o'n barovar katta chigirtkani sudrab borar edi. Ko'rghanlar taajjublandilar.

— Chumolini qaranglar-a, qiltiriq holida ham shunday og'ir yukni sudrab ketyapti-ya?!

Chumoli bu gapdan kuldji va shunday dedi:

— Mardlar yukni jussasi va qudrati bilan emas, balki g‘ayrat hamda shijoati bilan tortadilar.

**325-mashq.** Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini aniqlang va ularga izoh bering.

1. Tog‘lar loqayd bir ulug‘vorlik bilan sukut saqlashar va bag‘ridagi odamlarning yaxshi-yomon ishlariga tilsiz guvoh bo‘lib turishar edi. (*P. Qodirov*) 2. Yerdan aziz narsa yo‘q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar — hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi? (*Abdulhamid Cho‘pon*) 3. Shundoq bekat ro‘parasida ikki qavatlari univermag oynaband eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g‘imirlashib kirib-chiqib turishardi. (*O’. Hoshimov*) 4. Turg‘unoy yovvoyi quyonday har bir so‘z, har bir harakatdan hurkib o‘tirar va to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsa olmas edi. (*A. Qahhor*) 5. Kishi yaxshi narsaga intiladi, yomon narsadan qochadi. Turg‘unlikka, ayniqsa, uzoq davom etgan turg‘un holatga ko‘nikadi. Illatga ko‘nikish esa qabohatga olib keladi. (*G‘aybulla-as-Salom*)

6. Oqil ma’no guruvida zinhor,  
Hech or aylama gadolig‘din.  
Kim, bularga gadolig‘ ortiqdur,  
Ahli suratqa podsholig‘din. (*A. Navoiy*)

**326-mashq.** Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib oling va ularga tavsif bering.

Eshik ochilganda Sherzod mudrab yotardi. U ildam qaddini rostladiyu, ichkariga kirib kelayotgan bo‘lim mudirini ko‘rdi. Mudir xalatining tugmalarini yechib yuborgan, ingichka bo‘ynidagi guldar galstuguning bog‘ichini bo‘shatib qo‘ygan, tez yurib kelganidan bo‘lsa kerak, yonoqlari turtib chiqqan, yuzi qizarib ketgan edi.

«Joyning egasini olib kelayotgan bo‘lsa kerak», deb o‘yladi Sherzod undan ko‘z uzmay. Bo‘lim mudiri palata o‘rtasida to‘xtadi-da, eshik tomon qarab gapirdi:

— Sayfi Soqihevich! Marhamat, kiravering.

U bu gapni xuddi aziz mehmonni uyiga chorlagan mezbon singari ichki hurmat bilan iymanib aytdi...

(*O’. Hoshimov*)



**Uyga topshiriq.** Quyidagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari ishtirokida gaplar tuzing. Ularni har xil ko'rinishlarda qo'llab ko'ring.

Aytib	turmoq	turib aytmoq
Yugurib	turmoq	turib yugurmoq
Olib	turmoq	turib olmoq
O'ylab	turmoq	turib o'ynamoq
O'ynab	turmoq	turib o'ylamoq
O'qib	turmoq	turib o'qimoq

### Tayanch tushunchalar

qo'shma fe'l, so'zlarni qo'shib fe'l yasash, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l.

## 33.2. BO'LISHLI VA BO'LISHSIZLIK SHAKLLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning o'rta umumiyligi ta'limda fe'lning bo'lischli va bo'lishsizlik shakllari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.

Fe'lning bo'lischsizlik shakllaridan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Fe'lning bo'lischli va bo'lishsizlik shakllari haqida ma'lumot.
  - \* Fe'lning bo'lishsizligini ifodalovchi vositalar.
  - \* Fe'lning bo'lishsizlik shakllari o'rtasidagi mazmuniy va uslubiy farqlanishlar.



**1-topshiriq.** O'qi fe'lining bo'lishsizlik shakllarini toping. Bu shakllarning bir-biridan farqini aytинг.

**2-topshiriq.** -ma, yo'q, emas shakllarini fe'lga qo'shing. Ularning o'zarो ma'no farqlanishini aytинг.

*Bordi, bormadi, borgan emas, borgani yo'q fe'l shakllariga e'tibor bersangaz, birinchi shakl bilan qolgan shakllar bo'lischli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashlariga ko'ra bir-biridan farq qilayotganini ko'rishiňiz mumkin.*



**Fe'l asosidan ifodalangan harakatning ro'y berish yoki bermasligini bildirgan shakllarga bo'lischli-bo'lishsizlik shakllari, shunday shakllar sistemasiga bo'lischli-bo'lishsizlik kategoriyasi deyiladi.**

Bo‘lishsizlik ma’nosi maxsus shakllarga ega. Bo‘lishlilik ma’nosi esa, aksincha, bunday shakllarga ega emas.

Masalan, *keldi* — *bo‘lishli; kelgan emas, kelgan (i) yo‘q* — *bo‘lishsiz*.

Bo‘lishsiz fe’llarning shaxs-son qo‘sishimchalari bilan o‘zgarishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Bo‘lishsizlik ma’nosi *emas* yordamida ifodalanganda shaxs-son qo‘sishimchasi undan so‘ng, *yo‘q* yordamida ifodalanganda esa oldin qo‘llaniladi. Qiyyoslang:

keldim	kelmadim	kelding	kelmading
	kelgan emasman		kelgan emassan
	kelganim yo‘q		kelganing yo‘q
keldi	kelmadi		
	kelgan emas		
	kelgan (i) yo‘q		

Ayrim shevalarda shaxs-son qo‘sishimchalari *yo‘q* dan so‘ng qo‘shiladi. Masalan, *borganim yo‘q* o‘rniga *borgan yo‘qman, borganing yo‘q* o‘rniga *borgan yo‘qsan*.

Bo‘lishsizlikning yuqoridagi uchta shakli (-*ma, emas, yo‘q*) o‘rtasida ham ma‘lum ma’no farqlanishi bor. Sifatdoshning -*gan* shakli uch xil bo‘lishsizlik shakliga ega: 1. *Borganim yo‘q* — fe’ldan anglashilgan harakatning oddiy inkori («borish kerak edi, lekin bormadi») ma’nosini bildirmoqda. 2. *Borgan emasman* — umuman borilmaganlikni ifodalamoqda. 3. *Bormaganman* — qat’iy inkorni anglatmoqda.

*Kelib ketdi, yozib qo‘ydi* singari yetakchi va ko‘makchi fe’l qolipidagi fe’llarda bo‘lishsizlik qo‘sishimchalari ikki qismning bittasiga (yo yetakchi qismga, yo ko‘makchi qismga) yoki har ikki qismga qo‘silib kelib, turli ma’nolarni ifodalaydi.

1. Fe’lning yetakchi qismi bo‘lishsiz shaklni oladi:

*O‘qib qo‘ydi* *O‘qimay qo‘ydi*

2. Fe’lning ko‘makchi qismi bo‘lishsiz shaklni oladi:

*O‘qib qo‘ydi* *O‘qib qo‘ymadi*

3. Fe’lning har ikki qismi bo‘lishsiz shaklga ega bo‘ladi:

*O‘qib qo‘ydi* *O‘qimay qo‘ymadi*

Birinchi holatda bo‘lishsiz shakl davomiy bo‘lishsizlik ma’nosini, ikkinchi holatda bir martalik harakat inkorini, uchinchi holatda esa tasdiq ma’nosini ifodalaydi.

**327-mashq.** Matn ichidan bo‘lishsiz fe’llarni toping, ularni daftaringizga ko‘chirib yozing va hosil bo‘lish yo‘llarini tushuntiring.

## HASAD KEMIRMASIN YURAGINGIZNI...

Ha, hasad — yomon kasallik. Axir, hasadgo‘y uchun dildagini aytmoqlik oson emas. Vaholanki, qora ranglarga bo‘yamoq, loy, balchiq suvamoq rohat unga.

Birovgaga yaxshilik qo‘l yoki pul bilan, yo til bilan qilinadi. Oramizda kasbdoshingiz yutug‘i, obro‘sni, mol va dunyosini ko‘rolmay, duch kelganga yomonlaguvchilar bor. Ular oldingizda yasama kulib, ta’zim ila bir xil so‘zlaydi, ammo orqangizdan go‘ringizga g‘isht qalaydi. Qandoq qilib poyingizni qirqishni o‘ylaydi, shuning uchun tunlari uxlamaydi. O‘ngida ham, tushida ham qilar ishi qolib, yaxshilar yo‘liga g‘ov izlaydi, tirnoq ostidan kir qidiradi hamda topgan-tutganini doston qilib so‘zlaydi. So‘zlaganda iztirobda ko‘zlar kirtayib, lablari uchadi va tanasi qaltiraydi. Betoblanadi, zir yuguradi, davo izlaydi, dori-darmon topadi-yu, ammo dardiga malham topa olmaydi. Aslida hasad yurakni kemiradi. Ey hasadgo‘ylar, yaxshisi, kengroq bo‘ling. Besh kunlik dunyoning g‘animatligini o‘ylang. Qo‘lingiz bilan mol-davlat yoki pul bermang. Toza yurak, shirin til bilan yaxshilik qiling.

**328-mashq.** Gaplardan bo‘lishsizlik ma’nosini ifoda etuvchi fe’llarni toping va ana shu qo‘srimchalarning tagiga chizing.

1. Mag‘rur, mutakabbir, yolg‘onchi bo‘lmaylik va shunga o‘xshash yaramas illatlardan pok bo‘laylik.
2. Men u odamga bergen bahoyimda yanglishmadim, to‘g‘ri so‘zladim.
3. Sizlar boyligingiz, kuch-quvvatingizga mag‘rur bo‘lib, aysh-ishrat bilan mashq‘ulsiz.
4. El-yurt ahvoldidan xabar olmaysiz, faqat o‘z manfaatingizni o‘ylaysiz, el-yurt manfaatini ko‘zlamaysiz. (*Sh. Zunnun*)
5. Dushmancha qolma.
6. Yomonga o‘lim yo‘q, yaxshiga — yurim.
7. Yomonga yondashgan yiqlimay qolmas, oxiri chuqurga tiqilmay qolmas.
8. Aytmagan so‘zni aytirib bo‘imas, aytilgan so‘zni qaytarib bo‘imas.
9. Odam o‘zidan ketmasligi kerak.

**329-mashq.** Berilgan gaplarni o‘qing. Bo‘lishsizlik ma’nosini hosil qiluvchi qo‘srimcha va so‘zlarni toping.

1. Ko‘z milklari yallig‘lanishi va ko‘z olmasining qizarishi vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo‘lishi mumkin.
2. Kimyoiy tolalardan to‘qilgan matolar dazmollanayotganda dazmol qattiq qizdirilmasligi kerak.
- Paxta va zig‘ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritilmay dazmollanadi.
3. Qish uzoq davom etganligi uchun bahorning birinchi chechaklari ham ko‘z ochishga chog‘lanmayroq turibdi.

4. Bahor borliqqa o‘z sepini yoyib ulgurgani yo‘q. 5. Bir umr ezgulikni izlab, boshqalarga ma’rifat-u ma’naviyat ulashayotgan insonlarning hayot yo‘llari ibratli ekanligini ko‘pincha sezavermaysiz. 6. Bitta o‘g‘limni qoldirishga ko‘zim qiymayapti-yu, ikkalangni qandoq tashlab tushamiz. 7. Oyni etak bilan yopib bo‘lmash. 8. Bir badavlat donishmanddan so‘radilar: Turmushingiz farovon bo‘lsa ham, nima uchun sizni xursand bo‘lib yurganingizni ko‘rgan emasmiz. U shunday javob beribdi: «Chunki ochyalang‘och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman». (*Gazetadan*) 9. Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin, ikki jahon demaki jon bo‘lmasin. (*Navoiy*) 10. Zo‘rnii ko‘rib tan berishni o‘rganing. Chirkin fikrlarni, fisq va fasodlarni, ig‘vo-g‘iybatlarni, eng yomon hasad xaltalarini tilsiz shamollarga topshiring, yellar hech kimga aytmay uzoq-uzoqlarga olib ketsinlar. (*M. G‘anijon qizi*)

**330-mashq.** Gaplar ichidan bo‘lishsiz fe’llarni aniqlang. Ularni tarkibiga ko‘ra tahsil qiling.

1. Biz ona yurt, aziz Vatan debon sog‘inch va orziqishlarda yashaymiz. Shu bois, mo‘tabar tuprog‘imizning har zarrasini, har giyohini nega endi diydamizga surtmaymiz? 2. Bu shunchaki bir hikoyat va yo rivoyat, yoxud tiriklik ko‘yida aytilgan qo‘shiq emas. 3. Men sizga bekorga o‘zbekcha qochirim qilganim yo‘q. 4. Odamlar g‘urur, chegarasiz manmansirash tufayli ne-ne kulfatlarga duchor bo‘Imagan deysiz, shuning uchun ham Islom tafakkurining buyuk natijasi hisoblangan so‘fizmda inson o‘z «men»idan kechmay turib Olloohni tanimaydi, degan aqida bor edi. 5. Inson sirliligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetmaguncha, olam tinch, dunyo farovon bo‘lmaydi.

(*S. Mo‘min*)

### Tayanch tushunchalar

bo‘lishli fe’l, bo‘lishsiz fe’l.

---

## **34-DARS. RAVISHLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** talabalarning o'rta umumiyligi ta'limda ravish yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.

Talabalarda ravishlardan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

**R e j a:** \* Ravish haqida umumiyligi ma'lumot.

\* Ravishlarning ma'no turlari.

\* Tub va yasama ravishlar, ravish yasovchi qo'shimchalar va ularning uslubiy xususiyatlari.

✓ **1-topshiriq.** *Sekin, tez, zo'rg'a so'zlarini ishtirokida gap tuzing.*  
Yuqoridagi so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

**2-topshiriq.** *Oz, ko'p, ancha so'zlarini gap ichida keltiring.*  
Ularning ma'nosini va gapdagini vazifasini ayting.

*Bugun, kecha, hozir singari so'zlar qachon? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning bajarilish paytini, *olisda, yaqinda, pastda* singari so'zlar qayerda? qayerdan? kabi so'roqlarga javob bo'lib, ish-harakatning bajarilish o'rnini, *sekin, tez, arang, zo'rg'a* kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning qay tarzda bajarilishini, *oz, ko'p, ancha* singari so'zlar qancha? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning daraja-miqdorini, *atay, qasddan* singari so'zlar harakatning maqsadini bildiradi.*

! **Harakatning belgisini (payt, o'rinni, holat-tarzi, miqdori, maqsad kabi belgilarni) bildirigan so'z turkumiga ravish deyiladi.**

Ravishlarning ma'no turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadvalda ko'ring:

T/r	Ravishlarning ma'no turlari	Ma'nosi va qoidasi	Sinonimik so'rog'i, vazifasi	Misollar
1.	Holat ravishi	Harakatning qay tarzda bajarilishini bildirgan ravishlarga holat ravishi deyiladi.	qanday? qanaqa?	qo'qqisdan, bexosdan, sekin, tez (-da, -dan), yayov, piyoda, darhol kabilar
2.	Payt ravishi	Harakatning bajari-lish paytini bildirgan ravishlarga payt ravishi deyiladi.	qachon? qachongacha? qachondan?	bugun, kecha, avval, hozir, doim, erta-indin, yaqinda kabilar
3.	O'rIN ravishi	Harakatning bajari-lish o'rmini bildirgan ravishlarga o'rIN ravishi deyiladi.	qayer? qayerda? qayerga?	oldinda, olsida, uzoqdan, yaqindan, yuqoriga, pastga
4.	Miqdor-daraja ravishi	Harakatning miqdor-darajasini bildirgan ravishlarga miqdor-daraja ravishlari deyiladi.	qancha? qanchacha?	ancha, picha, sal-pal kabilar
5.	Maqsad ravishi	Harakatning bajari-lish maqsadini bildirgan ravishlarga maqsad ravishlari deyiladi.	nimaga? nahot? nega?	atay, ataylab, qasddan, o'rtacha kabilar

Holat ravishlari tarkibiga kirgan *qo'qqisdan*, *to'satdan*, *birdaniga*, *birdan* singari ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodalaydi.

*To'satdan* ravishi ayrim shevalarda *to'sindan* holida ham talaffuz qilinadi. Bunda u dialektal variant sanaladi.

Yoki *yaqinda*, *uzoq* ravishlari harakatning bajarilish payti yoki o'rni ma'nolarini ifodalaydi. *Yaqinda keldi*—*yaqinda joylashgan* so'zlaridagi yaqinda so'zi ikkita mustaqil leksema sanaladi.

Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi.

Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llaniladigan ravishlarga tub ravishlar deyiladi. Masalan, *qo'qis*, *doim*, *birpas* va boshq.

**Asos qismga yasovchi vositalar qo'shib hosil qilingan ! ravishlarga yasama ravishlar deyiladi.** Masalan, *xotinchasiga*, *bolalarcha*, *mardona* kabi.

Yasama ravishlar yasashga asos qismiga yasovchi qo'shimcha qo'shish yordamida yoki so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali hosil qilinadi.

Yasashga asos qism ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ba'zan ravish bo'lishi mumkin. Quyidagi qo'shimchalar ravish yasash uchun xizmat qiladi:

- cha: *yangicha, eskicha, hozircha, uningcha, shuncha, o'zbekcha* kabi
- larcha: *mardlarcha, do'stlarcha, qardoshlarcha*
- lab: *harflab, haftalab, tonnalab*
- ona: *itoatkorona, mardona, mag'rurona*
- lay (-layin): *tiriklay, tiriklayin, butunlay*
- n (-in, -un): *ertan-kechin, qishin-yozin, ochin-to'qin, ostin-ustun*

Ravish yasovchi -larcha qo'shimchasidagi -cha qismi kabi, *singari* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ular ko'pincha almashtirib qo'llaniladi.

Masalan, *mardlarcha* — *mardlar kabi, yovuzlarcha* — *yovuzlar singari*.

Shuningdek, ravish yasovchi -cha qo'shimchasi otlardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchasi bo'lgan -cha bilan omonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *yosh yigitcha* — *yigitcha ishladi*.

Bu o'rinda -cha qo'shimchasing omonimligi asosida leksema omonimligi vujudga kelgan: *yigitcha*: 1. *Kichkina yigit*. 2. *Yigit* kabi.

-cha ning bu ikki vazifasi urg'u bilan ham farglanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi -cha qo'shimchasi urg'u oladi. *Yigitcha, qizcha, kuchukcha* kabi. Ravish yasovchi -cha qo'shimchasi esa urg'u olmaydi. Urg'u so'zning bu qo'shimchadan oldingi bo'g'iniga tushadi: *yigitcha, xotincha, erkakcha* kabi.

-cha qo'shimchagini tushirib qoldirib, bu qo'shimchani olgan so'z oldidan kichkina so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, -cha qo'shimchasi otning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha sanaladi. Masalan, *quticha* — *kichkina quti, uycha* — *kichkina uy* kabi.

-cha o'rniga -dek, kabi, singari ko'makchilarini qo'shish mumkin bo'lsa, u ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, *yigitcha* — *yigit* kabi (singari).

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ham ravish yasash mumkin.

M a s a l a n, *nari-beri, hali-beri, naridan beri, erta-indin, tez-tez, juda-juda, qadam-baqadam* singari ravishlarga e'tibor bersangiz, ularda bir so'zning takrorlanishini yoki o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli ikki so'zning juft keltirilganligining guvohi bo'lasiz. Masalan, *tez-tez* (bir so'zning takrori), *eson-omon* (ma'nodosh so'zlarning juftlashishi), *avval-oxir, erta-kech* (zid ma'noli so'zlar juftlashishi).

Bunday ravish qismlari o'rtasiga yozuvda doimo chiziqcha qo'yib yoziladi.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Qanday so‘zlarga ravish deyiladi?
2. Ravishlarning qanday ma’no turlari bor?
3. Yasama ravishlar qanday vositalar yordamida yasaladi?
4. -cha qo‘srimchasing ma’nolariga misollar keltiring.

**331-mashq.** Matn ichidan ravishlarni topib, ma’nosiga ko‘ra turlarga ajraring. Tarz, o‘rin, payt, maqsad ravishlariga ajratib yozing.

Kuz... Yomg‘irlar fasli tugamay, sovuq, izg‘irinli mavsum boshlandi. Tund bulut xo‘mrayib, g‘arb tomondan avval muzdek shamoł aralash qor uchqunlarini surib uchirib keldi.

Peshin chog‘i esa qishloqqa yaqin yaylovda ochiq dalada qor to‘zib, yer oqara boshladi.

Oqyo‘l kamgap, diltortar narsalarni xushlovchi bola, shomga yaqin qor ko‘rgani uydan hovliga chiqdi. Hozir qarab anglab bo‘lmaydigan tomonda ufq qontalash edi. Kun botish peshtoqida charxlangan, yassi bulutlar tog‘ cho‘qqilariga soyabon, ammo bu hol uning ko‘nglini ravshan etarmidi? Buni hech kim aytolmasdi. Sovuq kimga ham yoqardi? Ertasiga azonda uni otasi uyg‘otdi. Tashqaridagi ahvolni u qaramasa ham bilardi. Sovqotmasligi uchun otasi etik kiyib chiqishni buyurdi.

Oqyo‘l ayyonga chiqib, o‘choq oldiga bordi. Burchakda eski-tuskilar saqlanadigan qop bor edi. Tovoni yorilib, qiyshayib ketgan kirza etigini shu qopning ichidan topdi. Unga erinib «uf» tortib, oyoq panjalarini tiqayotganini ko‘rgan otasi o‘zining poyabzaliga, ust-boshiga pishiq-puxta emasligidan ranjiganday qarab qo‘ydi.

— Eskirgani uchun orqasi chiribdi, — deb g‘udrandi otasi, bolaning yonidan sal nari yurib, — endi suv kiradi. Yigit bo‘lib qolding, o‘ylaginda! Ertा-indin to‘y qilamiz, hademay mакtabga borasan.

Bola otasining keskin gaplaridan ranjimadi, aksincha, g‘ururlantiruvchi ohangda «yigit»ga ishora qilganini tushunib so‘zlariga jiddiy turib qulq soldi.

Yigitlikka da‘vogar bola endi hovliga chiqib qor kuraydi, yo‘laklarni ochadi, tozalaydi, supuradi. Otasi «mushtdekkina» o‘g‘lining harakatlarini ko‘rib quvonsa ajabmas.

Tushga yaqin, issiq kiyinib olib, hovlida o‘ynab yurgan Oqyo‘l ko‘cha darvozasi oldida oyoq tovushlarini eshitdi. Irg‘ib o‘rnidan turdi. Yaqin borib ko‘rishdi. Ammo uning nigohlis boshqa joyga qadalgandi. Toymisani, toy ekan!

Bolaning xayoli toychoqda bo‘lib, otasi bilan tog‘asi qancha suhbatlashib o‘tirganini ham unutdi.

Oqyo‘l otasi bilan tog‘asini kuzatisharkan, toychoqni nima uchun goldirib ketayotganini sira xayoliga keltirmasa-da, ich-ichidan quvondi.

(Sh. Jalil)

**332-mashq.** «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni» mavzusida munozara o‘tkazing. Nutqimizda ravishlarning ishlatalishiga diqqat qiling.

**333-mashq.** Berilgan gaplardan ravishlarni toping. Unda ishlataligan kelishik, egalik qo‘srimchalarining qanday vazifada kelganligini aytинг. (O‘z ma’nosidami yoki vazifasini yo‘qotganmi?)

1. Ota-onaning roziligi umrni ziyoda qiladi. 2. Is’hoq birdaniga kecha bo‘lib o‘tgan voqeani esladi. 3. Yaqinda Oqsaroy bekatida bo‘lib o‘tgan voqeа hammamizni o‘ylantirib qo‘ydi. 4. Birdan eshik ochildi. Chal-qanchasiga yonboshlab, bag‘rini sovuq ko‘rpaga burkab yotgan cholning ko‘zlari xira tortib qolgan, nursiz edi. 5. Otam kirza etigi qo‘njidan to‘sat-dan suyak dastali, dastasiga shisha ko‘zlar qadalgan pichoqni sug‘urdı. 6. To‘rtko‘z oyoq bosib turdi va shiddat bilan uzoqlarga — kimsasiz qir tomon chopdi.

(*Sh.Jalil*)

**334-mashq.** Quyidagi omonim qo‘srimchalarga misollar yozing. Ular ikki xil so‘z turkumini ifoda etsin.

-lab, -cha, -larcha, -da, -dan, -lar.

**335-mashq.** Yozuv taxtasining ikki tomoniga 2 xil gap yozing. Tarkibida ishtirok etgan ravishlarni sinonim ravishlar bilan almashtiring.

1. Yomg‘ir suvi tez oqadi. 2. Yomg‘ir suvi sekin oqadi.

**336-mashq.** Nuqtalar o‘rniga ravishlarni qo‘yib ko‘chiring.

## HAYO

Hayo inson hayotining... hisoblanadi. Hayo, ibo komil xulqqa ega bo‘lgan kishi ruhining tafakkuri, ma’naviy timsolidir. Payg‘ambarimiz: «Hayo imondandir, imon esa jannatga eltadi», demish.

...ayol — hayo ramzi sifatida qadrlanib kelinadi. Rivoyat qilishlaricha, o‘limga mahkum etilganlar ichida bir ayol ham bor ekan. Ularni o‘limga olib ketishayotganda ayol yo‘lda ip va igna berishlarini so‘raydi.

— Nima qilasan shu ignani? — so‘rabdi jallodlar.

— Tizzamning choki so‘kilibdi, shuni chandib olay, — debdi ayol.

— Axir, sen ... o‘lasan-ku! — debdi posbonlar

— Men ayolman, sharm-hayoyimni ... saqlashim kerak. O‘lim sari ketayotgan bo‘lsam ham, nomusim haqqi, xaloyiq ... ayolday chiqishim kerak, — debdi ayol.

Ayol xonadon ravnaqidir, chunki u oila a‘zolarini tushunadi, ... bilan ish olib boradi, hayotning achchiq-chuchuklariga chidab, ... yashaydi.

Bunday ayollarni xalqimiz hayoli, vafoli deb bilishgan. Shuning uchun ham o‘zbek xotin-qizlari uchun hayo asosiy fazilat bo‘lib kelmoqda. Hayotdagি har bir narsani ko‘rish, bilish uning qadr-qimmatini idrok etish, o‘ylab ish yuritish bu hayo tuyg‘usining ... tushuncha ekanligini ko‘rsatadi.

(U. Mahkamov)

**337-mashq.** Muhammad alayhissalomning hadisi muboraklariga yozilgan she’riy iqtibosidan keltirilgan namunalarni o‘qing, uni nasriy bayon qiling, ravishlarning ishlatalishiga, ma’nosiga e’tibor bering.

1. Qalbiga rahmli, qudratli Olloh  
Rahm-u shafqat nurin solmagan inson  
Elga ziyonkordir har yerda, har chog‘  
Hasrat, nadomatda qolguvchi har on.
2. Kimniki odamlar ishorat qilib  
Qo‘li bilan ko‘rsatsa doim.  
Yomon odamligi shundan ayondir  
Bundayin «shuhrat»dan asra, Xudoyim.
3. Mazlum qarg‘ishidan qo‘rqing hamisha  
U xoh kofir bo‘lsin va xoh musulmon.  
Olamdagи barcha parda-yu devor  
Mazlum duosiga bo‘lolmas to‘g‘on.
4. Zamon so‘ngidagi mulkning yomoni  
Qul ushlar moq erur, bilib qo‘y, mo‘min.  
Erkidan ayirmoq odam farzandin  
Ollohga xush kelmas, yaxshi o‘ylagin.
5. Zamonlar kelarki, umr tez o‘tib  
Ko‘paygay ishsizlar — nochor, darbadar.  
Xasislik avj olur saxovat ketib,  
Qotilliklar ortar elda muqarrar.
6. Bir miskin so‘rasa agar sadaqa,  
Olloh nomin qo‘yib o‘rtaga nogoh.  
Noumid qaytargan har qaysi inson  
— Odamlar yomoni, begumon gumroh.
7. Mo‘minga kim qasddan ziyon keltirsa,  
Unga firib bersa kunlardan bir kun,  
Yomonlar yomoni o‘shadir, bilgin  
O‘sha nobakordir, mal’undir, mal’un!

8. Kimki berahmdir — rahm qilinmas,  
Kechirmaganlarni kechirmas Olloh.  
Jazodan qutulib qololmas aslo  
Yo'lidan qaytmasa qilganlar gunoh.
9. Neki mast aylasa va yoki sarxush,  
Neki bo'shashtirsa yo qilsa behush  
Uzoq bo'l ulardan, ixtiyor etma,  
Og'zingga olmagan senda bo'lsa xush.
10. Yarim kecha mahal safardan qaytib  
Xonadon eshigin qoqmagin qattiq:  
Qo'shnilar ko'nglini bezovta qilib  
Oilangga qo'rquv solishing aniq.

**338-mashq.** «Xush kalom kamoldir» mavzusida matn tuzing. Unda just va qo'shma ravishlarni ham ishlating.

**339-mashq.** Ravish so'z turkumiga oid grammatik topishmoqlarning javobini toping.

1. Ish-harakat, holatning.  
Paytin ko'rsatgan so'zlar  
Gapda qaysi bo'lakning  
Vazifasida kelar?
2. Ish-harakat, holatning  
Ko‘p-ozligini bildirar  
Qancha xizmat qilsa ham,  
Fe'l so'zlariga ergashar.
3. Ravish bilan ravishdosh  
Bir-biri bilan kasbdosh  
Ikkalasi fe'l bilan  
Inoq, chin do'st ham sirdosh.  
Nega ikkisi kasbdosh?
4. Ma'nosida daraja-miqdor  
Qay darajada? so'rog'i ham bor.  
«Ko‘p tinglang-u oz gapiring»  
Degan xalqning maqoli bor.
5. Botirlarcha, kitobcha.  
Uycha, qahramonlarcha.  
To'rt so'zda bor to'rttacha  
Farqi bormi sizningcha.

6. Tasodifan, majburan,  
Anjuman ham umuman.  
To‘rtta so‘zmiz inoqmiz,  
Farqi bormi sizningcha?
7. Qizilroq, kechroq, biroq,  
Ertaroq, ko‘kroq, quroq.  
Har so‘z oxirida -roq  
Ravishni toping tezroq.
8. Tezpishar ham tez pishar,  
Tinchoqar ham tinch oqar.  
Shakli bir xildir so‘zlar,  
Farqini kimlar topar?
9. Yaxshi yuvgin, yaxshi yegin.  
Yaxshi degin, yaxshi bola.  
«Yaxshi» so‘zin farqin degin?
10. Asta-sekin yuradi,  
Ham yonma-yon turadi?  
Qaysi oldin yuradi?

### **Topishmoqlarning javobi**

1. Payt ravish gapda payt xoli vazifasida bo‘ladi.
2. Daraja-miqdor ravishlar.
3. Fe’lga ergashgani va o‘zagi fe’l bo‘lgani uchun.
4. Daraja-miqdor ravishlari.
5. Botirlarcha, qahramonlarcha — ravishlar, kitobcha, uycha — ot.
6. Tasodifan, majburan — ravish.
7. Qizilroq, ko‘kroq — sifat, kechroq, ertaroq — ravish.
8. Tezpishar, tinchroq — sifat, tez, tinch — ravish.
9. Birinchi va uchinchi yaxshi — ravish, to‘rtinchi, beshinchi yaxshi — sifat.
10. Ravish.

**340-mashq.** Quyida berilgan grammatik ertakni o‘qing. Siz ham namunadan foydalanib, ravish so‘z turkumi va uning nutqimizda ishlatalishiga oid ertak yozing.

### **QO‘SHIMCHAVOYLAR**

Bor ekanda, yo‘q ekan, qadim va hozirgi zamonda uchta aka-uka qo‘shimchalar yashagan ekanlar. Ularning ismlari o‘ziga xos ekan. Birinchisining ismi Yasovchibek, ikkinchisiniki O‘zgartiruvchibek,

uchinchisiniki Shabl hosil qiluvchi ekan. Kunlarning birida ulardan bittasi shunday debdi: «Nega bizni odamlar qo'shimchalar deb atashadi?» Shunday deb ular xafa bo'lib o'tirishganda, O'zak, So'z, Negizvoylar kelib qolibdi. Ulardan biri gap boshlabdi: «Biz so'zning asosiy qismimiz, sizlar esa qo'shimchalar», deb maqtanibdi. Shunda bechora qo'shimchalar battar o'ksinibdilar va hatto yig'lab ham yuboribdilar. Shu payt astasekin davraga Gap xola kelib qolibdi. Aka-ukalar unga voqeani aytib berishibdi. O'zak, Negiz, So'zlar qo'shimchalarni ajratib, yolg'izlatib qo'yishibdi. Shunda Gap xola ularning oldiga borib, avval O'zakdan:

— Qani, O'zakvoy, bergan topshirig'imni bajardingmi, menga bir necha gap tuzib bergen, degandim, — debdi.

Shunda O'zakvoy darrov qo'shimchalarni izlabdi, ammo Gap xola ularni axtarib hech qayerdan topa olmabdi. O'zakvoy har qancha urinmasin, gaplar, so'zlar, ma'nosiz chiqibdi. Shunda So'z, O'zak, Negizlar Gap xolaga yalninib, uzr so'rashibdi. Gap xola esa ularni kechiribdi. So'ng O'zakvoy Qo'shimchalar bilan birga bo'lib, bemalol gaplar tuzibdi, she'rlar to'qibdi.

### Tayanch tushunchalar

ravish, holat ravishlari, payt ravishlari, o'rin ravishlari, daraja-miqdor ravishlari, sabab va maqsad ravishlari, sodda tub ravishlar, sodda yasama ravishlar, qo'shma ravishlar, just ravishlar.

---

## **35-DARS. YORDAMCHI SO‘ZLAR. KO‘MAKCHILAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** yordamchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati, ularning tasnifi, ko‘makchilar yuzasidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish.

- R e j a:**
- \* Yordamchi so‘zlar haqida.
  - \* Yordamchi so‘zlar tasnifi.
  - \* Ko‘makchilar va ularning vazifasi.
  - \* Ko‘makchilar va kelishiklarning o‘zaro almashtinib qo‘llanilishi va ularning uslubiy xususiyatlari.

✓ *Topshiriq.* Quyida berilgan gap tarkibidagi yordamchi so‘zni toping. Uning gapdagi vazifasini tushuntiring. *Sen tufayli uyimiz nurga to‘ldi.*

! Leksik ma’nosini yo‘qotib, grammatik ma’no ifodalashga o‘tgan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘zlar borki, bunday so‘zlar yordamchi so‘zlar deb yuritiladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar bilan qo‘srimchalar oralig‘ida turgan grammatik vositalardir. Masalan, *Hamasini tinglardim, ammo o‘xshashini topmasdim aslo.* (H. Olimjon)

Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar mansubdir.

### **KO‘MAKCHILAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

*Vatan uchun to‘kkali yo‘qmi bir qoshiq qoning? (H. Olimjon)*

Yuqoridagi gapda Vatan so‘zini to‘kkali fe’liga grammatik va mazmuniy tomondan bog‘lash maqsadida uchun yordamchisi ishlatilmoqda.

! So‘zlarning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchilar deyiladi.

Masalan, *Oyni etak bilan yopib bo‘lmas.* (Maqol)

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatic ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra, ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) sof (asl) ko'makchilar; 2) vazifadosh ko'makchilar.

**Leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat grammatic ma'no ifodalashga o'tgan ko'makchilarga sof (asl) ko'makchilar deyiladi.**

Bunday ko'makchilarga *kabi*, *singari*, *bilan*, *birga*, *uchun*, *sayin*, *haqida*, *holda* kabi ko'makchilar kiradi.

**Leksik ma'nosini saqlagan holda, gapda grammatic ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlarga vazifadosh ko'makchilar deyiladi.** Bunday ko'makchilarga *ustida* (*ish ustida*), *ostida* (*ozodlik bayrog'i ostida*), *oldida* (*vijdoni oldida*), *orasida*, *orasiga* (*xalq orasida*), *boshida* (*yo'l boshida*), *qarab* (*Toshkentga qarab yurmoq*), *bo'ylab* (*daryo bo'ylab*) singari ko'makchilar kiradi.

Vazifadosh ko'makchilar ko'makchilashayotgan ot va fe'llardir. Shunga ko'ra bunday so'zlar mustaqil so'z vazifasida ham kelishi mumkin bo'ladi. Masalan, *kitob televizor ustida turibdi* — *televizor ustida janjallahdi*. *Devordan bo'ylab garadi* — *Ariq bo'ylab ketdi* va h.k.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelash-tirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, *Bolalar bog'chasiga hadya qildim*. *Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim*.

*Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi.*

*Dalaga ketdi — dala tomon ketdi.*

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylig bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosи, ikkinchi gapda sabab ma'nosи, uchinchisida yo'nalish ma'nosи mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyoq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: *Samarqandga ketdi* — *Samarqand tomon(ga) ketdi*.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi?
2. Ko‘makchilar deb nimaga aytildi va ular gapda qanday vazifa bajaradi?
3. Ko‘makchilar qanday turlarga bo‘linadi?
4. Ko‘makchilar bilan kelishiklar o‘rtasidagi umumiylig va o‘ziga xos tomonlarni tushuntiring.

**341-mashq.** O‘qing. Ko‘makchilarni topib, o‘zidan oldin kelgan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va gapda qanday sintaktik munosabatlarni ifodalashini aytинг.

1. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig‘idir.
2. Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. (*A. Temur*) 3. «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlari ko‘pdirkim, ilm orqali hayoting farog‘atda, yurish-turishing hurmatda bo‘lur». (*A. Samargandiy*) 4. Sabrli bo‘lish kabi fazilatlarni o‘zingizda mujassam eting. 5. Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo‘lish bilan birga insoniyligi, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol shitirok etadi. 6. Ins of va ins ofli bo‘lish singari tushunchalar ayrim diyonatsiz odamlar uchun qadr-qimmat sиз bo‘lib qolgandek bo‘lib ko‘rinadi. 7. Vaqt o‘tgan sari odam yaxshilik, ezhulik kabi umr ishlariiga tashna bo‘lib yashaydi. 8. Xudbin odam adolat yuzasidan emas, shaxsiy manfaatlari, injiqligi va xudbinligidan kelib chiqib harakat qiladi. (*O’. Mahkamov*)

**342-mashq.** Berigan to‘rtliklarni o‘qing. Ma’nosini izohlang. Ko‘makchilarni topib, ularning grammatik xususiyatlarini tushuntiring.

Har neki go‘yo yo‘q shamol kabi ko‘rinmas zinhor,  
Har neki go‘yo bor omonatdir, yemirilar abgor.  
Ko‘rgan, har nimaki olamda bor, oxiri yo‘qdir.  
Bilgin, har nimaki olamda yo‘q, aslida bor, bor...

Ins of adolat-la qiladi amal,  
Barchaga salomin etmaydi kanda.  
Sadaqa ularshar o‘zi kambag‘al,  
O‘shadir imoni mukammal banda.

Tiriksan, yaxshilik yo‘llarini tut,  
Yaxshilik umringni bezaguvchi qut.  
Mard bo‘lsang, ozoring uchun uzr ayt,  
O‘zgalar ozorin batamom unut.

Yo yomg‘ir bo‘lamiz, bo‘lamiz shabnam,  
Maysalar kiprigin aylajakmiz nam.  
Nogoh xazon misol to‘kilganda ham,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

(T. Xolmatov)

**343-mashq.** Berilgan gaplardagi ko‘makchilarni kelishiklar bilan almashtirib ko‘chiring.

1. Zarina so‘zlar, sakkiz o‘g‘il o‘rtasida yolg‘iz qiz bo‘lgani uchun erkakshoda bo‘lib o‘sgandi, hech narsadan tap tortmay so‘zlayverardi ham. Gap orasida menga qarata: «Sen o‘lgur menga bugundan boshlab ikki tomonlama yaqin bo‘lib qolding», deb yubordi. 2. Sizning sog‘lig‘ingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak arziyi. 3. Mening ko‘nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 4. Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi. 5. Siz go‘daklardek pishillab uxlardingiz, tim qora va quyuq sochlaringiz oppoq yostiq ustida yoyilib yotardi. 6. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to‘xtab o‘tarman. 7. Kasbim sharofati bilan baribir qaysi jumlangiz yolg‘on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman. 8. Ona urug‘im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar Siz kabi bo‘lishni xush ko‘radilar.

(A. Ibrohimov)

**344-mashq.** Quyidagi ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Bo‘yi, haqida, to‘g‘risida, tufayli, uzra, misli, misoli, uchun, singari, kabi, sari, tomon, orqali, bo‘ylab, qarab, qaraganda, ko‘ra, yarasha...

**345-mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur ko‘makchilarni qo‘yib, so‘z birikmalari hosil qilib ko‘chiring.

O‘qish... intilmoq, otasi... bormoq, test... bahslashmoq, erk... suhbatlashmoq, litseyga ... yurmoq, jahon... yuksalmoq, osmon ... hilpiramoq, tog‘ ... bormoq, qizimdan ... balandroq, jahon... yangramoq, ko‘z ... gaplashmoq, qarorga ... haydalmoq, kechadan... tayyorlanmoq, qozon ... quyildi.

**346-mashq.** Nuqtalar o‘rniga gaplarning talabiga mos ko‘makchilarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Qimmatli fikrlar hozirda, sahnaga chiqayotgan yosh iste’dod sohiblariga sahna sirlaridan saboq olishlari... yordam berishi shubhasiz. 2. Yoshlarimizning bilimli, kasb-hunarli bo‘lishga, Vatanga sadoqat ... xizmat qilishga undash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan. 3. Milliy qadriyatlarga tayanib, dunyoviy bilim va hunarlarni

egallab olayotgan yoshlarimizning fazilatlari... soatlab gapishtirish mumkin. 4. Vatan himoyasi yo'lida jon fido etgan o'g'lonlarimizning onalari achchiq izzirob, og'ir ayriliq... turib ham mardonialik... istiqlol... ko'ksini qalqon qilgan farzandlari... faxrlanib gapirganini hammamiz eshitdik. 5. Qishloq ... taralayotgan kuy qizning yurak-bag'rini ezayotgan edi. 6. Undan... onangni bir bor yo'qlab, asrlar... sayqallashib kelayotgan udumimizni saqlab qolmabsan-da. 7. Sen... mening niyatlarim kun... orqaga ketayotganligini his qila boshladim. (*Gazetadan*)

**347-mashq.** Matn ichidan ko'makchilarini topib, qaysi so'z turkumidan keyin kelganini va turini aytинг. Odadtagi shakldan boshqacha qo'llangan ko'makchilarining tagiga chizib, yozilishini tushuntiring, ular nutqning qaysi uslubiga xosligini aytинг.

Oqil, donolardan Hojimurod Odiliy aytadi:

— Bir olim, fozil odam yomon fe'l-atvorga ega bo'lgan qo'pol tabiatli odam birla bir qancha vaqt suhbatdosh bo'lib umr o'tkazdi. Uning qo'pol muomalasiga barcha kabi chidab keldi. Bir kuni haligi qo'pol tabiatli odam safar tomon chiqib ketdi. Olim odam kun bo'yи toqatsizlanib yig'ladi. Odamlar taajjublanib:

— U badfe'l odamdan qutulganingizga sevinmasdan yig'laganingiz qiziq. Axir sassiqso'z, shu qadar qo'pol muomalali sheringizingizdan qutulganingiz ko'nglingizga shodlik, joningizga huzur-halovat emasmi? — deb olimdan so'radilar.

Olim, fozil odam u haqda shunday javob berdi:

— U badfe'l sheringimdan ajralganim uchun emas, balki u bechoraga achinganimdan, unga rahmim kelganidan yig'layman, chunki shuncha suhbatlarimdan foydalanmay, yomon fe'l-atvorini o'zi birla birga olib ketdi, mana shu sababdan achinib ko'zyosh to'kaman.

### BAYT:

Yomon birla suhbatdosh bo'lishdan qaytsin har kishi,  
Hech tirilmaydi o'tganlar, har qancha to'ksang ko'z yoshi.

**348-mashq.** O'qing. Ko'makchilarini toping. Qaysi kelishikdagi mustaqil so'zlar bilan birga kelganligini aytинг, ma'no xususiyatlarini tushuntiring.

### VATAN QAYG'USI

Yotsam tushimda, uyg'onsam yonimda, ko'z yumsam, miyamda, ko'z ochsam qarshimda mungli bir xayol kelib turadur!

Ey mungli xotun, sen kimsan! Ey g'amli ona, nechuk mungdan ayrilmaysan? Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolgan ko'zlarining yosh yomg'irlari nechun to'kadur? Zulm zanjirlari bilan bog'langan

qo'llaring nechun har yonga uzatiladur, nima tilaysan? Oh... Bildim... Angladim! Sen mening Vatanimsan, Vatanning mungli xayolisan. Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq —mening o'limim. Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur.

Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men. Borlig'im bilan senga ko'mak qilurga hozirman. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurga rozi. Qof tog'lari yo'limda tushsa, tamug' olovlar qarshimda chiqsa, yana sen sari ketarman.

Men sening uchun tug'ildim, sening uchun yashartman, sen uchun o'larman.

(A. Fitrat)

**349-mashq.** Uyga topshiriq. «Donolar bisotidan» nomli bog'lanishsiz matnni o'qing, ko'makchilarni topping, uni bog'lanishli matnga aylantirib hikoya qiling. Sarlavha qo'yish ham yodingizdan chiqmasin.

## DONOLAR BISOTIDAN

- Yoshlarga va keksalarga qaysi fazilatlar lozimdir? ..
- Yoshlarga sharm-hayo, ishda jasorat, keksalarga muloyimlik.
- Kimdan hazar qilish lozim?
- Maqtanchoqdan, chaqimchidan hamda xasis boydan.
- Kimni badbaxt deyish kerak?
- Takabbur odamni.
- Eng oqil kishi kim?
- Ko'p bilib, oz so'zlaydigan odam.
- Fosiqlar qanday belgilari bor?
- Fosiqlar ko'rishganda laganbardorlik, orqavarotdan esa g'iybat qiladilar, boshingizga musibat tushganda xursand bo'ladilar.
- Nimalar g'am-koyishni yo'qotadi?
- Do'stlar bilan ko'rishish va zamon fozillari, oqillari bilan suhbat qilish.
- Ilmning ofati nimada?
- Istamagan kishiga ilmdan gapirish, so'zga tushunmaydigan kishilarga o'rinsiz ilm o'rgatish ilmning ofatidir.
- Befoya narsa nima?
- Amalga oshmaydigan ishlardan umid qilish befoydadir.
- O'zini ham, o'zgalarni ham qiyaydigan odamlar kimlar?
- Unday odamlarning besh toifasi bor: boshqalarga aql o'rgatuvchi nodon, behuda narsalarni orzu qilib yuruvchi xayolparast, hech kim bilan maslahat qilmaydigan hukmdor, qo'lidan kelmaydigan ishlarga urinuvchi maqtanchoq, shoh xizmatidagi xiyonatkor.

**350-mashq.** Uyga topshiriq. Quyidagi ko'makchilarni qatnashtirib, «Samarqand sayqali» nomli matn tuzing.

Bilan, uchun, sari, sayin, kabi, singari, orqali, yanglig‘, osha, uylab, ichra, chamasi, haqida, tomon, ko‘r.

**351-mashq.** Matnni o‘qing, ko‘makchilarni topib ular bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda ko‘chirib yozing.

## ASSALOM, KELAJAK!

Ey sen, shoshib, hovliqib, dam-badam qo‘lidagi soatiga qarab borayotgan inson! Bilarmisanki, qo‘lingga bog‘lab olganing soat emas, sendagi sanoqsiz zanjirlarning biridir.

Bu zanjir ila sening insoniyatga tutashliging bor. Tomchi bo‘lib daryo bilan oqayotirsan, zarra bo‘lib koinot bilan charx urayotirsan. Bu zanjir ila zamonga daxldorsan va sen ham ahli olam qatori uchinchi mingyillikda yashamoqdasan.

Bashariyat tarixi koinot umrining o‘n besh daqiqasi emish. Bu zamon ichida u ne qadar kamol topdi? Mamont to‘sini talashib bir-birini majaqlagan ajdod bilan din-uirq talashib, mazhab talashib yashayotgan avlod o‘rtasida tafovut qancha?

Bu xayollar va bu savollar, yangi mingyillikda meni qiynab turgan hislar, yozilmagan she’larimdir.

Cheksiz, abadiy makon-u zamon ichra mavjudlik ulug‘ baxtim va olam-u o‘zni anglamaslik ulug‘ dardimdir.

Men zarraman. Zarraning koinot bilan bir butunligi va tanholigi bor. Sayyoralar kabi o‘z osmoni, o‘z hayoti, o‘z mehvari, o‘z darvozasi bor. Zamonim — asrim, makonim — vatanim. Shu makonning erki mening erkim, zanjirlari mening zanjirlarimdir.

Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, quadratli va jafokash Vatanim! Sen o‘z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og‘riqlisi bo‘lgan tobelik va mutelik zanjiridan xalos bo‘lding. Ozodlik kuning asr desa asr, mingyillik desa mingyillik ichida eng buyuk kundir. U sening yangi tarixing, mening yangi umrim boshlangan kun.

Ey, mening suykli O‘zbekistonim! Zamonalr kelarki, botiniy zanjirlaring ham yechilar. Kelajak haqiqiy hur dunyo ichida sen ham chinakam ozod mamlakat bo‘larsan. Zamonalr kelarki, insoniyat mojarolarni, qon to‘kislarni unutar, olamda mehr-u saxovat, poklik va ezungulik g‘olib bo‘lar.

Bizning bu g‘urbat to‘la asrda matonat bilan yashagan avlodning uyg‘oq ruhi ul zamon aytar: «O‘limgan qul shunday kunga ham yetib keldi-ya!»

Shu umidbaxsh tuyg‘u tufayli bugun: «Assalom, kelajak!» deya hayqirgim keladi.

## Tayanch tushunchalar

yordamchi so‘zlar, ko‘makchilar, sof (asl) ko‘makchilar, vazifadosh ko‘makchilar.

---

## 36-DARS. BOG'LOVCHILAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** bog'lovchilar yuzasidan o'rta umumiyligi ta'lilda talabalar olgan bilimlarini kengaytirish. Talabalarning nutqida bog'-lovchilardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- R e j a :**
- \* Bog'lovchi haqida ma'lumot.
  - \* Bog'lovchilarning turlari.
  - \* Bog'lovchilarning uslubiy xususiyatlari.

✓ **Topshiriq.** Quyida berilgan gapdan bog'lovchini aniqlang va uning ma'nosi hamda vazifasini ayting: *Mehnat qilish eng yaxshi odat, chunki mehnat bizga berur saodat.*

*Hammasini tinglardim, ammo o'xshashini topmasdim aslo. Omon so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* (H. Olimjon)

Keltirilgan gaplarning birinchisida ammo yordamchisi o'zaro zid ma'noli bo'lgan *tinglardim* gap bo'lagi bilan *o'xshashini topmasdim* bo'lagini; ikkinchi gapda *va* bir paytda ro'y berayotgan voqeя haqida axborot beruvchi ikki gapni o'zaro bog'lash uchun qo'llangan.

- ! **Ikki va undan ortiq gap bo'lagi yoki gaplarni o'zaro bog'lab keluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar deyiladi.**
- Gap bo'lagi va gaplarni qanday bog'lashlariga ko'ra bog'lovchilar ikki turli bo'ladi:
    - a) teng bog'lovchilar;
    - b) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

- ! **O'zaro teng munosabatda bo'lgan gap bo'laklari, gaplarni bog'lash uchun ishlataladigan bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi.** Teng bog'lovchilarga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, yoxud, yo... yo, goh... goh* singari bog'lovchilar kiradi.

**O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlataladigan bog'lovchilarga ergashtiruvchi bog'lovchilar deyiladi.** Bunday bog'lovchilarga *chunki, sababli, tufayli, shuning uchun, shu bois (sabab, sababli), ya'ni, -ki* singari so'zlar kiradi.

Teng bog'lovchilar ham, ergashtiruvchi bog'lovchilar ham o'z ichida bir necha ma'nno guruhlariga bo'linadi. Buni quyidagi jadvalda ko'ring:

Bog'lovchi turlari	T/r	Bog'lovchilarining turlari	Vazifasi	Bog'lovchilar
Teng bog'lovchilar	1.	Biriktiruv bog'lovchilar	Uyushiq bo'lak va bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'-lab, biriktiruv munosabatini ifodalaydi.	va, hamda bog'-lovchi vazifasida kelgan bilan ko'makchisi, ham yuklamasi
	2.	Zidlov bog'-lovchilar	O'zaro zid ma'noli uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap qismlarini bog'laydi.	ammo, lekin, biroq, lek, vale
	3.	Ayiruv bog'-lovchilar	Uyushiq bo'lak va qo'shma gap qismlarini bog'lab, ayiruv va galma-gallik munosabatini bildiradi.	yo, yoki, yoxud, yoinki, yo...yo, goh-goh, dam..dam, ba'zan...ba'zan
Ergashtiruvchi bog'lovchilar	1.	Aniqlov bog'-lovchilar	Ajratilgan bo'laklarni ajratilmish bo'-lakka, ergash gapni bosh gapga bog'lab aniqlov munosabatini bildiradi.	ya'ni, -ki (-kim)
	2.	Sabab bog'-lovchilar	Sabab ergash gapni bog'lab, ular o'rtasidagi sabab-natiya munosabatini ifodalaydi.	chunki, shuning uchun, shu sabab (dan), shu sababli, shu tufayli
	3.	Shart bog'-lovchilar	Shart, to'siqsiz hol hamda ergash gaplarni hokim bo'lak yoki bosh gaplarga bog'lab, ular o'rtasidagi shart va to'siqsizlik munosabatini ifodalaydi.	agar, basharti, mabodo, garchi
	4.	Chog'ishtiruv bog'lovchilar	Gap bo'laklari va gaplarni o'zaro bog'lab, ular o'rtasidagi bog'lanishda qiyoslash ma'nosini ifodalaydi.	go'yo, go'yoki, xuddi

Yuqorida keltirilgan bog'lovchilarining har bir ma'no turiga bir necha bog'lovchilar mansub. Har qaysi guruhga mansub bo'lgan bog'lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farq qiladi.

Biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida oddiy so‘zlashuv uslubida ko‘proq bilan (*minan*) ko‘makchisi ishlataladi. *Va, ham, hamda yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan.*

Zidlov bog‘lovchisi sifatida so‘zlashuv uslubi uchun *ammo, lekin* bog‘lovchilarining birikkan holida *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko‘proq ishlataladi. *Lekin bog‘lovchisining lek, vale (valekin) shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan.*

Ayiruv bog‘lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publisistik, badiiy uslub) dagina qo‘llaniladi. Aniqlov bog‘lovchilar faqat yozma nutq uslubida qo‘llaniladi.

Sabab bog‘lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko‘proq yozma nutq uslubida qo‘llaniladi.

Shart bog‘lovchilaridan *garchi* yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, *go ‘yo* yozma nutq uchun xoslangan.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Qanday yordamchi so‘zlar bog‘lovchi hisoblanadi?
2. Bog‘lovchilarning turlarini ayting va ularning o‘zaro farqini tushuntiring.
3. Bog‘lovchilarning uslubiy xoslanishini tushuntiring.

**352-mashq.** O‘qing. Bog‘lovchilarni topib, ma’no guruhlariga ko‘ra turini qavs ichiga yozing.

1. Ayol va ijod tushunchalari ayol va bahor kabi bir-biriga yaqin, uyg‘un. 2. Ipak kiyim-kechaklar dazmullanmasligi ma’qul, agar zarur bo‘lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig‘ir tolasidan to‘qilgan mato qo‘yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmullanadi. 3. Alla ayting, shunday aytingki, bolangiz ulg‘ayib, dunyoni mehrga chulg‘asin. 4. Qo‘zg‘al-gan kasallikni yengish uchun tirik tanda «antitanacha»lar hosil bo‘ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo‘lmasligi mumkin. 5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimiga shunchaki bakalavr emas, balki qo‘shtixtisoslikni ko‘zda tutgan bakalavr — mutaxassis zarurligini hisobga olish va barcha hujjatlarni shu yo‘nalishga moslashtirish kerak. 6. Muallifning Vatan, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot yoki lavozim ilinjiga o‘rin qolmasin. 7. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki shifokorlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. 8. Mustaqillik! Seni hayotim bilan ham, san’atim, she’rim bilan ham asrayman. (*Gazetadan*)

9.

Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo‘lsam  
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim.

(E. Vohidov)

**353-mashq.** Quyida berilgan hikoyatni o‘qing. Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarni topib, ularning turini, grammatik vazifasini qavs ichiga yozing.

## SADOQAT

Qadim zamonalarda shunday bir yurt bor ekanki, uning xalqi mehnatkash, podshosi odil, hayoti tinch ekan. Shu bois, boshqa bir mamlakatning shohi g‘ayirligi kelib, o‘sha yurtni bosib olmoqchi bo‘libdi. Biroq daf‘atan hujum qilishga jur‘at etolmay, o‘sha yurtga o‘z xufiyasini yuboribdi. Xufiya o‘sha yurtga boribdi va mulozimlari safiga kiribdi. So‘ng o‘z mamlakatiga borib, shohiga bu yurtni olib bo‘lmaslikni aytibdi. «Qal‘asi mustahkam emas, lashkari ham ko‘p emas», deb o‘zi guvoh bo‘lgan voqeani aytib beribdi:

Bir kuni o‘sha podsho shikorga chiqqan edi: men ham, yigitlar ham birga bordik. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo‘ydi. Shu bois, hammamiz unga ergashdik, biroq kiyik narigi cho‘qqiga o‘tib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Terlab ketgan podsho ro‘molcha bilan peshanasini artmoqchi edi, nogahon shamol kelib, ro‘molchani daraga uchirib ketdi. Shu sababli qirq yigitning hammasi o‘zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi mayib-majruh bo‘ldi, ammo omon qolgan bir yigit ro‘molchani olib chiqdi va podshoga topshirdi...

U yurtda bunday yigitlar ko‘p, shuning uchun ham bunaqa yurtni yengib bo‘lmaydi.

(O‘. Hoshimov)



**Topshiriq.** Siz ham yuqoridagi matnga asoslanib, «Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston» mavzusida bahs-munozara o‘tkazing.

**354-mashq.** Berilgan matnni o‘qituvchi asta-sekin o‘qiydi. Talabalar eshitganlari asosida faqat bog‘lovchilarni daftarlariiga yozadilar.

## EZGULIK URUG‘LARI

Hayotda hech narsa abadiy emas. Vaqtি kelsa, tog‘lar ham yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug‘lari toabad zavol bilmaydi. O‘g‘il-qizlarimiz biz yetolmagan orzularga erishishi, shuningdek,

biz chiqolmagan cho'qqilarni zabit etishi muqarrar, chunki ularning jo'shqin qalbida jahoniy aql va tafakkur mash'ali yolqinlanib turibdi. Keyingi yillarda ilm-fan, sport, ijod, san'at, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda erishilgan olamshumul yutuqlarimizni esga oling. Demoq-chimanki, aynan mustaqillik davrining yoshlari fidoyi mehnati va izlanish orqali O'zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda, uning obro'siga obro', shuhratiga shuhrat qo'shmoqda. Zamon ham, dunyoqarash ham o'zgaryapti. Siz bilan biz ushbu yangilanish silsilasidamiz. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, avlodlar o'rtasida o'ziga xos «ko'pri» bo'lishimiz lozim. Toki ota-bobolardan meros qolgan shu yurt, shu tuproq, shu aziz Vatanni ishonchli qo'llarga topshira olaylik.

... Maqolamga so'nggi nuqtani qo'yarkanman, hazrat Navoiyning quyidagi satrlarini yana bir bor eslagim va eslatgim keldi:

El netib topqay menikim,  
Men o'zimni topmasam...

*(N. Toshev)*

**355-mashq.** Gaplar ichidan *bilan*, *ham* so'zlarining qaysi o'rirlarda bog'lovchi, qaysi o'rirlarda boshqa yordamchi so'z vazifasida qo'llanganini aniqlang, undagi farqni tushuntirib bering

1. Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib, o'n sakkizga qadam bosganida, bo'yi ham onasiga yetayozgan, ammo jussasi onasidan ko'ra to'laroq ko'rinar edi.

2. Muloyim kishida insof ham, diyonat ham, e'tiqodga sodiqlik ham, vijdon ham, sadoqat ham — hammasi bo'ladi.

3. Ahmad Yassaviy ko'ngil va til birligini qadrlagan.

4. Binolar qurildi, biroq tadbirkorlik ishlari qanday olib borilmoqda?

5. She'r bilan kuyning hamohangligiga erishmoq zarur.

6. Ona ba'zan farzandi boshida parvona bo'lardi, ba'zan beshikka bosh qo'yanicha uxlab qolardi.

**356-mashq.** So'zlashuv uslubida ishlatalidigan *minan*, *ommo-lek*, *valek*, *lek*, *shun-chun* kabi bog'lovchilar ishtirokida gaplar tuzing. So'ngra ularni yozma nutq uslubida yozing.

**357-mashq.** Matnni o'qib, bog'lovchilarni toping, ularni tahlil qiling.

N a m u n a:

Hamdardlik — bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi.

Lekin — bog'lovchi, teng bog'lovchi, zidlov bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, 2 ta gapni bog'lash uchun xizmat qilgan.

1. Aql va farosat quyoshga o‘xshaydi, beparvolik tufayli tushish mumkin bo‘lgan dog‘larga o‘rin qoldirmaydi. 2. Mol-u davlatingiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go‘zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning. 3. Birov odob o‘rgatsa, o‘rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so‘rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir. 4. Haqiqat tikanli gulga o‘xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. («*Hikmatlar*»dan) 5. Uning goh yig‘lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo‘sinq aytgisi kelardi. (*S. Ahmad*)

**358-mashq.** Quyida berilgan fikrni izohlang. Unga hikoyat va hikmatlardan misollar keltirib, bog‘lovchilarni ham ishtirok ettiring.

Til bor, bol keltirar,  
Til bor, balo keltirar.

## ?

### *Savol va topshiriqlar*

1. Harakat nomidan keyin kelgan ko‘makchilarga misollar yozing.
2. Yanglig‘ so‘zi qaysi ko‘makchilar bilan sinonim bo‘la oladi.
3. O‘xshashlik, qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi ko‘makchilarni yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.
4. *Tufayli, chog‘li, osha, bo‘ylab, bo‘yicha, uzra, holda, yo‘sinda* ko‘makchilarasi ishtirok etgan gaplar tuzing.
5. Nutqimizda qaysi ko‘makchilar jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadi?
6. Biriktiruv bog‘lovchilari qanday vazifa bajaradi?
7. Bog‘lovchi o‘rnida keladigan qo‘sishchalarni aiting va ularga misollar yozing.
8. *Agar, garchi, chunki, go‘yo, go‘yoki, basharti, mabodo* kabi bog‘lovchilar ishtirokida gaplar tuzing, ularning uslubiy vazifasini tushuntiring.

### **Tayanch tushunchalar**

bog‘lovchilar, teng bog‘lovchilar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar, biriktiruv bog‘lovchilari, zidlov bog‘lovchilari, ayiruv bog‘lovchilari, aniqlov bog‘lovchilari, sabab bog‘lovchilari, shart bog‘lovchilari, chog‘ishtiruv bog‘lovchilari.

---

## 37-DARS. YUKLAMALAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarning yuklamalar yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirish.

Yuklamalardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

- R e j a:**
- \* Yuklamalar haqida ma’lumot.
  - \* Yuklamalar tasnifi.
  - \* Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari.

Yordamchi so‘zlar deb yuritiluvchi guruuh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular so‘z va gaplarni bir-biriga bo‘lgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi. Masalan, *faqat o‘qishni o‘ylaydi* jumlasidagi *faqat* yordamchisi *o‘qishni* so‘zini boshqalardan ayirib, bo‘rttirib, ta‘kidlab kelyapti. Shuning uchun ham bu jumla zamirida *boshqa narsani o‘ylamaydi* degan ma’no ham yashiringandir. Ana shu yashirin ma’noga ishora *faqat* yordamchisi orqali seziladi. Agar mazkur jumla tarkibidan *faqat* yordamchisini olib tashlasangiz, yuqorida yashirin ma’no ham xiralashadi.

**So‘z va gaplarga qo‘silib, ularga qo‘shimcha ma’no yuklovchi yordamchilarga yuklamalar deyiladi.**

Yuklamalarning ko‘pchiligi qo‘srimcha shaklida, ayrimlari esa so‘z shaklida qo‘llaniladi. Ana shu belgisiga ko‘ra yuklamalar ikki guruuhga bo‘linadi:

1. So‘z yuklamalar: *faqat, hatto, nahotki* kabi.
2. Qo‘srimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a (-ya)* kabi.

**E s l a t m a:** aslida, ikkinchi guruhdagi yuklamalar qo‘srimchalar ekan, ularni so‘z turkumlari tarkibida o‘rganish shartlidir, chunki so‘z turkumlariga bo‘linish uchun u, albatta, so‘z maqomiga ega bo‘lishi kerak.

Yuklamalarning qanday ma’no guruhlariga bo‘linishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin.

Yuklama-larning ma'no turlari	So'roq va taajjub	Kuchay-tiruv va ta'kid	Ayiruv-chegaralov	Gumon yuklamasi	Inkor yuklamasi
Yuklamalar	-mi, -chi, -a, (-ya)	-ku, -u, (-yu), -da, -oq (-yoq), ham, hatto	-gina, (-kina, -qina), faqat	-dir	na...na

Yuqorida keltirilgan yuklamalardan *-ku, na... na* yuklamalari yozma nutq uslubi uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari uslubiy betaraf yuklamalar sanaladi.

*Ham* yuklamasi bog'lovchi vazifasida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtida qaysi vazifada (yuklama yoki bog'lovchi vazifasida) kelayotganligini farqlash kerak bo'ladi.

Ikkita o'zaro teng munosabatga kirishgan so'zlarni bog'lab, va bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin bo'lsa, *ham* bog'lovchi vazifasida qo'llangan bo'ladi. Ham yordamchisi qo'llanilgan jumla tarkibiga *hatto* yordamchisini ham qo'llash mumkin bo'lsa, ham yordamchisi yuklama vazifasida, ya'ni o'z vazifasida qo'llanilgan bo'ladi. Solishtiring: *Soli ham Karim keldi. Hatto Karim ham keldi.*

Yuklamalardan *-mi, -gina (kina, qina), -oq (yoq)* o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoziladi. Qolganlari o'zi birikib bir so'zni kelayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Ko'p o'rinda bir yuklamaning o'rnida ikkinchisini almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, *Faqat (yolg'iz) sen kelmadning*.

E s l a t m a: *-gina (-kina, -qina)* shakllari ot, sifat, ravishga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlash uchun ishlataladi. Masalan, *ukaginam, qizgina, yaxshigina, sekingina, ko'pgina, ozgina* va boshqalar.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday yordamchi so'zlarga yuklama deyiladi?
2. Yuklamalarning bog'lovchilar bilan o'xshash va farqli tomonlarini aytинг.
3. Yuklamalarning uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarini bayon qiling.

**359-mashq.** Quyidagilarni ko'chiring. Gapga so'roq, his-hayajon, taajjub, ta'kid, kuchaytiruv, ayiruv ma'nolarini beruvchi so'z va qo'shinchalarni topib, ularning ostiga chizing.

1. O'shanda Asadbek undan norizo bo'lganida «*Illi kishi o'rniga bitta odam o'tirgani durust emasmi?*» deb o'zini oqladi. 2. Ketma-ket ravishda

ming marta, balki undan-da ko'p hariflarning kuragini yerga tekkizgan polvon agar dono bo'lsa, o'ziga bino qo'ymaydi, ming birinchi harifni ham albatta majaqlayman, deb katta ketmaydi. 3. Agar G'ilay tirsagi bilan turtib yuborsa, to'pponchasi ish bermay qolishi, hatto Bo'tqanining o'girilishga ham ulgurmasligi mumkinligini o'ylamadi. 4. «Qarg'alar sovuqdan qo'rqlmaydi-ya, men axir yigit bo'lib qolgan bo'lsam» o'yaldi Risqitilla va qarg'aga qarab «hov, hov, ha, ha» deya qo'llarini yuqoriga niqtadi. Unga beparvo qarab turgan qarg'a Risqitillaning izzat-nafsiga tegdimi, u shartta oyoqlarini etikdan chiqarib o'rikka chirmashdi-da, pichoq turgan shoxga olmaxonday lip etib chiqib oldi. 5. Yig'i aralash yerga tushmoqchi bo'ldimi, yo qirqayotgan shoxining qanchalik «joni» qolganini sinab ko'rmoqchi bo'ldimi joyidan qo'zg'alishini biladi — shox qasir-qusur qilib pastga ag'darildi. 6. Xudo asragan ekan, pichoq qor ichida naq uning yelkasi tushgan joyda yotardi. 7. Jardagi ariqlarda bir paytlar to'lib suv oqqanini bilasan-a?!

(T. Malik)

**360-mashq.** Berilgan gaplarga o'zingiz yuklamalar qo'ying. Ularning gapdag'i o'rnini va vazifasini tushuntiring. Uslubiy jihatdan qanday qo'shimcha ma'no berayotganligiga diqqat qiling.

## XOSIYAT BUVI

Xosiyat buvi nevarasini bog'chadan olib keldi, o'zini behol sezdi. Atrofida nimalarnidir javrayotgan bolaning so'zları qulog'iga kirmay, ko'z oldi xiralashib, tizzalari titradi, xontaxta chekkasiga cho'kkalab, hushidan ketdi... Bir zamon ko'zini ochsa kasalxonada yotar, yonida o'g'li, kelini termilib o'tirishardi. U bolalariga bazo'r qarab qo'ydi, ko'zlarini yumdi.

Bemorga tikilib o'tirganlarning ko'nglidagi vahima o'rnini allaqanday ilinj egallay boshladi. Xosiyat buvining o'g'li «Xayriyat!» deb chuqur nafas oldi, xotiniga nimalardir pichirlab o'rnidan turdi. Kampir o'g'lining qo'zg'alganini sezdi, lekin ko'zini ochishga quvvati bo'lmadi, yuragi o'g'lining yo'lakdan uzoqlashayotgan qadam tovushiday dukduk ura boshladi. «Otasi ham xuddi shunaqa tez-tez yurardi», xayolidan o'tkazdi u.

Bola-chaqalarining yelib-yugurib qolganidan Xosiyat buvi ahvoli ancha og'ir ekanligani tushundi. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar serqatnov bo'lib qolishdi. Gohida o'g'li, asosan, kelini boshida navbatchilik qilishardi.

Xosiyat buvining ikki singlisi bor. Kichigi shanba kuni keldi. U uyida ustalar ishlayotgani uchun tez-tez kelolmayotganidan o'kingan singlisini ko'rib o'sha kuni kech ketdi. Ertasiga yana keldi.

Xosiyat buvining o'g'li xolasining bunchalik mehri tovlanib qolganidan quvonib ketdi.

(T. Mahmud)

**361-mashq.** Matnni o'qing. Yuklamalarning ma'nosi va yozilishiga izoh bering.

## VATAN MADHI

Vatandan shirinroq hech narsa yo'q. Axir, odamlar nimaniki muqaddas deb hisoblasa, nimaniki teran mazmun bilan sug'orilgan, deb bilsa, bularning barini ularga Vatan o'rgatgan emasmi? Mayli, ko'pgina odamlar o'zga yurtlarning qudrati-yu ajoyibotidan zavqlansin, imoratlarning dabdaba-yu vasvasasiga qoyil bo'lsin, lekin hamma Vatanini sevadi. O'zga yurtlarning behisob mo'jizalarini ko'pchilik ko'rghan, ammo hech kim ularga mahliyo bo'lib o'z yurtini unutib qo'ygan emas-ku?!

Barcha odamlar Ollohdan Vatanini farovonlikda boshqa shaharlarga teng qilishni so'raydi-yu, lekin tanlashga kelganda har qancha faqir-u ko'irmsiz bo'lsa-da, faqat o'z Vatanini tanlaydi.

Vatan hamma odamlar uchun shu qadar azizki, qonun chiqaruvchilar hamma joyda eng katta jinoyatlar uchun oliv jazo sifatida Vatandan badarg'a qilishni belgilab qo'yishgan. Axir, janglarda safda turganlar uchun eng oliv, eng ulug' xitob — Vatan uchun jangga undaydigan xitobdir. Bu xitobni eshitgan hech bir odam undan bo'yin tovflashni o'ziga munosib bilmaydi-da. Negaki, «Vatan» so'zi hurkak odamga ham jasorat bag'ishlaydi.

(Lukian)

**362-mashq.** *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -ham, -u (-yu) -da, -oq, -yoq, -ki (-kim), axir, hatto, nahotki, -gina (-kina, -qina), faqat, naq, na* yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing, ularni imlo qoidalariga rioya qilib yozing.

**363-mashq.** *-chi* yuklamasi so'roq, buyruq, iltimos, xohish, ta'kid (uqtirish) ma'nolarini bildiradi. Shunga ko'ra, Siz ham yuqoridagidek hissiy bo'yoq beradigan gaplar tuzing va yozing.

Yordamchi so‘zlarga oid grammatik topishmoqlarning ma’nosiga e’tibor bering, javobini toping.

1. Yordamchi so‘z o‘zlari  
Qo‘sishimchadek so‘zlari.  
Ma’nosi nuqul so‘roq,  
Oxirida bor o‘roq?
2. Qalam bilan yozamiz,  
Men bilan sen yozamiz.  
Bunda ikki «bilan» bor.  
Bir-biridan farqi bor,  
Toping, qanday farqi bor?
3. Shu so‘zi uchun, bilan,  
Uchun ham shuning bilan  
Qachon bo‘lar bog‘lovchi?  
Misol topib ayting-chi?  
  
Bilan, uchun so‘zlari  
Qachon bo‘ladi -chun, -la?  
O‘ylab toping misollar  
Qo‘llansin -chun hamda -la
4. Bir xil so‘roqli so‘zlar  
O‘rtasida qo‘llanar  
Bog‘lovchi -la almashar,  
Belgi bo‘lib ko‘rinar?
5. Sen ham men xatni yozdik.  
Karim ham xatni yozdi.  
Bunda ikkita «ham» bor,  
Toping, qanday farqi bor?
6. Yuklamalardir -u, -yu,  
Ko‘p hunarlidir -u, -yu.  
Bog‘lovchi bo‘lar -u, -yu.  
Bog‘lovchi-yu yuklama  
Qanday bo‘ladi u, yu?

## Topishmoqlarning javobi

1. So‘roq yuklamalari.
2. Birinchi bilan — *ko‘makchi*, ikkinchisi — *bog‘lovchi*.
3. Bilan, uchun so‘zлari -*la*, -*chun* tarzida.
4. Vergul.
5. Birinchi ham *bog‘lovchi*, ikkinchisi — *yuklama*.
6. Ikki ot orasida kelsa — *bog‘lovchi*, fe’llar bilan qo‘llansa — *yuklama*.

**364-mashq.** «Matnni davom ettiring» usuli. O‘qituvchi doskaga quyida keltirilgan maqolni yozib qo‘yadi. Talabalar esa birin-ketin chiqib, bittadan gap yozib, matnni davom ettiradilar hamda talabalarning yozgan gaplari uslubiy, orfografik jihatdan qanday to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi o‘zgalar tomonidan izohlanadi.

N a m u n a: Yo ostidan ... (maqol).

## Tayanch tushunchalar

yuklama, so‘roq va taajjub yuklamalari, kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari, ayiruv yuklamalari, guman yuklamalari, inkor yuklamalari, so‘z yuklamalar, affiks yuklamalar.

---

## **38-DARS. UNDOV, TAQLID, MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIYATI**

### **38.1. UNDOV VA TAQLID SO‘ZLAR, ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** undov va taqlid so‘zlar yuzasidan o‘rtal umumiy ta’limda olgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish. Undov va taqlid so‘zlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish.

**R e j a:**

- \* Undov so‘z haqida ma’lumot.
- \* Undovlarning ma’no turlari.
- \* Uvdovlarning uslubiy xususiyatlari.
- \* Taqlid so‘zlar haqida ma’lumot.
- \* Taqlid so‘zlarning ma’no turlari.
- \* Taqlid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.

Nutq jarayonida *oh, hoy, eha, dod, voydod, pisht* singari so‘zlarni ko‘p eshitasiz.

**!** **His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ma’nolarini ifodalaydigan so‘zlarga undov so‘zlar deyiladi.**

Undov so‘zlar ham xuddi modal so‘zlar kabi qo‘srimchalar olib o‘zgarmaydi. Masalan, *hoy* so‘zi kelishik, egalik qo‘srimchalari olmaydi. Unga yasovchi qo‘srimchalar qo‘silib yangi so‘z yasalmaydi.

Ayrim undov so‘zlar otlashganda, ya’ni ot vazifasida qo‘llanganda, egalik qo‘srimchasini olishi mumkin. Masalan, *Ohi olamni tutdi*. Bu o‘rinda *ohi* nimasi so‘rog‘iga javob bo‘lib, *oh* deyishning, *nola* qilishning nomini bildirib kelyapti.

Undovlar ma’no jihatdan ikki turli bo‘ladi:

1. His-hayajon undovlari. 2. Buyruq-xitob undovlari.

Undovlar boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Ba’zan kishilarning undov so‘zlar orqali ifodalagan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so‘zlarga *demoq, solmoq, urmoq, tortmoq* singari fe’llar qo‘silib keladi va qo‘shma fe’llar hosil bo‘ladi: *voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, oh tortmoq, pisht demoq* kabi.

Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so‘z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Hay-hay, qanday mazali (rohatlanish, zavqlanish); Hay-hay, tegma (buyurish); Hay-hay, yigitlar bu yoqqa! (undash, ta’kidlash); Hay-hay, shakkoklik qilmang (fikrdan qaytarish)* va boshq.

Nutq jarayonida so‘zlovchilarning yoshi, amali nuqtayi nazaridan undovlardan foydalanish ham ma’lum darajada farq qiladi. Xususan, o‘zidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganda yoki ma’lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo‘l ostida ishlayotgan shaxslar hoy deb murojaat etmaydi yoki *balli* undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Shuningdek, undovlar og‘zaki so‘zlashuv, badiiy, qisman publitsistik uslubda keng qo‘llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qo‘llanilish doirisasi cheklangan. Ba’zan xat janrida, ma’lum voqeа-hodisalar bayoni yuzasidan o‘zaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda, undovlar qo‘llanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qo‘llanilmaydi. Sababi rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtiroslardan xoli bo‘ladi.

**Tabiatda insondan tashqari juda ko‘plab tirik jonzotlar yashaydi.** Ularda ham o‘ziga xos nutq apparati mayjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar.

! Itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, tovuqning qaqolashi hech birimizga yet emas. Bundan tashqari, tevarak-atrofimizda beedad voqeа va hodisalar sodir bo‘lib turadi: narsalar bir-biriga tegadi, uriladi. Natijada har xil ovozlar hosil bo‘ladi. Inson o‘z faoliyati davomida mana shu ovozlarga taqlid qilishga urinadi. Tilshunoslikda bunday ovozlar taqlid so‘zlar atamasi bilan yuritiladi.

Taqlid so‘zlar ikkiga bo‘linadi:

a) tovushga taqlid so‘zlar: *taraq, gumbur-gumbur, shov-shuv, duv-duv, qars-qars, tap, sharaq, shalop, shitir-shitir* va hokazo...

b) obrazga yoki holatga taqlid so‘zlar: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, lapang-lapang, dik-dik* kabi.

Taqlid so‘zlar egalik va kelishik qo‘sishchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.*

Taqlid so‘zlarining barchasidan fe’l yasaladi: *shovullamoq, gumburlamoq, dupirlamoq, qarsillamoq, yaltillamoq* kabi.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Undov so‘zlar deb nimaga aytildi.
2. Undovlarning qanday ma’no turlari bor?
3. Hoy, balli, ofarin singari undovlar kimlar tomonidan kimlarga nisbatan ishlatiladi?
4. Taqlid so‘zlarga misollar keltiring va ularning hosil bo‘lish sabablarini tushuntirib bering.
5. Tovushga taqlid so‘zlarga misollar keltiring, ularni gap ichida qo‘llab ko‘ring.
6. Obrazga taqlid so‘zlarni ishlatib gaplar tuzing, ularning qanday qo‘shimchalarni qabul qilayotganiga diqqat qiling.

**365-mashq.** Dialoglarni o‘qing. Undov so‘zlarni topib, ularning ishlatilish o‘rinlariga diqqat qiling.

Sobir uni ko‘tarib otga mindiradi.

— Chu!

— Men hayday? — so‘raydi Zulfiya

— Qo‘rqmaysanmi? Ot yomon, olib qochib ketadi.

— Meni ushla sen. Sobir uning yelkasidan ushlab oladi.

— Ketdik. Voy, chopib ketayapti-ku!

— Ot bo‘lgandan keyin chopadi-da. Qo‘rqma, tezroq haydayver.

Zulfiya haqiqiy aravakashlarga o‘xshatib:

— No-o-o! Jonivor, no-o-o! — dedi.

Ot qattiqroq chopa boshlaydi.

— Qani, men olay, — Sobir cholning qo‘lidan chelakni oldi.

— O‘hho! Muncha muzdek?

— Quduqning suvi-da, — dedi Nazir ota g‘urur bilan. — Tag‘in meshda olib keldim. Ko‘p ichmang, o‘g‘lim, tomoq og‘rig‘i bo‘lib qolasiz.

— O, Toshkent, Samarqand! — havas bilan dedi Anna-Mariya, — xorosho!

Uning oppoq tishlari marvarid donalariga o‘xshardi.

— U yerlarda bo‘lganmisiz?

Anna-Mariya yo‘q, deya boshini qimirlatdi.

— Но оччен-н, оччен-н по-биватъ...

(O‘. Umarbekov)

**366-mashq.** Quyidagi undov so‘zlarni ikki ustunga bo‘lib ko‘chiring va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzib, ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

Oh, kisht, ey, uh, mah-mah, chuh, tr-r-r, uf, bay-bay, o‘hho‘, ehe, ohho, beh-beh, obbo, voyey, pisht, qurey-qurey, tu-tu, bah-bah, iya, oho.

**367-mashq.** «Jimjitlik» romanidan olingen parchalarni o‘qing. Undov so‘zlarning ishlatalish o‘rinlarini tushuntirib bering.

— Obbo sen-ey, — dedi mehmon. — Zo‘r bolasan-da.

— Shogirdingizman-da, Hoji aka, — Rasulbek yaldoqlanib mehmonlarga yo‘l boshladи.

Hoji aka har gal taomni og‘ziga solganda Rasulbek sha’niga hamd-u sano o‘qirdi. Pazandaligini astoydil maqtardi.

— Vey, bu hunarni qaydan o‘rgangansan, palakat? Juda zo‘r ekansan-ku.

Tolibjon undan, to‘rvangda nima bor, deb so‘raganda u, ohaktosh bilan tomatdan bo‘sagan banka, keyin picha kirsovun bor deb javob berdi.

— Iya, bularni nima qilasan?

Bola juda bilag‘onlik bilan zo‘r ish qilmoqchiligin bildiradigan harakat qildi.

— Buloq tepasidagi katta qoratoshga otimizni nimada yozamiz? Ohakni bankaga solib, tepasiga sovun yaproqlar solamiz, keyin suv quysak vaqirlab qaynab ketadi. Qatiqqa o‘xshab oppoq atala bo‘ladi, o‘sha bilan toshga hammamizning otimizni yozaman.

(Said Ahmad)

**368-mashq.** O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidan olingen parchalarda ishlatiltan undov va taqlid so‘zlarga diqqat qiling, ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlang.

Bobom quruq aravani tortishga ham madori qolmagan eshagini «xix-xix»lab yo‘lga tushdi. Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim. Bobomning «a?» degani qulog‘imga chalindi.

— Pish-e! — oyog‘imga suykalgan mushukni bir tegan edim, «big» etib uch qadamcha nariga borib tushdi. Oyim dik etib o‘rnidan turdi.

— Voy-voy-voy, sodda mug‘ambirey! — ikki qo‘llab yuzimdan ushlab ko‘zlarimga tikildi.

Cholimning aytishicha tabib sigirini ham sizlab gapisarkan. «Chu» demay, «chuing» derkan.

— Shoshma, Qorako‘z, shoshma... Drr! Xop!

Ana bo‘ldi. Ketdik.

— Chu, birodar.

**369-mashq.** Quyidagi taqlid so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing, ularning ishlatalish o‘rinlarini izohlang.

Taqir-tuqur, qars-qurs, gup, takat-tum-tak, g‘ir-g‘ir, miyov-miyov, lip-lip, yalt-yult, lapang-lapang, gumbur, g‘isht, shov-shuv, dir-dir, dag‘-dag‘, pish-pish, taq-tuq.

## Tayanch tushunchalar

undov so‘zlar, his-hayajon undovlari, buyruq-xitob undovlari.

### 38.2. MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIYATI

**Darsning maqsadi:** modal so‘zlardan talabalar nutqida o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish

- Reja :**
- \* Modal so‘zlar haqida ma’lumot.
  - \* Modal so‘zlar tasnifi.
  - \* Modal so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi berilgan gaplar tarkibidagi *shubhasiz* so‘zining vazifasini aniqlang. *Shubhasiz, yangilik eskilik ustidan tantana qiladi. Sizning a’lo o’qishingiz shubhasiz.*

**2-topshiriq.** *Albatta* so‘zi ishtirokida gap tuzing. *Albatta* so‘zining gapdagi tartibini o‘zgartiring va bu o‘zgarishning gap mazmuniga ta’sir etish-etmasligini aniqlang.

So‘zlashuv jarayonida *albatta, shubhasiz, ehtimol* singari so‘zlarni ko‘p eshitasiz, lekin bunday so‘zlar borliqdag‘i narsa-hodisalar, belgi xususiyatlarini nomlamaydi. Shu bilan birgalikda yordamichi so‘zlarga o‘xshab sof grammatik ma’no ham ifodalamaydi. Bunday so‘zlar bildirilayotgan axborotga so‘zlovchining tasdiq, ishonch, guman kabi munosabatlarini bildiradi.

! **So‘zlovchining munosabatini ifodalaydigan so‘zlar modal so‘zlar sanaladi. Masalan, *Mamlakatimiz, albatta, buyuk, gullagan yurtga aylanadi*.** Yuqoridagi gapdan *albatta* so‘zini tushirib qoldirsangiz ham gapning umumiyligi mazmuniga futur yetmaydi. Lekin, ishonch, tasdiq ma’nosi bo‘rtib turmaydi. Gapga *albatta, shubhasiz* so‘zlarining qo‘shilishi bilan esa so‘zlovchining gap orqali ifodalananayotgan axborotga ishonch, tasdiq munosabati alohida ta’kidlangan holda bayon qilinadi.

Modal so‘zlarning ma’no tasnifini quyidagi jadvalda ifodalash mumkin:

Tasdiqni bildiruvchi so‘zlar	Taxmin va guman ni bildiruvchi modal so‘zlar	Afsus va ajablanishni bildiruvchi modal so‘zlar	Fikrning tartibini bildiruvchi modal so‘zlar	Umumlashti-ruvchi, yakun-lashtiruvchi modal so‘zlar
albatta, haqiqatan, darhaqiqat, so‘zsiz, shubhasiz	ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli	attang, afsuski, ajabo	avvalo, jumladan, masalan	xullas, demak, umuman

**370-mashq.** Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni topib, har bir modal so‘zning ma’nosini, gapda qanday vazifa berayotganini tushuntiring.

1. Tabiiy, xiyonatkor sultonlarning qochishi Boysung‘ur Mirzo lashkarining soniga unchalik ta’sir qilmagan bo‘lsa-da, ruhiga jiddiy zarar yetkazgani shak-shubhasiz edi.

2. Darhaqiqat, agar voqealarning kechishini diqqat bilan kuzatsak, Abu Yusuf arg‘un bilan Zuhrabegi og‘a niyatidan xabardor bo‘lgan.

3. Aytishlaricha, Shayboniy otasi Budoq Sulton bilan onasi Qo‘zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga bobosi Abulxayrxon qo‘lida tarbiya topgan.

**371-mashq.** Berilgan gaplarni ko‘chiring. Modal so‘zlarni topib ma’nosini aytинг.

1. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg‘onib ketasiz.

2. Yo‘q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o‘lchovimizga sig‘maydigan o‘z olami borga o‘xshaydi.

3. «Xayriyat!» — o‘qituvchi bosh silkidi.

4. Nachora, kuni bitgan-da, — dedi dadam tomog‘ini bo‘g‘gan ko‘z yoshidan ovozi xirillab.

5. Nihoyat, Anna xola o‘zi tutib turgan ko‘zguni etagiga artib xurjuniga tiqdi. (*O‘. Hoshimov*)

6. Darhaqiqat, xalq uchun ulug‘ ish qilyapsiz, o‘g‘lim.

7. Xullas, vodiya ham, gullar bog‘ida ham avvalgi hayotdan asar qolmagan edi. (*Sh. Rashidov*)

8. Darhaqiqat, o‘shanda ham Beruniy qilmaganini shoir Unsuriy qildi.

9. Mayli, hamma in’om, hamma boyliklar o‘shal madhiyabolzlarga buyursin!

10. Xullas kalom, mana, yaqin uch oydirki, maxfiy elchi yo‘lda emas, ikki o‘t orasida!

11. Durust, mana yigirma yildirki, bu takabbur hakim bizga xizmat qilishdan bosh tortdi.

12. Binobarin, bu naql ko‘p purhikmat naqlidur!.. (*O. Yoqubov*)

13. Garchi, to‘satdan dimog‘-firog‘ paydo qilgan «allomayi zamon»ning bema’ni qiliqlarini kechirishga majbur bo‘lsa ham, ichida undan kular, nazarida, «shayxulrais» bir necha daqiqadan keyin o‘ziga kelib, mo‘minlashib qoladigandek tuyulardi. (*O. Yoqubov*)

**372-mashq.** «Ming bir hadis» kitobidan olingan hikmatlarni o‘qing, ulardan bir nechtasini yod oling. Modal so‘zlarni topib, ma’nosini aytинг.

Olloha eng yomon ko‘rinadigan odam, avvalo, gina va adovatni uzoq saqllovchi odamdir. Kimningki g‘azabi kelsa, so‘zsiz, jim bo‘lsin. Birinchidan, olim (ilm beruvchi) bo‘l yoki ilm o‘rganuvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, afsuski, unda halok bo‘lasan.

Ikkinchidan, agar yaxshililing seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan.

Kimgaki (Olloh tomonidan) aql-u idrok berilsa, binobarin, u najot topadi.

Uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni shaksiz, kamaytiringlar.

Umuman olganda, baxtli kishi fitnalardan yiroq bo‘lgan va musibat yetganda sabr qilgan kishilardir.

---

## 39-DARS. SO‘ZLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI. SODDA VA QO‘SHMA SO‘ZLAR, ULARNING USLUBIYATI

**Darsning maqsadi:** so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari bo‘yicha tabalabarning o‘rtal umumiy ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish.

**R e j a:**

- \* So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.
- \* Qo‘shma so‘zlar, ularning sodda so‘z hamda so‘z birikmasidan farqi.
- \* Qo‘shma so‘zlar bilan sodda so‘zlar sinonimiyasi.

✓ **Topshiriq.** «Imlo lug‘ati»dan qo‘shma so‘zlarga o‘nta misol keltiring. Qo‘shma so‘zlarning sodda so‘zlardan farqini ayting So‘zlar tuzilishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. Sodda so‘zlar. 2. Qo‘shma so‘zlar. 3. Juft va takroriy so‘zlar.

! **Faqat bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlar sodda so‘zlar hisoblanadi.** Masalan, *keldi, yondirishdi, yigitlarga, g‘allachilik, lalmikor, yettinchi, o‘rikzor* kabi.

! **Ikki va undan ortiq o‘zaklardan tashkil topgan so‘zlar qo‘shma so‘zlar sanaladi.** Masalan, *shirinzabon, muzqaymoq, ishlab chiqarish, kungaboqar* kabi.

Qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida aslida ikki va undan ortiq so‘zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazardan bu birikuv o‘z kuchini yo‘qotib bir so‘zga aylanib qolgan bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shma so‘z tarkibida alohida so‘z bo‘lib ko‘ringan qismlar (*kunga-boqar, beshik-tervatar, nomoz-shom-gul*) hozirgi o‘zbek tilida so‘zlik xususiyatini yo‘qotgan, bir so‘z tarkibidagi ma’noli qism (morfema)lar sanaladi.

Qo‘shma so‘zlar bitta so‘z bo‘lganidan, ularning qismlari orasiga boshqa ma’noli qismni kiritib bo‘lmaydi. Masalan, *kungaboqar* so‘zining *kunga* qismidagi *-ga* ni boshqa kelishiklar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shuningdek, bu qism egalik, ko‘plik shakllarini ham olmaydi. Ana shu xususiyati bilan so‘z birikmasidan va sodda so‘zning ko‘makchi fe’lli shaklidan farq qiladi. Solishtiring: *uxlab chiqdi — uxlamay chiqdi; kunga qaradi — kun qaradi* (so‘z birikmasi). Qo‘shma so‘zlar qismlari birikib bitta so‘zning tarkibiga aylangani uchun ular ko‘pincha sodda so‘zlar

bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi. Masalan, *o’sal qilmoq — uyaltrimoq*, *oq qilmoq — haydamoq*, *bayon qilmoq — so‘zlamoq*; *kamchiqim — pishiq*, *shifobaxsh — dori*, *hamnafas — yaqin* va boshqalar.

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. Sodda va qo‘shma so‘zlarning o‘zaro farqini ayting.
2. Qo‘shma so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatini bayon qiling. So‘z birikmasidan farqini ayting.

**373-mashq.** Yasama sodda so‘zlarga, shuningdek, qo‘shma so‘zlarga misollar yozing.

**374-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi usul bilan hosil qilinganligini aniqlang. Uni sodda so‘zlar bilan almashtirib ko‘ring.

...Xatlibegin qo‘lidagi tasbehini xontaxtaga qo‘yib, piyoladagi sharbatdan bir ho‘pladi.

— Mavlono! Men sho‘rlik sizni yo‘qlab kelishdan murodim, xabarlingiz bor, valine’mat davlatpanoh, — iloyo umri uzoq bo‘lg‘ay! — og‘ir dardga chalinmish. Saroy to‘la alloma, mushkul kalom, dovrug‘i jahon hakimlar, biroq sho‘rlik og‘am o‘z yog‘ina o‘zi qovurilib yotmish! Dardiga davo, ko‘ngliga orom berguvchi na bir habibi bor, na bir tabibi. — Xatlibegin harir durrasining uchini ko‘ziga bosib, piq-piq yig‘lab yubordi. — Olampanohning dardiga davo qidirish o‘rniga saroyda ig‘vo, fisq-fasod! Inongan tog‘lari Ali G‘arib bilan Abul Hasanak bo‘lsa martaba talashishdan boshqani bilmas. Davlatpanoh olamdan o‘tsa, iloyo, bichgan kafanlari o‘zlarig‘a buyurg‘ay! — taxtga kim o‘ltiradi? Shundan boshqa tashvishlari yo‘q ularning! To‘ng‘ich o‘g‘il amir Mas‘ud qolib, kichik o‘g‘il, aqli noraso Muhammadni taxtga ko‘tarmoq rejasini tuzadurlar!

(O. Yoqubov)

**375-mashq.** O‘qing, yasama so‘zlarni topib, ularning o‘zagi va qo‘shimchalarini aniqlab yozing.

1. Tushlik o‘tib, ikki soatlik majburiy hordiq tamom bo‘lgandan keyin kasalxona gavjum bo‘lib ketadi.
2. Karavot simlari asabiy g‘ijirlab ketdi.
- Shunda to‘satdan yuragi tez-tez gursullab ura boshladi.
3. Shunday qildiki, yupqa gardishli ko‘zoynagi silib ketdi.
4. Mashina qora oqqushdek yengil suzib borar, yon derazadan bahor shabadasi shiddat bilan yopirilib kirar.
- Sirojiddinning siyrak sochlari peshanasiga tushib, ora-chora ko‘z o‘ngini to‘sib qo‘yardi.
5. U zina oldiga yetganda qo‘ng‘iroq uzoq asabiy jiringladi.
6. O‘rtta Osiyoda Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘illar lashkariga

qiron keltirgan. 7. Asfalt yo'lkaning bir chekkasida paxtalik chopon kiyib olgan mallasoch kishi o'tirardi. 8. Doshqozonga olov yoqilgan, kabobpaz sixlarini ko'raga tergan, boyagi qassob bola allaqachon qo'yni tinchitgan edi. 9. Chapdast bir yigit ko'zлari yulduzdek chaqnab turgan oppoq otning jilovidan mahkam tutib, darvozadan olib kirdi.

(O'. Hoshimov)

**376-mashq.** «Imlo lug'ati»dan foydalanib, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarga 20 ta, qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlarga 20 ta so'z yozing, ularni izohlang.

**377-mashq.** Uyga topshiriq. «Kunlarning birida» nomli qisqa hikoya yozing, unda qo'shma so'zlardan ham foydalaning.

**378-mashq.** Yusuf Xos Hojib yozib qoldirgan quyidagi baytni bahsmunozaraga aylantiring.

Til arslon turur, ko'r, eshikda yatur,  
Aya, evlug, arsiq boshingai eyur.

M a z m u n i:

Til hovli (qafas)da yotgan arslon kabidir,  
Ey, uy egasi, qafasdagi makkor vahshiy boshingni yeysi.

**379-mashq.** Sintaktik usul bilan yasalgan so'zlarni ko'chiring, yasalishi va imlosini tushuntiring.

Jigarpora, jinoyatchilik, idrokli, ibodatxona, kamolot, majnuntol, mardikor, masxaraboz, noahil, oshxamir, oqpadar, sassiqpopishak, ohaktosh, xonavayron, chilonjiyda, Sirdaryo, toshbaqa, Qoraqurt, Oyko'l, qolipli, Quvasoy, serg'ayrat, temiryo'l, g'o'zapoya, qultum.

### **Tayanch tushunchalar**

sodda so'zlar, sodda tub so'zlar, sodda yasama so'zlar, qo'shma so'zlar, just so'zlar, takroriy so'zlar.

---

## **40-DARS. JUFT VA TAKRORIY SO‘ZLAR HAMDA ULARNING SINONIMIYASI. QISQARTMA SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **40.1. JUFT VA TAKRORIY SO‘ZLAR HAMDA ULARNING SINONIMIYASI**

!

**Ikki so‘zni yonma-yon qo‘sish yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar juft so‘zlar sanaladi.** Masalan, *qishin-yozin*, *erta-kech*, *bugun-erta* va boshqalar. Bunday so‘zlar ko‘pincha yangi ma’noga ega bo‘ladi va sodda so‘zlar bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi: *qishin-yozin-doimo*, *erta-kech-hamisha*, *bugun-erta-(yaqinda)*. Yoki umumlashtirish ma’nosini ifodalaydi: *idish-tovoq* (*ro‘zg’or buyumlari*), *qalam-daftar* (*o‘quv quroli*), *ko‘ylak-lozim* (*sarupo*) kabi.

Juft so‘zlar doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi. Bu qismlar zid ma’noli so‘zlardan (masalan, *erta-kech*, *oldin-ketin*, *ochin-to‘qin*, *ostin-ustun* kabi) yoki o‘zaro yaqin ma’noli so‘zlardan (*er-xotin*, *idish-tovoq*, *taxta-o‘qlov*, *oshiq-ma’shuq* kabi) tashkil topadi.

1. Sodda so‘zlar bilan sinonim bo‘lgan juft so‘zlarda tasviriylik, ta’kid ma’nosini kuchliroq bo‘ladi. Masalan, *qishin-yozin tinmaydi* jumlesi *doimo tinmaydi* jumlasiga nisbatan tasviriyroq, ta’sirchanroqdir. *Non-pon*, *choy-poy*, *katta-katta*, *tez-tez*, *sovugdan sovuq*, *dam-badam*, *so‘zma-so‘z*, *uncha-muncha* kabi so‘zlar takror so‘zlar sanaladi.

Juft va takroriy so‘zlardan o‘rinni foydalanish nutqning ifodaliligini, ta’sirchanligini oshiradi. Yuqorida takrorlangan yoki juftlashgan so‘zlarda ko‘pincha yangi ma’no hosil bo‘ladi: *nari-beri* (*tez*), *uncha-muncha* (*sal*, *oz*) kabi. Ba’zilari esa so‘z ma’nosini kuchaytirish, ta’kidlash, umumlashtirish uchun ishlataladi: *tez-tez* (tezlikni kuchaytirish), *sira-sira* (ma’noni ta’kidlash), *tun-kun* (umumlashtirish) kabi.

So‘z takrorida qismlar turli shaklda bo‘ladi, shunga ko‘ra ular quyidagi turga bo‘linadi:

1. Har ikki qism bir xil shaklda: *tog ‘-tog ‘*, *tez-tez*, *ko‘p-ko‘p* kabi.
2. Birinchi qism chiqish kelishigida, ikkinchi qism bosh va jo‘nalish kelishigida: *ko‘pdan ko‘p*, *naridan beri*, *yildan yil(ga)* kabi.

3. Birinchi qism bilan ikkinchi qism o'rtasida *ba*, - *ma* qo'shimchalari qo'yiladi: *yuzma-yuz*, *qadam-baqadam*, *dam-badam*, *eshikma-eshik* kabi.

4. Ikkinci qismning birinchi tovushi fonetik o'zgarishga uchraydi: *osh-posh*, *ora-chora*, *odam-podam* kabi.

Juft va takroriy so'zlar qismlari o'rtasiga yozuvda chiziqcha qo'yiladi.

Takroriy so'zlar qismlari o'rtasida -*ma*, *ba*-qo'shimchalari qo'yilganda -*ma* birinchi qism oxiriga, *ba*- esa ikkinchi qism boshiga qo'shiladi. Masalan, *orgama-ketin*, *dam-badam*, *zo'r-bazo'r*, *zinhor-bazinhor* kabi.

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasalganda, ular quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi:

1. Ot-ot (*qator-qator*, *tun-kun*, *yildan yilga*).
2. *Sifat-sifat* (*uzundan uzun*, *ochiqdan ochiq*).
3. Fe'l-fe'l (*uzil-kesil*, *turib-turib*, *qo'sha-qo'sha*, *qo'yarda-qo'ymay*, *bilinar-bilinmas*).
4. Olmosh-ravish (*oldinma-keyin*, *nari-beri*).
5. Olmosh-olmosh (*o'z-o'zidan*, *o'z-o'zicha*, *o'zidan o'zi*).
6. Son-son (*birma-bir*).
7. Taqlid so'z-taqlid so'z (*taqa-taq*, *shart-shurt*) va boshqalar.

## ?

### *Savol va topshiriqlar*

1. Juft so'z deganda nimani tushunasiz?

2. Takroriy so'z deganda-chi?

3. Juft va takroriy so'zlar sodda so'zlardan ma'no jihatdan qanday farq qiladi?

4. Juft va takroriy so'zlar qanday yoziladi?

**380-mashq.** Quyidagi sodda so'zlardan juft so'zlar hosil qilib yozing.

Erta — ..., shak — ..., olib — ..., ora — ..., apoq — ..., azob — ..., do'st-u..., el — ..., aql — ..., oxir — ..., o'g'il — ..., ota — ..., bo'm — ..., rang — ..., toat — ..., qiy — ..., savol — ..., er-u ..., yosh — ..., kir — ..., kayf — ..., uch — ..., kuch — ..., katta — ..., past — ..., bog' — ..., turli — ..., qiyin — ..., to'y — ..., oyoq — ..., yot..., or — ... .

**381-mashq.** 2 guruhga bo'lining. I guruh zid ma'noli juft so'zlarga, II guruh esa o'zaro yaqin ma'noli juft so'zlarga misollar yozsin. Qaysi guruh belgilangan vaqt ichida ko'p va to'g'ri so'z topa olsa, o'sha guruh g'olib deb topiladi. (Musobaqani davom ettirmoqchi bo'lsangiz juft so'zlar ishtirok etgan she'riy misollar ham yozing).

N a m u n a:

I. Zid ma'noli  
kecha-kunduz

II. Yaqin ma'noli  
ota-on

**382-mashq.** Bir nechta so‘zlar yozing hamda ularning qaysi sodda so‘z bilan sinonim bo‘lishini ham izohlang.

N a m u n a: katta-kichik (hamma).

**383-mashq.** Quyidagi jadvalni juft so‘zlar bilan to‘ldiring.

Har ikki qismi ham bir xil	Ikkinchchi qism birinchi qismning fonetik o‘zgari-shiga uchragan	Birinchi qism chiqish kelishigida bo‘lgan	Takrorlanuvchi qismlar o‘rtasida -ba, -ma ishlataladigan

**384-mashq.** Ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan juft so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.

**385-mashq.** Gazetadan olingan quyidagi gaplarni ko‘chiring. So‘zlarning juft va takroriy shakllarini toping, ularning tuzilishini va grammatik ma’nolarini aniqlang.

1. Yigitning ukasi kelib, qo‘yarda-qo‘ymay kasalxonaga borib kelishimni iltimos qildi. 2. Azizlar! Bir kuni kelib afsus-nadomatning zaharli sharobini ichmaslik uchun qo‘lning kiri bo‘lgan mol-mulkni odamdan, insoniy qadr-qiyamatdan yuqori qo‘ymaylik. 3. Yakshanba kuni birin-ketin, o‘g‘il-qiz, nevara-kelinlar yig‘ila boshlashdi. 4. Yaqinda tumanimizdagi 54 ta bolalar bog‘chalarida ko‘rik-tanlov o‘tkazildi. 5. Yig‘ilishda hayotiy tajribasi va obro‘-e’tibori bilan yurtimizda tanilgan keksalar ishtirok etdilar. 6. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov majlisda so‘zlagan nutqlarida yigit-qizlarning oldiga jamiyatda munosib o‘rin egallah, o‘z aql-zakovati, kuchi-qudratini to‘la namoyon etishdek mas’uliyatli vazifani qo‘ydi. 7. To‘qqiz yil oldin bo‘lib o‘tgan voqeahodisalar negadir tez-tez esimga tushadi. 8. Gazetamizda «Ota-onamdan olgan saboqlarim», deb nomlangan pand-nasihat tarzidagi rukn ochilsa. («Oila va jamiyat» gazetasidan)

**386-mashq.** Quyidagi berilgan juft so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.

El-yurt, choynak-piyola, tun-kun, opa-singil, o‘rin-joy, asta-sekin, uzoq-yaqin, tasir-tusir, oyoq-qo‘l, zavq-shavq, meva-cheva, afsus-

nadomat, qovun-tarvuz, og‘iz-burun, teri-tanosil, sarf-xarajat, tog‘-u tosh, to‘y-tomosha, ota-yu ona.

**387-mashq.** «Men endi 17 yoshdaman» mavzusida matn tuzing. Uni bahs-munozaraga aylantiring.

**388-mashq.** Bir so‘zni qayta qo‘llash orqali hosil bo‘lgan juft so‘zlarga misollar yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a: paydar-pay, tog‘ma-tog‘... Ma’ruzachiga paydar-pay savollar berila boshlandi.

**389-mashq.** Berilgan xalq hikmatlarini o‘qing. Yosh olim Najmuddining har bir javoblarini izohlab bering.

### YOSH DONISHMAND

O‘zga mamlakatlardagi ne-ne madrasalarda ta’lim olib, vataniga qaytgan Najmuddinni podshoh boshliq saroy ahli mudarrislikka tayinlashdan oldin sinovdan o‘tkazishdi:

- Ayting-chi, ey o‘qimishli zot, dunyoda eng jasur inson kim?
- Farzandi himoyasiga bel bog‘lagan ayol, — javob berdi yosh olim.
- Dunyoda eng sertashvish odam kim?
- Farzandi kelajagi uchun kuyib-pishadigan ona!
- Olamda eng go‘zal mavjudotni aytib bera olasizmi?
- Bolasini erkalatayotgan ayoldan go‘zalroq mavjudot yo‘q.
- Eng hayotbaxsh qudrat egasi kim?
- Avval Olloh, so‘ng ayol...

Shoh maxsus farmon bilan Najmuddinni bosh vazir etib tayinladi.

## 40.2. QISQARTMA SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarning qisqartma so‘zlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Qisqartma so‘zlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

**R e j a:**

- \* Qisqartma so‘zlar haqida ma’lumot.
- \* Qisqartma so‘zlar va ularning to‘liq varianti o‘rtasidagi munosabat.
- \* Qisqartma so‘zlarni hosil qilish yo‘llari.

**Inson o‘z faoliyatida doimo oz mehnat sarflab, ko‘proq natijaga erishishga urinadi. Bunda nutqiy faoliyat natijasida bir qancha barqaror birikmalarni qisqartirish yo‘li bilan qisqartma so‘zlar vujudga keladi va bu bilan nutqiy ixchamlikka erishiladi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* — BMT, Ichki ishlar boshqarmasi — IIB kabi.**

Qisqartma so‘zlarga **abbreviatura** ham deyiladi. Darhaqiqat, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* deyishdan ko‘ra, BMT deyish ixchamroq.

Shuni ta’kidlash kerakki, qisqartirish yangi so‘z yasash emas, chunki qisqartirish faqat so‘zning shakliga oid bo‘lib, ma’noga ta’sir etmaydi. Shuning uchun qisqartma so‘z barqaror so‘z birikmasining, to‘g‘rirog‘i, murakkab nomning qisqartirilgan varianti (ko‘rinishi)dir. Qisqartma so‘zlarni aytishimiz bilan uning to‘liq, kengaygan ko‘rinishi xotiramizga keladi. Masalan, *DTM—Davlat Test markazi*, *DTS* — *Davlat Ta‘lim standartlari*.

Qisqartirish turli yo‘l bilan amalga oshiriladi.

1. Barqaror so‘z birikmasi qismlarning birinchi tovushlari (yozuvda harflari) asosida: *BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)*, YTRK («Yoshlar» teleradio kanali) kabi.

2. Barqaror so‘z birikmasi birinchi qismining birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning birinchi tovushlari (harflari) asosida: *O‘zROAK (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi)*, *O‘zAS (O‘zbekiston Adabiyoti va san‘ati)*.

3. Barqaror so‘z birikmasi birinchi va ikkinchi qismlarining birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning to‘la ko‘rinishi: *O‘zmashxolding*.

4. Birinchi qismning birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning to‘la ko‘rinishi: *O‘zmevaxolding*, *O‘zdunrobita* kabi. Mustaqillik davrida Respublikamizning boshqa davlatlar bilan munosabatining kengayishi, yangi qo‘shma korxonalarining ko‘payayotganligi tilimizni ham turlituman qisqartma so‘zlar bilan boyitmoqda. Masalan, *O‘zmashxolding*, *Anteks*, *Kibo* kabi. Qisqartma so‘zlar asosan, yozma nutq uslubiga xosdir. Bunday so‘zlar dastlab yozma nutq uslubida vujudga keladi va nutqimizda faollashib, hamma uchun tushunarli bo‘lgandan so‘ng keyinchalik og‘zaki so‘zlashuv uslubiga o‘tadi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Qisqartma so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
2. Qisqartma so‘zlar qanday usullar bilan hosil qilinadi?
3. Mustaqillik davrida vujudga kelgan qisqartma so‘zlarga misollar keltiring va ularni kengaytiring.

**390-mashq.** Quyidagi qisqartma so‘zlarni barqaror birikmalarga aylantirib yozing.

AQSH, DTM, O‘zavtotrans, Toshshaharloyiha, XXR, IIV, O‘zA, AYQSH, TMU, AndMII, EXHT, MDH, O‘zMU, SamDU, TDIU.

**391-mashq.** Gaplarni o‘qib, qisqartma otlarni toping. So‘ng ularni kengaytirib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

Samarqandda, Turkiyaning «Koch Xolding» konserni rahbariyati hamda O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi — «O‘zavtosanoat», «SamKOCh-avto» o‘zbek-turk qo‘shma korxonasida «Otayo‘l» rusumidagi o‘rtacha avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqarilmoqda. «O‘zDEUavto» O‘zbekiston—Janubiy Koreya qo‘shma korxonasida «Matiz» avtomobillarini ishlab chiqaradigan yangi liniya ishga tushdi.

O‘zbekiston 1992-yilning 2-mart kuni jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot BMTga a’zo bo‘ldi.

MTDP 1995-yilning 3-iyun kuni ta’sis etilgan. Respublikamizdagи O‘zMU, SamDU, TDPU, FarDU, TDTU, TDYI, ADU, BuxDU, NamDU, TerDU kabi oliy o‘quv yurtlarida xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun yetuk malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Oliy o‘quv yurtlariga talabalar qabul qilish ishlari DTM tomonidan yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda.

**392-mashq.** Qisqartma otlarni kengaytiring. So‘ngra daftaringizga ko‘chirib oling.

O‘zMU, MDH, YPX, MXQ, MOQ, YTRK, Toshqishmash, teleradiokompaniya, biofak, matfak.

**393-mashq.** Quyidagi qisqartma otlarni daftaringizga ko‘chirib oling va ularni yodda saqlab qolishga harakat qiling.

UNESKO — BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (inglizcha so‘zlarning birinchi harflari olingan).

YXHT — Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti.

XTH — Xalqaro guumanitar huquq.

JIMT — Jahon Intellektual multk tashkiloti.

IHT — Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti.

«O‘zdonmahsulot» — O‘zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari konserni.

O'zDJTU — O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti.  
TAI — Toshkent aviatsiya instituti.  
TAICHB — Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi.  
IIB — Ichki ishlar bo'limi.  
XDP — Xalq demokratik partiyası.  
AJ — aksionerlik jamiyati.  
QK — qo'shma korxona.  
FTDQ — Fan va texnika davlat qo'mitasi.

### **Tayanch tushunchalar**

barqaror so'z birikmalari, qisqartma so'zlar, abbreviaturalalar.

# **HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI**

*3 - KITOB*

---

## **1-DARS. FONETIKA VA LEKSIKOLOGIYA YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH**

**1-mashq.** She'rni o'qing. Unda ishtirok etayotgan unli va undosh tovushlar asosida fonetika bo'limi yuzasidan o'tilganlarni eslang va shu haqda babs yuriting.

Mulki borliq ichra bir mahal,  
Ko'rksizgina olam yaralgan.  
Bermoq uchun dunyoga sayqal,  
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin,  
Shu yer uzra ter to'kar hamon.  
Yerni go'zal qilgani sayin,  
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

(*Erkin Vohidov*)

**2-mashq.** Fe'lning vazifadosh shakllarini topib, ularni izohlang.

Kasbi doim taqir-tuqrur,  
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

(*Laylak*)

Dam oladi kunduzi,  
Xonadonning yulduzi.

(*Lampochka*)

Kechasi ochilur,  
Osmonga sochilur.

(*Yulduz*)

Uch ko'zli, qarang,  
Yonar rang-barang.

(*Svetofor*)

Yer kabi dumaloq,  
O'zi esa o'yinchoq.

(*Koptok*)

Osmonda u yaraqlab,  
Kulib turar charaqlab.

(*Quyosh*)

Sovuqni sovuq saqlar,  
Issiqni issiq.

(*Termos*)

Qulochida qo'sh-qo'sh halqa,  
Xizmat qilar charchamay xalqqa.

Kulib turar misoli oftob,  
Hamrohidir chang, tor, nay, rubob. *(Doira)*

Qizdirsang ishlar,  
Kiyim tekislar. *(Dazmol)*

O't-olovni tishlaydi,  
Og'zi kuyib pishmaydi. *(Otashkurak)*

Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar. *(Shamol)*

**3-mashq. Gaplarni o'qing, unli tovushlarni topib, ularga tavsif bering.**

Majburan qilingan yaxshilikning qimmati yo'q.

*D.I. Pisarev.*

Yasama ezgulikdan yomoni yo'q. Oshkora yomonlikka nisbatan yasama ezgulikdan inson ko'proq nafratlanadi.

*L.N. Tolstoy.*

Saxiylik ko'p ehson berishda emas, balki uni o'z vaqtida berishdadir.

*J. Labruger.*

Kimki yaxshilik qilaman deb haddan tashqari uzoq muhokama yuritsa, yaxshilik qilishga vaqt qolmaydi.

*R. Tagor.*

Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak: har qanday paysalga solish bema'nilik va ko'pincha xavflidir.

*M. Servantes.*

**4-mashq. Tez aytishlarni mashq qilib ko'ring. Undosh tovushlarni belgilab, ularga tavsif bering.**

## TEZ AYTISH

Tez aytish og'zaki nutq mashqi bo'lib, kichik yoshdagi bolalarda ma'lum tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Bu janrga mansub asarlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, xotiralarini mustahkamlaydi.

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir.

Moshdan tosh, toshdan mosh bo'lmas.

Chumchuq chug'urchiqni cho'qimasa,  
Chug'urchiq chumchuqni cho'qimaydi.

Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.

Boqi bog'ga, Soqi tog'ga bordi.

Saodat soatini soatsozga sozlatdi.

Qo'sh qo'lqop, qo'shovi ham bo'sh qo'lqop.

Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi.

**5-mashq.** So'zlardagi tovush o'zgarishlariga e'tibor bering, shunday o'zgarishni ta'minlayotgan tovushlarni belgilab, ularni tahlil qiling.

### Buzilgan satrlar

Qimmat kamarini bog'ladi.

Maza mudiri.

Otarchi-ashulchi.

Pulliklinika.


Davomli tarsakilar.

Magazin sog'uvchisi.

G'ovg'alar magazini.

Sersuv sigir.

**6-mashq.** Fonetikaga oid qiziqarli grammatik o'yin. Maqolni toping, tovushlarni izohlang.



1. Tug'ilgan yer, yurt – 1, 2, 3, 4, 5.
2. Uyga, xonaga kirish joyi – 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12.
3. Kelishik qo'shimchasi – 13, 14, 15.
4. Gavdaning yuqori qismi – 16, 17, 18.
5. Fe'l yasovchi qo'shimcha – 19, 20.
6. Alifbodagi harf – 21.
7. Fe'l zamonini yasovchi qo'shimcha – 22, 23.

**7-mashq.** Matnni o‘qing. So‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llarini topib, izohlang.

## ETIKDO‘Z TOPILMASI

...Ishni boshlash uchun toshni ko‘mir va alif moyi bilan qizdirdi, lekin bunday qilingani bilan «negadir» oltin ajralib chiqavermadidi. Birdan tajriba ro‘y-rost ishonarli natijalarga olib keldi: qizdirib sovitilgan mahsulot to‘q qizil rangga kirdi.

Odamlar bilan tez chiqishib ketadigan Kassiarolo o‘zining alximik hamkasblaridan bu ajoyib tosh sirini ham yashirib o‘tirmadi. Bu shovshuvli xabar oltin izlovchi yor-u birodarlarini qidiruv talvasasiga solib qo‘ydi: «Quyosh tosh», «Bolonya toshi», «Bolonya chaqnoqtoshi» kabi turli nomlarni olgan mineral har xil reaksiya va tajribalarning manbayi bo‘lib qoldi. Vaqtlar o‘tdi, ammo oltin mineraldan ajralishni istamasdi, shundan so‘ng unga bo‘lgan qiziqish ham sekin-asta so‘ndi.

Faqat oradan bir yarim asr o‘tgach, 1774-yili mashhur shved kimyogarlari Karl Sheyele va Yuxan Ganlar «Bolonya toshi»ni har tomonlama tekshirishdan o‘tkazdilar. Bu tuproq avvaliga barot, keyinchalik esa barit (grek tilida «baros» — og‘ir, demakdir) nomini oldi. Uni tashkil qilgan metall esa bariy nomi bilan atala boshladи.

**8-mashq.** Matnni o‘qing. «Uzum» so‘zining ishlatilish o‘rinlariga e’tibor bering. So‘ng ularni izohlang.

## UZUM UCHUN NIZOLASHGAN TO‘RT ODAM

Bir odam yo‘lda ketayotgan to‘rt kishiga bir dirham pul berdi. Biri fors, biri arab, biri turk va yana biri yunonlik bo‘lgan bu to‘rt kishi bir-birining tilini tushunmas edilar. Ular o‘zaro janjal qilardilar, chunki fors bu pulga (bir dirhamga) «angur» (uzum) olamiz, desa, arab: «yo‘q, angur kerakmas, inab (uzum) olamiz», derdi. Turk bo‘lsa: «Ey do‘sstar, men inab yemayman, men «uzum» yemoq istayman», deb turib oldi. Yunonistonlik bo‘lsa: «Uzum ham, inab ham, angur ham yemayman, men «istofil» (uzum) xohlayman», deb darg‘azab bo‘ldi.

Bu to‘rt odam nomlar ma’nosini tushunmaganlari uchun bir-birlari bilan janjal qilardilar. Ular bilimsizlik va til bilmaslik oqibatida mushtlashib ketdilar.

Agar ular orasida yuz tilni biladigan, sirdan voqif bir aziz bo‘lganda edi, ularni yarashtirgan bo‘lardi va ularga qarab: «Men bir dirham bilan barchalaringizning istaklarining qondiraman, chunki sizlar ko‘pchiliksiz, dirham esa bitta, ammo shu bir dirham ko‘p hunar ko‘rsata oladi: u ajratadi va birlashtiradi ham. U sizlar uchun urish va ajralishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, mening aytganlarim tufayli sizlarga nifoq emas, ittifoq keltiradi.

Bas, sizlar jim bo'linglar, sizlarning tillaringiz men bo'layin», degan bo'lardi va bozordan uzum sotib olib berib, ularni tinchitardi. Ular uzumni ko'rganda, fikrlarining bir ekanligini anglab tinchirdilar va yarashardilar.

**9-mashq. Matnni o'qing, ajratilgan so'zlar qanday ma'no bildirayotganini toping, ularning boshqa ma'nolari ustida ham o'ylab ko'ring.**

Sharqda qadimiy bir ta'limot bor. Bu tasavvuf **ta'limoti**. Bu ta'limotning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalash, ya'ni shaxsni tarbiyalashdan iborat. Demoqchimizki, biz ertangi kun baxti uchun kurashar ekanmiz, ilm **izlab** unchalik uzoqqa borishning hojati yo'q, dastavval o'zimizni o'tganishimiz lozim.

Bugun ma'naviyat, mafkura **daylat** siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta, bu tabiiy ehtiyoj tufayli sodir bo'ldi. Zero, ma'naviyat shunchalik keng **jabhaki**, u oddiy inson qalbini poklashdan tortib, butun jamiyatni poklashgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Bu borada, ayniqsa, bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarga **teran** tushuntirishlar berib borish kechiktirib bo'lmas vazifadir.

Darhaqiqat, **muammo** qo'yish oson. Uni hal qilish qiyin, faqat bu muammoni **yechishning** bittagina yo'li bor: **birdamlik, hammaslaklik, hamkorlik**.

**10-mashq. Matnni o'qing. Ma'nosini ko'chirilgan so'zlarni topib, ularni izohlang.**

### «MATBUOT» PAYROVI

Q a t n a s h a d i l a r: Abdulhay Mahsum Qozoqov, Hasanboy Sultonov, Nasrulla Aliyev.

M a h s u m a k a: Ajoyib zamonda yashayapmiz. Matbuot kirib bormagan deyarli biron ta'sir xonadon yo'q. Matbuot sabab dunyo voqealaridan, fan va texnika yangiliklaridan o'z vaqtida xabardor bo'lib turamiz. Mana, Nasrulla ham «Toshkentdan gapiramiz» deyapti...

N a s r u l l a: Mahsum aka, men Toshkentdan gapirsam, har holda poytaxt yangiliklaridan xabar beraman, ammo shogirdingiz Hasanboy ko'zgudan nari ketmaydi, nima u «Reklama»mi?

H a s a n b o y: Nasrulla aka, ko'zgudan nari ketmay, ust-boshimni tartibga solib turishimga hayron bo'limang, men «Postda»man.

N a s r u l l a: Hasanboy, maqtanib «Matbuot birlashmasi»daman, istagan iltimosingizni bajaraman, degan edingiz. So'rab bildim, «San'at»ingiz yo'q ekan-ku?!

M a h s u m a k a: Nasrulla, siz Hasanboydan «O'zbekiston Adabiyoti va san'ati» gazetasini so'rab yuribsiz, u bo'lsa «Qishloq haqiqati»ni olib kelibdi.

**H a s a n b o y:** To‘g‘ri aytasiz. Men qishloqda astoydil mehnat qilib mahsulot yetishtirish «Sur’at»ini oshirmoqchiman.

**N a s r u l l a:** Hasanboy, unday bo‘lsa, Mahsum aka ham Siz bilan «Bir safda» ekanlar-da.

**M a h s u m a k a:** Nasrulla, necha bor aytSAM ham Hasanboy men bilan «Bir safda» mehnat qilishni istamayapti, bilmadim, keksayib qoldikmikin, qachon qarasangiz, men «G‘uncha»man deydi.

**H a s a n b o y:** Rost aytasiz Mahsum aka, men axir maktabda ishlayman, boshlang‘ich sinflar uchun «G‘uncha» yaxshi. Siz qarib quyulmaganning orzusi hali ham «Gulxan».

**11-mashq.** Matnni o‘qib, metafora usuli bilan ko‘chgan ma’noli so‘zlarni toping, ularga tavsif bering.

### BEDORLIK

Har odamning gullagan fasli bo‘ladi — umrning gurkiragan davri! Bu — yoshlik. Hayotimizning mazmun-mohiyati, to‘lishimiz, meva berishimiz, ya’ni bu dunyoyi dunda Odam bo‘lib tura bilishimiz, ildizimizning tiriklik zamiriga chuqur ketishi ana shu davrda, yoshlikda gullahimiz, qanday gullahimiz bilan bog‘liq hodisa. O‘smirlikning olov chog‘larida dunyoni bilmoqqa intilish, jamiyatda shaxs bo‘lib qolishga urinish eng ulug‘ fazilat. Eskidan bir gap bor: «Yoshlikda o‘rgangan ilm toshga o‘yilgan yozuvdir».

Xullas, ilmli bo‘lish, uyg‘oqlikka yuz burish har kimning jamiyatdagi faolligi bilan uyg‘unlashsa, yana ham yaxshi. Kechagi intilishlarimiz samarasi o‘laroq, bugunimiz yorqinroq kechadi. Agar bugun tin olsak, beparvolik qilsak, ertamizning kechagidan ko‘ra nursizroq bo‘lishi tabiiy.

**12-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping, ularni matnda ishlatalish bilan qanday uslubiy o‘ziga xosliklar kelib chi-qayotganini belgilang.

### SENGA TA’ZIM, OZODLIK!

Men Mustaqillik bayrami kunini **bahorni** kutgan kabi orziqib kutaman. Najot yomg‘irlarini kutib, 130 yil qaqragan ona-**Vatan** tuproqlari kabi mushtoq bo‘lib kutaman. Ozodlik kuni millatning bahori tashrif etgan kundir.

Bu kun **yuragimizning** tavallud lahzalari kabi mo‘jizaviydir.

Bu kun Qodiriy boboning ichikkan ohi bizni uyg‘otgan kundir.

Ozodlik millat ongidagi, qalbidagi tiriklik. Bu **hurriyat** yerni yengib bosh ko‘targan maysalar hurligiga, bashariyatning ne-ne **ofatlar** ustidan g‘olib chiqqandagi mukarram hurriyatiga o‘xshaydi.

Bugungi hurlik, bugungi ko‘ngil bayramimiz — Mustaqillik ana shunday zahmatlar ortidan keldi bizga.

Hur Vatanning bag'rida qad ko'targan yorug' kelajakning baland poydevori bo'lmish **go'zal** binolarga ko'z tashlayman: Omon bo'l, Ozodlik!

Amir Temur boboning muazzam **haykali** yonidan o'taman: Boshimda tojimsan, Ozodlik!

Bu faxrlar, bu iftixorlar qanday to'ldi ko'ksimga: Borlig'imsan, Ozodlik!

(*Guljamol Asqarova*)

## 2-DARS. MORFOLOGIYA YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

**13-mashq.** Ot so'z turkumiga oid so'zlarni daftaringizga yozib oling va ularni izohlang.

### KO'P TIL SOHIBI

Ruminiyalik Ruksanda Marinesku degan bir qiz besh yasharligidayoq fransuz tilini o'rgandi. Boshlang'ich maktabga kirkach, rus tilida gapiradigan bo'lib oldi. Oradan uch-to'rt yil o'tgandan keyin har yili mustaqil ravishda bittadan til o'rganishga kirishdi. Shu tariqa u 7 yilda ingliz, nemis, italyan, ispan, norveg, shved tillarining sohibasi bo'lishga ulgurdi.

Ruksanda 1961-yilda Buxarest universitetining filologiya fakultetiga kirib, yana bir tilni o'rgandi va undan tashqari, o'qish mobaynida o'zi mustaqil ravishda yapon tilini ham egallab oldi.

**14-mashq.** Otlarni aniqlang, so'ngra ularning qanday qo'shimchalar bilan kelayotganiga diqqat qiling. Qo'shimchalarning o'rnini almashtirib bo'ladimi? Shular haqida o'ylab ko'ring.

### NASTARIN XOSIYATI

Chamanga chiroy bag'ishlagan manzarali daraxtlardan biri — nastarindir.

Nastarin kichik daraxt yoxud buta bo'lib, moylilar oilasiga mansub. Ildizi kuchli taraqqiy etgan. Nastarin balandligi 2 metrdan to 7 metrgacha boradi. Barglari tuxumsimon, uzunligi 5—10 santimetr, eni esa 3—6 santimetr bo'lib silliqlashgan, yorqin yashil tusda. Gullari xushbo'y, to'rtta tishsimon yashil kosachasi oq pushti rangda bo'ladi. May oyida gullaydi, mevasi iyulda pishib yetiladi. Nastarin bog'larda manzarali daraxt sifatida o'stiladi. Shu bilan birga, uning shifobaxsh xosiyati ham bor. Uning bargi va gullari xalq tabobatida qadrlanadi.

Nastarin yengil yo'talda, peshob haydashda, ich ketganda, bronxit, pnevmoniya, yuqori nafas yo'llari shamollaganda, o'pka sili xastaligida, belangida, peshob pufagi shamollaganda yaxshi naf beradi. Xalq orasida shunday rivoyat yuradi: «Kimki nastarinning beshtalik palla gullari shoxchalarini topgan bo'lsa, uni baxtli hodisa kutadi».

Nastarin gullashi bilan qizlar undan «baxt» qidirishadi: niyati amalgalosharmish.

Ilohim, hamma ko'zlagan murodiga, niyatiga yetsin. Nastarinni esa, albatta, shifokor maslahatiga ko'ra qo'llash kerak.

(M. Mirzasharipov)

**15-mashq.** Boshqotirmadagi bo'sh kataklarni tegishli harflar bilan to'ldiring:

	1.	F									
2.	K										
	3.	M									
4.	D										
	5.	Q									
6.	M										
	7.	Ch									
8.	G										
	9.	R									
10.	V										
	11.	K									

1. Mulohaza, o'y so'zlarining sinonimi.
2. O'ichov birligi.
3. Ayon, ravshan.
4. O'quv quroli.
5. Aholi yashaydigan kichik manzil, ko'cha.
6. Qattiq jism nomi.
7. *Qiyg'os ochilgan* so'zining sinonimi.
8. Qurilish materiali.
9. «Yolg'on» so'zining antonimi.
10. Insonning fazilati.
11. Bilim manbayi.

**16-mashq.** Ot so'z turkumiga oid so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ularning ma'nodoshlарини топиб, изоҳланг.

### BEQANOAT BANDA VA QANOATLI ESHAK

Rivoyat qiladilarkim, qadim zamonalarda bir kambag'al dehqon o'tgan ekan. Uning bisotida bitta eshagidan bo'lak arzigulik mol-mulki yo'q ekan. Bir kuni eshagiga yuk ortib, ustiga o'zi ham minib ketayotib nola qilibdi:

— Ey, Xudo, akamga shohona qasr berding, ukamga ajoyib bog‘ berding. Menga bo‘lsa, mana shu eshakdan bo‘lak davlat bermading. Shu ham adolat bo‘ldimi?

Shunda eshagi tilga kirib, tanbeh beribdi:

— Ey, noshukur inson! Nega noliysan? Axir, ustingda yoking yo‘q-ku. Menden ibrat olsang bo‘lmaydimi? Ham bir qop yokingni, ham o‘zingni ko‘tarib ketyapman-ku, shunga ham shukur qilyapman.

### **17-mashq. Sifatlarni topib, ularni tahlil qiling. O‘zingiz ham mustaqil ravishda sifatlarga misollar keltiring.**

Bir dono kishi do‘stlari davrasida so‘z olib dedi:

— Hindistonda bir ajib daraxt borki, kimki uning mevasidan yesa, hech qachon qarimaydi va o‘lmaydi. Bu gap shu mamlakat podshohining qulog‘iga borib yetdi. Podsho bir mulozimga: «Shu daraxtni topib, mevasidan olib kelasan!» deb, Hindistonga jo‘natdi.

Shoh mulozimi shu asnoda butun Hindistonni kezib chiqdi, ammo ul daraxtdan nishon topolmay, noumid bo‘ldi. Ko‘ngli xijil holatda yurtiga qaytmoqchi edi, bir karomatli shayxning daragini eshitib qoldi. «Shu shayxdan ham so‘rab ko‘ray», deb uning huzuriga bordi. «Hech bo‘lmasa shu odamning duosi bilan murodimga yetarman», deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

Mulozim shayx huzuriga borib, bor gapni aytdi: «Necha yillar yurib, mevasi hayot bag‘ishlaydigan daraxtni topolmadim. Siz karomatli avliyosiz, menga shu daraxtning nishonasini aytинг, mushkulimni oson qiling», dedi.

Shayx kulib dedi: «Ey, miskin inson, sen aytgan bu daraxt — Ilm daraxtidir. U ilmlar olamida o‘sadi. Darhaqiqat, bu daraxt juda baland va hashamatli, shoxlari ko‘p va har tarafga yoyilib ketgan. U ilohiy muhitdan suv ichadi va uning mevasini totigan inson chindan ham abadiy hayot topadi. Sen o‘z yurtingga bor. Astoydil izlasang, bu daraxtni o‘sha yerdan ham topa olasan».

### **18-mashq. Matnni o‘qing, son so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib, ularning ishlatilish o‘rinlariga diqqat qiling.**

«Sog‘lom inson go‘zal bo‘ladi», degan aqida mavjud. Kishilarning go‘zallik haqidagi tushunchalari turlicha. Ba‘zilar tananing og‘irligi va bo‘yning mutanosibligini ham sog‘liq va go‘zallik bilan belgilashadi. Bu bejiz emas. Agar sizning yoshingiz, og‘rligingiz bo‘yingizga mos kelsa, bu Sizning har tomonlama mukammal inson ekanligingizni bildiradi. Quyida necha yoshda, qanday og‘irlikda va necha santimetrik bo‘yga ega bo‘lish kerakligi haqida ma’lumot berilgan.

Jadvalda necha yoshda qancha vaznda bo‘lish kerakligi ko‘rsatilgan. Agar Sizning og‘rligingiz bo‘yingizga yoki yoshingizga mos kelmasa, qayg‘urmang. Ozgina harakat, ya‘ni jismoniy mashqlar va parhez taomlar o‘z vazningizni saqlab qolishingizga va go‘zal bo‘lishingizga yordam beradi.

<b>Bo'yı</b>	<b>20—29 yoshda</b>	<b>30—39 yoshda</b>	<b>40—49 yoshda</b>	<b>50—59 yoshda</b>	<b>60—69 yoshda</b>
150	51.1	56.9	60.5	57.7	59.6
152	53	59	62.5	59.6	58.9
156	56.8	62.5	66.0	63.4	61.9
158	58.1	64.1	67.9	64.5	63.4
160	59.8	65.8	69.9	65.8	64.6
162	61.6	68.5	72.2	68.7	66.5
164	63.6	78.8	75.8	72.0	70.4
166	65.2	71.8	76.5	73.8	71.5
168	66.5	73.7	78.2	74.8	73.3
170	68.2	75.8	79.8	75.8	75.0
172	69.8	77.0	81.7	77.7	76.3
174	71.3	79.0	83.7	79.4	78.0
176	72.8	79.0	84.6	80.5	79.1

### **19-mashq. Sonlarni topib, izohlang.**

Brusselda qiziq tanlov bo'lib o'tdi. Unda G'arbiy Yevropa poliglotlari (bir nechta tilda so'zlashuvchilar) o'zaro kuch sinashdilar. Konkursda qatnashish uchun bo'lib o'tgan saralash musobaqlarida poliglotlar kamida to'qqiz tilni (bunga lotin va esperanto kirmaydi) bilishlari shart qilib qo'yildi. Hakamlik uchun turli xil millat vakillari taklif etildi. Ular poliglotlarning bilimiga 5 balli sistemada baho qo'yishlari kerak edi.

Tanlov tashkilotchisi, Belgianing Xassalte shahridagi zamонавиу tillarni o'rgatish markazining boshqaruvchisi E.Hermansning aytishicha, bu musobaqa sportchilarning ko'pkurashini eslatardi: kimning ballari umumiy hisobda yuqori bo'lsa, o'sha g'olib deb topilishi kerak edi. Buyuk Britaniya vakili, o'rta maktab o'qituvchisi D.Herning birinchi o'rinni egalladi. U 23 tilda erkin gaplasha olishini namoyish qildi. Konkursda ikkinchi o'rinni Gollandiya va uchinchi o'rinni Belgiya vakili egalladi.

(R. Shukurov)

## **20-mashq. Sonlarni topib, ularga tavsif bering.**

### **YETTI XAZINA NIMA?**

O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. Ular quyidagilardir:

1. Sigir — ro'zg'orning qassobi va baqqoli.
2. Asalari — oilaning tabibi.
3. Ipak qurti — qizlarning sepi.
4. Objuvoz — qozonning yog'i.
5. Tegirmon — qorinning belbog'i.
6. O'rmon — imorat «suyagi», qozon olovi.
7. Tovuq — ham obiyovg'on, ham dori-darmon.

Xo'sh, bularning nimasi xazina? Qadim zamонлардан beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik tur mushida ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalnilmasin, ularning o'rni muntazam to'lib turaveradi. Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. Objuvoz bilan tegirmon ham (don solib turilsa) to'xtamay moy va un chiqaraveradi. Asalarining boli-yu, o'mondagi dov-daraxt ham nisbatan olinganda tuga nmasidir. Inqilobdan avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan, ayniqsa, qizlari bor uylarda ipak qurti boqilgan. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayrbosh qilishgan...

**21-mashq. Olmoshlarni daftaringizga ko'chirib yozing, so'ngra ularga tavsif bering. O'zingiz ham olmosh so'z turkumiga oid so'zlarga misollar keltiring.**

### **BOLANGIZ ASADDA TUG'ILGANMI?**

Asad (Arslon)chalar quvnoq, baxtiyor, o'yin qaroq bo'lsin desangiz, ularning ra'yiga qarab ish qilasiz.

Asad burjining bolalari tug'ma mag'rur bo'ladi lar. Ular yaqinlari va begonalarning mehribonliklarini munosib kutib oladilar, baholaydilar. Asadchalar o'zlarini shahzodaday sezadilar, hukm, farmon berishni yoqtiradilar. Har qanday davraning guli yoki jo'r aboshisi bo'lishni xohlaydilar. Bo'Imasa, yolg'iz qolib televizor qarshisida o'tirishni afzal ko'radilar. Bola ba'zan haddan ziyod harakatchan bo'ladi. U maqtovlarni xush ko'radi. Maqtab qo'ysangiz, moyday yoqadi, yana ham yaxshiroq bo'lishga intiladi. Asad tanholikni sevmaydi. Doimo o'ziga sherik do'stlar izlaydi, ularga so'zini o'tkazishni xohlaydi. Bu bolalar tabiatan saxovatli, ochiq ko'ngilli bo'ladi. Shu bilan birga, biroz xudbinligi ham bor.

Asadlarni tarbiyalash oson emas, biroq siz mag'rur, aqli asad—o'g'llarni yoki go'zal, erka va o'ktam asad—qizlarni o'stirsangiz, chekkan zahmatlaringiz zoye ketmaydi, huzurini ko'rasiz. Zotan, Asadning modasi ham, nari ham sherlar zotidan!

**22-mashq.** Fe'llarni topib, ularning qaysi nisbat, mayl va zamonda ekanligini aniqlang.

O'qituvchi:

— Rustamjon, bitta gap tuz va uni buyruq mayliga aylantir.

Rustamjon:

— Ot aravani tortmoqda.

O'qituvchi:

— Yaxshi. Endi uni buyruq mayliga aylantir.

Rustamjon:

— Chu!

O'qituvchi bolalarga dedi: «Ikkita gap yozing va har birida beshtadan fe'l ishtirok etsin».

Erkinboy birinchi bo'lib nihoyasiga yetkazdi. U o'midan turdi va ovozini chiqarib o'qidi: «Ona pishiradi, yig'ishtiradi, tikadi, yuvadi va dazmollaydi. O'g'li yeydi, ichadi, o'ynaydi, o'qiydi va uxlaydi».

**23-mashq.** Fe'lning vazifadosh shakllarini topib, ularni izohlang.

### Topishmoqlar

Oyna emas jimirlar,

Tek turolmas qimirlar.

(Suv)

Bahor, yoz, kuz qishlaydi.

Qish paytida ishlaydi.

(Pechka)

Kundalik tarix o'zi,

Har yerda uning so'zi.

(Gazeta)

Tikuvchimas,

Bichuvchimas,

Ignasi ancha ekan.

(Tipratikan)

Ikki ajib qulog'i bor:

Biri tinglar, biri so'zlar.

(Telefon go'shagi)

Katta oppoq dasturxon

Yer yuzini qoplagan.

(Qor)

Bir qushim bor jon zotini

O'zi aytar o'z otini.

(Kakku)

Tunda ko'rib cho'g' deysan,

Tongda ko'rib yo'q deysan.

(Yulduz)

Tanga-tanga to‘pi bor,  
Mittigina ko‘zi bor.  
Yursa suvlar jimirlar,  
Qamishlar ham qimirlar.

(*Baliq*)

**24-mashq. Fe’llarni topib, ularni izohlang.**

CHUMOLI

G‘ayrat kamarini beliga bog‘lab,  
O‘zidan kattaroq cho‘pni ortmoqlab  
Manzilga tez yetmoq yolg‘iz xayoli —  
So‘qmoq yo‘ldan borar  
Chumoli.  
Atrofiga boqmas, ishlar uzzukun,  
Ko‘pning xirmoniga qo‘shtmoq uchun  
don...  
Yo‘q,  
Odam ajdodi bo‘lmagan maymun,  
Chumolidan tarqalgan inson.

(*Erkin Vohidov*)

**25-mashq. Ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlab, ularning sinonimlarini toping.**

XANDA

G‘amxo‘r sayohatchi ona bolalari bilan dengiz sohilida dam olish uchun ekspress poyezdning qulay kuplesida bamaylixotir ketisharkan: «Bolalarim, menga xalaqit bermay tinglanglar. Men sizlarga qiziq hikoya-lardan o‘qib beraman», deya kitob o‘qishni boshladi ona.

- Oradan ancha vaqt o‘tgach, katta o‘g‘li birdan so‘rab qoldi:  
— Oyi, hozir poyezd to‘xtab o‘tgan stansiyaning nomini bilasizmi?  
— Yo‘q bilmayman... Gap qo‘shtmay turgin, adashib ketaman.  
— Attang, bilsangiz soz bo‘lardi...  
— Nega endi bilishim kerak ekan?  
— Ukam stansiyani bir aylanib chiqay deb, tushib ketgandi.

**26-mashq. Yordamchi so‘zlarni belgilab, ularni daftaringizga ko‘chirib yozing. Ular ishtirotida gaplar tuzishga urinib ko‘ring.**

NAZOKAT

Qiz bolalarning yurish-turishi, gap-so‘zi nazokatli, dilbar bo‘lsin. Bundaylarga ortiqcha harakat, qo‘pol qo‘l siltashlar yarashmaydi.

Nazokat, dilbarlik deganda muloyimlik, nozik xatti-harakat, yumshoqlik tushuniladi. Qattiq gapirish, qattiq kulish, qo'llarini siltab, hammani o'ziga qaratib turish nazokatdan yiroqdir. Darhaqiqat, tili shirin, chehrasi gulgul qiz-ayollar o'z oilasining baxt-u saodati, ota-onasining faxri bo'libgina qolmay, o'z elining ko'rki hamdir.

Demak, qizlarda, ayoł kishida, birinchi navbatda, aql-u farosat, idrok-u nazokat bo'lishi kerak. Ana shu bilan u past-balandoñi, achchiq-chuchukni, bor-yo'qni, oila sharoitini, imkoniyatlarni fahmlay oladi, idrok etadi, aql-hushi bilan ish yurgizib, kam-ko'stlarni bartaraf qiladi. Zotan, ayollarga xos bo'lgan o'lmas nazokat atrofdagilarga hamisha qanot bag'ishlab kelgani haqida hayotda misollar bisyor.

Nazokat hamisha mehr bulog'idan suv ichadi.

**27-mashq. Undov va taqlidiy so'zlarni toping. Daftaringizga shunday so'zlarga misollar yozing.**

### DOKTOR VA KASAL PAYROVI

Kasal (G'iyo siddin): Mumkinmi, doktor?

Doktor (Jo'raxon): Ha, kiring, marhamat!

Kasal: Doktor, anchadan beri parishonxotirroq bo'lib qoldim.

Doktor: Xo'p, familiyangizni aytинг, yozamiz.

Kasal: Familiyam Topponqulov.

Doktor: Ismingiz?

Kasal: Ismim, i-i-ismim, ha, ha, Sopponqul.

Doktor: Uy adresingiz?

Kasal: Sholdirama ko'cha, uyimiz... 26 bo'lsa kerak.

Doktor: Kasallik belgilarini aytинг.

Kasal: Goho bolalarni bog'chaga olib bordim, deb bozorga qo'yib kelyapman. Ishdan qaytishda o'zimning uyim deb birovlanikiga kirib qolaman. Shoshilganda o'zimning kiyimim deb xotinimning ustiboshini ham kiyib qo'yyapman.

Doktor: Bo'ldi, bo'ldi, tushundim, familiyangizni aytинг?

Kasal: Doktor, familiyamni aytdim-ku!

Doktor: Kechirasiz, familiyangiz Sopponqulov edi-a?

Kasal: Doktor, sizga nima bo'ldi? Familiyam Topponqulov, ismim Sopponqul.

Doktor: Mayli, endi sizga dori yozib beramiz (doktor yozmoqchi bo'lib nimadir qidiradi).

Kasal: Ha, doktor, nima yo'qotdingiz?

Doktor: Ruchkani yo'qotdik, hozir yozib turgan edim-a?

Kasal: Ruchka narigi qo'lingizda turibdi-ku, doktor.

Doktor: E, bu yoqda ekan-ku, o'zimiz ham biroz... nima... bo'lib qolib... qolibmizmi deyman. Xo'p, yozib olay, familiyangizni aytинг.

K a s a l: Bu doktor, kasal men emas, siz ekansiz-ku, hali sizdan yordam so‘rab keldimmi? Siz eson-omon uyingizni topib borsangiz bo‘ldi. Doktor, meni sizga hech qanaqa ishim yo‘q, xayr!

D o k t o r: Bu odam o‘zi nimaga keldi-a? Skleroz emasmikin?!

### 3-DARS. GAP VA UNING GRAMMATIK BELGILARI

**Darsning maqsadi:** talabalarning sintaksis va uning asosiy o‘rganish birligi bo‘lgan gap haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

#### R E J A:

1. Sintaksisning o‘rganish obyekti.
2. Gap haqida ma’lumot.
3. Kesimlik belgilari va shakllari.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap tuzing:

Olam, quyosh, odam, aql, yorit...

**2-topshiriq.** Yuqoridagi topshiriqda berilgan so‘zlardan gap tuzish uchun nimalar qildingiz?

**3-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga mos keladigan grammatik vositalar qo‘yib, so‘zlarni bir-biriga bog‘lang va mazkur bog‘lanishni izohlang. Yaxshi... yon... yomon... qoch...

! **Juda muhim.** Siz o‘z fikr-mulohazalariningizni boshqalarga yetkazish uchun so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap tuzasiz.

So‘zlarni tilning ma‘lum qoidalari asosida bir-biriga bog‘lab so‘z birkmasi va gap hosil qilish sintaktik hodisasiadir, ana shunday hodisalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi esa sintaksis deb yuritiladi.

👉 **Eslab qoling.** Sintaksis yunoncha syntaxis so‘zidan olingan bo‘lib, yopishdirish, bog‘lash, demakdir. Demak, so‘zlarning va gaplarning (qo‘shma gap doirasida) o‘zaro bog‘lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi sintaksis sanaladi. Bu bo‘lim gapda so‘zlarning bog‘lanishini — so‘z birkmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, sintaksis so‘z birkmasi va gap haqidagi ta‘limotdir.

Biz o‘z fikrimizni o‘zgalarga yetkazish uchun gaplardan foydalananamiz.

1. Vatanimizni, milliy qadriyatlarimizni chin dildan sevamiz.
2. Mehnat qilgan rohat ko‘radi.
3. Men akademik litsey talabasiman.

Yuqoridagi uchta gap uch xil fikrni, uch xil axborotni ifodalaydi. Shu bilan birga, ulardan ifodalanayotgan voqeanning zamoni, kim tomonidan bajarilayotganligi, bo‘lishli-bo‘lishsizligi, aniq-noaniqligi kabi qator ma’nolar

ham anglashiladi. Bu ma'nolar gap kesimining kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Birinchi gapda **sevamiz** kesimi tarkibidagi *-miz*, ikkinchi gapda **rohat ko'radi** kesimi tarkibidagi *-a*, *-di*, uchinchi gapda **talabasiman** kesimidagi *-man* shakllari shaxs, zamon (doimiylik), bo'lishli (tasdiq), aniqlik ma'nolarni ifodalaydi.

Bu ma'nolar kesimlik ma'nolari sanaladi. Shuningdek, yuqoridagi ma'nolar kesimning nol shakli orqali ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: *Bu* — litsey deganda uchinchi shaxs, hozirgi zamon bo'lishli, aniqlik ma'nolari maxsus shakllar bilan ifodalanigan emas. Ohang ana shularning hammasini ifoda etadi. Maxsus shakllar qatnashmagan holda kesim nol shaklga ega bo'ladi. Kesimlik ma'nolari maxsus shakllar yordamida (shaxs, zamon, bo'lishli-bo'lishsiz va mayl shakllari) hamda 0 (nol) shakl yordamida ifodalanadi.

Demak, har qanday gapning asosida kesim yotadi.



**Juda muhim.** *Gapning gap bo'lmagan boshqa sintaktik birliklardan (masalan, so'z birikmasidan) farqi ham kesimlik belgisidir. Masalan: Men keldim — gap. Bu gapda **keldim** so'zi grammatic shakllanib kesim vazifasida kelyapti. Mening kelishim — gap emas. Kelishim kesimlik shakliga ega emas va kesim vazifasida kelmayapti. Kesimlik belgisiga ega bo'lgan har qanday so'z gap bo'lib kela oladi. Masalan: Bahor... Go'zalsan!*



**Eslab qoling.** *Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi.*

**O'ylang:** O'zingiz mustaqil ravishda gaplar tuzing va uning tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi haqida fikrlang.

**Tayanch tushunchalar:** gap, sintaksis, kesim, kesimlik belgilari.

Berilgan maqolning ma'nosini tushuntiring, u gap bo'la oladimi yoki yo'qmi? Uni izohlang.

*Poklik sog'liqni, aql sabrni saqlar.*



**Savol va topshiriqlar**

1. Gap deganda nimani tushunasiz? Uning muhim belgisi nima?
2. Gapning so'z birikmasidan farqini aytib bering.
3. Kesimlik belgisi deganda nimani tushunasiz?
4. Kesimlik ma'nolari qanday vositalar orqali ifodalanadi?

**28-mashq.** Kesimlik belgisiga ega bo'lgan quyidagi so'zlar asosida gaplar tuzing.

Birlashdik, ketyapti, o'qimoqchi, umr ko'rdi, intilishar edi, qad ko'tarib turibdi ekan, bosilib chiqqanmi, ma'qul keldi, qisqa bo'ladi, ekib qo'yamiz, porlab turadi, qo'llab-quvvatlamoqchilar, sevadi, riyozat chekdingmi, davom ettirdim.

**29-mashq. Matnni o'qing. So'ng gaplarning muhim belgisi nimalardan iboratligini tushuntiring.**

## HOJI MUHAMMAD XUSRAV HIKOYASI

Havo biroz sovuq erdi. A'lo hazrat o'choqqa o't qalab yuborishni buyurdilar. Navkarlardin ba'zilari ushbu yumushga tutindilar. O'tni katta qilib yoqdilar. Tasodifan o'choqdin uchg'on uchqun Mirzo po'stuning peshiga kelib tushdi va oning bir chetini kuydira boshladи. Mirzo Ulug'bek oni yeng birlan urib o'chirdi va: «Ahvol ne ekanini sen ham bilding-a?!» deb o'choqdagi olovг'a xitob qildilar. Shundan keyin uning kayfiyati tamom buzuldi, og'ir-og'ir tin olib, iztirob cheka boshladilar. Biroz fursatdin keyin Mirzo Abdulazizning hol-ahvolini surishtirdilar:

— Mirzo Abdulaziz omonmu erkan? Balkim qatlg'a yetkurmadilarmu erkan oni?

Men anga tasalli berib, yupatishg'a harakat qildum... Bir vaqt eshik ochilib Abbas ismli kimsa sherigi birlan kirib keldi. A'lo hazratning ko'zları unga tushishi birlan rangi o'chdi, sapchib o'rnidan turdilar va tashlanib Abbasning ko'kragiga bir musht tushurdilar. Abbas orqasig'a tisaruldi, sherigi orqadini kelib Mirzo Ulug'bekka yopishdi, ilkini qoyirib po'stinni yechib oldi. Shu payt Abbas tashqarig'a arqon olib kelish uchun chiqib ketdi. Men podshoh tahorat qilib olsun uchun eshikni ichidin zanjirlab turdim. So'ng Abbas kirib Ulug'bek janoblarining qo'llarini bog'lab tosh-qarig'a sudrab olib chiqди va mash'ala o'rnatilgan daraxt ostig'a olub borub tiz cho'ktirdi va ul besaodat qilichini g'ilofidin sug'urdi va ul odil va olim podshohning boshini tanidin judo etdi. Biz ersak avval uyning tevarak-atrofiga berkinib yotdik, so'ng barchamiz Samarqandg'a qaytdik...

(Mirxondning «Ravzat us-safo» kitobidan)

**30-mashq. Gaplarni o'qing, kesimlik belgilariга ega bo'lган so'zlarni aniqlab, ularga tavsif bering.**

## HARAKAT — UMRGA BARAKAT

Bir shoh ovqat yeb yotaverib semirib ketibdi. Biroz yursa nafasi qisilib, charchab qolar ekan. Ko'p shifokorlar shohning dardiga biror em bo'larli muolaja qilolmabdilar. Bundan xabar topgan Goratsiy shoh oldiga yovvoyi echkini olib kelib:

— Siz mana shu echkini tutib olib, go'shtini yesangiz, echkiday xipcha va chaqqon bo'lib ketasiz, — debdi.

Shoh sapchib echkini ushlamoqchi bo'lgan ekan, u chap berib qochibdi. Shoh qiziqib ketib echkini quvlashdan qolmabdi. Kunlar ketidan kunlar o'tibdi, echki hamon tutqich bermasmish. Shoh oz-ozdan og'irligini yo'qotaverib shunday epchil va chaqqon bo'lib ketibdiki, bir kuni u echkini ushlab ham olibdi.

Ana shundan beri echki («kozel») sportchilarining epchillik va salomatlik ramzi bo'lib xizmat qilarkan.

**31-mashq. So'zlardagi kesimlik belgilarini almashtirib bo'ladimi? Almashtirib bo'lmasa, nima uchun? Buning sabablarini aniqlang.**

### TUZNING XOSIYATI

— Har kuni ishlata digan idishlaringizni tuz bilan yuvsangiz u yaxshi va tez tozalanadi.

— Kosa, piyola, choynak, stakan, bankalar, tovoqlar va oshxonaga taalluqli boshqa idishlar tuz bilan yuvilgandan so'ng toza suvda chayib olinadi.

— Sirli kastrulka idishingiz sizga uzoq muddat xizmat qilishini istasangiz, yangi kastrulkaga suv quyib, unga tuz solib qaynatib olishni unutmang. Bunda 1 litr suvga 5 choy qoshiq tuz qo'shish me'yordan foydalaning.

— Shishali idishlarni tuzli ishqor bilan yuvib, so'ngra unga sirka yoki tuz qo'shilgan suv purkab toza suvda chayib olsangiz, idishingiz ko'zni qamashtirgudek yaltirab ketadi.

— Agar yog' qizdirayotib qozonga yoki tovaga ozgina tuz sepsangiz, qovurish paytida yog'ingiz sachramaydi.

— Tayyorlanayotgan taom tagiga olmasligi uchun unga avval yog' surtib, so'ng yirik tuz bilan artib chiqishni unutmang.

**32-mashq. Gaplardagi kesimlik belgilariga ega bo'lgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing, so'ng ularning qanday ma'no anglatayotganligini aniqlang.**

Lablaring uchidan uchib chiqqan sir,  
Ne aziz boshlarni kesdi birma-bir.

Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh,  
Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh!

Baxting gar kulta-yu topsang koni ganj,  
Pinhonra tutmasang ganj keltirar ranj.

Sabr ayla, murodim hosil bo‘lar deb,  
Quyoshing charaqlar, bulutni yengib.

Muyassar bo‘lmasa gar yor visoli,  
Balodan totlidir hijronning boli.

Mevadan rang olar meva, bu maqol,  
Yomondan zavol-u, yaxshidan — kamol.

Bahona egrilikdir, hiyladir, e, bas,  
Bahona to‘g‘rilikka hech to‘g‘ri kelmas.

Boqsa gar har molga zamona zayli,  
Unga oshib borar xaridor mayli.

(*Tojikchadan Jonibek Quvnoq tarjimasi*)

#### **4-DARS. GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI**

**Darsning maqsadi:** *talabalar ongida gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.*

##### **R E J A:**

1. So‘zlarning qo‘sishimchalar yordamida bog‘lanishi.
2. Yordamchi so‘zlar yordamida bog‘lanishi.
3. Teng bog‘langan so‘zlar.

Gap odatda bir so‘zdan yoki bir necha so‘zlarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, *Kuz... Bog‘larda mevalar qiyg‘os pishgan*. Yuqoridaq gaplarning birinchisi faqat bir so‘zdan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchisi to‘rtta so‘zning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan.

Gap ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lganda, bu so‘zlar o‘zaro grammatik va mazmun tomonidan bog‘lanadi.



**Eslab qoling.** *Bir so‘zning boshqa so‘zga ma’lum grammatik vositalar (grammatik qo‘sishimchalar, yordamchi so‘zlar) yordamida bog‘lanishi grammatik bog‘lanish hisoblanadi.*

Masalan, yuqorida keltirilgan ikkinchi misolda **bog‘larda** so‘zi **pishgan** so‘ziga **-da** kelishik qo‘sishchasi yordamida bog‘lanyapti.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi faqat grammatik bog‘lanish bilan cheklanib qolmaydi. Bog‘lanayotgan so‘zlar mazmuniy tomonidan ham o‘zaro muvofiq bo‘ladi. Masalan, **gullamoq** so‘zi **gul chiqarmoq** ma’nosidir.

bilan gullash xususiyatiga ega bo‘lgan narsalarni bildiruvchi so‘zlarga bog‘lanadi: *o‘rik gulladi*, *jiyda gulladi* kabi, lekin *tosh*, *loy*, *suv* kabi so‘zlar bilan bog‘lana olmaydi. *Yashnadi*, *rivojlandi* ma’nosи bilan yashnashi mumkin bo‘lgan turli jamoa, tashkilot, mahalla nomlarini bildiruvchi so‘zlarga ham bog‘lanadi: *qishloq gulladi*, *litsey gulladi* kabi. Ko‘rinadiki, o‘zaro bog‘lanayotgan so‘zlarda mazmuniy uyg‘unlik bo‘ladi.

! **Juda muhim.** *Gapda so‘zlarning bog‘lanishi ikki xil bo‘ladi:*  
a) *teng bog‘lanish*; b) *tobe bog‘lanish*.

Masalan, *Kalila va Dimna*; *Kitobni o‘qimoq*. Bularning birinchisida **Kalila** so‘zi **Dimna** so‘zi bilan **va** teng bog‘lovchisi yordamida; **kitobni** so‘zi esa **o‘qimoq** so‘ziga -ni tushum kelishigi yordamida bog‘lanyapti. Birinchi bog‘lanish **teng bog‘lanish**, ikkinchi bog‘lanish esa **tobe bog‘lanish** sanaladi.

### Teng bog‘lanish

*Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilib... o‘tirishardi.*  
(E. Vohidov)

Yuqoridagi gapda ishtirok etgan mustaqil so‘zlar, o‘zaro ikki xil bog‘langan:

Tobe bog‘lanish:

a) ular tahlil qilib o‘tirishardi.

b) baytlarini tahlil qilib.

d) Hofiz

Navoiy

Bedil

Fuzuliy

baytlari (ni)

Teng bog‘lanish: *Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy*.

O‘zaro teng bog‘langan bo‘laklar bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi va ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi. Ularni bir-biri bilan bog‘lovchi vosita sifatida teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi ishtirok etadi. Xususan, yuqoridagi o‘zaro teng bog‘langan bo‘laklarning hammasi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan, **kimning?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *Hofiz, Navoiy, Bedil* bo‘laklari bir-biri bilan sanash ohangi yordamida, *Bedil* esa *Fuzuliy* bilan **va** bog‘lovchisi yordamida bog‘langan.



**Eslab qoling.** *Bir xil gap bo‘lagi vazifasida kelib, ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi bo‘laklarning o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog‘lanishi teng bog‘lanish sanaladi.*

Teng bog'lanishni quyidagi ishoralar bilan ifodalash mumkin:

<input type="checkbox"/>	,	<input type="checkbox"/>	— sanash ohangi yordamida hosil bo'lgan teng bog'lanish
<input type="checkbox"/>	ammo		
	lekin		
<input type="checkbox"/>	va	<input type="checkbox"/>	— teng bog'lovchilar yordamida hosil bo'lgan teng bog'lanish
	bilan		
	hamda		
	-u (-yu)		
	-da		

! **Juda muhim.** *Quyidagi vositalar teng bog'lovchi vazifasini bajaradi.*

I. a) biriktiruvchi bog'lovchilar: **va, hamda** (ko'pincha va o'rnida bilan ko'makchisi ham qo'llanadi. Masalan, **Oygul va Baxtiyor; Oygul bilan Baxtiyor**);

b) zidlov bog'lovchilari: **ammo, lekin, biroq;**

d) ayiruv bog'lovchilari: **yo, yoki, yo-yo, goh-goh, dam-dam.**

II. Bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar:

a) guman yuklamasi: **na...na...**

b) kichraytiruv va ta'kid yuklamasi: **-u (-yu), -da.**

**O'ylang:** Uyushiq bo'laklarning teng bog'lanishga nima aloqasi bor?

**Tayanch tushunchalar:** teng bog'lanish, tobe bog'lanish, teng bog'-lovchilar, sanash ohangi.

Quyidagi maqolning ma'nosini izohlang, so'zlarining bog'lanish yo'llarini aniqlang.

*Ona bilan bola —  
gul bilan lola.*

**33-mashq.** Matnni o'qing, so'zlarining bir-biriga bog'lanish yo'llari haqida fikrlang.

## IKKI MULLA

— Keyingi vaqtarda ko'zlarim xiralashib qolyapti, — debdi birinchi mulla.

— Nega? — deb so'rabdi ikkinchi mulla.

— Nazarimda, kitobni ko'p o'qiganimdan bo'lsa kerak.

— Bilasizmi, — debdi ikkinchi mulla, — meniki aksincha. Ilgari ko'zlarim xiraroq edi. Kitobni ko'p o'qiyverganimdan ko'zlarim katta-katta ochilib, borgan sari ravshan tortyapti.

**34-mashq.** Teng bog‘lanishli so‘z qo‘silmalarini aniqlab, ularga tavsif bering.

## ISLOMNING MOHIYATI

Ma’lumki, koinotdagi barcha narsa muayyan va ma’lum qonunga bo‘ysunadi. Quyosh, oy hamda yulduzlar umumiy bir qoidaga itoat etib, undan qilcha ham chetlashmaydi. Yer ham o‘z o‘qi atrofida aylanar ekan, koinot qonun-u qoidalaridan zig‘ircha ham chetga chiqmaydi. Suv, havo, yorug‘lik va harorat ham maxsus tartibga bo‘ysunadi. Jonsiz narsalar, o’simliklar bilan jonivorlarning ham o‘ziga xos qonuni bo‘lib, shu qonun taqozosi bilan harakatga keladi, yashab o‘tadi. Chuqurroq o‘ylab qaraganimizda, hatto insonning ham tabiat qonunlariga bo‘ysunayotgani ma’lum bo‘ladi, chunki u qonunga muvofiq holdagini nafas oladi, suvgaga, oziqaga, yorug‘likka, haroratga bo‘lgan ehtiyojini his qila oladi. Inson vujudining har bir harakati: qonining aylanishi, nafas olishi, shuningdek, miya, oshqozon, o‘pka, asab, qo‘l, oyoq, til, ko‘z, burun va qulqoq kabi a’zolari ham qonunga bo‘ysunadi. Bu a’zolar ma’lum o‘lchamga binoan o‘z vazifalarini ado etadi.

Osmondag'i eng katta sayyoradan tortib, yerdagi eng kichik qum zarrasigacha, boshqacha aytganda, koinotdagi har bir narsa bo‘ysunayotgan va uzliksiz itoat etayotgan mana shu umumiy qonunni ulug‘, qudratli Olloh chiqargan. Modomiki, yer-u osmonlardagi barcha narsa mana shu qonunga bo‘ysunar ekan, demak, butun olam shu qonunni chiqargan qudratli zotga itoat etadi, uning farmoniga bo‘yin egadi. Mana shuning o‘zidan ham ko‘rinib turibdiki, islom — butun koinotning dini.

**35-mashq.** Teng bog‘lanishni hosil qiluvchi vositalarni ko‘chirib yozing. Ular ishtirokida yana teng bog‘lanishli so‘z qo‘silmalariga misollar keltiring.

## AMERIKALIK BULOQBOSHI

Fidoyi yurtdoshlarimizdan biri Amerika Qo‘shma Shtatlarida yashagan shoir va siyosatshunos Buloqboshi (Ergash Shermat)dir.

Buloqboshi aslida Andijon viloyatining Chaqar qishlog‘ida tavallud topgan. O‘sib-ungan joylari buloqlarga boy, sersuv-u bahavo bo‘lganligi uchun taxallusini Buloqboshi deb olgan.

U 1940-yilgacha, ya’ni askarlik xizmatiga chaqirilgungacha avval Toshkent huquqshunoslik institutining dotsenti, huquqshunoslik fakultetining dekani vazifasida ishlagan. Urush boshlanganda harbiy xizmat burchini o‘tash muddati qariyb tugayotgan edi. Kutilmagan qismat «o‘yini» sababli xorijda qolib ketishga majbur bo‘lgan, chunki qaytib kelguday bo‘lsa, asir tushgan askarning taqdiri ma’lum edi. Avval Olmoniyada

yashagan, keyin Amerikaga ketgan. Dunyoning ko‘p mamlakatlarini kezgan. Rus, turk, ingliz hamda olmon tillarini yaxshi o‘zlashtirib olgan.

U xalqaro anjumanlarda, Amerikaning yirik dorilfununlarida, ayniqsa, Kolumbiya dorilfununida, «Amerika ovozi» radioeshittirishlarida milliy fan, madaniyat, ekologiya hamda Orolni qutqarish muammolari bo‘yicha ma’ruzalar bilan muntazam qatnashardi. Amerikadagi qator ilmohollar, turli tashkilotlar xilma-xil masalalarda maslahat so‘rab, ul zotga murojaat qilishardi.

U o‘z vataniga muhabbatini va yurt taqdiri haqidagi fikrlarini, falsafiy-badiiy mushohadalarini she’riy satrlarda «Gullar makoni» to‘plamiga jamlagan. To‘plam 1961-yilda Vashingtonda tayyorlanib, Anqarada nashr etilgan.

**5-DARS. TOBE BOG‘LANISH. TOBE  
BOG‘LANISHNING TUZILISHI.  
TOBE BO‘LAKNING HOKIM BO‘LAKKA  
BOG‘LANISH YO‘LLARI**

**Darsning maqsadi:** talabalarga gap tarkibidagi so‘zlarning tobe bog‘-lanishi hamda tobe bog‘lanishning tuzilishi haqida ma’lumot berish.

**R E J A:**

1. Tobe bog‘lanish haqida.
2. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanishi.
3. So‘z birikmasi va gap.

*Bog‘lar, qushlar, sayra* so‘zlarini alohida-alohida talaffuz etsangiz, shu so‘zlar ifodalagan alohida narsa va harakatlar haqidagina ma’lumot bergen bo‘lasiz.


Siz esa «bog‘larda qushlarning sayrashi» haqidagi fikrni ifodalamoqchisiz. Buning uchun so‘zlarni bir-biriga bog‘laysiz. Birinchi so‘zga o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasini qo‘sasiz, chunki «sayrash» harakati qayerda sodir etilganini bayon qilmoqchisiz. *Sayramoq* so‘ziga harakatning bajarilish vaqtiga qarab zamon bildiruvchi qo‘srimchalardan birini qo‘llaysiz. Natijada *sayramoqda* yoki *sayradi* shakli hosil bo‘ladi. *Sayra* so‘ziga qo‘shilgan -moqda va -di shakllari zamon ma’nosini bildirishi bilan birga, III shaxs, tasdiq ma’nolarini ham ifodalaydi. *Sayramoqda* yoki *sayradi* so‘zi *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘lувчи va bosh kelishikda kelishi lozim bo‘lgan va *sayrash* xususiyatiga ega bo‘lgan narsani bildiruvchi so‘zni hamda qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rinni bildiruvchi so‘zni talab qiladi. Natijada *Bog‘larda qushlar sayramoqda* gapi hosil bo‘ladi. Bu gapda uchta gap bo‘lagi ikkita bog‘lanishni hosil qilyapti: 1) bog‘larda sayramoqda; 2) qushlar sayramoqda. Birinchi bog‘lanishda *bog‘larda so‘zi qayerda sayramoqda?*

so'rog'iga; ikkinchi bog'lanishda esa *qushlar* so'zi *nimalar* sayramoqda? so'rog'iga javob bo'ladi. So'roqqa javob bo'layotgan so'z so'roq talab qilayotgan (so'roq bog'lanib kelayotgan) so'zga kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'lanadi.

 **Eslab qoling.** Bir bo'lakning boshqa bo'lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari, ko'makchilar va so'z tartibi va ohang yordamida bog'lanishiga tobe bog'lanish deyiladi.


### Tobe bog'lanishning tuzilishi

 **1-topshiriq.** Gul, qovun qanday belgilarga ega? Gulning rang, hid belgilariiga, qovunning maza belgisiga egaligini bilasiz. Shu belgilarni bildiruvchi so'zlarni bo'sh katak ichiga joylashtiring.



**2-topshiriq.** Odam, uy, gul va qovunning belgilarini bildiruvchi so'zlarga so'roq bering, so'roq bog'langan so'zni aniqlang va so'roqqa javob bo'lувчи so'z bilan so'roq bog'langan so'zni ko'chiring.

Namuna: *qanday odam?*




Yuqoridaqidardan ko'rindaniki, bir so'z ikkinchi so'zning, turli xil belgilarini ifodalab, aniqlab unga bog'lanib keladi. Ana shu turli belgilarni aniqlash uchun berilgan savol belgiga egalik qiluvchi so'zga bog'lanadi. Masalan, *qanday odam?* Xushmuomala odam. *Qanday* (*qanaqa*, *qaysi*) *uy?* Baland *uy*. Nimani o'qidim? **Kitobni o'qidim.**

 **Juda muhim.** *Tobe bog'lanish doimo ikki qismdan iborat bo'ladi: tobe bo'lak va hokim bo'lak.*

So'roq bog'lanib kelgan qism hokim, so'roqqa javob bo'lib keluvchi qism tobe bo'lak sanaladi.

Masalan, *chiroyli* (qanday?) **ko'yak**, *go'zal* (qanday?) *mamlakat*, *dalaga* (qayerga?) **bormoq**.

Tobe-hokimlik munosabatini yozuvda ifodalash uchun strelkadan foydalilanildi. Strelka nayzasi tushgan bo'lak — hokim, strelka boshlangan bo'lak — tote sanaladi:



Sxemadagi «2» raqami bilan berilgan qism hokim sanaladi.


### Tobe bo'lakning hokim bo'lakka bog'lanish yo'llari

✓ **1-topshiriq.** *Nima, ek, shu, o'rso'zlarini bir-biriga bog'lab, o'zbek xalq maqolini keltirib chiqaring. So'zlarni nimalar vositasida bog'laganingizni aytинг.*

**2-topshiriq.** *Dala so'zini ketmoq so'ziga -ga, -dan, tomon, qarab vositalari yordamida bog'lang. Ularning bir-biridan farqini aytинг.*

**3-topshiriq.** *Quyidagi bo'sh kataklarni to'ldiring. Bo'sh kataknini to'ldirgan so'zning kitob so'ziga qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'langanini aytинг.*

Qanday?



**4-topshiriq.** *Quyidagi bog'lanishdagi nuqtalar o'rniga zaruriy bog'lovchi vositalarni qo'ying va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.*

Men... ——————  
Sen... ——————  
U... —————— daftар...

Tobe bo'lak hokim bo'lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalari, ko'makchilar va ohang yordamida bog'lanadi.

Bunday bog'lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi: a) gap; b) so'z birikmasi.

Shaxs-son qo'shimchalari yordamidagi bog'lanish gapni, qolgan vositalar yordamidagi bog'lanish so'z birikmasini hosil qiladi.

Solishtiring: *Gul ochildi* (shaxs-son, zamon qo'shimchasi -di yordamida bog'lanyapti) — gap. *Gulning ochilishi* (qaratqich va egalik qo'shimchasi yordamida bog'lanyapti) — so'z birikmasi.

**O'ylang:** So'roqqa javob bo'layotgan so'z bilan, so'roq talab qilayotgan so'zning qanday farqi bor?

**Tayanch tushunchalar:** zamon ma'nosi, tasdiq ma'nosi, hokim bo'lak, tote bo'lak.

Quyidagi maqolning mazmunini izohlab bering hamda tobe bog‘langan bo‘lakni aniqlang.

*Siylagani puling bo‘lmasa,  
Siypagani tiling bor.*

**36-mashq.** Gaplarni o‘qing. Teng va tobe bog‘lanish yo‘li bilan birikkan sintaktik birliklarni aniqlab, ularni namunada ko‘rsatilganidek tahlil qilib yozing.

*Hasad va baxillik nafratdan ham murosasizroqdir. Hasad va baxillik — teng bog‘lanish, nafratdan ham murosasizroqdir — tobe bog‘lanish.*

1. Fe'l-u atvorning o‘zgarmas darajada qat’iyligi — ayol tabiatiga yotdir.
2. Insonning qalbi va aqlida xuddi nutqidagi kabi u tug‘ilib o‘sgan yurtning muhri bo‘ladi.
3. Rashk muhabbat bilan birga tug‘iladi, lekin hamisha ham u bilan birga o‘lib ketmaydi.
4. Ahmoqlar hamda tentaklarga butun dunyo o‘z tentakliklari nurida ko‘rinadi.
5. Dunyoni taqdir va nayrang boshqaradi.
6. Fe'l-u atvorning zaifligi ezgulig-u illatdan ko‘ra ham nariroq turadi.
7. Inson yaxshilik qilishga qodir ekan, unga noshukurlik bilan to‘qnashuv xavfi tahdid solmaydi.

(*Fransua de Laroshfuko*)

**37-mashq.** O‘qing, shaxs-son, zamon qo‘sishimchalari yordamida hamda kelishik, ko‘makchilar orqali bog‘langan bo‘laklarni topping va birikmalarni aniqlang hamda ular o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

#### SOZ UCHUN TUG‘ILGAN

E’tibor berganmisiz, g‘ijjak nolasi yig‘layotgan odam ovoziga o‘xshab ketadi. Uning yuraklarimizga yaqinligi shundandir, ehtimol. Bu sozda hayotbaxsh ohang yarata olish har kimga ham nasib etmasa kerak. Sababi, g‘ijjak murakkab soz. Shu bois, g‘ijjak chalishga bolani besh-olti yoshdan o‘rgatish kerak ekan. Aks holda, yosh ulg‘aygandan keyin bu sozni o‘rganish ancha mushkul kecharkan.

San’atkorlar: «G‘ijjak chalgan sozanda boshqa har qanday sozni eplay oladi», deyishadi.

Barchamiz uchun ardoqli hofiz Sherali Jo‘rayevning qo‘shiqlaridan orom topmagan ko‘ngillar bormikan? Hofizning qudratli ovoziga jo‘r bo‘layotgan g‘ijjak nolasi har qanday ko‘ngilni zabit etadi. Boshqalarni bilmadim-u, men milliy qo‘shiqlarimizni dutor, tanbur, g‘ijjak jo‘rligisiz tasavvur qilolmayman. G‘ijjakning sehrli ovozi xayollarimni uzoqlarga yetaklaydi, kengliklarni sog‘inaman, ko‘zlarimga yosh quyuladi. Umrimiz naqadar tez o‘tayotganini anglayman hamda eng beg‘ubor va ma’sum bolalik damlarimga qaytgim keladi...

**38-mashq.** Matnni o‘qing. Teng va tobe bog‘lanish yo‘li bilan hosil qilingan so‘z qo‘shilmalarini aniqlang.

## SOHIBQIRONNING AYOLLARGA MUNOSABATI

Ayol — mo‘tabar zot, ayol uchun g‘azallar bitilgan, dostonlar kuylangan, qasrlar, bog‘-rog‘lar barpo etilgan.

Ayol — go‘zallik, nafosat va muhabbat timsoli, ayol bilan bog‘liq bu tuyg‘ular Sharqda asrlar davomida qadrlanib kelingan. Bu holatni Amir Temur sultanati misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Sohibqiron ayol qadriga, go‘zalligiga ichki bir muhabbat bilan qaragan. Uning ayollarga bo‘lgan ehtiromi, ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rog‘lar va nodir me’moriy yodgorliklarda ham aks etgan.

Samarqandda to‘ng‘ich opasi Qutlug‘ Turkon og‘o, singlisi Shirinbeko og‘oning qabrlari ustiga maqbaralar qurdirgan.

Bundan tashqari, Sohibqiron sultanat ishlarida nihoyatda band bo‘lishiga qaramay, Samarqand atrofida marjondek sochilib turgan bog‘larni barpo etgan. Tuman og‘oga Bog‘i Bihishtni, To‘kal xonimga atab Bog‘i Dilkushoni va nevarasi Begi Sultonga atab Bog‘i Shamolni bunyod ettirgan. Mazkur bog‘lar Samarqanddagagi boshqa bog‘lardan o‘zining tengi yo‘q tarovati, ulug‘vorligi hamda ayol kabi go‘zal nafosati bilan ajralib turar edi.

(N. Muhammadxo‘jayeva)

**39-mashq.** Berilgan gaplarni o‘qing. Undagi teng bog‘lovchilarni aniqlang.

1. Sizni ishxonada ham, oilada ham ijobiy yutuqlar kutmoqda.
2. Mashaqqatli, lekin sharaflı ishga qo‘l urasiz.
3. Iqtisodiy ahvolingiz ham a’lo darajada. Uni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bog‘liq.
4. Aql-u zakovatingiz bilan ularni mot qilasiz.
5. Yaqinlaringizning quvonch-u tashvishiga sherik bo‘lishga harakat qiling.
6. Qayg‘u bilan shodlik yonma-yon bo‘lishini unutmang. Ollohdan sabr-qanoat, kuch-quvvat so‘rang.
7. Shaxmat o‘zida nazariy, ham amaliy tomonlarini birlash-tirgan alohida fan.
8. Taqdirning qaysi ko‘chasiga bosh urishga ba’zan kimdir, ba’zan qandaydir tasodif sabab bo‘ladi.
9. Xalqim, Vatanim uchun zavq va shavq bilan mehnat qilaman.
10. Mashrab bilan So‘fi Olloyorning dunyoqarashlari, muhabbatlari bir-birlariga hamohang edi.

(Gazetadan)

**40-mashq.** Matnni o‘qing, tobe bog‘lanishli so‘z birikmalarini daftaringizga ko‘chirib yozing.

## ASRAGAYMIZ BIZ VATANNI...

Dilga elning ishqin solib,  
Hunar izlab, bilim olib,  
Bo‘lib dono ilmi tolib,  
Asragaymiz biz VATANni  
Fido aylab jon-u tanni.

Xorazmiy zuryodimiz,  
Navoiyning avlodimiz,  
Yurtga tikib hayotimiz,  
Asragaymiz biz VATANni  
Fido aylab jon-u tanni.

Saboq olib diyonatdan,  
Ezgu ishdan, matonatdan,  
Qochib mudom xiyonatdan  
Asragaymiz biz VATANni  
Fido aylab jon-u tanni.

Jahon ichra tole izlab,  
Xalq nomidan dadil so‘zlab,  
Obod yurtning baxtin ko‘zlab  
Asragaymiz biz VATANni  
Fido aylab jon-u tanni.

(*Abdulhay Sobirov*)

**41-mashq. Quyida berilgan savollarga javob yozing hamda so‘z birikmalariga misollar keltiring.**

1. Teng bog‘lanish deganda nimani tushunasiz?
2. Tobe bog‘lanish deb nimaga aytildi?
3. Tobe bog‘lanishni hosil qiluvchi vositalarga misollar keltiring.

## 6-DARS. SO‘Z BIRIKMASI

**Darsning maqsadi:** so‘z birikmasi haqida talabalar ongida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

### R E J A:

1. So‘z birikmasi.
2. So‘z birikmasining tuzilishi.
3. So‘z birikmasida tobe va hokim qismlarni bir-biriga bog‘lovchi vositalarning o‘rni.

✓ **1-topshiriq.** Ozodlik ushaldi va ozodlikning ushalishi o'rtasidagi o'xhashlik va farqli tomonlarni ayting.


**2-topshiriq.** Manzura kompyuterda ishlayapti gapida ishtirok etgan uchta bo'lak ikki xil bog'langan, shu bog'lanishni aniqlang. Aniqlangan ikkita bog'lanishning bir-biridan farqini ayting.

☞ **Eslab qoling.** Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalar, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi.

So'z birikmasida doimo ikkita qism bo'ladi. Ularning bittasi tobe, ikkinchisi esa hokim bo'ladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Demak, bog'lovchi vosita tobe bo'lak oxiriga qo'shiladi. Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, *litseyning bog'i* — *litsey bog'i*.

Bundan ko'rindaniki, so'z birikmasida tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning joylashish o'rni ham aniq bo'ladi. Tobe bo'lak oldin, hokim bo'lak esa keyin keladi.

! **Juda muhim.** Tobe bo'lakni hokim bo'lakka *bog'lovchi vositaning qo'shilish o'rni ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi*. Uni quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin:



- a) qaratqich kelishigi      b) egalik qo'shimchasi

**O'ylang:** Talaba ishladi hamda talabaning ishlashi o'rtasida qanday o'xhash va farqli tomonlar bor? Izohlab bering.

**Tayanch tushunchalar:** bog'lovchi vosita, egalik qo'shimchasi, tobe qism, hokim qism, so'z birikmasi.

Quyidagi maqolning ma'nosini izohlab bering hamda so'z birikmasiga ajrating.

*Ustozingga tik qarasang, to'zasan,  
Hurmat qilsang, asta-asta o'zasan.*

**42-mashq.** Berilgan birikmalarni 4 guruhga bo‘lib ko‘chiring, ya’ni ot-ot, ot-sifat, ot-fe'l, sifat-ot shaklida yozing.

Navro‘z bayrami, ishga shoshilmoq, oydan ham go‘zal, bahor ayyomi, yosh ijodkorlar, uyidan chiqib, gulzor bo‘ylab, yangi she’r, onadek aziz, ukamdek ishchan, serzavq qo‘shiq, bayram fayzi, o‘rik hidi, guldasta qo‘yib, insoniy muhabbat, davo izlab, yigit kabi navqiron, qattiq aziyat, anketa savollari, yurakdan o‘qimoq, sevimli qo‘shiq, toshdek izsiz, hayoti achinarli, duo qilib, yaxshi o‘qish, bexato yozish, insoniy go‘zallik, kamalak misli egik, hayvon kabi beo‘xshov, qo‘l qo‘yish, tarixiy shaxs, adabiy uyushma.

**43-mashq.** Hikoyani ko‘chiring. So‘z birikmalarini aniqlang.

### G‘IYBATCHIGA MUKOFOT

Hasan Basriyning oldilariga bir kishi kelib dedi:

- Hazratim, Sizni bir kishi shunday g‘iybat qildiki, asti qo‘yaverasiz.
- Sen unikida bo‘ldingmi? — so‘radi Hasan Basriy undan.
- Ha, — dedi u. — Meni rosa mehmon qildi. Tansiq taomlardan qo‘ydi oldimga, lekin yo‘q yerdagi tuhmatlar bilan Sizning sha’ningizni to‘kdi.
  - Sen uning tansiq taomlarini qorningga sig‘diribsan-u, lekin g‘iybat gaplarini sig‘dirolmabsan-da. Shu gaplarni kelib menga aytishing shartmidi? Ha, mayli, mana buni o‘sha g‘iybatchiga eltib ber, — dedi Hasan Basriy qo‘ynidan bir hovuch hurmo olib... — bu unga xizmat haqi.
  - Nega, hazrat? Sizni g‘iybat qilganga haq berasiz?! — deya hayratga tushib so‘radi u.
  - Chunki, — dedi Hasan Basriy, — u menga g‘iybat qilib, shu paytgacha qilgan gunohlarimni o‘ziniki qilib olibdi. Mana shuning uchun haqiga beryapman-da xurmolarni, olib borib ber.


**44-mashq.** Gaplarni so‘z birikmalariga ajratib ko‘chiring. Birikmalarining turlarini aniqlang. Gap bo‘laklarining qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini tushuntiring.

Saxiylik kishilar o‘rtasidagi ishonch va muhabbatdan paydo bo‘ladi. Saxiy kishi o‘z iltifoti bilan birovga qarz yoki yordam bermaydi, balki unga bo‘lgan ishonchining qanchalar quvvatga ega ekanligini oshkor etadi. Chingiz Ahmarov barchaga saxiylik ko‘rsatishni xohlaydi. Hammaning ko‘nglini olishni, qo‘lidan kelgancha yaxshilik qilishni istaydi. Demakki, u insonga ishonadi.

Chingiz Ahmarovning esdaliklarini o‘qib, savollarimga qisman javob topgandek bo‘laman: «Xalqning ishonchini oqlay oldimmi? Ruhimda to‘xtovsiz, iznsiz oqib yotgan cheksiz-chegarasiz hayajonlarimni, orzu-

maqsadlarimni, ehtiroslarimni san'atga aylantirib, rang-tasvirga ko'chirib, odamlar qalbiga singdira oldimmi? degan so'roq qarshisida shaxsiy yetishmovchiliklarim va turmush og'irliklarini esimdan chiqaraman, yanada ko'proq kuch bilan ishlash orqali xalqdan qarzlarimni uzishim kerakligini o'ylab ustaxonaga shoshaman. Yangi, katta asarlar yaratish ishtiyoqi meni bir soniya ham tark etmaydi... Ishlashim, tanda jon bor ekan, rasmlar chizishim kerak...»

**45-mashq.** Rasm asosida «Ozod Vatanim mening» mavzusida matn tuzing. Matnda ishlatalilgan so'z birikmalariga diqqat qiling.



**46-mashq.** Tubandagi so'zlar yordamida so'z birikmalari tuzing. So'z birikmasidagi so'zlarning qanday vosita orqali munosabatga kirishganini tushuntiring.

Go'zallik, qodir, din, she'riyat, rassom, hayot, mehribon, qahramon, insoniy, ijodkor, istak, ayol, xurofot, ruh, san'at, surat, musavvir, nafosat, ezgulik, mashhur, mukofot, davr, qalb, tuyg'u, mavhum, dala, da'vat, pok, o'limas, ko'z, nogoh, ishonuvchan, shaxs.

## **7-DARS. TOBE BO'LAKNING HOKIM BO'LAKKA KELISHIK QO'SHIMCHALARI YOKI KO'MAKCHILAR YORDAMIDA BOG'LANISHI VA ULARNING SINONIMIYASI**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilar ongida tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lab keluvchi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

### **R E J A:**

1. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi.
2. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'lanishi.
3. Kelishiklar va ko'makchilar sinonimiysi.

✓ **1-topshiriq.** Kitob... o'qimoq birikmasidagi nuqtalar o'rniga mos keluvchi bir necha kelishik qo'shimchalarini qo'shing. Ularning bir-biridan ma'nno farqini aytинг.

**2-topshiriq.** Onam... olmoq birikmasidagi nuqtalar o'rniga mos keluvchi bir necha kelishik qo'shimchalarini qo'shing. Ma'nodagi farqini aytинг.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka bir yoki bir nechta kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi mumkin.

Agar hokim bo'lak egalik qo'shimchasidagi ot bilan ifodalangan bo'lsa, tobe bo'lak faqat qaratqich kelishigidiagi ot bilan ifodalanadi:

Ot	ning →	ot	-im (-m) -ing (ng) -i (-si)
----	--------	----	-----------------------------------

Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasa ham, uning izi bilinib turadi:


Ot	→	ot	-im (-m) -ing (-ng) -i (-si)
----	---	----	------------------------------------

Agar hokim bo'lak belgi bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so'z chiqish kelishigi orqali bog'lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Ot	dan →	belgi bildiruvchi so'z
----	-------	------------------------------

Masalan, *Oydan go'zal; asaldan shirin; otdan baland* kabi.

Agar hokim bo'lak fe'l bilan ifodalansa, shu fe'lning ma'no talabiga ko'ra, tobe bo'lak bir necha kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:



—  
-ni  
-dan

Masalan, *uzum ye; uzumni ye; uzumdan ye.*

Bularning birinchisida har qanday uzum, ikkinchisida so'zlovchi bilan tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum va uning hammasi, uchinchisida so'zlovchi bilan tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum va undan bir qism ma'nosi ifodalanadi.

### Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi

✓ **1-topshiriq.** Nuqtalar o'rniغا quyidagi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilardan mosini qo'ying: -ga, -da, -dan, -ni, -ning, qarab, tomon, bo'ylab, sari.

1. Netkay erdi o'z otasi ... o'zi tosh otgan padarbezarilar ... qo'llari shol bo'lsa?!

2. Koshkiydi, ozod qush ... aylansam-u qoshingiz ... uchib borsam, diydangiz yarasi ..., dilingiz jarohati ... malham bo'lolsam!

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida ham bog'lanadi.

Masalan: *Istiqlol uchun kurashmoq.*  
*Toshkent tomon yo'nalmoq.*

Ba'zan kelishik va ko'makchi birgalikda qo'llaniladi. Bunday vaqtida kelishik tobe so'z oxiriga yoki ko'makchi oxiriga qo'shilishi mumkin.

Masalan: *Dala tomon ketmoq;*  
*dala tomonga ketmoq.*

! **Juda muhim.** *Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanda, ko'p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo'llanishi mumkin. Natijada kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi vujudga keladi.*

Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:



-ga  
-tomon  
-tomonga  
-ga tomon

 **Eslab qoling.** Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, ular o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi mavjud. Kelishik qo'shimchasi yordamida bog'langanda hokim bo'lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo'nalish nuqtasi aniq, ko'makchi yordamida bog'langanda esa noaniq bo'ladi.

Solishtiring:

Maktabdan chiqdi  
Maktab tomondan chiqdi

Maktabga ketdi  
Maktab tomonga ketdi  
Maktab tomon ketdi  
Maktabga tomon ketdi

**O'ylang:** Tobe bo'lak hokim bo'lakka bitta kelishik yordamida bog'-lanadimi yoki bir nechta kelishik bilan ham bog'lanishi mumkinmi?

**Tayanch tushunchalar:** kelishiklar yordamida bog'lanish, ko'makchilar yordamida bog'lanish, ko'makchilar va kelishik qo'shimchalari sinonimiyasi.

Quyidagi maqolning mazmunini izohlang. Tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning qanday bog'lanayotganini tushuntiring.

*Xashakdan xasham bichma,  
Yolg'ondan qasam ichma.*

**47-mashq.** O'zaro sinonim bo'lib kelgan quyidagi gaplarda uslubiy bo'yoqni yuzaga chiqaruvchi sintaktik birliklarni aniqlang. Ularda qanday qo'shimcha ma'no ifodalanayotganini bayon qiling.

1. Ba'zi xo'rozlar raqibi bilan bir cho'qishib, so'ng chekkada turib tomosha qiladi. Ba'zi xo'rozlar raqibni bir cho'qib, so'ng chekkaga borib tomosha qilib turadi. 2. Bundan ko'ra o'qiganining yaxshi emasmi? Bundan o'qiganining yaxshi edi. 3. To'kkali bir qoshiq qoning yo'qmi? To'kishga (to'kish uchun) bir qoshiq qoning yo'qmi? 4. Ulardan biri katta yoki kichikligidan qat'i nazar boshqalaridan ajralib turadi. Ularning biri katta yoki kichikligidan qat'i nazar boshqalaridan ko'ra ajralib turadi. 5. Mahallada duv-duv gap tarqaldi. Mahalla orqali duv-duv gaplarni tarqatdi. 6. Botirning

ahvoliga achindi. Botirning ahvoli uchun achindi. 7. Ashulalarida Vatanni madh etdi. Ashulalari orqali Vatan madhini barala kuyladi.

(Gazetadan)

**48-mashq. O‘qing, birikmalarni aniqlab, otli birikmalarni daftaringizga ko‘chirib yozing.**

G‘iyosiddin Jamshidning aytishicha, uning otasi «Qur’oni Karim»ning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlar va mufassirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan aytadilar... Arab tilining nahv va sarfini yaxshi biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqhdan ancha xabardorlar: mantiq, ma’nolarning bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishim riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818-yil rajab oyining o‘ninchisi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15—20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko‘ra, otda ketayotib, xayoliy hisob-kitob bilan quyosh taqvimi (o‘sha kuni) bir daraja va ikki daqiqa ekanligini tobdilar. Keyin otdan tushgach (hisob to‘g‘rili-gini) bu bandayi bechoradan so‘rab, aniqlab oldilar.

**49-mashq. Ko‘chiring. So‘z birikmalarini ajrating. Tobe bo‘lakdan hokim bo‘lakka chiziqcha tortib, chiziqning tepasiga ularning bog‘lanish usullarini yozib qo‘ying.**

1. Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.
2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo‘lmas haqiqatligini tan olamiz.
3. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog‘liq bo‘lgan, o‘zligimizni ko‘rsatdigan, bizning olis shajaramizni, nasl-u nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo‘tabar voqelikdir.
4. Biz g‘olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas.
5. Har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi, takomillashtiradi. O‘z dunyoqarashi va manfaatlari doirasida vujudga keltiradi.

(«Fidokor» gazetasidan)


## **8-DARS. QARATQICH KELISHIGI VA EGALIK QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANILISHI**

**Darsning maqsadi:** talabalar ongida qaratqich va tushum kelishigidan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish.

## R E J A:

1. So‘zlarning ikki tomonlama bog‘lanishi.
2. So‘roq talab qiluvchi so‘zning ifodalanish usullari.
3. Nutqda qaratqich va tushum kelishigidan o‘rinli foydalanish.

✓ **1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga kelishik va egalik qo‘srimchalarini qo‘yib ko‘chiring.



**2-topshiriq.** Ozodlik nash’asi birikmasidagi bog‘lovchi vositalarni tushirib qo‘llang. Ma’noda qanday o‘zgarish ro‘y bergenini aniqlang.

! **Juda muhim.** *Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qaratqich kelishigi va egalik qo‘srimchasi yordamida bog‘langanda ikki tomonlama bog‘lanish ro‘y beradi. Tobe bo‘lak qaratqich kelishigi qo‘srimchasini, hokim bo‘lak esa egalik qo‘srimchasini oladi. Bunday bog‘lanishda tobe qism qaratqich, hokim qism qaralmish deb ham nomlanadi.*

Ko‘pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo‘srimchasi, ba’zan esa har ikkisi ifodalanmaydi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

a) -ning (do‘stimning)	(ona)	-si
b) — (mustaqillik)	(shabada)	-si
d) -ning (bizning)	(Vatan)	—

Qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. U quyidagi hollarda, albatta, qo‘llaniladi:

- a) qaratqich bilan qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z kelsa. Masalan, *Derazaning qora oynasi*;
- b) qaratqich atoqli otlar va olmoshlar bilan ifodalanganda. Masalan, *Ahmadning daftari, Mening daftaram kabi*.

Yuqorida ta’kidlanganidek, qaratqich va qaralmish munosabatida qaratqich va egalik qo‘srimchalarining ifodalaniishi to‘rt xil ko‘rinishga ega.

Bu ko‘rinishlar o‘rtasida ma’lum mazmuniy va uslubiy farqlanish bor. Solishtiring:


- 1) daftarning varag‘i;
- 2) daftar varag‘i;
- 3) bizning daftar;
- 4) daftar varaq.

Birinchi bog'lanish bilan ikkinchi bog'lanish o'rtasida aniqlik-noaniqlik ma'nosi bor yoki yo'qligiga ko'ra farqlanish mayjud. Agar varaq so'zlovchi va tinglovchi uchun aniq bitta daftarga qarashli bo'lsa, birinchi bog'lanish qo'llaniladi, umuman, daftarga qarashli bo'lsa, ikkinchi bog'lanish qo'llaniladi. Uchinchi bog'lanish ko'proq qaratqich I-shaxs ko'plikdagi olmoshlar bilan ifodalanganda ishlataladi. To'rtinchchi bog'lanish esa birinchi va ikkinchisidan ko'proq so'zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, qaratqichli birikmalarning qay holatda qaysi biridan foydalanishni bilish madaniy nutq uchun katta ahamiyatga ega.

### **Qaratqich va tushum kelishiklaridan o'rini foydalanish**

✓ **1-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishigidan birini qo'ying. Nima uchun qaratqich yoki tushum kelishigi qo'shimchasini qo'yaningiz sababini aytинг.



Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari bir-biriga shakl jihatdan juda yaqin. Shuning uchun og'zaki so'zlashuvda qaratqich kelishigi o'rnida ham ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llaniladi. Masalan, *olmaning sharbati* o'rniga *olmani sharbati* deyiladi. Natijada, yozuvda ham ko'pchilik og'zaki so'zlashuv ta'sirida shunday yozib qo'yadi. Bunday xatodan qutilish uchun hokim so'zning ifodalishiga e'tibor berish kerak.

👉 **Eslab qoling.** Agar hokim bo'lak sof fe'l bilan ifodalansa va bu fe'l kimni? niman? qayerni? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zni talab qilsa, tobe bo'lak tushum kelishigida qo'llanadi, hokim bo'lak egalik qo'shimchasini olgan ot, ba'zan harakat nomi va sifatdosh bilan ifodalansa, tobe bo'lak qaratqich kelishigida qo'llaniladi.

Uni quyidagi sxemadan ko'ring:

**ot** -ning

**ot** egalik

**ot** -ni

**fe'l**

**O'ylang:** Qaratqich va tushum kelishiklaridagi xatolikning qanday qilib oldini olish mumkin?

**Tayanch tushunchalar:** qaratqich, qaralmish, kelishikli bog'lanish, hokim bo'lak, tobe bo'lak.

Quyidagi maqolning mag'zini chaqing hamda birikmalarga ajratib, tobe bo'lakning hokim bo'lakka qanday bog'langanini tushuntiring.

*Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi.*

**50-mashq.** O'qing, qaratqich va qaralmish munosabati uslubiyatini aniqlab, ularni gap ichidan ajratib, ko'chirib yozing.

1. O'zbekistonlik bolalar yelkasida millat yuki borligini sezishi kerak.
2. O'zidan keyin kelayotgan avlod zakovati va shijoatiga ishonmagan jamiyatning ichi mo'rt bo'ladi.
3. Yosh davlatimizni urush olovida yoqishni istagan tashqi va ichki kuchlar yakson bo'lmoqda.
4. Navoiy she'riyat olamiga kirishi bilanoq, asarlarini o'z ona tilida yoza boshlagan.
5. Uning hayoti esa vatandoshlarini baxtli, mamlakatini obod qilish yo'lida beminnat zahmat chekishdan iborat bo'ldi.
6. Sulton Husayn so'z sohibqironini o'zining oq otiga mindirib, otning jilovidan ushlab, piyoda yura boshladи.
7. Taniqli san'atkorlarimiz mahorati anjuman ahlida unutilmas taassurot goldirdi.
8. Milliy universitetning muhtasham madaniyat saroyiga oliy ilm maskanining barcha fakultetlarida tahsil olayotgan yosh yigit-qizlar, adabiyot muxlislari jam bo'lishdi.

*(«O'zbekiston Adabiyoti va san'ati» gazetasidan)*

**51-mashq.** Ko'chiring. So'z birikmalarini ajrating. Tobe bo'lakdan hokim bo'lakka chiziqcha tortib, chiziqchaning tepasiga ularning bog'lanish usullarini yozib qo'ying.

1. Tarixni anglash orqali insonda o'zining inson ekanligini anglash qobiliyati shakllanadi.
2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi, uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo'lmas haqiqat, tengsiz qadriyatligini tan olamiz.
3. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lgan, o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo'tabar voqelikdir.
4. Biz g'olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas.
5. Har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi, takomillashtiradi, uni o'z dunyoqarashi va manfaatlari doirasida vujudga keltiradi.

*(«Fidokor» gazetasidan)*

## **52-mashq. Quyidagi savollar va topshiriqlarga javob bering.**

1. Teng bog‘lanishdagi teng bog‘lovchi vositalarni aytинг.
2. So‘z birikmasining kesimlik shakliga ega emasligini tushuntiring.
3. Hokim qism bilan tobe qismni bir-biridan qanday farqlash mumkin?
4. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qanday vositalar yordamida bog‘lanadi?
5. Kelishik va ko‘makchilar o‘rtasidagi sinonimiyanı tushuntiring.
6. So‘zlar o‘zaro birikishi uchun mantiqiy bog‘liqlik kerakmi? Misol bilan isbotlang.
7. Badiiy nutqda so‘z birikmalari qanday bo‘ladi? Misollar bilan tushuntiring.
8. So‘z birikmasida sabab ma’nosi ifodalanib kelganda *deb*, *uchun*, *tufayli* bog‘lanishlari o‘zaro sinonimlik hosil qila olishini misollar bilan tushuntirib bering.
9. Chiqish kelishikli birikmalar qaratqich va jo‘nalish kelishikli birikmalar bilan, jo‘nalish kelishikli birikmalar esa qaratqichli birikmalar bilan sinonimik munosabatga kirishishini misollar bilan isbotlang.
10. Xalq maqollarida, gazeta sarlavhalarida ko‘makchilardan emas, asosan, kelishiklardan foydalanish sababini misollar bilan tushuntiring.

## **53-mashq. Quyida berilgan hikmatlardan ergash va bosh so‘zni aniqlang. Ularning bog‘lanish yo‘llarini tushuntiring. Hikmatlar asosida munozara o‘tkazing.**

Agar bir daraxt kessangiz, o‘rniga yangi novdalar ko‘karib chiqadi, ammo mehr-u muhabbat niholi jazo arrasi bilan arralansa, aslo ko‘karmaydi.

Ishning oqibatini, nima bo‘lishini bilish — oqillikdan, ammo keladigan falokatga chora izlamay qayg‘u chekib o‘tirish — nodonlikdan dalolat beradi.

## **54-mashq. Birikmalarni uch guruhgа ajratib yozing: moslashuvli, boshqaruвli va bitishuvli.**

Vatan o‘g‘lonlari, yurtimiz jamoli, o‘g‘lini topib, gullar oralab, qiz bola, choy quti, kitoblardan foydalanish, yengil mashina, kasbini sharaflamoq, mamlakat Prezidenti, dil so‘zları, ishini bajarib, yoshlarga o‘rgatish, undan ko‘ra kuchli, farovonlik haqida kitob, yerni o‘lchash, ogohlikka da‘vat, sog‘lomlashdirish maskani, qo‘lni qo‘yib, ishlashiga kafolat, e’tiborli ayol, kasbga muhabbat, saxovatlari inson, xalqni boyitish, farovonlik uchun kurash, dolzarb masala, go‘zal hissiyat, tug‘ma qobiliyat, ta’til kunlari, yoshlar jamg‘armasi, kasbga sadoqat, paxta hisobi, tinchlik haqida suhbat, insonparvarlik yordami, ko‘z bilan ko‘rish, uning nigohi, uch kishini, qahraton qish, nufuzli o‘rin.

**55-mashq.** Hikmatlarni o‘qing va yozib oling. Birikmalarga ajrating.  
Tobe so‘z hokim so‘zga qanday birikkanini izohlang.

## HIKMAT — AQL CHIROG‘I

Sabr suhbati zeriktirarli o‘rtoqdir, ammo maqsadga olib boradi. U sekin yuradigan ulovdir, biroq manzilga eltadi. Sabr achitib gapiradigan nasihatgo‘y, kishi tabiatи undan ozor chekadi, lekin unga amal qilgan oxirda so‘zsiz murodiga yetadi. U bamisoli tabib, badxo‘r dori, bemor undan azob tortadi, ammo so‘ngida sog‘likka erishadi.

Ishqqa mubtalo oshiqlar sabr so‘zini eshitganda cho‘chiydilar, biroq uning sharofati bilan yor vasliga yetishadilar. Hajr azobidagi kishilar sabr so‘zini eslashni ham istamaydilar, ammo oxirida sabr tufayli diyordi ko‘ri-shadilar.

(«Hikmatlar xazinasi»dan)

### 9-DARS. GAP BO‘LAKLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarga gapning sintaktik tuzilishi haqida ilmiy bilim berish, ularda gap bo‘laklaridan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### R E J A:

1. Gapni bo‘laklarga ajratish.
2. Bosh bo‘lak, ikkinchi va uchinchi darajali bo‘laklar haqida.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi gapda ishtirok etgan so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlang:

*Bog‘da gullar ochilgan.*

**2-topshiriq.** Quyida berilgan gapda ishtirok etgan so‘z birikmalarini alohida-alohida yozing. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka nisbatan qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini va bog‘lovchi vositani aniqlang:

*Vatanimizni jon-dilimizdan sevamiz.*

Gap tarkibidagi o‘zaro tobe bog‘lanishda bo‘lgan so‘zlardan bittasi tobe bo‘lak, ikkinchisi hokim bo‘lak vazifasini bajaradi. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.

! **Eslab qoling.** *Gap tarkibida tobe bog‘lanib ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi.*

*Masalan, O'qituvchimga gul berdim. Bu gapda uchta gap bo'lagi bo'lib, birinchisi kimga? so 'rog 'iga javob bo'lib, to 'ldiruvchi vazifasida, ikkinchisi nima (ni)? so 'rog 'iga javob bo'lib, to 'ldiruvchi vazifasida, uchinchisi nima qildi? so 'rog 'iga javob bo'lib, kesim vazifasida kelyapti.*

Demak, gap bo'lagi tobe bog'lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo'laklar hisoblanadi. Uning qaysi bo'lak vazifasida kelayotganligi hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi.

Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo'laklar javob bo'lishi lozim bo'lgan so'roqlar kesimga qarab beriladi. Masalan, Sen Pushkining sevgan malagi gapida kim? so'rog 'iga kesim vazifasidagi *Pushkining sevgan malagi* bo'lagiga bog'lanadi. Kim? so'rog 'iga javob bo'luvchi bo'lak ega vazifasida keladi. Demak, ega ham kesimga nisbatan belgilanadi.

Gap bo'laklari gap tuzilishidagi vazifasiga ko'ra ikki guruhga, ikki darajaga bo'linadi.

! **Juda muhim.** *Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak — kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo'lagi, bosh bo'lak sanaladi.*

*Ega kesim ifodalagan belgi, harakat-holatlarning egasi sifatida kesimdan keyingi bo'lak sanaladi.*

*To 'ldiruvchi va hol kesim bilan tobe munosabatga kirishib, uning ma'nosini izohlab, to 'ldirib keladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo'laklar sanaladi.*

*Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo'laklarga bog'lanib, ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa, shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi, birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi.*

*Aniqlovchi shu birikmali gap bo'laklarining bo'lagi sifatida keyingi bosqichda ajralib chiqadi.*

Shunday qilib, gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi:

1. Bosh bo'lak: kesim, ega.

2. Ikkinci darajali bo'laklar: to 'ldiruvchi, hol, aniqlovchi.

### **56-mashq. O'qing. Gapni bo'laklarga ajrating.**

O'TOV

Turkiy xalqlarning dastlabki xo'jalik turlaridan biri bo'lgan chorvachilik turli sabablarga ko'ra makon o'zgartirish hamda urushlar tarixi bilan bevosita

aloqador. Ana shunday tarixiy vaziyatda mazkur xalqlar xohlagan vaqtida tikib yashab, xohlagan paytda yig'ib, ko'chiga ortib ketishiga qulay bo'lgan ko'chma uylardan (o'tovlardan) foydalanganlar.

«O'tov» so'zi o'zbek tilida «kigiz uy» ma'nosini bildirsa, qирғиз, qозоқ, turkman tillarida katta uyga nisbatan kichik uyni ifodalaydi. O'tovlar yengil, tabiiy materiallardan quriladi. O'tovlarning yog'och qismi erkak ustalar tomonidan, kigiz qismi esa ayollarning qo'l mehnati natijasida amaliy san'at asari darajasiga ko'tarilgan.

(A. Hametova)

**57-mashq.** Rasm asosida «Samarqand sayqali ro'yи zamin ast» mavzusida matn tuzing. Matn ichida ishlatalgan gaplarni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.



**58-mashq.** Berilgan gaplarga mos kesim qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Beshik tebratgan qo'llar dunyoga... 2. Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o'ylasam, dilim tubidan bir nido... 3. Tarix haqiqati oyga...
4. Hikmat toshi vositasida kumush oltinga... 5. Qurumsoq tabassumini ham o'zgalardan... 6. Qafasda dunyoga kelgan qum ham erkin tush...
7. Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g'arib... 8. Eng xosiyatli buloq — ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik...
9. Hikmatni o'tda yoqsangiz, u qaqnus yanglig' kuldan yana... 10. U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik ko'chasiga...

(M. Xidir)

**59-mashq.** Ko'chiring. Gaplarning kesimi, shuningdek, kesimlikni hosil qiluvchi shakllarni toping.

1. Vadud Mahmud do'stlari bilan birga Behbudiyning so'nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Cho'ipon ta'sirida ozmi-ko'pmi

barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan. 3. Iste'dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko'rdi. 4. Botu haqida o'ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi. 5. Abdulla Alaviyning bizgacha yetib kelgan bor-yo'g'i yetti-sakkiztagina she'rini o'qiydigan bo'lsak, ularda Cho'lpox singari, bir xillikdan qochib, she'riyatning yangi-yangi usqlariga intilgan shoirni ko'ramiz. 6. 1931-yilning 8-yanvarida xalqimizning yana bir ardoqli farzandi A. Alaviy avji qirchillama yoshida olamdan o'tdi. 7. Mana shunday sharoitda har jihatdan bilimdon va til biladigan kishini ko'rsangiz, og'zingiz ochilib qolishi turgan gap edi. 8. Usmonxon Eshonxo'jayev 1937-yili «xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, otib tashlangan edi.

(N. Karimov)

## 10-DARS. KESIM VA UNING IFODALANISHI

**Darsning maqsadi:** talabalar ongida kesim va uning shakllari haqida ko'nikma hosil qilish.

### R E J A:

1. Kesimlikning belgilari.
2. Ot kesim va fe'l kesimlar haqida.
3. Kesimlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

✓ **1-topshiriq.** Ko'pdan quyon qochib qutulmas maqolidagi so'zlarining bir-biri bilan qanday bog'lananini aniqlang. Har bir bog'lanishda qaysi so'z takrorlanayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Litseyning III bosqich o'quvchisiman gapidan gapga xos bo'lgan shaxs-son, zamon, bo'lishli- bo'lishsizlik, tasdiq- inkorlik ma'nolari qaysi bo'lakda o'z ifodasini topgan?

👉 **Esda saqlang.** Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi kesim deyiladi.

Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin. Masalan, yoz-ma (tasdiq-inkor) -say (mayl) -di (zamon) -m (shaxs-son). Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, kel-di (o'tgan zamon, III shaxs, tasdiq, anqlik mayli) yoki o'quvchi-man (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, anqlik mayli). Ba'zan kesimlik ma'nolari hol shakli orqali ifodalanadi. Masalan, Kel (kelasi zamon, II shaxs, tasdiq-buyruq mayli) yoki Men o'quvchi (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, anqlik).

Kesim *nima qildi? nima bo'ldi? nima qilmoqda (qilyapti)? kim (dir)? nima (dir)?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, *Ishlasang, tishlaysan*

maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi nima qilsang? Ikkinchisi nima qilasani? so‘roqlariga javob bo‘ladi. *Otam — o‘qituvchi gapida o‘qituvchi bo‘lagi* kesim sanalib, **kim** (dir)? **Kim hisoblanadi?** so‘roqlariga javob bo‘ladi.

## Fe’l kesim va ot kesim

Kesimlar ifodalanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) fe’l kesimlar; 2) ot kesimlar.

 **Esda saqlang.** *Fe’ldan ifodalanib, nima qilmoq? nima bo‘lmuoq? so‘rogiga javob bo‘lib, fe’l kesim sanaladi.*

Masalan, *kitob o‘qiyapman* gapida *o‘qiyapman* nima qilyapman? so‘rogiga javob bo‘lib, fe’l kesim sanaladi.

*Opam — shifokor* gapida *shifokor kim* (dir)? so‘rogiga javob bo‘lib, ot kesim hisoblanadi.

 **Esda saqlang.** *Ot, sifat, ravish, son, olmoshdan foydalangan kesimlarga ot kesim deyiladi.*

Fe’l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal) ma’nolarni kesimlik (fe’l) shakllari orqali ifodalaydi. Ot kesimlarda esa otni kesim qilib shakllantirish uchun maxsus vositalar (-**man**, -**san**, -**dir**; *bo‘la* (-*man*, -*san*, -*di*), *hisoblana* (-*man*, -*san*, -*di*), *sanala* (-*man*, -*san*, -*di*) qo‘shiladi.

Masalan: U o‘quvchi(dir)

U o‘quvchi hisoblanadi

U o‘quvchi sanaladi.

 **Juda muhim.** *Bunday ot kesimni shakllantiruvchi vositalar bog‘lama deyiladi.*

Bog‘lama ba‘zan qo‘llanilmasligi mumkin. Bunday vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi. Masalan: U o‘quvchi.

## Sodda va qo‘shma kesimlar

Kesimlar tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma kesimlarga bo‘linadi.

 **Esda saqlang.** Faqat bir so‘z bilan ifodalangan kesimga sodda kesim, ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalangan kesimga esa qo‘shma kesim deyiladi. Masalan, *qirlarda lolalar ochildi* gapida *ochildi* sodda kesim, «*Lolazor romanini o‘qib chiqdim* gapida *o‘qib chiqdim* bo‘lagi qo‘shma kesim sanaladi.

Sodda va qo'shma kesimlar ifodalanishiga ko'ra sodda fe'l kesim va sodda ot kesim hamda qo'shma fe'l kesim va qo'shma ot kesimlarga bo'linadi. Masalan: 1. Dugonam tashqariga ko'z qirini tashladi. 2. Dadam kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi. Birinchi gapda **ko'z qirini tashladi** bo'lagi *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'lib, qo'shma fe'l kesim, ikkinchi gapda esa **kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi** bo'lagi *kim hisoblanadi?* so'rog'iga javob bo'lib qo'shma ot kesim vazifasini bajaradi.

**O'ylang:** Otni kesim qilib shakllantiruvchi vositalar qaysilar?

**Tayanch tushunchalar:** fe'l kesim, ot kesim, bog'lama, kesimlik ma'nolari, kesimlik shakllari.

Berilgan maqolni izohlang, kesimlarni topib, qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini aytинг.

*Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.  
Bilim — aql chirog'i.*

**60-mashq.** She'rni ifodali o'qing. Kesimlarini topib, daftaringizga ko'chirib yozing, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligiga izoh bering.

## SO'Z QADRI

Bo'lsa takror qadri ketgay ne ulug' so'zlarni ham,  
So'z bilish kam, bil yana o'rnin topib so'zlashni ham.

Nogahoni yitta so'zdan darz ketur dil qasriga,  
So'z — ulug' qudrat, eritgay toshni ham, muzlarni ham.

Oftob-u oyni alqab necha yozsang, balki oz,  
Qadri bo'lgay qop-qaro tun ichra yulduzlarni ham.

Senga bir so'z aytadurman dilginamda asragan,  
Jam etibman bag'riga ming kecha-kunduzlarni ham.

So'z aro inson kamoli, yor jamoli jilvagar,  
Sarbaland etgay g'azalda ne qaro ko'zlarni ham.

«Xamsa» vodiysi aro so'z mulkini kezdim necha,  
Tingladim yayrab go'zal gulchehra gulyuzlarni ham.

So'zda hikmat, so'zda ibrat, so'zda millat barqaror,  
Yaxshi so'z birlan topursan eng aziz do'stlarni ham.

(J. Jabborov)

## **61-mashq. Gaplarni o'qing. Kesimlarini topib, ikki ustunga yozing.**

**Ot kesim**

**Fe'l kesim**

I. Tilimiz juda boy, chiroqli. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u yo'q. Afsuski, radiomizda ko'pincha xalq bilan mana shu boy, chiroqli, purqudrat tilda gaplashishmaydi. Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotganlarga hech kim hushtak chalmaydi? Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar salmoqli, naqadar zarur bo'lsa, kitobxonning qalbiga olib kiradigan obraz shu qadar kuchli bo'lishi kerak. Badiiy asarga baho berishda yuz-xotir, g'araz, hasad, laganbardorlik singari illatlar adabiyotga yo'l topolmaydi.

(A. Qahhor)

II. 1. Mirzacho'lda ham cho'lni bo'stonga aylantirayotgan odamlar juda ko'p. 2. U paytlarda xo'jalikda ko'zga ko'rindigan muhtasham imoratning o'zi yo'q edi. 3. Toshkentga tushib, bir mashinada o'tinko'mir olib chiqdik, eski shahar bozoridan bitta o'ttizinchi lampa oldik. 4. Bog'imizning gavjum bo'lishi bejiz emas edi. 5. A. Qahhor oddiy dehqondan tortib, to akademikkacha — hammaning ko'nglini topa olardilar, odamning ko'ngliga tushadigan birgina kaliti bor, bu kalit — kamtarlik, oddiylikdir. 6. Uyimizdan yaxshilar qadami sira uzilmas edi.

(K. Qahhorova)

## **62-mashq. Matnni ko'chirib yozing. Kesimini topib, uning tuzilishiga va ifodalanishiga ko'ra turlarini yozing.**

### **MUSIQANING QUDRATI**

Rivoyat qilishlaricha, Olloh yaratgan o'n sakkiz ming olam ichida eng g'aroyibi bo'lgan inson dunyoga kelar ekan, unga jon musiqa orqali singdirilibdi. Shundan buyon inson o'z hayotini musiqasiz tasavvur eta olmaydi. Zero, kuy-qo'shiq kishiga cheksiz estetik zavq berishi barobarida uning qalbida ajib his-tuyg'u uyg'otadiki, u insonni doimo ezgulikka chorlaydi. Shu bois bo'lsa kerak, asrlar mobaynida ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida musiqa ilmiga alohida e'tibor bilan yondashganlar. Zotan, musiqaga, kuy-qo'shiqqa yoshligidanoq oshno bo'lgan insonning hech qachon ko'ngliga adovat, qo'lidan yovuzlik kelmaydi.

Bugun bobolar tomonidan aytilgan ushbu fikrlarning naqadar haqiqat ekanligini respublikamizning turli musiqa dargohlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning fikr-o'yлari misolida ham bilib olishimiz mumkin.

(Gazetadan)

**63-mashq.** Uchta guruhga bo‘lining. Har bir guruh quyida berilgan hikmatlarni davom ettirishi kerak.

1. Ilm o‘rganmoq — e’tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik ortirmoq uchun emas.

2. Saxovatsiz boy yog‘insiz bulutga, ilmiga amal qilmagan olim ustiga kitob ortilgan eshakka o‘xshaydi.

3. Baxil o‘z molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Hasadchi esa yaramas fe’li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o‘ziga bergen azobdan qiynaladi, bunisi esa o‘z qilig‘idan dard chekadi.

Yozgan gaplaringizdan kesimni topib, ifodalanishiga va tuzilishiga ko‘ra turini ayting.

**64-mashq.** «O‘zbekiston tulporlari», ya’ni o‘zbek avtomobilsozligi haqida matn tuzib, gaplar ichida kelayotgan kesimlarga ta’rif bering.



**65-mashq.** Quyidagi berilgan so‘zlar, qo‘shimchalar yordamida kesimni shakllantirib gaplar hosil qilib, yozing.

1. -man, -san, -dir, -miz, -siz, -dir (lar).

2. To‘liqsiz fe’llar orqali.

3. Bo‘ldi, qildi, etdi kabi yordamchi fe’llar bilan.

4. Ot va sifat bilan ifodalanadigan kesimlar.

**66-mashq.** Iboralar kesim bo‘lib keladigan gaplarga misollar yozing. Gapning ma’no bo‘yog‘idagi farqini tushuntiring.

Namuna: *Mustaqillik tufayli bag‘rimizga shamol tegdi.*

**67-mashq.** Matnni o'qing. Ot kesimni shakllantiruvchi vositalarni alohida ko'chirib yozing. Bog'lamalarning ostiga chizing.

### «QADAMINGDAN O'RGILAY, ISTIQLOL!»

Ozodlik! Naqadar totli So'zsan! Bugun mendek bir g'arib dilni, qishloqdag'i oddiy bir oila farzandini butun dunyoga tanitding. Qadamingdan o'rgilay, Istiqlol!»

### «XAYR XX ASR, SALOM XXI ASR!»

Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro rasmlar ko'rgazmasi ana shunday nomlandi. Dilfuza esa Yer yuzi bo'yicha shu tanlovda ishtirok etgan 5000 ishtirokchi ichida g'olib bo'ldi.

Izboskanning To'rtko'l qishlog'iда yashovchi Dilfuza Matboboyeva yuzlab, minglab iqtidorli yoshlarimizning biri, xolos. O'zbekiston bag'rida hur shamollar o'stirayotgan bunday navnihollar hali behisob. Kelayotgan asr Sharq asri va, albatta, O'zbekiston asri bo'lishi shubhasizdir. Zero, bugungi Dilfuzalar tashlagan odimlar XXI asr shohsupalariga qo'yilgan ilk qadamlarimizdir.

(M. Otamirzayeva)

**68-mashq.** Matnni o'qing. Sodda va murakkab kesimlarni aniqlab, ularni daftaringizga ko'chirib yozing.

### SENI SOG'INDIM

Yo'q! Sog'indim desam nojoiz bo'lar, chunki sen doimo men bilan birlasani. Men chin dildan, hamisha birga bo'lishimizni, hech qachon bir-birimizdan yiroqlashmasligimizni istayman.

Sen bilan qanchalik baxtiyor ekanligimni, bor ovozim bilan dunyolarni larzaga solgim kelayotganini so'z bilan ta'riflashga ojizman.

Ne-ne insonlar senga yetisholmay ketdilar. Sening jamolingni ko'rmoq niyatida butun umrlarini baxshida etdilar.

Men esa, ana shunday ulkan baxt egasiman!

Zero, sen insoniyatning eng buyuk orzusisan!

Ko'zlarida yosh bo'lsa-da, yuragida bardosh bilan sen uchun yashayotganlarning orzusisan!

Barcha jabr-u sitamlardan o'tib, endigina seni qo'lingdan tutgan, seni yo'qotib qo'ymaslik maqsadida butun vujudi bilan sen uchun yashayotganlarning orzusisan.

Sen buyuklar ichra buyuk bo'lishing uchun jon fido aylamoqqa tayyor turganlarning orzusisan.

Har tong uyg'onib men bilan birga ekaningni his qilganimda ko'zlarim quvnab ketadi.

Tongdagi go'zalligingni menga ko'z-ko'z qilganingda, baxtdan, quvonchdan kundan kun munavvar oy kabi to'lib borayotgan yorug' jamolingni ko'rganimda yuragim yayrab ketadi.

Sen baxtsan! Sen shodliksan! Sen yorug' kelajaksan!

Men seni sevaman, Mustaqillik!

(*Shavkat To'rayev*)

## 11-DARS. EGA VA KESIMNING MOSLASHUVI

**Darsning maqsadi:** gapda ega bilan kesimning moslashuvi hamda moslashmaslik hollari haqida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish.

### R E J A:

1. Kesimlik shakllarining egaga mos kelishi.
2. Kesimlik shakllarining ifodalanmay qolish holatlari.

✓ **1-topshiriq.** Kesimlik shakliga qarab bo'sh kataknini mos so'z bilan to'ldiring. Nima uchun shu so'z bilan to'ldirganingizni aytинг.

- a)  — talabaman.
- b)  — sayraydi.
- d)  — ishlaysiz.

👉 **Esda saqlang.** Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomondan bog'langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishiga moslashuv deyiladi.

Masalan, yuqorida keltirilgan *talabaman* kesimi birinchi shaxs birlikda turganligi uchun uning egasi ham birinchi shaxs birlikdagi olmosh bo'ladi. Yoki *ishlaysiz* kesimi II shaxs ko'plik (hurmat) shaklida turganligi uchun u faqat siz so'zini tanlaydi va bu so'z ega vazifasida keladi.

Kesim bilan ega ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda. Masalan, *qushlar sayraydilar* emas, *qushlar sayraydi*, lekin shaxsda doimo moslik bo'lishi shart.

! **Juda muhim.** Kesim ot kesim bo'lib, uning kesimlik shaklini ko'rsatuvchi bog'lamalar qo'llanilmasa, u vaqtida kesim ohang yordamida shakllanadi.

Ot kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o'rtafiga yozuvda tire qo'yiladi. Masalan, *Ro'paradagi bino — maktab. O'zbekistonning poytaxti — Toshkent. Samarqand — azim shahar.*

**O'ylang:** Ega bilan kesim orasiga nima uchun tire qo'yilishini tushuntiring.

**Tayanch tushunchalar:** moslashuv, kesimlik shakllari, ot kesim, fe'l kesim, sodda ot kesim, murakkab ot kesim, sodda fe'l kesim, murakkab fe'l kesim.

Quyidagi maqolni yod oling, uning ma'nosini izohlang, nima uchun tire qo'yilganligini tushuntiring.

*Til — aql xazinasining qilichi, farosat — uning g'ilofi.*

### **69-mashq. Berilgan matndagi ega va kesimlarni aniqlang.**

#### **O'G'LIM, SENGA AYTAMAN**

O'g'lonim, baxt va baxtiyorlikning soni ming bitta. Uning tusi ham turfa va sonsizdir. Darvoqe, baxtiyorlikning o'zi nima? Uning eng sodda ta'rifi — qoniqish. Senga taalluqli bo'lgan insonlar, muhit va ishlaringdan ko'ngling to'lishidir, ammo bu dunyoning hisob-kitobi juda qattiq: bermaguningcha, ololmaysan! Har bir inson — iqlim yaratuvchi manba, nur uzatsang, atrofing chaman bo'ladi, muzlab tursang, bahorni ham qishga aylantirasan. Demakki, baxtiyor bo'lish uchun, avvalo, o'zingni unga munosib ayla. Boshqacha qilib aytganda, baxt senga tuhfa qilib berilmaydi, sen yo'l topib uning qoshiga o'zing borasan. O'g'lon bolam, biz senga shu yo'lingda ko'makchi bo'laylik.

(T. Sodiqova)

### **70-mashq. Ko'chiring. Ega va kesimning moslashgan (to'liq moslashuv), moslashmaganligini va uning sababini izohlang.**

1. «Men yurtimning pok istakli kuychisi...» (A. Cho'pon) 2. «Cho'pon go'zal Turkistonni xonavayron qilgan kishilarni bo'rilar, alvastilar, parilar deb atagan. Cho'pon ana shu qutlug' ma'nodagi «parilar»ni «malaklar» deb nomlaydi. Uning she'rleridagi parilar esa alvastilarning bir turidir. Ana shunday yovuz kuchlar to'plangan joyda qonlar oqadi, boshlar kesiladi. 3. Cho'pon muhabbat his-tuyg'ulari bilan to'la inson bo'lgan. 4. O'zbek tuprog'iga kuzning hazin nafasi kelib kirishi bilan daraxtlar za'faron libosga burkanadi, bog'chalardagi gullar labidan tiriklik suvi qochadi; sarg'ish rang — o'lim va musibat rangi tevarak bo'ylab yoyiladi. 5. So'ng uning nigohi qizarib qolgan yaproqlarga o'tadi. 6. Cho'ponning zamondoshlari uni shoir sifatida e'zozlagan. 7. Biz Cho'ponning o'ta kamtar, mehribon, ezgu niyatli inson bo'lganligini bilamiz.

(N. Karimov)

**71-mashq.** Uyga topshiriq. Biror badiiy asardan eganing birlik shaklda, kesimning ko‘plikda qo‘llanilishiga misollar yozing.

**72-mashq.** Topshiriqlarni quyidagicha bajaring.

1. Gapning kesimi sifat, son kabilar bilan ifodalanganda, u ega bilan moslashmasligiga misollar yozing.

2. Ega tarkibida **ko‘p**, **kam**, **oz** so‘zлari bo‘lsa, kesim birlikda qo‘llanishiga gaplar tuzib yozing.

3. Yodda tuting: gap bo‘laklari orasidagi, ayniqsa, ega va kesim orasidagi moslashuvning buzilishi uslubiy xatolarga olib keladi.

**73-mashq.** O‘qing. Quyidagi hikmatni munozaraga aylantiring. Bahs mavzusini «Akajonim — ulug‘im» deb atang.

### UCH JONNI BIRDAN QUTQARDI

Zolimligi bilan nom chiqargan Hajjoj zolim aqli bir xotinning erini, o‘g‘lini va akasini bandi qildi. Ayol yig‘lab faryod qilib Hajjojning oldiga keldi.

Hajjoj:

— Bu uch kishidan birini afv etaman. Yaxshilab o‘ylab ko‘r, qaysi biringning ozod bo‘lishini xohlaysan? Eringnimi, o‘g‘lingnimi, akangnimi? — dedi.

Xotin biroz o‘ylagach:

— Er topiladi, yurtda erkak ko‘p. O‘g‘il tug‘iladi, istasam bir necha o‘g‘il tug‘aman, ammo aka topilmaydi, chunki onam yana bir aka tug‘ib berolmaydi, — dedi.

Ayolning bu oqilona javobi Hajjojga qattiq ta’sir qildi va:

— Sening aqli va to‘g‘riso‘zliging menga yoqdi, — dedi va ularning hammasini birdan ozod etdi.

(«Hikmatlar xazinasi»dan)

**74-mashq.** Kerakli o‘rinlarga tire qo‘yib gaplarni ko‘chiring. So‘ngra uni izohlang.

1. Kishidan kishiga qoladigan meros so‘z.
2. Bilimsiz kishilar donolarning dushmani.
3. Dunyo shodligini olmoqchi bo‘lgan odamga chora ezgulik.
4. Bilimsiz kishi yilqi-hayvon bilan teng.
5. Qo‘limda keskir xanjar. Bu mening kimligimga ishora.
6. Ezgulik o‘ng, yomonlik chapdir.
7. Ko‘p so‘zlash donolik belgisi emas. U ezmalik alomati.
8. Otalar so‘zi aqlning ko‘zi.
9. Do‘slikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi chaqimchi.
10. Qunt donoga yarashiq. Bilim mardlarga ziynat.
11. So‘ramoq oson ish. Javob bermoq mushkul.

(«Qutadg‘u bilig»dan)

**75-mashq.** Tire ishlatilgan gaplarni tiresiz holga keltirib ko‘chiring (ularning o‘rniga kesimlik shakllari va bog‘lamalarni qo‘ying).

1. Ochiq yuzlilik — bekning yaxshi fazilatlaridan biri.
2. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik — nodonlar ishi.
3. Fisq- fasod qut-saodat dushmani.
4. Vazirlik — ulug‘ ish.
5. Tamagirlik — kishining boshiga bitgan balo.
6. So‘zga chechanlik — kirishimlik alomati. So‘zi go‘zalning ishi ham yurishadi. Xotira baquvvatligi — elchiga ziynat.
7. Sirni eshitishga qobil bo‘lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi — vazir, boshqasi — kotib.
8. Bu dunyodagi eng yirik yov — nafsing.
9. Qorin to‘ysa arpa ham, holva ham bir xil — ikkalasi ham ortib qolaveradi.
11. Ko‘ngil chopmagan ishni qilish — xatar.

(«*Qutadg‘u bilig»dan*)

## 12-DARS. TO‘LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarning to‘ldiruvchi haqidagi o‘rta umumiy ta’limda olgan bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash.

### R E J A:

1. To‘ldiruvchilarning ifodalanishi.
2. Mustaqil va nomustaql to‘ldiruvchilar.
3. Kelishikli va ko‘makchili to‘ldiruvchilar.

✓ **I-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga kesim talab etgan so‘zlarni qo‘ying. Bu so‘ziarning qaysi kelishik shaklida ekanligini aytинг.

- Nimani? Kimga?*  
a) . . . . . aytdim.  
*Nimani? Kimdan?*  
b) . . . . . oldim.

👉 **Eslab qoling.** Gapning kesimi bilan bog‘lanib predmetlik ma‘nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orgali, uchun), nima (bilan, orgali, uchun) so‘roqlariga javob bo‘lgan ikkinchi darajali bo‘lakka to‘ldiruvchi deyliladi.

E’tibor bering: Men **undan** (kimdan?) so‘radim: Mehringni qo‘yib, bunchalar saralab **gul** (nimani) terding **kimga?** Gulidan (nimadan) ko‘zini (nimani) uzmayin singlim. Asta javob berdi: — **O‘qituvchimga** (kimga).

To‘ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog‘langan predmetni bildirganligi tufayli ot, olmosh va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi.

To‘Idiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog‘lanadi. Agar u bog‘langan so‘z kesim bo‘lib shakllana olmagan bo‘lsa, ana shu so‘z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Bunday vaqtda u gapning emas, bo‘lakning bo‘lagi bo‘ladi. Masalan, *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim*. Bu yerda *onamdan eshitgan gaplarni* birikmasi nimalarni? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesimga bir butun holda bog‘lanadi. Bu birikmali to‘Idiruvchi o‘z ichida qismlarga bo‘linadi: ***onamdan eshitgan*** (qanday) gap. Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi *onamdan eshitgan* birikmali aniqlovchi o‘z ichida yana tarkibiy qismlarga bo‘linadi: *onamdan* (kimdan?) *eshitgan*.

Shunday qilib, to‘Idiruvchilar kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish-bog‘lanmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) mustaqil to‘Idiruvchilar; b) nomustaqlil to‘Idiruvchilar.

! **Juda muhim.** To‘g‘ridan to‘g‘ri kesimga tobe bog‘lanib kelgan to‘Idiruvchilar mustaqil to‘Idiruvchilar sanaladi. Masalan, seni sog‘indim gapida kimni? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi **seni** so‘zi kesim vazifasida keluvchi **sog‘indim** bo‘lagiga bog‘lanib, mustaqil to‘Idiruvchi vazifasida keladi. Kesim vazifasida kelmagan, bunday to‘Idiruvchilar o‘zi bog‘langan fe‘l bilan bog‘langan to‘Idiruvchilar nomustaqlil to‘Idiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun u biron-bir ikkinchi darajali bo‘lakning tarkibiy qismi — bo‘lakning bo‘lagi vazifasini bajaradi. Masalan, **Dangasaning non yeishini ko‘r** gapida **dangasaning non yeishini** birikmasi nimani? so‘rog‘iga javob bo‘lib, birikmali to‘Idiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo‘lagi esa kimning? va nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi aniqlovchi (*dangasaning*) va to‘Idiruvchi (*non*)larni o‘z ichiga oladi. Bu bo‘lak tarkibidagi **non** bo‘lagi nomustaqlil to‘Idiruvchi, bo‘lakning bo‘lagidir.

To‘Idiruvchilar kesim bilan qanday bog‘lovchi vosita yordamida bog‘-lanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: a) kelishikli to‘Idiruvchilar; b) ko‘makchili to‘Idiruvchilar. Masalan, **sen bilan** (kim bilan?) **olam munavvar** gapida **sen bilan** bo‘lagi ko‘makchili to‘Idiruvchi. Senga (kimga?) **aytar gapim bor** gapidagi **senga** bo‘lagi kelishikli to‘Idiruvchi sanaladi.

Tushum kelishigi bilan shakllangan to‘Idiruvchilarda to‘Idiruvchi bilan u bog‘langan hokim bo‘lak yonma-yon turganda tushum kelishigi ifoda-lanmasligi mumkin, lekin uning borligi so‘rog‘idan va kesimning o‘timli fe‘l ekanligidan bilinib turadi. Masalan, *shoirlari g‘azal bitadi*, gapida *g‘azal* so‘zi u bog‘langan kesim o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lib, nimani? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zning bo‘lishini talab qiladi. Agar to‘Idiruvchini kesimdan uzoqlashtirsak, to‘Idiruvchi bilan kesim o‘rtasiga boshqa bir so‘zni kirtsak, tushum kelishigi tiklanadi. Masalan, *g‘azalni shoirlari yozadi*. Ko‘rinadiki, tushum kelishigi doimo tushib qola bermaydi.

**Juda muhim.** To‘ldiruvchi hokim bo‘lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1) vositasiz to‘ldiruvchi; 2) vositali to‘ldiruvchi.

Tushum kelishigi orgali ifodalangan to‘ldiruvchi vositasiz, qolgan shakllardagi to‘ldiruvchilar vositali sanaladi.

**O‘ylang:** To‘ldiruvchilar faqat kesimga bog‘lanadimi?

**Tayanch tushunchalar:** mustaqil to‘ldiruvchi, nomustaql to‘ldiruvchi, kelishikli to‘ldiruvchi, ko‘makchili to‘ldiruvchi, vositali to‘ldiruvchi, vositasiz to‘ldiruvchi.

Quyidagi berilgan maqolning mag‘zini chaqing, to‘ldiruvchilarni aniqlang.

*Soyning suvini bahor toshiradi,  
Odam aqlini bilim oshiradi.*

**76-mashq.** Mashqni ko‘chiring. To‘ldiruvchilarni topib, ularning ifodalanishiga diqqat qiling. So‘ngra uning turini aytинг.

#### MA’NAVITY BOYLIK

Qadriyat atamasi keng bo‘lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlataladi. U inson faoliyatidagi rang-barang narsalar, tabiat hodisalari, qadriy munosabatlar uchun manba sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Demak, u insonning kundalik hayotida, ongingin shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Qadriyatlar mazmuni xilma-xil turga bo‘linib, turmushning barcha tomonlarini qamrab olgan. Faylasuf olimlar qadriyatlarni xarakteriga ko‘ra turlicha tasnif etadilar. Bir guruh olimlarning fikriga ko‘ra, ular «hayot qadriyatlari» va «madaniyat qadriyatlari»dan iborat. Ikkinchchi guruhdagilar esa madaniyatning an‘anaviy bo‘linishiga asoslanib, qadriyatlarni ham «moddiy» va «ma’naviy» tarzda tasnif etadilar. Uchinchi guruh olimlar qadriyatlarni «moddiy» va «ma’naviy» va «ijtimoiy-siyosiy» turlarga ajratishadi.

Yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda ikkinchi guruh tasnifiga asoslanish maqsadga muvofiq, chunki hozirgi jamiyat talabiga javob beruvchi yoshlarda har ikkala guruhga xos qadriy sifatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim.

(I. Rahimov)

**77-mashq.** O‘qing. Nomustaql to‘ldiruvchilarni aniqlab, ular ishtirok etgan gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

1. Biz jurnalist deganda, faoliyati hamma vaqt ham ko‘zga tashlana-vermaydigan zahmatkash va kamtarin muharrirlar, noshirlar, zamonaviy

axborot vositalarining ishchi-xizmatchilarini ko‘z oldimizga keltiramiz. 2. Vatanimiz erishgan yutuqlarda, hayotimizda amalga oshirilayotgan, faxr-u g‘urur qilishga arziyidigan o‘zgarishlarda jurnalistlarning hissasi bor. 3. Bugun biz yangi hayat qurayotgan ekanmiz, hayatning o‘zi jamiyatimizda hanuz saqlanib kelayotgan ba‘zi munosabatlarni tubdan o‘zgartirishga da‘vat etayotganini anglab olishimiz kerak. 4. Hayotimizda demokratik tushunchalarni qaror toptirish uchun bel bog‘lagan insonlardan o‘z burchini sidqidildan ado etishlari talab qilinadi. 5. Mehnat taqsimoti yuksak maqsad-larga erishishimiz yo‘lida biz uchun har tomonlama ma‘qul bo‘ladi.

(*Gazetadan*)

**78-mashq. Berilgan matnni davom ettiring. Mustaqil to‘ldiruvchilarni aniqlang.**

Non — bu mo‘jiza. Non — bu ilohiy ne’mat. Non — bu ona kabi muqaddasdir.

Ha, nonni ta’riflashga har qanday so‘z ojizlik qiladi. Non to‘g‘risida rejissorlar yuzlab filmlar yaratdilar.. Uning shifobaxsh xususiyati haqida shifokorlar ilmiy asarlar yozdilar. Non haqida ertakchilar ajoyib rivoyatlar-u ertaklar to‘qidilar...

**79-mashq. Muhammad alayhissalomning quyida berilgan vasiyatlarini o‘qing, uning mag‘zini chaqing. To‘ldiruvchilarni topib, qanday vositalar orqali shakllanayotganini, uning turlarini aytинг.**

N a m u n a : *Yo Ali, bir xurmoni (-ni) tirikligingda sadaqa qilishing, o‘lganidan so‘ng sen uchun (uchun) yuz tillani (-ni) sadaqa qilganlaridan (-dan ko‘ra) yaxshiroqdir.*

— Yo Ali, ahmoqning uch alomati bordir: Olloh taoloning farmonlarini bajo keltirmas; behuda so‘zlarni ko‘p so‘zlar; bandalarning orqasidan g‘iybat qilar.


— Yo Ali, solih kishining alomati uchdir: ixlos birla toat qilar; gunoh ishlardan o‘zini tiyar; yomonlik qilganga yaxshilik qilar.

— Yo Ali, badkorning alomati uchdir: Olloh taoloning toatini esdan chiqarar; Ollohnning bandalariga qo‘pollik, dag‘allik qilar; yaxshilik qilganga yomonlik qilar.

— Yo Ali, oliyhimmatlilik, saxiylikning alomati uchdir: qasos olishga qodir bo‘la turib, afv etar; molining zakotini to‘la berar; mehmonni e‘zoz-ikrom etar.

— Yo Ali, do‘sning alomati uchdir: o‘z nafsi do‘stiga fido qilar; molini unga bag‘ishlar; uning sirini asrab fosh etmas.

**80-mashq.** Rasm asosida akademik litseylar haqida matn tuzing. Matnda ishlatilgan gaplar ichidan to‘ldiruvchilarни aniqlab, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib yozing, ularga tavsif bering.



**81-mashq.** Nuqtalar o‘rniga quyidagi kelishik qo‘sishimchalari va ko‘mak-chilardan mosini qo‘ying. -ga, -da, -ning, -ni; qarab, tomon, yanglig‘, sari...

1. Netkay erdi o‘z otasi... o‘zi tosh otgan padarbezorilar... qo‘llari shol bo‘lsa?! 2. Koshkiydi, ozod qush... aylansam-u qoshingiz... uchib borsam, diydangiz yarasi..., dilingiz jarohati... malham bo‘lolsam! 3. Koshkiydi, hayotbaxsh shamol... boshingiz ustidagi qora bulutlar... quvolsam! 4. Qismat bu isnod-u uyat... ayni biz... boshimiz... solgan erkankim, shul zamон... tug‘ilganim... pushaymonda..., musibatli damlar... qulayotgan saltanat tojdori... — Sizga, Qiblagoh, qanot bo‘lomaganim... ozurda va armondamon! 5. Dushmanlar Xorazm... bormoqdalar, chunki tuprog‘i ofatlar... bardoshli, el-ulusi sabr-qanoatli, jo‘mard, tili... Olloh kalomi, dili... imon-e’tiqod quvvati bisyordir.

(E. Samandar)

**82-mashq.** She’rni o‘qing, to‘ldiruvchilarni topib, ularni izohlang.

### OLLOH BERGAN FARZANDLARIM

Sizni ko‘rsam, yayrar tilim,  
Mehrim iyib, sayrar tilim,  
Qalbga shodlik to‘lar lim-lim,  
Olloh bergen farzandlarim...

Kimga Olloh davlat berdi,  
Kimga obro', savlat berdi,  
Menga Sizdek bir baxt berdi,  
Olloh bergen farzandlarim...

Kimda boylik qator-qator,  
Lekin sho'rlik tirnoqqa zor,  
Mening Sizdek boyligim bor,  
Olloh bergen farzandlarim...

Yarab xalqning bir koriga,  
Shukr qilib yo'q-boriga,  
Kirdi elning qatoriga,  
Olloh bergen farzandlarim...

O'tar bo'lsin, yod qilguvchi,  
Qabrim uzra dod solguvchi,  
Chirog'im yoqib qolguvchi,  
Olloh bergen farzandlarim...

Halol bo'lsin oshingiz-ey,  
Baxtga to'lib-toshingiz-ey,  
Toshdan bo'lsin boshingiz-ey,  
Olloh bergen farzandlarim...

(A. Sobirov)

**83-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarini toping. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.**

## MEHNATSEVARLIK

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-onasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Shu tufayli bolalarining kelajagini o'ylab, ularni mushtumdek paytlaridan mehnatga o'rgatadilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu, ammo ba'zi bolalar ro'zg'or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quzdorlarga qaraganday o'qrayib, yeb yuborgilari kelguday bo'lib qaraydilar. Malol kelib, qo'l uchida qilgan ishlaridan ota-onalari norozi bo'lishsa, uzr so'rash o'rniqa to'ng'illab beradilar. Ota-onasining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'nkitirish zimmalaridagi burch ekanligi shunday yo'l tutishga majbur qiladi.

Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan kaltabin yoshlarga qarab shoir degan ekan:

*Kimki o'rganishni or bildi,  
Har qadamda o'zni xor bildi.*

(M. Ismoilov)

**84-mashq.** Uyga topshiriq. To'ldiruvchi ishtirok etgan gaplar tuzib yozing yoki uni o'qigan badiiy asaringizdan topping. Unda to'ldiruvchilar: ot, olmosh, sifat, son, harakat nomi, sifatdosh, iboralar bilan ifodalansin.

### 13-DARS. HOL VA UNING IFODALANISHI

**Darsning maqsadi:** talabalarning hol va uning ma'no turlari yuzasidan o'rta umumiy ta'linda olgan bilimlarini mustahkamlash.

#### R E J A:

1. Hol haqida umumiy ma'lumot.
2. Holning ma'no turlari.

✓ **1-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zlarni qo'yib, kesimga bog'lang.

*qachon?      qayerdan?      qayerga?      qanday?*  
.....      .....

keldim.

**2-topshiriq.** «O'qidi» so'zi talab etgan harakat o'rnini, paytini, tarzini (qandayligini) bildiruvchi so'zlarni qo'yib ko'chiring.

👉 **Esda saqlang.** Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo'lagiga hol deyiladi. Hollar qanday? qanday qilib? qay holda (tarzda?), qachon (-gacha,-dan, -dan buyon)? qayer (-da, -ga, -dan?), nima sababdan? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

❗ **Juda muhim.** Hol doimo fe'l kesimga bog'lanadi. Masalan, Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar gapida qarar so'ziga mo'ralab so'zi bog'lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, ko'kdan so'zi qarar so'ziga bog'lanib, uning o'rnini bildiradi. Ba'zan hol ot kesimlarga ham bog'lanishi mumkin. Bunday vaqtida hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o'rnini bildiradi. Masalan: *Andijonda o't yoqsam, O'shda tutuni.*

T/r	Holning ma'no turlari	Izohi	So'rog'i	Shakllari	Misollar
1.	Ravish holi	<i>Fe'l kesimdan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi.</i>	<i>qanday? qanday qilib? qay holda?</i>	<i>Ravish, -ib, taqlid so'zlar</i>	<i>Tez o'qidi, yugurib keldi, g'ir-g'ir esdi.</i>
2.	O'rin holi	<i>Kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish o'rnini bildiradi.</i>	<i>qayerda? qayerdan? qayerga?</i>	<i>O'rin oti+da, +dan O'rin ravishi +ga sari, tomon, +ga qarab</i>	<i>Bozordan oldim. Bog'ga chiqdim. Dala tomon ketdi. Dalaga qarab ketdi.</i>
3.	Payt holi	<i>Fe'l kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish paytini bildiradi.</i>	<i>qachon? qachon-gacha? qachondan? qachon? qachondan buyon?</i>	<i>Payt oti +da +dan Payt ravishi +gacha, +guncha</i>	<i>Tongda, ayozda, hozirdan tayyorlan. Hozirgacha o'tiribdi. Charchaguncha ishla.</i>
4.	Sabab holi	<i>Fe'l kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik sababini bildiradi.</i>	<i>nimaga? nima uchun? nima sabab?</i>	<i>-ligi (sababli, uchun, tufayli) -ligidan, -ib</i>	<i>Yaxshi o'qiganligi-dan institutga kirdi.</i>
5.	Maqsad holi	<i>Fe'l kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish maqsadini bildiradi.</i>	<i>nima maqsadda? nima uchun?</i>	<i>-gani, -sin deb, -(i)sh maqsadi-da; uchun</i>	<i>O'qigani keidi. O'qish maqsadida ketdi.</i>

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar xuddi to'ldiruvchilar kabi mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi.



**Esda saqlang.** *To'g'ridan to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi.*

Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish.* (*H.Olimjon*) Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi *dalalarda* o'rinni holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir.



**Esda saqlang.** *Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaql hol hisoblanadi.*

Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxbab qoldi.* Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan *daladan* bo'lagi kesimiga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi *charchab kelgan* bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol **nomustaql hol** hisoblanadi.

Hollar o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ravish holi; 2) o'rinni holi; 3) payt holi; 4) sabab holi; 5) maqsad holi.

Holning ma'no turlari, ularning shakllari va ichki ma'nolarini 1-jadvalda ko'ring.

**O'ylang:** Hollar fe'l kesimning qanday belgilarni bildiradi?

**Tayanch tushunchalar:** fe'l kesim, o'rinni holi, payt holi, ravish holi, ravishdosh, sabab holi, maqsad holi.

Quyidagi maqolning mazmunini aytib bering hamda hollarni topib, uning ma'no turlarini tushuntiring.

*Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozu.*

**85-mashq.** *O'qing. Hollarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga birikma tarzida ko'chiring, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalangananini va turini aytинг.*

1. Xiyobonning chap tomonida kutubxona joylashgan. 2. Xiyobon oxirida ayvoni baland bahavo binoni butun hovlining ko'rki desa bo'ladi.
3. Ular qushdan ham yengil uchardilar. 4. Oraga jimlik cho'kdi, hammaning qulog'i ding bo'ldi. Hech qayerdan hech qanday sado eshitilmas, faqat Chorsu maydoni tomonda sadaqa so'rab yurgan bir gadoning o'tkir ovozi elas-elash qulorra chalinardi. 5. U sal noxushlik sezaga boshladi. 6. Lakshman esa darrov tanidi, ularni Chorsu maydonida, bozorda, to'y-tomoshalarda ko'p ko'rgan. 7. Shunday dedim-u apil-tapil ko'zimni ochdim! 8. Men atay indamasdan chiqib ketayotgandim. 9. Axsidan chiqib ketganimning beshinchi yili Xo'jandda turganimda yashirinchalari ko'rib kelishga qaror qildim. 10. Samarqand hokimi maktubni avaylab naycha holiga keltirdi-da, bir lahza Chorsu tomonga, uzoqlarga tikildi. 11. Abu Bakr Kalaviy pokdomon odam edi.

*(Muhammad Ali)*

**86-mashq.** O‘qing. Hollarni topib quyidagicha tahlil qiling:  
a) ma’nosiga ko‘ra turi; b) qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi;  
d) tuzilishiga ko‘ra turi (sodda yoki birikmali).

1. U hayron bo‘lib ohista boshini ko‘tardi, oyoqlarini ko‘rpaning ichiga uzatib o‘tirgan holda qulqoq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuyulari hamisha qulog‘i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiydag‘i qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Oyqiz o‘z-o‘zicha o‘ylanar edi. 6. Ko‘zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo‘rozning bo‘g‘iq ovozidan uyg‘onib ketdi. 7. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi. 8. U o‘zini zo‘rg‘a bosib olib, Umurzoq otaning ko‘kragiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi. *(Sh. Rashidov)*

**87-mashq.** Quyidagi shakllar yordamida hol ishtirok etgan gaplar tuzib yozing: o‘rin oti+da, o‘rin ravishi+dan, +ga, sari, tomon, +ga qarab.

**88-mashq.** Birikmalarni kengaytiring, hollarni aniqlang.

Tez payqadim, aytib qo‘yay deb keldim, so‘rashgani bordi, bilganimiz uchun bordik, silkina-silkina keldi, tez bordi, birpas og‘ridi, ancha ko‘tarildi, ko‘p yema, ikki hissa oshdi, uy ichi, kundan kun isidi, o‘qday uchdi, astasekin kirdi, muttasil gumburlaydi, astoydil bo‘ldi.

**89-mashq.** Biror badiiy asardan sabab holi ishtirok etgan gaplarni topib yozing (quyidagi shakllarga e’tibor bering: -ligi, -ligidan, -ib, sababli, tufayli).

**90-mashq.** O‘qing. Ravish holi bilan sifatlovchi aniqlovchilarни aniqlab, farqini tushuntiring.

1. Uning yoqimli qo‘shiqlarini eshitsam, o‘y-xayollarim uzoq-uzoqlarga uchib ketardi. 2. U xatni darrov yozdi. 3. Nega Oyqiz qichqirib yig‘laydi. 4. Hamon cholga termilib yotgan Xolbibining ko‘zlari jiqqqa yoshga to‘ldi. 5. Xolbibi cholning so‘zlarini qunt bilan tinglab, yana o‘rnidan turishga intildi. Karavotdan zo‘rg‘a yerga tushib, bir zum tik turgan edi, ko‘zlari tinib, gandiraklab ketdi. Umurzoq ota uni darhol suyab qoldi. 6. Oyqiz oyisini chiroqli xontaxta oldidagi ko‘rpachaga avaylabgina o‘tkazdi. 7. Ertasiga Umurzoq ota yana yangi xabar keltirdi. 8. Qizining yelib-yugurib ish qilishini, uddaburonligini va, ayniqsa, o‘ziga muttasil mehribonlik qilayotganini ko‘rgan ona ich-ichidan quvonardi. 9. O‘zini sovuqdan qaltirayotgandek his qilgan kampir qizi bergen choydan qaynoq-qaynoq ichgach, tanasiga yoqimli issiqlik yugurdi. 10. U nimjon qo‘llari bilan dasturxon ustidagi chiroqli piyolani oldi, odatdagidek tizzasining ustiga qo‘yib, piyolani ikki qo‘llab ushlaganicha, unga tikilgan holda xayolga cho‘mdi. *(Sh. Rashidov)*

**91-mashq.** Uyga topshiriq. Rasm asosida «O'zbekiston qizlari» mavzusida matn tuzing. Matnda ishtiroy etgan hollarni aniqlang.



**92-mashq.** Ikki guruhga bo‘lining. Nuqtalar o‘rniga bir necha hollarni qo‘yib ko‘chiring. (Ikki talaba yozuv taxtasida musobaqa tarzida o‘tkazsa ham bo‘ladi.)

U . . . . . gapirdi. Bahor . . . . . keldi.  
Kim ko'p, to'g'ri, tez yozadi.

**93-mashq.** Hol ishtirok etgan gaplar yozing. Unda hol ot, sifat, son, olmosh, ravish, ravishdosh, sifatdosh, taqlid so‘zlar bilan ifodalansin.

**94-mashq.** Bobur g‘azalini ifodali o‘qing. Undagi gap bo‘laklarini aniqlab, ostiga chizing.

MENING KO'NGLUMKL...

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,  
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog' gashtin orzu qilsam,  
Ko'zumga o'qdurur sarv-u ko'ngulga g'uncha paykondur.

Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning,  
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur.

Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,  
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik sondur.

Boshidin evrulur armoni birla o'ldum, ey Bobur,  
Mening na'limni bori ul pari ko'yidin aylandur.

**Lug'at:** paykon — kamon uchidagi metall, bashoq; xiromon — chiroli yurish; dushvor — qiyin; boshidin evrulur — aylanmoq; na'l — tobut; aylandur — aylantir.

**95-mashq.** Quyida berilgan matnni o'qing. Xulosa chiqaring. Siz ham «Men kesimman», «Men to'ldiruvchiman», «Men holman» mavzusida matn tuzing. Matningizda, albatta, badiiylik aks etsin.

Men o'zbek tiliman! Ming jafolardan, qirg'inlardan, talafotlardan omon chiqqan, o'zbek xalqiga vafodor o'zbek tiliman. Buyuk Alisher bobom meni o'z g'azallari, doston-u asarlari bilan hurmatga, e'zozga sazovor etdi. Men bobom orqali e'tiborga ega bo'ldim, so'zlarim beqiyos darajada ko'payib ketdi. Ularning sejiloligi, mazmundorligi yanada ortdi. Hozir ham ba'zilar menga zug'um qilishmoqda, so'zlarimni boshqa tildagi so'zlar bilan almash-tirib ishlatishmoqda. Mening ishlatilish joylarimni chegaralab qo'yishmoqda, keraksiz so'zlarni bizning oramizga olib kirmoqdalar. Kelinglar, o'zbek tilini hurmat qilaylik, uning boyligiga hissa qo'shaylik. Ana o'shanda men rivojlanaman, obro'ga ega bo'laman, muomalada faol ishtirok etaman.

(Sh. Yusupova)

#### **14-DARS. ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI. SIFATLOVCHI ANIQLOVCHI**

**Darsning maqsadi:** aniqlovchi va uning gap tuzilishidagi o'rni haqida talabada ko'nikma hosil qilish.

##### **R E J A:**

1. Aniqlovchi haqida.
2. Aniqlovchilarning ma'no turlari.

**Quyidagi savolga javob bering. Qaysi gulni sevasiz?**

✓ **1-topshiriq.** Oq gul, chiroli gul, yovvoyi gul birikmalaridagi so'zlarining bir-biriga bog'lanish holatlarini aniqlang.

**2-topshiriq.** Yuqorida javobingizda gul so'ziga bog'lanib kelgan so'zni aniqlang va uning qanday gap bo'lagi ekanligini ayting.

👉 **Esda saqlang.** Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak aniqlovchi hisoblanadi.

Masalan, *Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin gapida nima tarqaladi?* so'rog'iga *shakar qovunlarning mayin hidlari* birikmasi javob bo'ladi. Demak, bu birikmaning hammasi yaxlit holda birikmali ega vazifasida keladi. Birikmali ega, o'z navbatida, aniqlovchi va aniqlanmish

qismlariga bo‘linadi: *shakar qovunlarning* (qaratqich aniqlovchi) *mayin hidlari* (aniqlanmish). Qaratqich aniqlovchi ham, aniqlanmish ham birik-mali bo‘lib, ular sifatlovchi va sifatlanmishlardan tashkil topgan. *Shakar* (sifatlovchi) *qovunlarning* (sifatlanmish), *mayin* (sifatlovchi) *hidlari* (sifat-lanmish).


Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifatdoshlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga ko‘ra uch turli bo‘ladi:

- a) sifatlovchi aniqlovchilar;
- b) qaratqich aniqlovchilar;
- d) izohlovchi aniqlovchilar.

### Sifatlovchi aniqlovchi

✓ **1-topshiriq.** «Olma» so‘zi bilan bog‘langan so‘roqlar o‘rniga mos kelgan so‘zлarni qo‘ying. Bu so‘zlarning qanday belgi bildirayotganini ayting.



! **Esda saqlang.** Predmetning belgisini (*ta’m-maza, xil-xususiyat, miqdor, tartib, o‘rin-paytga munosabat*) bildirgan aniqlovchilarga sifatlovchi aniqlovchi deyiladi.

Sifatlovchi aniqlovchilar qanday? qanaqa? qancha? nechta? qaysi? qanaqa? qayerdagи? nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan, *qizil* (qanday?) *olma*, *uchta* (nechta?) *olma*, *ana bu* (qaysi?) *olma*, *adirdagi* (qayerdagи?) *olma*, *kechagi* (qachongi?) *olma*, *uchinchi* (nechanchi) *sinf* kabi.

! **Juda muhim.** *Sifatlovchi aniqlovchi sifatlovchi, aniqlanayotgan predmet esa sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati sifatlovchili birikma sanaladi.*

**O‘ylang:** Aniqlovchilar faqat belgi bildiradimi?

**Tayanch tushunchalar:** aniqlovchi, sifatlovchi, sifatlanmish, sifatlovchili birikma.

Quyida berilgan maqolning ma’nosini izohlang; o’zaro fikrlashing, aniqlovchilarini toping.

*Yaxshi so‘zga uchar qushlar el bo‘lar,  
Yomon so‘zga pashsha kuchi fil bo‘lar.*

### **96-mashq. O‘qing. Sifatlovchi aniqlovchi qanday ifodalanganligini ayting.**

1. Usta Binoql shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi. 2. Hofiz Ko‘ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko‘proq o‘z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi. 3. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vaznin, maroqli gurunglari yo‘l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho‘lning o‘lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag‘ishlagandek bo‘lar edi. 4. O‘n sakkizinch kuni sahar chog‘i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi. 5. Eski imlodagi bir risola diqqatini tortdi. 6. Garchi bundoq xom xayollar bilan shu ravonda o‘zimni aldab necha kuz-u, necha bahorni besamar o‘tkazib yuborgan bo‘lsam-da, baribir bu safar ishonchim komildek tuyulardi. (*X. Sultonov*)

### **97-mashq. Yod olgan she’rlaringizni esga oling. Undan sifatlovchi aniqlovchilarni toping.**

**98-mashq. Muhammad Kamolning «O‘g‘lim Ahmadga o‘gitlar»ini o‘qing. Ushbu matnning ichidan sifatlovchi va sifatlanmishlarni so‘z birikmasi tarzida alohida ko‘chirib yozing.**

Ahmad, senga erta uyg‘onib toza havoda aylanishni nasihat qilaman. Bu ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lishing uchun zarurdir.

Keng moviy dengizlar va yuksak tog‘lar bag‘rida sayr etish inson tafakkurini charxlaydi, hayotining mohiyatini anglatadi.

O‘g‘lim! Ma’naviy va moddiy tarafdan senga ta’sir qilgan ulug‘ insonlarning yaxshiliklarini unutma. Bugun do‘sit bo‘lib turib, ertaga dushmanqa aylanadigan odamlardan o‘zingni uzoq tut. Siringni yaxshi tanimagan odamingga aytma, uni qalbingda saqlashing foydaliroqdir. Biroq barcha do‘srlaringga birday yaxshilik qil, munofiq insonlardan uzoq yur. Bir kishi so‘rabdiki: «Ey ustoz! Insonlar bilan muomalada qanday yo‘l tutganim ma‘qul?» Ul ustoz: «O‘g‘lim, sen hech tikanli dalada yalangoyoq yurib ko‘rganmisan?» debdi.

«Ha, yurganman.»

«Qanday yurgansan?»

«Ehtiyyotlik bilan sekin yurganman.»

«O‘g‘lim, sen ham odamlar bilan xuddi shunday ehtiyyotlik bilan muomalada bo‘l»,— debdi ul nasihatgo‘y.

## 15-DARS. QARATQICH ANIQLOVCHI. IZOHLOVCHI ANIQLOVCHI

**Darsning maqsadi:** talabalarning qaratqich aniqlovchilar, shuningdek, izohlovchi aniqlovchilarning qo'llanishi haqida bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish.

### R E J A:

1. Qaratqich aniqlovchilar.
2. Qaratqich bilan qaralmish o'rtasidagi moslashuv munosabati.
3. Izohlovchi aniqlovchi.

✓ **1-topshiriq.** Berilgan kataknini quyidagi so'zlardan muvofig'i bilan to'ldiring.

kimning? nimaning?	nimasi?

Daryo, shovulla;  
Mirzacho'l, shamol;  
Shaftoli, hid;  
Maktab, hovli.



**Esda saqlang.** Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik belgisini bildirgan aniqlovchiga qaratqich aniqlovchi deyiladi.

Masalan, Mirzacho 'Ining shamoli. O'rik guli kabi.



**Juda muhim.** Qaratqich aniqlovchi qaratqich, qaratqich aniqlovchi bog'langan bo'lak esa qaralmish deyiladi. Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma hisoblanadi.

Qaratqich aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini, qaralmish egalik qo'shimchasi shaklini olgan bo'ladi. Ba'zan bu shakllar ifodalanmasligi mumkin. Qaratqich va egalik shakllarining ifodalanishi quyidagicha bo'ladi:

- a) ot+qaratqich-ot+egalik
- b) ot+qaratqich-ot+fe'l
- c) ot+fe'l-ot+egalik
- d) ot+fe'l-ot+fe'l

- Litseyning ko'rinishi
- Quyoshning nuri
- Shahar ko'chalari
- Bozor ko'cha



**Juda muhim.** Qaratqichda qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. Agar qaratqich atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, albatta, qaratqich kelishigi bilan qo'llanadi.

Shuningdek, qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa bir so‘z bo‘lsa, qaratqich kelishihi tushib qolmaydi. Masalan, *Mirzacho’l shamoli*, *Mirzacho’ning sovuq shamoli*.

Qaratqich bilan qaralmish o‘zaro shaxs-sonda moslashadi. Masalan: *Mening daftaram, sening daftaring, uning daftari*.

**99-mashq.** Berilgan gaplarni o‘qib, qaratqichli birikmalarni ajrating va maxsus chizgilar bilan ko‘rsating. Ifodalanmay qolgan shakllarni — qaratqich yo qaralmishni aniqlang.

1. Bir inson taqdirida o‘n yil davomida ne-ne o‘zgarishlar bo‘lmaydi.
2. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida yaxshi natijalarga erishayotgan siz — farg‘onalik dehqonlarning bu yutug‘ingiz viloyatda islohotlarning izchil amalga oshirilayotgani, odamlarda o‘z yeri, o‘z mulkiga nisbatan egalik tuyg‘usi shakllanayotgani, mehnatga munosabatning o‘zgarayotganidan yaqqol dalolatdir.
3. Farg‘ona viloyati mehnatkashlari qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarida ham yuksak natijalarga erishib, mamlakatimizning yanada gullab-yashnashi, el-yurt farovonligiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi.
4. Sizlarning ana shu yo‘ldagi xayrlı ishlaringizda omad, xonardonlaringizga qut-baraka tilayman.
5. Yurtimiz o‘g‘il-qizlarining dunyo yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladigan tadbirdorda ishtirok etishi odatiy holga aylanmoqda.
6. Islohotlarning taqdiri va samarasi, birinchi navbatda, kadrlarning saviyasi, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog‘liq javob berishiga taqalib qolar edi.

(*Gazetadan*)

**100-mashq.** Gaplarni to‘g‘ri holatga keltirib ko‘chiring. Qaratqich aniqlovchi va tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi o‘rtasidagi uslubiy xatolarni aniqlang.

1. Daxlsizlikning ta’minlaydigan bu belgi, mamlakat hukmdorini o‘ng qo‘li.
2. Barchasini oldini olmog‘imiz lozimdir.
3. Urushni urushdan farqi bor.
4. Samarqandda kecha ming kishilar jamaoa fuqaroligini orzu etib, bizni hujra eshigin qoqadurlar.
5. Ammo siyosiy ishlarni to‘qqiz ulushini kengashga qo‘yib, bir ulushining qilichga qoldirishga o‘rgangan Temurbek boshqacha o‘ylardi.
6. Amir bizni kor-holimizdan shunchalar boxabar ekanlarki, ko‘rib hayrat barmog‘ini tishladim.
7. Bog‘bonni gaplari barchasin o‘ylatib qo‘ydi.

(*Muhammad Ali*)

**101-mashq.** Gazeta yoki jurnaldan qaratqich ishlatilmay, faqat qaralmishning o‘zi ishlatalishga misollar yozing.

N a m u n a : *O‘zimning ishim boshimdan oshib yotibdi — ishim boshimdan oshib yotibdi.*

**102-mashq.** Qaratqich aniqlovchi qaralmish bilan so‘z birikmasi tarzida berilgan. Siz uni gapga aylantirib yozing.

Vatanimning yoshlari, gul hidi, bahorning go‘zalligi, Ilyosning yoshligi, A. Oripov she’rlari, nayning navosi, asarning tili, dunyoning ishlari, sohibkorlarning mehnati, onayizorimning iltijolari, qoshining qorasi, hayot bo‘stoni, bolaning orzusi, ko‘chaning ko‘rki, Amir Temurning vasiyatlar...

**103-mashq. O‘qing, qaratqichni toping, qanday ifodalanganini uning ustiga yozing.**

1. Ovsarlikni qarangki, g‘aflat bosib birovning uyiga kirib qolibman!
2. Shoshib bekaning ishxonasiga sim qoqdim. 3. Har birining o‘ltirgan joyini hozir ham aniq ko‘rsatib bermog‘im mumkin! 4. Ular qanday qilib til topishganining sababi menga ayon edi. 5. Notovon qulgingizning boshidan mundoq savdolar ham o‘tgani. 6. Bir o‘lib-tirilgan kimsaning umri uzoq bo‘ladi, deydilar. 7. Bu gaplar qiz qalbining istig‘nolari emasligini angladim. 8. Qunduzning diydori-yu, bir og‘iz shirin so‘zidan mast bo‘lib: «Xo‘p, Qunduz, aytganing bo‘lsin», — dedim. 9. O‘n ikki yashar bolaning qo‘lidan nimayam kelardi. 10. Bundog‘ xom xayolga berilganimning boisi shundaki, maoshgacha yetti kun-u, kissamda uch so‘m qolgan edi. 11. Har nechuk, shu narsaga iqrormanki, muhabbat savdosining katta-kichigi bo‘lmas. 12. Shunga ulov bir-birining ketiga tiqilib yotmasa-yu, avtobusga o‘xshab ba‘zi birlarini tez yurash qilib qo‘ysa bo‘lmaydim! (X. Sultonov)

**104-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Uni og‘zaki nasriy bayon qiling. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni topib, qaratqichni qaralmish bilan, sifatlovchini sifatlanmish bilan birga ko‘chirib yozing.**

**KO‘KLAM KELADIR!**

Ko‘klamoyim yo‘lga chiqqan. Ko‘klamoyim qo‘zg‘algan,  
Ko‘k ko‘ylakning bitishiga, uncha ko‘p ham qolmagan!

Tiniq havo... ko‘k yuzinda oppoq, harir pardadek  
Oq bulutlar, unda-munda yopilganlar parishon.

Shu’lalarning aksi bilan, yiltillagan, yongandek,  
Kun tig‘lari, qarashlarga o‘tkir-o‘tkir sanchilgan...

Qip-yalong‘och daraxtlar ham quchoq ochib, ko‘z tutib,  
Ko‘k ko‘ylakning bitishini chidamasdan kutalar.

Qarg‘alar ham qishda qilgan gunohlarni unutib,  
Uzr aytmasdan, indamasdan uchib-uchib ketalar.

Sezgilarni uyg‘otuvchi hidli gullar to‘planib:  
«Biz ham yo‘lga chiqdik!» deya yuborganlar bir chopar.

Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar uyg‘onib,  
Ert-a-indin bog‘chalarga, chamanlarga oralar.

Ko'klamoyning ipak ko'yvak etaklari sudralib,  
Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.

U silashdan, u siypashdan quvvat olib, kuch olib,  
Qora yer ham ko'ksidagi oltinlarni beradir.

Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish keladir,  
Ko'ngillar ham havolardek ko'klam hidi beradir,  
Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kiradir!..

(*Abdulhamid Cho'pon*)

### Izohlovchi aniqlovchi

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi atoqli otlarga kasb, unvon, amal bildiruvchi so'zlarni qo'shib gap ichida keltiring. Erkin Vohidov, Pirimkul Qodirov, Jo'ra.

Ayrim otlar, hatto atoqli otlar ham ba'zan bir necha shaxslarni ifodalashi mumkin. Bunday vaqtida ko'pincha qaysi Ahmad, qaysi Karim singari so'roqlar yordamida gap kim haqida ketayotganligini aniqlashtirib olamiz. Ana shu vaqtarda izohlovchilarga ehtiyoj tug'iladi.

👉 **Esda saqlang.** *Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydig'an bo'lakka izohlovchi aniqlovchi deyiladi.*

Masalan, *akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar* kabi.

👉 **Esda saqlang.** *Izohlovchi bog'langan hokim bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish munosabati izohlovchili birikma sanaladi.*

Izohlovchi-izohlanmish munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o'xshaydi, lekin ular qanday so'zlar bilan ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatida sifatlovchi, asosan, **sifat** va sifatlashgan so'zlardan ifodalanadi. **Sifat+ot** ko'rinishida bo'ladi. Solishtiring: *qizil gul* (sifatlovchi-sifatlanmish); *professor G'ozi Olim Yunusov* (izohlovchi-izohlanmish).

Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Erk kuychisi — Abdulhamid Cho'pon she'rлarini sevib o'qiyan*.

*Hayotning poyonsiz ummoni ichra  
Bor shunday g'ariblar — temirlar hissiz.* (A. Oripov)

**O'ylang:** Qaratqich bilan qaralmishning, sifatlovchi bilan sifatlanmishning, izohlovchi bilan izohlanmishning o'xhash va farqli tomonlari bormi?

**Tayanch tushunchalar:** sifatlovchi, sifatlanmish, izohlovchi, izohlanmish, qaratqichli birikma, sifatlovchili birikma, izohlovchili birikma, qaratqich, qaralmish.

Quyidagi maqol asosida balis yuriting. Qaratqich aniqlovchini toping.

*O't bilan o'ynashmoq tentakning ishi,  
Yurt bilan o'ynashmoq ahmoqning ishi.*

**105-mashq.** O'qing. Izohlovchilarни topib, ularning ma'no turlarini va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aytинг. Izohlovchi aniqlovchilarning boshqa turlardan farqini tushuntiring.

1. Karatechi qizlar dastlabki musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritdilar.
2. Bobo shilpiq ko'zları yoshlanib deraza oldida ko'k yaktaklarini yamab o'ltirardilar.
3. Kechqurun Naim melisanikaga kelin tushdi.
4. Go'shtni belbog'ga tugib, eski oshnasi — usta Shonazarning do'koniga bosh suqdi, o'tgan hafta buyurib ketgan cholg'i-o'rog'ini surishtirdi.
5. O'zbek tili o'qituvchisi kasal ekan, o'rniga rus tili muallimasi Yelena Nikitichna kirdi.
6. Beg Piskent viloyat begi Mulla Abdulmannonning inisi.
7. Bilaman, xabarim bor, mulla Haydarning mo'min otlig' bir parishon o'g'li Samarcandda ekanimda qoshimga kelib edi.
8. Axir, sulton Mirzo Ulug'bekdek fozili zamonning noraso farzandi Abdullatif shu besh kunlik o'tar dunyo uchun shundoq qari va donishmand otasini qatl etdi. (X. Sultonov)
9. Yo'lchi o'z do'sti Qoratoy temirchi bilan hangomalashib o'tirar edi. (Oybek)
10. Kechqurun qurilish boshlig'ining muovini Oyqiz Umrzoqova, ertaga to'g'on qurilishi boshlansin, degan buyruqqa imzo chekdi. (Sh. Rashidov)

**106-mashq.** Rasm asosida «Ona — ulug' zot» mavzusida matn tuzib, unda ishlataligan aniqlovchilarga va izohlovchilarga izoh bering.



**107-mashq.** Ko‘chiring. Quyida berilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ma’nosini yanada kengaytirib tushuntiring. Izohlovchilarни toping.

Mustaqillik bizning or-nomusimizga, faxr-u g‘ururimizga, vijdon va imonimizga aylandi. Ona-Vatan tushunchasi, hurriyat va demokratiya g‘oyalari, Mustaqillik, istiqlolni qadrlash tuyg‘ulari odamlarimiz qalbidan muhim o‘rin oldi.

## 16-DARS. UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR

**Darsning maqsadi:** talabalarning o‘rtta umumiy ta’limda uyushiq bo‘laklar haqida olgan bilimlarini mustahkamlash va ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.


### R E J A:

1. Uyushiq bo‘laklar haqida.
2. Uyushiq bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishi.
3. Uyushiq bo‘laklarning hokim bo‘lak bilan bog‘lanishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi gapda nuqtalar o‘rniga muvofiq keluvchi so‘zlarni qo‘ying va bu so‘zlarning qaysi so‘z bilan bog‘lanayotganligini aytинг:

Bog‘imizda ..., ..., ...lar gulladi.

**2-topshiriq.** Quyidagi kataklarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring. Bu so‘zlarning hokim bo‘lak bilan va o‘zaro qanday bog‘langanini aytинг:



Gapda ikki va undan ortiq bir xil gap bo‘laklari ishlatilishi mumkin. Masalan, *Eshilib, to‘lg‘onib ingranadi kuy.* (A.Oripov) Bu gapda *eshilib, to‘lg‘onib* so‘zлari bir hokim bo‘lakka — *ingranadi* ga tobe bog‘lanadi va har ikkisi bir xil so‘roqqa (*qanday?* so‘rog‘iga) javob bo‘ladi. Har ikkisi bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Bu ikki bir xil bo‘lak bir-biri bilan sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.

☞ **Esda saqlang.** Bir umumiy bo‘lakka tobe bog‘lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o‘zaro teng bog‘lovchilar va sanash ohangi yordamida bog‘langan, ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi ikki yoki undan ortiq bo‘laklarga uyushgan bo‘laklar deyiladi.

Gap bo'laklari ham, bo'lakning bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin. Masalan, *Rangi o'chgan, umri kechgan kuz guli...egil* (*Cho'pon*) gapida *rangi o'chgan, umri kechgan* bo'laklarining har ikkisi *qanday?* so'rog'iga javob bo'lib, *kuz guli* bo'lagiga tobe bog'langan. Bu bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida teng bog'langan eganining aniqlovchilari sifatida bo'lakning uyushgan bo'laklari sanaladi.

Uyushgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo'lakli gaplar hisoblanadi.

**O'ylang:** Uyushiq bo'laklar bir xil gap bo'laklari ekan, bir xil so'z turkumi ham bo'la oladimi?

**Tayanch tushunchalar:** sanash ohangi, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, umumiy bo'lak.

Quyidagi maqolning ma'nosini ayting hamda uni bahsga aylantiring. Shu maqolda uyushiq bo'laklar bormi?

*O'roqda yo'q, mashqda yo'q, xirmonda hozir.*

### **108-mashq. Gaplarni o'qing. Uni uyushiq bo'lakli gaplarga aylantiring.**

*Namuna:* Vatan ravnaqi uchun kuchini baxshida etadigan farzandlarni voyaga yetkazgan yurtning kelajagi buyukdir — Vatan ravnaqi, el-u yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun qalb qo'ri, kuch-qudratini baxshida etadigan har jihatdan barkamol farzandlarni voyaga yetkazgan yurtning kelajagi buyukdir.

1. Qatag'on qurbanlari — fitratlarning istiqlol uchun kurash dasturlarining asosida ham ona tilining mavqeyini saqlab qolishi masalasi turgan.
2. Ona tilimizni kelajakka sof holda yetkazib beraylik!
3. Ota-onalaringizning orzulari ushalgan muborak kunda sizga oq yo'l tilayman.
4. Eng sodiq do'st kitobdir.
5. Mustaqilligimizning shukuhli 13 yilligini munosib kutib olishga harakat qilayotirmiz.
6. Pilla hoslining mo'l bo'lganligi odamlarning kayfiyatiga jo'shqinlik baxsh etyapti.
7. Milliy maskura jahonda o'zimizning munosib o'rnimizni topishimizga xizmat qilishi kerak.
8. Kitobda Jom qishlog'i tarixiga oid ma'lumotlar saqlanib qolgan.
9. Yoshlar litseyda ingлиз tilini puxta o'rganayotirlar.
10. Biz o'z ustimizda doimo ishlab, jamiyatimizga yetuk insonlar bo'lib yetishishimiz darkor.
11. Istiqlol xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqardi. (Gazetadan)

### **109-mashq. Quyida berilgan matnni o'qing. Uyushiq bo'laklarini toping hamda alohida ko'chirib yozing.**

#### **KOMIL INSON — MILLAT KELAJAGI**

Komil inson — jamiki insonlarning haqiqatidir, ya'ni odamiylar odamiysidir.

Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi haqiqatan ham dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq.

Ilohiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur bizni balo-qazolardan asraydi.

Tasavvuf ahli sig'ingan ideal — Komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi.

Har bir pok axloqli, ilohsevar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin.

Ma'rifat odamni ma'nан baquvvat, irodali va chidamlı qiladi, shaxs sifatida shakllantiradi.

Komil inson tushunchasi bugun oldimizda turgan ulkan vazifalar — fuqarolik jamiyatini qurish, «ozod va obod vatan» uchun fidoyi farzand bo'lish tushunchalari bilan bog'lanib ketadi...

(Gazetadan)

Hurmatli yoshlar! Sizning fuqarolik burchingiz nimada? Fikrlarin-gizni o'qituvchingga aytib bering.

## 17-DARS. UYUSHGAN BO'LAKLARNING SHAKLLARI VA ULARDA TENG BOG'LOVCHILARNING QO'LLANILISHI

**Darsning maqsadi:** o'quvchilar ongida uyushiq bo'laklarning ohang va teng bog'lovchilar yordamida bog'lanishi haqida umumiy tushuncha hosil qilish.

### R E J A:

1. Uyushiq bo'laklarning grammatik shakllari.
2. Uyushiq bo'laklarda teng bog'lovchilarning qo'llanishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi berilgan matnda uyushgan bo'laklarni toping. Uyushgan bo'laklarning qaysi hokim bo'lakka bog'lanayotganini aniqlang. Uyushgan bo'laklarda kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalarining qo'llanilishiga e'tibor bering.

*Dars beraman diniy haqdan, «Qur'on»dan,  
Qasos, imon, insof bilan vijdondan,  
Haqoratdan, asoratdan, ilmdan,  
Saxovatdan, tahoratdan, bilimdan.*

(I.Tolakov)

**2-topshiriq.** Quyidagi berilgan gapdagi uyushgan bo'laklarni aniqlab, uyushiq bo'laklarda kelishik, egalik, ko'plik shakllarining ikki xil qo'llanilishi (har birida alohida-alohida hamda eng oxiridagi bittasida), ularning bir-biridan farqini bayon qiling.

	Navoiy
Men	Bobur
	Mashrab

! **Juda muhim.** Uyushgan bo‘laklarning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil grammatik shaklda bo‘ladi.

Bu grammatik shakllarning qo‘llanilishi ikki xil bo‘ladi:  
a) uyushgan bo‘laklarning har birida takrorlanadi:

*Yam-yashil vohalarga,  
Badiiy lavhalarga,  
She’riy sarlavhalarga,  
Boy ekansan, Farg’ona.*

Bunday vaqtda uyushgan bo‘laklarning har biri ta’kidlangan bo‘ladi;  
b) uyushgan bo‘laklarning eng oxirida qo‘llanilib, hammasi uchun tegishli bo‘ladi:

Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo‘lishdi.

Bunday vaqtda sanalayotgan bo‘laklarning har qaysisi ta’kidlanmaydi, balki sanab ko‘rsatiladi.

! **Juda muhim.** *Uyushgan bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi yordamchi so‘zlar (ham,-u(-yu), na...na... yuklamalari, bilan ko‘makchisi) va sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.*

Uyushgan bo‘laklar biriktiruv bog‘lovchisi bo‘lgan va, hamda bog‘lovchi vazifasidagi bilan yordamida bog‘langanda ular ko‘pincha takrorlanib keladi.

*Adol bilan o‘yinchi Sora;  
Asal bilan quvnoq Ruxsora...*

(H. Olimjon)

Bunday vaqtda uyushgan bo‘laklar orqali ifodalangan shaxs, predmet-larning guruh-guruh ekanligi ifodalanadi.

Ana shunday ma’no ifodalanganda *va*, *hamda*, *bilan* bog‘lovchilari bir-biri bilan erkin almashinib keladi.

*Va, hamda, bilan bog‘lovchilari ikkidan ortiq uyushgan bo‘laklar tarkibida bir marta qo‘llanilsa, uyushiq bo‘laklarning oxirgi juftligi orasida keladi va sanashning tugallanganligini bildiradi: Bog‘imizda o‘rik, shaftoli, gilos va olmalar bor.*

Uyushgan bo‘laklar ikki a’zodan iborat bo‘lib, biriktiruv munosabatini bildirsa, bu a’zolar o‘rtasida *va*, *bilan*, *-u(-yu)* bog‘lovchilari ishlatiladi. Solishtiring:

*Bir sevgikim, jon berur tanga.  
Faqat Zaynab-u Omonlarga xos.*

*Zaynab-u Omon ni Zaynab va Omon, Zaynab bilan Omon* deb ishlatish mumkin.

Uyushiq bo'laklar otlar bilan ifodalanganda *va, hamda, bilan* o'zaro almashinadi. Fe'llar bilan ifodalanganda esa *va, hamda, -u (-yu)* o'zaro almashina oladi, lekin «*va*» ning o'rniiga «*bilan*»ni qo'yib bo'lmaydi. Solishtiring.

*Keldi va ketdi.*

*Keldi-yu ketdi.*

Uyushiq bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida bog'lanib, ularning har birining ma'nosi ta'kidlanganda, har bir bo'lak oxirida *ham* yuklamasi qo'llaniladi: Sen *ham*, u *ham* farishta emas.

Uyushgan bo'laklar o'zaro ayiruv munosabatida bo'lganda, ular o'rtasida *yo, yoki, yo-yo, ba'zan-ba'zan, dam-dam* singari bog'lovchilar qo'llaniladi. Masalan, *yo kitob, yo ruchka olaman.*

! **Juda muhim.** *Yo, yo-yo, yoki bog'lovchilari uyushgan bo'laklardan birini tasdiqlab, ikkinchisini esa inkor etib bog'laydi.*

Masalan, yuqoridagi misolda *kitob olsa, ruchka olmaydi, ruchka olsa, kitob olmaydi.*

*Ba'zan-ba'zan, dam-dam, goh-goh* kabi bog'lovchilar yordamida bog'langanda esa uyushgan bo'laklarning navbatma-navbatligi ifodalanadi. Solishtiring: *Goh o'ynaydi, goh yig'laydi.* Ana shunday ma'no ifodalaganda *dam-dam, goh-goh, ba'zan-ba'zan* kabi bog'lovchilar o'zaro almashinib keladi.

Uyushgan bo'laklar o'zaro zidlik munosabatida bo'lganda, ular o'rtasiga zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq) qo'llaniladi. Masalan, *Hammasini tinglardim, ammo (lekin, biroq) o'xshashini topmasdim aslo.* (*H. Olimjon*)

Uyushiq bo'laklar ifodalagan ma'no inkor qilinib, ularning har biri ta'kidlab ko'rsatilsa, *na... na... bog'lovchi* vazifasidagi yuklama qo'llaniladi. Masalan, *Na sen, na men buning kafolatini olganimiz.* (*Shuhrat*)

**Na... na...** uyushgan bo'lakli gapning kesimi tasdiq shaklida bo'lganda *ham*, inkor shaklda bo'lganda *ham* qo'llana beradi. Agar uyushiq bo'lakli gap kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, **na... na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va gapni inkor gapga aylantirish vazifasini bajaradi. Aksincha, gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, **na... na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va ularning ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajaradi. Solishtiring:

*Na Salim, na Karim keldi,*  
*Na Salim, na Karim kelmadni.*

**O'ylang:** Uyushiq bo'lak va bog'lovchi munosabatini qanday izohlaysiz?

**Tayanch tushunchalar:** grammatik shakl, teng bog'lovchilar, teng bog'lovchilar vazifasidagi yordamchi so'zlar.

Quyidagi maqolning mazmunini ifodalang, shuningdek, uyushiq bo'laklarni aniqlang.

*Quyosh, suv va havo — eng yaxshi davo.*

**110-mashq.** O‘qing. Gapning uyushib kelgan bo‘laklarini topib, uyushiq bo‘laklarni o‘zaro biriktiruvchi vositalarini aying.

1. Bizning matbuot ham, radio ham, hamma-hammasi mana shunga qaratilgan bo‘lishi kerak. 2. U goh Toshkentga, goh Andijonga ketib, uzoq-uzoq turib qolar edi. 3. Shu onda chiroq sharaqlaganicha borib shipga urildi-yu, yerga tushib chilparchin bo‘ldi va birdaniga ikkita o‘q chiqди. 4. Yerga tushgan chiroq bir-ikki lopilladi-yu, avval ko‘k, keyin qizg‘ish alanga ko‘tarildi. 5. Mirhomidxo‘ja shoshib Qambarali akaning qo‘lidan pulni oldi-da, uning qo‘yniga tiqdi. 6. Bo‘taboy tin olmay, goh bosh chayqab, goh qoshini kerib, goh «Ana! O‘h, o‘h-o‘h!» deb quloq soldi. 7. Odamlarda g‘ayrat va tashabbus yashnab ketdi. 8. Xotinining bu gapi Bo‘taboyning jon-jonidan o‘tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bog‘ladi-yu, hech narsa deya olmadi. 9. Usta Turdialining gapi o‘rinli edi: modomiki hamma «qilko‘prik»dan o‘tar ekan, yo jannatga o‘tib ketadi, yo do‘zaxga yiqiladi.

(A. Qahhor)

**111-mashq.** Uyga topshiriq. Berilgan hikmatni o‘qing. Shu hikmatni asos qilib olib, matn tuzing. Matningizda uyushgan bo‘laklar ishtirok etsin.

*O‘zgalar aybiga tetik nazar sol,  
O‘z aybing ko‘rgandek undan ibrat ol.*

**112-mashq.** Uyushgan egalar ishtirok etgan gaplar tuzib yozing.

**113-mashq.** Ko‘chiring. Uyushgan egalarni toping, ular qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini ustiga yozing.

1. Bular orasida muloyimlari ham, bezbetlari ham, shirinso‘zları ham, to‘nkamijozi ham bo‘lardi. 2. Mardonaga nisbatan uyg‘ongan nafrat va zulm o‘ti azob otashidan ustun keldi. 3. Dard xurujidan xoli bo‘lganida, Mahmud akasining ko‘ziga qaraboq noxushlik hamda ko‘ngilsizlik yuz bergenini anglarmidi... 4. Hozir ayni damda shu zulm va adovat tikanlari ilk nishona mevasini berdi 5. O‘choqqa chiqishga ijozat berilgani haqidagi xabar aytilganiga qadar ham Orzubek va Chuvrindi shu xildagi gaplarni gapirib o‘tirishdi. 6. Adang ham, men ham yana o‘n yil yashaymizmi, yuz yilmi, baribir bir kuni o‘tamiz. 7. Aqli odam, esli odam hech qachon adashmaydi. 9. Kesakpolvon bilan yigit yarim soatlardan keyin chiqishdi. 10. Turkistondan imon uzoqlashdi, oqibatda mustahkam bir davlatning yarmini Ursiya va Xitoy egallab oldi. Hozirgi har ikki davlatning qizil bayroqlari musulmonlarning qoni va joni ila qizarmishdir. 11. Qani edi, o‘scha asrlarga qaytsa-yu, xorazmiylar, beruniylar, temurlar yetishib chiqsa.

(T. Malik)

**114-mashq.** O‘qing. Uyushib kelgan to‘ldiruvchilarini toping, qanday ifodalanganiga va bog‘langanligiga e’tibor bering.

1. Insonlar ongida ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e'zozlash ustuvor bo'lgan. 2. Olgan bilim va tajribangiz, odob-axloq, kasb-hunar bobidagi kamolingga faqat yaxshilikka, bunyodkorlikka buyursin, avvalo. O'zingizga, butun el-yurtimizga baxt-u saodat keltirsin. 3. Respublikamiz maktablari o'quvchi hamda o'qituvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashni ko'ngildagidek yo'lga qo'yaylik. 4. Qizlar urchuq bilan charxda ip yigirish, mato to'qish, liboslar tikishni ham bilishlari lozim. («Avesto») 5. Yurtni balo-qazodan himoya eta oladigan o'g'lonlarga, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan pok niyat avlodlarga olqishlar bo'lsin. («Avesto») 6. «Avesto»da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytildi. 7. Ona-Vatanga muhabbat, xalq, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuyladilar. (Gazetadan)

**115-mashq.** O'zingiz Said Ahmad asarlaridan uyushiq to'ldiruvchilarga misollar topib yozing.

**116-mashq.** Ko'chiring. Gaplardagi uyushiq aniqlovchilarni toping. Nutqda qanday ahamiyati borligini tushuntiring.

1. U to'qayzorda sassiqlaflarning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmaydi. 2. Ikki kundan so'ng uning xonasiga hali yigirmaga to'lmagan qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyingan, qotmadan kelgan ayol kirib keldi. Uning sho'xligi, o'yinqaroqligi bilinib turibdi. 3. Sochlari jingalak, rangi oq-sariqqa moyil, ko'zlar o'tkir boquvchi tabib yigit «Nima gap? Qayeringiz og'riyapti?» deb ham o'tirmay, avval Zaynabning ikki kaftini ko'rdi, tirnoqlarini ohista ezdi, so'ng bilak tomirini ushlab, boshini quyi egganicha, nimanidir ziyraklik bilan tinglayotganday jum qoldi. 4. Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g'amli ohlariga tun qanday chidar ekan, zamin-u samo qanday chidar ekan? (T.Malik)

**117-mashq.** She'rni yozing va yod oling. Uyushib kelgan sifatlovchi aniqlovchilarni toping hamda uyushiq sifatlovchilar bilan uyushmagan sifatlovchilarning farqini tushuntiring.

## AYOL

Fikri yodim tortar chulg'aydi xayol,  
Munis-u mukarram o'zingsan, ayol!  
Tog'dayin suyanchiq, ham jufti halol,  
Vafodor, yelkadosh o'zingsan, ayol!

Zukkolikda Temur aqlin etgan lol,  
Donish-u tadbirdor o'zingsan ayol!  
Yog'iylar qaddini eta olgan dol,  
Yurtiga fidoyi o'zingsan, ayol!

Sheroziy kuylagan oy yuz, qora xol,  
Qamarni dog‘ etgan o‘zingsan, ayol!  
Barchaga barobar tilagan iqbol,  
Oq ko‘ngil, soddadil o‘zingsan, ayol!

Mehringdan topmishlar daholar kamol,  
Farzandlar ilohi o‘zingsan, ayol!  
Bu dunyo ne uchun bilmaydi zavol,  
Olamni asrovchi o‘zingsan, ayol!

(*Shukur Dadash*)

**118-mashq.** She’rni o‘qing, uyushiq bo‘laklarni aniqlang va ularning qanday bog‘lovchilar yordamida bog‘langanini aytинг.

### Zidlov bog‘lovchilar

Siz katta kemada so‘zsiz, ammo  
Sizning kemangizdan qayig‘im avlo.

Siz uchqur bureauda uchyapsiz, lekin  
Men manzilga yayov boraman sekin.

Siz eng tekis yo‘ldan kelasiz, biroq  
Sizning yo‘lingizdan so‘qmoq yaxshidir.

(*Salim Ashur*)

**119-mashq.** Uyushiq bo‘lakli hollarni ko‘chirib yozing.

1. U ko‘chadan kiyimlari yirtilib, titilib kirdi. 2. Bu gapni eshitgach, da‘vogarlar bir-birlariga mo‘itillab, javdirab qarab qolishdi. 3. Bola qo‘rqib, chinqirib uyg‘ondi. 4. Maktablarda, oliv o‘quv yurtlarida kadrlar tayyorlash masalasiga katta e‘tibor berilmoqda. 5. Yosh yigit-qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o‘z o‘rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o‘z qadrini yo‘qotishga olib keladi. 6. Shahar ko‘chalarida, bog‘larda, qir-u adirlarda bahor nafasi ufuradi. 7. Adang ham, men ham yana o‘n yil yashaymizmi, yuz yilmi, baribir bir kuni o‘tamiz. 8. Jamiatning moddiy hayoti qanchalik yuksak taraqqiy etgan bo‘lsa, u ma‘naviy madaniyatning boy, sermazmun bo‘lishiga shu darajada ta‘sir qiladi. 9. Milliy qadriyatlаримизning mazmuni va mohiyatini chuqur, batafsil o‘rganishga harakat qilaylik. 10. Roziya buvi inqillab, sinqillab, bir amallab yetib keldi. (*Gazetadan*)

**120-mashq.** Prezidentimiz asarlaridan olingan gaplarni ko‘chirib yozing. Uyushiq bo‘laklar orasiga zarur o‘rinlarda vergul qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Teng bog‘lovchilarining tagiga chizing, qanday bo‘laklar uyushib kelganligini aytинг.

1. Bu mintaqa jo‘shqin va sobitqadam rivojlanadi. 2. Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy iqtisodiy harbiy transportga va ekologiyaga oid muammolar to‘planib qolgan. 3. Afg‘onistondagи qarama-qarshilikning

dunyo miqyosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini cheklashga va tarqatmaslikka bugungi kunda hammamizning ham aql-idrokimiz tajribamiz va qat'iyatimiz yetadimi? 4. Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim. 5. Hozirgi vaqtida milliy va boshqa ijtimoiy harakatlar, shu jumladan, yoshlar harakati madaniy diniy harakatlar qayta jonlanmoqda. 6. Xalqimizning etnik madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir davlatning mudofaa qobiliyatni uning siyosiy, iqtisodiy harbiy ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi.

(J.A. Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xayfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobidan)

**121-mashq.** Siz ham yuqoridagiga o'xshash asarlardan uyushiq bo'laklı hollar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing. Ular qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini aytib bering.

**122-mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zdan keyin boshqa so'zlar keltirib, uyushiq bo'laklı gaplar tuzing, tinish belgilarini qo'yib yozing.

1. Onasi Hasanni qo'llaridan o'pdi. 2. Ular oçh edilar. 3. Nasrullohning o'ziga yarasha orzulari bor edi. 4. Bibi Hokimjonga beparvo qarardi. 5. Rustamning tog'asi jiyani yedirdi. 6. Majlisga olimlar jam bo'lishdi. 7. U hayotini sarbadorlar e'tiqodi bilan bog'lagan. 8. Usta kulol kabi idishlarni mehr bilan parvarishlardi. 9. Nozima ukasini urishdi... 10. Umrining so'nggi yillarini Samarqandda o'tkazdi. 11. Hovlilarni suv sepib supurdi.

**123-mashq.** Akademik G'. Abdurahmonov haqida berilgan matnni o'qing. Olimning o'zbek ilm-faniga qo'shgan hissasi haqida fikr yuriting.

G'. ABDURAHMONOV  
(1925)

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'anijon Abdurahmonov o'zining butun ongli faoliyatini o'zbek tilshunosligining ravnaqi uchun sarfladi.

1951-yili «O'zbek tilida sifatlar substantivatsiyasi» mavzusi bo'yicha nomzodlik, 1960-yili «O'zbek tilida qo'shma gap sintaksisi asoslari» mavzusi bo'yicha doktorlik ishlarini himoya qildi.

G'anijon Abdurahmonov oliy va o'rta maktablarda til ta'limini o'qitish borasida samarali mehnat qildi.

Uning oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili, II qism, Sintaksis», «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» (prof. Sh.Shukurov bilan hamkorlikda), «Qadimgi turkiy til» (akov. A.Rustamov bilan hamkorlikda), o'rta maktablar uchun yaratilgan «Ona tili» darsliklari hamon o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

## **124-mashq. Ko‘chiring. Uyushgan kesimlarni aniqlang.**

1. Bu safar qizlar uzoq kulishdi, chug‘urlashdi, tortishishdi. 2. Saodat buvi qizlarning gapidan iztirob chekdi, kuyindi, baribir bo‘lmadi. 3. Oraga sovuq jimplik va sukunat cho‘kdi. 4. Uning kulgusi ham o‘ziga o‘xshash shiringina edi, qonib, yoyilib kuldil. 5. Senga yalinaman, yolvoraman, meni tashlab ketma! 6. Odina kuyladi, jo‘shqin she’rlar aytdi va yana o‘ynadi. 7. Bu gaplarni senga aytmayman, eshittirmayman, toqatim, bardoshlarim tugagan, adoyi tamom bo‘lgan. 8. Qalbingizga toshqinlarning g‘uborlari qo‘nmasin, gard yuqmasin. 9. Mehri qo‘shnisini hech qachon sevmagan, yaxshi ko‘rmagan. 10. Bu gaplаридан cho‘chimang, qo‘rqmang, hali boshingizda ne savdolar bordir. 11. Xudoyqul otasini bu dunyodan yilib ketgan o‘sha qora kechada xotinlarning uvvos tortgan ovozlaridan cho‘chib uyg‘ondi, ko‘zini ochdi. *(Gazetadan)*

**125-mashq. 2 guruhgа navbat bilan bo‘lining. 1-guruhdagi har bir talaba kesim ishtirok etgan gaplar aytadi, 2-guruh talabalari esa ular aytgan kesimdan uyushiq bo‘laklar hosil qiladilar.**

N a m u n a :

### **1-guruh**

*Kulol ko‘zalarga mehr  
bilan jilo berdi.*

### **2-guruh**

*Kulol ko‘zalarga mehr bilan jilo,  
ishlov berdi, ularga go‘zallik baxsh  
etdi.*

**126-mashq. O‘zbekiston Qahramoni Erkin Alimuhammedov nutqini o‘qing. Undan xulosa chiqaring. Uyushiq bo‘lakli gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Qanday bo‘laklar uyushib kelganini aytинг.**


Bugungi kunda milliy g‘urur tuyg‘usi haqida ko‘p gapiriladi. Menimcha, bu oddiy, jo‘ngina tuyg‘u emas. Yo‘q. U juda yorug‘, juda ulkan tuyg‘u! Axir o‘z yurting bilan, o‘z millating bilan faxrlanib yashash qanchalik soz! Ayniqsa bugun... «Men o‘zbekman! O‘zbek degan so‘z bugun dunyo bo‘ylab jaranglayapti! O‘zbek millatiga dunyo tan berayapti. Biz ildizlari mustahkam va yengilmas xalqmiz!» degan fikrlarni xayolimdan o‘tkazsam bormi, o‘sha lahzadayoq qayta shijoat uyg‘onadi, yuksaklarga parvoz qilgim kelaveradi. Ochig‘ini aytsam, men istiqlol yillarining qahramoniman, chunki istiqlol o‘zligimni tanitdi, uzoq yillik mehnatim shu davrda munosib taqdirlandi. Buning uchun quvonmay bo‘ladimi?

Goho xayolimdan o‘tkazaman:

«Qaniyi zavodga borib yana ishlasm, o‘zgacha shijoat-u g‘ayrat bilan ter to‘kib mehnat qilsam!». Zero, u yerdagi ahil jamoa to‘xtab turgani yo‘q. Yaratuvchilik ishlari olib borilayotir. Ulkan yuk samolyotlarining qanotlari yig‘iladigan men ishlagan sexda yangilik va tashabbuslar bilan chiqayotganlar ko‘p. Tez-tez korxonamga borib shogirdlarimga yo‘l-yo‘riqlar

berib turaman, ularning ish rejalari bilan qiziqaman. Uyda esa rafiqam Feruzaxon, uch farzandim, nabiralar qurshovida osuda hayot kechirayapman. Bugungi yoshlarimizdan birgina o'tinchim bor. Ularga «Siz yonib ishlang, o'z mehnatingiz tufayli Vatan mustaqilligini mustahkamlashga hissa qo'shayotganingizdan faxrlaning!» degim keladi.

**127-mashq.** Yuqoridagi mashqdan xulosa chiqarib, berilgan rasm asosida «Mehnatim — baxtim mening» mavzusida og'zaki hikoya tuzing.



### **18-DARS. UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLARDА UMUMLASHTIRUVCHI SO'ZLARNING QO'LLANILISHI**

**Darsning maqsadi:** *uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zlarning ishlatalishi yuzasidan talabalarda ko'nikma hosil qilish.*

#### **R E J A:**

1. Umumlashtiruvchi so'z haqida.
2. Umumlashtiruvchi so'zda tinish belgilarining ishlatalishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan gapda nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'ying. Nuqtalar o'rniga qo'ygan so'zlar bilan *hamma, barcha, bari, ko'pi, ko'pchilik* singari so'zlarning munosabatini aytинг.

*Litseyimiz bog'ida..., ..., ..., ... barcha mevalar bor. Sinfimizda ko'pchilik o'quvchilar. ..., ..., ... lar ingliz tilini yaxshi bilishadi.*

! **Juda muhim.** *Uyushgan bo'lakli gaplarda ko'pincha uyushgan bo'laklarning mazmunini jamlovchi umumlashtiruvchi so'zlar ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarini, belgi-xususiyatlarni alohida-alohida ifodalasa, umumlashtiruvchi so'z esa ularning hammasini jamlagan holda ifodalaydi.*

Demak, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasida xususiylik-umumiylilik, jins-tur munosabati mavjud bo'ladi. Uyushgan bo'laklar xususiyliklarni, jinsnini; umumlashtiruvchi so'z esa umumiylikni, turni bildiradi.

Uyushgan bo'laklar qaysi grammatik shaklda bo'lsa va qanday so'roqqa javob bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham ko'pincha ana shunday shaklda bo'ladi va shunday so'roqqa javob bo'ladi.



Uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.



**Esda saqlang.** Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin kelsa, yozuvda umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan keyin kelsa, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga tire qo'yiladi.

Umumlashtiruvchi so'z bilan uyushgan bo'laklarning o'rni va tinish belgilarini quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin.



Bunda to'rtburchak umumlashtiruvchi so'zni, yumaloq shakllar uyushgan bo'laklarni, uchburchak shakl hokim bo'lakni ifodalaydi.

Uyushgan bo'laklar yozuvda bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Agar uyushgan bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, guruhlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Bog'imizda qovun, handalaklar, olma, o'rik, shaftolilar pishib yotibdi*.

**O'ylang:** Umumiylilik va xususiylik deganda nimani tushunasiz?

**Tayanch tushunchalar:** tobe aloqa, ikki nuqta, tire, umumlashtiruvchi so'z. Keltirilgan maqolning ma'nosini izohlang:

*Ter to'kib mehnat qilsang, yerdan zar unar.*

**128-mashq.** Umumlashtiruvchi bo'laklarni toping, tushirilgan tinish belgilarni qo'yib ko'chiring.

- Ishlangan yerlar, yo'llarning ikki tomonidagi ariqlarda jildirab oqayotgan suv. Ariqlar labida qad ko'targan yosh teraklar hammasi Olimjonning diliiga sevinch-quvonch bag'ishlardi.
- Hovuz bo'yida o'tirgan brigadir ikki hovuchini to'lg'azib suv olar zavq bilan yuzini, bo'ynini, ko'kraklarini barcha qoraygan joylarini yuvar edi.
- Cho'lpom umri davomida juda ko'p narsalarni: qiziq, shirin nash'ali voqealarning guvohi bo'lgan.
- Shu yerda Oyqizning buyrug'i bilan to'g'on qurilardi. Sement quyilmoqda uzliksiz shag'al to'kilmoqda tosh tashlanmoqda.
- Shu vaqt

ichida hamma hunar o'rgandi bir xillar transportyorga yuk ortish ixtisosini egalladi yana birovlar esa misrang yoki bel bilan ishlashga mutaxassis bo'ldi. 6. Barcha odamlar fidokorona ishlardilar ularning ba'zilari bir me'yorda borib kelardi, ba'zilari esa haqiqiy ishga berilib ketardi.

(*Sh. Rashidov*)

**129-mashq.** Ko'chiring. Uyushiq bo'laklarni aniqlab, ustiga turini yozing. Uyushiq bo'lakli gaplardagi umumlashtiruvchi so'zlar tagiga chizib, uning ifodalanishini, o'rnini va ulardagи tinish belgilarining qo'llanilishini tushuntiring.

1. Umrzoq hamma narsani: konvertni ham, mayda-mayda qilib yozilgan oq qog'ozni ham, undan keyin cheti qora hoshiyali pushti rang qog'ozni ham ko'rди. 2. Yog'liq qo'y go'shti yaxnasi ham, tok bargi va uzum boshining surati solingan chinni kosadagi qaymoq, non, qora mayiz — hammasi dasturxonda qo'l tekkizilmay turardi. 3. Kanalning ikki qirg'og'ida g'uj-g'uj bo'lib turgan odamlar: erkaklar, ayollar va bolalar shod-xurram, suvning orqasidan, Bekbo'taning orqasidan chopib borardilar. 4. Tog' etaklari hali ham ko'm-ko'k bo'lib, turli go'zalliklar bilan: sariq va qizg'ish tusdagi boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o'sma qo'ygan lolalar bilan yasangan edi. 5. Oldin mutaxassis-olimlar: geologlar, gidrogeologlar, geodezistlar keldilar. 6. Tizgin tortilganmi, bo'sh qo'yilganmi, jadaliga olingenamni, ravon qo'yilganmi — xullas shunga qarab hushtak chalishib hazil qilishganlari, sho'x-sho'x kulgilar — hammasi ishning bir me'yorda qizg'in ketayotganidan dalolat berardi.

**130-mashq.** Rasm asosida yoki bugungi oynayi jahon, xususan, «Qishloqdagi tengdoshim» ko'rsatuvi bo'yicha bahs-munozara o'tkazing. Nutqingizda uyushiq bo'laklarni ham ishlating.



## 19-DARS. AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR

**Darsning maqsadi:** ajratilgan bo'lakli gaplar haqida ilmiy bilim berish va ulardan nutqda to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirish.

### R E J A:

1. Gaplarning mazmunan murakkablashuvi.
2. Ajratilgan bo'laklar va ularning mazmuniy vazifasi.

✓ **1-topshiriq.** Men, Dilafro'z Sobirova, 1992-yilda tug'ildim. Yuqoridagi gapda Men bilan Dilafro'z Sobirova boshqa-boshqa kishilarmi yoki bir kishining ikki xil nomimi? Agar bir kishining ikki xil nomi bo'lsa, nomlar o'rtaсидаги farqni aytинг.

☞ **Esda saqlang.** Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas. (O': Usmonov) Bu gapda birinchi axborot Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa Tursunali akaning katta olimligi ajratilgan bo'lak orqali ifodalananadi.

Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:  
a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;  
b) ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlash-tirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

☞ **Esda saqlang.** Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:  
a) tartibni o'zgartirish;  
b) bir nomni boshqacha nomlash.

**O'ylang:** Qo'shimcha axborot deganda nimalar xayolingizga keladi?

**131-mashq.** Ko'chiring. Uyushiq kesimlarni topib, ularni qanday vositalalar yordamida bog'langanini aytинг.

1. Men bor joyda senga, chaqimchi bir insonga, nima bor?! 2. Ular shu yillarda ichi tirishib, tirmashib uzoqqa, tog' cho'qqisi tomon intildilar.

3. U do'stim «Nima bo'ldi ekan?» deb o'ylamadi ham, tushib qaramadi ham. 4. Manzura dasturxon yozib mezbonni, ukasini, yana o'n daqqa kutdi. 5. Bu ishning Said Qodirov qo'liga tushib qolganidan ajablandi hamda unga, tergovchiga qaradi. 6. Shu ish bahona bo'lib, uning shaharga, markazga kelishining sababiga hech kim ishonmadi.

### **132-mashq. Bir nomni boshqacha nomlash bilan ajratilgan bo'laklarni aniqlang.**

1. Komil buvaning uyi shu yong'oqzorning ichida — Bo'rijarning qoq ustida emish. 2. Dadam harsillab nafas olib, narigi tomonga — pastga tushdi. 3. Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. Dadam sharqirab oqib yotgan ariq bo'yida, bir tup sadaqayrag'och tagida to'xtadi. 4. Chindan ham bomba ancha orqaga — o'rmonzorga borib tushadi. 5. Yangi yil kechasi — nemislar mast-alast bo'lib Rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik! 6. Endi u rasmona raisga — Umar zakunchiga aylangan edi. 7. Ochil akaning daftari ancha nariga — o'tlar ustiga otilib ketgan, varaqlari ochilib, xira oydinda oqarib ko'rinardi. 8. Biz — er-xotin yog' zavodida ishlaymiz. 9. Qo'zivoy hammani har yoqqa surib, uch-to'rt qadam orqaga, Sherzod cho'nqayib o'tirgan doska tomonga tisarildi. *(O'. Hoshimov)*

**Tayanch tushunchalar:** ajratilgan bo'lak, ma'noni ta'kidlash, ma'noni izohlash.

Berilgan maqolga mos hikoyat aytинг, maqolning mazmunini izohlab bering.

*Bilimsizlik kulfat keltiradi.*



### **Savol va topshiriqlar**

1. Ajratilgan aniqlovchili gaplarga misollar yozing.
2. Ajratilgan izohlovchili gaplarga adabiyot darsligidan 5 ta gap topib yozing.
3. Ajratilgan bo'laklar qaysi xususiyati bilan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi?
4. Ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar keltiring.
5. Ma'lum bir bo'lakning umumiyligi ma'nosini konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar yozing.
6. Bir nomni boshqacha nomlash bilan hosil bo'lgan bo'laklarga misollar aytинг.
7. Ajratilgan bo'laklarning nutqimizda nima ahamiyati bor?

## 20-DARS. TARTIBINI O'ZGARTIRISH ORQALI GAP BO'LAKLARINI AJRATISH

**Darsning maqsadi:** *talabalarda sifatlovchi aniqlovchilardan ajratilgan bo'lak hosil qilish ko'nikmasini shakllantirish.*

### R E J A:

1. Sifatlovchi aniqlovchi.
2. Odatdagi tartibda kelgan sifatlovchi aniqlovchi bilan tartibi o'zgargan sifatlovchining farqi.
3. Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilarda tinish belgilaringning ishlatalishi.

✓ **1-topshiriq.** Sifatlovchi aniqlovchi ishtirot etgan gap topib, sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Sifatlovchi tartibi o'zgarganda ham sifatlovchi aniqlovchi vazifasida qolsin. Kesimga aylanib ketmasin. Tartibi o'zgargan sifatlovchi aniqlovchining xususiyatlarini aytинг.

**2-topshiriq.** Sifatlovchi aniqlovchi ishtirot etgan gap topib yozing. Sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Qanday o'zgarish bo'lganini, qanday tinish belgisi qo'yilganini tushuntiring.

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so'zlovchi uning odatdagи tartibini o'zgartirib, sifatlanmishdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosini odatdagи tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismiga aylanadi.

☞ **Esda saqlang.** *Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar ajratilgan bo'lakka aylanadi.*

Masalan, *Bu o'zbek yigit — tanti, mehribon.*

Solishtiring: Rangi o'chgan, Umri kechgan kuz guli, Bir yo'li pastroq egil. (Abdulhamid Cho'lpone) — Kuz guli — Rangi o'chgan, Umri kechgan.

! **Juda muhim.** *Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarini o'zi uyushgan bo'lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan tire bilan ajratiladi.*

**O'ylang:** Gapda so'zlar tartibining ahamiyati bormi? Bu sifatlovchi aniqlovchilarda qanday bo'lishi haqida fikrlang.

**Tayanch tushunchalar:** aniqlanmish, ohang, odatdagи tartib. Berilgan maqolning mag'zini chaqing. Maqol mazmuniga mos hodisalar yoki hikoyatlar aytинг.

*Qanoat aylagan shohi jahondir,  
Tama qilgan eshakdan ham yomondir.*

**133-mashq.** Matnni o‘qing. Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarini topib, tagiga chizing va ustiga turini yozib qo‘ying. Ular tobe bo‘lgan bo‘lakni aiting. So‘ngra ajratilgan bo‘laklardagi ohang va tartibni izohlang.

Insonning tavallud kunidan boshlab, uning voyaga yetgan kuni — balog‘at yoshiga qadar bo‘lgan uzoq davrni majoziy ma’noda bir mакtab deb atasak, ana shu maktabning ramziy ma’nodagi ustoz ham boshlang‘ich sinf muallimi, ham yuqori sinf o‘qituvchisidir. Chunki, farzand uchun hayotdagi ideal ustoz — ona ekanligi bugungi kun tadqiqotlarida to‘la-to‘kis e’tirof etilmoqda. Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yguvchilar uchun, yosh avlod uchun, eng birinchi galda, onalarning ma’naviy dunyosi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir. Bu foniy dunyoda inson doimo orzular, umidlar olamida yashaydi. Tabiat insoniyatning dunyoga kelgan kuni dan to hayotining so‘nggi kuniga qadar odamzod qalbiga mana shu buyuk ikki hisni — orzular va umidlar dunyosini oshufta qilgan. Farzandini dunyoga keltirgan onaning o‘y-xayolida bирgina orzu mujassam yashaydi — u ham bo‘lsa, farzandlarning barkamol inson bo‘lib yetishishidir.

(Gazetadan)

**134-mashq.** Ko‘chiring. Tartibi o‘zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchili ajratilgan bo‘laklarni toping.

1. Ko‘kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg‘iz.  
2. Shoyon mehnatingning nishonasi bu —  
    Qora qoshlaringga qo‘ngan chang, g‘ubor.  
    Suvori ekansan — zahmating ezgu,  
    Zamona Barchini — mehnatkash, dildor.
3. Yo‘lim boshladi to kezdim dala-tog‘,  
    Kezdim ne yurtlarni — chiroyi tengsiz.
4. Qozoq sahrosi — bu beadad sahro,  
    Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.
5. Bir zum dengizga ham boqqil betuyg‘u,  
    Dema, o‘ylarimday u teran tengsiz.
6. Angladimki, olamda  
    Yurt tanho, Vatan tanho,  
    Nokaslar emas, yo‘q, yo‘q,  
    Yolg‘iz sen baland, tanho.
7. Ba’zan o‘ylab deyman, ne bo‘larda gar  
    Qudratni ko‘rgazsa tabiat hassos.
8. Qo‘llarim ko‘ksimda, betinch, betoqat  
    Ta’zimlar qilurman senga ushbu dam.  
    U — menmi, u — senmi, kim bo‘lma, faqat  
    Senga insof bersin, uchinchi odam!

(A. Oripov)

## 21-DARS. IZOHLASH ORQALI GAP BO'LAKLARINI AJRATISH

**Darsning maqsadi:** izohlash yo'li bilan ajratilgan gap bo'laklaridan nutqda o'rinali faydalinish ko'nikmasini shakllantirish.

### R E J A:

1. Izohlash orqali gap bo'laklarini ajratish haqida ma'lumot.
2. Bir tushunchaning ikki nomi va uyushiq bo'laklarning o'zaro farqi.
3. Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining ishlatalishi.

✓ **1-topshiriq.** Ma'lum lotincha atama bilan uning o'zbekcha muqobilini yonma-yon qo'yib, gap ichida keltiring. Bir tushunchaning bu ikki xil nomi o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang haqida ma'lumot bering.

**2-topshiriq.** Gap ichida *daraxt* so'zini keltirib, uning yonida daraxt sinfiga mansub so'zlarni (*olma, o'rik, shaftoli*) keltiring. Ular o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang tomoni haqida ma'lumot bering.

Nutq jarayonida ko'pchilikka noma'lum bo'lgan so'zni qo'llasangiz, tinglovchiga tushunarli bo'lish uchun uning yoniga ma'lum bo'lgan so'zni qo'yib bayon qilasiz. Masalan, *Lingvistika— tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi*.

Ba'zan ma'nosi umumiyoq bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun uning yoniga konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'zni keltirasiz.

Masalan, *Bog'chadagi do'stimni — Qodirni ko'rib qoldim*. Ayrim hollarda esa ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatamiz. Masalan, *Shu farzandimni — ko'zim qorasini — elning ardog'iда bo'lishini xohlayman*.

Natijada, bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ikkita nom bo'lishi, har ikki nomning bir xil so'roqqa javob bo'lishi, har ikkisining ham bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan bunday ajratilgan bo'laklar uyushgan bo'laklarga o'xshaydi.

Solishtiring: *Unda, Halimning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p*. Bu gapdag'i *unda, Halimning ukasida* bo'laklari ikki kishini bildirsa va sanash ohangi bilan talaffuz qilinsa, uyushgan bo'lak, bir kishini bildirib, ikkinchisi birinchisidan biroz to'xtamdan so'ng pastroq ohang bilan talaffuz qilinsa, ajratilgan bo'lak bo'ladi.

! **Juda muhim:** *Bunday ajratilgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklaridan vergul, ba'zan tire bilan ajratiladi. Gapning hamma bo'laklari ajratilishi mumkin. Qaysi gap bo'lagining so'rog'iga javob bo'lsa, ajratilgan bo'lak o'sha gap bo'lagining nomi bilan yuritiladi.*

**O‘ylang:** Ma’nosini izohlash orqali gap bo‘laklarini ajratishning fikr ifodalash uchun qanday ahamiyati borligini aytинг.

**Tayanch tushunchalar:** bir tushunchaning ikki nomi, izohlash orqali gap bo‘lagini ajratish.

Berilgan maqolni munozaraga aylantiring.

*Har narsaning yangisi yaxshi,  
Do ‘stning — eskisi.*

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Ajratilgan aniqlovchili gaplarga misollar yozing.
2. Ajratilgan izohlovchili gaplarga adabiyot darsligidan 5 ta gap topib yozing.
3. Ajratilgan bo‘laklar qaysi xususiyati bilan uyushiq bo‘laklarga o‘xshaydi?
4. Ma’lum bir bo‘lak ma’nosini ta’kidlash, bo‘rttirish vazifasini bajaruvchi bo‘laklarga misollar keltiring.
5. Ma’lum bir bo‘lakning umumiyligi ma’nosini konkretlashtirish, tushunarsiz ma’nosini tushuntirish vazifasini bajaruvchi bo‘laklarga misollar yozing.
6. Bir nomni boshqacha nomlash bilan hosil bo‘lgan bo‘laklarga misollar aytинг.
7. Ajratilgan bo‘laklarning nutqimizda nima ahamiyati bor?

### 135-mashq. O‘qing. Ajratilgan hollarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Temir eshikli podyezd, ikkinchi qavat, chap tomondagи kvartira — bu sizning xonadoningiz.
2. Men ko‘rsatilgan stulga — to‘rga o‘tib o‘tirdim.
3. Haligina, siz kelmasdan sal avval, biroz o‘zimga kelgach, joy-joylariga ketishdi. (*A. Ibrohimov*)
4. Shoирning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog‘i Firuz va Bog‘i Mahmud kabi ko‘rkam bog‘lar atrofida joylashgan edi. (*O. Yoqubov*)
5. Biz Xorazmda, Ma’mun ibn Ma’mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begin. 6. Yaxshiyam, Sulton Mahmud yoshlik chog‘larida, yuragida insof va adolat tuyg‘usi tamoman so‘nib bitmagan mahallarda, Nargizabonu sabab, sobiq g‘ulomi qutlug‘-qadamning daxsizligi to‘g‘risida birdan bir adolatli farmon bergen ekan.
7. Endi bu hibsdan, o‘laksa hidi anqigan bu jahannamdan tiriklayin chiqa oladimi, yo‘qmi — buyog‘i yolg‘iz Ollohga ayon. (*O. Yoqubov*)
8. Aksi — Movarounnahrda, Sayxun bo‘yida joylashgan bo‘lib, mashhur shaharlardan edi. (*Muhammad Ali*)

### 136-mashq. Ajratilgan bo‘laklar ishtirot etgan gaplar tuzib, ularni izohlang.

## 22-DARS. UNDALMALI MURAKKABLASHGAN GAPLAR

**Darsning maqsadi:** *nutq jarayonida undalmalardan o'rinli foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish.*

### R E J A:

1. Undalma haqida ma'lumot.
2. Undalmalarning gapdag'i o'rni.
3. Ularda tinish belgilarining ishlatalishi.

✓ **1-topshiriq.** O'rtog'ingizning ismini aytib chaqiring va uni gap ichida keltiring. O'rtog'ingiz ismini bildiruvchi so'zning qanday sintaktik vazifada kelishini aytинг.

**2-topshiriq.** *Opa, urma qalbimga tikan* (*H. Olimjon*) gapi tar-kibidagi *opa* so'zining o'rnini almashtiring. Almashtirganda qanday o'zgarish ro'y berayotganini aytинг. Erkin o'rin almashinish sababini tushuntiring.

So'zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini o'z nutqingizga qaratish uchun ko'pincha uning nomini aytib yoki *opa, aka, singil, tog'a, amma, xola* kabi so'zlar orqali murojaat qilasiz. Ba'zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so'zni qo'llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, *Arpangizni xom o'ribmanmi, uka. Do'ndig'im, o'ynoqlab yuratur. Onajonim, balki bir kun Aytganingday bo'lar to'y.* (*A. Oripov*)

↳ **Eslab qoling.** So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalab, gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirish-maydigan so'z yoki so'zlar birikmasiga undalma deyiladi.

Undalmalar so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni bildirganligi uchun u ko'pincha shaxs bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Badiiy nutqda esa shaxs bildirmaydigan jonli va hatto jonsiz predmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag'rimni, ohang.* (*A. Oripov*).

Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli uning o'rnii erkin bo'ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko'ra, alohida-alohida vazifa bajaradi. So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtida undalma gap boshida keladi.

So'zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtida undalma gap o'rtasi va oxirida keladi. Masalan, *Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim. Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?!* (*A. Oripov*)... *Gar shul eshitganim bo'Imasa ro'yo — Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.* (*A. Oripov*)

**Juda muhim.** *Undalmalar nutq jarayoniga undalgan, diqqati jalg qilingan shaxs-predmetlar bo‘lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o‘xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi.*

Solishtiring: *Ahmad keldi. — Ahmad ega.* Kesim bilan grammatik bog‘langan.

*Ahmad, keldi. Ahmad* — undalma. Kimningdir kelganligi Ahmadga aityapti, kesim bilan grammatik bog‘lanmaydi. Undash ohangi bilan talaffuz qilinadi.

**Juda muhim.** *Undalmalar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so‘ng undov belgisi qo‘yilishi ham mumkin. Masalan: Odamlar! Eshitmadim demanglar.*

**O‘ylang:** Undalmalarning o‘rnii erkin bo‘ladi, degan fikrni izohlab bering.

**Tayanch tushunchalar:** grammatik aloqaga kirishmaslik, subyektiv munosabat, undash ohangi.

Berilgan maqolning ma’nosini izohlang, undalmani toping hamda uni gapning uchta joyida keltiring.

*O‘qish bilmasang, uqib ol, qizim;  
Qulog‘ingga taqib ol, qizim.*

**137-mashq.** *Gaplardagi undalmalarni aniqlang, o‘rnini va tinish belgilarni izohlang, qanday uslubiy vazifa bajarilayotganini tushuntirib bering.*

1. Ey inson, odam degani qo‘yini qassobga bersa ham, so‘ygunicha poylab turadi.
2. Uzr, o‘rtoq prokuror, tanimaganni siylamas, degan maqol bor-ku.
3. Hamdam aka, anchadan beri birovni chaqa olmay zada bo‘lib turgan ekansiz-a? — dedi Zohid jilmayishga harakat qilib.
4. Kel, o‘zbek qardoshim, kel, mening aziz qo‘nog‘im bo‘l, qalbing huzurli o‘lsun, dedi u o‘rnidan turib.
5. Bo‘tam, yana bir Hadisi sharif borki, unda qabristonni ziyyarat qilishga da‘vat etiladi.
6. Jalil, og‘ayni, otamga o‘z qo‘ling bilan bir palov damlab bergin.
7. Asad, shu paytgacha emaklasak ham birga emakladik, yugursak ham birga yugurdik, tursak — birga turdik.
8. Salom qardoshim, Xongireydan senga ulug‘ salomlar, dedi Mamatbey u bilan ko‘risha turib.
9. Sen bola, menga aql o‘rgatma — bor, jo‘na, turqingni ko‘rmay. Mahmudga borib ayt.
10. Yoshulli, sizlar adolat qilasizlar, deb eshitgan edik. (*T. Malik*)

**138-mashq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari undalma vazifasida kelgan gaplar tuzib yozing.**

Sarvari olam, Hurmatli Prezident, ey Inson, obod o‘lkam, O‘zbekistonim, ey sen zakiy, boy ota, gulim, ona tilim, Vatan, azizim onam, ko‘zim qorasi.

**139-mashq. Quyidagi gaplarni o‘qing. Ularni undalmali gaplarga aylantirib ko‘chiring.**

N a m u n a : *Otashga sig‘indi bir zamон xalqim. (A.Oripov)*

1. Xalqim, bir vaqtlar sen otashga sig‘ingan eding. 2. Millatimizning har bir hikmati zamirida olam-olam mazmun yashiringandir. 3. Qush qanchalik baland yoki uzoqqa parvoz qilmasin, baribir o‘z oshyoniga qaytib keladi. 4. Kishi qozonga nima solsa shuni, tosh solsangiz, tosh olasiz, osh solsangiz, osh olasiz. 5. Go‘dak oilaviy muhitda ulg‘ayadi, muhit uni qanday oziqlantirsa, shunday ruhda kamolga yetadi. 6. Talabalik yillarim dunganalarim biznikiga kelishini buvijonim juda yaxshi ko‘rardi. 7. Men bir narsaga qattiq ishonamanki, hayotimdagи og‘ir va baxtiyor kunlarda doim buvimning ruhi menga madad bo‘lib kelyapti. 8. Shu payt eshik ochilib, bolaarning xushchaqchaq ovozlari, onajonimning bag‘riga otilib, mehr to‘la bildirilgan salom-aliklari barala yangradi. 9. Ayol qanchalik didli-farosatli, tabiatan ozoda, saranjom-sarishta, buning ustiga shirinsuxan bo‘lsa, hatto xonadon devorlari ham jilva qilib turadi. 10. Muhabbatxon xonadonimga quyosh bo‘lib, o‘zgacha harorat olib kirdi. («Sanam» jurnalidan)

**140-mashq. She‘rni ifodali o‘qing. Undalma vazifasidagi otga aniqlovchi yoki izohlovchilar qo‘shilishiga e’tibor bering.**

Chin uyingda sen qolursan,  
Qo‘s sh qanotim, yaxshi qol!  
Bu dargohga yarashibsan,  
Asl zotim, yaxshi qol!  
Bibi Fotmam baxtlaridek,  
Baxting bo‘lsin, yaxshi qol!  
Bu bo‘stonga yarashgudek,  
Taxting bo‘lsin, yaxshi qol!  
Bu gulzorga husn bergin,  
Zeb-u ziynat, yaxshi qol!  
Senda bordur chin muhabbat,  
Ham matonat, yaxshi qol!  
Ham adolat, ham muruvvat,  
Hamda toqat, yaxshi qol!

«Assalom»dan boshla so‘zing,  
Yuzim yerga tiqmagin.  
Behudaga qattiq so‘zlab  
Onang qaddin bukmagin.  
O‘zing bilmay g‘animlarning,  
Izmiga sen yurmagin.  
Kelin baxti tilidadir,  
Shirin so‘zim, yaxshi qol!  
Sevgilingga chin so‘zlagin,  
Orttirmagin tashvishin.  
Hurmatini ortiq qo‘ygin,  
Erinmasdan yoz-qishin.  
Ish buyursa ikkilanmay,  
Xizmatda bo‘l, og‘rinma.  
Shunda senga ul vafodor,  
Bag‘ishlaydi jon-u tan!  
Chin uyingda sen qolursan,  
Mehribonim, yaxshi qol!  
Bu dargohga yarashibsan,  
O‘chmas nishonim, yaxshi qol.

(*Farida Abdumalik qizi*)

## **23-DARS. UNDALMALARNING UNDOV SO‘Z VA EGALIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANILISHI HAMDA ULARNING USLUBIYATI**

**Darsning maqsadi:** talabalarga undalmalar undov so‘z hamda egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanganda qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi haqida ma’lumot berish.

### **R E J A:**

1. Undalmaning oldidan va undan so‘ng kelgan undovlarning xususiyatlari haqida.
2. Egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan undalmalar.

✓ **1-topshiriq.** Undalma ishtirok etgan gap tuzib, undalma oldidan undov so‘zni qo‘shing. Undov bilan qo‘llangan undalmaning undovsiz undalmadan farqini ayting.

**2-topshiriq.** Onajonim, bunday qilma, Bunday qilma, Onajon! (*A. Oripov*) gapidagi undalmaga qo‘shilgan -jon va egalik qo‘shimchasi -im ning qanday vazifa bajarayotganini ayting.

Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsiyonallikni ta’minalash, hayron qolish ma’nosini ifodalash uchun ko‘pincha ey,

*hoy, voy kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunday undovlar ko‘pincha undalma oldidan qo‘llaniladi.* Masalan, *Hoy o‘rtoqjon, qulog soling so‘zingga*.

Ba’zan undalmadan so‘ng ey, ho, ov, -u (-yu) kabi undovlar ham ishlataladi: *Karimjon -u* (ov, ey, ho), *bu yoqqa kelung*. Bu vaqtida undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so‘zlovchidan uzoq masofada ekanligi ifodalananadi.



**Eslab qoling.** *Undalmalar oldidan undov so‘zlar ishlataliganda, yozuvda undalma bilan undov so‘zlar orasiga hech qanday tinish belgi qo‘yilmaydi.*

*Undov so‘zlar undalmadan so‘ng kelganda esa undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi.*

Undalmalar ko‘pincha I shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini olib keladi. Bunday vaqtida undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so‘zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma’nolarini ifodalaydi. *Azizim, duniyoga bevaqt kelibmiz.* (*Uyg‘un*)

Ayrim hollarda undalma nutqda tushib qolib, uning o‘rnida undovlar qo‘llaniladi. Masalan, *Hoylar, bu yoqqa kelunglar. Hoy, chilim keltir.* Undalma o‘rnida *hoy* kelganda tinglovchiga hurmatsizlik, mensimaslik ma’nosi ifodalananadi.

Ba’zan, er-xotin bir-biriga murojaat etganda III shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasi bilan kelgan undalmadan foydalaniadi. Masalan, *Oyisi, kelung. Dadajonisi, choy iching* kabi.

**O‘ylang:** Undalmalar nutqimizda nima uchun kerak?

**Tayanch tushunchalar:** undalma, undov so‘z, undalmalar bilan birgalikda ishlataladigan tinish belgilari.

Berilgan maqolni izohlang, uni undalmali gapga aylantiring, unda undov so‘z, egalik qo‘shimchalari ham ishtirot etsin.

*Erta eksang, erta o‘rasan.*

**141-mashq.** O‘qing. Boshqa bo‘laklar bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo‘laklarni toping. Nima uchun aloqaga kirishmayotganini izohlang.

1. Umrzoq ota qog‘ozlardan birini — qora hoshiyali pushti rang qog‘ozni Xolbibining qo‘lidan yulqib oldi.
2. Darhaqiqat, tepa ustidan diqqat bilan qaralsa, hali ham odamzod qo‘li bilan qurilgan kanalning izlari ko‘rinadi.
3. Yo‘q, og‘aynilar, biz bu yerda qancha tortishmaylik, oramizda har qancha gap qochmasin, bu mehnat sarf qilsa arziydigan ish ekanligi ravshan ko‘rinib turibdi.
4. Avvalo, rosmana ilmiy loyiha kerak. Tushundingmi? Bunday loyiha uchun pul to‘lanadi. Ikkinchidan, portlatish ishlari talab qilinadi.
5. Aying-chi, Oyqiz, barcha ishlar qo‘l kuchi bilan ado qilinadimi?

6. Darhaqiqat, o‘g‘lim, bizdan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, xalqimiz inoq va serg‘ayrat, yuzlaringizni shuvut qilmaydigan xalq. 7. Keling, shu yerda ozgina o‘tiraylik. «Yuring, yaxshisi, uyga kiraylik, Oyqiz», dedi Olimjon Oyqizni qistab, uning rozi bo‘lishiga judayam ishonqiramay. 8. Ulug‘larning ta‘biri bilan aytganda, tutunsiz o‘tin yo‘q, xatosiz odam. 9. Ehtimol, u ham kun bo‘yi jon-jahdi bilan ishlab, haddan tashqari charchagandir. 10. Qisqa qilib aytganda, Jalolov bilan birga xatoning oldini oldik, menimcha.

(*Sh. Rashidov*)

**142-mashq.** O‘zingiz «Akamning to‘yida men so‘zlagan nutq» mavzusida matn tuzing. Undalmalardan o‘rinli foydalaning.

**143-mashq.** O‘qing. Quyidagi matndan ijobiy ma’no ifodalovchi undalmalarni toping. U personajlarga xos xususiyatlarni ochishda qanday ahamiyat kasb etayotganligini aytинг.

Muhiddin ota birdaniga maqsadini aytmay, gapni uzoqdan boshladи.

— Taqsir, bir rivoyat yodimga tushdi, ijozat bering, aytay. Hoynahoy, siz bu rivoyatdan xabardorsiz. Buni hamrohlarim uchun aytta qolay.

— Marhamat qiling, azizim...

— Roviylar debdilarki, podshoh bir qizning otasi hamda ikki akasini o‘limga hukm etibdi. Qiz o‘limi oldidan bir qultumdan suv berishlarini so‘rabdi. Podsho muruvvat qilibdi. Suvni ichib bo‘lgach, qiz debdiki: «Ey, muruvvatli podshoh, biz siz bergen suvni ichdik. Endi sizga mehmonmiz. Mehmonni o‘ldirish mumkin bo‘lsa, biz o‘limga tayyormiz». Podsho qizning aqliga tan berib hukmni bekor qilgan ekan. Alqissa, shulki, biz sizga mehmonmiz. Haqiqat shulki, siz o‘limga hukm qiluvchi shoh emas, xastalarga shifo beruvchi tabibsiz.

— Unday emas, inim, adashdingiz, astag‘firulloh. Dard beruvchi ham, shifo beruvchi ham yolg‘iz Ollohdir.

— Haq rost, — dedi Muhiddin ota, bosh egib. — Inim, siz meni ko‘rinmas ip bilan bog‘lab oldingiz. Bilib turibman, bu inim, — u Asadbekka qaradi, — xastalar. Muolaja haqida so‘ngroq so‘z yuritamiz. Hozir mehmon dorlik taomilini buzmaylik. Avval taom, deydilar. Haligi arobalaring sog‘lom odamni ham xasta etadi. Biroz dam olinglar. Men esa, siz aytgan rivoyatga javob aytay: «Hazrat Luqmon hakimdan so‘rabdilar:

— To‘g‘ri va aniq so‘zlashni kimdan o‘rgandingiz?

— Ko‘r odamdan, — deb javob beribdilar hazrat. — Ular bir qadam bosishlaridan oldin avval hassalari bilan yerni paypaslab ko‘radilar. Men esa so‘z aytishdan avval o‘yayman». Alqissa shulki, siz o‘ylab-o‘ylab durust so‘zlar aytdingiz. Mening ko‘nglim bundan tog‘dir. (*T. Malik*)

**144-mashq.** Undalmalar ishtirok etgan gaplarga misollar keltiring. Ularning nima maqsadda ishlataligilagini aytинг.

**145-mashq.** O‘qing. Undalmali gaplarni ajratib ko‘rsating. Undalma bilan boshqa bo‘laklar o‘rtasida qanday tinish belgisi qo‘yaningizni va buning sababini tushuntiring.

Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, qudratli va jafokash Vatanim.

Sen o‘z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og‘riqlisi bo‘lgan tobelik va mutelik zanjiridan xalos bo‘lding. Ozodlik kuning asr desa asr, mingyillik desa mingyillik ichida eng buyuk kundir. U sening yangi tarixing, mening yangi umrim boshlangan kun. Milodiy va hijriy yil hisobi yonida qalbimning o‘z yil hisobi bor. Yangi yilning — milodiy ikki ming birinchi, hijriy bir ming to‘rt yuz-u yigirma birinchi, ozodiy — o‘ninchil yil bo‘ladi.

Ey, mening suykli O‘zbekistonim. Zamonlar kelarki, botiniv zanjirlaring ham yechilar. Kelajak haqiqiy hur dunyo ichida, sen ham chinakam ozod mamlakat bo‘larsan. Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolarini, qon to‘kishlarni unutar, olamda mehr-u saxovat, poklik va ezunglik g‘olib bo‘lar.

Bizning bu g‘urbat to‘la asrda matonat bilan yashagan avlodning uyg‘oq ruhi ul zamon aytar: «O‘lмаган qul shunday kunga ham yetib keldi-ya!»

Shu umidbaxsh tuyg‘u bilan bugun: «Assalom, kelajak», deya hayqirgim keldi.

(E. Vohidov)

## **24-DARS. KIRISH SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilar ongida kirish so‘zlardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish.

**R E J A:**

1. Kirishlar haqida.
2. Kirishlar hamda modal so‘zlar munosabati.
3. Kirishlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.

✓ **1-topshiriq.** *Ehtimol, albatta, shubhasiz* so‘zlari ishtirokida gap tuzing. Bu so‘zlarning qanday ma’no ifodalayotganini aytинг.

**2-topshiriq.** Biror voqeа-hodisaning bajarilishiga gumon bilan karayapsiz. Ana shu gumon ma’nosini qanday yo‘l bilan ifodalaysiz?

Gap orqali ma’lum axborot ifodalanishi bilan birga, so‘zlovchining shu axborotga munosabati ham ifodalanadi. So‘zlovchining munosabati gapning kesim shakli (mayl shakli, bog‘lamalar va nol shakli) orqali hamda maxsus modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, *albatta, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, to‘g‘ri, ehtimol, balki, chamasi, taxminan* va boshqalar.

So‘zlovchi gap orqali bayon qilayotgan axborotga qanday munosabatda ekanligiga qarab, yuqoridaq modal so‘zlardan muvosig‘ini qo‘llaydi: tasdiq munosabatini ifodalamoqchi bo‘lsa, *darhaqiqat, haqiqatan ham, to‘g‘ri* so‘zlaridan; ishonch munosabatini bildirmoqchi bo‘lsa, *albatta, shubhasiz, shaksiz* kabi so‘zlardan; gumon ma’nosini ifodalamoqchi bo‘lsa, *ehtimol, balki* so‘zlaridan; chama-taxmin ma’nosini ifodalamoqchi bo‘lsa, *chamasi, chamamda, taxminan* so‘zlaridan foydalanadi.



**Eslab qoling.** So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaksis birlklarga kirishlar deyiladi. Kirishlar so‘z va birikma holatida bo‘ladi.

Kirishlar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirish-maydi. Shuning uchun u boshqa gap bo‘laklaridan farq qiluvchi alohida ohang bilan talaffuz qilinadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi.

So‘zlovchining o‘zi ifodalagan fikrga munosabat turlari va har qaysi ma’no munosabatini ifodalaydigan kirish so‘zlarni jadvalda ko‘ring.

T/r	So‘zlovchining o‘z fikriga munosabati	Shu munosabatni ifodalashga xoslangan so‘zlar	Misollar
1.	<i>Ishonch munosabati</i>	<i>albatta, shaksiz, shubhasiz</i>	<i>Bu iltimosingizni albatta, bajaraman.</i>
2.	<i>Gumon munosabati</i>	<i>balki, ehtimol, chamasi</i>	<i>Balki, kelib qolar.</i>
3.	<i>Tasdiq munosabati</i>	<i>to‘g‘ri, darhaqiqat, haqiqatan</i>	<i>To‘g‘ri, bu litsey binosi.</i>
4.	<i>Achinish munosabati</i>	<i>afsuski, attang</i>	<i>Afsuski, men yordam berolmadim.</i>
5.	<i>Fikrga yakun yasash munosabati</i>	<i>xullas, demak</i>	<i>Xullas, o‘qishlar yaxshi.</i>
6.	<i>Fikrning kimga qarashli ekanligi</i>	<i>menimcha, uning ta‘kidlashicha, fikri ojizimcha, aytishlaricha</i>	<i>Menimcha, eng yaxshisi shu.</i>
7.	<i>Fikrning tartibi</i>	<i>birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor</i>	<i>Avvalo, men unday demoqchi emasman.</i>

### Kirish so‘zlarning uslubiy xususiyatlari



**1-topshiriq.** Reyter agentligining xabar qilishicha, shaksiz, fikri ojizimcha, shubhasiz, albatta kabi kirish so‘zlarni uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf turlarga ajrating. Uslubiy xoslanganlarining qaysi uslubga mansubligini aytинг.

**2-topshiriq.** To‘g‘ri, ehtimol so‘zlarini gap bo‘lagi va kirish so‘z vazifasida ishlating. Ularning bir-biridan farqini aytинг.

Kirishlar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so‘zlovchi o‘zi qo‘llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo‘llaydi. Masalan, *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, fikri ojizimcha, avvalambor* kabi kirish so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlardir. Ulardan, *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalambor, fikri ojizimcha* so‘zлari kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so‘zlar o‘z ichida ichki xoslanishga ega: *shaksiz, fikri ojizimcha* — badiiy uslubga xos; bayon qilinishicha — publitsistik uslubga xosdir. Shuning uchun har qaysi kirish so‘zini o‘z o‘rnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

**O‘ylang:** Uslubiy xoslanish deganda nimalarni tushunasiz?

**Tayanch tushunchalar:** modal so‘zlar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar.

Berilgan maqolning ma’nosini izohlang, fikr bayon qilayotganingizda kirish so‘zlardan ham foydalaning.

*Til bor, bol keltirar,  
Til bor — balo.*

**146-mashq.** O‘qing. Kirish so‘zlarni ajrating. Kerakli o‘ringa vergul qo‘yib ko‘chiring.

1. To‘g‘ri-da, harna ko‘ngli yozilgani! Qolaversa kasal onasiga madad bo‘ladi. 2. Rais ham Ra’noxonning ahvolini sezdi shekilli haytovur yo‘q demadi. 3. To‘g‘ri qora kunga asrab qo‘yan bug‘doyimiz ham, jo‘xori ham ko‘p edi. 4. Kun botmasidan oxirgi egatdagи kartoshkani ham terib oldik, xayriyat. 5. Oyim chamamda bu gapni dadamga aymadi. 6. Qiziq zakunchi kelib ketishi bilan oraga g‘ashlik tushdi. (*O’. Hoshimov*) 7. Binobarin yoshlарimizни hayot so‘qmoqlaridan eson-omon olib o‘tish har bir insonning muqaddas burchidir. 8. Afsuski bugungi kunda maskura, targ‘ibot va tashviqot kerak emas, degan noto‘g‘ri xulosa bilan yashayotgan odamlar ham uchrab turibdi. 9. Ma‘lumki oqko‘ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagи yo shaxsiy hayotdagи yutuqlariga xuddi o‘z baxti, o‘z yutug‘i kabi qarab quvonadi. 10. Albatta, baxillik qon yo jon bilan o‘tadigan fiziologik hodisa emas. 11. Darhaqiqat, mundoq o‘ylab qaralganda, bola hadeb o‘ksinaversa kuygunchakka, kuygunchaklik hasadga, hasad esa baxillikkа, nihoyat baxillik ziqnalikka aylanganini ko‘rish mumkin.

(*M. Ismoiliy*)

**147-mashq.** «O‘zbekistonning buyuk allomalari» mavzusida matn tuzing. Unda kirish so‘z, kirish birikma va undalmalardan foydalaning.

**148-mashq.** «O‘g‘lim, senga aytaman» mavzusidagi publitsistik maqlani o‘qing. Maqlolaning turli o‘rinlarida tinglovchining diqqatini jalb etuvchi kirishlardan foydalaning.

Shayton bor narsa va u yoningda emas, qoningda aylanadi. Odamlar ko‘rsa uyat bo‘ladiganki narsani, bilginki, shayton buyurdi! Hazrati Navoiyda shunday gap bor: birovning oldida aytish mumkin bo‘lmagan gaplarni, qilish mumkin bo‘lmagan ishlarni kimsa yo‘g‘ida ham aytmasa, qilmasa, o‘sha odam donodir. Ayni yolg‘iz qolganingda o‘zingni qattiq poyla, jilovingni mahkam tut. O‘zingga podshoh o‘zingsan, buyur vujudingga, aytganingni qilsin! Agar ayb ishdan tiyilsang — demak, o‘zingni boshqaryapsan. Agar xato qilsang, bilgingki, shaytonga xizmat qilyapsan! Shaytonga xizmat qildingmi, yutqizishlaring boshlanadi! Yutqizishlarga uchradi degan gap baxtli bo‘lolmadi, deganidir.

Ota-onang esa seni faqat baxt uchun, baxtga atab dunyoga keltirganlar. Seni suvda emas, duolarda cho‘miltirganlar, ismingni ham Baxtiyor, Komron, Zafar, Dilshod, Xushnud, Omad, Maqsud, Umid deb qo‘ydilar! Shu ismlarga munosib umr ko‘rishingni xudoymidan tun-u tong yig‘lab tilaydilar. Ilinj ila ehsonlar qilib, eldan duo yig‘adilar. O‘qitadilar, hunarmand qiladilar. Seni baxtli ko‘ray deb, sochlari oqarib, tishlari to‘kilguncha kuymalanib o‘tadilar... O‘zingni yig‘ishtir, ularni noumid qilma, shu ikki buyuk xaridoring uchun baxtli yashab bergin, o‘g‘lonim! Agar astoydil xohlasang, bu sening qo‘lingdan keladi, chunki buyruq o‘zingdan, ijro o‘zingda!

**149-mashq.** «Ilm — aql chirog‘i» mavzusida suhbat qiling. Suhbatin-gizda qarabsizki, aytgancha, marhamat, shukur, tavba, aslida, umuman, aftidan, bizningcha, demak, xulosa qilganda kabi kirish so‘zlardan ham foydalaning.

**150-mashq.** Ko‘chiring. Kirish so‘zlarni topping. Ular qaysi uslubda ko‘proq qo‘llanilishini ayting.

1. Modomiki, siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohazalarimiz uchun e’tirozga o‘rin qolmaydi. 2. Demak, yashash ma’nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. 3. Ajabo, armonga yo‘l qo‘ymaslik mumkin bo‘lgan holda bu azobni, bu gumrohlikni nechun o‘zingizga ravo ko‘rdingiz. 4. Tavba, shunchalik bag‘ritosh, bemehr, bemuruvvat bola bo‘ladimi! 5. Ha, darvoqe, uni gazetaga yozmoqchi ham bo‘ldik avval, lekin satqayı gazeta ketsin senga, deb yozmadik. 6. Hayotning eng og‘ir, eng shafqatsiz kunlarida ham yiqilmadi, aksincha, qaddini tik tutib, o‘zini mehnatga urdi. 7. Qisqasi, yaxshi onaning peshanasida ne xil baxt bo‘lsa, hammasi Saodat buvida mo‘l-ko‘l. 8. Bu so‘zdan hamma qarilalar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak!

Aslo! Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko‘p. 9. Xo‘p, bugungi gapim tamom qizim. 10. Aksincha, dami ichiga tushib ketgan odamday churq etmay, hatto, nafas ham olmayotganday o‘tirib qolar edi.

(M. Ismoiliy)

**151-mashq.** «Nutq madaniyati» haqida bahs yuriting. Kirish so‘zlardan foydalaning.

## 25-DARS. KIRITMALAR VA ULARNING USLUBIY XOSSALARI

**Darsning maqsadi:** kiritmalardan yozma nutq jarayonida o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

### R E J A:

1. Kiritma haqida ma’lumot.
2. Kiritmalarda tinish belgilarining qo‘llanilishi.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi matndan qavs ichiga olingan qismning ohangi va ma’nosiga e’tibor bering. Gapning asosiy qismi bilan qanday ma’no munosabati borligini aytинг.

*Biz (bu safar menga Maktuba ham hamroh bo‘ldi) qishloqqa ertasiga kechqurun bordik. (O. Yoqubov)*

Nutq jarayonida so‘zlovchi muayyan tushuncha yoki fikrga bog‘liq qo‘srimcha ma’lumot bergisi kelishi mumkin. Ana shu qo‘srimcha ma’lumot ifodalovchi qism gapning asosiy qismidan to‘xtam va pastroq ohang bilan talaffuz qilinadi.

Masalan, *Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi. (O'. Umarbekov)*

Yuqoridagi gapda asosiy axborot *uni tanishsa kerak, bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi* qismi orqali ifodalanadi. *Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam yo‘q qismi esa gapning asosiy qismi tarkibidagi tanishsa kerak bo‘lagi bilan bog‘liq qo‘srimcha ma’lumotni ifodalaydi.*



**Juda muhim.** *Bu qo‘srimcha ma’lumot ifodalovchi qism gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma’nosiga ziyon yetmaydi. Qo‘srimcha ma’lumot beruvchi qism gapning asosiy qismlaridan past ohang bilan ajralib turibdi.*



**Eslab qoling.** *Gapning asosiy mazmuniga qo‘srimcha axborot qo‘srimchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismga kiritmalar deyiladi.*

Kiritmalar asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot bergenligi uchun, asosan, gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

**O'ylang:** Kiritmalar nutqimizda nima uchun kerak?

**Tayanch tushunchalar:** kiritmalar, kiritmalarda tinish belgilaring ishlatalishi.

Berilgan maqolning ma'nosini izohlang, o'zaro fikrlashing. Nutqingizda kiritmalardan ham foydalaning.

*Ajralganni ayiq yer,  
Bo'linganni bo'ri yer.*

**152-mashq.** Ko'chiring. Kiritmalarni aniqlang. Ohang va tinish belgilari ni izohlab bering.

1. Ko'zлари bo'taloqning ko'zларидай javdirab turgan bu yosh, hurkak malakni (uning ismi ham jismiga monand — Qorako'z begin edi!) amirga Buxoro hokimi Alp Tegin in'om qilib yuborgan. 2. Mana, bir oydan oshdi, G'aznadan maxfiy elchi Abulvafo Sariq kelib, Ibn Sino hazratlarini topolmay noumid qaytib ketdi hamki, amir har on, har daqiqa G'aznadan sovuq xabar kutib (gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, Xudovandi karim!) betoqat bo'ladi, kechalari mijja qoqmay chiqadi. 3. Sarpardaning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida... boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam... (Yo rab! — bu odam Sulton Mahmud G'aznaviy edi!) uzala tushib yotardi! 4. Mirzajon aka (bizda birovni o'ta hurmat qilsang, yosh bo'lsa ham aka deymiz, men ham u kishini aka degim keladi)... muloyim kulimsirab qo'ydi. 5. Shundan keyin Saltanatni o'ninchi sinfni bitiruvchilar kechasida (bu to'yga odat-dagiday hammamiz yig'ilgan edik) ko'rdim. (*O. Yoqubov*)

**153-mashq.** «Milliy urf-odatlarimiz» mavzusida kichik matn tuzing. Unda kirish so'z, kirish birikma, shuningdek, kiritmalardan foydalaning.

## 26-DARS. GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI. DARAK GAPLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarga gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida umumiylar ma'lumot berish. Nutqda darak gaplardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

### R E J A:

1. So'zlovchining maqsadi va gapning shu maqsadga ko'ra turlari.
2. Darak gaplar va ularning o'ziga xos qolipi.

3. Darak gaplarda gap bo‘laklarining tartibi.
4. Darak gaplarda tasdiq va inkor ma’nosining ifodalananishi.

✓ **1-topshiriq.** Ertalab bajargan yumushlaringiz haqida so‘zlab bering. Nechta gapdan foydalanganingizni va gap kesimining qanday shaklda ekanligini ayting.

**2-topshiriq.** Sizga noma'lum bo‘lgan voqeа-hodisa haqida suhbatdoshingizdan so‘rang. So‘rash uchun ishlatgan gapingizda qanday vositalardan foydalanganingizni ayting.

**3-topshiriq.** Ma'lum harakat-holatni bajarishga sheringizingizni buyuring. Buyurish uchun ishlatgan gapingizning kesimi qanday shaklda ekanligini ayting.

So‘zlovchi nutq jarayonida turli maqsadlarni amalga oshiradi: o‘ziga ma'lum bo‘lgan axborotni boshqasiga yetkazish maqsadi, o‘ziga ma'lum bo‘limgan axborotni boshqasidan so‘rash maqsadi, ma'lum voqeа-hodisani amalga oshirishga tinglovchini da‘vat etish maqsadi va boshqalar.

Ana shu maqsadlarning amalga oshishiga muvofiqlashgan gap shakllari (qoliplari) mavjud.

 **Eslab qoling.** *So‘zlovchining maqsadiga xoslangan gap turlariga gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari deyiladi.*

Ifoda maqsadiga ko‘ra gaplar to‘rt turga bo‘linadi: 1) darak gaplar; 2) buyruq gaplar; 3) so‘roq gaplar; 4) istak gaplar.

### Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

✓ **1-topshiriq.** Kesimi aniqlik maylidagi fe’ldan ifodalangan gap topib yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

**2-topshiriq.** Ot kesimli gap topib yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

Sizga ma'lum bo‘lgan biror axborotni boshqalarga yetkazmoqchi bo‘lsangiz, darhol shu maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Bunday gaplarning xarakterli xususiyati shundaki, kesimi tasdiq yoki inkor shaklidida turgan aniqlik maylidagi fe’llar bilan, ba‘zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi; yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeа-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo‘li bilan ifodalaydi; darak ohangi bilan talaffuz qilinadi; darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi; gap bo‘laklari to‘g‘ri tartibda joylashgan bo‘ladi.

 **Eslab qoling.** *Kesimi aniqlik maylidagi fe’llardan, tasdiq yoki inkor ma’nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqeа-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.*

Masalan, *Ana bu — bizning bog‘imiz.*

Yozuvda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yordagi tartibi o'zgarishi mumkin. Masalan:

- a) *Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan.*
- b) *Shahar markazidan urug'chilik instituti xiyla chetda joylashgan.*
- c) *Xiyla chetda joylashgan urug'chilik instituti shahar markazidan uzoqda edi.*



**Juda muhim.** *Darak gaplardagi bunday uch xil gap bo'laklarining taribi gapning umumiy mazmunini bir xil ifodalasa ham, lekin uslubiy xoslanishlik va gap bo'laklaridan birining ahamiyatlilik darajasini ifodalashga ko'ra o'zaro farqlanadi: a) va b) harflari bilan berilgan gaplar kitobiy uslubga, d) harfi bilan berilgan gap esa so'zlashuv uslubiga xoslangan.*

Darak gaplar ma'lum axborotni tasdiq va inkor yo'li bilan ifodalaydi. Kesimi bo'lissiz fe'llardan, yo'q, emas so'zlarini olgan sifatdosh va otlardan ifodalangan gaplar darak-inkor gaplar sanaladi.



**Juda muhim.** *Ba'zan gapning inkor shakli orqali tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Bunday vaqtida ikkita inkor shakl qo'llanilib, gapga tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, o'qimay qo'ymayman. Inkor shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosi tasdiq shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.*

**O'ylang:** Darak gaplarning tasdiq yoki inkor bildirishini qanday izohlaysiz?

**Tayanch tushunchalar:** aniqlik mayli, ifoda maqsadi, darak ohangi, gap qolipi, darak gap, kitobiy uslub, so'zlashuv uslubi.

Berilgan maqolning ma'nosini izohlang hamda uni darak gaplarga aylantiring.

*Kuch bilim va tafakkurda.*

**154-mashq.** Berilgan darak gaplarni ko'chirib yozing. Har bir gapni yozganingizdan so'ng qavs ichiga (tasdiq, inkor, xabar, orzu-umid, maslahat, taajjub, tashvish, gina, kinoya) ma'nolarini yozib qo'ying.

1. Davlatimiz miqyosida olib borilayotgan ishlar, har bir zamondoshimiz qalbiga yorug'lik sochmoqda.
2. Axir qush uyasida ko'rganini qiladi.
3. Ba'zan ayollarni o'ziga befarqligini ko'rib hayron qolasan, kishi.
4. Ayollarning tibbiy madaniyatini oshirish to'g'risida ham o'yalamog'imiz zarur.
5. Biz, o'zbeklar, oilaparvar xalqmiz.
6. Buyuk Navoiyga alohida e'tibor bugungi kunda davlat maqomi darajasiga aylanganligi millatimizning baxtidir.
7. Dunyodaadolat hukmron bo'lishi uchun har bir inson ulkan

iste'dodini, butun kuch-g'ayratini sarflamog'i joiz. 8. E'tibor bering: Navoiy she'riyat olamiga kirishi bilanoq asarlarini o'z ona tilida yoza boshlagan. 9. Alisher Navoiyning ummon qadar bepoyon ijodidan hamma o'z iste'dodiga yarasha bahramand bo'lishi mumkin. 10. Barcha insonlar o'zidan yaxshi nom qoldirmoqqa intiladi. 11. Bugun barcha bir butun millat bo'lib uyg'onmas ekan, kelajak yo'lidagi uy-ro'zg'orimiz kamol topmaydi — fikrsizlik, nodonlik oyog'imizga tushov bo'laveradi.

(Gazetadan)

**155-mashq.** Berilgan matnni o'qing. Fikr-mulohazalar bildiring. Sohib-qironning aytgan gaplarini darak gapga aylantiring.

### AMIR TEMURNING BOLALIGI

Deydilarki, Sohibqiron yetti yoshligida otasi bilan bir qarindoshinikiga bordi. Ul kishi badavlat, nufuzli kishi edi va farovonlik bilan kun kechirardi. Uning yetmishta turk va hind quli bor ediki, uning mollarini shundan bilsa bo'lardi. O'sha kishi Sohibqironning otasiga shikoyat qildi: «Xudo menga mol-u davlat berdi, lekin uni saqlashga tamoman ojizman. Qullarimiz sabr-u toqatli emaslar, farzandlarim esa salohiyatsiz. Shu sababdan mol-u dunyomga nuqson yetmasa deb qo'rqaman». Sohibqiron gapga aralashdi va dedi: — Ey ota! Farzandlaringga mollaringdan bo'lib ber va undan so'ng ularni o'z mol-u mulkiga doxil qilginkim, ular o'z-o'zi bilan ovora bo'lsin. So'ng turk qullarni hind qullarning tepasiga qo'yginki, hindlarni o'z amri farmoniga bo'ysundirsinlar. Keyin har uch qulni topshir. So'ng ularning har birini yettitadan qulning amiri qil. Keyin yetmish qulga bosh bo'lgan yettita qulni bir-birining ta'zim va tashrifiga buyur. Ularni ko'zdan qochirma». O'sha kishi darhol amir Tarag'ayga dedi: «...Sening bu farzanding jahonga podshoh bo'ladi, chunki buni uning shu gaplaridan fahmlab turibman...» (Abdurazzoq Samarqandiy)

**156-mashq.** She'riy misralarning shakl va mazmuniga e'tibor bering. Tasdiq gapmi yoki inkor? Har bir misraga xos uslubiy xususiyatlarni aytинг.

1. Daholikni da'vo qilmas u zinhor,  
Chog'i kelganicha ijod qiladi.
2. Uni hech kim tahlil qilmaydi, ammo  
Uchragan har kimsa tabrik qiladi.
3. O'qib shogirdlari kitoblarini  
Ko'zlariga surib, shukrona aytib.
4. Yurak qayta-qayta ketar hapriqib,  
Ko'ngil qayta-qayta ochar chechaklar.  
She'riyat uni tan olarmi-yo'qmi,  
U esa, umrbod ehtirom saqlar.

5. Aql bilan yurak o'rtasida bahs  
Davom etar, mana, ming yildan beri.  
Bu bahs, balki, yana ming yilda bitmas.  
Hamma hayron — bilmay ustun qay biri...

Bu chigalni men ham yecholmam, boshqa —  
Bir so'zim bor, shunga tegishlik, kerak.  
Aqli bois yostiq qo'yilar boshg'a.  
Dardi bois zaxga berilar ko'krak.

6. Ikkimizni shum qismat,  
Ishqilib ayirmasin.  
Ishq — orzuymim, qanotim,  
Qanotim qayrilmasisin.  
Kuysam ado bo'lurman,  
Hazilakam kuymasman.

(Sh. Qurbon)

**157-mashq.** O'qing. Tasdiq va inkor gaplarni aniqlab, ular orasidagi semantik-grammatik farqlarni izohlang. Inkorni ifodalovchi vositalarni aytинг.

1. U kelsa, oshnasini ko'rmay ketmaydi. 2. Bilmadim, tuman tarqaldimi, oy chiqdimi, bobomning yuzi yorishgandek bo'ldi. 3. Seskanib ketdim. Hali qorong'ida ko'rmagan ekanman. Bobom boshyalang, yuzini tanib bo'lmas, kiyimlari pora-pora bo'lib ketgan edi. 3. Aytmovmidim, hech kimdan ko'rmaganingni mana shu Potmadan ko'rasan deb. 4. Potma aytdi, ota, neverangiz yettiga kirdi, to'y qilmaymizmi, dedi. 5. Bilaman, ikkalamizning muchalimiz bir, ammo onangni qornida yotgan to'qqiz oyniyam hisoblash kerakmi — kerak. Bundan tashqari muchaling ikki marta aylanganida bir yosh qo'shiladimi — qo'shiladi! 6. Kerakmas bizga bunaqa rais! 7. Umar zakunchi serrayib turar, ammo endi boyagidek esankiramas, yuzi qahrli, qat'iy tusga kirgan edi. 8. Zakunchining basharasiga qaragim kelmas edi. 9. Oqsoqol bilan bobom kechasi chiqib ketgancha qaytishmagan edi. (O'. Hoshimov)

## **27-DARS. BUYRUQ HAMDA ISTAK GAPLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Darsning maqsadi:** *buyruq va istak gaplar bo'yicha o'rta maktabda olingen bilimlarni kengaytirish hamda ularning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish.*

### **R E J A:**

1. Buyruq gaplarning kesimi haqida.
2. Buyruq maylidagi fe'llarning shaxs-son sinonimiyasi
3. Istak gaplarning shakllari.

 **1-topshiriq.** O‘rtog‘ingizni ma’lum voqeа-hodisani bajarishga da’vat etuvchi gap yozing. Gapning kesimi qaysi shaklda ekanligini ayting.

**2-topshiriq.** Kesimi buyruq maylidagi fe’ldan ifodalangan gap yozing. Gapning ifoda maqsadiga ko’ra turini ayting.

Ma’lum bir harakat-holatni, voqeа-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka tinglovchini da’vat etmoqchisiz. Ana shu joyda kesimi buyruq maylidagi fe’llardan ifodalangan gaplardan foydalanasiz. Masalan, *Oldin o’yla, keyin so ‘yla*.



**Eslab qoling.** *Kesimi buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalaniб buyruq-xitob ma’nolarini ifodalagan gaplarga buyruq gaplar deyiladi.*



**Juda muhim.** Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalangan kesimi ba’zan tushib qolishi mumkin, lekin uning izi nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan: *Hamma paxta terimiga!*

Buyruq gaplarning oxiriga yozuvda vergul, ba’zan undov belgisi qo’yiladi.

Buyruq gaplarning kesimi aniqlik nisbati, ikkinchi shaxs, buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi. Masalan: *Chek mang!*

Ba’zan majhul nisbat, uchinchi shaxs, buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan: *Ishga qabul qilinsin.*



**Juda muhim.** Ayrim hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma’nosida qo’llanadi. Masalan, *Chek mang o’rnida Chekilmasin. Uyga kiring o’rniga Uyga kirilsin.* Bunday vaqtida iltifot, mulozamat bildirish, kesatiq kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Buyruq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Ba’zan buyruqni kuchaytirish, do’q-po’pisa ma’nosini ifodalanganda kesim gap boshida keladi. Masalan, *Qo ‘lingizni oling o’rniga Oling qo ‘lingizni.*

### **Istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari**



**1-topshiriq.** Kesimi shart-istak maylidagi fe’l bilan ifodalangan gap yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

**2-topshiriq.** Ma’lum istak-xohishingizni tinglovchiga bayon qilmoqchisiz. Maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini tanlang va istagingizni yozing. Gap kesimining qanday shaklda ekanligini ayting.

Nutq jarayonida boshqalarga o'zingizning istak-xohishingizni bayon qilgingiz kelsa, ana shu maqsadingizga muvofiq kesimi shart-istik maylidagi fe'l bilan ifodalangan gap shaklini tanlaysiz. Masalan, *Toshkentga borsam, Mustaqillik maydonini ko'rsam*.



**Eslab qoling.** Kesimi shart-istik maylidagi fe'l bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi.

*Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.*

**O'ylang:** Buyruq, istak gaplar qaysi jihatlari bilan darak gaplardan farqlanadi?

**Tayanch tushunchalar:** buyruq gaplar, majhul nisbat, shart-istik mayli.

Maqolni yod oling, ma'nosini izohlang, maqsadiga ko'ra qanday gap ekanligini aytинг.

*To 'kilsa manglay tering,  
Unumli bo'lar yering.*

**158-mashq.** «Salomatlik posbonlari kasbiga sodiqmi?» mavzusida bahs-munozara o'tkazing. Istak gaplardan foydalaning.

**159-mashq.** A. Oripov she'rini ifodali o'qing. Unda ishlatalgan so'roq va buyruq gaplarga e'tibor bering. She'rning nasriy bayonini yozing.

### QISH KECHASI

Taqillaydi eshik nogahon,  
— Kimsan? — deyman, tugab sabotim.  
— Ochgil, — deydi. — Men senga mehmon,  
Bilmoq bo'lsang — Tashvishdir otim.

Taqillaydi eshik nogahon,  
— Kimsan? — deyman tugab sabotim.  
— Ochgil, — deydi. — Bu — men, qadrdon.  
Bilmoq bo'lsang — Bardoshdir otim.

Tashqarida shamol uvullar,  
Tun bo'yi yummayman ko'zim,  
Tun bo'yi bahs qilar ular,  
Tun esa-chi, juda ham uzun.

**160-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Buyruq gaplar qanday ma'no anglatayotganini aytинг.

1. Moziy va istiqbolga munosib bo'lish uchun, keling, Siz ham mana shu tabarruk ayyomlarning totini teran his qilib shukronalik bilan hayot

kechiraylik. 2. Ey Navoiy, boda birlan xurram et ko'ngil uyin... (*A. Navoiy*)  
3. Olamning farzandi bo'l mish har bir odam ixtiyorsiz ravishda o'z ulug' voldasiga taqlid qilib yashasin. 4. Tadbirlarga ko'ra, harbiy qismlarda jangchilar o'tasida turli sport musobaqalari uyuşdırilsin. 5. Opaning ko'zlariga yana bir bora boq, hore'inligiga e'tibor ber. 6. Bu gaplарimni ukangga aslo aytा ko'rma. 7. Yer yuzini munavvar etaylik. 8. Tabarruk boshingiz doimo omon bo'lsin. 9. Siz o'g'limga ozor bermang. (*Gazetadan*)

**161-mashq.** Rasm asosida «Bolalar — bizning kelajagimiz» mavzusida matn tuzing. Unda buyruq-so'roq, darak-so'roq mazmunini ifodalovchi gaplarga misollar topib yozing.



**162-mashq.** Darak, so'roq va buyruq gaplarga xos turli uslubiy bo'-yoqni aniqlang. Bunday gaplarning nutqda qo'llanishini tushuntiring.

1. Nega? Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topolmaysanmi? Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotipti degin! 2. Qo'ysangiz-chi! Urimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman. Mening borishimdan nima foyda? Foya bo'lmasa ziyon ham yo'q-ku! 3. Urush boshlangan haftalari allanima degan shahardan xat kelgan edi, o'shandan beri... 4. Shaytonning gapiga kirib yengillik qilish kerak emas. 5. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r, deyishadi. 6. Sen shunaqa qilib o'tirsang, yosh-yalanglar nima qiladi? Xudo ko'rsatmasin, biron xunuk xabar kelganda ham sen yosh-yalanglarni bosishing kerak. 7. Kampir sochini yulib yig'iga tushdi. Chol sira eplay olmadи. 8. Hali shunaqa xat kelganmi? Obbo!... 9. Tanidim. Faqat ko'zingdan tanidim-a?! 10. Ha, nima qilib yuribsiz? Chiroqni ko'tarsangiz-chi?!

**163-mashq.** Matnni o‘qing. Darak, so‘roq, istak va buyruq gaplarga xos turli uslubiy bo‘yoqni aniqlang.

## ONA HAQIDA

Ey farzand, qara, agar kishi qo‘lida arzimas yukni biror soat ko‘tarib tursa, qanchalik qiynaladi. Endi esa, tasavvur qil, agar u shu yukni to‘qqiz soat ko‘tarib yursa nima bo‘ladi?! Agar to‘qqiz kun ko‘tarib yursa-chi? Shundan xulosa chiqarib olaverki, seni onang to‘qqiz soat yoki to‘qqiz kun emas, to‘qqiz oy ko‘tarib yurgan.

Agar sen go‘daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o‘zingning esa osmon bilan yerning fargini bilmaydigan bir chaqaloq bo‘lganining bilishni istasang, atrofingdagi onalarga qara, ularning qo‘llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda o‘z go‘dakligingni yorqin tasavvur qilasan, bundan esa o‘zingga yarasha xulosa chiqarib olasan.

Aqli, ziyarak, zehnli har bir farzand onaning haq-huquqini joyiga qo‘yadi, qo‘lidan qanday yaxshiliklar kelsa, onasi uchun ado qiladi, rizoligi yo‘lida esa barcha imkoniyatini ishga soladi. Hech bir narsada onaning jahlini chiqarmaydi, onaning quvvati yetmaydigan narsalarни talab qilmaydi.

Onaning shafqatiga jafo bilan, mehribonligi evaziga xafa qilish bilan javob qaytaruvchi farzand naqadar razil farzand! Ona aytganlariga qulog solmaydigan, buyurganining aksini qiladigan, har bir ishda onaning jig‘iga tegadigan farzandni ota yomon ko‘rishidan tashqari, odamlar ham yomon ko‘rishi, shubhasizdir.

Har bir farzand ona nasihatlarini jon qulog‘i bilan eshitishi, to‘g‘ri yo‘lga targ‘ib etsa, qarshilik qilmasligi, ota yoki onadan birortasi ish buyurganda shu buyurilgan ishda xatolik borligini bilsa ham yuragini tor qilib, qattiq gapirmasligi, kulib turib, bu ishda xatolik borligini yunshoqlik bilan isbot qilib, ularni ko‘ndirishi lozim.

*(Abdulqodir Nuriy al-Barzanjiy)*

## 28-DARS. SO‘ROQ GAPLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** so‘roq gaplardan nutqiy jarayonda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish

### R E J A:

1. So‘roq gap haqida.
2. So‘roq gapni hosil qiluvchi vositalar.
3. So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar bilan so‘roq yuklamalari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar o‘rtasidagi farq.
4. So‘roq gaplar orqali darak va buyruq ma’nolarining ifodalanishi.

 **1-topshirlq.** So‘roq olmoshlari yordamida gap tuzing. Qanday gap hosil qilganingizni aying. So‘roq gapga javob qanday bo‘lganiga e’tibor bering.

**2-topshiriq.** Gap kesimi oxiriga -mi yuklamasini qo‘sning. Qanday gap hosil bo‘lganini aying. Tarkibida so‘roq olmoshi bo‘lgan gapning javobi bilan -mi yuklamasi ishtirok etgan gap javobi o‘rtasidagi farqni aniqlang.

O‘zingizga noma’lum bo‘lgan voqeа-hodisa haqida axborot olish uchun tarkibida so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi bo‘lgan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Masalan, uyingizga kimdir keldi, lekin bu shaxsning kimligini bilmaysiz. Ana shu shaxs haqida aniq ma’lumot olish uchun *kim keldi?* deb so‘raysiz va so‘rog‘ingizga kelgan shaxs haqida aniq ma’lumot olasiz.

So‘rash maqsadida foydalanadigan gapingiz tarkibida, albatta, so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi mavjud bo‘ladi.

 **Eslab qoling.** So‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi yordamida ifodalanganib, so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan voqeа-hodisa haqida axborot olish maqsadida qo‘llaniluvchi gaplarga so‘roq gaplar deyiladi.

So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar bilan so‘roq yuklamalari va so‘roq ohangi yordamida ifodalangan so‘roq gaplar qanday javob talab qilish bilan farq qiladi. So‘roq olmoshlari ma’nosiga muvosiq aniq javobni talab etadi. Masalan:

— Guruhingizda **kim** yaxshi o‘qiydi?

— Fotima.

So‘roq yuklamasi va so‘roq olmoshlari ishtirok etgan so‘roq gaplar esa *ha* yoki *yo‘q* javobini talab etadi. *Ha* va *yo‘q* so‘zlarini javob tarzda qo‘llab, so‘ngra unga izoh beriladi. Masalan:

— Sen akademik litseyda o‘qisanmi?

— Ha, men akademik litseyning bitiruvchi o‘quvchisiman.

*Yoki:* — Bu litseymi?

— Ha, bu litsey.

So‘roq gaplar oxiriga doimo so‘roq belgisi qo‘yiladi.

Ba‘zan darak ma’nosini ifodalash uchun so‘zlovchi darak shaklidan (qolipidan) emas, balki so‘roq gap shaklidan (qolipidan) foydalanadi. Masalan, *Buni kim bilmaydi?*

 **Juda muhim.** Bunday so‘roq gaplar javob talab qilmaydi. Javobi shu gapning o‘zida bo‘ladi. So‘roq gap kesimi bo‘lishsiz fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, tasdiq darak gap ma’nosini; aksincha, bo‘lishli fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, inkor gap ma’nosini bildiradi.

Masalan, *Bu daraxtni kesishga kim jur'at qiladi?* («Bu daraxtni kesishga hech kim jur'at qilolmaydi» ma'nosini bildiradi).

So'roq gap orqali ifodalangan darak ma'nosni darak gap orqali ifodalangan darak ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

Shuningdek, so'roq gap shakli orqali buyruq ma'nosni ham ifodalanishi mumkin. Masalan,

— *Yurmaysizmi?* («Yuring» ma'nosida.)

So'roq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosni buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

Darak ma'nosini ifodalangan so'roq gaplarga so'roq-darak gaplar, buyruq ma'nosini bildirgan so'roq gaplarga esa so'roq-buyruq gaplar deyiladi.

**O'ylang:** Bir fikrni darak va so'roq gaplar orqali ifodalanishi mumkinmi?

**Tayanch tushunchalar:** so'roq olmoshi, so'roq ohangi, so'roq yuklamasi, so'roq-buyruq gap, so'roq-darak gap.

Berilgan maqolni yod oling, ma'nosini izohlang hamda uni so'roq gaplarga aylantiring.

*So'z aytganda bilib ayt,  
Naql-matal qo'shib ayt.*

**164-mashq. Gaplarni o'qing. Darak gaplarni so'roq gaplarga aylantiring. (Ohang yordamida, yuklamalar, so'roq olmoshlari yordamida.)**

1. Yong'oqdan yasalib, naqsh-u nigor o'ymakorlik ila jilo berilgan darvoza qarshisida bir zum nafas rostlab, asta qo'ng'iroq tugmasini boshdim.
2. Oqshom chog'i bu xabardan ogoh bo'lib, Muhammad Sharifning kapalaklari uchib ketdi.
3. Boshimni qashlab, hayrat barmog'imni tishlab, damim ichimda, indamaygina izimga qaytdim.
4. Kechqurun idorada navbatdagi mashvarat bo'ldi.
5. Ust-boshimni yechib, men ham asta xonamga kirdim.
6. Taom mahali yetib, qorinlar surnay navosini boshladi.
7. Shodiyor shu bo'yi uch kecha-yu uch kunduz bedarak ketdi.
8. Yarim soatlardan so'ng butunlay o'zga liboslarda javlon urib chiqdi, oshxona yo'lagida turganimni ko'rib, qo'l silkib qo'ydi.
9. Birgalashib taom tayyorlamoqqa kirishdik.
10. Sabr kosam to'lib-toshdi-yu, irg'ib turdim, qahr bilan eshikni ochib kirdim.

**165-mashq. O'qing. Darak gaplardan so'roq gaplar hosil qiling, qanday vositalar yordami bilan so'roq gapga aylantirganingizni aiting.**

#### PAYG'AMBARIMIZNING VASİYATLARI

— Yo Ali, munofiqning uch alomati bordir: so'zlasa yolg'on so'zlar; va'dasiga xilof ish tutar; omonatga xiyonat qilar.

— Yo Ali, hosid, ya’ni hasad etguvchining uch alomati bordir: Sening oldinda jo’shilik qilar; orqangdan xiyonat qilar: agar senga biror musibat yo g‘am yetsa, unga xursand va shodmon bo‘lar.

— Yo Ali, halim (muloyim) kishida uch alomat bordir: orasi buzilgan kishi bilan aloqani tiklar; qo‘lidan hech ish kelmaydigan, ya’ni o‘z tirik-chiligini o‘zi ko‘rishi qiyin bo‘lgan kishiga ehson qilar; unga kimki zulm qilsa, o‘shani afv etar.

— Yo Ali, vaqtiki, sadaqa bermoqchi bo‘lsang, halol molingdan bergil. Bir halol luqma yo bir palla halol xurmoni sadaqa qilib berish Olloh taoloning oldida mingta haromdan kelgan tillani bergandan yaxshiroqdir.

— Yo Ali, zinhor o‘liklar birla o‘tirmagaysan. Aytdim: «Yo Rasulul-loh, murdalar kimlardir?» Aytdilar: «Johillar va g‘ofillar — o‘liklardir».

**166-mashq.** So‘roq gaplar dialogik nutqqa asoslanishini isbotlang. «Hunarni asrabon netkumdir oxir?!» mavzusida dialogik suhabat uyush-tiring.

**167-mashq.** Nahot, nahotki, kim?, qanday?, qaysi?, nima? so‘zлari yordamida so‘roq gaplar hosil qiling.

## **29-DARS. GAPLARNING HIS-HAYAJON ISHTIROKIGA KO‘RA TURLARI**

**Darsning maqsadi:** his-hayajon bildirgan gaplar haqida umumiy ma‘lumot berish va ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish.

### **R E J A:**

1. Gaplarning his-hayajon belgisi bor-yo‘qligiga ko‘ra tasnifi.
2. His-hayajon gap bilan his-hayajonsiz gaplarning farqi.
3. His-hayajon gaplarda tinish belgilari.

Mustaqilligimiz abadiy yashasin! (Ko‘tarinki ohang bilan). Mustaqil-ligimiz abadiy yashasin.(Tinch ohang bilan.)

Ma‘lum voqeа-hodisani hech qanday ehtirossiz oddiy bayon qilish bilan birga, ba’zan ehtiros, hayajon qo‘silgan holda ifoda qilinadi. Yuqorida keltirilgan birinchi gap oddiy sodda gap bo‘lsa, ikkinchi sodda gap his-hayajon qo‘silgan gapdir.

His-hayajonning qatnashish yoki qatnashmasligiga ko‘ra gaplar ikki guruhgа bo‘linadi: 1) his-hayajonsiz gaplar. Bularga odatdagи darak, buyruq, so‘roq, istak gaplar kiradi; 2) his-hayajon gaplar (undov gaplar).

Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra yuqoridagi to‘rt xil turiga nutq jarayonida so‘zlovehining his-hayajoni qo‘silish bilan bu gaplarni his-hayajon gapga aylantiradi. His-hayajon gaplar undov gaplar atamasi bilan yuritiladi.

## His-hayajonsiz gaplar

1. *Poyezd keldi.*
2. *Uyingiz nurga to 'lsin.*
3. *Dalaga chiqmaysizmi?*
4. *Vatanim bog'larga burkansa.*

## His-hayajonli (undov) gaplar

- Keldi poyezd!*  
*Nurga to 'lsin uyingiz!*  
*Chiqmaysizmi dalaga?!*  
*Eh, bog'larga burkansa Vatanim!*

✓ **1-topshiriq.** Chap qatordagi gaplarni o'ng qatordagi gaplarga solishtiring. Ularning o'zaro farqini ayting.

👉 **Eslab qoling.** His-hayajon bilan aytilgan gaplar undov gap deyiladi.

! **Juda muhim.** His-hayajon (undov) gaplarda kesim ko'pincha gapning oldida keladi, tarkibida ko'pincha eh, oh, singari undov so'zлari ishtirok etadi va kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi. Shuning uchun yozuvda undov gapdan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Agar his-hayajon so'roq gapga qo'shilib, uni undov gapga aylantirsa, avval so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Masalan, Qo'shiqdan kim bahra olmaydi??

**O'ylang:** His-hayajon gaplar his-hayajonsiz gaplardan qanday belgilari bilan farq qiladi?

Berilgan maqolning ma'nosini izohlang, uni undov gaplarga aylantiring.

*Har gapga kulma,  
Ota so'zin bo'lma.*

**168-mashq.** Quyida berilgan she'riy parcha asosida his-hayajon gaplarni qatnashtirib matn tuzing.

*Uch balodin saqlasin:  
Charxi balokash bo'lmasin,  
Do'st mehrsiz, dardsiz ulfat,  
Yor jafogar bo'lmasin.* (E. Vohidov)

**169-mashq.** His-hayajon gaplarni ko'chirib yozing. Bu gaplarning ohang va mazmuniga e'tibor bering. Har bir gapning hissiy bo'yog'i va uslubiy ahamiyatini aytинг.

## SHUKRONALIK

Tong... Oppoq, nafis va beg'ubor tong yorishib kelayotir! Quyosh o'zining zarrin nurlari ila hayot davomiyligini aks etayotgandek ko'rindi.

Ko'zlarimni quyosh jilvalariga qadayman. Quloqlarim esa beixtiyor tabiatni, tong musiqasini tinglashga shay. Ko'hna bu ochunning jamoliga boqib to'ymayman! Atrofga yoqimli bo'y taratayotgan turfa gullarda go'zallik mujassam.

Darvoqe, bulbulni tonggacha bedor kuylashga majbur etgan mana shu go'zallik emasmi?! Gullar — yurakning surati. U qalblarni yashnatadi.

Onaginam tabiat! Bunchalar go'zalsan! Sening osudaligingni, musaffo osmoningni, tongingni, uning ezgu nurlarini sevaman. Kichkintoy ukajonim biyron tili bilan bildirlaydi.

— Opajon, meni bog'ga olib boying, gullay yonida yasimga tushamiz-a?

Ha, shu murg'akkina go'dakka ham ezmilikni sevishni sen hadya etgansan, borlig'im!

Men qo'limga shukronatlik ila qalam ushladim. Zero, osudaliging boqiy bo'lsin! Bog'larda, chamanlarda bolajonlar kulgusi yangramoqda. Munisa, pari buvijonlar ularning bo'ylaridan o'rgilmoqdalar. Shularning umri uchun sen doim keraksan, Ona zaminim!

(Hamrobonu)

**170-mashq.** Matnni his-hayajon gaplarga aylantirib ko'chiring. Donishmand nima uchun pok qalb dunyodagi eng yaxshi narsa deganini tushuntirib bering.

Bir donishmand shogirdlaridan:

— Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima? — deb so'radi.

Shogirdlaridan biri — komil ayol, dedi. Ikkinchisi, yaxshi o'rtoq, dedi. Yana bir shogirdi, chora-tadbir, deb javob ayladi. Donishmand ularning fikrlarini qabul qilmadi. Nihoyat, bir shogird:

— Inson uchun yaxshi narsa — pok qalb, — dedi.

Donishmand bu so'zni ma'qullab, xulosa qildi:

— Barakalla, to'g'ri aytding, bu bo'lsa, avvalgilarning hammasi ham bo'ladi, pok qalb inson uchun eng yaxshi narsa!

### **30-DARS. SODDA GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. GAP BO'LAKLARINING TARTIBI**

**Darsning maqsadi:** to 'liq hamda to 'liqsiz gaplar, so 'z gaplar, shuningdek, gap bo'laklarining tartibi haqida umumiy ma'lumot berish.

#### **R E J A:**

1. Yig'iq va yoyiq gaplar.
2. To'liq va to'liqsiz gaplar.
3. So'z-gaplar.
4. Gap bo'laklarining tartibi.

 **1-topshiriq.** Keldim bilan Men kecha Toshkentga keldim gaplarini bir-biriga solishtirib, bir-biridan farqini aytin.

Fikrimizni birligina kesim orqali ham bayon qila olamiz. Shuning uchun ham gapning eng kichik ko'rinishi faqat kesimdan iborat bo'lgan gaplardir.

Kesimning ma'nosini kengaytirish ehtiyoji tug'ilganda, boshqa bo'laklardan foydalaniladi.

Kesim va kesimdan boshqa bo'laklarning ishtiropiga ko'ra gaplar ikki turga bo'linadi:

- 1) yig'iq gaplar; 2) yoyiq gaplar.

 **Eslab qoling.** Faqat kesimdangina tashkil topgan gaplar yig'iq gaplar deyiladi.

Masalan, *keldi, kuz kabi*.

*Kesimdan tashqari boshqa bo'laklar ham ishtirop etgan gaplarga yoyiq gap deyiladi.*

Masalan, *Keldi bahor, gul bahor. (Z. Diyor)*

Dialogik nutqda fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirop eta bermaydi. So'zlashish jarayoni doimo ixchamlikka, ortiqcha so'zlardan qutulishga amal qiladi. Shuning uchun so'zlashish jarayonida oldingi gapdan yoki so'zlashish vaziyatidan bilinib turgan so'zlar ko'pincha ishlatalmaydi, lekin uning mazmuni oldingi gapdan va nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan,

- Isming nima?
- Yodgor.

Keyingi gapda *mening ismim* so'zlarining qo'llanilishi ortiqcha. Chunki uning mazmuni yuqorida gapdan bilinib turadi.

Nutq jarayonida fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlearning qo'llanilish yoki qo'llanilmasligiga ko'ra gaplar ikkiga bo'linadi:

- 1) to'liq gaplar; 2) to'liqsiz gaplar.

 **Eslab qoling.** Fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirop etgan gaplar to'liq gaplar deyiladi.

Masalan: *Yurtimiz kundan kun go'zallashib bormoqda.*

*Fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlearning ba'zilari matn yoki nutq vaziyati taqozosi bilan ishlatilmagan gaplar to'liqsiz gap deyiladi.*

Masalan,

- Gulni kimga terding?
- O'qituvchimga.

### **171-mashq. Quyida berilgan yig‘iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantiring.**

Ko‘zjadi. Ishondi. Sog‘inmoqda. Ishtirok etdi. So‘zjadi. Amal qildi. Terjadi. Suyandi. Intildi. Otib yubordi.

**172-mashq. Berilgan yig‘iq gaplar ishtirokida yoyiq gapli bog‘lanishli matn hosil qilib yozing.** Matnni «Buyuk ibodatdур Vatanni sevmoq» deb atang.

Yayraydi, barpo etilmoqda, gapirdi, tilaydilar, aylandi, ochdi, to‘shalmoqda, hilpiraydi, yoshlandi, quvondi, dovrug‘i oshdi, havas qilmoqda, qamashtiradi.

**173-mashq. Matnni o‘qing. Inson uchun eng kerakli fazilatlarni bilib oling. Yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirib yozing.**

### **FAZILAT** *(Donolar bisotidan)*

Donishmandlar tubanda aytilgan axloqiy fazilatlarni inson uchun eng kerakli fazilatlar deb topganlar:

Sukut — o‘zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so‘zlarni so‘zlashdan chekin, jim bo‘l.

Intizom — ishlaring tartibli, intizomli bo‘lsin, ishingni o‘z vaqtida bajar, kechiktirma.

Maqsad — bir ishga kirishmoqchi bo‘lsang, eng avval yaxshilab o‘yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qarorga kel. Keyin bu ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash — iqtisod, ya’ni tejashga rioxqa qil, o‘zingga va xalqqa foydasi tegmaydigan yerlarga pul va mol sarf qilma, isrofdan saqlan.

Sa’y va shug‘ullanish — vaqt va fursatingni bekordan bekorga o‘tkazma. Doimo foydali ish bilan mashg‘ul bo‘l, kerak bo‘limgan narsadan chekin.

Matonat — ishingda chidamli, matonatli bo‘l. Hiyla-nayrang ishlashidan hazar qil, tushunchang pok, sof va haqqoniy bo‘lsin, tushunganing kabi so‘zla va ishla.

**174-mashq. Ko‘chiring. To‘liqsiz gaplarda qaysi bo‘lak tushirilganligini aniqlang. To‘liqsiz gaplarga xos uslubiy xususiyatlarni bayon qiling.**

1. O‘zimiz gaplashib qo‘ya qolsak-chi? Sening borishing shartmi? — Shart! Chiqaverlaring.
2. Siz ham bittasini topa qolmaysizmi? — Topaman.
3. Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘.
4. O‘sha kuni esingdami? Quyosh charaqlab turganmidi yo shamolmidi? — Qish edi...
5. Kimga bo‘ysunish kerakligini aytishmadimi? — Aytishdi.
6. Qaytganlaringdan keyin

sheriklaringni ko'rdilaringmi? — Ko'rdik. 7. Sizning bunday yo'qolganin-gizni Mahmud akangiz ham bilmasmidilar? — Hech kim bilmagan. 8. Senga-ular qanday topshiriq berishdi? — Hech qanday. 9. Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi? — Bilmayman. 10. Sen avval shartimga rozilicingni ayt? — Roziman. (*T. Malik*)

**175-mashq.** O'qing. To'liqsiz gaplarning dialoglar va boshqa turli nutqlardagi uslubiy vazifasini aniqlang.

### TADBIRKOR VAZIR

Sulton Mahmud G'aznaviy bolaligida Tavof viloyatining Bog'iston qishlog'iغا borib, bir buloq yoqasiga kelib tushdi. Muhammad Hasan uni kuzatib boruvchilar orasida ekan. Bir payt sultonning nazari shu atrofdan o'tib borayotgan yo'lovchiga tushdi. Sultan Muhammad Hasanga murojaat qildi:

- Hov anovi yo'lovchi kim bo'ldi?
- Savdogar bo'lsa kerak.
- Ismi nima ekan?
- Ahmad Sulton.
- Shoshma, xoja! Ne sababdan uni Ahmad deding? Savdogarligini qayerdan bilding? Yo u bilan tanishliging bormi?
- Yo'q, hazratim. Janobi oliylari meni chaqirib uning kimligini so'ranganlarida uning Ahmad Sulton ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu odam ko'p vaqtidan beri shu daraxt atrofini aylanib yurganidan esa uning savdogar ekanligini angladim.
- Unda ayt-chi, u yemak-ichmakdan ko'proq nimalarni xush ko'rар ekan?
- Asal bilan dushobani.
- Sulton yo'lovchini chaqirtirdi. Muhammad Hasan unga murojaat qildi:
- Mana bu bolani taniysanmi? — U sultonni qo'li bilan ko'rsatdi.
- Yo'q, tanimayman.
- Isming nima? Ne xizmat bilan mashg'ulsan? Yemak-ichmakdan nimalarni xush ko'rasan?
- Ismim Ahmad, savdogarman. Bugun non bilan asaldan boshqa ovqat yegan emasman.
- Buni eshitib, sulton hayron bo'ldi, so'ng xoja Muhammad Hasandan so'radi.
- Bu odamning bugun asal yeganini qayerdan bilding?
- Diqqat bilan qarasam tez-tez labini yalab turibdi.

(«Ajodollar o'giti» dan)

**176-mashq.** O'qing. To'liqsiz gaplarni aniqlab, turini ayting. Ularning grammatik xususiyatlarini va bo'laklarga ajratilmaydigan gaplardan farqini tushuntiring.

- Ota, bular bog‘ingizdagи qizil olmadanmi?  
— Hovva, qizim.  
Kuzda taram-taram qizargan piyoladay olmalar esiga tushib, Feruza quvonib so‘radi:  
— Bularning hosilini qayoqqa sig‘diramiz, ota?  
— Shaharga yuboramiz, qoqi solamiz.
2. Norqо‘zi Feruzaga qarab kului:  
— Paxta terishga qalaysiz?  
— Terganman.  
— Bellashaylik bo‘lmasa. Xo‘sish, shartningiz bormi?  
— Bor?
3. Feruza Xanifaning qo‘lidan zil patnisni oldi.  
— Otam qayoqdalar?  
— Bog‘da.
4. Shiyponga bormaylikmi, Normat aka?  
— Boramiz, — Normat aka paxtazordan asfalt yo‘lga ko‘tarilar ekan, Turg‘unalidan so‘radi: — G‘o‘zang hamma yerda shunaqa yetildimi?  
— Shunaqa.

(H. G‘ulom)

**177-mashq.** Filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarova haqidagi matnni o‘qing. Olimaning o‘zbek ilm-fani rivojiga qo‘sghan ulkan xizmatlari haqida fikr yuriting. Yana qanday mashhur olimlarni bilasiz? Shu haqda ham o‘ylab ko‘ring.

M. ASQAROVA  
(1924—2011)

O‘zbek tilining ravnaqi uchun munosib hissa qo‘sghan olimalardan biri filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarovadir.

Olima turli yillarda yaratgan «Ravishdosh», «Qo‘shma gap sintaksisi», «Hozirgi zamон o‘zbek tilida qo‘shma gaplar» (akad. G‘. Abdurahmonov bilan hamkorlikda) kabi darsliklar hozirgi kungacha oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun asosiy manba vazifasini o‘tab kelmoqda.

Prof. M. Asqarova hammuallifligida yozilgan IV, V, VI, VII, VIII sinflarning «Ona tili» darsliklari to hanuz o‘zining ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Bir so‘z bilan aytganimizda, prof. M. Asqarova Respublikamiz xalq ta’limi tiziminинг barcha bo‘g‘inlarida ona tili fani o‘qitilishini tubdan yaxshilash, yangi, zamonaviy kadrlarni tarbiyalab-yetishtirish ishlariga bosh-qosh bo‘lmoqda.

### So‘z-gaplar

✓ **1-topshiriq.** *Ofarin, balli, hormang, yashang* so‘zlarini dialogik nutqda gap holida qo‘llang.

**2-topshiriq.** Ha, yo‘q, afsus, albatta so‘zlarini dialogik nutqda gap holida qo‘llang.

Dialogik nutqda ha, yo‘q, shaksiz, shubhasiz, ofarin, yashang, to‘g‘ri, ehtimol, albatta kabi so‘zlarining o‘zi alohida gap bo‘lib keladi va oldingi gapning mazmuniga so‘zlovchining munosabatini bildiradi.

 **Eslab qoling.** Ha, yo‘q so‘zlari hamda modal so‘zlar bilan ifodalangan, oldingi gap mazmuniga so‘zlovchining munosabatini ifodalovchi gaplarga so‘z-gaplar deyiladi.

### Sodda gaplarda gap bo‘laklarining tartibi

 **1-topshiriq.** Quyidagi so‘zlardan gap tuzing. Gap bo‘laklarining qanday joylashganini aytинг. Gullarga, suv, quyaman, ertalab, har kuni.

**2-topshiriq.** Quyida berilgan gapdagi gap bo‘laklarini so‘zlashuv uslubidagi tartibga soling.

*Quloq soling menga, yaxshi qiz, biroz  
Dilimni ochmoqchi bo‘laman Sizga.*

(A. Oripov)

Biz fikrimizni bayon qilish chog‘imizda zarur so‘zlarni tanlash bilan birga, ularni muayyan tartibda joylaysiz, chunki so‘zlashuvchilarining ongida gap bo‘laklarining tartibi bo‘yicha ko‘nikma mayjud bo‘ladi. Unga ko‘ra, kesim gapning eng oxirida; to‘ldiruvchi to‘ldirilmishdan, hol esa hollanmishdan oldin, ega ko‘pincha gap boshida, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Bunday tartib so‘zlashuv va ilmiy uslublarga xosdir. Badiiy va qisman publisistik uslubda esa gap bo‘laklari tartibi o‘zgarishiga yo‘l qo‘yiladi.

 **Eslab qoling.** Gap bo‘laklari tartibining buzilishi inversiya deb ataladi.

Inversiya badiiylik, ifodalilik, ta’sirchanlilikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi.

**O‘ylang:** To‘liqsiz gaplarning, so‘z-gaplarning fikr ifodalashda qanday ahamiyati bor?

**Tayanch tushunchalar:** yig‘iq gap, yoyiq gap, so‘z-gap, inversiya, to‘liq gap, to‘liqsiz gap.

Quyidagi maqollarni yod oling. Ularning ma’nosini izohlash bilan birlgilikda maqollarda ishlataligan «ha» va «yo‘q» so‘zlariga ham ta’rif bering.

1. «Ha» degan tuyaga mador.
2. «Ha» dedim, tutildim,  
«Yo‘q» dedim, gutuldim.

## 31-DARS. QO'SHMA GAPLAR

**Darsning maqsadi:** talabalarga qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot berish, uning sodda gaplardan farqini tushuntirish. Nutqda qo'shma gaplardan foydalanish malakasini hosil qilish.

### R E J A:

1. Kesimlik shakllari haqida.
2. Sodda va qo'shma gaplar.
3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'ziga xos xususiyatlari va ular o'rtaсидаги мазмуний hamda grammatik munosabat.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi sodda gaplardan mazmunan muvofiq keladiganini bir-biriga bog'lang. Qanday gap hosil bo'lganini aytинг.

*Olim bo'lsang. Bahor keldi. Olam seniki. Gullar ochildi.*

**2-topshiriq.** Quyidagi sodda gaplarni mazmunan muvofiq keladigan bog'lovchilar orqali o'zaro bog'lab ko'chiring. Sodda gaplar o'rtaсида qanday mazmuniy munosabat borligini aytинг.

*O'g'ri o'g'rilib yozsa qo'yadi, ...oq poshsho zolimligini qo'yaydi. (M. Ismoiliy)*

Gapni gap qilib turgan asosiy belgi uning kesimlik (predikativlik) belgisi ekanligidan xabaringiz bor. Gapning kesimlik belgisi kesimlik ma'nolarini [zamon, shaxs-son, tasdiq, inkor, modal (mayl)lik] ifodalovchi kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nosini ifoda etgan har qanday sintaktik birlik gap sanaladi. Masalan, *Borma+sa(y)+di+m. Ko'm-ko'k dala*. Bu gaplarning birinchisida kesimlik ma'nolari alohida-alohida kesimlik shakllari: tasdiq-inkor ma'nosini -**ma** shakli orqali, modal (mayl) ma'no -**sa(y)** shakli orqali, zamon ma'nosini -**di** shakli orqali, shaxs ma'nosini esa -**m** shakli orqali ifodalanmoqda. Ikkinci gapda ham shu kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma'no), hozirgi zamon, III shaxs ma'nolari anglashiladi, lekin ular moddiy ko'rsatkichlarga ega emas. Nol ko'rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalanagan. Ana shu ma'nolar mavjudligi uchun ham u sintaktik birlik gap sanaladi.

Gap uchun muhim belgi sanalgan kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo'shma gaplarga bo'lishga asos bo'ladi.

Bitta kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap esa qo'shma gap sanaladi.

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatic va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi.

**Juda muhim.** *Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatic munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma'lum grammatik vositalar (bog'lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog'lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi tushuniladi.*

Har qanday sodda gap o'zaro bog'lanib, qo'shma gapni hosil qila bermaydi. Faqat o'zaro mazmuniy muvofiq bo'lgan gaplargina bir-biri bilan bog'lanib, qo'shma gapni tashkil etadi. Masalan: *Qor yog'di va gullar ochildi; Bahor keldi, paxta terimi boshlandi* deb bo'lmaydi, chunki bu gaplar bir-biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo'llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo'llangan sodda gaplar grammatic, mazmun va ohang tugalligiga ega bo'ladi, ammosa qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa bunday xususiyatga ega emas. Ularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o'zida namoyon etsa ham, grammatic, mazmun va ohang tugalligi qo'shma gapning oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida gaplar emas, balki bir umumiyl gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qilib turadi. Masalan: *Suv keldi — nur keldi.*



**Eslab qoling.** *Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatic, mazmun va ohang tomonidan bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlik qo'shma gap deyiladi.*

**178-mashq.** O'qing. Har bir qo'shma gap nechta sodda gap (qism) dan iboratligini va ularni o'zaro bog'lovchi vositalarni aytинг.

## GO'ZALLIK TALQINLARI

Insonning aziz-u mukarram qilib yaratilgani ayon haqiqat va uning murakkab, tushunarsiz mavjudot ekanligi ham sir emas. Shu sababli bani bashar o'z hayotida ko'p qoqinadi, aksar yaxshilig-u yomonliklar ichida surinadi. Mirzakalon Ismoiliy bu nozik masalalar tegrasida nazokat va tabiiylik bilan qalam tebratadi. Binobarin, inson Olloh tomonidan yaratilgan jamiki suvrat-u siyratlarning mukammali ekan, u shunga monand ravishda fe'l-atvorga, go'zallikka ega bo'lmog'i lozim, lekin go'zallik deganda nimani tushunamiz? Shahlo ko'zlar, tiniq chehra-yu la'li lablar mutano-sibligimi? Yoki chiroyli kiyim-bosh, qimmatbaho taqinchoq-u bezaklar-nimi? Menimcha, go'zallikning o'z qonunlari, qoliplari bor. Yuqorida sanalgan narsalar bilan «chiroyli odam» bo'lish mumkin, lekin «go'zal inson» bo'lish uchun esa uni odamiylik fazilatlari to'ldirishi kerak. «Go'zallik ham bamisol daraxt. Yaprog'i — axloq, ildizi — ichki dunyo, mevasi —


yaxshi fazilat. Xulosa qilib aytganda, odam bolasidagi go'zallik tabiat ato qilgan husn-jamoldan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iboratdir. Mana shunda go'zallik insonga husn beradi. Bu xil go'zallik yaproqlarsiz, ildizlarsiz qurishi muqarrar bo'lgan daraxtga sira-sira o'xshamaydi, qurimaydigan, o'lmaydigan, boqiy go'zallikdir, deydi M. Ismoiliy.

(«Sanam» jurnalidan)

**180-mashq. O'qing. Qo'shma gap qismlarini o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlab tahlil qiling.**

Ulug'bek hamma narsadan xabardor edi-yu, lekin Abdullatif uyuştira boshlagan fitnadan, uning xoinlik ko'chasiga kirib borayotganidan bexabar edi. 2. Ulug'bekning birdan bir maqsadi o'rtadagi nizoni tinch yo'l bilan bartaraf qilish edi, faqat shuni o'yldi, shuning ketidan tushdi. 3. Ulug'bek yig'ilganlarga bir-bir nazar tashladi, lekin hamma yer chizib o'tirardi. 4. Abdullatif yana bir necha bor Abulqosim Bobur huzuriga odam yuborib, uni Ulug'bekka qarshi urushga tortmoqchi bo'ldi, lekin Abulqosim Bobur uning yo'liga yurmadi. 5. Sulton Abu Said esa Ulug'bekning shaharga yaqinlashib qolganini eshitib, qamalni bo'shatdi va Turkiston tarafga qarab qochdi. 6. Abdullatif otasining ketidan quvmadi — uch kun Sherozda qolib ketdi. 7. Navkar yelkasini qisdi, chunki u ham bularni tanimasdi. Otliqlar bilan ro'baro' bo'lishganda ulardan biri «chu» deb otiga qamchi bosdi va yo'l ustiga chiqdi, so'ng otdan tushib ikki bukilib mirzo Abdulazizga salom berdi. (B. Ahmedov)

**179-mashq. Rasm asosida «Qadim Buxoroga laytlaklar keldi» mavzusida matn tuzing. Unda qo'shma gaplarga misollar keltiring. Bunday qo'shma gaplardagi uslubiy bo'yoqni ayting.**



**181-mashq.** Quyidagi hikoyatni o‘qib, undagi qo‘shma gaplarni aniqlang hamda qissadan hissa chiqarib, javobini aytинг.

### ORIYATLI NOVVOY

Qo‘qonda bir novvoy bo‘lgan ekan. U har kun kechasi turib, non yopib, nonlarni savatga solib, erta sahardan yo‘lda och qolgan musofirlar shu nondan yeb ketsin, deya savatni ko‘chaga chiqarib qo‘yar ekan. Yo‘lovchilar ham nonni olib, pulini savatga tashlab ketisharkan. Novvoy hisob-kitob qilganda yiliga bir yoki ikki bora olingan non uchun haq to‘lanmagani ma’lum bo‘lar ekan. Shunda u Xudoga iltijo qilib:

— Ey, Olloh! Mana shu nonni bir bechora, kambag‘al inson olib yegan bo‘lsa, men roziman. Agar puli bo‘la turib, haqini tashlab ketmagan bo‘lsa ...unga ham roziman, Xudoym. Unday vatandoshimga o‘zing insof, imon bergin, der ekan.

(A. Ibrohimov)

#### Qissadan hissa chiqarish uchun savol:

1. Nega novvoy «puli bo‘la turib, tashlab ketmagan» odamga Xudodan jazo so‘ramadi?

**182-mashq.** Bo‘s sh vaqtingizda quyidagilardan so‘z o‘yini tuzing. Ochiq qolgan joylarga harflar qo‘yib, so‘zlar hosil qiling va ularni qatnashтир, qo‘shma gapli matn tuzing.

Say		iya
Dong		boz
Shoh		sor
Ado		if
Shosh		moq
Fut		dir
G‘ay		ron
Mat		siya
Sur		son
Qal		dor
Qar		lati
Map		bos
Xir		ika
Fur		urn
Nam		vir
Hor		qat
Mad		dor
Shov		g‘ir
Sar		boz
Kam		pirak

## 32-DARS. QO'SHMA GAP QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR VA QO'SHMA GAP TURLARI

### Bog'langan qo'shma gap

Darsning maqsadi: talabalar ongidagi o'rta umumiy ta'limda olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, nutqda qo'shma gaplardan foydalanish malakasini kuchaytirish.

#### R E J A:

1. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar haqida umumiy ma'lumot.
2. Ohang yordamida bog'lanish.
3. Teng bog'lovchilar yordamida bog'lanish.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanish

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan bo'sh kataklarga muvofiq keladigan gaplarni qo'yib ko'chiring. Bu gaplarning qanday bog'lovchilar bilan bog'langanini va buning sababini ayting.

1) 

1	va	2
---	----	---

3) 

1	—	2
---	---	---

2) 

1	—	2
---	---	---

yo,  
yo-yo  
ba'zan-ba'zan  
goh-goh  
dam-dam

ammo,  
lekin,  
biroq.

4) 

1	—	2
---	---	---

5) 

1	,	2
---	---	---

shuning  
uchun,  
shu sabab,  
shu bois

**2-topshiriq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga va, go 'yo, shuning uchun bog'lovchilarini qo'ying. Bog'lovchilarning o'zgarishi qanday qo'shma gaplarni hosil qilayotganini ayting.

*Bahor keldi... yasandi dunyo.*

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro quyidagi grammatik vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Bog'lovchilar: a) **teng bog'lovchilar** (*va, hamda; ammo, lekin, biroq; yo, yo... yo, dam... dam... va boshq.*); b) **ergashtiruvchi bog'lovchilar** (*shuning uchun, chunki,-ki* va boshq.)

2. **Bog'lovchi vazifasidagi** bo 'lsa, esa so'zlari va -u (-yu), -da yuklamalari.
3. **Ohang:** Qor yog 'di — rizq yog 'di.

! **Juda muhim.** *Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro qanday bog'lovchi vositalar yordamida grammatik bog'lanishga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi:*

1. *Bog'langan qo'shma gaplar qismlari teng bog'lovchilar: bo'lsa, esa so'zlari, -y(u), -da yuklamalari yordamida bog'lanadi.*
2. *Ergash gapli qo'shma gaplar qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.*
3. *Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qismlari ohang yordamida bog'lanadi.*

*Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari -u(-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.*

**O'ylang:** Grammatik va mazmuniy munosabat deganda nimani tushunasiz?

**Tayanch tushunchalar:** sintaktik butunlik, kesimlik belgisi, kesimlik shakllari, qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap, grammatik vosita.

Berilgan maqolning ma'nosini izohlang, sodda yoki qo'shma gap ekanligini tushuntiring.

*Har kimni bilay desang, so'zini o'rghan,  
Zotini bilay desang, qilig'ini o'rghan.*

**183-mashq.** O'qing, qismlari biriktiruvchi bog'lovchilar bilan bog'-langan qo'shma gaplarni topib, ularni bir paytda yoki ketma-ket yuz bergen voqeа, hodisa, harakatni ifodalovchi qo'shma gaplarga ajrating. Matnni ko'chirib, ulardagi bog'lovchi vositalarning tagiga chizing.

1. U har uch qadamda bir to'xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu, muvozanatini saqlay olmay o'tirib qoldi.
2. Mashrab vafosizlik to'g'risidagi kitoblarni o'qisa, yo erkaklar og'zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadiyu, butun vujudi isyon ko'taradi, bunday gaplarning birontasiga ishonmaydi.
3. Gulchehra «piq» etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi.
4. Shu bilan maslahat tugadi-yu, byuro boshlanish bilan birinchi bo'lib Ertayev so'zga chiqdi.
5. Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondag'i bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.
6. To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertayev paydo bo'ldi.
7. Inobat qizishib ketib, pisandaga o'tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi.

(O. Yoqubov)

**184-mashq.** Quyida berilgan fe'llardan bog'langan qo'shma gaplar hosil qilib yozing.

1. Oqardi, to'kildi. 2. Bukildi, salom berdi. 3. Nigoron bo'ldi, nasib qilmadi. 4. Hayron bo'ldi, nafasi tiqildi. 5. Yiqildi, shikastlandi. 6. Azoblandi, qiyndaldi. 7. Kezdi, uyg'ondi. 8. Aynidi, yog'a boshladi. 9. Qo'msadi, yig'ladi. 10. Yuraverdi, g'oyib bo'ldi. 11. O'yldi, bag'ishladi. 12. Sevindi, yoshlandi.

**185-mashq.** Bog'langan qo'shma gaplardagi bog'lovchi vositalarni aniqlang, ularning qanday sintaktik va uslubiy vazifa bajarganligini izohlang.

1. Sarbon shundog' dedi-da, quchog'ini ochib Abu Bakr Kalaviy tomon kela boshladi.

2. To'lagan ro'molchasini cho'ntagidan oldi va boshqatdan qatladi-da, yana cho'ntagiga solib qo'ydi.

3. Bosqinchi amirlarning nazarları ochligiga yarasha ko'ngillari ham tor bo'lganligidan, sovg'a-sovrin yo'sinda ularga bergan har xil tansiq mollar ko'zlariga ko'p ko'rindi va Movarounnahrni talash niyatidan qaytdilar.

4. Uzun bir yog'och topdi-da, asta olmani o'ziga tomon «hayday» boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog'och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho'ng'ib yana «qochib» qolardi.

5. Yo'q, faqat meni bilishmaydi, lekin boshqalari, jumladan, seni ham, yaxshi bilishadi.

6. Hujrasiga qaytdi-yu, o'ylay boshladi. (*M. Ali*)

7. Asalxon e'tibor bilan tingladi-yu, javob berish o'rniga burnini jiyirib yo'lida keta berdi.

8. Ko'p qizlarni ko'z ostiga olib yuradi-yu, biroq «kamchilik» topib, ayniydi. (*H. G'ulom*)

**186-mashq.** Quyida berilgan matnni davom ettirib yozing. Qo'shma gaplarni aniqlang, bosh bo'laklarning tagiga chizing.

O'z ishiga usta shunday insonlar borki, ularning mahorati, san'atini ko'rib, beixtiyor kishining havasi keladi, xuddi ularday bo'lishni orzu qiladi. Toki insonning faoliyati, mehnati boshqalarga namuna, o'rnak uchun munosib ekan, bu odam el-u yurt e'zozidan, shogirdlari ixlosidan aslo benasib qolmas...

**187-mashq.** Ko'chiring. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni qanday bog'langanligini izohlang.

1. Baxillik hamma joyda yomonlangandir va dunyo ne'matlari cheksiz emasdir. Rizq izlab juda uzoq ketmoq zaharlidir hamda rizq berguvchi doim tirik va qoimdir.

2. Ey odam farzandlari, men sizlarning amallaringizni hisoblab borib, qiyomat kunida ajrini tamom berurman, bas, har kim yaxshi amal qilgan bo'lsa, Xudoga hamd aytsin, lekin agar yomon amal qilib borgan bo'lsa, unda o'zini malomat qilaversin.

3. Olam bir daryo hamda uning qirg'og'i oxiratdir. Ul daryoning kemasi taqvodir.

4. Adovat kishiga uch narsadan yetar: avval kishidan mol-dunyo tama qilmoq bo'lsa, ikkinchi xaloyiqdan izzat va ikrom tama qilmoq, shuningdek, xalq o'rtasida ma'qul bo'lmoqni tama qilmoqdir. («*Hadisi qudsiy»*dan)

**188-mashq.** Yoshlikka berilgan quyidagi tavsifni daftaringizga ko'chiring hamda uni yod oling. Siz ham rizolik, adolat, saxiylik kabi fazilatlarga tavsif bering.

Yoshlik, bu — jasorat. Bu — ishonch. Bu — jasoratga intilish. Bu — lirika va romantika.

Bu — kelajakka tuzilgan ulkan rejalaridir.

Bu — istiqbolning boshlanishi.

(N. Hikmat)

### **33-DARS. QISMLARI OHANG YORDAMIDA BOG'Langan QO'SHMA GAPLAR**

**Darsning maqsadi:** *qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yuzasidan talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish. Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplardan amalda to'g'ri foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish.*

#### **R E J A:**

1. Qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar haqida.

2. Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar qismlari o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar va qo'shma gap turlari o'rtasidagi sintaktik sinonimiya.

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi gaplarning nimasi bilan bir-biridan farqlanishi va ular o'rtasida qanday umumiy jihatlar borligini aytинг. Qo'shma gapning qaysi turlariga kirishini bayon qiling.

*Bahor keldi, gullar ochildi.*

*Bahor keldi, shuning uchun gullar ochildi.*

*Bahor keldi va gullar ochildi.*

**2-topshiriq.** Quyidagi sodda gaplardan bog'langan, ergashgan va ohang yordamida bog'langan (bog'lovchisiz) qo'shma gaplar hosil qiling. Ularning qaysi belgisi bilan bir-biridan farq qilayotganini aytинг. *Yurt tinch. Sen tinch.*

Yuqoridagi darslarda qo'shma gaplarning doimo ikki va undan ortiq sodda gaplardan tashkil topishi, qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar uning qismlari ekanligi, ana shu tarkibiy qismlar bir-biri bilan ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishi va qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplarning quyidagi uch turga bo'linishi haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz: 1) qismlari teng bog'lovchilar yoki *bo'lsa, esa so'zлari* yordamida bog'langan qo'shma gaplar; 2) qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida yoki bir qismning kesimi nomustaqil shaklda turgan qo'shma gaplar; 3) qismlari maxsus bog'lovchi vositalarsiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Bularning birinchi turi bog'langan, ikkinchi turi ergash gapli, uchinchi turi esa bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanishini bildingiz.

 **Esda saqlang.** *Qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida ham bog'lanmasa, u holda ular bir-biri bilan ohang yordamida bog'lanadi. Ana shunday qo'shma gaplar ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi.*

Ohang yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtaida turli xil ma'nno munosabatlari bo'ladi. Masalan,

Zidlik: Ko'priksi biz qurdik, dushmanlar o'tdi.

Sabab: Qo'ng'iroy chalindi, dars boshlandi.

Payt: Dalasida o'smas tikanlar, cho'llarida chopmas ilonlar va boshqalar.

Bunday ma'nolar bog'langan va ergash gapli qo'shma gap qismlari o'rtaida ham mavjudligidan xabaringiz bor. Ana shu ma'no umumiyligi asosida buning qo'shma gaplar o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan,

*Ko'priksi biz qurdik, dushmanlar o'tdi.*

*Ko'priksi biz qurdik, lekin (ammo) dushmanlar o'tdi.*

 **Esda saqlang.** Yuqoridagi ikkita qo'shma gap qismlari o'rtaida bir xil ma'no munosabati — zidlik (birinchi gap ma'nosi bilan ikkinchi gap ma'nosi o'rtaida zidlik bor) munosabati ifodalangan uchun bu ikki gap bir-biri bilan sinonim sanaladi.

Ular o'rtaida farq faqat qo'shma gap qismlari o'rtaida qanday bog'lovchi vositaning ishlatalishidadir. Shuningdek, *Anor so'ylar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.Olimjon)* Qo'shma gap qismlari o'rtaida payt munosabati ifodalangan. Qo'shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap bir paytda ro'y berayotgan ikkita voqe-hodisa (birinchisi — Anorning so'zlashi, ikkinchisi — Zaynab qalbining qaltirashi)ni ifodalaydi. Ikkala qism va bog'lovchisi qatnashmagan holda ohang yordamida ham

bog'lanishi mumkin: *Anor so'yolar, Zaynab galbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* Bu vaqtda bog'langan qo'shma gap emas, balki bog'lovchisiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.

! **Juda muhim.** *Qo'shma gap qismlari o'rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo'lsa, unday qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gap shaklida ham, bog'langan qo'shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap shaklida ham ifodalanishi mumkin.*

Masalan, *Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi va terim avjiga chiqdi.*

Yuqoridagi uchta qo'shma gap sabab-natija umumiy ma'nosi bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, lekin qo'shma gapning qaysi turiga mansubligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Ko'rinaradiki, bir xil ma'noni turli qo'shma gap shakllari orqali ifodalash mumkin. Shuning uchun ulardan nutqda o'rinni foydalana olish nutq madaniyatiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega.

## ? Savol va topshiriqlar

1. Qo'shma gap deganda nimani tushunasiz?
2. Qo'shma gap qismlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qo'shma gap qismlari qanday bog'lovchilar yordamida bog'lanadi?
4. Qanday qo'shma gaplar ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar sanaladi?
5. Qo'shma gap turlari, o'rtasidagi sinonimik munosabatga uchta misol keltiring. Ular o'rtasida nima uchun sinonimik munosabat borligini tushuntiring.

**O'ylang:** Teng bog'lanish bilan ergash bog'lanishning farqli tomonlarini aytинг.

**Tayanch tushunchalar:** qo'shma gap, qo'shma gap qismlari orasidagi payt munosabati, zidlik munosabati, sabab-natija munosabati, sintaktik sinonim.

Quyida berilgan maqol qo'shma gap bo'la oladimi? Izohlab bering. Maqolning ma'nosini ham tushuntirib bering.

*Qanoat qil, bo'lsa uyingda yorma,  
Aytilmagan yerga suqulib borma.*

**189-mashq.** O'zingizni sinab ko'ring. Shu so'zlar ishtirokida qo'shma gaplar tuzing.

## «M» dan «M» gacha

1. Yelim.
  2. Arab harfi.
  3. Ish sur'atini belgilovchi mezon.
  4. Doim.
  5. Aza.
  6. Musiqiy atama.
  7. Zarur.
  8. Yilning ma'lum fasli.
  9. Oshkor, ayon, aniq.
  10. Dardga davo dori.
  11. Vafot etgan.
  12. Noaniq.
  13. Jazoga hukm qilingan.
  14. Bebahra, benasib.
  15. O'qituvchi, ustoz.
  16. Azim, ulkan, ulug'vor.
  17. Shakllangan, joylashgan.
  18. Mashina, asbob, apparat va shunga o'xshash narsalarning ichki tuzilishi.
  19. Hurmat va ehtiromga sazovor.
  20. Eng ko'p miqdor.
  21. Qamariy yil hisobida birinchi oyning nomi.
  22. Og'irlik o'chovi.
  23. Mahkam.

*190-mashq.* Quyidagi qo'shma gaplar tarkibidagi bog'lovchi vositalarni almashtiring. Hosil bo'lgan sinonimik gaplarning uslubiy bo'yog'ini aniqlang.

1. Zaynab ko'chani chala-yarim supurib ichkari kirdi-da, eshikni qulfladi.
  2. U qo'lida olib chiqqanini qator turgan axlat to'la chelaklar yoniga qo'ydi-da, tez iziga qaytdi. 3. U ketgach, biroz yengillashganday bo'ldi, ammo bir necha soatdan so'ng yolg'izlik zulmati uni battar eza boshladi.
  4. Uning vajohatini ko'rib, Zaynab cho'chidi, salom berishni ham unutdi.
  5. Zaynab bu xonadonga kam kelgan, ammo har kelganida uyning hasham-

lariga, bezaklariga mahliyo bo'lib boqdi. 6. Kesakpolvon xotinini chaqirib, Zaynabning bir-ikki kun shu yerda turajagini tayinladi va dasturxon atrofidagi suhbat asosan kiyimlar olamidagi yangiliklarga ko'chdi. 7. Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi: nur yo'qolibdi.

(T. Malik)

**191-mashq.** Gazeta va jurnal sahifalaridan bog'langan qo'shma gaplarga misollar topib yozing. Ularning ma'no va uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

**192-mashq.** Matnni o'qing. Qo'shma gaplardagi bog'lovchi vositalarni aniqlang, ularning qanday sintaktik va uslubiy vazifa bajarganini izohlang.

Rivoyatlarga ko'ra, shoh Bahrom Diloromning bir o'zini jazirama sahroda qoldirib ketadi. Qiz ko'p iztiroblar chekadi va boshpana izlay boshlaydi. Nihoyat, bir xarob qishloq ko'rindi. Diloromni bir darvesh — Dehqon o'ziga qiz qilib oladi-da, uni o'qitib, parvarish qila boshlaydi. Falsafa, tabiiy fanlar, psixologiya va san'atni puxta egallagan va dunyonni ko'p ko'rgan bu Dehqon o'zidagi bor bilimlarni Diloromga o'rgatadi. U, ayniqsa, ashula aytish va musiqa chalish bobida misli yo'q san'atkor bo'lib shuhrat topadi. Bu haqdagi xabar Bahromning qulog'iga yetib boradi va shoh Diloromni sotib olish uchun uning oldiga keladi, qiz yuzini chachvon bilan yashirib, Bahromga o'zining ajoyib san'atini namoyish qiladi, lekin bundan hayratlangan Bahrom o'z tuyg'ularini yashirib, Diloromning bu san'ati haqida shunday deydi: «Dunyoda har bir inson kishini o'ziga rom qiluvchi biror iste'dodga ega bo'ladi. Shuning uchun bunday iste'dodlar har bir yurtda bor, ammo hech bir mamlakatda hammasidan ustun turadigan mohir kishi yo'q», deydi.

**193-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli bog'lovchilar va tinish belgilariini qo'yib, qo'shma gaplarni ko'chiring, turini ayting.

1. Dadam shaxt bilan o'rnidan turdi ... cho'loqlanib tokcha yoniga bordi. 2. ... xuddi shunaqa zax bosgan yerda, loyga belanib yotib, miltiq otayotgandir? ... u tomonlarda allaqachon qor tushgandir. 3. Robiya ... menga qaradi, ... Bashoratga qarab talmovsiradi. 5. Bir kuni oradan gap qochsa ...dushmanga aylanib qolsa, har nima kutish mumkin undan. 6. Qaysi birligini bilmayman-u, ... bitta o'g'lingiz tirik, erta-indin ...o'zi keladi, ...xabari deydi. U bir zum jilib qoldi ... qo'shib qo'ydi. 7. Bir zum jim o'tirdi ... shoshilmay o'rnidan turib, ot oldiga bordi. 8. Bu jonivor qachon sigir bo'ladi ...qachon sutga kiradi. 9. ... uyda tinim bor, ... dalada tinim bo'ladi. 10. ... ikkovlashib ishkomda uzum uzamiz ... allaqanday notanish ko'chalarda yurgan bo'lamiz.

(O'. Hoshimov)

**194-mashq.** Matnni o‘qing. Uning tarkibidagi bog‘langan qo‘shma gaplarni toping. Shoh Bahrom va Fitnaga bo‘lgan munosabatingizni bayon qiling.

Bahrom Go‘r o‘zining go‘zal va xushovoz kanizagi Fitna bilan kiyik oviga chiqadi. Ov vaqtida Bahrom kiyikni shunday ustalik bilan otadiki, bundan Bahromning o‘zi ham bag‘oyat hayratga keladi, ammo uning busan’atiga Fitnaning tahsinlar o‘qib hayratlanmaganligi Bahromni darg‘azab etadi. Natijada u o‘z sarkardasiga Fitnani o‘ldirishni topshiradi. Qizning ko‘p yolborib iltijo qilishi natijasida sarkarda uni o‘zining shahardan tashqaridagi oromgohiga eltilib qo‘yadi. Fitna har kuni u yerda kichik bir buzoqchani zinadan ko‘tarib boloxonaga boqqani olib chiqadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tadi va haligi kichik buzoqcha bahaybat novvosga aylanadi, lekin Fitna odatdagidek uni hech bir qiyinchiliksiz boloxona zinalaridan ko‘tarib chiqishda davom etaveradi.

Kunlardan bir kuni sarkarda ovdan qaytayotib, Bahromni o‘z oromgohiga taklif etadi. Yuqorida aytilgan taajjub voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shoh hayratga keladi-da, Fitnani tanib uzr so‘raydi hamda unga uylanadi.

(Nizomiy)

**195-mashq.** Gaplarni o‘qib, ularning bir-biriga qanday vosita yordamida bog‘lanayotganiga diqqat qiling.

1. Ilohiy hadis so‘zları Oytug‘dini bir qadar sovitdi, endi uzun uf tortish navbatı unga keldi. 2. Tashqarida eshik qarsilladi, ot kishnadi. 3. Oytug‘di halloslab kelib, o‘g‘lini bag‘riga bosdi, yuz-ko‘zini siladi, peshanasidan o‘pdi. 4. Meni ham olib ket, gado bo‘lsang gado bo‘laman, ado bo‘lsang sening yo‘lingda ado bo‘laman. 5. Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi, yangi oyning o‘rog‘i daryoda qalqib-qilqib suzadi. 6. Osiy farzandingizdan rizo bo‘ling, faqiringiz shohona saroydan ko‘ra g‘aribona xonaqohni afzal ko‘radirman. 7. Mahmudxon bir lahma o‘yga toldi, so‘ng o‘g‘liga yon bosgan bo‘lib, muloyim tovushda gapirdi.

(S. Siyoyev)

**196-mashq.** «Otalar deylik...» mavzusida matn tuzing, unda quyidagi fikrlarga e’tibor bering.

Fan Vatanning eng kichik qiyofasi bo‘lmog‘i zarur. Zotan, barcha xalqlar ichida fikr va aqliy faoliyat sohasida boshqalardan o‘zib ketgan xalqgina birinchi o‘rinni oladi.

Hurmatli talabalar!

Boshqalardan o‘zib ketish Sizga yoqadimi? Siz buning uchun o‘z hayotingiz davomida nimalar qilmoqdasiz, qanday ishlar olib bormoqdasiz? Savollarga javob berishda bog‘langan qo‘shma gaplardan ham foydalaning.

**197-mashq.** Gaplarni o‘qing. Yuklamali qo‘shma gaplarni qanday bog‘langanligini aytинг.

1. Zaynab oshxonaga kirib qutini ochdi-da, suvi qochgan yarimta bulkani olib «nazarga ilarmikin» degan o‘yda ikkilandi. 2. U qaytdi-yu, hovlining o‘rtasida to‘xtadi. 3. Manzuraning dilida shu tuyg‘u bor-u, lekin bunday so‘zlarni maromiga yetkazib ulab, ayta olmaydi. 4. Xoninchaning boshqa gapirmay jim ketishi bir jihatdan yaxshi bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan Manzurani, noxush xayollar hukmiga topshirib qo‘ydi. 5. Manzura bu kabi siyosatdan behad uzoq bo‘lsa-da, radiodan aytiluvchi shunga o‘xhash gaplar qulog‘iga kirib turardi-yu, ammo mulohaza qilib, fahm etishga urinmas edi. 6. Qizlar uyalishib, o‘girildilar-da, zina tomon yurdilar. 7. Zohid Said Qodirovga rahmat aytdi-da, ketishga ijozat so‘radi. 8. Asadbekka bir narsa bo‘lgan-u, Chuvrindi esa otni qamchilab qolgan edi. 9. Xumkalla yangi Xojasini ko‘rdi-yu, pildirab yurib kelib uning qarshisida paydo bo‘ldi.

(«Shaytanat»dan)

**198-mashq.** Quyida berilgan 3 ta gapni o‘qing. Ularning uslubiy farqini aytинг.

Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal,  
Oydan ham go‘zal, kundan ham go‘zal.  
Oydanam go‘zal, kundanam go‘zal.

**199-mashq.** Berilgan matnni o‘qing. Sodda gaplarni bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantirib ko‘chiring.

#### ENG OG‘IR ZARBA

Xon bir begunoh odamni o‘g‘irlikda ayblab, uni toshbo‘ron qildirishga farmoyish beribdi. Ko‘cha-ko‘yda ko‘ringanki odamni qatl maydoniga haydar kelibdilar. Har kim mahkum yonidan kamida bittadan tosh otib o‘tishi shart deb e’lon qilinibdi.

Olomon ichida mahkumning ukasi ham bor ekan. Xonning qahridan qo‘rqib, to‘nining paxtasidan bir hovuch olibdi-da, akasi sari otibdi. Minglab odam tosh otganda «voy» demagan aka o‘z ukasi paxta otganda, «dod» deb yuboribdi.

(Gazetadan)

**200-mashq.** Va, ham, hamda; ammo, lekin, biroq; dam..., dam, goh..., goh; yoki..., yoki; bo‘lsa, yo‘qsa, esa bog‘lovchilari bilan bog‘langan qo‘shma gaplar tuzing hamda o‘zingiz sevgan badiiy asarlardan shunday misollar topib yozing.

**201-mashq.** Quyidagi gaplardan bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling. Yo‘qsa, esa, bo‘lsa kabi vositalar bog‘lovchi vazifasini bajarsin.

1. U otasini sovuq qarshi olgani esiga tushardi. Ich-ichidan ezilib ketardi.
2. Ular eshaklarini shahar chetidagi soyda qoldirishdi. U yog‘iga piyoda ketishdi.
3. Ertayevning qisilgan ko‘zлari qorong‘ida «yalt» etgan pichoqday yiltillab ketdi. Komil qadalib turganini ko‘rdi. Yuzini chetga burdi.
4. Tergovchi qayoqqadir ketgan. U parvo qilmasdı.
5. Uchovlashib uni zo‘rg‘a tinchitishdi. Yigitlar navbatma-navbat darchadan mo‘ralab, Komilning yo‘lini poylashdi.
6. Kun botdi. Komildan darak bo‘lmadi.
7. Hozirgina Chavandozning oldiga kirdi. Aniq bir javob ololmas edi.

(O. Yoqubov)

### **34-DARS. ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILI QO‘SHMA GAPLAR VA ULARNING TASNIFI**

**Darsning maqsadi:** ergash gapli qo‘shma gaplar yuzasidan o‘quv-chilarining umumiy o‘rta ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash.

#### **R E J A:**

1. Ergash gapli qo‘shma gap haqida.
2. Ergash gapli qo‘shma gapning qismlari haqida.
3. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan sxemadan qaysi biri ergash gap, qaysisi bosh gap sxemasi ekanligini tushuntiring.



**2-topshiriq.** Quyida berilgan gap qolipida nuqtalar o‘rniga muvofiq keladigan gaplarni qo‘ying. Qanday ergash gapli qo‘shma gap ekanligini aytинг.

Kim . . . . . -sa, u . . . . . -da

**3-topshiriq.** Quyida berilgan gap qoliplarini bir-biriga solish-tirib, qanday gap qoliplari ekanligini, ularning bir-biridan farqini aytинг.

1) [1] va [2]    2) (1) shuning uchun [2]    3) [1], [2]

**4-topshiriq.** Quyida berilgan gaplarning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini aytинг.

*Qo‘ng‘iroq chalindi va  
dars boshlandi.*

*Qo‘ng‘iroq chalindi, shuning  
uchun dars boshlandi.*

 **Esda saqlang.** Qismlari o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchi yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida tobe bog'langan qo'shma gaplarga ergash gapli qo'shma gaplar deyiladi.

Ergash gapli qo'shma gaplar bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Mazmuni izohlanayotgan qism *bosh gap*, bosh gap mazmunini izohlaydigan va ko'pincha tobe shaklda turgan qism esa *ergash gap* sanaladi. Ergash gap bosh gap talab etgan ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, *Men xursandman*, (nima sababli), *chunki sen maqsadingga yetding*.

**O'ylang:** Teng bog'lanish bilan tobe bog'lanishning farqli tomonlarini aytинг.

**Tayanch tushunchalar:** ergash gap, bosh gap, bog'lovchi vosita.

Quyida berilgan gap qo'shma gap bo'la oladimi? Izohlab bering, maqolning ma'nosini ham aytинг.


*G'ururli bo'l, ammo g'ururni mag'rurlik bilan chalkashtirma.*

**202-mashq.** Gaplarni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplar qanday qismlardan tashkil topganini izohlang.

1. Alam qiladigan joyi shundaki, mening «qavmlarim» – tarjimonlar ham tilni bulg'ashda tobora xuruj qilmoqdalar. 2. Mushukni tomdan tashlasangiz ham, yerga muallaq bo'lib, chirpirab qulamaydi, balki to'rt oyog'i bilan tushadi. 3. Oqilona narx-navo tayin qilinsa, birgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta bilan pillaning o'ziyoq jumhuriyatni bema'lol boqa oladi. 4. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida «qatron qonuni» juda qattiq qo'yilgan. 5. Shuni unutmangki, quyosh hammaga baravar nur sochadi. 6. Illat quritsa, o'sha illatning o'zi boshqa joydan tag'in nish urib chiqaveradi. 7. U yog'ini so'rasangiz, burch dorlik joyim ham bor.

**203-mashq.** Matnni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplarni topping. Har birini yozib bo'lganingizdan so'ng uning chizmasini chizing. Ergash va bosh gaplarni aniqlang.

N a m u n a : *Siz shuni unutmangki, yomon illatlar hamisha kulfat keltiradi.*



### QIMORBOZLIK ILLATI

Bu o'yinga mubtalo bo'lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasani, oz fursatda bor-yo'gingni, hurmat va obro'yingni qo'ldan boy berasan. Har

ishning chegara va andozasi bor bo‘lsa ham, qimor chegara va andozadan tashqaridir. Har ayb dengizining qirg‘og‘i, sohili bo‘lsa ham, ammo qirg‘oqsiz, sohilsiz ayb dengizidir. Har kimning turmush kemasi bu ayb dengizining to‘foni po‘rtanasiga duchor bo‘lsa, shubhasiz, g‘arq bo‘lib, yo‘qlik dunyosiga ketadi. Kinki qimmatli umrni buzuq ishlarga sarf qilsa, behuda ishlar bilan hayosizlik kamarini bog‘lasa, bu aqlga muvofiq emas. Odam o‘jar nafs otini qamchilamasin deb, donishmandlar juda ko‘p nasihatlar bitibdur.

*Kimki qimor yo‘liga qo‘ysa qadam,  
Oqibat sharmanda-yu rasvo bo‘lur.*

(Sh. Zunnun)

**204-mashq.** Ko‘chiring. Ergash gapli qo‘shma gaplarni topib, ergash gaplarning ostiga to‘lqinli chiziq chizing.

### IQTISOD ODOBI

1. Mol-u dunyosi ko‘p bo‘lgan kishi boy emas, balki isrofdan saqlanib iqtisod tejamini bilgan kishi boydir, shuning uchun foydasiz yerlarga va yaramas ishlarga bir tiyin ham sarf qilmang. 2. Bir narsani bir yo‘la ko‘proq olib qo‘ymang. Agar zarur bo‘lganligi sababli nasyaga olgan bo‘lsangiz, pulini tezroq topshiring. Qarzdor bo‘lmang, odamni bevaqt qaritadigan narsalarning birisi ham qarzdir. 3. Kirim-chiqimlaringizni bir daftarga yozib, bu daftarni hamma vaqt ko‘zdan kechirib turing, chunki bunday daftar iqtisod va tadbir o‘lchovidir. Cho‘ntakdan chiqqan pullarni hisoblab turgan kishi keraksiz yerlarga pul sarf etishdan o‘zini saqlaydi. 4. Chiqimingiz kirimingizdan ortiq bo‘lmasin, chunki chiqimingiz ortiqcha bo‘lsa, qayg‘u keltiradi.

**205-mashq.** Tinish belgilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bir ko‘rmasam ko‘nglim allanechuk bo‘lib ketadi. (*S. Ahmad*)  
2. Shunday berilib ishladiki go‘yo Bo‘tako‘zda uning o‘zidan boshqa kimsa uning cho‘tidan boshqa hayot yo‘qday. (*I. Rahim*) 3. U shunday og‘ir xayollar bilan charchoq qadam tashlab vokzaldan eski shaharga jo‘narkan, kimir uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. (*S. Ahmad*) 4. Hayotda baraka rohat mo‘l chunki ishchi bilan dehqon qondosh-qarindosh (*S. Zunnunova*)  
5. G‘o‘za chopig‘iga ketgan kishilar qayti kelgandan keyin hamma yerda ish juda qizib ketdi. (*A. Qahhor*) 6. Agar shisha siniq bo‘lsa ham u birovniki bo‘lsa xiyonat qilma (*A. Qahhor*) 7. Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan qalamni yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi.  
8. Oxiri u shunchalikka bordiki nechun kurashayotganini nechun o‘z hayotini tahlika ostiga solayotganini nechun qon to‘kilayotganini ham bilmay goldi. (*S. Ahmad*)

**205-mashq.** Quyida berilgan jadvaldagи bo‘g‘inlardan 2 tadan so‘z yasang. Ulardan 20 tasini qatnashtirib, ergash gapli qo‘shma gaplar hosil qiling.

### So'z o'yini

Nav		nay
Tas		qat
Jom		lik
Mar		don
Sar		boz
Tan		ham
Fut		tiq
Nash		vuz
Tan		qich
Tan		chak
Kal		tot
Sal		ron
Mak		rik
Lash		von
Tar		biy
Kav		had
Bux		miy
Sav		ifa

**207-mashq.** Uyga topshiriq. Quyidagi she'rni nasriy bayon qiling. Matnda ishlatilgan qo'shma gaplarni toping.

ONA TILIM

Garchi zug'um qilgamlarni yoqtirmadim,  
She'r yozdim-u, bo'lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag'ri dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Paravozni hansiratgan bug'doylarim,  
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir  
badaviylar,  
O'zbekni qon qaqqhatganni o'zbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir  
katta.  
Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otta,  
Zulm o'tsa, faqat sendan o'tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq  
she'rlar,  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahongni-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam, har shevangda ming  
jilolar,  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar,  
Qodiriylar, Cho'lponlar-u Abdullolar...  
Sening qaytgan kuning tug'ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas, Ona tilim!..

(M. Yusuf)

**208-mashq.** Berilgan tayanch so'zlar asosida «Suhbat odobi» nomli matn tuzing. Ergashgan qo'shma gaplar hosil qiling.

So'zlovchi, tinglovchi, o'zga, muomala, shirinsuxanlik, dialog, monolog.

**35-DARS. ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILI  
QO'SHMA GAPLAR BILAN SODDA GAPLAR  
SINONIMIYASI**

**Darsning maqsadi:** talabalarda ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar bilan sodda gaplardan nutqda o'rinni foydalanish malakasini hosil qilish.

**R E J A:**

1. Ergash gapli qo'shma gaplar o'mnida sodda gaplarni qo'llash uslubiyati.
2. Sodda gaplar o'mnida ergash gaplarni qo'llash uslubiyati.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan qo'shma gaplarni uning o'ng tomoniga sodda gapga aylantirib yozing. Buning uchun qo'shma gap tarkibida qanday o'zgarishlar qilganingizni aytинг.

1. Shuni unutmaginki,  
sen kelajagi buyuk davlat  
farzandisan.
2. Nomarddan yordam so'rama,  
chunki u bir kuni yuzingga soladi.
3. Kim mehnat qilsa,  
u rohat ko'radi.

Yuqorida keltirilgan qo'shma gaplar bilan ularning o'ng tomonidagi sodda gaplar bir xil ma'noni ifodalaydi, shuning uchun ular bir-biri bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Qo'shma gapda ma'no ta'kidlandi.

### **209-mashq. Quyidagi sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantiring.**

N a m u n a : *Yaxshi oshini yeydi. Kimki yaxshi bo'lsa, u doimo oshini yeydi.*

1. Qalbingizga qulqoq tuting.
2. Kamtarga kamol.
3. Kitob — bilim manbayi.
4. Do'stsiz bosh, tuzsiz osh.
5. Baxtsizlikning belgisi nodonlikdir.
6. Yalqovlik — muhtojlik eshigidir.
7. Sukut — salomatni, yaxshilik — izzat va obro'ni, saxiylik — ulug'likni keltiradi.
8. Jafo chekmagan odam vafo qadrini bilmaydi.
9. Egri ishning soyasi ham egri bo'ladi.

**210-mashq. Quyidagi matnni o'qing. Siz ham ikkita-ikkita bo'lib, ana shunday suhbat o'tkazing. Suhbat mavzusi: aql, ilm, odob, vatan, mardlik, shijoat haqida bo'lsin. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplardan foydalaning.**

## ASQAD MUXTOR O'GITLARI

Dedim:

— Ayting-chi, ustoz, falakning gardishi bilan qayta dunyoga kelsangiz, tag'in shu umr yo'lini tanlarmidingiz?

Dedilar:

— Ha, shu yo'ldan borardim, ammo xatolarimni takrorlamaslik payida bo'lardim.

Dedim:

— Xatolarингиз ко'pmi, sirmi?

Dedilar:

— Urim davomida kam bilim olganim, ko'proq hunar o'rganmaganim, ustuvor zakovatga erishmaganim mening xatolarimdir.

Dedim:

— Kishi bilimli, hunarli, zakovatli bo'lsa, nimalarga erishadi?

Dedilar:

— Omad ularga ikki qo'lini cho'zgan go'dakdek talpinadi.

Dedim:

— Siz bunday kishilarga ne muruvvat va saxovatlarni ravo ko'rardingiz?

Dedilar:

— Ixtiyor menda bo'lsa, mehrimni quyoshga qo'shib berardim.

Dedim:

— Minbarga ko'tarilayotgan kishiga nima deyishni istardingiz?

Dedilar:

— Sen rohib emassan, notiqsan, shuning uchun yuragingni och!

(N. Rahmat)

### 36-DARS. HAVOLA BO'LAKLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNING TASNIFI

**Darsning maqsadi:** havola bo'lakli qo'shma gaplar haqida ma'lumot berish. Nutq jarayonida havola bo'lakli qo'shma gaplardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish:

#### R E J A:

1. Havola bo'lak haqida.

2. Havola bo'lakli qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan gapdag'i nuqtalar o'rniga mos keladigan so'zlar qo'yib gap tuzing. Bosh va ergash gapda bir-birini taqozo etib turgan so'zlarni belgilang.

- 1) Kim . . . . . -sa, u . . . . . -di.
- 2) Kim . . . . . -sa, uni . . . . . -di.
- 3) Kimki . . . . . -sa, unga . . . . . -di.
- 4) Kim. . . . . -sa, uning . . . . . -di.

**2-topshiriq.** Yuqoridagi nuqtalar o'rniga to'ldirib tuzgan qo'shma gapningizda qaysi qism bosh gap, qaysi qism ergash gap ekanligini aniqlang. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini belgilang.

**3-topshiriq.** Quyida berilgan qo'shma gap qolipi asosida to'rtta gap tuzing. Qo'shma gapning ikkinchi qismi (bosh gap) tarkibidagi ko'rsatish olmoshini turli kelishik shakllarida keltiring va ularning qaysi gap bo'lagi vazifasida ekanligini aniqlang.

Kim 1 -sa, ko'rsatish olmoshi 2 -di

**4-topshiriq.** Quyida berilgan qo'shma gap qolipi asosida to'rtta qo'shma gap tuzing. Qo'shma gapning bиринчи qismi (bosh gap) тарқибидаги **shu** олмосхининг qандай gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang va ergash gapni олмосх o'rнига qo'yib, qo'shma gapni sodda gapga aylantiring.



 **Esda saqlang.** *Qo'shma gap tarkibida faqat ergash gapgina bosh gapga ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanib qolmaydi. Ko'pincha bosh gap tarkibida ham ergash gapni taqozo etadigan, uning mayjud bo'lishiga ishora (havola) qiladigan ko'rsatish olmoshlari ishtirok etadi. Ergash gap shu olmoshning ma'nosini izohlaydi, uning ma'nosiga teng keladi.*

Masalan, *Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir. Toleym shulki, Vatanda bir guliston tanladim. Kim ko'p kitob o'qisa, o'sha ko'p biladi.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda havola bo'lak qanday gap bo'lagi vazifasida kelsa, ergash gap ham shunday gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

 **Eslab qoling.** *Yuqoridagi gaplarda shunday, shulki, o'sha bo'laklarining mazmuni ergash gap orgali izohlanadi. Ular ergash gapga ishora qiladi. Shuning uchun bunday bo'laklar havola bo'laklar sanaladi. Bunday bo'laklar qatnashgan qo'shma gaplar esa havola bo'lakli qo'shma gaplar deyiladi.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gappa havola bo'lakdan tashqari, -ki va -sa shakllari yordamida bog'lanadi. Bularidan -ki bosh gap kesimi oxiriga, -sa esa ergash gap kesimi oxiriga qo'shiladi. Solishtiring:

- 1) shu ... -ki, ... -di
- 2) kim ... -sa, ... -di

**O'ylang:** Nima uchun qo'shma gapning bu turi havola bo'lakli deb ataladi, tushuntirib bering.

**Tayanch tushunchalar:** havola bo'lak, ko'rsatish olmoshi.  
Berilgan maqolning mazmunini izohlab bering.

*Qarz tovush chiqarmasa ham, u uxlaganji qo'symaydi.*

Yuqoridagi maqol havola bo'lakli qo'shma gap bo'la oladimi? Nima uchun?

**211-mashq. Ko'chiring. Bosh va ergash gapda bir-birini taqozo etib turgan so'zlarning ostiga chizing.**

1. Kimning himmati baland bo'lsa, uning qadr-qimmati ham baland bo'ladi.
2. Kimki odob o'rgatsa, uni o'rganmagan kishi hayvon, uzr so'rasa,

qabul qilmagan kishi shaytondir. 3. Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohat va e'tibor manziliga yetkazadi. 4. Har kimki hayotga xo'mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan qaraydi. 5. Sen doim hayotga tabassum bilan boqsang, ana shunda hayot senga do'stona qo'l cho'zadi. 6. Kimnni qo'lidan yaxshilik kelmasa, u yomontlik qilishdan saqlansin. 7. Shuni bilki, yalqovlik muhtojlik eshidir. 8. Shu narsani unutmangki, baxtsizlikning belgisi nodonlikdir. 9. Kishi dardiga kim hamdard emasdир, kishi nazdida ul mard emasdир.

(«Durdonalar xazinasi»dan)

**212-mashq.** Munozara qilish uchun quyidagi da'vatni o'qing. O'zin-gizda qanday ma'naviy quvvat borligini hech his qilganmisiz? Ularni sanab o'ting va izohlang.

Kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa, bu quvvat uni tark etadi. (*Yanis Raynis*)

**213-mashq.** Quyidagi gaplarni o'qing. Havola bo'lakli qo'shma gaplar hosil qiling. Siz ham ana shunday o'gitlardan bilasizmi?

### MEHRI MOMO O'GITLARI

Yunusobodlik 130 yoshli Mehri momo haqida eshitib, ul muborak zot xonadonlarida bo'lib, suhbatlaridan bahra olgan edim.

Momo vazmin, soddadil va ochiq chehrali ekanlar. O'shanda o'git va nasihatlarini yozib olgan edim.

- \* Agar piyola bexosdan sinsa, qayg'urmang, bu baxtdan nishona.
- \* Uyga kirayotib ostonada yiqilgan kishining og'ziga moy surting.
- \* O'rta barmoqqa uzuk taqish yaxshilik alomati emas.
- \* Sut, qatiq solib kelingan idish egasiga bo'sh qaytarilmaydi.
- \* Tunda uyda tirnoq olinmaydi.
- \* Uyga yugurib kirish yaxshilik alomati emas.
- \* Uy yonida hakka sayrasa, mehmon kelishidan darak.
- \* Oilangiz bilan boshqa joyga ko'chib o'tsangiz, supurgini qoldirib keting.

(Gazetadan)

## 37-DARS. HAVOLA BO'LAKLI QO'SHMA GAPLAR BILAN SODDA GAPLAR SINONIMIYASI

**Darsning maqsadi:** havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirishni o'rgatish, bir axborotni ikki xil gap orqali ifodalash mumkinligi haqida ma'lumot berish.


### R E J A:

1. Havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirish usullari.
2. Havola bo'lakli qo'shma gap bilan sodda gap o'rtasidagi mazmuniy farqlanish.

✓ **1-topshiriq.** Daftaringiz varag‘ining o‘rtasidan chiziq tortib, ikkiga bo‘ling. Chap tomonidagi havola bo‘lakli qo‘shma gaplarni o‘ng tomonga sodda gaplarga aylantirib yozing. Qo‘shma gapni sodda gapga aylantirish uchun qanday o‘zgarishlar qilganingizni ayting.

1. Shuni unutmangki,  
vatanning istiqboli  
sizning qo‘lingizda.
2. Shunday kunlar keladiki,  
yurtimiz dunyoning eng rivoj-  
langan go‘shasiga aylanadi.
3. Kimki birovga choh qazisa,  
o‘shaning o‘zi yiqiladi.
4. Kim mehnat qilsa,  
o‘sha rohat ko‘radi.

**2-topshiriq.** Quyida berilgan qo‘shma gap qoliplari asosida to‘rtta qo‘shma gap tuzing. Qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring. Qo‘shma gap bilan sodda gap o‘rtasida qanday mazmuniy farq borligini ayting.



! **Juda muhim.** Havola bo‘lakli qo‘shma gaplarni doimo sodda gapga aylantirish mumkin, chunki qo‘shma gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshining umumiylar mavhum ma’nosini konkretlashtirish, izohlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘ladi. Natijada, ergash gap bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi bajargan gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Qo‘shma gap esa sodda gapga aylanadi.

Masalan, *Kim mehnatdan qochmasa, unga tole kulib boqadi.* \_\_\_\_\_  
Mehnatdan qochmaganga tole kulib boqadi; *Shunga aminmanki, ertamiz bugungidan porloqroq bo‘ladi.* \_\_\_\_\_ *Ertamiz bugungidan porloqroq bo‘lishiga aminman.*

! **Juda muhim.** Ko‘rinadiki, bir axborotni ikki xil gap— sodda va qo‘shma gap orqali ifodalash mumkin bo‘ladi.

Garchi gapning bu ikki turi bir xil mazmun ifodalash jihatdan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin ular ma’noni ta‘kidlash, uslubiy xoslanish jihatidan farq qiladi. Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar ko‘proq kitobiy uslubga xos va sodda gaplardagiga nisbatan ma’no ta‘kidlangan bo‘lsa, sodda gaplar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega bo‘ladi.

**O'ylang:** Havola bo'lakli qo'shma gaplarning tilimizda qanday ahamiyati bor?

*Qo'shning yomon bo'lsa, yomonlik kelar,  
Qo'shning yaxshi bo'lsa — omonlik.*

Yuqorida berilgan maqolning ma'nosini izohlang.

**214-mashq.** Quyidagi sodda gaplardan havola bo'lakli gaplar hosil qiling.

1. Mehnatni sevmagan odam bir buzuqlikni qilishga tayyordir.
2. Hasad yurakning zanglanishi, qaysarlik — mag'lubiyat sababchisidir.
3. Odobning yuqori bosqichi go'zal xulqdir.
4. Insonning eng zo'r yordamchisi o'zining aqlidir.
5. Hayotda go'zallik, quvvat va saodatning manbayi soddalikdir.
6. Qog'ozga yozilib qolgan yaxshi nom tamom bo'lmaydigan umrdir.
7. Qalbi pok bo'lgan kishining ishlari ham pok, toza bo'ladi.

(«Durdonalar xazinasi»dan)

**215-mashq.** Hikmatlarni o'qing. Sodda gaplarni havola bo'lakli qo'shma gapga aylantiring. Havola bo'lakli gaplarni esa o'z holicha ko'chiring.

### BERUNIY HIKMATLARI

- \* Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, o'zidagi bor nuqsonlarni yo'q qilib, ularni yaxshi sifatlarga aylantira oladi.
- \* Qayerda tenglik hukm sursa, u joyda sotqinlik, aldamchilik, g'am-g'ussa bo'lmaydi.
- \* Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.
- \* Ne'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.
- \* Har bir insonning qadr-qimmati uning o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir.
- \* Har bir yangi narsada lazzat bor.
- \* Ulug' hodisalar hamma vaqt ham yuz beravermaydi.
- \* O'zi yaxshi bilmagan ishga uringan odam sharmanda bo'ladi.
- \* Men o'zimdan oldin o'tganlarning xizmatlarini mammuniyat bilan uqib oldim va ularning nuqsonlarini (mabodo shunday topilsa) tortinmay tuzatishga tirishdim. Davrimizga kech qolganlar va keyinroq bunyodga keladiganlar uchun muhim va namuna bo'ladiqan ishlarni abadiylashtirishga tirishdim. Har bir shaxs o'z sohasida shunday qilmog'i lozim.
- \* Odil podshohnning asosiy vazifasi — oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iborat.

**216-mashq.** «Suv — bu hayot» mavzusida matn tuzing. Matn ichida havola bo'lakli qo'shma gaplarni ishlating.

## 38-DARS. KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLAR USLUBIYATI

**Darsning maqsadi:** ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqidagi o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish. Nutq jarayonida ko‘chirma gapli qo‘shma gaplardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

### R E J A:

1. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida.
2. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap tuzilishi.
3. Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi.
4. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar.

✓ **1-topshiriq.** Quyida berilgan gaplarning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini aytинг:

1. «*Odam ersang, demagil odami,  
Oni kim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*», —  
deydi Alisher Navoiy.
2. *Alisher Navoity xalq g‘umini yemagan odamlarni odam deb  
hisoblamaslik lozimligini bayon qilgan edilar.*

Nutq jarayonida so‘zlovchi o‘zi bevosita kuzatgan, bilgan voqeа va hodisalar haqida axborot beribgina qolmasdan, o‘zgalardan eshitgan voqeа-hodisalarни ham bayon qiladi. Ko‘pincha so‘zlovchi o‘z fikrini qo‘shimcha dalillar bilan isbotlamoq uchun o‘zigacha bo‘lgan buyuk shaxslarning asarlaridan namunalar keltiradi. Yoki ma‘lum bir shaxs xarakterini ochish uchun shu shaxs bayon qilgan gapdan foydalanadi. Masalan, «*Tiz cho ‘kib yashagandan tik turib o‘lmoq yaxshiroq*», deydi G‘ofir. Bu esa nutqning ta’sirchan, mantiqli va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

! **Juda muhim.** Monologik nutqda so‘zlovchining o‘zgalar gapidan aynan foydalanishi ko‘chirma gapli qo‘shma gapni hosil qiladi.

Bunda qo‘shma gap ikki qismdan tashkil topadi: 1) so‘zlovchining (muallifning) gapi; 2) o‘zganining gapi. Masalan. «*Ko‘p narsalarni ko‘zimga ko‘rsatdingiz. Yana ko‘p narsalarni ko‘rgani qo‘limga chiroq berdingiz, O‘rmonjon aka*», — dedi Siddiqjon.

Yuqoridagi gapda *dedi Siddiqjon* qismi muallif gapi, ungacha bo‘lgan qism esa o‘zganining gapi hisoblanadi.

Fikrni asosli va go‘zal ifodalamoq uchun ko‘p hollarda xalq maqollaridan, hikmatli so‘zlardan, adabiy parchalardan foydalaniladi. Nutqqa tayyor olib kirilgan bu maqol va hikmatli so‘zlardan so‘ng — deydi xalqimiz, — deydi adib singari muallif gaplari qo‘llanilib, ko‘chirma gapli qo‘shma gapni hosil qiladi. Masalan, «*Oltin boshing omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘imas*», deydi xalqimiz.

Ko‘rinadiki, bunday iboralardan o‘rinli foydalanish nutqiy madaniyatni oshiradi.

**O‘ylang:** Nutqimizda ko‘chirma gaplardan foydalanish nima uchun kerak?

**Tayanch tushunchalar:** ko‘chirma gap, muallif gapi.

Keltirilgan maqolning ma’nosini izohlab bering, so‘ngra undan ko‘chirma gapli qo‘shma gap hosil qiling.

*Odobning boshi – til.*

**217-mashq.** Uyga topshiriq. Ko‘chirma gap ishlatalgan she’riy parchalardan misollar yozing.

**218-mashq.** Monolog shaklidagi ko‘chirma gaplar nutqimizda ko‘p ishlatalidi. Shuning uchun Siz ham «Nega yerga qaraysiz, Ra’no?» mavzusida ko‘chirma gapli matn tuzing. Matnga «Mehrobdan chayon»ni asos qilib oling.

**219-mashq.** Quyidagi nutq fe’llarini qatnashtirib, ko‘chirma gaplar hosil qiling: demak, aytmoq, deb qichqirdi, deb aytdi, deb pichirladi, deya iltijo qildi, deb yolvordi, so‘radi.

**220-mashq.** O‘qing. Muallif va ko‘chirma gaplarni aniqlang.

#### OZ ISHLA, SOZ ISHLA

Kunlardan bir kuni bir mutakabbir o‘rgimchak ipak qurtiga: «Men Senga juda achinaman, bir ozgina ipak uchun shoshmasdan ishlab ko‘p vaqt sarf etasan. Mana, menga qara, tez-tez ishlab ozgina vaqt ichida bu devorning boshidan oyog‘igacha to‘r o‘rab bitirdim. Menga o‘xshab shoshib-pishib to‘r o‘rasang bo‘lmaydim? — dedi. Ipak qurti unga: «To‘g‘ri, ishda sur’at, tezlik kerak, lekin sen singari apil-tapil ishlashdan foyda chiqmaydi, shuning uchun to‘ring hech qimmatga ega emas, mening to‘rim esa juda qimmatli to‘r», deb javob berdi.

Hissa: Shoshma-shosharlik bilan ishlashdan hech foyda hosil bo‘lmaydi. Ishning soniga emas, sifatiga diqqat qilish lozim. «Oz ishla, soz ishla» deb bekor aytmaganlar.

Bayt:

*Shoshqaloqlik niholin o‘tgazsang,  
Bergusi meva pushaymonlik.*

(«Durdonalar xazinasi»dan)

**221-mashq.** Suqrot hakimning quyidagi hikmatlarining mag‘zini chaqing. Muallif gapini oldin, keyin, o‘rtasida keltirib ko‘chiring.

Suqrot hakim aytadi: «Takabbrlik va zulm — ulug‘likning ofati, muloyimlik va tavoze — insонning ziynati, sharm-hayo uning go‘zal, yoqimli libosidir».

Me'yorni ko'p buzar odam bolasi.  
Uning kattasidan kichigigacha  
Arziydi jazoga tortilsa dangal.  
U — aybdor.  
U «me'yor bo'lsin» deydi-yu,  
Aslo o'z gapiga qilmaydi amal.

### Ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi

✓ **1-topshiriq.** Muallif gapi oldin, ko'chirma gap keyin kelgan ikkita ko'chirma gapli qo'shma gap topib, qanday tinish belgilardan foydalanganingizni aytинг.

**2-topshiriq.** Qo'lingizda mavjud bo'lган badiiy asarning bir sahifasida nechta ko'chirma gapli qo'shma gap borligini aniqlang va tinish belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntiring.

Ko'chirma gap bilan muallif gapi turlicha o'rinalashish xususiyatiga ega. Ularning o'rinalashish tartibini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Muallif gapi (MG)+ko'chirma gap (KG):

Xalqimiz deydi: «*Sabr tagi — sariq oltin*».

*Guli dedi: «G'azaldin bahr olmag'ay kim?» (Uyg'un)* Bunday vaqtida muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinib, bosh harf bilan boshlanadi.

Ko'chirma gap oxiriga, agar u darak va buyruq gap bo'lsa, nuqta; so'roq gap bo'lsa, undov belgisi qo'yilib, qo'shtirnoq yopiladi.

1. KG+MG: «*To'g'ri, qoloqdan cho'loq yaxshi*, — dedi qovog'ini solib Dilshod. (Oybek)

«*Nega xat-pat, telegramma yubormadingiz?*» — dedi Jo'ra. (Oybek)

2. KG+MG+KG: «*Endi hamisha xonadon sohibining gapiga qulog solgaysiz, — dedi Bibixonim kelinga, — aytganlarini so'zsiz bajargaysiz*. (P. Qodirov)

Bunday vaqtida ko'chirma gap qo'shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi. Muallif gapi bilan ko'chirma gapning uzilgan joyi vergul va tire bilan ajratiladi. Muallif gapidan so'ng ko'chirma gapning qolgan qismi nuqta va tire yoki vergul va tire bilan davom etadi.

Uning sxemasi quyidagicha:

«KG..., — MG, — KG». Yoki: «KG , — MG, — KG»

3. MG: «KG», MG.

Qaynonasi Bibixonim: «*Bu in'omning teran ma'nosi bor*», — dedi sirg'alarни kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan. (P. Qodirov)

Bunday vaqtida muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, ko'chirma gap qo'shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi. Ko'chirma gap oxiri qo'shtirnoq bilan yopiladi va muallif gapining davomi ko'chirma gapdan vergul va tire bilan ajratilgan holda kichik harf bilan boshlanadi. Uning sxemasi quyidagicha: KG: «MG», — KG.

**O‘ylang:** Ko‘chirma gaplarda tinish belgilari nima uchun kerak?

Berilgan maqolning ma’nosini izohlang, uni ko‘chirma gapli qo‘shma gapga aylantiring. Unda muallif gapi keyin kelsin.

*Qayrag‘och qalin bo‘lsa, yomg‘ir o‘tmas,  
Og‘a-ini totuv bo‘lsa, xo‘rlik yetmas.*

**222-mashq.** Quyida berilgan ko‘chirma gaplarning tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Yo‘q dedi Matluba ukamnikiga boraman. Sen ham yura qol, joyi bemalol. 2. Voy opa, qarang, bir qarang dedi Nazmi shoxlari chiqibdi. 3. Boya nima deding dedi Sarvar uning pichingini tushunmaganday, — odamni isnodlarga qoldirasiz dedingmi? Men futbolni ko‘rmay shu gapingni o‘ylab o‘tirdim. 4. Eshikni yoping dedi Nafisa zarda bilan. 5. Tuhmatmi? Mana bu ham tuhmatmi? Matluba shunday deb sumkasidan xatni chiqarib uzatdi. 6. Bu ... Tursunali akamning xatlari-ku? Dedi Nafisa ajablanib. — Sizga kim berdi. 7. Agar ishonmasangiz, dedi Nafisa kundoshiga tik qarab, turmaga borib kelamiz. O‘zlaridan so‘raymiz. (*T. Malik*)

**223-mashq.** Berilgan mashqdan ko‘chirma va muallif gapini aniqlang. Har bir gapni yozgandan so‘ng uning chizmasini chizing.

1. «Bor dadangga chop! — dedi shoshib — qishloqdan do‘srlaringiz keldi», — degin. 2. «Yur, bolam, senga bitta muzqaymoq olib beray!» — dedi to‘satdan. 3. A’zam aka oldin astoydil xafa bo‘ldi, keyin: «Ha, mayli, yo‘qqa chora ham yo‘q-da!» — dedi. 4. Inobat go‘yo Ertayevning gapini eshitmaganday, birinchi unga yuzlanib: «Nega bunday deysiz, Umarov aka, — dedi sekin, — unisiyam kerak, bunisiyam». 5. «Bir jihatdan Inobatxon haq, Erkinjon», — dedi u jiddiy. 6. Ha, o’sha kecha Muyassar uni ayamadi: «Axir ... handalak bo‘lsayam... Barchaning mulki-yu nega buni o‘ylamading?» — degan gapni takrorlayverib, o‘lganning ustiga chiqib tepganday qildi. 7. Ertayev: «Mayli, mayli, buni keyin gaplashamiz», — dedi kulib. 8. Mashrab esa: «Bo‘lmasa, nima qilaylik?» — dedi titrab. 9. Yigitlarning oldiga savol-javob qog‘ozini surib qo‘yarkan, kulib dedi: «Marhamat tabarruk qo‘llarini qo‘ysinlar!» (*O. Yoqubov*)

**224-mashq.** Quyidagi ko‘chirma gaplarga muallif gapi qo‘shib, ko‘chirma gaplar tuzing. Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin, keyin, uning o‘rtasida va ikki tomonida kelsin. Tinish belgilariga e’tibor bering.

1. «Aql pinhon hamda zohir olam u». (*Jaloliddin Rumi*) 2. «Zakovat bilimning tarjimoni til». (*A. Navoiy*) 3. «Himmat hamma narsadan yuqori turadi. Adl binosi hech vaqt vayron bo‘lmaydi». (*Suqrot*) 4. «Bolalarim, yoshlikni g‘animat biling, faqat o‘ym, kulgi, kayf-safo bilan yoshlik davringizni zoye etmang». (*Xurramiy*) 5. «Maishatga yetarli mol-u davlatga ega bo‘lgan kishi undan ortiqchasini talab qilmasin, chunki uning poyoni

yo‘qdir». (*Arastu*) 6. «Hasadchi o‘z hasadi ta’siridan bir kun o‘zi halokat chuquriga yiqiladi». (*Husayn Voiz Koshify*) 7. «Har bir kishining so‘zi — o‘z fazilatlarining dalili va aqlining tarjimonidir». (*Xoja Ahmad*) 8. «Doimo to‘g‘ri so‘zladim, omonatga xiyonat qilmadim, ma’nosiz, behuda so‘zlar so‘zlashdan chekindim». (*Lugmoni Hakim*)

### Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirish yo‘llari

✓ **1-topshiriq.** Quyidagi ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirib, sodda gapga aylantiting. O‘zlashtirma gapga aylantirish uchun ko‘chirma gap tarkibida qanday o‘zgarishlar qilganingizni aytинг. «Siz buyuk madaniyat vorislarisiz», — dedi yurtboshimiz.

**2-topshiriq.** Quyidagi ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Ko‘chirma gap tarkibida qanday o‘zgarishlar qilganingizni aytинг.

«*Siz Amerikada o‘qiy sizmi?*» — deb so‘radi Aziza.

Ko‘p hollarda o‘zgalarning gapi muallif tomonidan aynan keltirilmay, mazmuni saqlangan holda o‘z nutqiga singdirib beriladi. Bunday vaqtda ko‘chirma gapli qo‘shma gap sodda gapga aylantiriladi.

! **Juda muhim.** *Ko‘chirma gapli qo‘shma gapni sodda gapga aylantirish uchun ko‘chirma gap va muallif gaplari tarkibida ega va kesim vazifasida kelgan bo‘laklarning shakl va vazifasida ayrim o‘zgarishlar qilinadi.*

Xususan, ko‘chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga, kesimi esa to‘ldiruvchiga aylantiriladi. Ko‘chirma gap kesimini to‘ldiruvchiga aylantirish uchun unga *-lik* yoki *ekanlik* shakllari qo‘shiladi. Egasi II shaxs kishilik olmoshidan ifodalangan bo‘lsa, u I shaxs kishilik olmoshiga aylantiriladi. Muallif gapining kesimi vazifasida kelgan *dedi so‘zi aytdi* so‘zi bilan almashtiriladi. Masalan,

Ko‘chirma gap

«*Sizlar bir oilaning farzandi-sizlar*», — dedi rais.

O‘zlashtirma gap

*Rais bizning bir oilaning farzndlari ekanligimizni aytdi.*

Ko‘chirma gapli qo‘shma gap sodda gapga aylantirilganda, ko‘chirma gaplarga qo‘yilgan qo‘shtirnoq ham ishlatalmaydi.

**O‘ylang:** Nutqimizda ko‘chirma gaplardan foydalanish nima uchun kerak?

Keltirilgan maqolning ma’nosini izohlab bering, so‘ngra undan ko‘chirma gapli qo‘shma gap hosil qiling.

*Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar, deydilar.*

**225-mashq.** Quyidagi so‘zlar ishtirokida ko‘chirma gaplar hosil qiling. So‘ngra uni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Bunda qaysi so‘z va gaplar tushib qolishi shartligini tushuntiring.

Xo‘sish, balki, axir, ha, ehtimol, albatta, mayli, darhaqiqat.

**226-mashq.** Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib ko‘ching, ulardagi tuzilish va uslubiy tomondan sodir bo‘lgan o‘zgarishni ko‘rsating.

1. Luqmoni Hakimdan so‘radilar: «Odamlarning donosi kim?» Javob berdilar: «Hayot tashvishidan diltang bo‘limgani».

2. So‘radilar: «Odamlarning qudratligi kim?» Javob aytdilar: «Ahli komil bo‘lgani».

3. Savol berdilar: «Ul qanday olovki, o‘z yoquvchisini kuydiradi». Javob aytdilar: «Hasad».

4. Yana so‘radilar: «Ul qaysi binodirki, hech xarob bo‘lmash?» Javob ayladilar: «Adolat».

5. Savol berdilar: «Ul qanday achchiqlikki, oxiri shirin bo‘lur?» Javob berdilar: «Sabr».

6. Murojaat qildilar: «Ulki ne ojizdir?» Dedilar: «Ahmoqlik».

**227-mashq.** Berilgan o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib ko‘ching. Muallif gapining kesimi qaysi so‘z bilan ifodalanganini aytib bering.

1. O‘qituvchi talabalarga odobning yuqori bosqichi go‘zal xulqligini tushuntirdi. 2. Opasi insonning eng zo‘r yordamchisi o‘zining aqli ekanligini uqtirdi. 3. Nodiraxon sukut — salomatlikni, yaxshilik — izzat va obro‘ni keltirishini aytdi. 4. Donishmandlar yalqovlik muhtojlik eshigi ekanligini uqtirganlar. 5. Ustozimiz hasad — yurakning zanglanishi ekanligini tushuntirdilar. 6. Ota-bobolarimiz behuda so‘zlar so‘zlashdan tilni tiyish kerakligini aytishgan. 7. Alisher Navoiy ota va onani oy-u quyoshga o‘xshatgan. 8. Olimlar ortiqcha saodatga intilish saodatni qo‘lga kiritishga to‘sinqilik qilishligini aytganlar.

**228-mashq.** «She’riyatga oshno qalblar» mavzusida matn tuzing, o‘zlashtirma gaplardan foydalananing.

**229-mashq.** Quyidagi misralarga diqqat qiling. Avvalo, uning mag‘zini chaqing. So‘ngra mazmunini saqlagan holda undan ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar hosil qiling.

*Hokim bo‘imasam ham,  
Men aytay sizga.  
Uzoq yashamoqqa  
Bor bitta yorliq.  
Mingga kirmasak ham,  
Kirardik yuzga.  
Dunyoda bo‘masa dilozorlik.*

(A. Oripov)

## 39-DARS. MATN — ENG YIRIK SINTAKTIK BIRLIK

**Darsning maqsadi:** talabalarni matn tuzishga o'rgatish, matndagi bog'lovchi vositalar haqida ma'lumot berish.

### R E J A:

1. Matn haqida umumiylar ma'lumot, uning gapdan farqi.
2. Mikromatn va makromatn haqida.
3. Matnni bog'lovchi vositalar.

Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn (makromatn) hisoblanadi. Matn mikromatnlarning o'zaro mazmuniy va grammatik bog'lanishidan hosil bo'ladi.



**Esda saqlang.** Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi.

Bir umumiylar mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirot etgan barcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiylar mavzusi ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat:

bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlari, sinonimlar.

*Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.*

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan u olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan Karimjon o'rniда kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog'lab keladi. Shuning uchun ham u olmoshi matn qismlarini bog'lovchi, ya'ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yodkorlik hosil qiladi.

E'tibor bering:

*Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,  
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.  
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada  
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.* (A. Oripov)

Takrorlar gap oxirida qo'llanilishi ham mumkin.

*Angladimki, olamda  
Yurt tanho, Vatan tanho*

*Band etgan xayolimni  
Tengsiz shul chaman tanho,  
Nokaslar emas, yo 'q, yo 'q.  
Onajonim, she 'riyat,  
Topgan toj-taxtim mening,  
Jonajonim she 'riyat.*

(A. Oripov)

**230-mashq. Quyida berilgan parchadan mikromatnni bog'lovchi vositalarni toping.**

Mastura! Uning qo'llariday mayin, iliq, mehribon qo'llar bormi olamda? Uning barmoqlariday nozik, kishining boshini silaganda qalbini nurga to'ldirib, dilini ravshan qiladigan barmoqlar bormikin dunyoda?

Odatda opa-singil, aka-ukalar uncha inoq bo'lavermaydilar, biroq Mashrab esini taniydiki, qulog'ida Masturaning mehribon, muloyim ovozi yangraydi.

Ilgari, Mastura turmushga chiqmasdan burun, Gulsum opa yoki A'zam akaning tazyiqi o'tgan mahallarda yoki biror gunoh qilib qo'yib kaltak yejish xavfi tug'ilgan paytlarda, Mastura bilan Mashrab birga bekinishar, g'azab va kaltakni birga baham ko'rishardi.

Masturaning sevgisi, chidami, hijron dog'lari uning o'ziday pok, chiroyli, samimiyl, ehtimol, shuning uchundir, Mashrab vafosizlik to'g'risidagi kitoblarni o'qisa, yo erkaklar og'zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadi-yu, butun vujudi isyon ko'taradi, bunday gaplarning birontasiga ishonmaydi.

(O. Yoqubov)

**231-mashq. Quyidagi matnni o'qing. Matn qismlarini bog'lovchi vositalarni aying.**

KO'R

Afandining yoshligidan birga o'sgan bir do'sti bor edi. Yillar o'tib, u katta mansabga mindi. Afandi uni lavozimi bilan tabriklash uchun idorasiga kirib bordi. Do'sti Afandi bilan ko'rishish o'rniga:

— Sen kimsan, nima ish bilan kelding? — deb do'q urdi.

— Meni tanimaysanmi, yoshlikdan birga yong'oq o'ynab o'sgan do'sting bo'laman. Seni ko'r bo'libdi, deb eshitib, ko'ngil so'ragani keluvdim, — dedi Afandi.

(Gazetadan)

**232-mashq. Matndagi so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalarni toping va ularga izoh bering.**

Adolat va haqqoniyatni o'zingga rahbar qilib ol, hech kimga zarar yetkazma.

Har vaqt mo'tadil holda ish yurit, haddan ortiqchaliqdan saqlan. Haqsiz, lekin o'zingga loyiq ko'rib birovdan intiqom olishga jur'at qilma.

Kir, ifloslikdan hazar qil, vujuding, libosing va uy-joyingning toza, pokizaligiga diqqat qil.

Mayda-chuyda va istaganingcha bo‘lmay qolgan ishlardan xafalanib, salomatligingni buzma, qalbingning huzur-rohatini ko‘zla.

Adabli, sharm-xayoli, nomusli bo‘l. Bu go‘zal xislatlardan ajralma.

O‘zingni kamtar tut, tavoze sharaf va izzat bosqichi ekanini unutma.

Sabrli, muloyim, ochiq yuz, shirin so‘zli bo‘l. Hech kimga qo‘pol muomala qilma.

Xulosa: yuqorida zikr etilgan fazilatlar bilan o‘zingni orasta qilsang, xalqning muhabbatini o‘zingga jalb etasan, hamma senga hurmat nazari bilan qaraydi.

**O‘ylang:** Tilimizda matnning ahamiyati qanday?

**Tayanch tushunchalar:** matn, mikromatn, makromatn, takror, bog‘lovchi vositalar.

Quyidagi maqolning ma’nosini izohlang. Shu maqol asosida mikromatn tuzing.

*Har bir so‘zni bilib ayt,  
Ko‘pga ma’qul qilib ayt.*

## 40-DARS. O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

Mazkur dars yakuniy xarakterga ega bo‘lib, uni noan’anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

Dars «Manzilga kim birinchi bo‘lib yetadi?» deb nomlanadi.

O‘qituvchi dars davomida to‘rtta bekatdan o‘tilishini, har bir bekatda ularni nazoratchilar kutib turganligini aytadi. Shundan so‘ng o‘quvchilar ichidan to‘rtta nazoratchi saylanadi, ularga oldindan tayyorlab qo‘yilgan paketlar topshiriladi. Paketlar ichida quyidagi savol va topshiriqlar bo‘ladi. (O‘qituvchi o‘z imkoniyati va sinfdagi bolalarning iqtidoriga qarab turib savol va topshiriqlarni almashtirishi mumkin.)

*I-bekat «So‘z birikmasi» deb nomlanadi*

### I. Savol va topshiriqlar:

1. So‘z birikmasi deb nimaga aytildi?
2. Bitishuv usuli haqida so‘zlab bering
3. Boshqaruv munosabati deganda nimani tushunasiz?
4. Moslashuv birikmalariga misollar keltiring.

**II. So‘z birikmalaridagi xato ketgan o‘rnlarni toping va ularni daftaringizga ko‘chirib yozing.**

A’lochi yozmoq, tog‘amning o‘quvchi, chiroysi boshara, xunuk kayfiyati, baland sovg‘amiz, bizning bo‘yli.

## *2-bekat «Sodda gap bekati» deb nomlanadi*

### **I. Savol va topshiriqlar:**

1. Sodda gap deb nimaga aytildi?
2. Bir bosh bo'lakli gapdan ikki bosh bo'lakli gapning farqini aytib bering.
3. Shaxsi ma'lum gapni izohlang.
4. Shaxsi noma'lum gapga ta'rif bering.
5. Shaxsi topilmas gapga misollar keltiring.
6. Shaxsi umumlashgan gap nima?
7. Atov gapga misollar keltiring.

### **II. Noto'g'ri berilgan qo'shimchalarini to'g'rilang va gaplarga izoh bering.**

1. Biz obod va ozod Vatanda yashayman.
2. Bilim baxt keltirmoqchi.
3. Katta hurmatda, kichikka izzatda bo'lajak.
4. Men 3-kursda o'qiysan.

### **III. Har bir gap tarkibida to'rtadan so'z bor. So'zlarni o'rni-o'rniga qo'ying va gaplarni izohlang.**

<b>Yaxshiga</b>	<b>bo'lsang</b>	<b>olam</b>	<b>ozadi</b>
To'g'ri	tinch	yomondan	tinch
Sen	yondash	egri	seniki
Olim	o'zadi	qo'shning	qoch

## *3-bekat «Qo'shma gap» deb nomlanadi*

### **I. Savol va topshiriqlar:**

1. Qo'shma gap deb nimaga aytildi?
2. Bog'lovchisiz qo'shma gapga ta'rif bering.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap qanday hosil qilinadi?
4. Bog'langan qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalar haqida gapirib bering.

### **II. Qismlari almashtirilgan qo'shma gaplarni to'g'rilab daftaringizga ko'chirib yozing. Qo'shma gaplarga ta'rif bering.**

O'lkamizga Navro'zi olam keldi, chunki u yerda bobom yashaydi. Bahor keldi va odam aqlini bilim oshirdi. Yozgi ta'tilda tog'ga bormoqchiman, butun borliq ko'm-ko'k maysalarga burkandi. Soy suvini bahor toshirar, qir-u adirlar, qip-qizil lolaqizg'aldoqlar to'lib ketdi.

## *4-bekat «Ergash gapli qo'shma gap» deb nomlanadi*

### **I. Savol va topshiriqlar:**

1. Ergash gap deb nimaga aytildi?

2. Bosh gapga ta’rif bering.
3. Ergash gapni izohlang.
4. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar haqida gapirib bering.

**II.** Quyidagi gaplarni davom ettiring va ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar haqida gapirib bering.

1. Vatanimiz gullab- yashnasin deb, ...
2. Ekinlarga o‘z vaqtida ishlov berishdi,...
3. Kimning bilimi kuchli bo‘lsa,...

**III.** Krossvordni yeching, unga yashiringan ergash gapli qo‘shma gapni topib izohlang.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	

- 1–3. Asal so‘zining sinonimi.
- 4–5. Dona son qo‘s Shimchasi
- 6–8. Uyqudag‘i holat.
- 9–10. Ravishdosh yasovchi qo‘s Shimcha.
- 14–18. Daraxt kesilgandan keyingi qoldiq.
- 19–21. Hordiq so‘zining sinonimi.
- 22–23. Buyruq fe’li.
- 24–25. Sifatdosh yasovchi qo‘s Shimcha.

Dars oxirida o‘qituvchi faol o‘quvchilarni, ya’ni so‘nggi bekatga yetib kelganlarni baholab, yil davomida o‘tilganlarni umumlashtiradi va darsni yakunlab beradi.

## «FONETIKA» BO'LIMIGA DOIR QIZIQARLI GRAMMATIK TOPSHIRIQLAR

### «DOMINO» o'yini

Bu o'yinni quyidagicha o'tkazish maqsadga muvofiq. Bir necha o'quvchi sinf taxtasiga chaqiriladi. Ular tartib bilan so'z aytadilar. Birinchi o'quvchi aytgan so'z qaysi tovush bilan tugasa, ikkinchi o'quvchi shu tovush bilan boshlanuvchi so'z aytishi va o'zin shu tarzda davom etishi talab etiladi. Bu o'zin 5—6 o'quvchi orasida o'tkazilib, ikki-uch davra davom etishi mumkin.

N a m u n a : axloq — qalb — bebahо — ona — a'lо — odam — ma'no — ota — alam — ma'mur — ra'no — oila — aql — lola — adolat — ta'llim — ma'rifat — tanlov — vafo — odob — baho.

### «TALAFFUZDAN ADASHMANG» o'yini

O'qituvchi o'quvchilarga *x* va *h*, *f* va *p* tovushlari ishtirok etgan so'zlardan aytishni topshiradi. O'quvchilar 2 guruhgа bo'linib topshiriqni bajaradilar. Shunda kim so'zni noto'g'ri aytса o'yindan chiqadi. Mavzu asosida so'z sinf taxtasiga yoziladi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtida eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchi o'yinda g'olib hisoblanadi.

N a m u n a :

shoh — davlat boshlig'i;  
shox — novda, daraxt shoxi;  
xil-xil — saralangan, tanlangan;  
hil-hil — ezilib pishgan;  
hol — ahvol (hol so'radi);  
xol — odam tanasidagi xol.

## «SO‘Z JUFTLARINI DAVOM ETTIR» o‘yini

O‘quvchilarga san’at — sanat, Tal’at — talat, qa’la — qala, ta’na — tana, ta’b — tab singari so‘zlar berilib, shunday so‘z juftlari tuzishni davom ettirish va ularning ma’nosini sharhlash topshiriladi. Berilgan so‘z juftlarini belgilangan miqdor (masalan, 15—20 ta so‘z jufti)ga yetkazgan o‘quvchi g’olib deb topiladi. Bu o‘yin o‘quvchilar guruhi o‘rtasida ham o‘tkazilishi mumkin. Qatordagi har bir o‘quvchi sinf taxtasiga chiqib bitta so‘z jufti yozadi va bo‘rnii ikkinchi o‘quvchiga tutqazadi. O‘yin shu tarzda davom ettiriladi.

## «LEKSIKOLOGIYA» BO‘LIMI YUZASIDAN TASHKIL ETILADIGAN TA‘LIMIY O‘YINLAR

### «NUQTALAR O‘RNINI SO‘Z BILAN TEZ TO‘LDIR» o‘yini

O‘qituvchi o‘quvchilar hukmiga ma’lum bir umumiste’ moldagi so‘zni beradi-da, shu so‘zning barcha ma’nodoshlari o‘rniga nuqtalar qo‘yib chiqadi. O‘quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan joyni so‘zlar bilan to‘ldirishadi. Masalan:

Tabrikladi, ...

Sezdi, ...

Yorug‘, ...

Nuqtalar o‘rnini tez to‘dira olgan o‘quvchi g’olib sanaladi.

### «MAZMUNAN QARINDOSH, SHAKLAN BEGONA» o‘yini

Bu o‘yinni tashkil etishda ham o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. O‘yinni boshlovchi guruhi muayyan mavzuda gaplar tuzadilar, ikkinchi guruhi mazmunni saqlagan holda so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirish orqali gap shaklini o‘zgartiradilar. Keyin o‘yinda vazifalar almashtiriladi. O‘qituvchi har bir shakli o‘zgartirilgan gap uchun ball qo‘yib boradi va o‘yin oxirida eng ko‘p ball olgan guruhi g’olib sanaladi.

## «DOMINANTA» o‘yini

Bu o‘yinni ham ma’nodosh so‘zlar mavzusi o‘rganilgach o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi dominanta so‘ziga izoh bergach, bir qator so‘zlarni berib ular ichidan «dominanta» so‘zni alohida ro‘yxat qilishni topshiradi. Kim xatosiz aniqlab chiqsa, shu o‘quvchi o‘yin g’olib bo‘ladi.

Berilgan so‘zlar:

- I. Sovg‘a, hadya, tuhfa, tortiq, armug‘on, in’om.
2. Ovoz, tovush, un, sado, nido.
3. Begona, yot, o‘zga, notanish, birov.
4. Ziyo, shu’la, nur, yog‘du.

## «MEN BOSHLAYMAN, SEN DAVOM ETTIR» o‘yini

O‘quvchilar ikki guruhgaga ajratilib birinchi guruhdan qarama-qarshi ma’noli so‘zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so‘zning qarama-qarshi ma’nosini topish talab etiladi (masalan: do‘st—, baland—, yosh—, tez—, qattiq— va h.k.).

Bu o‘yin partadoshlar orasida ham o‘tkazilishi mumkin. Shunga o‘x-shash o‘yinlardan yana biri boshlanish qismi berilgan xalq maqollarini mustaqil davom ettirishdir. Masalan:

1. Ko‘z — qo‘rroq...
2. Egri ozadi...
3. Birlashgan o‘zar...

### Tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati

<i>harzago ‘y</i>	— sergap
<i>takallum</i>	— so‘z, nutq
<i>aqli qosir</i>	— aqli zaif
<i>xushgo ‘y</i>	— shirinso‘z
<i>muvalhish</i>	— mudhish
<i>rifq</i>	— lutf
<i>muvoso</i>	— murosa, kelishish
<i>qali</i>	— agar, basharti
<i>o‘g</i>	— aql
<i>o‘kush</i>	— ko‘p
<i>kanora</i>	— chet, chekka
<i>ma‘mura</i>	— mamlakat, obod shahar, obodonchilik

---

## MUNDARIJA

### 1 - kitob

Kirish ..... 3

#### Takrorlash

1-dars. Fonetika yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash ..... 6  
2-dars. Leksikologiya yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash ..... 8  
3-dars. Grammatika yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash ..... 10

#### Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limi asoslari

4-dars. Dunyo tillari tizimida o‘zbek tilining tutgan o‘rni ..... 13  
5-dars. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da hozirgi o‘zbek  
adabiy tili ta’limining tutgan o‘rni ..... 20

#### O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari

6-dars. Qadimgi turkiy til ..... 26  
Eski turkiy til ..... 28  
7-dars. Eski o‘zbek adabiy tili ..... 31

#### Fonetika

8-dars. O‘zbek tilining tovush tizimi (fonetikasi) ..... 34  
Nutqiy faoliyat ..... 34  
9-dars. Nutq tovushlarining uch tomoni ..... 37  
10-dars. Tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari ..... 41  
11-dars. Tovush va fonema ..... 43  
12-dars. Fonemalar tasnifi ..... 46  
Unlilar tasnifi ..... 46  
13-dars. Undoshlar tasnifi ..... 50  
Fonema va harf ..... 55

#### Grafika

14-dars. O‘zbek yozuvi tarixi ..... 57  
15-dars. Hozirgi alifboda unlilarning ifodalanishi ..... 60  
Hozirgi alifboda undoshlarning ifodalanishi ..... 62  
16-dars. Undoshlarning talaffuzi va yozilishi ..... 64  
17-dars. Assimilatsiya, dissimilatsiya, jarangsizlashish,  
metateza va boshqa fonetik hodisalar ..... 66  
So‘z boshi, so‘z o‘rtasi va oxirida undoshlarning  
ishlatilishi, ularning imlosi ..... 68

## **Ohang**

18-dars. Ohang va uning nutqdagi ahamiyati .....	76
Urg'u va uning nutqdagi ahamiyati .....	76
Bo'g'in va uning turlari .....	80

## **Orfografiya va punktuatsiya**

19-dars. O'zbek tilining yangi imlo qoidalari .....	82
Unlilar imlosi .....	83
Undoshlar imlosi .....	83
20-dars. Asos va qo'shimchalar imlosi .....	85
21-dars. Qo'shib yozish va ajratib yozish .....	87
22-dars. Bosh harflar imlosi .....	89
23-dars. Chiziqcha bilan yozish va ko'chirish qoidalari .....	90
24-dars. Nuqta, vergul va ularning qo'llanilishi .....	92
25-dars. So'roq va undov belgilari, ularning qo'llanilishi .....	96
26-dars. Qavs, ko'p nuqta va ularning qo'llanilishi .....	100
27-dars. Tire, qo'shtirnoq va ularning qo'llanilishi .....	103
28-dars. Ikki nuqta, nuqtali vergul va ularning qo'llanilish o'rinnlari .....	108

## **Morfemika**

29-dars. So'zlarning morfem tarkibi .....	114
Yetakchi morfema .....	116
30-dars. Ko'makchi morfemalar (qo'shimchalar) .....	119
31-dars. Morfemalarning agglutinativ tabiatи .....	124
32-dars. Old qo'shimchalar va ularning xususiyatlari .....	127
33-dars. Qo'shimchalarda shakldoshlik .....	129
Qo'shimchalar ma'nodoshligi .....	131
Qo'shimchalarda zid ma'nolilik .....	132
Nutqda bir asosli so'zlardan foydalanish .....	134

## **So'z yasalishi**

34-dars. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot .....	136
So'z yasalishining tuzilishi .....	137
35-dars. So'z yasalishi usullari .....	140
36-dars. So'z yasash jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar .....	143

## **Insho nazariyasi va amaliyoti**

37-dars. Insho haqida umumiy ma'lumot .....	145
Inshoning xomaki nusxasini tayyorlash uchun tavsiyalar ....	145

<i>38-dars.</i> Insho yozish uchun asosiy yo‘l-yo‘riqlar .....	146
<i>39-dars.</i> Insho rejasи va unga qо‘yiladigan asosiy talablar .....	148
Sodda ko‘rinishdagi reja namunalari .....	148
Murakkab ko‘rinishdagi reja namunalari .....	150
Inshoga epigraf tanlash .....	153
<i>40-dars.</i> Inshoning asosiy matni ustida ishslash .....	153
Inshoni baholash metodлari .....	156

## 2 - k i t o b

<i>1-dars.</i> O‘tilganlarni takrorlash .....	158
<i>2-dars.</i> Adabiy til haqida ma’lumot. Adabiy til shakllari .....	170
<i>3-dars.</i> Leksikologiya. So‘z va leksema .....	180
<i>4-dars.</i> Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. Ko‘chma ma’nolar va ularning turlari .....	188
<i>5-dars.</i> Metafora va metonimiya hamda ularning uslubiy xususiyatlari .....	193
<i>6-dars.</i> Sinekdoxa va vazifadoshlik hamda ularning uslubiyati .....	198
<i>7-dars.</i> Atama va atamashunoslik. Atamashunoslik muammolari .....	201
<i>8-dars.</i> O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari .....	207
<i>9-dars.</i> Qo‘llanilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so‘zlar. Nomshunoslik .....	216
<i>10-dars.</i> Omonim va sinonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari .....	224
<i>11-dars.</i> Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari. Takrorlash ..	232
<i>12-dars.</i> Barqaror birikmalar .....	234
<i>13-dars.</i> Maqol va matallar .....	240
<i>14-dars.</i> Hikmatli so‘zlar (aforizmlar). Takrorlash .....	245
<i>15-dars.</i> O‘zbek leksikografiyasi (lug‘atshunosligi). Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar va ulardan foydalanish .....	249
<i>16-dars.</i> Filologik lug‘atlar va ularning tiplari .....	253
<i>17-dars.</i> Imlo lug‘ati va etimologik lug‘at hamda undan foydalanish .....	257
<i>18-dars.</i> Uslubiyat .....	261
<i>19-dars.</i> Publitsistik va badiiy uslub .....	266
<i>20-dars.</i> Rasmiy va ilmiy uslub .....	273
<i>21-dars.</i> Morfologiya va uning o‘rganish obyekti. So‘z turkumlari ..	279
<i>22-dars.</i> Ot va uning uslubiy xususiyatlari .....	287
<i>23-dars.</i> Sifat va uning uslubiyati .....	303

<b>24-dars.</b> Sifat darajalari va sifat yasovchi qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari .....	309
<b>25-dars.</b> Son va uning uslubiy xususiyatlari .....	320
<b>26-dars.</b> Son va o'Ichov so'zlar. Sonlarning uslubiy xususiyatlari .....	325
<b>27-dars.</b> Olmoshlarning ma'no xususiyatlari .....	331
<b>28-dars.</b> Kelishik va egalik shakllari hamda ularning uslubiy xususiyatlari .....	336
<b>29-dars.</b> Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari .....	345
<b>30-dars.</b> Nisbat va mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari .....	350
<b>31-dars.</b> Shaxs-son va zamon qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari .....	358
<b>32-dars.</b> Fe'llarning yasalishi .....	370
<b>33-dars.</b> Ko'makchi fe'llar va ularning vazifalari. Bo'lishli va bo'lishsizlik shakllarining uslubiy xususiyatlari .....	375
<b>34-dars.</b> Ravishlarning uslubiy xususiyatlari .....	382
<b>35-dars.</b> Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	391
<b>36-dars.</b> Bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	398
<b>37-dars.</b> Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	404
<b>38-dars.</b> Undov, taqlid, modal so'zlar va ularning uslubiyati .....	410
<b>39-dars.</b> So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda va qo'shma so'zlar, ularning uslubiyati .....	417
<b>40-dars.</b> Juft va takroriy so'zlar hamda ularning sinonimiysi. Qisqartma so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	420

### 3 - kitob

<b>1-dars.</b> Fonetika va leksikologiya yuzasidan o'tilganlarni takrorlash ....	428
<b>2-dars.</b> Morfologiya yuzasidan o'tilganlarni takrorlash .....	434
<b>3-dars.</b> Gap va uning grammatik belgilari .....	442
<b>4-dars.</b> Gapda so'zlarning bog'lanishi .....	446
<b>5-dars.</b> Tobe bog'lanish. Tobe bog'lanishning tuzilishi. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka bog'lanish yo'llari .....	450
<b>6-dars.</b> So'z birikmasi .....	455
<b>7-dars.</b> Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalarini yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi va ularning sinonimiysi .....	459
<b>8-dars.</b> Qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi.	462
<b>9-dars.</b> Gap bo'laklari .....	467
<b>10-dars.</b> Kesim va uning ifodalananishi .....	470

<i>11-dars.</i> Ega va kesimning moslashuvi .....	476
<i>12-dars.</i> To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi .....	479
<i>13-dars.</i> Hol va uning ifodalanishi .....	485
<i>14-dars.</i> Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi aniqlovchi .....	490
<i>15-dars.</i> Qaratqich aniqlovchi. Izohlovchi aniqlovchi .....	493
<i>16-dars.</i> Uyushiq bo‘lakli gaplar .....	498
<i>17-dars.</i> Uyushgan bo‘laklarning shakkllari va ularda teng bog‘lovchilarning qo‘llanilishi .....	500
<i>18-dars.</i> Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlarining qo‘llanilishi .....	508
<i>19-dars.</i> Ajratilgan bo‘lakli gaplar .....	511
<i>20-dars.</i> Tartibini o‘zgartirish orqali gap bo‘laklarini ajratish .....	513
<i>21-dars.</i> Izohlash orqali gap bo‘laklarini ajratish .....	515
<i>22-dars.</i> Undalmalni murakkablashgan gaplar .....	517
<i>23-dars.</i> Undalmalnarning undov so‘z va egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi hamda ularning uslubiyati .....	520
<i>24-dars.</i> Kirish so‘zlar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	523
<i>25-dars.</i> Kiritmalar va ularning uslubiy xossalari .....	527
<i>26-dars.</i> Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	528
<i>27-dars.</i> Buyruq hamda istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	532
<i>28-dars.</i> So‘roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	536
<i>29-dars.</i> Gaplarning his-hayajon ishtirotiga ko‘ra turlari .....	539
<i>30-dars.</i> Sodda gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Gap bo‘laklarining tartibi .....	541
<i>31-dars.</i> Qo‘shma gaplar .....	547
<i>32-dars.</i> Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar va qo‘shma gap turlari .....	551
<i>33-dars.</i> Qismlari ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar .....	554
<i>34-dars.</i> Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar va ularning tasnifi .....	561
<i>35-dars.</i> Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar bilan sodda gaplar sinonimiysi .....	565
<i>36-dars.</i> Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar va ularning tasnifi .....	567
<i>37-dars.</i> Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar bilan sodda gaplar sinonimiysi .....	569
<i>38-dars.</i> Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar uslubiyati .....	572
<i>39-dars.</i> Matn — eng yirik sintaktik birlik .....	578
<i>40-dars.</i> O‘tilganlarni takrorlash .....	580
<i>Ilova.</i> «Fonetika» bo‘limiga doir qiziqarli grammatik topshiriqlar .....	583

A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. MAHMUDOV,  
N. QOSIMOVA, SH. YUSUPOVA

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

1, 2, 3-kitoblar

*Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining  
I, II, III bosqich talabalari uchun darslik*

Toshkent – «ILM ZIYO» – 2013

Muharrir *I. Usmonov*  
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*  
Texnik muharrir *F. Samatov*  
Musahhih *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.  
2013-yil 19-martda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi  $60 \times 90 \text{ } '/_{16}$ .  
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 37,0.  
Nashr tabog'i 35,0. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 3.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Sharhnomha № 03 — 2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**N-71 JAMOA. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar.**  
(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining  
I, II, III bosqich talabalari uchun darslik.)  
— T.: «ILM ZIYO», 2013. — 592 b.

1. Nurmonov A. va boshq.

UO‘K 811.512.133  
KBK 81.2 O‘zb

ISBN 978-9943-16-130-6